
Hashoratlarning xilma-xilligi va zararkunanda hasharotlar

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 202-guruh talablari Ergasheva Zulfiyabonu Zulinbek qizi**
Tursunova Nasibaxon
Kozimova Mavluda A’zamjon qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada hashoratlarning xilma-xilligi, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbekiston hududidagi zararkunanda hasharotlar haqida ma’lumotlar.

Kalit so‘zlar: Trixogramma, oltin kuz, xonqizi, gabrobrakon.

Kirish. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini yanada jadal rivojlanishida o‘simgulkarni turli xil zararli organizmlardan atrof muhitga zarar etkazmagan holda himoyalash muhim o‘rin egallaydi. Bu muammo o‘simgulkarning biologik himoya qilishni zararkunandalarining tabiiy kushandalarini chuqurroq o‘rganishni taqozo qiladi. Hashoratlar deganda ko‘pincha zararkunanda hashoratlar tushuniladi. Aslida mutaxssislarning aniqlashicha hashoratlarning 99 % i foydali bo‘lib, faqat 1 % gina zararkunanda holos. Zararkunanda hashoratlar hosildorlikni 25-30 % ga kamaytirishh mumkin. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida turli xil agrotexnik tadbirlardan tashqari zararkunandalardan himoya qilish uchun ham chora-tadbirlar ishlab chiqarilgan. Keyingi yillarda entomofoglarni xona sharoitida sun’iy ozuqa jihatida ko‘paytirib, keyin daladagi zararkunandaga qarshi qo‘yib yuborish usuli keng qo‘llanilmoqda.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlarini biologik himoya qilishda keng qo‘llanilayotgan entomofoglardan: to‘r qanotlilar (Neuroptera) turkumi oltinko‘zlar (Chrysopidae) oilasi vakillaridan oddiy oltinko‘z (Chrisopcarnea Steph), tirxogarmma (Trichogramma) avlodiga mansub hashoratlar, gabrobrakonlar kiradi. Ularning qulay tomoni shundan iboratki ularni yil davomida maxsus laboratoriya sharoitida ko‘paytirish mumkin.

Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashuvchi hashorat turlari
Trixogrammalar (Trichogrammatidae) oilasi Oddiy trixogramma – Tr. evanescens Westw. Tanasi och kulrangdan tortib, qora ranggacha bo‘lib, kattaligi 0,32 – 0,36 mm keladi. Ular O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Juda ham ko‘pxo‘r. Dala

sharoitida makkajuxori, qand lavlagi, go‘za, nuxat kabi dala maydonlarida uchraydi. Tabiiy sharoitda ko‘proq tunlamlar tuxumida taraqqiy etadi. Asosan tunlam kapalaklarining tuxumlarini zararlaydi Trixogramma ko‘k qurt, karam qurti kapalaklari rivojlanishi bilan bir vaqtida rivojlanmaydi. Bu esa uning samaradorligini chegaralaydi. Trixogrammaning urgochisi yaxshi ucha olmaydi, qanotlari nozik bo‘ladi, erkaklarining qanotlari yoq. Shu sababli u tabiatda tunlamlar tuxumlarining odatda 1-10% nigina zararlaydi. Bitta urg‘ochi trixogramma hammasi bo‘lib 40-80 ta tuxum qo‘yadi va kapalakning 20-40 ta tuxumini zararlaydi. Trixogrammaning rivojlanishi va hayot faoliyati uchun temperatura +170S - +300C va havoning nisbiy namligi 55-95% bo‘lishi kerak. O‘zbekistonning dala maydonlarida 14-15 marta bo‘g‘in berib urchiydi. Oddiy trixogramma 80 dan ortiq zararkunanda kapalak turlarining tuxumida parazitlik qilishi mumkin. Trixogrammaning urgochi zotlari ko‘p (75-90%) bo‘ladi. Oddiy tirxogramma ko‘pxo‘r bo‘lib, mahalliy sharoitda uchrovchi formalari shu sharoitda yashovchi xo‘jayin hasharotlarga ham moslashishi mumkin. Zararkunanda kapalaklarga qarshi kurash maqsadida trixogramma maxsus biolaboratoriyalarda ko‘paytiriladi va ular ekin maydonlariga bir mavsumda 2-3 marta tarqatiladi. Har gettar yerga 20000–50 000 urgochi trixogramma tarqatiladi, ular zararkunandaning 60-95 % ni yo‘qotadi.

Oltin ko‘z (Chrysopidae) – To‘rqnanoqlilar (Neuroptera) turkumiga mansub bo‘lgan hasharotlar hisoblanadi. Voyaga yetgan hasharot o‘rtacha kattalikda bo‘lib yumshoq, nozik, yashil, ko‘zlari oltinsimon yaltiroq, muylablari ipsimon, ikkala juft qanotlari bir hilda taraqqiy etgan. Oltinko‘z deyarli kunduzi uchmaydi, lekin kechqurunlari chiroq yorug‘iga ko‘plab uchib keladi. Lichinkalari cho‘ziq, dugsimon, ust va yon tamonlari bo‘rtmachalarida to‘planishib o‘rnashgan tuklar bor. Lichinkalari ayniksa juda och bo‘ladi, ular har xil o‘simlik shira bitlari, kapalaklarning yosh qurtchalari va o‘rgimchakkanalarni kirib yeydi. Tuxum tuzulishi uzun va ingichka bandli bo‘ladi. Tuxum bandi yopishib, tikka joylashadi.

Xonkizi (Cocinellf septempunctata) qattiqqanotlilar turkumi mansub. Tanasi yumaloqlashgan va yelka qismi qavariq. Kattaligi 8 mmgacha. Tanasi to‘k qizil rangli bo‘lib, 7tadan qora nuqtalari bor. Qanotining osti va qorin qismi qora. Bosh qismi kichik bo‘lib, ko‘krak-qorin qismiga kuchli qo‘shilib ketgan. Tanasida 4juft oyoqlari bo‘lib, ohirgi 4chi jufti ko‘rinmaydi, chunki juda kalta. Oyoqlarining bog‘inlarida maxsus teshik poralari bo‘lib, havf tug‘ilganda to‘q sariq rangli ishqoriy gemolimfa suyukligi chiqaradi. Ular asosan, Evropa, Osiyo, Shimoliy Afrikada keng

tarqalgan. O‘rta Osiyo xonqizilari 2700m balandlikkacha bo‘lgan tog‘ zonalarida toshlar ostida tuplanib qishlaydi. Bahorda uchib chiqib ekinzorlarga, bog‘larga keladi. Oziq yetarli bo‘lganda urg‘ochilar shuncha serpusht bo‘ladi va ular 200-400 tagacha tuxum qo‘yadi. O‘simlik tanasiga qo‘yilgan tuxumlaridan juda serharakat lichinka chiqadi. To‘q rangli qizil dog‘lari bo‘lgan bu lichinkalar rivojlanish stadiyasi davomida 1000 ta shiralarni yeydi. Bir sutkada kunduzi 60-100 shira bitlari va 300 tagacha lichinkalarini yeb tugatadi. Voyaga yetgan formalar shiralar, oqqanotlar, o‘rgimchakkana bilan oziqlanadi.

Gabrobrakon (Habrobrocon hebetor Say) – pardaganotlilar turkumi, yaydoqchi brakonidlar oilasiga mansub hasharotdir. Yetuk hasharot och sarg‘ich rangli 2-3mm, yozgi bo‘g‘in zotlari rangliroq, bahorgi va kuzgilari qoramtilroq. Mo‘ylablari yo‘g‘onroq, bosh va ko‘krak uzunligidan kaltaroq. Ular tuxumlarini o‘lja qurtlari tanasiga qo‘yadi. Gabrobrakon tashqi parazit. U ko‘sak qurtiga 2-16 tagacha tuxumini qo‘yadi. Bir urg‘ochi 10-100 tagacha tuxum qo‘yishi mumkin. Lichinkasi oyoqsiz, jag‘lari o‘roqsimon.

Zararkunanda hasharotlarning turlari va zararli belgilari

O‘simliklar zararkunandalari — madaniy o‘simliklarni zararlaydigan yoki ularni nobud qiladigan jonivorlar. Umurtqali hayvonlarning sut emizuvchilar sinfi, ayniqsa, kemiruvchilar turkumiga mansub O‘simliklar zararkunandalari ko‘p. Umurtqasiz hayvonlardan qorinoyoqli mollyuskalarning ayrim turlari, nematodalar sinfidan yumaloq chuvalchanglarning ko‘pchiligi o‘simliklarni zararlaydi. Bo‘g‘imoyoqlilardan hasharotlar sinfi, o‘rgimchaksimonlar sinfi (kanalar), ko‘poyokdilar sinfining ba’zi turlari hamda qisqichbaqasimonlar (eshakqurt)ga mansub turlituman va juda ko‘p O‘simliklar zararkunandalari turlari bor. Hasharotlar, ayniqsa, hosilga ko‘proq zarar yetkazadi. Ularning 60 mingdan ortiq o‘simlikxo‘r turi ma’lum, shu jumladan, 4 mingga yaqin turi madaniy o‘simliklarga zarar yetkazadi, mahsulotlarni buzadi va h.k.

Qishloq xo‘jaligi uchun zararli hasharotlar sistematik tamoyil (turkumlar bo‘yicha) hamda oziqlanish xarakteri bo‘yicha tasniflanadi. O‘simlikxo‘r hasharotlar va kanalar turli oilalarga mansub o‘simliklar bilan oziqlanadigan hammaxo‘r hasharotlar — polifaglarga; bir oilaga mansub har xil turdag'i o‘simliklar bilan oziqlanadigan hasharotlar — oligofaglarga; faqat bir turdag'i o‘simliklar bilan oziqlanadigan hasharotlar — monofaglarga bo‘linadi. Turli ekinlar hosiliga hammaxo‘r zararkunandalari: chigirtkasimonlar, ba’zi chirildoqlar, qo‘ng‘izlardan

qirsildoq (simqurtlar), qora qo‘ng‘izlar (soxta simqurtlar) va boshqalar, kapalaklardan kuzgi tunlam, g‘o‘za tunlami, karadrina va boshqalar katta zarar keltiradi. Bir oilaga mansub har xil turdag'i o‘simpliklar bilan oziqlanadigan hasharotlar ham ko‘philikni tashkil etadi. Bularga shved pashshasi, gessen pashshasi va boshqalar kirib, faqat boshoqli o‘simpliklar bilan oziqlanadi. Karamguldoshlarga mansub o‘simpliklar bilan oziqlanadigan hasharot turlari ham ko‘p. Bularga karam oq kapalagi, karam kuyasi, karam pashshasi va boshqalar kiradi. Faqat bir turdag'i o‘simpliklar bilan oziqlanadigan hasharotlardan filloksera (tokning asosiy zararqunandasi), beda barg filchasi (fitonomus) va boshqalar xavfli zararkunandalardan hisoblanadi. Zararkunanda hasharotlar va kanalar ular zararlaydigan o‘simplik guruhlari bo‘yicha ham tasniflanadi. Mas, boshoqlilar zararkunandalari, g‘o‘za zararkunandalari (200 dan ortiq turi bor), bog‘ zararkunandalari, sabzavot ekinlari zararkunandalari va h.k.

O‘simpliklar zararlanishining asosiy ikki turi farqlanadi: birinchisi — og‘iz organlari kemiruvchi, ikkinchisi sanchibso‘rvuchi hasharotlarga xos. Kemiruvchi hasharotlar o‘simplikning turli organlarini, to‘qimalarini kemiradi. Sanchibso‘rvuchi hasharotlar, mas, o‘simplik bitlari, kanalar va boshqalar o‘simplik shirasi bilan oziqlanadi. O‘simpliklar zararkunandalari oziqlanishida o‘simplikning ma’lum organlariga o‘rgangan bo‘ladi. Shuning uchun ham ildiz, poya, barg, meva, gul va boshqalar organlar zararkunandalari guruhlari farklanadi.

O‘simpliklar zararkunandalari tarqalishi va turlar kompleksining shakllanishi tashqi muhitning o‘zgaruvchanligi hamda turlarning ekologik moslashuvi bilan uzviy bog‘liq. Har bir tur o‘zi uchun qulay hududga joylashadi.

Hasharot va kanalarning rivojlanishi hamda ko‘payishi uchun temperatura sharoiti muhim ahamiyatga ega. Har bir tur uchun ma’lum temperatura rejimi zarur. Sutkalik o‘rtacha samarali temperatura yig‘indisiga qarab hasharotlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, mavsumda nasl berishini taxminan aniqlash mumkin. O‘simpliklar zararkunandalarining embrional va postembrional rivojlanishi, odatda, yuqori trada tezlashadi. Mas, beda barg filchasi $17,6^{\circ}$ da $56, 21,2^{\circ}$ da $34, 22^{\circ}$ da 31 kunda rivojlanadi.

Rivojlanishi tuproq bilan bog‘liq bo‘lgan hasharotlar uchun tuproqning kimyoviy tarkibi, kislotaliligi, aeratsiyasi, namligi katta ahamiyatga ega. Agrotexnika tadbirlari (tuproqni ishslash, o‘g‘it solish va boshqalar) yordamida zararkunanda hasharotlar uchun noqulay sharoityaratish mumkin. Mas, nordon

tuproqlar ohaklanganda qirsildoq qo‘ng‘izlar rivojlnana olmaydi. O‘simliklar zararkunandalarining boshqa hayvon organizmlari bilan o‘zaro bog‘liqligi ham ularning rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mas, o‘simlik bitlari o‘simlik shirasi bilan oziqlanadi, ular ajratgan shira chumoli, yaydoqchi va ba’zi pashshalar uchun oziq hisoblanadi. O‘simlik bitlari bilan yirtqich hasharotlar (qo‘ngizlar, vizildoq pashsha lichinkalari va boshqalar), ular bilan turli hasharotxo‘r qushlar, bular bilan esa turli yirtqich qushlar oziqlanadi.

O‘simliklar zararkunandalarining ko‘payishida oziqning ko‘pligi va tarkibi, obhavo sharoiti, yirtqichlar, parazitlar, kasalliklar ta’siri va boshqalar muhim rol o‘ynaydi. Bir joyda muttasil bir xil ekin ekish (yakka ziroatchilik) shu o‘simlik bilan oziqlanadigan zararkunandalarning ko‘payib ketishi uchun qulay sharoit yaratadi. Mas, eski bedapoyalarning o‘z vaqtida haydalmasligi ularda beda barg filchasining ko‘payib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘simliklarni zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda fenologik kuzatish (qarang [Fenologiya]) muhim ahamiyatga ega (qarang O‘simliklarni himoya qilish).

Xulosa: Demak, entomofag hasharotlar doimo zararkunanda hasharotlarning miqdor zichligiga ta’sir ko‘rsatadi. Ularning soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, zararkunandalarning soni ham shunchalik kamayib boradi. Har bir tuman va qishloqlarda biolaboratoriyalarda ish faoliyatini rivojlantirishimiz kerak. Ayrim chekka qishloqlarda biolaboratoriylar mavjud emas yoki ishlamaydi. Hozirda ayrim biolaboratoriylar xususiylashtirilgan. Tabiat barchamizning umumiyligini yuymizdir.

Foydali xashoratlarning tabiat va inson uchun ahamiyati beqiyos ekan, ularni muhofaza qilish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Dadayev, O. Mavlonov. “Zoologiya” Toshkent. “IQTISOD-MOLIYA”. 2008
2. B.S. Salimov. A.S.Daminov. “Zoologiya” Toshkent. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2012
3. https://uzpedia.uz/pedia/reptiliyalar_nima
4. S.Dadayev,Q.Saparov. “Umurtqalilar zoologiyasi” (2-qism) “Turon –iqbol” nashriyoti Toshkent – 2019
5. O. Mavlonov “BIOLOGIYA (ZOOLOGIYA)” (Umumiyligida o‘rtalama maktablarining 7-sinfi uchun darslik).



К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ МЕТОДОВ ИНТЕНСИВНОГО ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В МУЗЫКАЛЬНОМ ВУЗЕ

Нурматова С.Х.

к.ф.н., доцент

Узбекский национальный институт
музыкального искусства им. Ю. Раджаби

Аннотация

В статье представлен опыт использования методов интенсивного обучения на занятиях по русскому языку в музыкальном вузе. Их использование способствует деловому общению, обеспечивает мыслительную активность, речевую компетенцию, лингвистические навыки студентов, содействует сплочению коллектива и создает условия для творчества.

Ключевые слова: методы интенсивного обучения, речевая компетенция, компьютерные технологии.

Annotation

The article presents the experience of using intensive teaching methods in Russian language classes at a music institute. Their use promotes business communication, ensures mental activity, speech competence, linguistic skills of students, promotes team unity and creates conditions for creativity.

The key words: intensive training methods, speech competence, computer technologies.

В Узбекистане придается важное значение изучению иностранных языков, в том числе русского языка в высших учебных заведениях. В этом плане принят ряд постановлений Президента и правительства¹, направленных на организацию обучения востребованным иностранным языкам на основе

¹ См. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан»// https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/izuchenie_inostrannyh_yazykov_podnimut_na_novyy_uroven; постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 января 2022 года № 34 «О дополнительных мерах по совершенствованию изучения иностранных языков».



пожеланий студентов. В Узбекском национальном институте музыкального искусства им. Ю.Раджаби группы по изучению русского языка сформированы по желанию обучающихся здесь студентов.

Учебный процесс на занятиях русского языка строится таким образом, чтобы за короткий срок обучения русскому языку в музыкальном вузе были решены учебные задачи на основе использования интерактивных методов обучения, предусматривающих формирование у обучающихся речевой компетенции, развитие навыков использования русского языка в профессиональной деятельности.

Формирование компетентности студентов несомненно определяются современными педагогическими технологиями и интерактивными методами обучения. Что они представляют собой?

Современные педагогические технологии преподавания иностранных языков, в том числе русского языка характеризуются разнообразием видов, охватывающих информационно–коммуникационную технологию, технологию критического мышления, «мозгового штурма», технологию проблемного обучения, игровой технологии, кейс-технологии и др.

При этом преподавателю важно использовать, в первую очередь, стратегию интерактивного метода и разработать проект технологии учебного процесса. Другими словами, интерактивный метод обучения – это форма взаимодействия преподавателя и студента с учебным процессом. То есть существует тройственная связь обучения, преподавателя и студента. С точки зрения методики преподавания можно выделить три группы методов обучения:

1. Неактивный метод.
2. Активный метод.
3. Интерактивный метод

Каждый из указанных методологических подходов имеет свои особенности. Однако в основном при изучении иностранных языков используются интерактивные методы: «Синквей», «Зигзаг», «Кластер», «Инсерт», «Мозговой штурм», «Ролевая игра».

Все эти методы направлены на реализацию коммуникативного подхода в обучении студентов русскому языку, что является распространенным в настоящее время. Цели каждого занятия по русскому языку в вузе заключается

в развитии коммуникативных способностей студентов. При этом уделяется внимание всем компонентам коммуникативной компетенции (грамматика, коммуникативный, функциональный, социолингвистический и стратегический аспекты). Актуальным вопросом является также ведение контрольно-рейтингового журнала, предусматривающего оценочные характеристики каждого студента.

В результате усвоения учебного материала каждый студент должен приобрести практические навыки письменной и разговорной речи на русском языке.

Среди интенсивных методов обучения использование ИКТ (информационных и коммуникационных технологий) непосредственно определяется возможностями Интернета и подразумевает его интерактивное использование в учебном процессе при обучении русскому языку студентов вузов. Интерес студентов к изучению русского языка благодаря компьютеризации учебного процесса и развитию инструментов Интернета обеспечивает доступ ко всем различным видам информации и служит эффективным средством обучения. Интернет является надежным и постоянно обновляемым источником материалов общего и специального характера, очень важных для студентов.

В последнее время все большее внимание уделяется самостоятельной работе студентов при изучении русского языка, а также развитию коммуникативного аспекта учебного процесса, что является специфической особенностью занятий русского языка в музыкальном вузе. При этом эффективно используются онлайн технологии обучения.

В самостоятельной работе по укреплению учебного материала студенты эффективно используют возможности Интернета, который является набором огромного справочного и наглядного схематического материала, что можно в различных целях применять при помощи поисковых систем. При этом акцент делается на усвоение студентами учебного материала путем чтения, аудирования, письменной и устной речи. Все это обеспечивает комплексный подход при усвоении изученного материала.

Кроме того, немаловажным является компьютерные навыки студентов. При этом помощь преподавателя проявляется при групповой работе на занятиях русского языка, когда осуществляются планирование с участием всех

студентов группы, акцентирование внимание обучающихся на лингвистических аспектах компьютерных текстов на русском языке, оказание практической помощи студентам в разработке индивидуального подхода при изучении и закреплении учебного материала по русском языку, что, несомненно, способствует обеспечению системной самостоятельной работы студентов. Тем самым, все зависит от творческого подхода преподавателя и поиска эффективных способов применения компьютерных технологий. Например, использование возможностей Интернета при обучении навыкам чтения на русском языке при решения учебных целей. Студенты должны изучить различные ресурсы и выполнить некоторые задачи. Задачи предусматривают поиск фактической информации, сравнение, описание и составление краткого резюме.

Интернет может служить хорошим учебным материалом для закрепления грамматического материала в форме картинок, викторин, звуков, музыки и фильмов. Занятия с помощью Интернета могут также дополнять изучение лексикологии русского языка в индивидуальном темпе студента в качестве самостоятельной работы. В Интернете есть такие сайты, которые предоставляют такую возможность. Студенты могут закреплять учебный материал, улучшать восприятие на слух и чтение, а также словарный запас.

Большинство студентов активно используют Интернет для изучения русского языка. Обучение с помощью Интернета способствует независимости студентов посредством таких действий, как межличностный обмен, сбор и анализ информации. Основным преимуществом использования Интернета на занятиях по русскому языку является широкий спектр интерактивных действий, которые позволяют стимулировать самостоятельное обучение. Общее отношение студентов к изучению русского языка в Интернете является положительным.

В настоящее время внедрение персонального компьютера, технологии мультимедиа и глобальной информационной компьютерной сети Интернет влияет на систему образования, вызывая значительные изменения в содержании и методах обучения русскому языку. Перед преподавателем русского языка всегда стоит проблема поиска нового педагогического инструмента. В своей педагогической деятельности мы пришли к выводу, что в современных условиях, учитывая большую и



серьезную заинтересованность студентов в информационных технологиях, можно использовать эту возможность в качестве важного инструмента развития мотивации на занятиях русского языка. Это обеспечивает успешную работу в Интернете, развивает чтение студентами языковых текстов, умелое использование ими информационно-грамматических материалов при изучении русского языка.

Таким образом, учебный процесс по русскому языку для студентов музыкальных вузов в настоящее время невозможно представить без широкого использования современных методов интенсивного обучения. Это, в свою очередь, требует от преподавателей и от студентов необходимых навыков компьютерной грамотности.

Использованная литература:

1. Использование педагогических технологий в учебном процессе// «Образование и наука в XXI веке». – С. 303-311.
2. Конышева М.И. Игровые технологии как средство профессиональной подготовки будущего специалиста//Образование в высшей школе: проблемы и перспективы развития. Материалы Межвузовской научно-практической конференции. 2016. –С. 56-61.
3. Современные технологии в учебно-воспитательном процессе. – Т.: Фан, 2009. -280 с.
4. Якобсон П.М. Общение как социально-психологическая проблема. М., 2003. – С. 184.
5. <https://infourok.ru/rol-integracii-uchebnoy-i-vneuchebnoy-deyatelnosti-pri-obuchenii-inostrannomu-yaziku-633016.html>

**Research Science and
Innovation House**

BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ilmiy rahbar: D.R.Shabbazova

Irgashev Shavkat Kulto‘rayevich

Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda matematika darslarida axborot texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlanirish metodikasi haqida ma’lumotlar keltirgan.

Kalit so‘zlar: “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, Sinkveyn metodi, BBB metodi, “Beshinchisi (oltinchisi,...) ortiqcha metodi, 6*6*6 metodi, Bahs-munozara, Rolli o‘yin, FSMU metodi, mustaqil o‘rganish.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish dars mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va kreativ, mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol va zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundankunga ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday ekanligining sabablaridan biri, shu kungacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanirishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, Sinkveyn, BBB, “Beshinchisi (oltinchisi,...) ortiqcha, 6*6*6, Bahs-munozara, Rolli o‘yin, FSMU kabi metodlar, pedagogik texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Shuning uchun umum ta’lim maktablarida malakali kasb egalarini tayyorlash, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodkorlikka o‘rgatishda zamonaviy yondashish-innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli

nihoyatda katta. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid malaka va interfaol metodlar o‘quvchilarni bilimli, yuqori kompetensiyaga erishishlarini ta’minlaydi. Ta’kidlash joizki, o‘quvchi yoshlarga zamon talablari darajasida bilim beruvchi pedagog, avvalo, o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi va ularni amaliyotga tatbiq eta olishi kerak. Matematika o‘qitishda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash, axborotlarni tahlil etish, ular ustida ishslash, yechim topa olish yo‘llarini qidirish, mulohaza yuritishga qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan savodli shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Matematika juda murakkab fan bo‘lib, har bir o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar tomonidan ushbu fanning asoslarini to‘liq o‘zlashtirishdir. Matematika darslarida aqliy yuklamaning ortishi o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialga qiziqishini, butun dars davomida faolligini qanday saqlab qolish haqida o‘ylashga majbur qiladi. O‘qituvchi oldida matematikani o‘qitishning maksimal samaradorligini ta’minlash uchun o‘qitish vositalari va usullarini tanlash masalasi turibdi. Ayni paytda maktablar zamonaviy kompyuterlar, interaktiv jihozlar, elektron resurslar, internet tarmog‘i bilan ta’minlangan. Bu esa maktab o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalariga tobora ko‘proq qaram bo‘lib borayotgan dunyoda talabalar va o‘qituvchilar ularni yaxshi bilishlari kerak. O‘qituvchi esa o‘z o‘quvchilari, ularning kelajagi haqida qayg‘ursa, ularga yangi hayotiy ko‘nikmalarni egallahsga yordam berishi kerak. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga, o‘quvchilarning bilim faolligini faollashtirishga, o‘quvchilar konstruktorlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda fikrlash, matematik mantiq, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, mustaqil bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy ustunligidan kelib chiqadigan yana bir muhim ahamiyati shundaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinf matematika darslarida integratsion tarzda amalga oshirilishi natijasida o‘quvchi yoshlari ta’lim mazmunini chuqur anglab, berilgan vazifalarni to‘liq mustaqil bajarishiga, masofaviy ta’lim olishga, xalqaro ta’lim tizimlarini kuzatib borishga imkon va turtki bo‘ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘qituvchidan anchagina mehnat ham talab qilsa-da, ammo yuqori natija beradi va o‘qituvchiga qulay, tezkor ishslash imkonini yaratib beradi. Shunday qilib, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish zamonaviy ta’limga tegishli muammo

hisoblanadi. Bugungi kunda har qanday maktab intizomi bo'yicha o'qituvchi AKT dan foydalangan holda dars tayyorlash va o'tkazishi zarur. AKT dan foydalilanilgan dars ko'rgazmali, rang-barang, ma'lumotli, interaktiv bo'lib, o'qituvchi va o'quvchining vaqtini tejaydi, o'quvchiga o'z tezligida ishlashga imkon beradi, o'qituvchiga o'quvchi bilan har xil va individual ravishda ishlashga imkon beradi, o'quv natijalarini tezkor kuzatib borish va baholash imkoniyatini yaratadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.–Toshkent:Nizomiy nomidagi TDPU, 2016.
2. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Хакимова М.Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения.–2016.–No. 50-2.–C.58-62.
3. Касимов Ф.М., Касимова М.М., Умарова Г.У. Учебные задачи как средство активизации и учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методики и практика. –2015.–No. 19.–C.54-60.
4. Qosimov F.M., Qosimova M.M. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi.–Buxoro, 2016.
5. Qosimov M. F., Kasimov F.F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin.–2021.–T. 11.
6. Rayxonov S., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish.–2017.
7. Saidova G.E. “BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING O‘QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH”. Conferencea(2023):33-37.

**Research Science and
Innovation House**



O'RTA OSIYO XONLIKARIDA ELCHILIK XIZMAT

Ilmiy rahbar: t.f.d. (PhD) **D.Yangiboyeva**

Yakubova Nazira Nomozovna

TerDU, Tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyo xonliklari orasidagi elchilik xizmati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Moskva, Hindiston, A.Jenkinson, S.V.Jukovskiy, Buxoro xonligi, Y.A.Sokolov, Xiva xonligi, Ivan IV,

G’arbda kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi Yevropa davlatlarining Sharq davlatlariga yaqinlashuviga sabab bo‘ldi. Jumladan, ingliz savdo kompaniyasining vakili A.Jenkinsonning O‘rta Osiyoga yuborilishi (XVI asr) bu harakatning yaqqol isboti edi. A.Jenkinson sayohatining maqsad va vazifalari tarixchilar tomonidan bir qadar o‘rganilgan. Y.A.Sokolov, “Moskva kompaniya”sining asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, Hindistonga Rossiya Sharq bilan savdo aloqalari olib borgan yo‘llari orqali kirib borishi lozim edi, deb hisoblab, quyidagicha yozgan: “Inglzlarning Rossiya orqali Hindistonga kirib borish yo‘lini qidirib topish ishiga kompaniyaning eng faol vakillaridan biri Antoniy Jenkinson asos solgan”. Demak, A.Jenkinsonning O‘rta Osiyoga sayohat qilishidan asosiy maqsad xonliklar orqali Hindistonga boradigan eng yaqin va qulay yo‘lni topishdan iborat bo‘lgan. U O‘rta Osiyoda savdo ishlarini yo‘lga qo‘yish niqobi ostida Buxoroga borishga ruxsat olgan. A.Jenkinsonning maqsadi O‘rta Osiyo orqali Hindistonga boradigan eng yaqin va qulay yo‘lni topishdan iborat bo‘lgan. Rus olimi S.V.Jukovskiy: Jenkinsonning Buxoroga borishi haqidagi fikrlarini bayon qilib quyidagicha yozadi: “Aytish qiyin, nahotki Jenkinson chindan ham Ivan Grozniyni o‘z tomoniga og‘dirib olgan, va guyo Ivan Grozniy inglzlarga yoqish uchun uni O‘rta Osiyoga borishiga ruxsat bergen. Jenkinsandan balki podsho (Ioann Grozniy) foydalangandir va uni 1557 yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat so‘rab kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida Buxoro va Xivaga elchi qilib yubormadimikan?”. Yuqorida fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi. Jukovskiyning ikkinchi fikri xaqiqatga yaqin bo‘lsa kerak, ya’ni podsho O‘rta

Osiyo bilan savdo-aloqalarini o‘rnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergen. Jenkinsonning Rossiya nomidan O‘rta Osiyoga jo‘natilishi Rossiyaning O‘rta Osiyo savdosida ma’lum bir manfaati bo‘lgani tasdiqlaydi. 1558 yil 23 dekabrda Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorlig‘i bilan Buxoroga keladi va u yerda savdoning holati bilan tanishadi. Jenkinson Moskvaga qaytayotganida u bilan birga Buxoro, Urganch, Balx elchilari xam birga kelishgan. Tarixchi P.P.Ivanov missiyani baholab, Rossiya bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida savdoiqtisodiy munosabatlarni Jenkinson kashf etmagan, Jenkinson bilan Moskvaga kelgan savdo karvoni 1000 tuyadan iborat bo‘lgani avvaldan Moskva - O‘rta Osiyo savdo munosabatlari an‘anaviy darajada bo‘lganidan dalolatdir, - deb yozgan edi. Ma’lumki, XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyo xonliklarining Moskva bilan savdo aloqalari rasmiy tus ola boshlaydi. Bizni bu o‘rinda Jenkinson tomonidan Buxoroning qo‘shni Sharq davlatlari bilan aloqalari haqida bergen ma’lumotlari ahamiyatlidir. Jenkinson “Buxoroda savdogarlarning har yilgi yig‘ilishi bo‘lib, u yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar katta karvonlar bilan kelib yig‘ilib turadi”, - deb yozgan edi. Bu holat XVI asr o‘rtalarida Buxoro qadimgidan xalqaro savdo markazlaridan biri bo‘lib qolganligidan dalolat beradi. Jenkinson yana qo‘shib qo‘yadi, “go‘yoki, bu savdogarlar shu darajada qashshoqki, ular kam tovarlar olib kelishiga qaramay bu tovarlarni hatto uch yillab sotadi, shuning uchun bu yerda foydali savdo qilish uchun hech qanday ishonch yo‘q”, - deb yozadi. Ba’zi tarixchilarning fikricha, Jenkinson Angliya manufakturalarida to‘qilgan movut matolarni O‘rta Osiyoda sota olmagani uchun ataylab Buxorodagi hind savdogarlarining faoliyati va rolini pasaytirgan.

Shunday qilib, Jenkinsonning ma’lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Buxoro bilan Hindiston o‘rtasida barqaror savdo aloqalari o‘rnatilgan bo‘lib, mamlakatning (Hindiston) aksariyat dengiz savdosi yevropaliklar qo‘liga o‘tishi mahalliy savdogarlarga katta zarar keltirgan. Dengiz savdosidan mahrum bo‘lgan hind savdogarları o‘z e’tiborlarini Afg’oniston va O‘rta Osiyoga qaratgan. Jenkinson Buxoro bozorlaridagi hind savdogarlarning faoliyati xaqida, “ular Buxoroga na oltin, na kumush, na qimmatbaxo toshlar, na ziravorlar keltiradi. Men Hindistondagi bu tovarlar ishlab chiqariladigan eksport tovarlar portugallar qo‘l ostida bo‘lganligi uchun, bu tovarlar bilan savdo okean orqali olib borilishini aniqladim”, deb yozadi. Jenkinsonning Buxoroga hindlar na oltin, na kumush, na qimmatbaxo toshlar, na



ziravorlar keltiradi, degan fikri haqiqatdan yiroq. Vaholanki, ziravorlar Hindistondan Buxoroga keltiriladigan asosiy eksport tovarlaridan hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Javlonbek Rayimnazarovich Begaliyev. (2020). Xiva xonligi tarixshunosligi. *Science and Education*. 1 (6), 153-160.
2. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). *International Journal on Integrated Education*, 2(5), 212.
3. Toshev, Solejon Ahmatjonovich. (2020). O‘zbekiston sovet mustamlakachilik davri tarixining Turkiyada o‘rganilishi. O‘tmishga nazar.2(2-maxsus son). 347-353.
4. Gafforov, Y., Nafasov, A., & Nafasova, Z. (2020). From the History of the Beginning of the “Great Game”. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 2798-2802.
5. Toshtemirova, S. (2020). Factors Affecting the Quality of Education and the Importance of the Education Cluster to Address Them. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(4), 151-156.
6. Matchonov S. (2020). Adabiy ta’lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari // Nauchnyy vestnik Tashkentskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. № 1 –S. 110-115.
7. Abduraxmanova, J. N., Toshtemirova, S.A. (2020). Innovatsion texnologiyalar va axborot madaniyatini shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri. *Science and Education*, 1(Issue 7), 436-442.
8. Matchonov S. (2020). Adabiyot darslarida Tahlil va talqin uyg’unligi // Til va adabiyot ta’limi. 7-son. –B. 8-11.
9. Toshtemirova, S., Joldasov, I. (2019). Bilimdi adamgershilikke baulu ideyasynyq qajettigi // “Actual problems of society, education, science and technology: status and prospects of development” collection of scientific papers of the ii international scientificpractical conference. Aktube. P. 17-23.
10. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils’ Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 1337-1346.
11. Nasirov Otobek., Usmanov Farhod, & Begaliyev Javlonbek. (2020). Order of Creation of Joint-Stock Companies in Turkestan in the Late XIX - Early



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

XX Centuries and Participation of Foreign Capital in It. International Journal of Psychological Rehabilitation, 24(07), 8034-8042.

12. Shukurullo Mardonov. Art Pedagogical and art therapeutic technologies in the art classes. International Journal of Research in Economics and Sosial Sciences, 10 (Issue 6), 26-36.

13. Toshtemirova C. (2019). O‘zbekistonda kollektivlashtirish va uning oqibatlarini o‘rganishga doir mulohazalar. Tafakkur ziyosi № 3 –B. 78-80.

14. Jabbor Usarov. (2019). Using Teaching Methods for Development Student Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.

15. Toshev, Solejon Ahmatjonovich. (2020). Turkiyada Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi. Science and Education, 1(7), 625-631.

16. Toshev, Solejon Ahmatjonovich.(2020). O‘zbekiston sovet mustamlakachilik davri tarixining Turkiyada o‘rganilishi. O‘tmishga nazar.2(2-maxsus son). 347-353.

Research Science and Innovation House

Д КАЛЬЦИДИОЛ (25-ОН-Д) ТАНҚИСЛИГИ БЎЛГАН СУРУНКАЛИ ПАНКРЕАТИТЛИ БЕМОРЛАРДА ФЕРМЕНТОТЕРАПИЯ ТАЪСИРИНИНГ КУЗАТУВИ.

**ТТА 2-сон ички касалликлар ва эндокринология кафедраси
ассистенти т.ф.н. Арипова Наргиза Нусратовна**

Аннотация: Янги тадқиқотлар шуни кўрсатадики, бузилган Д витамини алмашинуви сурункали панкреатит (СП) да муҳим рол ўйнайди. Бу Д витамини танқислиги панкреатит ва унинг яллиғланишга қарши ва анти-фибротик таъсири билан витамин Д рецепторлари (ВДР) билан боғланиш билан боғлиқлигини кўрсатадиган тадқиқотлар билан кўрсатилган. Бироқ, панкреатитда Д витаминини баҳолаш ва даволашнинг роли ҳали ҳам яхши тушунилмаган. Биз ошқозон ости бези билан боғлиқ сўнгги ютуқларни мухокама қиласиз.

Калит сўзлар: Д витамины, сурункали панкреатит, остеопороз.

Abstract: New research suggests that impaired vitamin D metabolism plays an important role in chronic pancreatitis (CP). This is demonstrated by studies showing that vitamin D deficiency is associated with pancreatitis and its anti-inflammatory and anti-fibrotic effects by binding to the vitamin D receptor (VDR). However, the role of vitamin D assessment and treatment in pancreatitis is still poorly understood. We discuss the latest advances in the pancreas.

Key words: vitamin D, chronic pancreatitis, osteoporosis.

Бизнинг замонамиизда гастроэнтерологияда сурункали панкреатит (СП) касаллиги энг долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Гастроэнтерологик шифохоналарда, СП билан хасталанган bemorлар касалхонага ётказилган bemorларнинг тахминан 10% ни ташкил қиласиди [2]. СП ҳазм қилиш тизими касалликлари таркибида кўп учраши билан бирга аксарият холатларда оғир асоратлар ва ўлимга ҳам олиб келиши илмий адабиётларда келтирилган [1,12]. Сурункали панкреатит билан оғриган bemorларда меъда ости бези (МОБ) етишмовчилиги фонида алиментар ёғлар ва ёғда эрийдиган витаминларнинг сўрилиши бузилади ва озиқ моддалари етишмовчилигини келтириб чиқаради. СП билан оғриган bemorларда Д

витамини етишмаслиги хавфи ўртacha 60% ни ташкил қилади ва бу холат ўз навбатида остеопороз, мушакларнинг кучсизлиги, депрессия, юрак-қон томир тизими касалликлари келиб чиқиши хавфини оширади [3,13,14]. Сўнгги йилларда тадқиқотчиларнинг аҳоли ва турли патологик шароитларда Д витаминини ўрганишга бўлган қизиқиши яна ошди. Бу экологик вазият, турмуш тарзи ва озукавий хусусиятларнинг ўзгариши (турли хил озиқ-овқат ва бошқаларнинг кенг қўлланилиши), кўплаб органлар ва тизимларнинг патологияси частотасининг ошиши, шунингдек, ушбу витаминнинг таъсир механизмини шифрлаш туфайли Д витамини етишмаслиги шароитларининг кенг тарқалиши билан боғлиқ. турли органлар ва тўқималарнинг структуравий ва функционал параметрлари. Ҳозирги вақтда Д витамини етишмовчилигининг ривожланишида овқат ҳазм қилиш тизимининг айrim касалликлари ва бошқа соматик патологияларнинг роли исботланган [4, 15, 16, 18]. Сўнгги йилларда малабсорбция синдроми, гипопаратиреоз ва сурункали буйрак етишмовчилигида Д витамини ва кальций етишмовчилигининг механизми ва клиник кўринишлари аниқланди [8, 18]. Экспериментал ва клиник тадқиқотлар Д витамини етишмовчилигининг гипертония, атеросклероз, аутоиммун касалликлар, сурункали яллиғланиш касалликлари, репродуктив тизим патологияси хавфига муҳимлигини кўрсатади[4, 8, 11, 16, 18]. Физиологик шароитда қондаги D витаминининг асосий манбалари терида ультрабинафша нурланиш (90%) ва озиқ-овқат эргокальциферол (10%) таъсирида ҳосил бўлган холекальциферолдир. [7]. Улар липопротеинларнинг бир қисми сифатида ёки D витамини билан боғланган оқсил билан жигарга ўтказилади, бу ерда 25 - (ОН) D витамини ҳосил бўлади ва буйракларда 1 α ,25(OH)2D3 микросомал цитохрома Cyp2R1, митохондриял цитохрома Cyp27A1 25-гидроксилаз ва Cyp27B1 1,25-гидроксилаза иштироқида [20]бўлади. Ушбу метаболитнинг нишони булиб энтероцитлар, кальций гемеостазини таъминлайди, Генле хужайралари ва остеобластлардир хисобланади[21]. Иммуномодулятор таъсири иммунитет тизимининг хужайравий фаоллаштириш, хужайра ўсиши ва дифференциациясига таъсири орқали амалга оширилади [10]. Юқорида айтилганларнинг барчаси ушбу витаминга муносабатни қайта кўриб чиқиши талаб қилади.

Тадқиқот мақсади: СП билан касалланган беморларда витамин D миқдорини аниқлаш.

Тадқиқот материалы ва усуллари: Тошкентда 144 ёшдан 1 ёшдан 76 ёшгача бўлган деярли соғлом аҳоли ва ҳомиладорликнинг иккинчи триместрида амбулатор текширувдан ўтган 20 нафар ҳомиладор аёллар кўриқдан ўтказилди. Сўровда қатнашганлар орасида 35 эркак ва 109 аёл бор. Ёши бўйича текширилганларни ажратиш ЖССТ тавсияларига мувофиқ амалга оширилди. 1-2 ёшда 6 та чақалок, 3-6 ёшда – 5 та мактабгача ёшдаги болалар, 7-12 ёшда - 8 та бошланғич мактаб ёшидаги болалар, 13-16 ёшда – 6 та ўспирин, 17-21 ёшда – 10 ёш, 22-35 ёшда-36 ёш, 36-60 ёшда -61 етук ва 60 ёшдан ошган - 14 кекса одамлар. Д витамини ҳолатини баҳолаш учун иммунофермент методи ("ELIZA КИТ") томонидан халқаро стандартларга (DEQAS, NIST) нисбатан қон зардобида D-25(OH)D (кальцидиол)нинг энг барқарор шаклини аниқлаш ишлатилган. Мутахассисларнинг тавсияларига кўра, Д3 витамини етишмаслигининг микдорий мезонлари шакллантирилган [6, 9]:

Мутахассисларнинг тавсияларига кўра, Д3 витамини етишмаслигининг микдорий мезонлари шакллантирилган [6, 9]:

- * Д витамиининг етарли даражаси қон зардобида 25 (ОН)Д концентрациясида 30 нг/мл (75 нмол/л)дан ортиқ аниқланади.;
- * vitamin D етишмаслиги-20-30 нг/мл (50-75 нмол/л) енгил даражадаги;
- * vitamin D танқислиги 10-20 нг/мл (50 нмол/л)ўрта даражасида,
- * Д витамиининг яққол танқислиги-10 нг/мл дан кам (25 нмол/л дан кам) даражада.

Қуйидаги тадқиқотлардан тулқинланган холда сурункали панкреатит билан касалланган беморларни хам витамин Д етишмовчилигини текширдик.

Тадқиқотлар Тошкент тиббиёт академиясининг кўп тармоқли клиникасининг гастроэнтерология бўлимида СП касаллиги билан даволанган 94та (31 эркак ва 63 аёл) 31 дан 83 ёшгача (ўртacha ёши $58,40 \pm 1,29$ ёшда) бўлган беморларда ва 15 нафар соғлом (ўртacha ёши $39,73 \pm 4,92$ ёш) инсонларда ўтказилди. Беморлар қон зардобида витамин D нинг метаболити кальцидиол (25-OH-D) микдорига қараб қуйидаги гурухларга бўлинди: 1чи гурух 25-OH-D 30 нг/мл ва ундан юқори (меъёрида) бўлганлар, 2чи гурух 25-OH-D микдори 20-30 нг/мл (етишмовчилик), 3чи гурух - 10-20 нг/мл (танқислик), 4чи гурух 25-OH-D 10 нг/мл (яққол танқислик) бўлган bemорлар ва назорат гурухидан ташкил топган. Шу тадқиқотлар давомида Тошкент тиббиёт академиясининг

кўп тармоқли клиникасининг гастроэнтерология бўлимида СП касаллиги билан даволанган 1 чи гурух 21та (5 эркак ва 15 аёл) 31 дан 83 ёшгача (ўртacha ёши $58,81\pm2,91$ ёшда) бўлган беморларда қон зардобида витамин D нинг метаболити кальцидиол (25-OH-D) миқдори текширилди ва икки ой давомида панкреатин фермент припарати ичишга буюрилди ва 15 нафар соғлом (ўртacha ёши $39,73\pm4,92$ ёш) инсонларда витамин D нинг метаболити кальцидиол (25-OH-D) миқдори текширилди. 2 чи гурух СП касаллиги билан даволанган 25та (9 эркак ва 16 аёл) 31 дан 83 ёшгача (ўртacha ёши $58,81\pm2,91$ ёшда) бўлган беморларда 25-OH-D миқдори текширилди. Беморларда клиник-анамнестик, инструментал, копрологик ва биокимёвий текширувлар ўтказилган. МОБ ҳолатини аниқлаш мақсадида УТ тешириув «MINDRAY DC-60» аппаратида (Хитойда ишлаб чиқарилган) ўтказилди. Меъда ости бези ташқи секретор функцияси етишмовчилиги нажасда эластаза 1 фаоллиги билан баҳоланган, қон зардобида 25-OH-D миқдори иммунофермент усулида “ELIZA” иммунофермент анализаторида шу фирманинг маҳсус реагенлари билан аниқланди. Кон зардобида кальций миқдори маҳсус биотестлардан фойдаланиб биокимёвий анализаторда аниқланди. Олинган натижаларнинг статистик таҳлили, Microsoft Office Excel 2010 (Microsoft Corp., АҚШ) ва Portable Statistica 8 (StatSoft, Inc., АҚШ) ёрдамида амалга оширилди. Категорик маълумотларнинг тавсифи фоизларда ифодаланган даража кўрсаткичлари шаклида амалга оширилди. Таҳлил қилинадиган хусусиятларнинг аксарияти одатдагидан фарқли тақсимотга эга эканлигини ҳисобга олиб, олинган натижаларни статистик таҳлил қилиш учун параметрик бўлмаган статистик тестлардан фойдаланилди. Ўрганилаётган хусусиятлар ўртасидаги боғлиқлик Спирмен даражали корреляция усули ёрдамида баҳоланди (r – корреляция коэффициенти). Статистик гипотезаларни синовдан ўтказишда аҳамиятлилик даражаси 0,05 га teng деб қабул қилинди.

Олинган натижалар ва уларни муҳокамаси.

Ўтказилган тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатдики, Тошкент аҳолисининг умумий аҳолисида 25 (OH)D миқдори ўртacha $18,57\pm0,93$ нг/мл ни ташкил этади, аммо у аниқ ўзгарувчанлиги билан фарқ қиласди. Шунинг учун биз организмнинг ушбу vitamin bilan таъминлашдан олинган натижаларни таҳлил қилишга қарор қиласди. Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, Тошкент аҳолиси умумий аҳолисида етарли даража (30 нг/мл дан

ортиқ) сўровда қатнашганларнинг атиги 13,9% ни ташкил этади, (20-30 нг/мл) сўровда қатнашганларнинг 21,5 фоизида етишмовчилик, (25(OH)Д (10-20 нг/мл) етишмовчилиги аниқланган 55,6% да аниқланди ва яққол етишмовчилик (10 нг/мл дан кам) – 9% резидентларда. Юқорида келтирилан маълумотлардан кўриниб турибдики, Тошкент аҳолиси асосан 25 (ОН)Д етишмовчилик кузатилади. 25-даражали дефицитга эга бўлиб, жинсга қараб таҳлил 25(OH)D ўртacha $16,97\pm1,58$ нг/мл эркакларда ва аёлларда $18,95\pm1,13$ нг/мл ни ташкил этишини кўрсатди. Айтиш керакки, агар текширилганларнинг 11,4 ва 14,7 фоизида ушбу витаминнинг етарли даражаси аниқланган бўлса, унда етишмовчилик 17,1 ва 22,9%, танқислик – 62,9 ва 53,2%, яққол танқислик – еркаклар ва аёлларнинг 8,6 ва 9,2% да аниқланган. Кўриниб турибдики, танқислик эркаклар учун одатий эди, аммо фарқлар статистик жиҳатдан аҳамиясиз эди.

Тошкент аҳолиси учун ёшига қараб 25 (ОН)Д таркибини ўрганиш қизиқ эди. Тадқиқотлар шуни кўрсатдиди, эрта болалик даврида ушбу витаминнинг таркиби ўртacha $32,42\pm6,59$ нг/млни ташкил қиласди, бу унинг кўкрак сути билан истеъмол қилиниши билан боғлиқ. Бу 33,3% да етарли vitamin даражаси ва 66,7% чақалоқларда етишмовчилик билан тасдиқланади. Болаликнинг биринчи даврида 25 (ОН)Д нинг таркиби ўртacha $28,42\pm4,75$ нг/млни ташкил этди, 40% да эса normal диапазонда, 40% да етишмовчилик ва 20% да танқислик сифатида намоён бўлди. Болаликнинг иккинчи даврида биз ушбу кўрсаткичнинг 17,55 3,91 нг/мл гача сезиларли даражада пасайганлигини кузатдик, текширилаётган болаларнинг 25% қониқарли 25 (ОН)Д, 12,5% етишмовчилик, 50% - етишмовчилик ва 12,5% болаларда аниқ етишмовчилик бор еди 25 (ОН)Д. нинг фаол шаклидан ўсмирлик даврида қон зардобидаги vitamin даражаси $23,94\pm3,16$ нг/мл; ни ташкил етди; текширилаётган bemорларнинг 2/3 қисми ушбу vitamin етишмаслиги ва 1/3 қисми етишмаслиги аниқланди. Ёшлиқда даврида бу vitamin даражаси $20,28\pm3,37$ нг/мл эди. Шу билан бирга, қониқарли қийматлар 20%, етишмовчилик – 20%, танқислик – 50% ва сўралганларнинг 10% да 25 (ОН)Д. нинг яққол танқислиги аниқланди, шуни айтиш керакки, ўртacha ёш 2 даврга бўлинади: биринчи ва иккинчи. Биринчи даврда қон зардобидаги 25 (ОН)Д даражаси ўртacha $14,85\pm1,37$ ($P<0,01$)ни ташкил этди. Шу билан бирга, атиги 2,9% қониқарли натижаларга, 11,8% етишмовчиликка, 76,5% танқисликка ва 8,8% яққол танқисликка эга



эди. Иккинчи даври ҳам паст витамин даражаси билан ажралиб турарди, унинг қийматлари ўртача $17,86\pm1,56$ нг/мл ($P<0,001$). Ушбу гурухда 14,7% қониқарли натижага эришди, 16,4% ҳолларда - етишмовчилик, 59% ҳолларда – танқислик ва 9,8% сўровда - яққол танқислик. Қарияларда ҳам паст даражада бор эди ($P<0,01$), ўртача $18,32\pm2,68$ нг/мл. Ушбу гурухда 14,3% нормал даражада 25(ОН)Д, 28,6% - етишмовчилик, 42,8% -танқислик ва 14,3% ҳолларда – яққол танқислик аниқланган. Иккинчи триместрда ҳомиладор аёлларда, қон зардобида 25 (ОН)Д $24,14\pm3,17$ нг/мл ($P<0,01$) эди. Текширилган ҳомиладор аёлларнинг 35 фоизида ушбу витаминнинг етарли миқдори аниқланди, 25% - етишмовчилик, 20% - танқислик ва 20% - кучли танқислик.

Биз томонидан олинган натижалар текширилаётган гурухда 25(ОН) Д етишмовчилиги ва етишмовчилигининг устунлигини кўрсатади. Уларга турли омиллар сабаб бўлиши мумкин: овқатланишнинг ўзига хос хусусиятлари, турмуш тарзи, номаълум маълабсорбция синдромининг мавжудлиги. Хусусан, бу минтаقا диетада углеводларнинг устунлиги, диетада балиқ ва сут маҳсулотларидан сезиларли даражада камроқ фойдаланиш ва бошқалар билан ажралиб туради. Ёзниг иссиқ бўлишига, қуёш нурига узокроқ таъсир қилишига қарамай, аҳолининг аксарияти узун кийим кияди, бу эса холекальциферолнинг камроқ синтезига олиб келиши мумкин. Чақалоқлар, мактабгача ёшдаги болалар ва ҳомиладор аёлларда ушбу витаминнинг юқори кўрсаткичлари, эҳтимол, уни профилактик қабул қилиш билан боғлиқ. Бизнинг фикримизча, бошланғич мактаб ўқувчиларида ушбу бирикма даражасининг пасайиши, кучли мактаб юки билан боғлиқ бўлиб, бу адаптив қобилияtlарнинг бузилишига ва ушбу даврда витаминалардан фойдаланишнинг кўпайишига олиб келади.


Д витамини етишмовчилиги учун скрининг фақат унинг ривожланиши учун хавф омиллари бўлган беморлар учун кўрсатилади [5, 6, 9]. Витамин Д етишмаслиги тузатиш қачон тавсия мақсад қийматлари 25 (ОН)Д бор 30-60 нг/мл (75-150 нмоль/л) [6, 9]. 25 (ОН)Д ни динамикада аниқлаш учун клиник амалиётда қўлланиладиган усульнинг ишончлилигини худди шу усул ёрдамида препаратни охирги киритгандан 3 кун ўтгач текшириш тавсия этилади [6]. Шундай қилиб, у ҳисобга vitamin D танқислиги турли даражада юқори тарқалганлиги ва касалликлар [15, 17, 19] кенг ривожлантиришда унинг

исботланган ролини олиб, клиник амалиётда vitamin D кенгроқ фойдаланиш зарурлигини таъкидлади лозим. Хулоса қилиб шуни таъкидлаш керакки, D витамини етишмовчилигининг турли даражаларининг юқори тарқалиши ва унинг кенг кўламли касалликларнинг ривожланишидаги исботланган ролини ҳисобга олган ҳолда, клиник амалиётда D витамиnidан кенгроқ фойдаланиш зарурати.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение центральных банков в обеспечении стабильности государственных финансов. В нем обсуждаются механизмы, которые центральные банки используют для влияния на стабильность, включая денежно-кредитную политику и стратегии антикризисного управления.

Abstract. This article examines the importance of central banks in ensuring the stability of public finances. It discusses the mechanisms that central banks use to influence stability, including monetary policy and crisis management strategies.

Kalit so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, markaziy bank, monetar siyosat, nazorat

Ключевые слова: финансовая стабильность, центральный банк, денежно-кредитная политика, контроль

Key words: financial stability, central bank, monetary policy, control

Moliyaviy barqarorlik mamlakat iqtisodiyotidagi o’sish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Markaziy banklar moliyaviy tizimni nazorat qilish va uning barqaroligini ta’minlash uchun mas’ul bo’lgan asosiy institutlar sifatida ko‘riladi. Ularning roli samarali moliyaviy boshqaruva va nazoratning yanada ahamiyatli ekanligini ko‘rsatgan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida yanada oshdi.

Shu sababdan moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda markaziy banklarning rolini va ularning amalga oshiradigan ishlarini o’rganish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalarini, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan



iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.[1]

Moliyaviy barqarorlik va uning tahlilini olib borish, markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning eng asosiy vazifalaridan biridir. O‘zbekistonning bank sektori moliya tizimining muhim bir qismi bo‘lganligi sababli, ushbu sektorning barqarorligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy majburiyatlaridan birini tashkil etadi. Markaziy bank banklar tizimidagi o‘zgarishlarni doimiy kuzatib boradi va baholaydi, shu bilan birga, tizimli xavflarning oldini olish va bank tizimining umumiyligini barqarorligini saqlab qolish uchun zarur choralar ko‘radi.

Monetar siyosat davlat iqtisodiy siyosatining muhim qismi hisoblanadi va uni ko‘pchilik hollarda Markaziy bank amalga oshiradi. Monetar siyosat yordamida muomaladagi ortiqcha pul massasi kamaytiriladi yoki ko‘paytiriladi. Markaziy bank monetar siyosatni olib borishda pul bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri – o‘zining boshqaruven vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta’sir o‘tkazishi mumkin. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatini amalga oshirishda quyidagi instrumentlardan foydalanadi:

1. Majburiy zaxiralar siyosati;
2. Hisob stavkalari siyosati;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati;
4. Valuta siyosati va shu kabilar.

Mazkur usullar jahon banklari amaliyotida tan olingan asosiy usullar hisoblanib, ulaming qo‘llanishi har bir davlatda turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, AQSH da ko‘proq ochiq bozordagi usullar qo‘llanilsa, Germaniyada ko‘proq majburiy zaxiralar qo‘llaniladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Markaziy bankining muomaladagi pul massasini tartibga solishda, asosan, majburiy zaxiralar instrumentidan foydalanimoqda. [3]

Bundan tashqari, Markaziy banklarning moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda inqirozni boshqarish usullarining ham ta’siri bor. Barqarorlikka erishish uchun Markaziy banklar tomonidan amalga oshiriladigan choralarga quyidagilarni misol qilish mumkin.

- qiyin vaziyatda katta miqdorda oxirgi qarz beruvchi bo‘lish. Bu banklar faoliyatidagi muammolarning oldini olishda muhim. Masalan, 2008-yildagi

inqiroz davrida dunyo bo‘ylab markaziy banklar moliyaviy bozorlarni barqarorlashitirish uchun kerak bo‘lgan bank tizimidagi likvidlikni kuchaytirish uchun yordam berishgan. [4]

- foiz stavka o‘zgartirishlari. Markaziy banklar qarz olish va investitsiyani rag‘batlantirish yoki inflyatsiyani nazorat qilish uchun foiz stavklarini pasaytirishi mumkin.
- moliyaviy boshqaruva va nazoratni kuchaytirish. Inqirozdan keyin yanada mustahkamroq moliyaviy tizim yaratish uchun markaziy banklar moliyaviy nazoratni kuchaytirishga ko‘proq e’tibor berishadi. Bunga banklarga qo‘yiladigan kuchli kapital va likvidlik talablari, tavakkalchilikni boshqarish ishlarini yaxshilash va kelgusi inqirozlarni bartaraf etish uchun banklar tayyorgarligini baholash sinovlarini o‘tkazishni misol qilish mumkin. [5]

Yuqoridagi usullarning amalga oshirilishi moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda bir qancha foydalarga sabab bo‘ladi. Jumladan, iqtisodiy faollik rag‘batlantiriladi, iste’molchi xarajatlari oshadi, investitsiyalar ko‘payadi va iqtisodiy faollikning oshishi bilan ko‘proq ish o‘rinlari yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy banklar moliyaviy barqarorlik uchun juda muhim rol o‘ynaydi. Ular moliyaviy tizimning barqarorligini ta’minlash, inqirozlarni boshqarish va monetar siyosatni amalga oshirish orqali iqtisodiyotdagi o‘sishni rag‘batlantiradi va moliyaviy inqirozlarni oldini oladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kabi milliy banklar, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda majburiy zaxiralar, hisob stavkalari va ochiq bozor operatsiyalari kabi turli vositalardan foydalanadi. Bu choralar nafaqat moliyaviy tizimni barqarorlashtirishga, balki umumiy iqtisodiy o‘sishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://cbu.uz/uz/financial-stability/about/>
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2005-yil.
3. M. T. Yaxshieva. Monetar nazariya va siyosat: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021
4. <https://rpc.cfainstitute.org/en/research/multimedia/2018/2008-financial-crisis-role-central-banking-in-crisis-management>
5. David G. Mayes, Pierre L. Siklos, Jan-Egbert Sturm. The Oxford Handbook of the Economics of Central Banking. 14 March 2019.



Boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi
kafedrasи o‘qituvchisi **Ne’matov Oybek Erkin o‘g‘li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi **Umirova Mohinur Mirzo qizi**

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga samarali targ‘ib etish xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar : axborot, internet, innovatsiya, intellektual, ta’lim, texnologiya, bilim, svilizatsiya, axborotlashgan jamiyat, ko‘rgazmalilik, kompetensiya.

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asri. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va mavqeyi kundan kunga oshib bormoqda. Bugungi kundalik hayotimizni ularning o‘rnisiz tasavvur qilolmaymiz. Axborotlar oqimi va shiddatligi butun dunyo miqiyosida keng ko‘lamda almashinuv jarayoni orqali kengayib bormoqda. Har bir sohada axborot texnologiyalarining o‘rni katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa ta’lim jarayonini tashkil etishda axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyos o‘rin egallaydi. Zamonaviy ta’lim jarayonini yaratishda, texnologiyalar keng qamrovli jalb etilishi darkor. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko‘mak beradi. Ta’lim jarayonida eng so‘nggi axborot texnologiyalarini ishtirokini ta’minlash, va boshqa faol targ‘ibotlarni amalga oshirish natijasida ta’lim sifatini darjasini yuqorilaydi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi o‘laroq, yurtimizning barcha ta’lim muassasalarida moddiy texnik bazaning yaxshilanishiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Barcha ta’lim muassasalarini axborot texnologiyalari vositalari bilan ta’minlanishi , ta’lim sifatini yaxshilanishiga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, mavzuga doir adabiyotlar va yana bir qancha qo‘llanmalardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish natijasida, keying ta’lim bosqichlarini ham tubdan isloh qilishga erishish mumkin. AKT ni ta’lim jarayonida keng ko‘lamli qo‘llash, zamonaviy ta’lim muhitini yaratish va boshqalar bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Axborotlar ko‘لامи kengaygan bir davrda, ma’lumotlar bazasi kengayishi ham ta’lim sifatini yaxshilanishiga olib keladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etishda AKT vositalarining ishtiroki bevosita muhimdir. An’anaviy dars muhitidan farqli o‘laroq, noodatiy dars shaklini tashkil etish orqali, ta’lim sifatini yuqori bo‘lishiga va o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Darsni ko‘rgazmalilik texnologiyalaridan unumli foydalangan holda, tashkil etish zamonaviy ta’lim muhitini yaratishga asos bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda AKT dan foydalanish, ta’lim tizimimizdagi muhim mavzulardan biridir. Boshlang‘ich sinflarda AKT dan foydalanish quyidagilarga imkon yaratadi.

1. O‘quvchilarda butun dunyo miqiyosidagi axborotlardan xabardor bo‘lish, va ularni to‘g‘ri tahlil qilish imkonini beradi.
2. Axborotlar bilan ishlashning amaliy usullarini egallash.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, axborotlar bilan ishslash ko‘nikmasini shakllantirish.
4. O‘quvchilarda bilish faolligini oshirish .
5. Dars jarayonlarini yuqori saviyali ko‘rsatkichga olib chiqish .

Boshlang‘ich sinf ta’lim jarayonida AKT vositalarini qo‘llash, o‘quvchilarining barcha fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga sabab bo‘ladi. Ahamiyatli jihat shundaki, o‘quvchilarda kompyuterda ishslash savodxonligini shakllantirish turli xildagi ma’lumotlarni taqdim etish va o‘zlashtirish imkonini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan bir qatorda, kompyuter o‘quvchilarining diqqatini faollashtirishga, ularda motiv tuyg‘usini oshirishga, tasavvur va fantaziyasini rivojlantirishga asos bo‘ladi. Dars muhitiga AKT ni tatbiq etish,


darsning vaqt davomiyligini barqarorlashtirishga ham yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda axborot bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish , kelgusi faoliyatga jarayonlarda ham asqotadi. O‘quv jarayonlarida AKT dan keng foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining yaxshilanishiga yordam beradi.

Axborot deganda biz atrof –muhit obyektlari va holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlanmasi tushuniladi. Axborot so‘zi lotincha “informatio” so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish, bayon etish , biror narsani yoki biror bir voqeа hodisalar haqidagi ma’lumotlar yig‘indisini anglatadi. Axborot atamasining lug‘aviy ma’nosini izohladik, endi axborotlashgan jamiyat tushunchasiga izoh bersak. Axborotlashgan jamiyat – jamiyatning ko‘pchilik a’zolari axborot, uni qayta ishslash va boshqalar bilan uzviy bog‘langan jamiyat tushuniladi. Yapon olimlarining fikricha, axborotlashgan jamiyatda , kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbayidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda , axborotni qayta ishslashni yuqori darjada avtomatlashtirishni ta’minalash imkonini beradi. Jamiyatni rivojlantirishda, esa harakatlantiruvchi kuch moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo‘lmog‘i lozim. Axborot texnologiyalari tufayli,insonlarning faoliyati, kundalik muloqot sohasi, bilim va ilmiy salohiyati nihoyatda kengayadi.

Vazirlar Mahkamasining Axborotlashtirish haqidagi Qonun talablarida, 1994-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasini axborotlashtirish konsepsiyasini ma’qulladi. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi, quyidagilardan iborat:

- Milliy axborot – hisoblash to‘rini yaratish.
- Axborotlarga tovar sifatida yondashishning , iqtisodiy , huquqiy va me’yoriy hujjatlarini yuritish.
 - Axborotlarni qayta ishslashning jahon standartlariga rioya qilish
 - Informatika industriyasini mujassamlashtirish va rivojlantirish
 - Axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag‘batlantirish va qo‘llab -quvvatlash.
 - Informatika vositalaridan foydalanuvchilarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunining 46-moddasida keltirilganidek, “Pedagog xodimlarga axborot shakllari va usullaridan foydalanishi majburiyati yuklatilgan”. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda, qator muammolarga duch kelinishi tabiiy. Bundan ko‘rini turibdiki, ta’limni axborotlashtirishda moddiy texnik bazaning yetarli bo‘lishi hamda, pedagog kadrlarning axborot texnologiyalari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.



1-rasm. Axborot tushunchasining obyektlari .

Axborot texnologiyalari ta’lim tizimiga keng ko‘lamda targ‘ib etilsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin.

1. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati samarali tashkil etiladi.
2. O‘quvchilarning hissiy idrok etishlari va egallanayotgan bilim va ko‘nikmalari ularning tasavvur doirasida kengroq gavdalanadi.
3. Ta’lim tizimining salohiyati va sifati yuqorilaydi.

XULOSA

Umumiy qilib aytganda , boshlang‘ich ta’lim jarayoniga AKT ni qo‘llash, dars unumdorligining oshishiga sabab bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dastlabki axborot texnologiyalari haqidagi ma’lumotlarni egallahlarida muhim omil vazifasini o‘taydi. Yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni



zamon talablariga uyg‘un holda, tarbiyalash uchun ta’lim jarayoniga AKT vositalarini bevosita dars muhitiga olib kirish va o‘rinli qo‘llash zarur hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, axborot almashinuv jarayoni ko‘p qirrali va uzviy davom etadigan jarayon demakdir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat ta’lim jarayonini balki, barcha sohalrni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Sattorov “ Informatika va axborot texnologiyalari ” Toshkent -2008
2. To‘lqin Eshbekov “ Axborot xizmatlari ” o‘quv qo‘llanma.
3. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottoev “ Web texnologiyalari ” Toshkent-2013
4. M.Kadirov “ Axborot texnologiyalari” Toshkent -2018.
5. S.S.G‘ulomov, B.A.Begalov “ Informatika va axborot texnologiyalari”
6. Ziyonet tarmoqlari.
7. Ne’matov, Oybek. "TA’LIMDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI." " Science Shine" International scientific journal 3.3 (2023).

**Research Science and
Innovation House**



BOSHQARUV HISOBI TIZIMIDA TASHKILY - USLUBIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Zokirjonova Sarvinoz Shokirjon qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” Milliy Tadqiqot Universiteti

3-bosqich “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi

EMAIL ADDRESS: lymonarahmonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshqaruv hisobi tizimlarida tashkiliy va uslubiy yordamni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni har tomonlama o‘rganishni taqdim etadi. Tadqiqot samarali boshqaruv hisobining ongli qarorlar qabul qilishni osonlashtirish, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish va umumiy tashkiliy samaradorlikni oshirishdagi muhim rolini o‘rganadi. Nazariy asoslar, empirik tadqiqotlar va amaliy tushunchalar sintezi orqali ushbu tadqiqot zamonaviy biznes muhitida boshqaruv hisobi tizimlarining samaradorligi va ta’sirini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini yoritadi. U molivayi ma'lumotlar, samaradorlik ko‘rsatkichlari va boshqaruv hisobi doirasidagi strategik maqsadlarning uzlusiz integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam tashkiliy tuzilmalar va metodologiyalar zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu asosga asoslanib, maqola tashkiliy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish bo‘yicha asosiy strategiyalar, jumladan, aniq hisobot ierarxiyasini o‘rnatish, ma'lumotlarni to‘plash jarayonlarini soddallashtirish va korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlari va biznes razvedkasi (BI) kabi ilg‘or texnologik yechimlarni amalgalashni o‘z ichiga oladi.

KALIT SO‘ZLAR: proaktiv qarorlar, globallashuv, texnologik yechimlar, vizualizatsiya qilish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлено комплексное исследование стратегий, направленных на совершенствование организационно-методического обеспечения в системах управленческого учета. В исследовании рассматривается решающая роль учета управления эффективностью в содействии принятию обоснованных решений, оптимизации распределения ресурсов и повышении общей эффективности организации. Благодаря синтезу



теоретических основ, эмпирических исследований и практических выводов, это исследование освещает основные направления повышения эффективности и воздействия систем управленческого учета в современной бизнес-среде. В нем подчеркивается необходимость в надежных организационных структурах и методологиях для поддержки плавной интеграции финансовых данных, показателей эффективности и стратегических целей в рамках управленческого учета. На основе этой основы в статье излагаются ключевые стратегии усиления организационной поддержки, включая создание четкой иерархии отчетности, оптимизацию процессов сбора данных, а также использование систем планирования ресурсов предприятия (ERP) и бизнес-аналитики (BI), включая внедрение передовых технологических решений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: proactive decisions, globalization, technological solutions, visualization.

ANNOTATION

This article presents a comprehensive study of strategies aimed at improving organizational and methodological support in management accounting systems. The study examines the critical role of performance management accounting in facilitating informed decision-making, optimizing resource allocation, and improving overall organizational effectiveness. Through a synthesis of theoretical frameworks, empirical studies and practical insights, this study illuminates the main directions for improving the effectiveness and impact of management accounting systems in the modern business environment. It emphasizes the need for robust organizational structures and methodologies to support the seamless integration of financial data, performance indicators and strategic objectives within management accounting. Based on this framework, the article outlines key strategies for strengthening organizational support, including establishing clear reporting hierarchies, streamlining data collection processes, and using enterprise resource planning (ERP) systems and business intelligence (BI) includes the implementation of advanced technological solutions.

KEY WORDS: proactive decisions, globalization, technological solutions, visualization.

KIRISH

Zamonaviy biznes sohasida boshqaruvin hisobi strategik qarorlar qabul qilish, resurslarni optimallashtirish va tashkiliy samaradorlikka rahbarlik qiluvchi muhim

funktsiyaga aylandi. Moliyaviy ma'lumotlar, samaradorlik ko'rsatkichlari va analitik tushunchalardan samarali foydalanish murakkab bozor dinamikasini boshqarish, o'sish imkoniyatlaridan foydalanish va raqobatdosh ustunlikni saqlab qolishni maqsad qilgan korxonalar uchun juda muhimdir. Ushbu maqola boshqaruv hisobi tizimlarida tashkiliy va uslubiy yordamni takomillashtirishni tadqiq qilish va targ'ib qilish, ularning bugungi dinamik biznes landshaftida samaradorlik, ongli qarorlar qabul qilish va barqaror o'sishdagi rolini ta'kidlash uchun ahamiyatga ega. Bu moliyaviy hisobot va tahlilda shaffoflik, izchillik va hisobdorlikni ta'minlaydi, qaror qabul qiluvchilarini ishonchli ma'lumotlar bilan kengaytiradi.

ASOSIY QISM

Uslubiy yutuqlar: faoliyatga asoslangan xarajatlarni hisoblash (ABC), balanslangan ko'rsatkichlar kartasi (BSC) va bashoratli tahlillar kabi zamonaviy uslubiy yondashuvlarni qo'llash, boshqaruv hisobi amaliyotini inqilob qilishi mumkin.¹ Ushbu metodologiyalar xarajat tuzilmalari, samaradorlik omillari va rivojlanayotgan tendentsiyalar haqida chuqurroq tushuncha beradi, bu esa proaktiv qarorlar qabul qilish va strategik rejallashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar tomonidan taqdim etilayotgan avtomatlashtirish, ma'lumotlarni vizuallashtirish va real vaqtda hisobot berish imkoniyatlari boshqaruv hisobi funksiyalarining samaradorligi, aniqligi va chaqqonligini oshiradi.


O'zgarishlarni boshqarish va iste'dodlarni rivojlantirish: samarali o'zgarishlarni boshqarish strategiyalari, iste'dodlarni rivojlantirish tashabbuslari bilan birgalikda, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun juda muhimdir. boshqaruv hisobi tizimlarini tashkiliy va uslubiy takomillashtirish kerak. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish madaniyatini shakllantirish, hamkorlikni rivojlantirish va uzlucksiz ta'limga sarmoya kiritish uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridir.

Eng muhimi, «Byudjetlashtirish haqida»gi nizomda turli bo'g'in va maqsadlardagi byudjetlarni o'zaro aloqasiga asoslangan byudjetlashtirish va tahlilni amalga oshirish algoritmi alohida ahamiyatga ega bo'ladi.² Ushbu talablarni hisobga

¹ Пардаева III.А. Хўжалик субъектларида молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини таомиллаштириш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон жунали. www.interfinance.uz, 3-сон, 2021 йил, июнь.

² Керимов В.Э. Стратегический учет. Учебное пособие. // В.Э.Керимов. – М.: Омега-Л, 2005. – 168 с.

olgan holda korxonalar uchun «Byudjetlashtirish haqida»gi namunaviy nizom loyihasi tavsiya etildi(1-rasm).



Yuqorida ta'kidlangan tartib-qoidalar, vazifa va tamoyillar hamda nizomga tayangan holda korxonalar amaliyotida byudjetlashtirishni samarali joriy etish uchun quyidagi uslubiy algoritm tavsiya qilinadi.

Foya va ta'sir: boshqaruvin hisobi tizimlari doirasida tashkiliy va uslubiy yordamni takomillashtirishning afzalliklari ko‘p qirralidir. Ular qaror qabul qilish imkoniyatlarini, optimallashtirilgan resurslarni taqsimlashni, moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilashni va bozorda raqobatdosh ustunlikni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu yaxshilanishlar rivojlanayotgan biznes muammolari sharoitida tashkilotning mustahkamligi, moslashuvchanligi va barqarorligiga hissa qo‘shadi.³ Xarajatlarni tahlil qilish va byudjetlashtirishdan samaradorlikni baholash va strategik rejallashtirishgacha, menejment hisobchilari resurslarni taqsimlash, jarayonlarni optimallashtirish va moliyaviy strategiyalarni biznes maqsadlariga moslashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, tez texnologik taraqqiyot, globallashuv va bozor bilan ajralib turadigan davrda uzilishlar, tashkilotlar o‘zlarining moliyaviy ma'lumotlarini boshqarish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida murakkablik va talablarga duch kelmoqdalar. Bu tegishlilik, aniqlik va samaradorlikni ta'minlash uchun boshqaruvin hisobi tizimlarining tashkiliy tuzilmalari, metodologiyalari va texnologik imkoniyatlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi.

³ Абдусаломова Н.Б. Харажатларнинг келиб чиқиш жойлари ва жавобгарлик марказлари бўйича бошқарув ҳисобини ташкил қилиш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. www.interfinance.uz, 1-сон, 2016 йил сентябрь.

Boshqaruv hisobidagi tashkiliy va uslubiy yordamni takomillashtirish yo‘lidagi sayohat bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, bu moliyaviy hisobot va tahlilda izchillik, shaffoflik va javobgarlikni ta’minalash uchun aniq hisobot ierarxiyasini, ma’lumotlarni boshqarish protokollarini va samaradorlikni o‘lchash tizimini o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv hisobining samarali tashkil etilishi va yuritilishi o‘z vaqtida oqilona boshqaniv qarorlari qabul qilish, korxona faoliyatini rejalashtirish, tahlil va nazorat qilish imkonini berib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Odatda, korxonalarda boshqaruv hisobi quyidagi faoliyat turlari bo‘yicha yuritiladi:

- ta’minot-tayyorlov faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- moliya-tijorat faoliyati;

— tashkiliy faoliyat. Korxonalarda ta’minot-tayyorlov faoliyati takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uning uzuksizligini ta’minalashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur sohada dastlabki boshqaruv axborotlari yig‘iladi va qayta ishlanadi.

Ikkinchidan, bu faoliyatga asoslangan xarajatlarni hisoblash (ABC) kabi zamonaviy uslubiy yondashuvlarni qabul qilishni talab qiladi. Balanslangan ko‘rsatkichlar kartasi (BSC) va boshqaruv hisobi tizimlarining aniqligi va oldindan ayta olish imkoniyatlarini oshirish uchun bashoratli tahlillardir. Ushbu metodologiyalar tashkilotlarga xarajat omillari, samaradorlik ko‘rsatkichlari va rivojlanayotgan tendentsiyalar haqida chuqurroq ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi va shu bilan ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va strategik prognozni osonlashtiradi.⁴ Bundan tashqari, korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlari, biznes kabi ilg‘or texnologik yechimlarni integratsiyalash kerak. Avtomatlashtirish, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va real vaqt rejimida hisobot berish imkoniyatlaridan foydalangan holda, tashkilotlar boshqaruv hisobi funktsiyalarining samaradorligi, aniqligi va chaqqonligini oshirishi mumkin. bugungi dinamik ishbilarmonlik muhitida harakat samaradorligi, ongli qarorlar qabul qilish va barqaror o‘sish zarurati. Ushbu tadqiqot biznes maqsadlariga erishish va raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolishda boshqaruv hisobini strategik aktiv

⁴ Abdinabi Kh. Pardaev, Umidjon U. Kostaev. The improvement of organizing strategic management accounting, Journal of Critical Reviews, 7(18), c. 718-721, ISSN-2394-5125 vol. 7, ISSUE 18, 2020

sifatida qo‘llashga yordam beradigan strategiyalar, ilg‘or amaliyotlar va rivojlanayotgan tendentsiyalarni o‘rganish va yoritishga intiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshqaruv hisobi tizimlarida tashkiliy va uslubiy yordamni takomillashtirish yo‘lidagi sayohat bugungi dinamik va raqobatbardosh landshaftda rivojlanishga intilayotgan korxonalar uchun strategik zaruratdir. Tashkilotni qayta qurish, metodologik innovatsiyalar, texnologik integratsiya va yaxlit iste'dodlarni rivojlantirishni qamrab olgan holda, tashkilotlar yangi samaradorlikni ochib, o‘sish imkoniyatlaridan foydalanishi va barqaror muvaffaqiyat sari yo‘naltirishi mumkin. Boshqaruv buxgalteriya hisobi samarali foydalansila, nafaqat funktsiyaga, balki biznesni o‘z kelajak sari undaydigan strategik aktivga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdinabi Kh. Pardaev, Umidjon U. Kostaev. The improvement of organizing strategic management accounting, Journal of Critical Reviews, 7(18), c. 718-721, ISSN-2394-5125 vol. 7, ISSUE 18, 2020.
2. Абдусаломова Н.Б. Харажатларнинг келиб чиқиши жойлари ва жавобгарлик марказлари бўйича бошқарув ҳисобини ташкил қилиш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. www.interfinance.uz, 1-сон, 2016 йил сентябрь.
3. Керимов В.Э. Стратегический учет. Учебное пособие. // В.Э.Керимов. – М.: Омега-Л, 2005. – 168 с.
4. Пардаева Ш.А. Хўжалик субъектларида молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини такомиллаштириш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. www.interfinance.uz, 3-сон, 2021 йил, июнь.

**Research Science and
Innovation House**

Psixolog kasbining ahamiyati va vazifalari

Xorazm viloyati Xiva shahar
2-son o‘rta umumiy ta’lim maktabining
amaliyotchi psixologi
Masharipova Shohida Ro‘zmetboyevna
atajanovnodirbek054@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola hozirgi kunda nafaqat psixolog kasbini balki hamma kasbda yaxshi mutaxassislarni yetishtirish davr talabi ekanligi, haqiqatdan ham har bir sohada yetuk mutaxasis bo‘lish yurt kelajagi poydevori hisoblanishi, bu borada psixolog kasbining rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni ilmiy jihatdan ochib beradi. Jumladan: Psixolog kasbining rivojlanishi, kelib chiqishi va bugungi kunda psixolog kasbining o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlarga to‘xtalgan Psixolog - odamni shakllantirish, uning xatti-harakatilarini, shuningdek, turli xil psixologik va kundalik muammolarni o‘rganish, odamlar dunyosiga moslashish bilan shug‘ullanadigan psixologiya mutaxassisi, uyda va ishda odamning ruhiy muhitini yaxshilashga xizmat qilishi kerak, degan g’oya ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: psixolog, tashkilot, psixiatriya, professional, muammo, malakali, mutaxassis, psixodiagnostika, metodika, eksperimental, ma'lumot, psixoterapevt, psixiatr.

Значение и задачи профессии психолога

Аннотация: данная статья с научной точки зрения раскрывает мысль о том, что в настоящее время развитие не только профессии психолога, но и хороших специалистов во всех профессиях является требованием времени, действительно, наличие зрелого специалиста в каждой области является фундаментом будущего страны, в связи с чем развитие профессии психолога приобретает особое значение. В частности: остановившись на представлениях о развитии профессии психолога, ее истоках и месте и значении профессии психолога сегодня, психолог - специалист в области психологии, занимающийся формированием личности, изучением ее поведения, а также различных психологических и бытовых проблем, адаптацией к миру людей,

выдвинул идею о том, что дома и на работе она должна служить улучшению психической среды человека. продвинутый.

Ключевые слова: психолог, организация, психиатрия, профессионал, проблема, квалифицированный, специалист, психодиагностика, методика, экспериментальный, информационный, психотерапевт, психиатр.

Importance and tasks of the profession of a psychologist

Annotation: this article scientifically reveals the ideas that at present it is not only the profession of a psychologist, but also the fact that the cultivation of good specialists in all professions is a requirement of the period, in fact, being a mature specialist in each field is considered the foundation of the future of the country, in this regard, the development of the profession In particular: a psychologist who is focused on thoughts about the development of the profession of a psychologist, its origin and the place and importance of the profession of a psychologist today - the formation of a person, the study of his behavior, as well as various psychological and everyday problems, the psychological specialist who is engaged in adapting to the world of people,

Keywords: psychologist, organization, psychiatry, professional, problem, qualified, specialist, psychodiagnostics, methodology, experimental, reference, psychotherapist, psychiatrist.

Psixologiya nisbatan yosh, ammo shunga qaramay, bugungi kunda juda dolzarb fan. Psixolog kasbi har qanday tashkilotda talabga ega. Bugungi kunda deyarli hech qanday muassasa psixolog mutaxassis yordamisiz biror ish qila olmaydi. Albatta, fuqarolarimizning mintaliteti hali G‘arbda odat bo‘lganidek, yordam so‘rab psixologlarga bemalol murojaat qilishga imkon bermaydi. Ko‘pincha, psixologyaning mohiyatini tushunmasdan, odamlar uni psixiatriya bilan tenglashtiradilar va psixologga borish dahshatli narsaga aylanadi. Odamlar quvonchi-yu- qayg‘usini malakali mutaxassislar bilan emas, balki tanishlari bilan bir xilda baham ko‘rishga odatlangan. Va ko‘pincha bu xato va yamon tomonga ketadi, chunki hech kim muammoni hal qilishda professional yordam bera olmaydi.

Dastlab, bolalar ustida psixologik tadqiqotlar o‘tkazilgan, tajribalardan shu malumki, qo‘llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o‘rganish metodikalariga ajratish mumkin.(L.I. Poperechnaya

1978, L.L.Venger, V.V.Xolmovskaya 1978, Z.I.Kalmikova, 1982, V.M.Bleyxer, I.V.Kruk, 1986). Masalan, o‘quvchi xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo‘llash kerak. Shu bilan bir vaqtida, har bir eksperimental metodikalar o‘zining asosiy yo‘nalishidan tashqari (ya’ni shaxsnинг ma’lum xususiyatini o‘rganishdan tashqari) psixikani boshqa xususiyatlarining holati haqida ba’zi ma’lumotlar beradi. Masalan: bolaga berilgan 10 ta so‘zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagina emas, balki ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga yo‘naltirilganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo‘ladi [4].

Hozirgi kunda nafaqat psixolog kasbini balki hamma kasbda yaxshi mutaxassislarni yetishtirish muhimdir. Bu borada prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday dedilar “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz. Yangi O‘zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz”. Haqiqatdan ham har bir sohada yetuk mutaxasis bo‘lishi yurt kelajagi poydevori hisoblanadi. Bu borada psixolog kasbining rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolog kasbining rivojlanishi, kelib chiqishi va bugungi kunda psixolog kasbining o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlarga to‘xtallish joiz.

Psixolog - odamni shakllantirish, uning xatti-harakatilarini, shuningdek, turli xil psixologik va kundalik muammolarni o‘rganish, odamlar dunyosiga moslashish bilan shug‘ullanadigan psixologiya mutaxassis, uyda va ishda odamning ruhiy muhitini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Psixologiya (Yunon. psiyxe – ruh, jon; logos – ilm, ta’limot) - ruhiy holat va insonning xulq-atvor qonunchiligidagi mutaxassis - bu bilimlarni qo‘llash uchun ishlataidigan psixologiya sohasidagi mutaxassisdir. Shaxsiy muammolarni hal qilish, atrof-muhitga moslashish, oilalar va jamoalarda psixologik muhitni yaxshilash psixologni muhim ishidir. Psixologning asosiy vazifasi insonga o‘zini-o‘zi va dunyoga moslashtirish va uyg‘unlashtirish, odamning hayoti uchun ko‘proq ijodiy fikrda bo‘lishga, uning ruhiy resurslarini aniqlashga va faollashtirishga yordam berishdir.

"Psixolog", "Psixoterapevt" va "Psixiatr" kasblari o‘rtasida sezilarli farq bor. Psixoterapevt va psixiatr - tibbiyot maktablarini tamomlagan shifokorlar bo‘lsa, psixolog "psixologiya" mutaxassisligi bo‘yicha ixtisoslashgan universitetlarning psixologiya fakultetlarini bitkazgan insonlardir. Psixologning faoliyati mavzusi - bu

shaxs ruhiyatining patologik buzilishi emas, balki uning ruhiy holati va ichki dunyosiga e'tibor berishdir [3].

Psixolog - bu odamlarning bir qismiga aylangan kasblardan biridir. Chunki, psixolog doimo inson bilan ishlaydi. Farzandlaringizni muloqot qilish, qarindoshlaringiz va yaqinlaringiz bilan muloqot qilish orqali, kasbingiz va tajribangiz boyib boradi. Psixologiyani o'rganish mavzusi - inson qalbini tushunishgina emas balki u bilan birga yashashdir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning yozishicha, boshqa bilimlar qatorida psixologiya insonni, tadqiq qilish birinchi o'rinda turishi kerakligini yozdi, chunki "bu eng yuksak va ajoyib narsalar haqidagi bilimdir". Ammo hatto eng yaxshi psixolog ham barcha muammolardan xalos bo'lish uchun 100% universal retsept bera olmaydi. U muammoni hal qilish yo'llarini izlashi kerak [5]. Yordamga muhtoj bo'lgan shaxs tananing ichki manbalarini topishga yordam beradi. Psixolog umuman hayotga va muammoni boshqa burchak ostida qarashga, odamni bizning hayotimizga qaratayotgan fikriga yo'naltirishga imkon beradi.

Psixologning asosiy faoliyati bir nechta ko'rinishga ega bo'lib, Psixologik diagnostika (tashxis) - bu tashxislar, tajribalar, kuzatishlardan foydalangan holda inson psixikasining individual xususiyatlarini o'rganish.

Psixologik konsalting - psixolog va mijoz o'rtasidagi muammolarni hal qilish yo'llarini topish uchun maxfiy muloqot.

Psixologik tayyorgarlik - bu o'z-o'zini tartibga solishni, muammolarni hal qilishni, va natijalarni keyingi muhokamalar bilan solishtirish.

Psixolog zamonaviy dunyoda talab qilinadigan kasbdir. Bolalar psixologlari maktablar va bolalar bog'chalarida ishlaydi, bolalarga yangi sharoitlarga moslashish uchun oson va yaxshiroq yordam berishdir. Maktab psixologi bolaning mактабга bo'lgan tayyorligini aniqlaydi, qiyin bolalar bilan individual ishlarni olib boradi, o'rta maktab o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari bilan shug'ullanadi. Yosh mutaxassislar tayyorlash, jamoada munosabatlarni o'rnatish, inson psixikasi, kadrlar tanlash va xodimlar bo'yicha munosabatlarni o'rnatish uchun psixologning yordami kerak. Oilaviy psixolog oilalarga muammolar bilan maslahat beradi. Sport psixologi sportchining g'olib bo'lishi, natija uchun kurashishga yordam berish uchun a'lloqa o'rnatadi va hamkorlik qiladi. Paydo bo'ladigan muammolarni psixologik nuqtai-nazardan ilmiy yondoshgan holatda hal qiladi [6].

Klinik psixolog - psixiatrik kasalxonalarda ishlaydi. Ishonch telefonlarida ishlaydi, bu vaziyatlarda psixologik ta'sirga ega bo'lgan odamlar bilan psixoterapevtik ishlarni olib boradi. Jiddiy kasal, giyohvandlar, OIV tomonidan yuqtirilgan odamlar bilan ham ishlash xususiyatiga ega. Agar kerak bo'lsa, psixiatrik davolash bilan bog'lanadi. Qamoqxonadagi psixolog ozodlikdan keyin normal hayotga moslashishiga yordam berishi kerak bo'ladi.. Psixologlar siyosat va biznesda ham yordam berishga bel bog'lagan fidoiiy insonlardir.


Har qanday kasb o'zining nizom va konsepsiyasiga ega. Psixolog kasbiga ehtiyoj bo'lgani sababli xozirgi kunda Psixologik markazlarni yurtimizning barcha viloyatlarida uchratishimiz mumkin. Bu soha ham boshqa sohalar kabi davlat rivojida, ayniqsa kelajak avlod yuksalishida katta ahamiyat kasb etadi. Psixologlar bajaradigan ishlar barcha sohalarni qamrab olgan. Eng rivojlangan davlatlarda yashovchi fuqorolarning o'zining shaxsiy psixologi mavjud va qanday muammoga duch kelsa birinchi navbatda undan yordam maslahat kutadi. Bundan ko'rinish turibdiki, bizning mamlakatimizda ham kelgusi yillarda bu sohaga ehtiyoj tobora ortadi. Qaysi kasb egasi bo'lmaylik avvalo o'sha kasbni sevishimiz va yetarli bilim darajasiga ega bo'lishimiz kerak. Zamonaviy hayotni psixologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Psixolog kasbi xalq xo'jaligi, tibbiyat va ta'limning turli sohalarida juda mustahkam o'rin oldi. Psixologlar tibbiyat sohasida, ishlab chiqarishda, ta'lim muassasalarda ishlaydi ijtimoiy himoyaga muhtojlarni o'rganadi, aniqlaydi va yordam beradi. Muayyan psixolog ishlaydigan muammolar juda dolzarb: deviant xulq-atvor, ruhiy kasalliliklar, mehnat faoliyati samaradorligini oshirish, yangi ko'nikmalarni o'rganish va boshqalar. Psixolog - albatta Oliy ma'lumotli va quyidagi darajadagi yo'naliishlardan biri bo'yicha; ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika, klinik psixologiya va maslahat yonalishlarida litsenziya olish uchun nufuzli imtihondan muntazam va muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi va tegishli sertifikatga ega bo'lishi kerak [7].

Aslida, biz to'rtta mutaxassis haqida gapiramiz, bu ularning ixtisosligi, malakasi va shaxsiy amaliyotda ham, korporativ, akademik yoki davlat psixologik xizmatlarida ishlashda ham kuchlarini birlashtirish imkoniyatini ko'rsatadi. Psixologning faoliyati juda xilma-xildir. Hozirgi vaqtda psixologiya sohasi jadal rivojiana boshladi va bu sohada o'zini o'zi anglash qirralari hali ko'rinxaydi. Psixolog, psixologiya yo'nalashini tamomlagandan so'ng u nafaqat kundalik

hayotda bilimlarga ega bo‘lish bilan, balki bu bilimlarni turli sohalarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Barxayev B.P. Psixolog kasbiga kirish.1999 yil;
2. Petrovskiy A.V.Yaroshevskiy M.G. Nazariy psixologiya asoslari.1998 yil;
3. Markova A.K. Professionallik psixologiyasi. 1996 yil.
4. Vachkov I.V., Grinshpun I.B., Pryazhnikov N.S. "Psixolog" kasbiga kirish
5. Klimov E.A. Kasblar psixologiyasiga kirish. 1998 yil;
6. Klimov E.A. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash psixologiyasi. - Rossiya, 1996 yil.
7. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. T., TDPU, 2002.
8. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. O‘z.FMJ., 2008.
9. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: 2009.



**Research Science and
Innovation House**

Ochiq urug‘lik o‘simliklar

Andijon Davlat pedagogika instituti Dotsenti,
Tojiboyev Murodali Umaraliyevich

Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti, Biologiya
Yo‘nalishi 2-kurs talabasi Botirov Mashhurbek Diyorbek o‘g‘li
(botirovmashhurbek2108@gmail.com)

Andijon davlat pedagogika inistitutining Tabiy fanlar fakulteti talabasi
Samatov Oyatillo Shokirjon o‘g‘li (samatovoyatullo@gmail.com)

Annotatsiya: Igna barglilar asosan monopodial, qisman simpodial tipda shoxlanadi. Velvichiylar tartibidan faqat 1 ta tur saqlanib qolgan. Qarag‘ay daraxtining bo‘yi 40-50 m bo‘lib, u 500 yilgacha yashaydi. 2 gr mikros bo‘yicha hosil qilingan nina barglar. Bargi 2-5 yilda to‘kiladi. 1 gr megofilli bo‘yicha poporotniklarga o‘xshash barglar. Megosporofilning otalanishidan urug‘ rivojlanadi. Hozirgi vaqtida qarag‘aylar, sagovniklar, gnetoviylar keng tarqalgandir.

Kalit so‘zlar: Urug‘lik paportniklar, Sagouniklar, Ginkgolar, Bennetitlar, Igna barglilar, Kordaitlar, Ignacha barglilar.

Key words: Seed ferns, Sagouniks, Ginkgos, Bennettites, Conifers, Cordaites, Ignacha leaves.

Ключевые слова: Семенные папоротники, Сагуники, Гинкго, Беннеттиды, Хвойные, Кордайты, листья Игначи.

Quruqlik sharoitida yashaydigan va urug‘ yetishtiradigan yuksak o‘simliklar urug‘li o‘simliklar deb ataladi. Bu o‘simliklarda urug‘ bo‘lishi bilan arxegonal yuksak o‘simliklardan, ya’ni moxlar, riniofit, plaun, qiriqbo‘g‘ va paparotniklar dan tubdan farq qiladi yuksak urug‘ yetishtiruvchi o‘simliklar asosan yuqorida sporali yoki arxegoniylardan kelib chiqqan. Urug‘li o‘simliklar ikki bo‘limga: ochiq urug‘lilar (Gymnospermae) va yopiq urug‘lilar (Angiospermae) ga bo‘linadi. 2. Ochiq urug‘lilar qadimiy o‘simliklar bo‘lib, ularning qadimiy avlodlari toshko‘mir davrining oxirlarida yashaganlar. Jumladan urug‘li paparotniklar, bennettitlar, keytonlilar yo‘qolib ketib, qazilma holda saqlanib qolganlar. Ginkoviylar, velvichiylarni bittadan turi saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtida qarag‘aylar,

sagovniklar, gnetoviylar keng tarqalgandir. Yer yuzida ochiq urug‘lilarning hozir 660 turi mavjud bo‘lib, asosan daraxt, qisman buta va liana turlari uchraydi.

Shoxlanishi monopodial bo‘lib, poyasi kambiy va fellogen to‘qimalarining faoliyati natijasida o‘ziga xos tuzilishga ega. Ikkilamchi yugonlashish xususiyati bilan yopiq urug‘li o‘simliklarga yaqin tursada histologgi elementlaridan tarxeyalardan tuzilganligi va o‘tkazuvchi bog‘lamlar yo‘qligi bilan ulardan farq qiladi. Bargining tuzilishiga ikki guruhga bo‘linadi. 1 gr megofilli bo‘yicha poporotniklarga o‘xhash barglar. 2 gr mikros bo‘yicha hosil qilingan nina barglar. Bargi 2-5 yilda to‘kiladi. Ochiq urug‘lilar doimiy yashil o‘simliklar bo‘lib, ildizi-asosiy va yon ildizlardan iborat, mikoriza hosil bo‘ladi.[2,7]

Ochiq urug‘li o‘simliklarning xarakterli xususiyatlaridan biri urug‘ va urug‘ kurtakni ochiq bo‘lishidir. Ularning urug‘lari mevaning ichida emas, balki megosporafillarda ochiq holda joylashadi.Urug‘kurtak megosporangiydan nutsellusdan tashkil topgan bo‘lib, tashqi tomonidan intgument bilan o‘rab olingan. Megosporofilning otalanishidan urug‘ rivojlanadi. Ochiq urug‘lilarning muhim xususiyatlaridan biri spermatozoidning spermiyaga aylanishidir. Spermiyani hosil bo‘lishi bu o‘simliklarni suvsiz muhitida ham otalanishiga imkon yaratib beradi. Ochiq urug‘li o‘simliklar bir tomonidan yuqori sporali o‘simliklarga 2-birtomondan yopig urug‘li o‘simliklarga. Ochiq urug‘li o‘simliklarga butalar,daraxtlar kiradi. Yopiq urug‘li o‘simliklar orasida daraxtlar, butalar, yarim butalar va o‘tli o‘simliklar uchraydi. Ochiq urug‘li o‘simliklar asosan monopodial tipda shoxlanadi. Yopiq urug‘li o‘simliklar esa monopodial,simpodial va dixatomik ravishda shoxlanadi. Ochiq urugi o‘simliklarda suv naylari bo‘lmaydi. Suv naylari vazifasini traxeidlar bajarib turadi. Yopiq urug‘li o‘simliklarning to‘qimasida esa suv naylari xamda traxeidlar bo‘ladi.Ochiq urug‘li o‘simliklarning urug‘kurtagi ochiq yerda taraqqiy etadi. Yopiq urug‘li o‘simliklarni urug‘i mevaning ichida taraqqiy etadi. Ochiq urug‘li o‘simliklarda esa urug‘ g‘uddalarda taraqqiy etadi. Bularda meva bo‘lmaydi. Ochiq urug‘li o‘simliklardagini aksi, yopiq urug‘li o‘simliklarni mevasi bo‘ladi. Ochiq urug‘li o‘simliklarning endosperma to‘qimasi otalanish protsessidan oldin hosil bo‘ladi. Yopiq urug‘li o‘simliklarda esa endosperma to‘qimasi otalanishdan keyin hosil bo‘ladi. Ochiq urug‘li o‘simliklarda qo‘shaloq otalanish bo‘lmaydi, yopiq urug‘li o‘simliklarda ochiq urug‘li o‘simliklarga butalar,daraxtlar kiradi. Yopiq urug‘li o‘simliklar orasida daraxtlar, butalar, yarim butalar va o‘tli o‘simliklar uchraydi. Ochiq urug‘li o‘simliklar asosan monopodial tipda shoxlanadi. Yopiq

urug‘li o‘simliklar esa monopodial,simpodial va dixatomik ravishda shoxlanadi. Ochiq urugi o‘simliklarda suv naylari bo‘lmaydi. Suv naylari vazifasini traxeidlar bajarib turadi. Yopiq urug‘li o‘simliklarning to‘qimasida esa suv naylari xamda traxeidlar bo‘ladi.

Ochiq urug‘li o‘simliklarning urug‘ kurtagi ochiq yerda taraqqiy etadi. Yopiq urug‘li o‘simliklarni urug‘i mevaning ichida taraqqiy etadi. Ochiq urug‘li o‘simliklarda esa urug‘ g‘uddalarda taraqqiy etadi. Bularda meva bo‘lmaydi. Ochiq urug‘li o‘simliklardagini aksi, yopiq urug‘li o‘simliklarni mevasi bo‘ladi. Ochiq urug‘li o‘simliklarning endosperma to‘qimasi otalanish protsessidan oldin hosil bo‘ladi. Yopiq urug‘li o‘simliklarda esa endosperma to‘qimasi otalanishdan keyin hosil bo‘ladi. Ochiq urug‘li o‘simliklarda qo‘shaloq otalanish bo‘lmaydi, yopiq urug‘li o‘simliklarda.

Ochiq urug‘li o‘simliklarga butalar,daraxtlar kiradi. Yopiq urug‘li o‘simliklar orasida daraxtlar, butalar, yarim butalar va o‘tli o‘simliklar uchraydi. Ochiq urug‘li o‘simliklar asosan monopodial tipda shoxlan adi. Yopiq urug li o‘simliklar esa monopodial, simpodial va dixatomik ravishda shoxlanadia Ochiq úrugi o‘simliklarda suv naylari bo‘lmaydi. Suv naylari vazifasini traxeidlar bajarib turadi. Yopiq urug‘li o‘simliklarning to‘qimasida esa suv naylari xamda traxeidlar bo‘ladi. Ochiq urug‘ li o‘simliklarning urug kurtagi ochiq yerda taraqqiy etadi. Yopiq urug‘li o‘simliklarni urug‘i mevaning ichida taraqqiy etadi. Ochiq urug‘li o‘siliklarda esa urug‘ g‘uddalarda taraqqiy etadi. Bularda meva bo‘Imaydi. Ochiq urug‘li o‘simliklardagini aksi, yopiq urugi o‘simliklarni mevasi bo‘ladi. Ochiq urug‘lio‘simliklarning endosperma to‘qimasi otalanish protsessidan oldin hosil bo‘ladi. Yopiq urug‘ li o‘simliklarda esa endosperma to‘qimasi otalanishdan keyin hosil bo‘ladi. Ochiq urug‘li o‘simliklarda qo‘shaloq otalanish bo‘Imaydi, yopiq urug‘li o‘simliklarda.

Ochiq urug li o‘ simliklar 7 ta sinfga bo‘ linadi:

- 1. Urug‘li paprotniklar
- 2. Sagouniklar.
- 3. Bennetitlar.
- 4. Kordaitlar.
- 5. Ginkgolar
- 6. Igna barglilar
- 7. Ignacha barglilar [10,3]

Ular o‘zining tashqi tashqi ko‘rinishi bilan hozirgi daraxtsimon qirqquloqlarga o‘xshar, lekin har xil sporali bo‘lib, urug‘ yordamida ko‘payishi bilan ulardan farq

qiladi. Uning poyasida qo'sh patsimon yirik – yirik murakkab barglar bo'lar, ularning asosiy bandlari ko'pincha dixotomik shoxlanar edi.

SAGOVNKLAR. Sagovniklar hozir yashab turgan o'simliklar bo'lib, eski (Cycas, Macrozamia, Bowenia, Encephalarthos, Stangeria kabi avlodlar) va yangi dunyoning (zamia, Microcycas, Ceratopramia, Pioon avlodlari) tropik hamda subtropik mintaqalarida tarqalgan 9 ta avlodi o'z ichiga oladi.

Sagovniklar -ustunsimon oddiy poyali daraxtlardan; poyasi axayon – axyonda shoxlangan bo'ladi. Poyasininguchida juda yirik, patsimon qalin-qattig barglar tojdek bo'lib turadi. Mikrosporangiyllari tangachasimon mikrosporofillarning chetida turadi yoki tangachasimon makrosporofillardan joy olgan, mikrosporofillari to'p-to'p bo'lib, otalik qubbalarini hosil qiladi. Makrosporangiyllar (urug' kurtaklar) makrosporofillarning chetida turadi yoki tangachasimon mikrosporofillardan hásil bo'lgan onalik qubbalaridan joy oladi. Bú tartib Cucas (yoki sagovnik) misol bo'la oladi. Barcha ochiq urug liklar singari, Cucas har xil sporali o'simlik bo'lib, makrova mikrosporalar bilan ko'payadi. Ko'pchilik Sagovniklar Cucas ga o'xshash, aksari shoxlanmaydigan to'g'ri poyali o'simliklar bo'lib, poyasining uchida uzunligi 2,5-3 m ga baradigan yirik – yirik barglar chiqaradi. [2,6,7]

KORDAITLAR. Kordaitlär asosah paleozoy erasida o'sib, hozir qurib bitgan o'simlik tartibidir. Tartibning eng yaxshi o'rga-nilgan vakili Cordates avlodidir. Tanasida serbar yog' och zonasi bilan o'r algan, o'sha yog'och qismi tuzilishi jihatidan ninabarglilarning yog'och qismiga o'xshagan edi. Kordaitlar boshqa ochiqurug'lilar bilan birgalikda toshko'mir davrining o'rtasidan Perm davri oxírigacha Shimoliy va Janubiy yarim sharlarda o'rmonlar hosil qildilar. Kordaitlar asosan monopodial tavaqalangan tanasi (ba 'zan ichi bo'sh) va baland tojli yirik ikki qavatli daraxtlar edi (balandligi 20-30 m gacha va diametri 1 m gacha). Chiziqli, lansolat, romboid yoki kamarga o'xshash shakllarning spiral ravishda joylashgan barglari 3-4 sm dan 100 sm gacha bo'lgan o'lchamga ega Sirg'aga o'xshash bir jinsli strobili barglar goltig'ida yoki ular orasida rivojlandi. Kordaitlar ko'mir konlarini shakllantirishda qatnashdilar, ularda kordaitlar (kogdaitlar) va kordaitantsular (kordaitantsular) avlodlari a'zolarining qoldiqlari eng yaxshi saqlanib qolgan. Kordaitlar ignabargli daraxtlarning ajdodlar guruhi sifatida qaraladi.

GINKGOLAR. Gingkoales tartibi hozir Ginkgoaceae degan atigi bitta oillani o'zichiga oladi, bu oilaning bírdan-bir vakili ginkeo (Ginkgo biloba) dir. G.Biloba ajdodi bo'ladigan daraxt bo'lib, balandligi 30-40 m ga, yo'g'onligi 3-4 m ga yetadi.

Poyasi 18 sm gacha boradi, masalan, Avstraliyada o'suvchi Macroramia Hopei ning poyasi shuncha keladi. Bennetitlar tashqi ko'rinishidan sagovniklarga o'xshab yura davrida rivojlangan. Yer yuzini qoplab so'ng yuqori bo'r davrida butunlay yo'qolib ketgan o'simliklardir. Bennetttlarning ichki tuzilishi urug'li qirqquloqlilar bilan sagovniklarning ichki tuzilishiga juda yaqin. Ularning poyalarida kambiyatlari lub va ancha qalin po'stloq, birlamchi, ikkilamchi yog'ochlik xalqalarni hosil qiladi. Bennetitlarni g'uddasi o'zidan oldingi sinf o'simliklarning g'uddasidan ikki jinsiyligi bilan farq qiladi. Fuddaning tashqi tomonidagi ko'plab mikrosporangiylarda mikrosporalar yetilsa, g'uddaning markazdagi juda qisqargan makrasporofitda bitta urug kurtak rivojlanadir. Sporofitlar tashqi tomonidan po'stlog'i to q kul rang va silliq bo'lib, keyinchalik har tomonga yeyilib ketadigan piramida shox-shabbasi bor. Ginkgo barglari juda g'alati: ular odatda ikki bo'lakka bo'lingan uchburchak plastinkadan iborat bo'lib, uzun bandga aylanadi; ba'zan plastika yaxlit bo'ladi. Ginkgo – ikki uyli o'simlikdir: uning mikro va makro sporangiylari har xil individda hosil bo'ladi.[1,3,4,9]

IGNA BARGLILAR.

Bu sinfga 6 ta ailá 40 avlod,450 tur kiradi. Bular xozirgi zamon iqlimiga ham moslashgan. Lgnabarglilar sinfiga daraxtlar, qisman butalar kiradí. Bu sinfga kiruvchi o'simliklardan yer yuzida ko'p tarqalganlari: Sosna, qarag'ay, archa, pixta, kiparis, mojevelnik va boshqalar. Ignabarglilarining bargi qattiq, ensiz, ignasimon, ba'zan tangachasimon bo'lib, yosh shoxchalarda spiral yoki qrama-qarsh joylashgan, Ignabarglilarining barglari ko'pchiligi ignasimony bo'lgani uchun ularga shuhday nom berilgan. Lgna barglilar asosan monopodial, qisman simpodial tipda shoxlanadi. Masalan: Mamont daraxti simpodial tipda shoxlangan bo'ladi. Bu daraxt yer yuzida uchraydigan daraxtlarning eng kattasidir. Uning bo'yi 150m, eni esa 40 m bo'lib u uzoq yil yashaydi. Lgna bargli o'simliklarning ildizida ildiz qini bo'lmaydi, ildiz qini o'rnida ektotrof mikorizálar bo'ladi. Ignabarglilar jinsiz va jinsli yo'lda ko'payadi. Oddiy qarag'ay 1 uyli doim yashil 2 jinsli o'simlik bo'lib, yer yuzida juda ko'p tarqalgan. Qarag'ay daraxtining bo'yi 40-50 m bo'lib, u 500 yilgacha yashaydi. Qarag'ay daraxtining poyasida va bargida smola yo'llari bo'lib, unda smola ishlanib chiqadi.

IGNABARGLILAR SINFI. Bu sinfga kiruvchi o'simliklar 1 uyli 2 jinsli yoki 2 uyli 1 jinsli bo'ladi. Bular da smola yo'llari mutlaqo bo'lmaydi. Ignacha barglilar sinfi quyidagi tartibga bo'linadi: Ignabargli daraxtlar eng katta ostsinf hisoblanadi,

shu jumladan 560 ga yaqin tur, 56 oila va 7 turkum. Asosiy turlarning xilma-xilligi janubiy yarim sharda: Yangi Zelandiya, Avstraliya, Janubiy Amerikaning mo‘tadil mintagalari, Tinch okeanining havzasi. Bунf qanday tushuntirish mumkin. Sayyoramizrnning ushbu qismida kontinental mintaqalarda bo‘lgani kabi iqlimning késkin tebranishlari bo‘lmagan. Poyasi ingichka po‘stloq va massiv yog‘ochga ega, bu 90-95% traxeidlar va juda kam parenximadir. Ko‘pgina ignabargli daraxtlarda qobiqda ham, yadroda ham efir moylari bilan to‘ ldirilgan qatronlar kaňallari mavjud. Ko‘pgina ignabarglidaraxtlarda kuchli lateral ildiz paydo bo‘lib Aundan uzun lateral ildizlar tarqaladi. Ko‘pgina ignabargli barglarning barglari ayrisimon, tor chiziqli yoki shkalaga o‘xshash bo‘lib, ular igna deb ataladi. Birog, Agathis (Araucariaceae oilasi) tropik turida ular Monokotlarning barglariga o‘xshaydi keng lansolat uzunligi 18 sm, kengligi 6 sm, shuningdek Podokarplar oilasining vakillarida uzunligi 35 sm, kengligi 9 sm keladi

VELVICHIYALAR. Velvichiylar tartibidan faqat 1 ta tur saqlanib qolgan. Bu tur yani Velvichiya janubiy Afrikada o‘sadi. Velvichiyaning bo‘yi juda past. Uning 2 ta bargi bo‘lib, bu barg 100 yilgacha yashay oladi. Velvicia – bu ikki bargli rozetka o‘simlik bo‘lib, qalin poya shaklidagi poyasi bor, ularning aksariyati gipokotil. Velvichiya urug‘i gametofit to‘qima bilan o‘ralgan embriondan iborát bo‘lib, uembrion rivojlan ish in ing dastlabki bosqichida ozuqa moddalarining zaxirasi bo‘lib xizmat qiladi. Uxlab yotgan urug ‘ichida Velvichiya embrioni uzun katak, kalta qalinlashgan gipokotil va apikal kurtakdan iborat bo‘lib, ikkita urug‘palla bilan yopilgan. Urug‘ning tashqi qopqog‘ida ikkita jngich ka qanotsimon o‘simta bor. Qobiqning ma’lum joylari tolat va juda gigroskopik bo‘lib, urug minimal nantik bilan ham shishishiga imkon beradi. Ildiz qalin, burilishli, uzunligi 1-1,5 (3) m (ilgari u yer osti suvlariga etib borishi mumkin deb ishonilgan edi, ammo keyinchalik bunday bo‘limagan). Shu bilan birga, lateral ildizlarning rivojlanishiva intensiv ravishda tarvaqaylanishi ikki qatlamda sodir bo‘ladi.

ARCHA. Archa Cypréss oilasiga mansub. Archa daraxtlarining ayrim navlari balandligi 15 metrgacha o‘sishi mumkin. Archaning unmri taxminan 600 yil. Archa bahor oxirida, sovuq joylarda esa yozning boshlarida gullaydi. Gullari konus va spikeletdir. Urg‘ochi konuslari och yashil rangga, erkaklar spikeletlari esa biroz bo‘yalgan, sariqrangga bo‘yalgan, Archa mevafari tashqi ko‘rinishida reza vorlaraga o‘xshashdir. Ular qubbalarda joylashgan va diametri taxminan bir sm gacha o‘sadi. Qubbaning mevalari bir-biriga mahkam yopishadi, shuning uchun ular ochilmaydi.

Ular yoqimli achchiq hidga ega va sentyabr oyida ikki-uch yil davomida pishib etishadi. Yoqimliy ignabargli aroma tufayli mevalar turli sanoat sohalarida gollanilad Archa ignabargli va doim yashil o'simlik hisoblanadi. Archa ignalari turli xil ranglarda va yashil ranglarda bo'lishi mumkin. Ba'zi navlarda sariq rangli yoki stomatal chiziqli yashil ignalar mavjud. Ignalar qattiq va o'tkir va uzunligi bir santimetrgacha o'sadi. [1,5,8]

Xalq hojaligidagi ahamiyati jihatdan keng foydalaniladi. Ochiq urug'lilar juda katta maydonlarda Tayga o'rmonlarini hosil qiladi. Tayga o'rmonlarida o'ziga xos biotsenoz hosil bo'ladi. Natijada turli hayvonlar, xashoratlar, qushlar turlarini oziqlanishi va ko'payishi uchun sharoit vujudga keladi. O'rmonlar suv va tuproqni eroziyadan saqlaydi. Kurilish materiali hisoblanadi. Yog'ochsuzlik sanoatining xom ashyo bazasidi. Ingichka barglilardan viskoza, ipak, sellioza, balzam, smola, spirt, uksus kislotasi, oshlovchi moddasi olinadi. Sibir qarag'ayi urug'i tarkibida 79% gacha yog' mavjud. Medetsina sanoatida vitamin-lar, preparatlardan pinobin olinadi. Halq medetsinasida nerv kasallarini davolashda, tuberkulyoz, buyrak, siyidik qopini, gemorroye kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Faqat yog'ochdan 20 mingdan ortiq turi material va modda olinadi. Bir kub metr yog'ochdan 15 ming metr sun'iy ipak yoki 600ta trikotaj kostyum yoki 200 kg qog'oz olinadi. O'rmon bo'ylik deb bejiz aytilmagan. Qarag'ay poyasidan skipidar, bargidan smola olinadi. Skipidar bod kasalligida surtiladi. Efedradan efedrin degan alkaloid olinadi. Efedrin alkaloidi medisinada katta ahamiyatga ega. U bod va boshqa kasalliklarga ishlataladi. Archalar esa o'zidan fitonsidlarni ishlab chiqaradi. Bu modda esa bakterasid xossaga ega bo'lib bakterialarni faoliyatini susaytiradi yoki ularni nobud qiladi.

Ochiq urug'li o'simliklar bir tomonidan yuqori sporali o'simliklarga 2-bir tomonidan yopiq urug'li o'simliklarga o'xshaydi. Ochiq urug'li o'simliklar urug' beradigan qirqulloqlardan, yopiq urug'li o'simliklar ochiq urug'li o'simliklardan kelib chiqqan. Shuning uchun oraliq sinf ham hisoblanadi.

**Research Science and
Innovation House**



Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. S.Mustafayev, O .Ahmedov “Botanika” Oliy o‘quv yurtlari uchun Tafakkur-Bo‘stoni”
2. Xrjanovskiy V.G. “Kurs obuiyey botaniki” II tom «Vb/Sshaya shkola» 1982.
3. Kursanov Lh Komarnitskiy N.A, Meyyer K.I,Razdorskiy V.FUranov. A “Botanika” II tom, O’simliklar sistematikasi”, Toshkent 1972
4. Jebrak A.R.”Kurs botaniki”, M.Sovetskaya nauka, 1949.
5. Jukovskiy P.M “Botanika”M,Sovetskaya nauka 1949.
6. Komilova F.Jonurazov F.”Botanikadan amaliy mashg‘ulotlar”, “Mexnat” 1986.
- 7.G.P.Yakovlev., V.A.Chelombitko.Botanika. M.Iz-Vo “Vissaya shkola” 1990 yil
8. Xolida Mirfayoz qizi Maxkamova. Botanika.
- 9.T”O‘qituýchi» 1995 yil.
10. M.Toshboyeva, A. Saloyeva, M.Tojiboyev QARAG‘AYTOIFA (PINOPHYTA) O‘SIMLIKLARINING BOTANIK TAVSIFI. SISTEMATIKASI, TARQALISHI AHAMIYATI

**Research Science and
Innovation House**



O’simlik va Hayvonlarni huquqiy muhofaza qilish ekologiyasi

Andijon davlat pedagogika inistituti, Biologiya va gegografiya o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qtuvchisi Usmonov Dilmurodjon

Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti, Biologiya Yo‘nalishi 2-kurs talabasi Botirov Mashhurbek Diyorbek o‘g‘li
(botirovmashhurbek2108@gmail.com)

Andijon davlat pedagogika inistitutining Tabiy fanlar fakulteti talabasi
Samatov Oyatillo Shokirjon o‘g‘li
(samatovoyatullo@gmail.com)

Annatatsiya: Noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida. Biologiya resurslaridan oqilona foydalanish. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Yo`qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq ovlash qoidalari. Flora va faunaga zarar yetkazish jarimalar. Prezidentning 31-maydagи “Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Kalit so‘zlar: Flora, fauna, qonunlar, qarorlar, farmonlar, moddalar, konvensiyalarga, kadastr.

Ключевые слова: Флора, фауна, законы, постановления, указы, статьи, конвенции, кадастр.

Key words: Flora, fauna, laws, decisions, decrees, articles, conventions, cadastre.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘simlik dunyosiga nisbatan mulkchilikning huquqiy holati o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘simlik dunyosi davlat mulki -umummilliy boylik bo‘lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir (55-modda). O‘simlik dunyosi obektlari mulkchiligiga nisbatan xuddi shunday huquqiy holat “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (4- 2 modda),

“O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (3-modda), “O‘rmon to‘g‘risida”gi (3-modda), “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunlarda ham belgilangan. O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar tabiiy sharoitda o‘sadigan o’simlik dunyosi, shuningdek takror ko‘paytirish va genetik fondini saqlash uchun yekib o‘stirayotgan yovvoyi o’simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi floraning tur tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish, tabiiy o’simliklar jamoalarining va yovvoyi o’simliklar o‘sadigan muhitning bir butunligini saqlash, o’simlik dunyosidan oqilona foydalanish va uni takror ko‘paytirishni ta’minlash, yuridik va jismoniy shaxslarning o’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatlarini huquqiy tartibga solish, o’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalari buzilganda aybdorlarga tegishlicha mulkiy, ma’muriy, jinoiy javobgarlik jazo choralarini qo‘llashdan iborat bo‘ladi. O’simlik dunyosi obektlarini muhofaza qilish va undan foydalanish bo‘yicha huquqiy holatni belgilashda O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi va “O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning «Noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o’simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Biologiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tash q arisiga olib chiqish ustidan nazoratni kuchaytirish t o‘g‘risida»gi qarori, alohida o‘rinni yegallaydi. Bu normativ-huquqiy hujjatlarda o’simlik dunyosi obektlari, ushbu obektlardan foydalanish turlari, muddatları, normativlari, foydalanuvchilarining huquq va majburiyatylari, o’simlik dunyosi obektlaridan foydalanishni cheklash, to‘xtatish va man yetish, o’simlik dunyosi obektlarining monitoringi, davlat kadastri kabi masalalar tartibga solingan. O’simlik dunyosidan foydalanish huquqi tushunchasi ham qonunda o‘z ifodasini topmagan. O’simlik dunyosi tushunchasi yuridik adabiyotda ham hali tadqiqot predmeti bo‘lgan yemas. Bizningcha, O’simlik dunyosidan foydalanish huquqi deganda, ma’muriy-ruxsat berish huquqi va shartnomaga asosida kelib chiqadigan hamda foydalanish huquqi yoki yegalik qilish huquqi yoxud yegalik qilish huquqi doirasida amalga oshiriladigan subektiv huquq, shuningdek o’simlik dunyosidan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan

tegishli huquq tarmog‘ida belgilangan huquqiy me’yorlar jamlanmasi ga aytildi. Huquqiy adabiyotlarda faqat o‘rmon tushunchasi va o‘rmondan foydalanish huquqi tushunchalarigagina e’tibor qaratilgan. Ma’lumki, o‘simplik dunyosi tushunchasi o‘rmon tushunchasiga nisbatan ancha keng bo‘lib, undan ba’zi jihatlari bo‘yicha farq ham qiladi. Masalan, o‘rmon tushunchasiga dov-daraxtlar bilan qoplangan yerlar bilan bir qatorda, dov-daraxtlar bilan qoplanmagan, ammo shu maqsadlarga ajratilgan yerkarni ham kiritamiz.[1]

Bugungi kunda O`zbekiston faunasi 709 turdag'i umurtqali, shu jumladan 470 turdag'i qush, 109 turdag'i sute Mizuvchi, 64 turdag'i sudralib yuruvchi, 63 turdag'i baliq, 3 turdag'i amfibiya hamda 15000 turdan ortiq umurtqasiz hayvonlardan tashkil topgan. Mamlakatimizda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha 1997 yilda O`zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni, biologik resurslarni, shu jumladan hayvonot dunyosini saqlash va ulardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan bir qator qonunosti hujjatlar qabul qilingan. Shu bilan birga, O`zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, ushbu sohada xalqaro munosabatlarga integrasiyalashuv maqsadida qator muhim xalqaro ekologik normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xal-qaro savdo qilish to‘g‘risida”gi, “Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq joylari to‘g‘risida”gi Konvensiyalarga qo‘shildi, yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlatlararo bitimlar imzolandi.

2009 yilda nashr etilgan O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 184 turdag'i yovvoyi hayvonning kiritilganligi hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasida oldimizda ulkan vazifalar turganidan dalolat beradi. Chunonchi, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qonunchilik talablarining buzilishi keng tarqalgan bo‘lib, tabiatni muhofaza qilishga oid jami qonunbuzarlikning 40 foizga yaqinini tashkil etadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2010-2014 yillarda davomida biologik resurslarni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun 35 ming nafardan ortiq shaxslarga 1882,2 million so‘m miqdorida jarima solingan, yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha esa 970,2 million so‘mlik da‘volar kiritilgan. Shu nuqtai nazardan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik

palatasining bir guruhi deputatlari tomonidan xalqaro amaliyot va milliy tajribani o`rganib, amaldagi qonun bo`shliqlarini bartaraf etish, qonun normalarini amalgalashish bo`yicha aniq mexanizmlarni belgilash hamda huquqni qo`llash amaliyoti samaradorligini oshirish maqsadida “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida”gi qonunning yangi tahrirda tayyorlangani alohida ahamiyat kasb etadi.[2,3]

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O`zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi a`zolari mazkur qonun loyihasini atroflicha muhokama etib, unda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari, davlat boshqaruvini amalgalashishchi organlar va ularning vakolatlari aniq belgilanayotganligini, hayvonot dunyosi ob`ektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalar berish tartibi, yovvoyi hayvonlarni tutish hajmlarini belgilovchi aniq prosessual mexanizmlar o`rnatalayotganligini, hayvonot dunyosi ob`ektlarini mamlakatimizga olib kirish va olib chiqish qoidalari va shartlari aniqlashtirilayotganligini, ushbu sohadagi ishlarga keng jamoatchilikni jalb etish va faolligini oshirishga yo`naltirilgan normalar mustahkamlanayotganligini alohida e`tirof etdilar.

Bizning loyihamda hayvonot dunyosi ob`ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish mexanizmlarining takomillashtirilayotgani ayni muddaodir. Chunki, amaldagi qonunning 8 moddasida hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish, hayvonot dunyosi davlat kadastr masalalariga oid normalar belgilangan. Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Biroq, ushbu ishlarni ham O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari, ham qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini belgilash respublika va mahalliy darajadagi mavjud tabiatni muhofaza qilish fondlari hamda turli grant mablag`larini ushbu maqsadlarga jalb qilish imkonini yaratadi (qonun loyihasining 15-moddasi). Bu kadastr ishlarni yuritish sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun fraksiyamiz hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish uchun boshqa mablag`larni ham jalb qilishni maqbul deb hisoblaydi. Ayni shu nuqtai nazardan, O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a`zolarining bu ishlar faqat O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi zarur, tabiatni

muhofaza qilish fondlarining mablag`laridan esa Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish maqsadida foydalanish lozim, degan fikriga qo`shilib bo`lmaydi. XDP fraksiyasining bu boradagi pozisiyasi biz uchun tushunarsiz. Chunki Davlat byudjetidan tashqari mablag`larni hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish maqsadida jalb etish Davlat byudjeti mablag`larini iqtisod qilishga olib keladi. Bu esa Davlat byudjetidan ijtimoiy sohani moliyalashtirishga, partiya elektorati hisoblanadigan kam ta`minlangan aholi qatlamini yanada qo`llab-quvvatlashga zamin yaratadi.[4]

Shuningdek, qonun loyihasining 36-moddasida ov qilishda taqiqlangan qurollar va ov qilish usullarini qo`llashga yo`l qo`yilmasligi holati belgilanmoqda. O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a`zolarining fikricha, mazkur moddada taqiqlangan qurollar hamda ov qilishning taqiqlangan usullarini to`liq bayon etish lozim. Biroq, bizningcha, qonun normasida barcha taqiqlangan quroq hamda ov qilishning taqiqlangan usullarini sanab o`tishning imkoniy yo`q. Chunki, vaqt o`tishi bilan turli-tuman ov qurollari hamda usullari paydo bo`lishi, ularning ayrimlari bizning mamlakatimizda taqiqlanishi mumkin. Shuning uchun taqiqlangan quroq va usullarning O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi raisining buyrug`i bilan tasdiqlangan hamda O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro`yxatga olingan “O`zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq ovlash Qoidalari”da aks etganligini to`g`ri, deb hisoblaymiz.[1,2,5]

Qonun loyihasining 49-moddasi bo`yicha ham partiya fraksiyalari o`rtasida turli tortishuv va bahs-munozaralar kelib chiqmoqda. Bu boradagi muxolifat fraksiyalar taklif etayotgan masala, ya`ni hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi bo`yicha javobgarlikni yanada oshirish masalasiga fraksiyamiz qo`shilmaydi. Chunki, amaldagi qonunchilik, xususan, O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksining 63, 90, 92, 93, 94 va 222-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 202-moddasida ushbu yo`nalish bo`yicha javobgarlik masalalari aniq belgilangan.[1,4]

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda g`ayriqonuniy ov mahsulotlarini qabul qilish, ov qilish, baliq tutish, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish, hayvonlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish hamda zoologik va botanik kolleksiyalarni vujudga keltirish va ular bilan savdo qilish qoidalarini buzish,

noyob yoki yo`q bo`lib ketish xavfi mavjud bo`lgan hayvonlarni yo`q qilib yuborish, o`lja olish, qirilib ketishi, soni kamayib ketishi yoki yashash muhiti buzilishiga sabab bo`lishi mumkin bo`lgan boshqa harakatlarni sodir etganlik uchun ma`muriy hamda hayvonot dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarliklar belgilangan. Shu bois, bizningcha, bu sohadagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda qonunbuzarlarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta`minlash maqsadga muvofiqdir. Ekologiyaga zarar yetkazish va hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik uchun jarimalar oshiriladi. O`zbekistonda atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog`liq jinoyatlar og`ir jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Shuningdek, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo`lish va chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash uchun jarimalar miqdori sezilarli darajada oshiriladi. Ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazish, o`simplik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog`liq jinoyatlar og`ir jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Bu prezidentning 31-maydagи “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to`g`risida”gi qarorida belgilandi. Qayta nomlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o`zgarishi vazirligiga 1-sentabrga qadar Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini tayyorlash topshirildi. Xuddi shu sanaga qadar davlat o`rmon fondiga kiritilmagan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga qo`yiladigan moratoriyl talablarini buzganlik uchun ma`muriy jarima miqdori 5 baravarga oshiriladi. Shu bilan birga, noqonuniy kesilgan daraxt o`rniga uning kompensatsiyaviy daraxt ko`chatlarini aynan daraxt kesilgan joyga ekish majburiyati belgilandi. Bundan tashqari, yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 300 baravarigacha bo`lgan miqdorda moliyaviy jarimalar qo`llanadi. O`zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlarning noqonuniy ovlanishi oqibatida hayvonot dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari 10 baravarga hamda o`simpliklarning o`sishdan to`xtash darajasigacha shikastlantirish yoki yo`q qilish bilan ularga yetkazilgan zararning undirilishi summalari 5 baravarga oshiriladi. Sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarni to`plash, tashish, joylashtirish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishslash va realizatsiya qilish chog`ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, shuningdek, qattiq maishiy va qurilish chiqindilarini belgilanmagan joylarga tashlash hamda suyuq maishiy chiqindilarni to`kkilik uchun ma`muriy jarimalar miqdori 10

barobarga oshirgan holda qo‘llanadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarga nisbatan BHMning 100 dan 300 baravarigacha bo‘lgan miqdorda moliyaviy jarimalar joriy etiladi. Suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suv to‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek, suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yilishi shartlari to‘g‘risidagi talablarini buzganlik uchun ma’muriy jarimalar miqdori 5 baravarga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimiz o‘simgilik, hayvonlarni asrab avaylashimiz bizning majburiyatimiz hisoblanadi. Kelajak avlodlarmizga biologik resurslarni butunligicha yetkazmog‘imiz bizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi S. Buriev, D. Maxkamova, V. Sherimbetov 2019 Noshir
2. Ekologiya T. Tilovov HIOL NASHRIYOTI.
3. O‘simgiklarni muhofaza qilish va foydalanish asoslari. (oefen.uz)
4. Arxiv.uz
5. M.D Botirov, O.Sh Samatov, O.M Muxsinboyev Chiqindilarni qayta ishslash davr talabi
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/05/zero-waste/>.

Research Science and Innovation House

IMPROVEMENT OF THE CHX-3M2 LARGE DIRT CLEANING EQUIPMENT BRUSH

Azizbek Rakhimjonov

Assistant, Department of Natural Fibres, Fergana Polytechnic Institute, Fergana,
Uzbekistan

E-mail: a.raximjonov@ferpi.uz

Ogiloy Usmanova

Student, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Madina Khasanova

Student, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Abstract Cleaning equipment included in the technological process of initial processing of seed cotton in cotton ginning enterprises is installed in the cleaning departments of this enterprise, and their location can be different.

Keywords ChX-3M, UXK sections, 1XP type equipment, dirty mixtures.

Introduction


If equipment with two cleaning sections of the ChX-3M type is placed in a row (in the form of a battery) (4-6 equipment in each row), UXK sections and equipment of the 1XP type are installed in a row in one flow line [1].

Although the working bodies used in the technology of separating large mixtures from seeded cotton are the same, the methods of their installation (saw drum, colosniks, brushes) in the equipment may be different. For this reason, the structures of cleaning machines from large impurities are also different from each other [2,3].

The main part

ChX-3M equipment is a cleaner with a complex structure in the category of large pollution cleaning equipment. Therefore, it is desirable to study the structure and technological process of the cleaning equipment ChX-3M2, which is more often used in cotton ginning enterprises, in depth [4-7].

The diagram of the technological process on the cross-section of the CHX-3M2 pile-saw drum cleaning equipment is shown. The cleaner is intended for cleaning the picked seed cotton from large and small weeds. It is mainly installed in cleaning departments of cotton cleaning enterprises.



The seed cotton with impurity impurities is conveyed by roller feeders (1) evenly to the pile squeegee-cleaning drum (2), which, in turn, is cleaned of small impurities by crushing the seed cotton into small pieces and dragging the shredded seed cotton over the mesh surface (3). Then it is fed to the first sawing drum.

The seeded cotton is leveled on the sawn surface with a fixed brush (6) and fixed to the teeth of the saws [8-10].



The pieces of seed cotton attached to the saw teeth hit the colostrums (7) during movement, so that the bond between the sawdust and the seed cotton is reduced. A part of the active properties turns into passive properties and falls through the colosniks under the influence of air due to centrifugal force. The seeded cotton is separated from the saw teeth by a brush drum, and the cleaning is repeated in the second section of the similar saw drum, from which the separated clean seeded cotton is transferred to the cotton collection conveyor (auger) through the brush drum.

The impurities separated during the cleaning of cotton are removed from the equipment with a common dirt auger placed under the equipment and sent to a special pneumatic conveyor system.

The cleaned seeded cotton is transferred to the equipment that performs the next technological process.

The cleaner is intended for cleaning the picked seed cotton from large and small weeds. It is mainly installed in cleaning departments of cotton cleaning enterprises.

Technological indicators of CHX-3M2 cleaner

- | | |
|--|---------|
| 1. Productivity of seeded cotton, t/coat | 1-:-3.0 |
| 2. Cleaning efficiency, %..... | 70-:-80 |
| 3. Rotational speed of working bodies, min ⁻¹ | |
| a) supply chains..... | 0-:-20 |
| b) drum with pegs..... | 450 |
| c) saw drums..... | 300 |
| g) brush drums..... | 960 |
| 4. Technological slots of working bodies, mm: | |
| a) between the pegs and the net. | 14-:-20 |
| b) between saw drum and colosniks..... | 12-:-18 |
| c) between saw drum and brushes..... | up to 1 |

The technological process of the ChX-5 seed cotton cleaning equipment from large impurities is the same as the ChX-3M2 cleaner, only it differs in the structural structure of some working bodies. For example: instead of the "pile drum" in the ChX-3M2 equipment, a "knife drum" is installed and a "bumpy surface" is placed on the opposite side. The "mesh surface" installed under the drum has been removed.

As a result of this design change, the productivity of the ChX-5 cleaner for seed cotton dyeing has increased to 6.0 tons per hour.

Effective operation of the designed cleaners is evaluated by its following technological parameters: cleaning efficiency, seed damage, waste fiber.



Figure 2. Improved CHX-3M2 large dirt cleaning equipment

Effective operation of the designed cleaners is evaluated by its following technological parameters: cleaning efficiency, seed damage, waste fiber.

Cleaning section. CH 3M-2 The cleaning section of the cleaning machine of the labor type is separated from large impurities due to the effect of centrifugal force on the surface of the cotton grate in saw drums (Fig. 2).

The cleaning section consists of sawed pile-plate drums 1 and grate 2. The performance of this section depends on cleaning efficiency and seed damage, drum and carbon grid construction, drum rotation speed and work efficiency.

The technological evaluation of the machines for cleaning the seed cotton from large impurities are indicators such as waste fiber, cleaning efficiency, seed damage and the amount of free fibers in the cleaned seed cotton.

The improvement of technological processes and equipment in cotton gins is a continuous process, until today the equipment of cotton gins has become the technological equipment of the competition. Scientific research works are being



carried out intensively on the production of fiber quality indicators, i.e., seeded cotton fiber, while preserving its natural properties.

In order to effectively use machines and equipment, I realized that it is necessary to know the main types of machines and equipment used in cotton ginning enterprises, their structure and operation process, which parts or mechanisms can quickly fail during work, and the use of equipment and equipment for repairing broken parts. At the same time, I also reviewed the methods and skills of assembling and testing machines and equipment.

In this article ChX3M-2 Work-type cleaning machine brush on the drum surface 15^0 It was proposed to place it in a rotating position, which in turn serves to increase the efficiency of the equipment.

References

1. Rakhimjonov, A., & Bakhtiyorova, U. (2023). Promoting The Development Of Improved Cleaning Technology. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, 17, 44-47.
2. Ravshanbek o‘g‘li, R. A., & Akramjon o‘g‘li, T. F. (2023). Mayda iflosliklardan tozalovchi 1xk aggregatining ishchi qismlarini mustahkamlikka sinash. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(9), 350-358.
3. Raximjonov, A. (2023). Jin uskunasining ishchi qismlarini o‘zgartirmagan holda ish unumdorligini oshirish. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(9), 368-372.
4. Raximjonov, A. (2023). Paxtani tayyorlash va saqlashda joriy qilinayotgan texnikalarni xom ashyo sifatiga ta'sirini tadqiq qilish. *Monografiya. Toshkent–2023.*
5. Rakhimjonov, A. (2022). The dependence of yarn density on spinning systems and quality indicators.
6. Zikirov, M. C., Qosimova, S. F., & Qosimov, L. M. (2021). Direction of modern design activities. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(2), 11-18.
7. Azizbek ravshanbek o‘g‘li, R. (2023). Paxta tarkibidagi iflos aralashmalar fraksiyalarini texnologik bosqichlar bo‘yicha o‘zgarishini tadqiqoti. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(9), 359-367.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**

VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869




Research Science and
Innovation House

8. Salimov, A., Khusanova, S., Salimov, O., Toshtemirov, Q., Yakubov, N., & Rakhimjanov, A. (2022). Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(7), 612-618.

9. Rakhmanov, B., Razzakov, S., & Kosimov, L. (2023). The research on the influence of temperature on the properties of synthetic fibres for load-handling devices. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 10003). EDP Sciences.

10. Raximjonov, A., & Umaraliyeva, N. (2023). Past navdagi chigitli paxtani g ‘aramlash va saqlashdan oldin tozalash jarayonlarini amalga oshirish. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(9), 571-576.



**Research Science and
Innovation House**



SAYOHALCHILARNING ATROF MUHITGA TASIRI

ВОЗДЕЙСТВИЕ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

THE IMPACT OF TRAVELERS ON THE ENVIRONMENT

Kurbanov Nuriddin

Kimyo international university in Tashkent

kurbanovnuriddin802@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda sayohatchilarning atrof-muhitga ta’sirini o‘rganishga bag’ishlangan. Tadqiqot usullari sifatida adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma va kuzatuqlar qo’llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sayohatchilar atrof-muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, ayniqsa chiqindilar, havo va suv ifloslanishi hamda tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar mavjud. Muammolarni hal qilish uchun ekologik ta’lim, infratuzilmani yaxshilash, qonunlarni kuchaytirish va barqaror turizmni rivojlantirish taklif etiladi. Xulosa qilib aytganda, barcha manfaatdor tomonlar hamkorligida sayohatchilarning salbiy ta’sirini kamaytirish va barqaror turizmni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Kalit so‘zlar: sayohatchilar, atrof-muhit, ta’sir, O‘zbekiston, barqaror turizm

Аннотация: данная статья посвящена изучению воздействия путешественников на окружающую среду в Узбекистане. В качестве методов исследования использовались анализ литературы, анкетирование и наблюдения. Результаты показывают, что путешественники оказывают значительное влияние на окружающую среду, особенно с такими проблемами, как выбросы, загрязнение воздуха и воды, а также истощение природных ресурсов. Для решения проблем предлагается экологическое просвещение, улучшение инфраструктуры, ужесточение законодательства и развитие устойчивого туризма. Короче говоря, благодаря сотрудничеству всех заинтересованных сторон можно уменьшить негативное воздействие на путешественников и создать устойчивый туризм.

Ключевые слова: путешественники, окружающая среда, влияние, Узбекистан, Устойчивый туризм

Abstract: this article is devoted to the study of the environmental impact of travelers in Uzbekistan. Literature analysis, surveys and observations have been used as research methods. The results show that travelers are having a significant impact on the environment, especially with problems such as emissions, air and water pollution and natural resource depletion. To solve the problems, environmental education, infrastructure improvements, strengthening laws and the development of sustainable tourism are proposed. In conclusion, with the cooperation of all stakeholders, it is possible to reduce the negative impact of travelers and establish sustainable tourism.

Keywords: travelers, environment, impact, Uzbekistan, sustainable tourism

KIRISH

Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm jadal rivojlanmoqda. 2023-yilda mamlakatga 7 millionga yaqin sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘pdir [1]. Biroq, sayohatchilar oqimining ortishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chiqindilarning ko‘payishi, tabiiy resurslarning kamayishi, havo va suv ifloslanishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda [2]. Shu bois, sayohatchilarning atrof-muhitga ta’sirini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Sayohatchilarning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish uchun ekologik ta’lim va targ’ibot muhim rol o‘ynaydi. Turistik kompaniyalar, mehmonxonalar va dam olish maskanlari o‘z mijozlariga ekologik madaniyat va mas’uliyatni singdirish bo‘yicha dasturlarni joriy qilishlari lozim. Bu borada ekologik ko‘rgazmalar, ma’ruzalar, treninglar va aksiyalar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali sayohatchilarning tabiiy muhitga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni atrof-muhit muhofazasiga jalb qilish mumkin.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Tadqiqot usullari sifatida adabiyotlar tahlili, so‘rovnomalar va kuzatuvlardan qo‘llanildi. Adabiyotlar tahlili orqali mayzuga oid ilmiy maqolalar, hisobotlar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. So‘rovnomalar orqali bir qancha sayohatchi va mahalliy aholi o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazildi. Kuzatuvlardan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida amalga oshirildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasi atrof-muhitga turli yo‘llar bilan ta’sir qiladi. Chiqindilar, oqava suvlar, energiya iste’moli va transport tizimlari ekologik muammolarni keltirib chiqaradi [3]. Shuningdek, tabiiy resurslar, jumladan, yer, suv va o‘rmonlardan haddan tashqari foydalanish ularning kamayishiga olib keladi [4].

NATIJALAR

So‘rovnama natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Sayohatchilarning 68% i atrof-muhitni muhofaza qilishga e’tibor bermaydi.
- Mahalliy aholining 72% i turizmnинг salbiy ta’siridan shikoyat qiladi.
- Chiqindilar (78%), suv isrofi (65%) va shovqin (52%) asosiy muammolar sifatida qayd etildi.

Kuzatuvlar davomida quyidagilar aniqlandi:

- Turistik joylarda chiqindilar to‘planib qolgan.
- Tabiiy obyektlar atrofida transport vositalari soni ko‘p.
- Qurilish ishlari tabiiy landshaftni o‘zgartirmoqda.

Ushbu natijalar sayohatchilarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini tasdiqlamoqda. Muammolarni yaxshiroq tushunish uchun batafsil tahlil talab etiladi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm sohasi atrof-muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Chiqindilar, transport chiqindilari, suv va energiya resurslarining ortiqcha sarfi asosiy muammolar hisoblanadi.

Chiqindilar muammosi yechimini topish uchun chiqindi yig’ish va utilizatsiya qilish tizimini yaxshilash lozim. Qulay joylarda chiqindi qutilari o‘rnatish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish zarur [5]. Ekologik ta’lim va targ’ibot orqali sayohatchilar va mahalliy aholida ekologik madaniyatni shakllantirish muhim.

Suv va energiya tejamkorligini ta’minlash uchun mehmonxona va dam olish maskanlarida tejamkor texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. Resurslar monitoringi va iste’molni optimallashtirish ham muhim tadbirlardan sanaladi [6].

Transport sohasi ham dolzarb muammo bo‘lib, uning yechimi sifatida jamoat transportini rivojlantirish, velosipedlardan foydalanishni targ’ib qilish, elektromobillar sonini oshirish kabi chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim [7].

Ushbu va boshqa muammolarni hal qilishda hukumat, turizm tashkilotlari, biznes sektori va jamoat birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirishi zarur. Barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish, qonunlarni takomillashtirish, moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish muhim vazifalardandir [8].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, barqaror turizmni rivojlantirish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni ham qamrab olishi lozim. Shu yo'l bilan turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga erishish mumkin [9].

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda ekologik talablarni hisobga olish zarur. Yangi mehmonxonalar, dam olish zonalari va boshqa obyektlarni qurishda "yashil" qurilish standartlariga amal qilish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni minimal darajaga keltirish kabi tamoyillar qo'llanilishi kerak [10]. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi.

Atrof-muhit muhofazasi borasida davlat siyosatini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Turizmga oid qonun hujjatlarida ekologik talablar va standartlarni belgilash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatganligi uchun jarima va sanksiyalarni qo'llash zarur [11]. Shu bilan birga, ekologik turizm loyihalari va tadbirlariga moliyaviy ko'mak berish, soliq imtiyozlarini joriy qilish kabi iqtisodiy rag'batlantirish choralarini ham qo'llanilishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi va eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishga yordam beradi [12]. BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari doirasida turizm sohasida belgilangan vazifalarni bajarish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish lozim.

Turizm sohasi mahalliy hamjamiyatlar farovonligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Sayohatchilarning madaniy merosga bo'lgan hurmatini oshirish, mahalliy hunarmandchilik va an'analarni qo'llab-quvvatlash, mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb qilish orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin [13]. Bu borada mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilish, ularning turmush darajasini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida tahlillar shuni ko'rsatadi, O'zbekistonda sayohatchilarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Ekologik ta'lim, infratuzilmani takomillashtirish, qonunchilikni kuchaytirish, xalqaro

hamkorlik va mahalliy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirish zarur. Faqat barcha manfaatdor tomonlarning o‘zaro hamkorligi orqaligina barqaror turizmga erishish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash mumkin.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, sayohatchilar oqimining ko‘payishi O‘zbekistonda ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqot natijalari chiqindilar, suv va energiya isrofi, transport ta’siridagi muammolarni ko‘rsatdi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumat, turizm tashkilotlari, biznes va jamoat hamkorlik qilishi lozim.

Asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- Chiqindilarni yig’ish va qayta ishslash tizimini takomillashtirish.
- Ekologik ta’lim va targ’ibotni kuchaytirish.
- Suv va energiya tejamkor texnologiyalarini joriy qilish.
- Transport tizimini optimallashirish va "yashil" transportni rivojlantirish.
- Barqaror turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategiya va qonunlarni ishlab chiqish.

Ushbu tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali sayohatchilarning salbiy ta’sirini kamaytirish va O‘zbekistonda barqaror turizmni yo‘lga qo‘yish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, davlat, xususiy sektor va fuqarolar hamkorligida ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan uzoq muddatli siyosatni ishlab chiqish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi, <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/>
2. Salimov, B. S. (2021). Peculiarities of ecological tourism in Uzbekistan: Problems and prospects. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 78-83.
3. Rabbany, G., Afrin, S., Rahman, A., Islam, F., & Hoque, F. (2013). Environmental effects of tourism. American Journal of Environment, Energy and Power Research, 1(7), 117-130.
4. Gössling, S. (2002). Global environmental consequences of tourism. Global environmental change, 12(4), 283-302.



5. Aliyeva, G. S., & Bektemirov, A. B. (2019). Ecological problems of tourism in Uzbekistan and their solutions. European science review, (1-2), 22-24.
6. Khakimov, J. F. (2020). Analysis of environmental impact of tourism in Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(10), 87-92.
7. Qodirov, A. M., & Juraev, A. S. (2021). Issues of tourism transport infrastructure development in Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies, 2021(2), 8.
8. Usmonov, M. (2021). Supporting tourism development in Uzbekistan: problems, analysis and solutions. Society and innovations, (4), 106-118.
9. UN World Tourism Organization. (2013). Sustainable Tourism for Development Guidebook. Madrid: UNWTO.
10. Azam, M., Alam, M. M., & Hafeez, M. H. (2018). Effect of tourism on environmental pollution: Further evidence from Malaysia, Singapore and Thailand. Journal of cleaner production, 190, 330-338.
11. Nomani, M. Z. M., & Hussain, Z. (2020). Legal Framework for Sustainable Tourism Development in Uzbekistan: A Critical Review. Journal of Tourism & Sports Management, 3(1), 298-307.
12. Janković-Milić, V., Jovanović, S., & Krstić, B. (2014). Environmental aspect of sustainable tourism development—The case of Serbia. Actual problems of economics, (2), 226-233.
13. Jaafar, M., Kayat, K., Tangit, T. M., & Yacob, M. F. (2013). Nature-based rural tourism and its economic benefits: A case study of Kinabalu National Park. Worldwide Hospitality and Tourism Themes.

Research Science and Innovation House

AYOLLAR POYABZALLARI RAZMERI O‘ZGARIB BORISHINING POYABZAL QOLIPLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRINI TAXLIL ETISH

A.A.Homidov

Farg‘ona politexnika instituti, YSBT kafedrasi assistenti

G.N.Valiyev

Farg‘ona politexnika instituti, YSBT kafedrasi t.f.d (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar poyabzallari razmeri o‘zgarib borishining poyabzal qoliplari asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sirini qolip turlarini qanday tarzda o‘zgarib borishi qolip uzunligini tutam qamroviga nisbatan razmerga qarab o‘zgarib borishini hisoblab chiqarish ayollarning oyoq kiyimini poshna balandligi 20,40,60,80,100 mm da poyabzalni oldi yuzaqismini ko‘tarilishi 11,9,7,5,3 mmda pasayishini hisoblab chiqilgan qolipning to‘laligini 13 ta razmerda ayollarning poyabzal razmeri 21,5 dan 27 smgacha bo‘ladi o‘rtacha razmeri esa 23,5 sm . Har xil davlatlarda ayollar poyabzallari turlicha o‘lchanadi Yevropada 35-44 gacha , Mexikoda 4.5-9 gacha Yaponiyada 21-28 gacha, Angiliyada 2.5-9.5 gacha, AQSh va Kanadada 5-12 gacha Koreada 228-273 gacha bo‘lgan razmerlar borligi taxlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассмотрено влияние изменения размера женской обуви на основные показатели обувных форм, как менять типы форм, как рассчитать длину формы по размеру пучкового покрытия, каблука. высота женской обуви 20,40, 60, 80, 100 мм, подъём передней поверхности обуви рассчитан, убавка 11, 9, 7, 5, 3 мм, наполненность формы рассчитана по 13 размерам. . В разных странах женская обувь измеряется по-разному. В Европе – 35–44, Мексике – 4,5–9, Японии – 21–28, Англии – 2,5–9,5, США и Канаде – 5–12, Корее – 228–273.. сделанный

Abstract: In this article, the effect of changing the size of women's shoes on the main indicators of shoe molds, how to change the types of molds, how to calculate the length of the mold according to the size of the tuft coverage, the heel height of women's shoes is 20.40, 60, 80, 100 mm, the rise of the front surface of the shoe is calculated, the decrease is 11, 9, 7, 5, 3 mm, the fullness of the mold is calculated in 13 sizes. . In different countries, women's shoes are measured



differently. In Europe, it is 35-44, Mexico is 4.5-9, Japan is 21-28, England is 2.5-9.5, USA and Canada is 5-12, Korea is 228-273. Done

Kalit so‘zlar: Qolip, poyabzal, tumshuq, tovon, ahmi, tutam qismi, poshna, pinetka, botinka, gusarik, ayyollar poyabzali, erkaklar poyabzali, razmer, to‘lalik.

Key words: Mold, shoe, toe, heel, ahmi, tuft part, heel, pinette, boot, gusarik, women's shoes, men's shoes, size, fullness.

Ключевые слова: Молд, туфелька, носок, каблук, ахми, тачковая часть, каблук, пинетка, ботинок, гусарик, женская обувь, мужская обувь, размер, полнота.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xomashyoni qayta ishlash resurs tejovchi texnologiyalarni takomillashtirish va ishlab chiqish, hamda ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish eng dolzarb masala hisoblanadi. Bular o‘z navbatida xomashyo sifati [1, 2, 3], o’rama parametrlari [4, 5, 6] va texnologik jarayonni optimallashtirishga bog‘liq [7, 8, 9, 10].

Qolip, poyabzal, tumshuq, tovon, ahmi, tutam qismi, poshna, pinetka, botinka, gusarik, ayyollar poyabzali, erkaklar poyabzali, razmer, to‘lalik.

Poyabzal — oyoq kiyimi. Oyoqni issiq, sovuq, nam, loy, chang va shikastlanishdan saqlaydi. Ibtidoiy odamlarni tabiat noqulayliklari (issiq-sovuq, yomg‘ir-qor, chang-to‘zon, tikanak kirishi, chag‘ir tosh botishi, ilonchayon chaqishi va boshqalar) oyoqlarini biron-bir narsa bilan himoya qilishga majbur qilgan. Ular qayerda (issiq yoki sovuq o‘lkalarda, seryog‘in yoki qurg‘oqchil joylarda, pasttekisliklar va tog‘li joylarda) yashashlariga qarab, yalang oyoq yurishgan, chipta kavush, choriq, yog‘och, kigiz, charm yoki mo‘yna poyabzal kiyishgan. Ularni to‘qish, yo‘nish va tikish usullari asta-sekin takomillashtirilib borilgan. Masalan, ilgari O‘rtal Osiyo xalqlari, asosan, etik, maxsi, kavush kiyishgan. Poyabzal, asosan, qo‘lda tikilgan. Keyinchalik (19-asr o‘rtalaridan), botinka, tufli, sandal, shippak, piyma, kalish, sport poyabzallari, tibbiy, harbiy va maxsus ish poyabzallari kiyish rasm bo‘ldi. Erkaklar poyabzali — mardona, ayollar poyabzali zaifona, bolalar poyabzali — bachkana deb atalgan. Hozir poyabzali tikishga oid deyarli barcha jarayonlar mexanizatsiyalashtirilgan, lekin qo‘lda tikish usullari ham saqlanib qolgan[11].

Poyabzal asosan, satx (yuza) va tag-charmdan iborat. Satx bo‘laklari ipli chok bilan biriktirilsa, tanovar (charm, gazlama, sun’iy charm zagotovka) hosil bo‘ladi. Tagcharmga charm, rezina, plastmassacharm, yog‘och ishlatiladi. Tagcharm



bo‘laklari poshna, patak, naboyka va boshqa shaklda qo‘dda (tig‘ bilan) yoki maxsus presslarda kesiladi. Sun’iy charm bo‘laklari poyabzal korxonasiga tayyor holda keltiriladi.

Poyabzal tikish texnologiyasi: materialni bichish, bo‘laklarni biriktirishga tayyorlash.tanovorni tikish va biriktirish, unga shakl berish, tagcharmni satxga biriktirish va tayyor poyabzalni pardozlash, tanovorni qolipga tortish va patak biriktirish (mixlab, yelimlab va ipli chok bilan) ishlari maxsus mashinalarda bajariladi. Tagcharmni tanovorga biriktirishning mexanik, rantli, sandal, yarim sandal, yelimlash va boshqa usullari bor. Poyabzal mustahkamligi va tashqi ko‘rinishi ko‘p jihatdan biriktirish sifatiga bog‘liq. Tanovorga tagcharm biriktirilgandan so‘ng mahkamlash mashinasida poshna qoqiladi. Poyabzalga zarur shakl berish uchun ishlatiladigan moslama (press) qolip deb ataladi. Qolip, asosan, old va orqa qismlardan iborat. Tanovorni qolipga tortish paytida bu qismlarni bir-biriga yaqinlashtirib va bir-biridan uzoqlashtirib, zarur o‘lchamga keltirish mumkish qolip yog‘och, metall yoki plastmassadan yasaladi[12].

Tayyor poyabzalni pardozlash ishlari ham, asosan, maxsus mashinalarda bajariladi. Ayrim ishlargina qo‘lda qilinadi. Umuman, poyabzal tikishda 120 ga yaqin mashina va moslamalar qo‘llaniladi. Poyabzal o‘lchami (nomeri) patakning shtixlar (1 shtix — 2/3 kiyem), santimetrlar yoki dyuymlarda o‘lchanadigan uzunligini bildiradi. O‘zbekistonda, asosan, san-timetrlı sistema qo‘llaniladi.

Poyabzal o‘lchamlari bo‘yicha (santimetrlarda o‘lchanganda) chaqaloqlarga (7 — 14), bog‘cha yoshidagilarga (14,5—17,5), bolalarga (18—25), ayollarga (22—28), erkaklarga (25,5—31,5) mo‘ljallangan xillarga bo‘linadi. O‘zbekistonda Poyabzal tikish hunarmandchilikning muhim turi bo‘lib, uni qo‘lda tikish hozir ham keng ko‘lamda saqlanib qolgan.

Qoliplarning turlari. Oyoq kiyimlarining qulayligi asosan poyabzallarni shakllantirishda ishlatiladigan qolipning shakli va hajmiga bog‘liq. Poyabzallarni tayyorlashda ishlatiladigan qoliplar ikki guruhga bo‘linadi: asosiy qoliplar va yordamchi qoliplar.

Asosiy qoliplar poyabzallar kabi turli belgilari bo‘yicha tavsiflanadi: ya’ni, jinsiy yosh guruhrar, poyabzal turlari, ishlatilish vazifasi, tuzilishi, materiali va shu kabilar. Shuningdek har bir qolip o‘z o‘lchami va to‘laligi bo‘yicha ham belgilanadi. Barcha ma’lumotlar qolipning indeks raqamida bayon etiladi.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

Qolipning hazmeri santimetrdan ifodalangan oyoq panjasini uzunligini anglatadi. Tegishli raqamlarlar orasidagi uzunlik farqi 0,5 sm bo‘lib, oyoq panjasini barmoqlarining uzunligiga, oyoq kiyimlarining tumshuq qismi xususiyatlari va fasoniga qarab, ayollar oyog‘i uchun minimal qo‘shimcha miqdori - 0,5 sm, boshqa turdagi poyafzallarning qo‘shimcha miqdori - 1,0 sm bo‘lishi mimkin.

“Poyabzal qoliplari” nomli GOST 3927-88 ga muvofiq (metrik tizimda) jinsiy guruhlar bo‘yicha qoliplarning razmerlari oyoq panjasining aynan bir uzunligida, qolipning aynan bir hil turi va raqamida uning to‘laligi turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchan qoliplarni bir hil uzunlikdagi turli to‘laliklardagi ko‘rinishlari ishlab chiqariladi, qolipning to‘laligi uning tutam qismidagi hajmiy o‘lchamlarini anglatadi va qolipning 0,72/0,68D o‘lchamli qismidagi kesim qamrivining millimetrlardagi miqdoriga teng hisoblanadi.

Hozirgi kunda, poyabzal ishlab chiqarish sanoatida, qoliplarning to‘lalik bo‘yicha o‘lchamlari 6 mm oraliq bilan olinadi, pinetkalar uchun qoliplar faqat bitta to‘lalik o‘lchamida ishlab chiqariladi; gusariklar, kichik yoshdagilari bolalar va yosh bolalar poyabzali uchun – ikki hil; muktab yoshidagi bolalar, qizlar va o‘g‘il bolalar uchun hamda ayollar va erkaklar poyabzallari uchuin – uch hil to‘lalik qoliplari (qolip izi berilgan turning poyabzal o‘rtaliga qolipi izi bilan muqobil holda) ishlab chiqariladi.

Guruh	Poyabzal turi	Razmerlar sm	Guruhdagi razmerlar soni	Guruhning daslabki o‘rtacha razmeri
8	Ayollar	21,5-27	13	23,5

1-Jadval
**Research Science and
Innovation House**

Har hil Davlatlardagi ayollar poyabzalining razmerlari


Rossiya	34-	35	35	36	36	37	37.5	37.5	38	38.5	38.5	39	40	40- 41.5
Ukraina	35													
Yevropa	35	35%	36	37	37%	38	38%	39	40	41	42	43	44	
Meksika						4.5	5	5.5	6	6.5	7	7.5	9	
Yaponiya	21	21.5	22	22.5	23	23.5	24	24.5	25	25.5	26	27	28	
Angilya	2%	3	3%	4	4%	5	5%	6	6%	7	7%	8	9%	
Avstralyya	3%	4	4%	5	5%	6	6%	7	7%	8	8%	9	10%	
AQSH/Kanada	5	5%	6	6%	7	7%	8	8%	9	9%	10	10.5	12	
Koreya(mm)	228	231	235	238	241	245	248	251	254	257	260	267	273	
dyum	9	91-8	9%	93/8	9%	98/8	9%	97/8	10	101/8	10%	10%	10%	
Santimetr	22.8	23.1	23.5	23.8	24.1	24.5	24.8	25.1	25.4	25.7	26	26.7	27.3	

2-Jadval


Qoliplar tuzilishi bo‘yicha qirqilgan ponali, bo‘laklanadigan, yahlit va suriladigan qismli bo‘ladi,qirqilgan ponali qolipda pona qismi ajraydigan bo‘lib, u qolipning gumbaz qismida joylashgan prujinali qulf va tutam qismidagi tayanch yordamida mahkamlanadi. Bunday qoliplar poyabzalni qolipga tashqi tortib shakillantirish usulida qo‘llaniladi. Bu qolipning afzallik tomonlaridan biri uning bikirligidir, qolipni poyqbzaldan echib olishda ponani chiqarib olish tanavorga ortiqcha kuch ta`sirini kamaytiradi va tanavorning yirtilishi oldini oladi.

Bo‘laklanadigan qoliplar ham poyabzalni qolipga tashqi tortib shakillantirish usulida qo‘llaniladi. Bu qoliplarda tovon va tumshuq qismlari sharnir va metall changaklar bilan o‘zaro biriktirilgan bo‘ladi. Oraliqqa joylashtiriladigan changaklar metall sanchqi mix bilan mahkamlanadi. Bu qoliplar ishltishga juda qulay gisoblanadi,yahlit ishlangan qoliplar betligi pastroq (ochiq) joylashgan, sandal usulida biriktiriladigan poyabzallarda ishlataladi.Bunday qolipdan poyabzalni echib olish ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bu qoliplarning izi uzunlik yo‘nalishida yassi va biroz kengaytirilgan bo‘ladi.

Qirqilgan ponali qolipning tuzilishi.



Suriladigan qisqli qoliplar ichki shakillantiriladigan royabzallarni ishlab chiqarishda qo'llanadi. Qoliplarning tuzilishiga qarab, qismlarining siljish masofasi uzunligi bo'yicha 0,9-1,6 sm bo'ladi.



Suriladigan qisqli qoliplar.

Texnologik vazifasiga qarab qoliplar turlicha ishlab chiqarilishi mumkin: tanavorni yopiq holda qolipga tortish uchun – qolip izi to'liq metall qoplamlari; rant


va yelinlash usullari uchun – faqat tovon qismida metall qoplamali; ag‘darma va sandal usullari uchun – metal qoplamasiz.

- Qoliplar poyabzallar turi bo‘yicha ham tasniflanadi:
- berk poyqbzallar uchun (botinka, qo‘njsiz botinka va shu kabilar);
 - yengil poyabzallar uchun (sandallar, sport, xonodon va sayir uchun);
 - yozgi ochiq (tumshug‘i va tovoni ochiq poyabzallar);
 - issiq poyabzallar va etiklar uchun;
 - “qayiqcha” turidagi tuflilar, yuft terilik etiklar va kalta etiklar uchun;
 - xrom tuzi bilan ishlov berilgan terili etiklar uchun;
 - sport uchun mo‘ljallangan pouabzallar uchun;
 - maxsus poyabzallar uchun qoliplar.

Ayollar poyabzallari qoliplarida poshnaning balandligi ortib borishi bilan qolip izi torayib boradi va ko‘ndalang kesimlar kichrayadi, tovon qismining ko‘ratilganligini hisobga olgan holga qoliplar, poshnasiz, quyidagicha tayyorlanadi: past poshnalar uchun (balandligi 3, 5, 10, 15, 20, 25 mm); o‘rtacha balandlikdagi poshnali (30, 35, 40 mm); baland poshnali (45, 50, 55, 60 mm); o‘ta baland poshnali (65 mm va undan yuqori). Poshnaning balandligiga qarab qolipning shakli vaba’zi o‘lchamlari o‘qgarib boradi. Poshna qancha baland bo‘lsa, qolip izi shuncha torayadi (ayni bir razmerdagi poyabzallar uchun ham) va ahmi qismi hamda tovonning orqa kontur chizig‘i ko‘tarilganligi ortib boradi.

Tayanchga nisbatan tovon qismining vertical yo‘nalishda ko‘tarilganligini, iz o‘qi bo‘yicha tovon aylanasining qovurg‘asi nuqtasidan o‘lchanadi. Shuningdek, qolipning tumshuq qismi ko‘tarilganligi quyidagicha bo‘ladi: erkaklar poyabzali uchun – 15 mm; ayollar, qizlar va o‘g‘il bolalar poyabzallari uchun – 12 mm; yosh bolalar va kichik yoshdagи bolalar poyabzallari uchun – 10 mm; gusariklar uchun – 8 mm va pinetkalar uchun – 6 mm. Tovon qismining ko‘tarilganligi 50 mm dan oshiq bo‘lgan poyabzallar qoliplari uchun tumshuq qismining ko‘tarilganligi 8 mm bo‘lishi kerak.

**Research Science and
Innovation House**



Izoh: Doira ichidagi raqamlar poshna balandligini anglatadi

Qolipning qysi jinsiy yosh guruhiga va turiga tegishliligi qolip indeksida namoyon bo‘ladi. Qolip indekslari artikul kabi bir qator raqamlardan iborat bo‘lib, ularning har biri qolipning strukturaviy xususiyatlarining belgilaridan birini anglatadi.

Misol uchun, 85716 indeksidagi 8 ayollar poyabzalini, 5 bashang poyabzal, 7 poshna balandligini (70 mm), 1 tumshuq qismi keng poyabzalni va 6 qolipning ro‘yxatga olingan tartib raqamini anglatadi.

Qoliplarning metrik o‘lchov tizimda indekslarini belgilanishi. 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Qolip indekisi	Poyabzal turi	Qolip uzunligi (mm)	Tutam qamrovi (mm)	Qolipning to‘laligi	Tumshuq kengligi
4	Yopiq poyabzal	215	200	0,15	1
4	Yopiq poyabzal	220	205	0,65	1
4	Yopiq poyabzal	225	210	1,15	1
4	Yopiq poyabzal	230	215	1,65	1



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

4	Yopiq poyabzal	235	220	2,15	1
4	Yopiq poyabzal	240	225	2,65	1
4	Yopiq poyabzal	245	230	3,15	1
4	Yopiq poyabzal	250	235	3,65	1
4	Yopiq poyabzal	255	240	4,15	1
4	Yopiq poyabzal	260	245	4,65	1
4	Yopiq poyabzal	265	250	5,15	1
4	Yopiq poyabzal	270	255	5,65	1
4	Yopiq poyabzal	275	260	6,15	1

3-Jadval.


**Research Science and
Innovation House**



QOLIP UZUNLIGI VA TUTAM QAMROVI O‘SISH GRAFIGI



Poshna balandligi(mm)	Tumshuq ko‘tarilishi (mm)
20	11
40	9
60	7
80	5
100	3



Research
Innovat

Xulosa qilib aytganda ayollar poyabzallari razmeri o‘zgarib borishining poyabzal qoliplari asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sirini qolip turlarini qanday tarzda o‘zgarib borishi qolip uzunligini tutam qamroviga nisbatan razmerga qarab o‘zgarib borishini hisoblab chiqarish ayollarning oyoq kiyimini poshna balandligi 20,40,60,80,100 mm da oyoq kiyim oldi yuza qismi ko‘tarilishi 11,9,7,5,3 mmda pasayishini hisoblab chiqib qolipning to‘laligini 13 ta razmerda ayollarning razmeri 21,5 dan 27 smgacha bo‘ladi o‘rtacha razmeri esa 23,5 sm . Har xil davlatlarda ayollar poyabzallari turlicha o‘lchanadi Yevropada 35-44 gacha , Mexikoda 4.5-9 gacha Yaponiyada 21-28 gacha, Angiliyada 2.5-9.5 gacha, AQSh va Kanadada 5-12 gacha Koreada 228-273 gacha bo‘lgan razmerlar bor va boshqa davlatlarda yashash mintalatetga qarab turlicha taxlil qilinadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Валиев Г. Н., Орипов Ж. И., Валиев Н. Г., М. Турдиев М., Хомидов В.О. Технология снижения дефектности намотки шелковых нитей на крутильных машинах // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, научно-ёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2021): сборник материалов XXIV международного научно-практического форума (Иваново, 12-14 октября 2021 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2021. – 370 с., с. 12-16.
2. Валиев Г.Н. Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на её основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика её определения // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности. – 2018. - № 3. – с. 106-113 (SCOPUS, CAS(pt)).
3. Орипов Ж. И., Валиев Г. Н. Исследование качественных характеристик шёлка–сырца механического и автоматического кокономотания // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, научно-ёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2020): сборник материалов XXIII международного научно-практического форума (Иваново, 20-23 октября 2020 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2020. – 445 с., с. 84-87.
4. Валиев Г. Н. К вопросу параметров намотки мотальной паковки и теоретических зависимостей их определения // Современные технологии и оборудование текстильной промышленности (Текстиль-2012): тезисы докладов Международной научно-технической конференции (Москва, 13-14

ноября 2012 г.). Часть 1. – М.: ФГБОУ ВПО «МГТУ им. Косыгина», 2012. – 140 с., с. 53-54.

5. Валиев Г. Н. Структура, новые параметры слоя намотки мотальной паковки и теоретические зависимости их определения // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2021): сборник материалов XXIV международного научно-практического форума (Иваново, 12-14 октября 2021 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2021. – 370 с., с. 17-23.

6. Валиев Г. Н. Распределение давления крестовой намотки на её основание по мере формирования паковки // Международная научная конференция посвященная 135-летию со дня рождения профессора А.Г.Зотикова: сборник научных трудов международной научной конференции посвященной 135-летию со дня рождения профессора В. Е. Севостьянова (Москва, 25 мая 2022 г.). Часть 1. – М.: РГУ им. Косыгина, 2022. – 171 с., с. 63-68.


7. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Исследование влияния скорости снования на форму баллона нити натурального шёлка // Международная научная конференция посвященная 110-летию со дня рождения профессора А.Г.Севостьянова: сборник научных трудов международной научной конференции посвященной 110-летию со дня рождения профессора А.Г.Севостьянова (Москва, 10 марта 2020 г.). Часть 2. – М.: РГУ им. Косыгина, 2020. – 302 с., с. 195-199.

8. Valiev G. N., Khomidov V. O. Study of the Shape of a Balloon of Natural Silk Thread When Winding From a Fixed Packing // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). Vol. 7, Issue 8, August - 2020. – 14733-14737pp.

9. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Способ определения технологичности нитенатяжных приборов текстильных машин // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2018): сборник материалов XXI международного научно-практического форума (Иваново, 26-28 сентября 2018 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2018. – Часть 1, 303 с., с. 185-188.

10. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Особенности формы баллона нити натурального шёлка при сматывании с неподвижной паковки // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2020): сборник материалов XXIII международного научно-практического форума (Иваново, 20-23 октября 2020 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2020. – 445 с., с. 24-29.

11. Xaydarov A.A.”Poyabzal va charm – attorlik buymlarini modellashtirish asoslari”. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq. 2007. - 207 bet
12. Xaydarov A.A., Kamalov A.K. “Charm buyumlarni konstruktsiyalash”. I-qism - T.: TTYSI, 1999. – 161 bet.
13. Xaydarov A.A., Kamalov A.K. “Charm buyumlarni konstruktsiyalash”. II-qism - T.: TTYSI, 1999. – 160 bet.
14. Smelkova S.V., Linnik A.I. “Konstruirovaniy izdeliy iz koji” Laboratoriya praktikumi. –V.: UO “VGTU”. 2009. – 76b.
15. Yermilova D., Lyaxova N., Yermilova V., Popov S. “Kompozitsiya kost.ma” 3-nashr. O‘quv qo‘llanma. –M.: Yurayt. – 2018. – 449 bet.
16. https://life-prog.ru/2_67238_lektсиya--ispolzование-evm-v-obuvnoy-promishlennosti.html
17. <https://www.youtube.com/watch?v=IjHASH3OLYo>



Research Science and Innovation House



Zamburug‘larning tasnifi, tuzilishi va kasalliklari

**Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi talabasi Mamataliyeva Feruza Mirtemirbek qizi
(feruzamamataliyeva2507@gmail.com)**

**Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi talabasi To‘lasheva Madina To‘lqinboy qizi
(tolashevamadinabonu@gmail.com)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamburug‘larning tasniflanishi, yashash muhiti, ko‘payishi, rivojlanishi, oziqlanishi, tabiatdagi va inson hayotidagi foydali va zararli ahamiyati yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: geterotrof, mitselliyl, Penicullium, Aspergillus, antibiotik, toksik, zang zamburug‘i, rizomorf, giflar, penicillin.

Аннотация: В данной статье описаны классификация, среда обитания, размножение, питание, развитие, полезное и вредное значение грибов в природе и жизни человека.

Ключевые слова: гетеротроф, мицелиальный, Penicullium, Aspergillus, антибиотик, токсичный, ржавчинный гриб, ризоморф, гифки, пенициллин.

Abstract: This article describes the classification, habitat, reproduction, nutrition, development, beneficial and harmful significance of mushrooms in nature and human life.

Key words: heterotroph, mycelial, Penicullium, Aspergillus, antibiotic, toxic, rust fungus, rhizomorph, gifs, penicillin.

Tirik tabiiy muhit ko‘plab tirik organizmlarning o‘zaro munosabatlaridan tashkilo topgan. Har bir organism biosferada o‘z o‘rniga ega. Ularni o‘rganish, tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamburug‘lar xam shujar jumlasidandir.

Zamburug‘lar (Mycophyta) turlarining miqdori jihatidan tuban o‘simliklar ichida eng katta guruh hisoblanib, 100 mingdan ortiq turi mavjud. Ilk bor zamburug‘lar o‘simliklar olamiga kiritilgan. Olimlar zamburug‘ turlarini chuqr o‘rganish natijasida ularni alohida olam sifatida ajratishgan. Zamburug‘larning bakteriyalardan farqi shundaki, ular eukariot organizmlar. Zamburug‘lar o‘simliklar kabi erkin harakatlana olmaydi, lekin hayvonlarga o‘xshab geterotrof oziqlanadi.

Zamburug‘larning yashashi uchun yorug‘lik shart emas, ular uchun ozuqa, harorat va namlik yetarli bo‘lishi kerak. Zamburug‘ tallomi mitselliyl deb ataladigan vegetativ tanaga ega bo‘lib, ular ingichka shoxlangan ipchalar- gifalardan iborat. Gifalar ichida to‘siqlar bo‘lmasa ular hujayrasiz tuzilishga ega bo‘lib, tuban zamburug‘larga xosdir.

Vegetativ ko‘payish mitseliy ipchalarining bo‘linishi yoki sklerotsiyalar bilan amalga oshadi. Bu bo‘lakchalar har xil yo‘l bilan tarqalib, qulay sharoitga tushganda yangi mitseliysi hosil bo‘ladi. Jinssiz ko‘payish mitseliyning maxsus shoxchalarida xreil bo‘ladigan sporalar orqali ro‘y beradi. Sporalar hosil bo‘lishiga qarab endogen va ekzogen buladi. Endogen sporalar odatda gifa (sporangiy yoki zoosporangiy)ning sharsimon uchlarida ko‘p miqdorda rivojlanadi. Ekzogen sporalar (konidiyalar) mitseliyning maxsus shoxlarida yakka, guruh bo‘lib, ko‘pincha zanjirsimon rivojlanadi. Jinsiy ko‘payish ikkita har xil jinsiy hujayraning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan zigotalar orqali ro‘y beradi. Aksari zamburug‘larning tabiatda umri qisqa. Ularning mitseliysi bir necha sutkada rivojlanib, spora hosil qilgach, o‘sishdan to‘xtab, nobud bo‘ladi. Mitseliysi ko‘p yil yashaydigan zamburug‘lar ham bor. Jumladan, patogen va parazit zamburug‘lar mitseliysi bir necha yillab yashaydi. Shuningdek, sklerotsiyalari va turli tuman sporalari bilan uzoq vaqtgacha saqlanadigan zamburug‘lar ham bo‘ladi. Ko‘p sporalar quruq holatda hayotchanligini o‘n yillab saqlashi mumkin. Muhim fiziologik xususiyatlari; zamburug‘lar rivojlanishi uchun kislorod zarur bo‘lib, aerob organizm hisoblanadi. Lekin ayrim zamburug‘lar, masalan, achitqi zamburug‘lariga ozgina kislorod ham yetarli. Ko‘p zamburug‘lar turli xil (spiritli, limonli) achitish xususiyatiga ega. Zamburug‘lar 20—25° da yaxshi o‘sadi, ba’zilari 2—4° da ham o‘saveradi. Zamburug‘larning o‘sishi uchun yorug‘lik zarur emas, lekin quyosh nuri ularning o‘sishi va spora hosil qilishiga salbiy ta’sir etadi. Zamburug‘lar tashqi tuzilishi va ko‘payishiga ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi:

I sinf –Xitridiomitsetsimonlar (Chytridiomycetes)

II sinf –Gifoxitrisimonlar (Hypocreomycetes)

III sinf –Oomitsetsimonlar (Oomycetas)

IV sinf –Zigomitsetsimonlar (Zygomycetes)

V sinf -Askomitsetsimonlar (Ascomycetes)

VI sinf –Bazidiomitsetsimonlar (Basidiomycetes)

VII sinf –Deteromitsetsimonlar (Deuteromycetes)

Zamburug‘lar o‘simlik, hayvon va odamlarda kasallik qo‘zg‘atish xususiyatiga ega, oziq-ovqat mahsulotlarini buzadi. Ba’zi zamburug‘lar hasharotlar sonini hamda kasallik tug‘diruvchi (patogen) zamburug‘lar rivojini susaytirishda ijobjiy ahamiyatga ega. Vertitsillyoz so‘lishni qo‘zg‘atuvchi zamburug‘lar kushandasasi (zamburug‘lar — antagonist)ga Trichoderma lignoram Hars., Aspergilius sp., Penicillium sp. va boshqalar kiradi. Zamburug‘lar tuproqda bakteriyalar, aktinomitsetlar va mikroorganizmlar bilan birligida organik moddalarni parchalab, sanitarlik vazifasini bajaradi va tabiatda moddalar aylanishida ishtirok etadi. Shu bilan birga tuproqda o‘simlik kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi zamburug‘lar to‘planib ham qoladi. Monokultura natijasida o‘simliklarning ma’lum turlarigagina ixtisoslashgan zamburug‘lar yig‘iladi. Aspergilius Penicillium Mucor, Trichothecium Rhizopus va boshqa turkumga mansub ba’zi tur zamburug‘lar urug‘lik materialning mog‘orlashiga sabab bo‘lib, ularning unuvchanligini pasaytiradi. Ko‘pgina mog‘or zamburug‘lar xomashyoni saqlash davrida paxta tolsi sifatini buzadi. Ba’zi turlari iste’mol qilinadi. Zamburug‘larning fermentativ, antibiotik, toksik va parazitlik xususiyatlaridan veterinariyada hamda o‘simliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishda, shuningdek, yengil sanoatda, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida foydalaniлади. Zamburug‘lar ta’sirida o‘simliklarda butun organizm yoki uning ma’lum qismi tuzilishi va fiziologik funksiyasining buzilishiga sabab bo‘luvchi kasallik (patologiya) jarayoni vujudga keladi Eng ko‘p tarqalgan zamburug‘ kasalliklarida: so‘lish, chirish (ildiz, to‘pgul, meva, ildizmevalar, tuganaklar va b.da), bo‘rtma, o‘simta, ishish, yara, bargda dog‘lar paydo bo‘lishi bilan kechadigan kasalliklar, o‘simlikning pakanaligi, majruxligi kabi holatlar kuzatiladi. Bir turdagи o‘simlik bir necha o‘nlab xil zamburug‘ kasalliklari bilan zararlanishi mumkin. Zamburug‘ kasalliklari eng ko‘p zarar keltiradigan va ko‘p tarqalgan kasalliklardan hisoblanadi. Masalan, g‘o‘zaning vilt kasalligi, bug‘doyning qorakuya va zang , ildiz chirishi kasalliklari, kartoshkaning fitoftoroz kasalligi va boshqalarlarda hosil juda kamayib ketadi. Zamburug‘ kasalliklari bilan zararlangan o‘simlikning urug‘i, tuganagi, piyozlari, qalamchalari, ko‘chatlari va infeksiya manbai bulishi mumkin. Infeksiya hosil yig‘imidan keyin tuproqda qolgan o‘simlik qoldiklarida saqlanishi va o‘simlik ildizi, ildiz bo‘g‘izi va b. tuproq osti organlariga tushib kasallik quzg‘ashi mumkin. Ba’zi patogen zamburug‘ sporalari shamol, yomg‘ir, hasharotlar, sut emizuvchilar, shuningdek, ifloslangan idishlar, qishloq xo‘jaligi mashinalari va asboblari orqali

ham o‘tadi. O‘simlik to‘qimalariga patogen zamburug‘lar og‘zicha, yasmiqchalar, hujayra epidermisi va kutikulasi (kartoshka raki), do‘ldan hosil bo‘lgan yaralar (makkajo‘xorining qorakuya kasalligi), oftob urgan, yorilgan joy orqali kirishi mumkin. Kasallik rivojlanishi tashqi sharoitga ham bog‘liq. Maye, tuprokda fosfor va kaliy yetishmaslididan donli ekinlarning zang kasalligi, kartoshkaning fitoftoroz bilan zararlanishi ortadi. Zararlanish harakteriga qarab mahalliy va umumiy ta’sirli bo‘ladi. Mahalliy zararlanishga dog‘lar, zamburug‘ g‘uborlari, yaralar, shishlar paydo bo‘lishi misol bo‘ladi. Dog‘lar bargning alohida qism (to‘qima)larini nekrozga olib keladi, kuchli rivojlanganda barglar to‘kilishi mumkin (qarang Makrosporiozlar). Zamburug‘ g‘uborlarini o‘simliklar unshudring (kul) va soxta unshudring (rag‘a) bilan kasallanganida kuzatish mumkin. O‘simlikning mahalliy zararlanishi, ko‘pincha, turli organlarda chetlari rangli hoshiya bilan o‘ralgan yara kurinishida bo‘ladi (mas, g‘uza gommozining poya formasida). Zang zamburug‘i bilan zararlangan g‘alladoshlar, dondukkaklilar va boshqa ekinlar bargi hamda boshqa organlarida zamburug‘ sporalari to‘plangan yostiqcha ko‘rinishidagi zang tusli shishlar (mas, javdarning qung‘ir zang kasalida) paydo bo‘ladi. Kuzga borib shishlar qorayadi. O‘simlikning suv va oziq moddalarga boy organlari, kupincha chirish bilan kasallanadi (mas, g‘o‘za chanoklaridagi pushtirang chirish, kulrang chirish). O‘simlikning zamburug‘ bilan umumiy kasallanganligi belgisi — so‘lishdir. Bu turli organlardagi taranglik (turgor)ning yo‘qolishi bilan harakterlanadi. G‘o‘za, zig‘ir, kartoshka va boshqa o‘simliklar so‘lishi ko‘p zamburug‘li kasalliklar: 1—bug‘doy qattiq qorakuyasi; 2—bug‘doy chang qorakuyasi; 3—makkajo‘xori pufaksimon qorakuyasi; 4—kartoshka fitoftorozi; 5—olma kalmarazi; 6—qulupnay kulrang chirishi kabilar uchraydi. Kasallikning rivojlanish tezligini ekologik omillar belgilaydi: ma’lum sharoitlar zamburug‘ning spora hosil qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, sporalarning o‘sishi va o‘simlikning kasallanishiga to‘sqinlik qiladi.

Zamburug‘ kasalliklariga qarshi agrotexnik, kimyoviy va fizikmexanik choratadbirlar majmui qo‘llaniladi. Kasallikka chidamli navlar ekiladi, mikrobiopreparatlardan foydalaniladi, ekinlar urug‘ligi kimyoviy preparat (dori)lar bilan dorilanadi, o‘simliklarga pestisidlar, fungitsidlar purkaladi yoki changitiladi. Tabiat va inson hayotidagi ahamiyati. Tuproqda yashaydigan zamburug‘lar o‘simlik qoldiqlari (jumladan qiyin parchalanadigan [[sellyuloza] va lignin)ni yemiradi va mineralallashtiradi. Yog‘ochlarni, asosan, po‘kak zamburug‘lar yemiradi. Ko‘pchilik

zamburug‘lar o‘simliklarda turli kasalliklarni qo‘zg‘atadi. Odamlardagi qator kasalliklar: kal, qirma temiratki va boshqalarni zamburug‘lar qo‘zg‘atadi.

Foydali zamburug‘lar ham ko‘p. Bularga; Penicullium va Aspergillus turkumiga mansub zamburug‘lardan vitaminlar, antibiotiklar, limon kislota va steroid preparatlar olishda foydalaniladi. Achitqi zamburug‘lar vino, non, pivo tayyorlashda ishlatiladi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida zamburug‘lar ovqatga ishlatiladi; iste’mol qilinadigan zamburug‘larning turi 100 dan ortadi. Bularidan kuplari qimmatli bo‘lib, tarkibida oqsil moddalar, vitaminlar va fermentlar bor. Zamburug‘lar, asosan, konservalab (quritib, tuzlab, ziralab) iste’mol qilinadi. Ayrim zamburug‘lar ozuqabop, ba’zilarining tarkibida esa zaharli moddalar bo‘lgani sababli ularni yeb bo‘lmaydi. Tashqi ko‘rinishidan ularni ajratish qiyin, buning uchun esa tajriba va aql kerak. Ayrim vaqtarda yeyish uchun yaroqli turlar ham inson organizmiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Katta yo‘l yoqalarida, ishlab chiqarish korxonalari atrofida o‘suvchi zamburug‘larning meva tanasi havoni o‘zida filtirlaydi. Agar bu jarayonda filtirlanayotgan havo tozabo‘lmasa, zararli elementlar o‘simlik tanasiga o‘tiribqoladi va uni iste’mol qilgan kishi zaharlanib qolishi ehtimoldan xoli emas. Zaharli turlaridan biri qurbaqasalla deb ataladi va ko‘proq Shimoliy Yarim sharda keng tarqalgan. Ko‘rinishidan chiroli bo‘lsa-da, uning tarkibidagi zahar odam organizmiga tushgach, 12soatdan keyin ta’sir qila boshlaydi. Bunga qadar organism yuvib tashlansa, balki foyda berar, vaqt boy berilgandaesaahvolni o‘nglab bo‘lmaydi. Odam organizmi uchun zaharli bo‘lgan zamburug‘lar ayrim hayvonlarga zarracha ta’sir qilmaydi. Masalan, shilliqurtlar, hattoki eng zaharli zamburug‘larni yegan taqdirda ham tirik qoladi.

“Antibiotik” deb nomlanuvchi mog‘orlangan zamburug‘larning zahari tabiatda eng qaqshatqich qurol sifatida tan olingan. Antibiotiklar 1928-yilda shotland mikrobiolog Aleksandir Fleming tomonidan kashf etildi. U o‘z laboratoriyasidagi probirkalardan biriga mog‘or o‘rnashganini sezdi. Bu idishda olim bakteriyalarni o‘stirayotgn edi va unda hosil bo‘lgan mog‘or esa barcha mikroorganizmlani nobud qildi. Ma’lum vaqt o‘tib, mog‘or zamburug‘idan babakteriyalarni o‘ldirishga qodir bo‘lgan kimyoviy modda -penitsillin hosil qilindi va undan tibbiyotda samarali foydalina boshlandi. Bir talay zamburug‘lardagi keratin (soch va patda uchraydign oltingugurtga boy oqsil modda) eng muhim komponent hisoblanadi. Zamburug‘hayvonlarga ham zarar

ham foyda keltiradi. Ayrimlari hayvonlarga ozuqa bo‘lsa, ba’zilari organizmga sezdirmasdan kirib olib, to‘qmlarning yemirilishiga va hattoki o‘limga ham olib keladi. Zamburug‘dagi ko‘zga ko‘rinmas sporalar hayvonlarga hujum qilishi mumkin. Ular odamlar haotida boshqa o‘simgiklarga qaraganda unchalik katta ahamiyatga ga emas. Uning tana qismi bilan oziqlanishi ko‘pgina hasharotlarga zavq beradi. Masalan, termitlar va Janubiy Amerika chumolilari uchun zamburug‘ asosiy ozuqa hisoblanadi. Lekin hamma zamburug‘lar ham foydali bo‘lmay, ayrimlari organism ichiga kirib olib, xuddi mog‘orlagan nondagi kabi juda tez o‘sadi va ko‘p hollarda hayvonlarning nobud bo‘lishiga olib keladi. 1887 yilda Nyu-York shtatida topilgan zamburug‘ning uzunligi 1,5 metrdan ziyod edi. Ayrim kishilar suv havzasini, hammom yoki kiyinish xonasida oyoq yuzining epidermofik kasalligini yuqtirib olganini sezmay qolishadi. Bunday kasallikni mikroskopik zamburug‘lar keltirib chiaradi, ular nam va iliq joylarda tarqalib, qo‘l –oyoq barmoqlarining o‘rtasiga kirib oladi-da, teri bilan oziqlanadi. Buni tibbiyotda “zamburug‘ kasalligi”deb atashadi. Zamburug‘larni sun’iy usulda yetishtirish texnologiyasi ham yaratilgan. Bu haqda biologiya fanlari nomzodi Hamro Nuraliev bergen ma’lumotlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir. Zmburug‘lar dunyo miqyosida sun’iy usul bilan ham yetishtiriladi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga uni iste’mol qilish 5-7 kg. ga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda zamburug‘ning 220ta turi uchrashi ma’lum. Shundan iste’mol qilinadigani 27ta, zaharlisi esa 16ta. O‘zbekiston sharoitida 1995 –1998 yillardanboshlab zamburug‘ni sun’iy usulda yetishtirish tajribasiga qo‘l urildi. Shampionion, qo‘ziquyruq, otiata kabi navlari sporalarini orqali o‘stiriladi. Oziq -ovqat turi sifatida xalqimiz zamburug‘ni nisbatan kam iste’mol qiladi. Tarkibining 10 foizi oqsil, 90foizi suvbo‘lgan zamburug‘ organizmda tez hazm bo‘ladi. Uni baxorda iste’mol qilish organizm uchun juda foydalidir.

Research Science and Innovation House



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuban o‘simliklar. L.L. Velikanov, T., O‘qituvchi, 1995. -392 bet.
2. O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar.
R.I. Toshmuhammedov. –T.: Pilatinum Publishers, 2006. -128 bet.
3. Zamburug‘lar dunyosi. O‘. Pratov, A.To‘xtayev. O‘zbekiston -30-32 bet.
4. O‘zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. “Tuban o‘simliklar sistematikasi” Normurodov X.N, Umurzakova Z.I, Haydarov X.Q, Nomozova Z.B, Toshpo‘latov Y.Sh, Xasanov M, Rasulova Z.A. 2009 yil.
6. S.Mustafayev, S.O‘raqov, P. Suvonov “Umumiy ekologiya”
7. “Mikrobiologiya immunologiya virusologiya” I.Muhamedov, E.Eshboyev, N.Zokirov, M.Zokirov Toshkent “yangi asr avlod” 2006
8. WWW. Ziyo.uz kutubxonasi

**Research Science and
Innovation House**

ABIOTIK OMILLARGA ORGANIZMLARNING MOSLASHISHI

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh talabalari**
Tòlasheva Madinabonu Tòlqinboy qizi
Mamataliyeva Feruza Mirtemurbek qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada Abiotik omillarga organizmlarning moslanishi, organizimlarga muhitning ta’siri yoritib berilgan. Muhitning iqlimlik mohiyati unda turli tirik organizmlarning yashashidir.

Kalit so‘zlar: Abiotik, makroiqlim, troposfera, muhit, iqlim, harorat.

Аннотация: В данной статье описывается адаптация организмов к абиотическим факторам, влияние окружающей среды на организмы. Климатическая сущность окружающей среды заключается в существовании в ней различных живых организмов.

Ключевые слова: Абиотик, макроклимат, тропосфера, окружающая среда, климат, температура.

Abstract: This article describes the adaptation of organisms to abiotic factors, the influence of the environment on organisms. The climatic essence of the environment is the existence of various living organisms in it.

Key words: Abiotic, macroclimate, troposphere, environment, climate, temperature.

Kirish: Muhitning iqlimlik mohiyati unda turli tirik organizmlarning yashashidir. Jumladan, O‘rta Osiyo cho‘1, dashtlari yoki Afrika savannalarida katta sutmizuvchilar bilan bir qatorda hasharotlar ham yashaydi. Ya’ni, kiyiklar, saygaklar yoki yerdan 2 m balandlikdagi jirafalar va o‘tlar orasidagi chumolilar uchun yashash muhiti har xildir. Shuning uchun ham organizmlarning yashash muhiti-iqlimini: makroiqlim, mezoqliim va mikroqliimlarga bo‘lish mumkin. Makroiqlim (yoki regional iqlim) ma’lum joyning geografik va orografik holatlaridan kelib chiqadi. Masalan, Toshkent viloyati yoki Farg‘ona vodiysining yerlari, Qizilqum, Oloy vodiysi kabi katta maydonlar makroiqlimga misol bo‘la oladi. Makroiqlim ichidagi ayrim abiotik omillar komponentlarining o‘zgarib turishi, shu katta maydon ichida mezoqliim (yerlik iqlim)ni keltirib chiqaradi.

Masalan, Chimyon tog‘idagi archazorlar, Qizilqumdag‘i saksovul o‘rmonlari, katta tepalikning shimoliy yoki janubiy qiyaliklari, ko‘l yoki suv omborlarining atrofi mezoiqlimdir. Makroiqlim va mezoiqlimlar uchun ilmiy materiallar ma’lum apparatlar yordamida yig‘iladi. Apparatlar esa yer yuzidan 1-2-3 m balandlikda o‘simgilik bilan qoplangan tekis joyga o‘rnataladi va shu apparat yordamida yorug‘lik, harorat, namlikka oid ma’lumotlar to‘planadi. Mikroiqlim (yoki ekoiqlim) - tirik organizm darajasidagi iqlimdir. Makroiqlim va mezoiqlimda tabiiy voqeliklaro‘rganilsa, mikroiqlimda organizmlarda hosil bo‘ladigan jarayonlar, harakatlar maxsus apparatlar yordamida o‘rganiladi. Shu yuqorida muhit iqlimlari ichidagi turli abiotik omillar va ularning tirik organizmlarga ta’sirini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

. Yorug‘lik va uning organizmlarga ta’siri. Tiriklikning hamma xillari va xislatlari kosmik hodisalar bilan chatishib ketgan. Yer yuzida hayotning kelib chiqishi va tirik organizmlarning faoliyati abiotik omillardan quyosh nuriga bog‘liqidir. Yer yuzasiga yetib keladigan quyosh radiatsiyasi asosiy energiya manbai bo‘lib, sayyorada issiqlik balansi, organizmlarda suv, gaz, va modda almashishi, o‘sish va ko‘payishi, avtotrof organizmlar tomonidan organik moddalarning hosil bo‘lishi va organizmlarning hayot-faoliyatini to‘la o‘tishi uchun yashash muhitini hosil qiladi. Yer sharining qizib turgan qismi quyoshdan energiya oladi. Quyoshdan Yerga yetib keladigan nurlar oqimining to‘lqinlari uzunligini mingdan kichik angstrom ($1\text{A}=108\text{sm}$) bilan o‘lchanadi. Murakkab quyosh radiatsiyasining oqimlari atmosfera qatlamlaridan o‘tib, Yer yuziga ko‘rinuvchi nurlar ($3900-7700\text{\AA}$) sifatida yetib keladi, bu quyoshdan chiqayotgan nurning taxminan 50% ini tashkil qiladi. Atmosferaning azon qatlamida ultrabinafsha (UBN) nurlarning bir qismi (taxminan 25 km balandlikda) yutiladi, shu qatlamda uzun to‘lqinli nurlardan 2950\AA atrofida, infraqizil nurlarning o‘rtacha $2,4-104$. A va radioto‘lqinli nurlarning esa 106 . A dan yuqorisi yutiladi. Atmosferadan o‘tib keladigan quyosh nuri doimiy bo‘lib, bir minutda $1,98$ dan $2 \text{ kal/sm}^2\text{ni}$ yoki bir yilda $5 \text{ }1020 \text{ kkal/sm}^2$ ni tashkil etadi. Yoki Yerning yuqori qismiga yetib keladigan quyosh nuri bir minut $8,3\text{Dj/sm}^2$ ga teng, buning yorug‘ligi quyoshning yorug‘lik energiyasi ($2-109$) $150 \text{ mln. km. masofani}$ bosib Yer yuziga yetib keladi. Sayyoraga yil davomida $5628-1021 \text{ Dj}$ quyosh energiyasi keladi. Yerning issiqlik balansi o‘rtacha $3024-102-3318-102 \text{ Dj}$ (sm^2/yil), quruqlik uchun esa $2058 \text{ }102 \text{ Dj}$ (sm^2/yil). Bu issiqlik bug‘lanishga va fotosintezga (23%) sarflanadi.Troposferaning azon qatlamida yutilib ketadigan ultra

binafsha nurlar ($0,29 \text{ mkm}$ dan kalta) tirik organizmlar uchun juda xavfli, ular Yer yuziga yetib kelmaydi. Yer yuziga yoki o'simliklar ustiga tushadigan nurlar kalta to'lqinli $X=0,3\text{-}4,0 \text{ mkm}$ va uzun to'lqin $X>4,0 \text{ mkm}$ radiatsiyalargabo'linadi. Tirik organizmlarning hayot-faoliyati uchun qisqa to'lqinli quyosh radiatsiyasi katta ahamiyatga egadir. Qisqa to'lqinli nurlar o'z navbatida ultrabinafsha ($X<0,4 \text{ mkm}$), ko'rinvchi ($X=0,39\text{-}0,76 \text{ mkm}$) va infraqizil nurlarga yaqin ($A=0,76\text{-}4,0 \text{ mkm}$) radiatsiyalarga bo'linadi. Inson ko'zi bilan qabul qilinadigan (ko'rinvchi radiatsiya) elektromagnit to'lqinlarning diapazoni fiziologik radiatsiya ($A=0,35\text{-}0,75 \text{ mkm}$) mohiyatiga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida ekologik spektr jihatidan juda katta ahamiyatga ega, chunki shu ko'rsatkichda quyosh energiyasining yarmi mujassamlashgan, to'plangan. Quyosh energiyasining ekologik spektri doirasida ($1=0,35\text{-}0,75 \text{ mkm}$) o'simliklar tomonidan butun tirik organizmlar uchun katta ahamiyatli fotobiologik jarayon yuzaga keladi. Quyoshdan ajralayotgan radiatsiyaning (99,9%) taxminan 19% i atmosferadan o'tish vaqtida yutilib ketadi, faqat 47% igina to'g'ri va sochilgan nurlar holatida Yer yuzasiga yetib keladi (Laxer, 1978). Quyoshdan kelayotgan energiyaning tarqalishi atmosferaning holati va quyoshning Yerdan qanday balandlikda turishiga bog'liq. Masalan, Yer yuziga yetib keladigan nurlarning 24% i to 'g'ri va 23% i sochilgan nurlardan iborat. Shimoliy tumanlarda quyoshdan kelayotgan nurning 70% i sochilgan nurlar, ekvatorial mintaqalarda sochilgan nurlar 30%, to'g'ri nurlar esa 70% ni tashkil qiladi. Bulutsiz atmosfera quyosh radiatsiyasining 400-480nm to'lqinlarini mukammal o'tkazadi. Yer yuziga faqat uzun to'lqinlar (290-380nm) yetib keladi. Yuqori Pomir tog' (3500-4100 m balandlikda) sharoitida UBN-lar va boshqa ekologik omillar ta'sirida o'simliklar past, yer bag'irlab o'sadi, ularning yaproqlari kichik, ingichka, qalin bo'lib, boshqa joylarda uchraydigan shunday turlarning sistematik belgilariga to'g'ri kelmaydi. Hattoki, Zorko'l suvida uchragan bir hujayrali suvo'tlarning hujayra kattaligi boshqa oylardagi suv havzalarda uchraydigan hujayralardan 2-3-5 mk kichik bo'lgan (Ergashev, 1974, 1976). Ko'z bilan ko'rindigan radiatsiya fiziologik radiatsiya (uzun to'lqinlar 300-800 nm) mohiyatiga to'g'ri kelib, u bir necha mintaqalarga bo'linadi:

- A) ultrabinafsha
- B) ko 'k-pushti
- D) sariq-yashil 400 nm dan ozroq 400-500 nm 500-600 nm
- E) to'q-sariq-qizil 600-700 nm

F) uzun qizil 700 nm dan

katta Atmosferaning Yer yuzasiga yaqin joyida quyosh radiatsi- yasining kuchi 1,39 $\text{k}\text{vt}/\text{m}^2$ (quyosh konstanti). Ochiq bulutsiz havoda Yer yuziga 1000 vt/m^2 nur tushadi (yoki quyoshdan kelayotgan umumiylarning 61% i). Dengiz sathiga barobar o'rta kengliklarning tekisliklari 900 vt/m^2 (yoki 1,3 $\text{kal}/\text{sm}^2 \text{ min}$) umumiylur oladi. Shunday qilib, quyoshdan kelayotgan nurlarning bir qismi kosmik fazasiga qaytib, suv parlariga yutilib, atmosferaning isishiga sabab bo'ladi, UBNlar esa azon qatlamida yutiladi. Yerga kelayotgan sochilgan nurlar atmosferadagi gaz molekulalari bilan birlikda moviy osmonning ko'rinishini o'zgartiradi. Yerga quyoshdan kelayotgan nur energiyasi oy, fasllar davomida va yerning turli kengliklarida har xil bo'ladi (Zubov, 1978). Masalan, Yer yuziga yil davomida quyoshdan kelayotgan energiya Arktika mintaqasidan 16700-16800, boreal mintaqada 43600, mo'tadil issiq mintaqada 82000 kal/sm^2 ni tashkil qiladi.

Xulosa: Ushbu maqoladan xulosa qilib aytganda har bir organizm abiotik omillarga moslanishi yuzaga kelgan. Harorat omilariga har bir organizm har hil moshlashgan.

Foydanilgan adabiyotlar:

- 1.P.S.Sultonov "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" Toshkent-2007
- 2.R.X.Allaberdiyev "Kimyoviy ekologiya" Toshkent 2019
- 3.Ekologiya, Biosfera va Tabiatni muhofaza qilish A.Ergashev,T.Ergashev Toshkent-2005
- 4.A.Ergashev, M.T.Yulchiyeva, O'.A.Ahmedov, A.A.Abzalov "Ekologiya" Toshkent-2010
- 5.To'xtaboyev.A, Raximov.A Ekologiya fanidan ma'ruzalar matni Andijon-2015
- 6.<https://www.uznature.uz/uz/site/news?id=3643>

O‘zbekistonda keng tarqalgan dorivor o‘simliklar

**Andijon davlat Pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 202-guruh talabalari**
Inomjonova Muhtasar Muhiddin qizi
Nabiyeva Dilzoda Abduvohidjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ko‘p o‘stiriladigan va keng qo‘llanilishga egan bo‘lgan turli xil o‘simlik turlari, ularning ahamiyati haqida ma’lumot keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о различных видах растений, которые широко культивируются и широко используются в Узбекистане, и их значении.

Abstract: This article provides information about various types of plants that are widely cultivated and widely used in Uzbekistan, and their importance.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, aromatik, farmasevtika, biologik faol moddalar, tibbiyat, vitaminlar, efir moylari, yalpiz, shirinmiya, aloe, isiriq, na’matak , jag‘ jag‘.

Ключевые слова: лекарственные растения, ароматические вещества, фармацевтические препараты, биологически активные вещества, лекарства, витамины, эфирные масла, мята перечная, солодка, алоэ, ладан, наматақ, челюсть челюстная.

Key words: medicinal plants, aromatic, pharmaceuticals, biologically active substances, medicine, vitamins, essential oils, peppermint, licorice, aloe, incense, namatak, jaw jaw.

O‘zbekistonda asrlar davomida xalq tabobatida qo‘llanib kelingan bir qancha keng tarqalgan dorivor o‘simliklar mavjud. Markaziy Osiyoning qo‘shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O‘zbekistonning tog‘laridagi maydon birligiga nisbati bo‘yicha o‘simliklar soni bir necha barobar ko‘p. Mamlakatning boy o‘simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o‘simliklar mavjud, ular orasida dorivor o‘simliklar ham bor. Bunday o‘tlar ekologik toza bo‘lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatalidi.

Dorivor o‘simliklar odam va hayvon organizmlariga ta’sir qiluvchi biologik faol moddalarni saqlovchi, tibbiyat maqsadida foydalaniladigan o‘simliklar

hisoblanadi.Ularda turli biologik faol moddalar (BFM) to‘planadi: (alkaloidlar, glikozidlar, vitaminlar, achchiq moddalar, oshlovchi moddalar, polisaxaridlar, flavonoidlar, efir moylari va b.). Odatda dorivor o‘simliklarni quyidagi guruhlarga bo‘linadi: Tinchlantiruvchi, uyqu keltiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, yaralarni tuzatuvchi, qon to‘xtatuvchi, safro haydovchi, yumshatuvchi va boshqalar.Inson va hayvonlar organizmida ro‘y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlanayotgan dorilar muhim o‘rinda turadi.[1]

O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalilaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40-47% o‘simlik xomashyolaridan olinadi. O‘simliklar murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo‘lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tuganagi, piyozi, po‘stlog‘i, bargi, guli, g‘unchasi, mevasi (urug‘ii), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalilaniladi.Dorivor o‘simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta’sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko‘rsatkichlariga qarab tinchlantiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta’sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar.[2]

Yalpiz — labguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, dorivor va efirmoyli o‘simlik. Shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20-25 turi tarqalgan.O‘zbekistonda 4 turi: suv yalpizi, Osiyo yalpizi, taxir (achchiq) yalpizi va jingalak yalpizi yovvoyi holda o‘sad. Poyasi tik shoxlangan, bo‘yi 25-100 sm gacha, barglari qarama-qarshi joylashgan. May oktabrda gullaydi. Yalpiz yorug‘sevar, namsevar o‘simlik. Barglarida 2,5- 3 %, gullarida 4-6%, poyasida 0,3 % mentol (validolning tarkibiy qismi)ga boy bo‘lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar bor. Tibbiyotda yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) va damlamasidan ko‘ngil ayniganda hamda o‘t haydovchi vosita sifatida foydalilaniladi.O‘zbekistonniig barcha viloyatlarida nam yerlarda, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi.Bollalar uchun yalpizning foydaligi yalpiz tinchlantiruvchi ta’sirga ega, bolalarda quşish va ko‘ngil

aynish bilan yordam beradi. Kolikadan xalos bo‘lish karmplarini kamaytirish uchun chaqaloqlarga yalpiz choylari beriladi. Tinchlantruvchi xususiyatlari bolalarda qo‘llaniladi tashvishli va yomon uyqu. Ko‘pincha,bu bir yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar,chunki ular asab tizimini hali to‘liq shakillantirmagan. Bunday hollarda yalpiz choyi ham tayyorlanadi.[3]

Isiriq o‘tini kuydirib, biroz hidlansa bosh og‘rig‘i yo‘qoladi; Isiriq urug‘i qaynatmasi nafas olishi qiyinlashganda ,nafas qisishida zig‘ir urug‘i bilan bilan araashtirib ichilsa yuqoridagi dardlarga davo bo`ladi; Isiriqning shonalash davrida olinadigan o‘ti va urug‘lari davolashda ancha samarali hisoblanadi; Isiriqni tinchlantruvchi vosita sifatida ham qo`llash mumkin. Bu xususiyati uyqusizlikda ajoyib foyda beradi; O`simlikning shirasi – katarakda ancha samara beradi (Qaynatmasi bilan yuz yuviladi); Uy-joylarni dezinfeksiya qilish maqsadida tutatib qo`yish mumkin; Isiriqning sut shirasi tibbiy paxtaga shimdirilib, qichimadan qiynalgan joylarga 10 kun davomida davomida surtilsa, qichimani tuzatadi; Yurak faoliyatini yaxshilsh maqsadida isiriq urug‘i, sedana, kamfora, murch, petrushka, qora zira, zafaron teng miqdorda olinib, aralashtiriladi. Hamda asal yoki shakar qo`shilib kuniga bir mahal ichiladi; Ichdam bo`lganda isiriqga, petrushka urug`ini hamda yalpiz, zanjabil kabilarni aralshtirilib ichilsa, shifo bo`ladi; Isiriq tish og‘rig‘i, terlatuvchi, grippni oldini oluvchi, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini davolovchi xususiyatlari ham mavjud! [4]

Aloe - Piyozguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 4 m gacha yetadigan doim yashil daraxtsimon yoki o‘t-o‘simlik. Barglari qalin, sershira, yumshoq, qilichsimon, yuqori tomoni botiq, pastki tomoni do‘ng bo‘lib, chiqqan, qirrasi tikanlar bilan qoplangan, uzunligi 60-65 sm, qalinligi 12-15 mm ga yetadi. Aloy bargi qadimdan xalq tabobatida ishlatib kelingan. Quritilmagan bargi va uning shirasi me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yaralarini davolashda qo‘llaniladi. O‘pka silini davolashda aloy bargi shirasini asal va cho‘chqa (charvisi) yog‘i bilan aralashtirib pishiriladi va bemorga iste’mol qilishga beriladi. Aloy bargini o‘rtasidan uzunasiga kesib (pichoq, shisha va boshqa narsalar bilan) tananing kesilgan joyiga, shirasini yaralarga, ular yiringlab ketmasligi va tez bitishi uchun qo‘yiladi. Shuningdek, aloy bargi milk yallig‘laganda, shishib og‘riganda qo‘llaniladi.

May na‘matagi - Na‘matak turlari ra’noguldoshlar Rosaceae oilasiga mansub, bo‘yi 1,5-3 m ga yetadigan tikanli buta. Na‘matak turlarining mevasi turli vitaminlar saqlovchi polivitaminli mevalarga kiradi. Yuqori vitaminli turlari (Begger

na'mataklari va Fedchenko na'matagi) avitaminoz kasalliklarini davolash va ularning oldini olish uchun qo'llaniladi. Urug'idan olingan moyi va mevasining yumshoq qismidan tayyorlangan moyli ekstrakti karatolin kuyganni, trofik yaralarni, ekzema, teri kasalliklarini, rentgen nuridan kuygan joylarni, yarali kolit va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.[5]

Jag‘-jag‘ o‘ti tarkibida gissopin ramno- glyukozidi, burs kislotasi, taninlar, fumad, olma va vino kislotalari, xolin va atsetilxolin, tiramin, inozit, askorbin kislotasi va saponinlar mavjud. Urug‘larida yog‘li moylar (28% gacha) va oz miqdordagi allilxantal yog‘i mavjud.Jag‘-jag‘ o‘simligi qaynatmasi ginekologik amaliyotda damlama va ekstrakt shaklida tug‘ruqdan keyingi qon to‘xtatuvchi vosita sifatida, shuningdek, tug‘ruq paytida bachadon mushaklarining qisqarishini kuchaytirish uchun ishlatiladi. Tez-tez qon tupirish va qon ketishi bilan kechgan o‘pka silini davolashda jag‘-jag‘ o‘simligi qaynatmasining samarali foydasi aniqlangan.[6]


Shirinmiya dorivor o‘simlik sifatida juda qadim zamonlardan ma'lum. O‘rtalarning mashhur olim va tabibi Abu Ali Ibn Sini o‘zining davolash amaliyotida shirinmiya yerostki qismlaridan juda keng miqyosida foydalangan.Jumladan oshqozon ichak yaralarini, o‘pka va nafas yo‘llari kasalliklarini davolashda dorivor vosita sifatida ishlatilgan.Zamonaviy tabobatda ham bu o‘simlikning o‘rni beqiyos bo‘lib, farmasevtika sanaoti korxonalarida qayta ishlanib turli xil dori vositalari ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga ko‘pgina dorivor yig‘malarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.[7]

Xulosa qilib aytganda dorivor o‘simliklar sog‘likni saqlash va sog‘lomlashtirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.O‘zbekistonda keng tarqalgan dorivor o‘simliklar manbalaridan olingan birikmalar tabobatda, farmasevtikada keng qo’llaniladi.

Research Science and Innovation House

Foydanilgan adabiyotlar:

1. www.google.com Dorivor o'simliklar ularning tabiatda va inson hayotidagi roli. cyberleninka.ru
2. O'zbekistonda keng tarqalgan foydali o'simliklar. Tulyaganova M. Yuldashev A.S. Toshkent-2011
3. Xolmatov X.X., Odilov T. O'zbekistonning dorivor o'simliklari. Toshkent:fan, 1991.
4. R.A. Alimova, M.T. Sagdiyev, B.A. Adilov, M.S. Abdullayev-Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent: Ibn Sino 1998.
5. M.A. Jo'rayeva Dorivor o'simliklar atlasi Toshkent nashr-2019.
6. O.K. Hojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamrayeva, D.A. Imomova, A.N. Xo'janov O'zbekiston dorivor o'simliklar atlasi SamDU nashriyoti 2021.
7. <https://agro-olam.uz/dorivor-shirinmiya-haqida/>



Research Science and Innovation House

KATTA YOSHDAGI MAKTAB O‘QUVCHILARINING SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Qodirova Laziza Tohirovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs
magistranti

Annotatsiya. Maqolada katta yoshdagi o‘quvchining shaxslararo munosabatlar muammosining psixologik nazariy adabiyotlarda o‘rganilganligi tahlil qilingan. Katta yoshdagi o‘quvchining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va o‘yining maktabgacha yosh davrida shaxslararo munosabatlar tizimiga ta’siri mexanizmlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: shaxslararo munosabat, psixologik xususiyat, o‘yin, ta’lim-tarbiya jarayoni, bilim, nazariya, o‘smirlilik, kognitiv faoliyat.

Ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyati turli fanlar bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirish, fanlararo aloqalarni o‘rnatishdir. Hammasi bu tabiatning umumiy qonuniyatlarini o‘zlashtirish uchun zamin yaratadi va jamoat hayoti, bu ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi. Katta maktab o‘quvchisi o‘zining o‘quv ishida har xil aqliy operatsiyalardan ishonchli foydalanadi, mantiqan bahslashadi, mazmunli eslaydi. Shu bilan birga, o‘rta maktab o‘quvchilarining kognitiv faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Agar o‘smir bu yoki boshqa hodisaning nima ekanligini bilmoxchi bo‘lsa, unda katta maktab o‘quvchisi ushbu masala bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni tushunishga, fikrni shakllantirishga, haqiqatni aniqlashga intiladi. Katta yoshli o‘quvchilar aql uchun vazifalar bo‘lmasa, zerikishadi. Ular kashf va tajriba qilishni, yangi, original yaratishni yaxshi ko‘radilar.

O‘quvchining ijtimoiy yo‘nalishi mustahkamlanmoqda, jamiyatga, boshqa odamlarga foyda keltirish istagi kuchaymoqda. Katta yoshli o‘quvchilarining o‘zgaruvchan ehtiyojlari shundan dalolat beradi. Kichik maktab o‘quvchilarining 80 foizida shaxsiy ehtiyojlar ustunlik qiladi, va faqatgina 20 foiz holatlarda o‘quvchilar boshqalar uchun foydali, lekin yaqin odamlar (oila a’zolari, o‘rtoqlari uchun) biron-bir foydali ish qilish istagini bildirishadi. 52 foiz holatlarda, o‘spirinlar boshqalar uchun nimadir qilishni xohlashadi, lekin yana o‘zlarining atrofidagi odamlar uchun. Katta maktab yoshida sezilarli darajada o‘zgaradi. O‘rta maktab o‘quvchilarining

aksariyati maktablar, shaharlar, qishloqlar, davlat va jamiyatga yordam berish istagini bildiradi.

O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallahdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. O'smirlar do'stlik, o'rtoqlik va o'zaro yordamlashyni hamma narsadan yuqori qo'yadilar: ana shunday o'zaro munosabatlar, o'spirinlik yillarida ham davom eta beradi. Bunda o'smirlar va ilk Yoshdagi o'spirin o'quvchilarniig xulq-atvorlariga do'stlari ota-onalar va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchliroq ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smir bolaning yetilmaganligi va tajribasizlangi uni tevarakatrodagi kimsalardan madad axtarishga majbur kiladi. O'smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigan do'st kerak. O'smirning do'stlari bilan muloqoti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tengdosh bolalar bilan prinsipial tenglik holatidagi munosabatlar muhitiga nisbatan o'smirda alohida qiziqish bo'ladi. Bu hol o'smirda yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. Kattalar bilan muloqotda bo'lish tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotning o'rnini bosa olmaydi. O'smir uchun tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot u mustaqil harakat qiladigan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'laydi, o'z huquqlarini himoya qiladi va aynan Shuning uchun ham o'rtoqlari bilan bo'lgan munosabatga kattalarning o'rinsiz, qo'pol aralashuvi o'smirning xafagarchiligiga va noroziligiga olib keladi. O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat – jamoa va o'rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og'ir jazo esa – ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir.

Katta yoshdagi o'quvchining rivojlanishiga maktab sinfidanmi yoki shunchaki do'stona kompaniya bo'lsinmi, tengdoshlar jamoasi katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning kattalar bilan aloqa qilishlari boshqa yosh davrlariga qaraganda ancha yuqori. Voyaga etgan do'stga ega bo'lish istagi, o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi belgilashda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish juda qiyin ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu masalalar tengdoshlar orasida aniq muhokama qilinadi, ammo bunday munozaraning foydalari nisbiy: hayot tajribasi kichik, keyin kattalarning tajribasi yordamga keladi.

Katta yoshdagi o'quvchilar insonning axloqiy xususiyatlariga juda katta talablar qo'yadilar. Buning sababi katta maktab yoshida o'zi va boshqalarning

shaxsiyati to‘g’risida yaxlit g’oya yaratilishi, odamlar, ayniqsa sinfdoshlar tomonidan qabul qilinadigan ijtimoiy va psixologik fazilatlar doirasi kengayib bormoqda. Katta maktab yoshi - bu yoshlikning boshlanishi. Ammo o‘rta maktab o‘quvchisi o‘qishni tugatgandan so‘ng, balog’atga etishishga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi kerak. Kattalar hayotiga psixologik tayyorgarlik tushunchasi, bu holda, o‘zini o‘zi anglash uchun rivojlangan qobiliyatlar va ehtiyojlarning mavjudligini nazarda tutadi. Avvalo, bu aloqa va uni qurish usullariga ega bo‘lish zarurati; nazariy fikrlash va nazariy bilimlarning turli shakllarida harakat qilish qobiliyati va faoliyatga aralashish va uni ijodiy asosda amalga oshirish imkonini beradigan mehnatga bo‘lgan ehtiyoj va ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Bu fazilatlar maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi belgilashining psixologik asosini tashkil qiladi - erta o‘smirlilik davrining markaziy neoplazmasi. O‘rta maktab o‘quvchisi shaxsiyatining barcha sifat jihatidan yangi xususiyatlari aqliy funktsiyalarning shakllanishi bilan emas, balki o‘quvchi shaxsining tuzilishi va mazmunidagi tub o‘zgarishlar bilan bog’liq.

O‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g’ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, Shuningdek, otaonasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlilik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, aggressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo‘ladi. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologik o‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do‘siti o‘smiriga ijobiy ta’sir qiladimi yoki uni yo‘ldan urib, yomon ta’sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog’liq.

Xulosa: Hozirgi kunda zamon shidat bilan rivojlanib borar ekan, ilm-fan, texnikada ham, shu bilan birgalikda shaxs shakllanishida ham katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ularning harakteri, turmush tarzi ham tubdan farq qilmoqda. O‘smir yoshlar ham, zamon bilan hamnafas holda rivojlanmoqda. Yangidan yangi bilimlarni, kasblarni o‘zlashtirmoqda. Demak, shaxs shakllanishida zamon ham o‘z



ta’sirini ko‘rsatar ekan. Shuningdek, aynan o‘smirlilik davrida ham shax o‘z o‘zini anglashi, do‘srlar orttirishi va yaxshi munosabatga, hurmatga ega bolish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-maydag‘i PQ4312-son qaroriga 1-ilova “O‘zbekiston Respublikasi mактабгача ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” <https://lex.uz/docs/-4327235#-4328016>
2. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 3(B1), 29-34.
3. Taxirovna, A. S. (2023). EXPLORING LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES: ENGLISH AND UZBEK PERSPECTIVES. *ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN*, 1(6), 59-62.
4. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.
5. Арушанова А. Коммуникативное развитие: проблемы и перспективы: сценарии// Дошкольное воспитание. — 1998. — № 8. — С. 96–107.
6. Бодалев А. А. О взаимосвязи общения и отношения// Вопросы психологии. — 1994. — № 1. — С. 122–127.
7. Веракса Н. Е., Веракса А. Н. Развитие ребенка в дошкольном детстве: Пособие для педагогов дошкольных учреждений. — М.: Мозаика-Синтез, 2006. — 72 с.
8. Выгодский Л. С. Педагогическая психология. — М.: Просвещение, 1991.- 190 с.
9. Ежова Н. Диагностика ценностных ориентаций детей старшего дошкольного возраста// Детский сад от А до Я. — 2006. — № 5. — С. 152–156.
10. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko ‘nikmasini shakllantirish muammolari. O ‘ZBEKIST, 87.
11. Ganievna, N. A. (2015). 20. Asır Özbek Dilbiliminde Morfolojiye Ait Görüşlerin Şekillenmesinde Prof. Eyyüp Gulamov'un Yeri.



Research Science and
Innovation House


**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

12. qizi To‘yeva, M. S. (2022, November). YANGI O ‘ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G ‘ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
13. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>
14. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
15. Исмагилова А. Г. Стиль педагогического общения воспитателя детского сада// Вопросы психологии. — 2000. — № 5. — С. 65–72.



**Research Science and
Innovation House**



**“ХАНДИЗА” КОНИ ШАХТА СУВИДА МАВЖУД МЕТАЛЛ
ИОНЛАРИДАН ТОЗАЛАШ ВА УНИНГ
РЕНТГЕНФЛУОРЕСЦЕНТ ТАҲЛИЛИ**

Шомирзаева Зулфия Хайрулло қизи,
Касимов Шерзод Абдузаирович,
Жумаева Зулхумор Эргашевна,
Ражабов Умид Чориевич,
Курбонов Фахридин Бобомуратович
Термиз давлат университети
bekzur22@gmail.com

Аннотация: Сурхондарё вилоятидаги “Хандиза” кони шахта оқова сувлари таркибидаги элементлар, оғир металлар миқдори рентген спектрал усул билан аниқланди, оқова суви адсорбция усули билан тозаланди, тозаланган сув таркибининг умумий қаттиқлиги титрометрик ва элемент тахлили рентген спектрал усулларда ўрганилди. Дастребаки оқава сувнинг таркибида темир, қўрғошин, рух, мис, марганец металл ионларининг миқдори юқори эканлиги аниқланди. Адсорбция усули ёрдамида оқава сувдаги металл ионлари чўқтирилди, сувнинг pH муҳити ўрганилди. Тозалаш натижасида сувнинг таркибидаги айrim металл ионларининг миқдори бир неча марта камайтиришга эришилди.

Калит сўзлар: Хандиза кони оқова сувлари, оғир металлар, темир, қўрғошин, рух, мис, марганец, pH-муҳити, рентгент спектрал таҳлил, батометр.

Аннотация: Количество элементов и тяжелых металлов в сточных водах шахты рудника «Хандыза» Сурхандарьинской области определялось рентгеноспектральным методом, сточные воды очищались адсорбционным методом, общая жесткость очищенной воды исследовалась титрометрическим и элементным рентгеноструктурным методами. Установлено, что в составе исходных сточных вод содержится высокое содержание ионов металлов железа, свинца, цинка, меди и марганца. Методом адсорбции осаждали ионы металлов в сточных водах и исследовали



pH воды. В результате очистки количество ионов некоторых металлов в воде сократилось в несколько раз.

Ключевые слова: Сточные воды шахты Хандиза, тяжелые металлы, железо, свинец, цинк, медь, марганец, pH-среда, рентгеноспектральный анализ, батометр.

Annotation: The amount of element and heavy metals in mine wastewater of "Khandiza" mine in Surkhandarya region was determined by X-ray spectral method, the wastewater was purified by adsorption method, the total hardness of the purified water was studied by titrometric and elemental X-ray spectral methods. It was found that the content of the initial wastewater contains high iron, lead, zinc, copper, and manganese metal ions. Using the adsorption method, metal ions in wastewater were precipitated, and the pH of the water was studied. As a result of purification, the amount of some metal ions in the water was reduced several times.

Keywords: Khandiza mine wastewater, heavy metals, iron, lead, zinc, copper, manganese, pH-environment, X-ray spectral analysis, bathometer.

Кириш. Дунёда инсонлар яшashi ва ижод қилиши учун етарли шарт шароитлардан бири сув ресурслариdir. Ўзбекситонда бугунги кунда иқлим ўзгариши, ёғингарчиликларнинг камайиши ва ер ости сувлари сатҳининг пасайиши туфайли ичимлик суви муаммоси биринчи даражага чиқмоқда. Табиий сувларнинг тозалигини сақлаш, заарли кимёвий моддалар билан заарланишини олдини олиш, табиий сувларнинг истеъмолга яроқлилигини белгилаш унинг физик-механик ва физик-кимёвий хусусиятларини сақлаш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Табиий сувлар таркибидаги микроэлементлар микдорининг ортишига сабаб сув оқими, тезлиги, муҳити, ҳарорати ва эрувчанликнинг таъсири бўлса, саноат корхоналари оқова сувларини етарли даражада тозаланмасдан дарё сувига қўшилишидир. Демак, оқова сувларининг заарланганлик даражасини аниқлаш, сувдаги микроэлементлар микдорини камайтириш усувларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга.

Муаллифлар ўз ишларида иссиқ ва совук сувни истеъмол қилиш учун ҳисоблагичлардан фойдаланиш истеъмолчини сув истеъмолини назорат қилишга ундейди ва белгиланган меъёрлар бўйича ҳисоб-китобларни тўлаш



билин солиширигандан харажатларни 30-40% га камайтиради деб ҳисобладилар [1,2].

Ушбу тадқиқот ишида сувдаги темир микдори ўсимликлар ва одамлар учун унинг асосий манбаларидан бири эканлиги ҳамда ер усти ва водопровод сувларида темир таркибини мониторинг қилиш йилдан-йилга долзарб вазифа ҳисобланиши айтиб ўтилган. Тадқиқот объектлари дарёдан олинган сув намуналари ва Красноярск яқинидаги Енисей, шунингдек, Красноярскнинг учта турли туманларининг кранларидан олинган қувур суви таркибидаги темир ионларини спектрофотометрик усул билан аниқланган [3].

Ушбу тадқиқот ишларида ишлаб чиқаришнинг асосий босқичлари тавсифланган ва цемент ишлаб чиқаришни экологик модернизация қилишининг асосий йўналишлари санаб ўтилган, муаллифларнинг фикрига кўра, цемент чангнинг микдорини камайтириш, ифлослантирувчи моддалар микдорини камайтирадиган ёпиқ сув таъминоти тизимини яратиш, чанг ва бошқа ифлослантирувчи моддаларни атмосферага чиқарилишини олди олинган [4, 5].

Х.Х.Тураев ва бошқалар Сурхондарё дарё сувидаги айrim заҳарли элементларнинг миграцияси биринчи мартаа нейтрон активацияси усули ёрдамида ўрганилган [6]. Табиий сувлар таркибида оғир металлар: рух (II), марганец (II), қўрғошин (II) ва хром (III) КФГ-1 ва ТФГ-1 ионлари микдорининг сорбция концентрациясини аниқлаш бўйича тажрибалар, лаборатория тадқиқотлари натижалари келтирилган. Спектрофотометрия ёрдамида МПС нинг ўндан бир қисми даражасида оғир металларни концентрациялаш ва кейинчалик аниқлаш учун оптимал шароитлар таклиф этилган. ТФГ-1 ва КФГ-1 ион алмашинувчиларининг pH 1-12 оралиғида марганец (II), қўрғошин (II), рух (II) ва хром (III) ионларига нисбатан сорбция хусусиятларининг қиёсий тавсифи келтириб ўтилган [7].

Юқорида келтириб ўтилган ишлардан оқава сувлар таркибида металл ионларини аниқлаш усуллари ўрганилиб, таркибидаги металларни сорбциялаш мақсад қилиб олинди.

Материаллар ва усуллар. Тадқиқот ишида Батометр М-1 ускунаси ёрдамида сувдан намуна олинди, суюқ шиша ёрдамида сорбция, рентгенфлуоресцент спектроскопияси усулида айrim металлар микдори аниқланди.

Сув намуналарини олиш усули. Сувдан намуна олишда узига хос услугда олинади агар оқар сув хавзаларидан намуна олинадиган бўлса у ҳолда намуна олиш асбоби батометр ёрдамида аниқ белгиланган тенг оралиқ вақтда намуна олинади.

Хандиза кони шахтаси чиқаётган чиқинди сувдан, сув намунаси олиш учун 100 метргача чуқурликдан иборат сув хавзаларидан сув намунаси олишга мўлжалланган Батометр М-1 ускунси (1-расм) ёрдамида сув намунаси олиниб, лаборатория текширувлари ўтказилди.

Очиқ ва оқава сув манбаларидан сув намуналари маҳсус намуна оловчи ускуна М1 маркали батометрдан олинадиган намуна ҳажми тадқиқот мақсадида келтирилган таҳлилларни барчасига етарли даражада олиниши лозим.

Намунага илова хати тақдим этилади, унда: манбанинг номи ва унинг жойлашган жойи, намуна олиш санаси (йил, ой, сана ва соат), намуна олиш жойи ва нуқтаси, об-ҳаво шароити, сув ҳарорати, текшириш мақсади келтириб ўтилади.

Лаборатория текширувларида айрим оғир метал ионларини аниқлашда Rigaku рентгенфлуоресцент спектрометридан фойдаланди. Rigaku спектрометри текширилаётган кам миқдордаги ёки металл қотишма ҳолатдаги намуналарни мутаносиблигини бузмасдан ва миқдорни йўқотмасдан аниқлаш имкониятига эгадир.

Рентген-спектрал таҳлил - материалларни ўрганиш ва назорат қилишнинг физик усулларидан бири. У спектроскопиянинг барча усуллари учун умумий бўлган ғояга асосланади.

Research Science and Innovation House



1-расм. Батометр М-1
ускунси

2-расм. Rigaku спектрометри

Рентген спектрал таҳлилиниң моҳияти атомлар тез электронлар ёки квантлар билан парчаланганда модданинг характерли рентген нурланишини чиқариш қобилияти яни флуоресценциядир. Шу билан бирга, атом қобигидан электронни тортиб олиш учун зарур бўлган энергиядан каттароқ бўлган энергияга эгадир. Бундай таъсир характерли радиация спектрининг пайдо бўлишига олиб келади ва узлуксиз кам сонли спектрал чизиқларини беради. Аниқланган заррачаларнинг энергия таркибини баҳолаш ўрганилаётган объектнинг физик ва кимёвий хоссалари ҳақида хуноса чиқариш имконини беради (2-расм).

Хандиза шахтасидан чиқаётган тозаланмаган сувни сифат таркибини аниқлаш ҳамда улардаги айrim кимёвий элементлар микдори рентген спектрал тахлил усулида ўрганилди. Тадқиқот қуйидаги тартибда амалга оширилади: сув намунаси тайёрланди, спектрометр қиздиришга қўйилди, тўлқин узунлиги диапазони созланди, сканерлаш ва таъсир қилиш вақти белгиланди. Олинган спектрларни компьютер хотирасида сақланди (3-расм).

Ҳар дақиқада нурланиш интенсивлиги сканерлаш компьютер мониторида график кўринишида кўрсатилди, унинг горизонтал ўқи бўйлаб тўлқин узунлиги чизилган ва вертикал ўқи бўйлаб нурланишнинг интенсивлиги келтирилган.



Research Science and
Innovation House


“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI

VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869




Research Science and
Innovation House



3-расм. Хандиза шахтадан чиқаётган тозаланмаган сувнинг рентген спектрал тахлили

Замонавий спектрометрларнинг дастурий таъминоти олинган маълумотларни автоматик равишда декодлаш имконини беради. Хандиза шахта суви намунасида топилган кимёвий моддалар қатори рўйхати келтириб ўтилди (1-жадвал).



4-расм.Хандиза шахта сувининг сорбция-фильтрациядан кейинги рентген спектрал тахлили

Хандиза шахтасидан чиқаётган сувни сорбциялангандан кейин айрим кимёвий элементлар миқдори сифат таркиби аниқланди (4-расм).

1-жадвал

Хандиза кони оқова сувларини рентген спектрал таҳлили
кўрсатгичлари

№	Элементлар номлари	Дастлабки оқава сув таркиби	Тозаланган сув №1	Тозаланган сув №2
1.	Мис, мг/л	0.09	0.001	-
2.	Рух, мг/л	1.08	0.016	0.0034
3.	Темир, мг/л	0.77	0.011	0.006
4.	Калций, мг/л	0.456	0.1	0.047
5.	Калий, мг/л	0.32	-	-
6.	Алюминий, мг/л	0.3	-	-
	Қўрғошин мг/л	0.17	-	-
	Марганец мг/л	0.01	0.003	-
	Кремний мг/л	1.55	-	-

Хуроса. Хандиза кони оқова сувларини рентген спектрал таҳлили ўтказилди. Лаборатория таҳлили натижаларига кўра шахта сувидан олинган сув намуналарида металл ионларининг миқдори юқори эканлиги шунингдек сувнинг қаттиқлиги ўрганилганда шахта сувининг умумий қаттиқлиги давлат стандарти ГОСТ 31954-2012 кўрсатгичи талабидан 5 баробар юқори эканлиги аниқланди, шахта суви тозалангандан кейин бу кўрсатгич таркибидаги Са миқдорининг юқорилиги сабабли 3 баробарга тушганлиги аниқланди. Шунинг тозаланган ва адсорбцияланган сувнинг таркибида рух, қўрғошин, мис, темир, марганец миқдори 10 баробар камайганлиги элемент таҳлил анализи натижалари билан исботланди.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кабулов А.В., Сейтов А.Ж., Кудайбергенов А.А. Критерий управления задач оперативного управления водными ресурсами объектов водохозяйственных систем //ИЛИМ ҳам ЖАМИЙЕТ. 2021 г. С. 6-8.
2. Кутенкова Я.А., Панова А.Л., Дениско В.В. “Определение ионов меди в водопроводных и поверхностных водах методом спектрофотометрии” //“Краснояр.науч.центр Сибирского отделения Российской Академии наук”.Междисциплинарная конференция молодых учёных. 2021 г. 109 с.
3. Кулижников А., Рыжов К., Ленин В. Спектрофотометрическое определение ионов железа в поверхностных и водопроводных водах г. Красноярска //“Красноярский Научный Центр Сибирского отделения Российской Академии наук”. Междисциплинарная конференция молодых учёных ФИЦ КНЦ СО РАН 2021 г. 108 с.
4. Коробова О.С., Ткачева А.С. Экологические аспекты цементного производства //Горный информационно-аналитический бюллетень (научно-технический журнал). ИССН 0236-1493. 2016 №7. С.42-46.
5. Романовский В.И., Гуринович А.Д., Бахмат А.Б. Оценка эффективности использования осадков сточных вод г. Минска в производстве цементного клинкера // Журнал «Вода Магазине», №6 (94), 2015 г. <https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/31208/156-162c>
6. Тураев, Х.Х., Эшкурбонов Ф.Б., Тиллаев Х.Р., Кулматов Р.А. (2019). Формы миграции токсичных элементов в воде р. Сурхандаръи //Универсум: технические науки, электрон. научн. журн. 2019. №12 (69), 64-69. УРЛ: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/8503> (дата обращения: 26.04.2024).
7. Тиллаев Х.Р., Холбоев О.З. Спектрофотометрические методы определения ионов тяжелых токсичных металлов в водах Сурхандаръи // Универсум: химия и биология: электрон. научн. журн. 2021. 5(83). УРЛ: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/11661>
8. Kurbonov F.B., Safarova R.T., Jumaeva Z.E., Eshonqulova N. (2023). “Surxondaryo viloyati ochik suv xavzalarini ifloslanish manbalari va suv manbalarining xozirgi ekologik xolati”, Journal of Universal Science Research, 1(4), pp. 368–372.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY


ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

Available at:<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/506>

9. Uralov N.B, Turayev Kh.Kh, Normurodov B.A, Karimov M.U, Kasimov Sh.A., Kurbanov F.B, & Kadirova M. (2024). CONCENTRATION AND ANALYSIS OF IODINE CONTAINED IN GROUND SALINE WATERS ON THE BASE OF HEXAMETHYLENETETRAMINE. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 276–280. Retrieved from <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1025>



**Research Science and
Innovation House**



ДИМЕТИЛОЛКАРБАМИД, ДИМЕТИЛОЛТИОКАРБАМИД ВА ДИГЛИЦИДИЛИОКАРБАМАТ АСОСИДА ОЛИНГАН ИОНИТЛАРНИНГ ЭЛЕКТРОН МИКРОСКОПИК ТАДҚИҚОТИ

Мусайев Ч.А

Термиз Давлат Университети

Аннотация. Тадқиқотларда кўринадики кўплаб адсорбент материалларнинг морфологик ва сирт тузилишини аниqlашда СЭМ усулидан кенг фойдаланилади [104; 204–208 б]. Чунки сорбентларнинг морфологик тузилиши уларнинг физик-кимёвий хоссаларига кенг таъсир кўрсатади.

Калит сўзлар:адсорбент , СЭМ , сорбент , элемент таҳлили

Фоваксимон ионалмашувчи полимер материалларнинг кенг миёсда ишлатилиши тўрсимон структурали полимерлар тузилишининг шаклланиш қонуниятларини ўрганишни тақозо қиласди. Намуналарнинг фоваксимон ва плёнка тузилишда ҳосил бўлиш механизми, асосан, инерт суюлтирувчи табиати ва иккинчи монмер миқдорига боғлиқ. Бунда асосий ролни полимерланишнинг бошлангич босқичларидаёқ занжирларнинг циклланиши ўйнайди ва бу кичик конверсион даражаларда системанинг бир-жинслилигини оширади. Иккинчи мономер тури ва унинг ўртача ва юқори концентрацияларида бундай циклланиш полимерланган маҳсулот микро ўрамалар ҳосил қиласди. Улар кейинги босқичларда ўрамалар орасидаги боғланишни таъминлайди ва полимер тўрнинг сийрак участкаларини ҳосил қиласди. Ўз навбатида улар турлича фазовий тузилишли тўрсимон полимерлар, жумладан юқори ички молекуляр қулайликка эга гетероген полимерлар ҳосил бўлишига олиб келиши мумкин.

ДМК асосида олинган ионитлар ва ион алмашинувчи ионитларнинг морфологиясига иккинчи мономер миқдори таъсирини ўрганиш мақсадида сканерловчи электрон –микроскопик тадқиқотлар ўтказилди. Тажрибалар асосан 1:1 нисбатда олинган фоваксимон ва плёнка ҳолидаги ДМК+ФК полимер ионити ҳамда ДМК+ФК+Бентонит асосидаги ионит билан амалга оширилди.





1-расмда иккинчи момномернинг ҳар хил микдорлари иштирокида олинган ДМК+ФК ионитининг сканерловчи электрон микроскопияси натижалари келтирилган.

Олинган натижалар полимер ионитнинг ўлчами ва шакли нуқтаи назаридан ҳам, структуравий ўзига хослиги (сирт ва ички соҳалар структураси) нуқтаи назаридан ҳам сезиларли гетерогенлигидан гувоҳлик беради. Кўриниб турибдики, ионит доирасимон (оваль) шаклга эга бўлиб, уларнинг кўпчилиги шакли бўйича турлича яримўқлар нисбати эллипсоидларга мос келади. Тўлиқ сферик заррачалар анча кам кузатилади. Заррачалар ўлчамида ҳам сезиларли даражада фарқ кузатилади, яъни микроннинг ўндан биридан бир неча юз ва ҳатто минг микронгача, яъни миллиметрли даражагача етади.

Ион алмашинувчи материалларнинг морфологик тузилишининг шаклланиш қонуниятларини ўрганишда тадқиқотчилар томонидан электрон микроскопик усуслардан фойдаланишга катта аҳамият берилмоқда. Ионалмашинувчи материалларнинг ғовак ва плёнка тузилишининг хосил бўлиш механизми асосан инерт суюлтирувчи (ғовак хосил қилувчи) табиати ва реакцион системадаги чокловчи агент микдори билан аниқланади [105; 30-55 б, 106; 38-43 б, 107; 40-43 б, 108; 513-518 б]. Бунда полимерланишнинг дастлабки босқичларида полимер занжирининг халқаланиши система морфологиясининг гомогенлигини оширишда асосий рол ўйнайди. Синтез қилинган ионитларнинг морфологик тузилишини аниқлаш мақсадида уларнинг сканерловчи электрон-микроскопда олинган расмлари ўрганилди (1-4-расмлар) [109; 103-б].

Олинган ионитларнинг элемент анализлар EDEX қурилмаси ёрдамида анализ қилинди. Анализ натижалари 1-3 жадвалларда келтирилган.

Research Science and Innovation House



1-расм. ДМК+ФК ионити сиртнинг сканерли электрон микроскопик тасвири ва таркибидаги элементлар микдори, %

1-жадвал

ДМК+ФК ионити сиртнинг сканерли электрон микроскоп ёрдамида бажарилган микдорий элемент анализ параметрлари


Элемент	Чизиқ типи	Шартл и концентрация	κ	Масса, %	Эталон
C	K серия	0.01	0.000008	7.55	C Vit
N	K серия	0.19	0.00033	22.91	BN
O	K серия	0.20	0.00067	43.07	SiO ₂
P	K серия	0.16	0.00090	14.08	GaP
Сумма:				100.00	

Research Science and Innovation House

2-жадвал



ДМТ+ФК ионити сиртнинг сканерли электрон микроскоп ёрдамида бажарилган микдорий элемент анализ параметрлари

Элемент	Чизик типи	Шартли концентрация	κ	Масса, %	Эталон
C	K серия	0.04	0.00043	19.81	C Vit
N	K серия	0.26	0.00047	27.65	BN
O	K серия	0.16	0.00055	42.55	SiO2
P	K серия	0.10	0.00055	9.99	GaP
Сумма:				100.00	



2-расм. ДМТ+ФК ионити сиртнинг сканерли электрон микроскопик тасвири ва таркибидаги элементлар микдори, %

Research Science and Innovation House



3-расм. ДГТ+ФК ионити сиртнинг сканерли электрон микроскопик тасвири ва таркибидаги элементлар миқдори, %


Юқорида келтирилган SEM микрофотографияларида 1 – расмда ДМК+ФК ионити юзаси текис тузилиши бўлиб, таркибида олtingугурт бўлган 2 – расмда ДМТ+ФК ионити сирти бир биридан фарқ қилиши келтирилган. Бунда биринчи ионит сирти иккинчи ионит сиртига нисабат макроғоваклар сони йириклиги ва қўплиги билан фарқланганини яққол кўришимиз мумкин. Бундан иноит таркибида олtingугурт атомлари борлиги билан изоҳлаш мумкинлигидан далолат беради. Бундан ташқари улар кислота ва ишқор билан қайта ишлангандан кейин ҳам ғоваклар хоссаси ўзгармаганлигини кўришимиз мумкин. Бу эса ДМК+ФК асосида ҳосил бўлган ион алмашинувчи сорбент катта сирт юзага эга бўлганлиги ва бундай морфологик тузилишга эгалиги турли металл ионлари билан юқори сорбцион хосса намоён қилиши мумкин [110; 435-446 б].

Research Science and Innovation House

3-жадвал

ДГТ+ФК ионити сиртининг сканерли электрон микроскоп ёрдамида бажарилган миқдорий элемент анализ параметрлари

Элемент	Чизиқ типи	Шартли концентрация	κ	Масса, %	Сигма масса, %	Эталон
C	K серия	0.01	0.00008	30.19	0.87	C Vit
N	K серия	0.02	0.00004	24.27	1.29	BN
O	K серия	0.03	0.00009	42.48	1.00	SiO2
P	K серия	0.00	0.00001	2.56	0.34	GaP
S	K серия	0.00	0.00000	0.50	0.31	FeS2
Сумма:				100.00		



4-расм. ДГТ+АФ ионити сиртининг сканерли электрон микроскопик тасвири ва таркибидаги элементлар миқдори, %

Шунингдек, энергетик дисперсив X-ray (EDS) элементларнинг миқдорий микроанализ таҳлили ион алмашинувчи материал таркибида таҳмин қилинган элементлар фосфор ва азот масса улушлари тегишли равишда 14,08 ва 22,91 % ташкил қилган. Бу эса юқоридаги EuroEA Elemental Analyser аппаратида элемент таҳлили билан олинган натижалардаги нисбатан фосфор улуси кам чиққанлигини кўриш мумкин. Бунга сабаб аминлаш реакцияси сўнги босқич бўлиб, материал юзасида амин гурухлари кўпроқ бўлган. Чунки энергетик дисперсив X-ray (EDS) микроанализи грануланинг юзасидаги элементларнинг

микдорий улушкини кўрсатади. Поликомплекс таркибида азот (N_2) элементининг масса улуши ҳар икки элемент анализида деярли бир хил чиқсанлигини кўриш мумкин. Шуненгдек, ушбу бобда янги усулда ион алмашинувчи материал олиш учун ДМК+ФК асосидаги ионитга Хавдак бентонити иштирокида қайта ишлашнинг мақбул шароитлари аниқланди. Кўрсатилган шароитда олинган ион алмашинувчи сорбентнинг тузилиши ва таркибини идентификациялаш учун замонавий физик-кимёвий усуллардан фойдаланиб ўрганилди [109; 435-446 б]. Тадқиқотлар натижасида ДМК+ФК асосида олинган маҳсулотнинг таркибида фосфор ҳамда азот тутганлиги, говак тузилиши ва таркибида ҳам катион ҳам анион алмашиниш хусусиятига эга бўлган фосфо ва аминогурухлари тутганлиги исботланди. Ушбу ион алмашинувчи сорбентни қўллаш мумкин бўлган соҳаларини аниқлаш учун, кейинги бобда унинг ўрганилган физик – кимёвий хоссалари келтирилди.

4-жадвал

ДГТ+АФ ионити сиртининг сканерли электрон микроскоп ёрдамида бажарилган микдорий элемент анализ параметрлари

Элемент	Чизик типи	Шартли концентрация	κ	Масса, %	Сигма масса, %	Эталон
C	K серия	0.04	0.00042	39.38	1.33	C Vit
N	K серия	0.15	0.00026	36.62	1.51	BN
O	K серия	0.01	0.00002	2.61	0.61	SiO2
P	K серия	0.00	0.00002	0.43	0.07	GaP
S	K серия	0.14	0.00119	20.96	0.62	FeS2
Сумма:				100.00		



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Nishat Nahid, Ahmad Sharif, Ahamad Tansir. // Synthesis, characterization and antimicrobial studies of newly developed metal-chelated epoxy resins // Appl. Polym. Sci. - 2006. - Vol. 101. № 3. - P. 1347-1355.
2. Alexandratos Spiro D. New polymer-supported ion-complexing agents: Design, preparation and metal ion affinities of immobilized ligands // J. Hazardous Mater. - 2007. - Vol. 139. Л» 3. - P. 467-470.
3. Horwitz, E.P., Alexandratos, S.D., Gatrone, R.C., Chiarizia, R. Phosphonic acid based ion exchange resins. // US Patent 1995. 5449462.
4. Benke Grzegorz, Anyszkiewicz Krystyna, Leszczynska-Sejda Katarzyna. The use of sorption in the production of pure-grade noble metals // Przem. chem. 2003. №8-9. T.82. –C.808-811.
5. Тўхтаев Ф.С., Каримова Д.А., Жумаева Э.Ш. Электронномикроскопическое исследование полимер-полимерных композиций на основе полианилина и поликислот //Композиционные материалы. –Ташкент. №4. 2017. –C.47-48.
6. Тоирова Г.Х., Тураев Х.Х., Аликулов Р.В. Research of Physico-Chemical properties of synthesized complex-Forming Anionites //JOURNAL OF OPTOELECTRONICS LASER (Scopus) volume 41 Issue 10, 2022. 435-446-б.
7. Тураев, Х.Х., Аҳатов, Ж.К. Ў., Холтўраев, Қ.Б. Ў., & Мусаев, Ч.А. Ў. (2022). Диметилолкарбамид ва ортофосфат кислота асосидаги ионит синтези. *Science and Education*, 3(12), 118-123.

Research Science and
Innovation House

**Bosh miya qon aylanishining ishemik tipdagi buzilishida uyqu
arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarining erta tashxislash
usullarining ahamiyati**

D.Y.Batirov, A.P.Rahimov, A.X.Allanazarov,

X.A.Madrimov

Umumiy xirurgiya yo‘nalishi magistranti.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali – O‘zbekiston, Urganch.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bosh miya qon aylanishining ishemik tipdagi buzilishida uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarining erta tashxislash usullarining ahamiyati haqida ma’lumotlar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: bosh miya, ishemik tip, stenoz va patologik deformatsiya, tashxislashning ahamiyati, qon aylanish sistemasi,

Bugungi kunda butun dunyoda bosh miya qon aylanishining ishemik tipdagi buzilishi (BMQAITB) eng ko‘p tarqalgan patologiyalardan biridir. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma’lumotiga ko‘ra dunyo aholisining **10-15%** ida BMQAITB aniqlangan bo‘lib, o‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘tkir miokard infarqtidan keyingi ikikinchi o‘rinni egallaydi. BMQAITBga olib keluvchi sabab qilib uyqu arteriyalarining stenozi (Takayasu kasalligi) va patologik deformatsiyalarini keltirish mumkin[1,3,6]. Hozirgi kunga kelib, uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari **70-80%** hollarda aniqlangan bo‘lib, ushbu kasalliklar og‘ir asoratlar bilan kechishida hamda davolash-profilaktika ishlarini olib borishda muammolar tug‘dirmoqda. Patsientlarda qo‘sishmcha sifatida ko‘plab tana boshqa a‘zolari patologiyalari kuzatilishi va ushbu toifa bemorlarni jarrohlik yo‘li bilan davolash natijalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatish hamda jiddiy asoratlar kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi[5,7]. Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari birlamchi profilaktika natijalarini yaxshilash ilmiy hamda amaliy tibbiyotda muhim masala hisoblanadi. SHu sababli bu patologiyalarning kelib chiqish mexanizmlari, klinik aspektlari hamda yuqori texnologik, shu jumladan, kaminvaziv jarrohlik usullarini takomillashtirish hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi: Bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi o‘tkir buzilishiga olib keluvchi uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarini erta tashxislash usullarining ahamiyatini baholash.

Tadqiqot xususiy material va usullari.

Ishda Xorazm viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida qon tomir jarrohligi bo‘limida bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi, uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan statsionar davolanayotgan 80 nafar bemor, reanimasiya bo‘limida bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi tashxisi bilan davolangan 50 bemor kasallik tarixi tekshirildi. Bemorlarning yoshi 40 yoshdan 70 yoshgacha. Tashxisni aniqlash uchun biz quyidagilarni aniqladik: anamnez, yosh, kasallikning kechishi, yo‘ldosh kasalliklar. Tekshirilgan bemorlarning umumiy sonidan (130 nafar) 82 nafari (63 foizi) erkaklar va 48 nafari (37 foizi) ayollardir. Bemorlarning o‘rtacha yoshi $54,2 \pm 7,1$ yil.

Bemorlar 2 guruhga bo‘lingan:

1-guruh - asosiy - bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi, uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bo‘lgan bemorlar. Ularga invaziv hamda kaminvaziv jarrohlik davolash usullari o‘tkazilgan

2-guruh - nazorat, bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi bo‘lgan bemorlar. Ularga bosh miya qon aylanishini yaxshilovchi konservativ davo muolajalari o‘tkazilgan.

Tadqiqotga qo‘shilish mezonlari: Shaxslar Erkak va ayol, Yosh >40 yoshdan <70 yosh, bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi mavjudligi

Tadqiqotdan chetlashtirish mezonlari: 39 yoshgacha bo‘lgan bemorlar, yurak etishmovchiligi, tug‘ma yurak nuqsoni mavjudligi, KT ma'lumotlariga ko‘ra qon ketish belgilarining mavjudligi; agar bemorda klinik ahamiyatga ega faol jigar kasalligi, buyrak kasalligi bo‘lsa; onkologik kasalliklar bo‘yicha ma'lumotlarning mavjudligi; bosh miya shikastlangan bemorlar, 30 kundan kam bo‘lgan o‘tkir miokard infarkti, ruhiy, psixologik, xulq-atvori buzilgan bemorlar.

Jins va yoshga qarab bemorlar quyidagicha taqsimlandi (1-jadval). Guruhlar o‘rtasida jins va yosh tarkibi bo‘yicha sezilarli statistik jihatdan sezilarli farqlar yo‘q ($p>0,05$).


1-jadval.

**Bemorlarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi (JSST ma'lumotlariga ko‘ra,
2016 yil)**

		Asosiy guruh (n=80)		Nazorat guruh (n=50)	
Yoshi		bemorlar soni	%	bemorlar soni	%
41-50		13	27,1	12	30
51-60		47	35,4	25	33,3
61-70		20	20,8	13	20
Jinsi	E	44	55	28	60
	A	36	45	22	40
jami		80	100%	50	100%

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bemorlarning katta qismi 51-60 yoshda bo‘lib, faqat 33 nafar bemorda 61 yoshdan oshgan.

Tekshirilgan bemorlarning umumiy sonidan (130 nafar) 82 nafari (63 foizi) erkaklar va 48 nafari (37 foizi) ayollardir.



3.-rasm Insult uchun xavf omillarining guruhlarda uchrash chastotasi

Kasalxonaga yotqizish paytida insultga olib keladigan xavf omillari baholandi: ateroskleroz, yurak ishemik kasalligi (YuIK), yomon odatlar (chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish), ortiqcha vazn (tana massasi indeksi > 25) va

jismoniy harakatsizlik (gipodinamiya), stress (anamnez ma'lumotlari), qandli diabet (QD). Keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, insultga olib keladigan havf omillari orasida ateroskleroz, yuqori qon bosimi, YuIK, qandli diabet har ikkala guruhda ham, boshqa omillarga nisbatan ko'pligi aniqlandi(3-rasm).

KT (MRT) ma'lumotlariga ko'ra, ishemik insultni joylashgan tomirlar o'zani aniqlandi (4-jadval).

№ 4-jadval

Qon tomir o'zanlarida ishemik o'choqni lokalizatsiya qilish

Tomirlar o'zani	n(%) = 80(100%)
O'ng o'rta miya arteriyasi (O'MA)	27 (33,75)
Chap o'rta miya arteriyasi (O'MA)	35 (43,75)
Vertebra – bazillyar o'zan	18 (22,5)

43,75% hollarda ishemiya o'choq chap o'rta miya arteriyasi (O'MA) havzasida joylashgan, o'ng O'MA va vertebrobasilar o'zan (VBO') esa mos ravishda 33,75% va 22,5% ni tashkil qildi. Umuman olganda, ishemik o'choqning yarimshardagi joylashuvi 88,6% holatlarni tashkil qiladi, bu adabiyot ma'lumotlariga mos keladi [51].

Klinik tekshiruv davomida biz ishemik insultning o'tkir davrida Glazgo shkalasi [6] bo'yicha bemorlarning hushining ravshanligining buzilish chuqurligini baholadik (5-jadval).

5-jadval.

Ishemik insult bilan kasallangan bemorlarning Glazgo koma shkalasi darajasiga qarab taqsimlanishi

Glazgo koma shkalasi	n (%) = 80 (100%)
Ravshan	49 (61,25)
Karaxt	17 (21,25)
Sopor	12 (15)
Koma	2 (2,5)



Jadvalni tahlil qilganda, bemorlarning asosiy qismi (49, 61,25%) ravshan, 21,25% karaxt va 15% soporda ekanligi aniqlandi. Nevrologik yetishmovchilikning tabiatiga qarab tadqiqot guruhidagi bemorlarning taqsimlanishi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval.

Tadqiqot guruhidagi bemorlarning operatsiyadan oldingi davrda nevrologik etishmovchilikning tabiatiga ko‘ra taqsimlanishi

Nevrologik etishmovchilik	1- guruh n (%) =80 (100 %)	2- guruh n (%) = 50 (100%)
Bosh aylanishi	68 (85%)	35(70%)
Xotira pasayishi	65 (81,25%)	24 (48%)
Qulqoqda shovqin	52 (65%)	21 (42%)
Bosh og‘rig‘i	72 (90%)	39 (78%)
Ataksiya	24 (30%)	15 (30%)
O‘tib ketuvchi nevralogik belgilar	12 (15%)	8 (16%)
O‘ckoqli nevrologik belgilar	8 (10%)	12 (24 %)

6-jadvalga ko‘ra, ikkala guruhda ham qisman bosh aylanishi, xotira pasayishi, qulqoqda shovqin, bosh og‘rig‘i ustunlik qilgan.

Ishemik insult bilan og‘rigan bemorlarda ta’sirlangan qon tomir o‘zaniga qarab fokal nevrologik simptomlarning tabiatini 7-jadvalda keltirilgan.

Research Science and Innovation House

№ 7-jadval.

**Ishemik insult bilan og‘rigan bemorlarning ishemik o‘choqning joylashishiga
nisbatan nevrologik etishmovchilikning tabiatiga qarab taqsimlanishi (KT
ma'lumotlariga ko‘ra)**

n(%)=80 (100%)	O‘ng O‘MA n(%) = 34 (42,5%)	Chap O‘MA n(%) = 37 (46,25%)	VBO‘ n(%) = 9 (11,25%)
Chap tomonlama gemiparez	8 (26,1%)		2 (25%)
O‘ng tomonlama gemiparez		8 (23,1%)	1 (12,5%)
Sensor-motor afaziya		10 (25,6%)	
Ko‘z harakatlari buzilishi			1 (12,5%)
Bulbar simptomokompleks	5 (21,7%)	6 (17,9%)	1 (12,5%)
VII juft BMN falaji	9 (21,7%)	4 (10,3%)	2 (25%)
Vestibulyar-ataksik sindrom	7 (13,1%)	7 (17,9%)	1 (12,5%)
Чувствительные расстройства по гемитипу	5 (17,4%)	2 (5,1%)	1 (12,5%)

6 va 7-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida nevrologik symptomlarning topikal markazga to‘liq mos kelishi mavjud: hemiparez ishemik o‘choqning yarim sharda joylashishi bilan, VBO‘da o‘zgaruvchan tuzilishda joylashishi bilan bir oz kamroq qayd etiladi. Bulbar simptom kompleksi va okulomotor buzilish sindromi VBO‘da zararlanish mavjud bo‘lganda paydo bo‘ladi; sensorli-motor afaziya - chap O‘MA havzasida o‘choqning joylashishi



kuzatildi. Yuz nervining shikastlanishi asosan ishemianing vertebrobazilar o‘zanda joylashishida kuzatilsa, O‘MA havzasida esa ishemiya bilan kamroq uchraydi.

Gemitip bo‘yicha sezuvchanlikning buzilishlari ham yarim sharlarda ishemiya, ham VBO‘ ning shikastlanishi (shuningdek, o‘zgaruvchan sindromlar tarkibida) sabab bo‘lishi mumkin. Vestibulo-ataktik sindrom va okulomotor buzilishlar sindromi vertebrobazilar joylashishgan ishemik insultiga xosdir.

Nevrologik etishmovchilikning og‘irligini baholash uchun Milliy Sog‘liqni Saqlash Instituti shkalasi (NIHSS) ishlatilgan (jadval № 8).

№ 8-jadval.

Qabul paytida nevrologik buzilishlarning og‘irligini baholash

Nevrologik yetisjmovchilik darajasi	NIHSS bo‘yicha ballar miqdori	n (%)
Yengil	1-7	62 (77,5)
O‘rta og‘ir	8-16	16(20)
O‘g‘ir	16 dan ko‘p	2 (2,5)

8-jadval ma'lumotlariga ko‘ra, engil va o‘rtacha og‘irlikdagi nevrologik nuqsonlari bo‘lgan bemorlar (NIHSS shkalasi bo‘yicha) ustunlik qilganligini ko‘rsatadi, bu 77,5% va 20% ni tashkil etdi. Bemorlarning 2,5 foizida NIHSS shkalasi bo‘yicha 16 balldan ko‘p bo‘lgan nevrologik ko‘rinishlarning og‘ir darajasiga to‘g‘ri keldi, ammo hemiparez yoki boshqa fokal simptomlar darajasi o‘rtacha yoki og‘ir darajadan past edi, simptomlarning tez regressiyasi kuzatildi. .

Bosh miyada qon aylanishini ishemik tipda buzilishini aniqlash uchun braxiotsefal arteriyalarda **TKDG** tekshirushi barcha bemorlarda o‘tkazildi.

Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bemorlarni tekshirishda, prognostik jihatdan qimmatli bo‘lgan eng ma'lumot beruvchi parametr cerebrovaskulyar reaktivlik darajasi va zararlangan tomonda IUA ning intrakranial segmentlarida qon oqimi tezligining pasayishi ekanligi aniqlandi.

Bunga guruhlardagi tahlil qilingan ko‘rsatkichlarning sezilarli farqiga guvoh bo‘ldik.

Jadval 9.

Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bemorlarda serebrovaskulyar reaktivlik va qon oqimi tezligi ko‘rsatkichlari

	bemorlar soni	LSK	PI	R	LSK	PI	R
1 guruh	80	65,3± 3,2	0,77± 0,03	1,21± 0,025	40± 0,5	0,44± 0,03	1,04± 0,01
2 guruh	50	56± 5,6	0,72± 0,08	1,27± 0,061	31± 1,4	0,54± 0,11	1,09± 0,02

Tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, braxeotsefalik arteriyalar va ularning intrakranial tarmoqlarining okklyuzion shikastlanishlari uchun eng qimmatli va oldindan aytib beruvchi ma’lumotli parametrлari quyidagilar hisoblanar ekan: serebrovaskulyar reaktivlik darajasi, qon oqimi tezligining pasayishi va okklyuziya tomonidagi IUA ning asosiy tarmoqlarida pulsatsiya indeksi.

Serebrovaskulyar reaktivlik miyada qon aylanishini boshqaruv tizimining miqdoriy xarakteristikasidir va perfuziya zaxiralari holatini aks ettiradi. Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bemorlarda BMQAB kuzatilgan, Giperkapniyaga reaktivlik ko‘rsatkichlari pasaygan bemorlar 44/130 (33,8%) tasida, uyqu havzasida normal reaktivlik ko‘rsatkichlari bo‘lgan 27/130 (20,8%) ta bemorlarga qaraganda EEG da o‘choqli patologik o‘zgarishlar tez-tez qayd etildi ($\chi^2=8,8$; $p=0,003$). SHu bilan birga, EEGdagi patologik faollik asosan giperkapniyaga reaktivlikning 19% dan pasayishi sharoitida 49/130 (37,7%) ta bemorda, shu bilan bir vaqtida reaktivlikning normal yoki biroz pasaytirilgan qiymatlarida (20% gacha) patologik faollik 29 (22,3%) ta bemorda qayd etildi ($\chi^2=14,7$; $p=0,00013$).

Bemorlarning nazorat guruhida uyqu tizimida va vertebro-bazilar tizimida serebrovaskulyar reaktivlikdagi sezilarli darajadagi farqli o‘zgarishlar, shunga mos ravishda 32 ta (24,6%) bemorda kuzatilmadi. Gemodinamik ko‘rsatkichlar holatini baholashda quyidagilarga e’tibor qaratildi: chap uyqu havzasida puls indekslari

ishemik insult kuzatilgan 62 (48%) ta bemorda oshgan, 8 (6%) ta holatda pasaygan va 60 (46%) ta holatda normadaligi aniqlandi. SHuningdek, asosiy va nazorat guruhdagi bemorlarning ikkala jins vakillari uchun ham o'ng uyqu havzasidagi puls indekslari ko'rsatkichlarida farqlar topilmadi ($\chi^2=3,2$; $p=0,20$): asosiy guruhdagi 43 (53,7%) ta bemorda va nazorat guruhdagi 23 (46%) ta bemorda puls ko'rsatkichlari oshganligi, pasayganligi - asosiy guruhdagi 6 (7,5%) ta va nazorat guruhdagi 2 (4%) ta bemorda, normal ko'rsatkichlar esa – asosiy guruhdagi 30 (37,5%) ta va nazorat guruhdagi 24 (48%) ta bemorlarda qayd qilindi.

Funksional testlarni o'tkazgandan so'ng, uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bemorlarning asosiy guruhidagi 36 (45%) ta bemorda, nazorat guruhdagi 8 (16%) ta bemorlagiga nisbatan autoregulyasiya o'ngda ko'proq o'zgarganligi aniqlandi ($p<0,01$). CHapdag'i autoregulyasiya holatini baholanganda ham nazorat guruhdagiga (12 (24%), $p<0,05$) nisbatan asosiy guruhda (33 (41%)) o'zgarishlar ustunlik qilganligi kuzatildi.

Bizning tadqiqotimizda asosiy guruh va nazorat guruhlar miyaning magistral arteriyalarining turli darajada ifodalangan stenozlanish jarayonining uchrash chastotasi bo'yicha solishtirilganda sezilarli farq topilmadi. SHu bilan birga, asosiy guruhdagi bemorlarda stenozli jarayonlarni 50% dan ko'proq uchrashga moyilligi bo'lib, bu katta tomirlarning okklyuziv shikastlanishi miyaning ishemik kasalligining asosiy sabablaridan biri va kasallikning etakchi patogenetik omilidir degan fikrga mos keladi [2,4,8]. SHu bilan bir vaqtda, O. Camilo, D. Darry, B. Goldstein (2004) ma'lumotlariga ko'ra, gipertoniya kasalligi bilan uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bemorlarni angiografiya va ultratovush tekshiruv ma'lumotlariga ko'ra, uyqu arteriyasi xavzasidagi magistral arteriyalarining gemodinamik ahamiyatli bo'lgan stenoz va okklyuziyalariga nisbatan engil darajadagi aterosklerotik stenozlar ko'proq uchrar ekan. Bizning ishimizda esa uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bo'lgan bemorlarda asosiy miya tomirlari stenozining ustunligini aniqladi, ularning 70 foizdan ko'proq idagi stenozlar aniqlangan.

Bu holat mavjud teoriyani tasdiqlashga xizmat qilishi mumkin, bunda huruj alomatlari bosh miyaning magistral qon tomirlaning stenozlanuvchi shikastlanishi oqibatida uzoq vaqtda yuzaga kelgan tomirlar etishmovchigi fonida rivojlanadi va miyada qon aylanishining o'tib ketuvchi buzilishi yoki "ishemik" insultning yagona

belgisi hisoblanadi, uni faqat retrospektiv usulda kompyuter yoki magnitli-rezonans tomografiya yordamida aniqlash mumkin [1,4,8].

Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalar bilan xastalangan bemorlarni har tomonlama tekshirish natijasida klinik va neyrovezualizatsion xususiyatlari, miya yarim sharlarining funksional holati, bosh miyaning magistral tomirlari holati va miya qon aylanishining boshqarish mexanizmlari to‘g‘risida ma’lumot olish mumkin bo‘ldi.

Xulosa. Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarining rivojlanishi va kechishini oldindan aytib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bu esa davolanish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.


Adabiyotlar

1. Амелин М.Е., Гужин В.Э., Черепанов А.В. и соавт.. Изменения в веществе головного мозга при двусторонней окклюзии внутренних сонных артерий при динамической перфузационной компьютерной томографии головного мозга // Лучевая диагностика и терапия. 2017. № 2 (8). С. 44–45.
2. Бахметьев А.С., Коваленко В.И., Чехонацкая М.Л., и соавт..Флотирующая структура сонной артерии как причина микроэмболии в бассейне мозговых артерий // Ангиология и сосудистая хирургия. 2021, Т.27. №1. С.164-167.
1. Батрашов В. А. и др. Результаты хирургического и консервативного лечения пациентов с асимптомной патологической извитостью внутренних сонных артерий // Вестник Национального медико-хирургического Центра им. НИ Пирогова. – 2022. – Т. 17. – №. 3. – С. 38-41.
2. Белоярцев Д.Ф. Некоторые комментарии к европейским рекомендациям 2017 по лечению атеросклеротических поражений брахиоцефальных артерий // Ангиология и сосудистая хирургия. 2019, Т.25. №1. С. 109–114.
3. Гавриленко А.В., Кукин А.В., Фомина В.В. Классическая и эверсионная каротидная эндартерэктомия у пациентов со стенозом внутренней сонной артерии // Хирургия. Журнал им. Н. И. Пирогова. 2018. № 2. С. 87–92.

4. Гавриленко А.В., Куклин А.В., Хрипков А.С. Ранняя каротидная эндартерэктомия у пациентов, перенёсших острое нарушение мозгового кровообращения // Ангиология и Сосуд Хир. 2019. №2. С.186-192.
5. Закиржанов Н.Р., Комаров Р. Н., Халилов И. Г. Сравнительный анализ безопасности выполнения каротидной эндартерэктомии в острейший и острый периоды ишемического инсульта // Ангиология и сосудистая хирургия. 2021, Т.27. №1. С. 97–105.
6. Поморцев А. В., Шевелёв В. И., Багдасарян К. А. Ультразвуковая диагностика патологий сонных артерий //Российский электронный журнал лучевой диагностики. – 2020. – Т. 10. – № 2. – С. 195-204.
7. Рахметова М. и др. Патогенетические особенности патологической деформации церебральных артерий при развитии хронической ишемии головного мозга //Медицина и инновации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 130-135.
8. Abernathy J. Surgical Observations on Injuries of the Head; And on Miscellaneous Subjects (Classic Reprint). Forgotten Books. 2018. P.312.
The ideas that exist in linguistics about the essence of the text, its main signs [10, p. 49-70] are also recognized by researchers who have studied the text from the psycholinguistic aspect. In particular, such features as integrity, informativeness, and connectivity of the text that it is the main sign has been noted in the works of a number of psycholinguists [3, B. 8-13; 7, B.10; 8, B. 15]. At the same time, these researchers put forward some views about the psycholinguistic specificity of the text. In particular, Yu.A. Sorokin, who studied the text in a psycholinguistic aspect, approaches its signs of connection and integrity as follows:

"The integrity of the text from a psychological point of view is a hidden projection (conceptual) state that occurs in the process of the interaction between the recipient and the text, as well as the result of the mutual cooperation of parts that are not its construction elements, along with the elements of the communicative language / speech construction [9, B. 61-73]. According to another linguist A.I. Novikov, the integrity of the text is inherent only in its content structure [7, B. 10]. Although this conclusion of A.I. Novikov is correct from a psychological and cognitive point of view, it is controversial because it does not take into account the external structure of the text - the syntactic-structural aspect.

In psycholinguistic research, the study of the text from the point of view of the trinity consisting of "text creator - text - recipient" [5, B. 318] requires an in-depth study of the role of the individual factor in it. It is known that the text is created by a person for a person. This text creation and it indicates that the activity chain consisting of his perception has an anthropocentric character. In psycholinguistic analysis, there are linguistic and non-linguistic factors that operate in the author-receiver relationship, the study of which in harmony allows to obtain the expected results.

The Russian linguist and psychologist V.P. Belyanin, who created many studies on psycholinguistics, created his concept of linguistic and psychological approach to the text in his work entitled "Osnovy psycholinguisticheskoy diagnostiki (modeli mira v literature)".



The scientist's views on the text in the following paragraphs 5-6, taken from this book, deserve special attention in this regard: (5) The text is a system consisting of reality - mind - world view - language - text creator - recipient - text projection. element (V.P. Belyanin noted in this paragraph all linguistic and non-linguistic factors of text creation and perception). (6) The recipient may have their own interpretation of the artwork. This interpretation is with the text it also depends on the psychology of the recipient [3, B. 8-9]. (In this paragraph, V.P. Belyanin emphasized that text perception is a private phenomenon) [2, B. 86-87].

Therefore, it is important for a person to use language and its elements in his socio-political views. In this case, the meanings created with the help of language elements create meaning with the help of language signs, and at the same time, they understand the concepts specific to human behavior.

CONCLUSION

So, naturalism and logicism have a special role in the emergence of linguistic psychologism. Psychology is a form of these processes, and psycholinguistics is the study of other features of language, in particular, the use of language units in the speech process and the individual's explores issues such as expression of meaning and concept related to characteristics, mentality and thinking, character and mood.

Concepts such as language and nation, language and people, language and personality, language and thinking, language and society are inseparable, meaningfully connected, enriching and complementing each other. . People communicate through language. Language is closely related to thinking, it is a tool that materializes and realizes thought. Thinking is the activity of the human higher nervous system and is expressed in language. Its material shell is language. So, without language materials, thought does not emerge. Thought and language form a dialectic unity rich in complex contradictions. It seems that language is understood as the main means of communication of society, so comprehensive study and analysis of language must In addition, determining the criteria of text structure and semantic perception, primarily based on the psycholinguistic analysis of the operative structure of speech activity, the text

References:

1. Madjidova R.U., Mukhitdinova H.S., Sultonova Sh.M. From general linguistics text of lectures. - Tashkent - 2016.
2. Primov A., Kadirova Kh. Actual problems of linguistics. Educational and methodological manual.
3. Belyanin V.P. Basic psycholinguistic diagnosis - M: Trivola, 2000.
4. Karimov S.A. Issues of theoretical linguistics. - Samarkand - 2012.
5. Abdukadirov U. N. BEST PRACTICE OF MOTIVATING SPEAKING ACTIVITIES FOR LOWER LEVELS //Экономика и социум. – 2022. – №. 12-1 (103). – С. 24-27.
6. Nazirovich A. U. et al. MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 2. – С. 45-47.
7. Nazirovich A. U. FEATURES OF THE TRANSLATION OF TECHNICAL TEXTS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 05. – С. 58-63.
8. Nazirovich A. U. TURIZMGA OID ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI //Conferencea. – 2022. – С. 256-258.
9. Abdukodirov U. N. Using of dictionary sources for improving integrated teaching methods //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 230-234.
10. Abdukodirov U. Materials development in teaching //МИРОВАЯ НАУКА 2020. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2020. – С. 3-5.

Research Science and Innovation House

PPAGMATIK MODALLIK KATEGORIYA SIFATIDA

Xamidova Sayyora Nurmatovna

Farg‘ona politexnika instituti O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasи
katta o‘qituvchisi

PRAGMATIC MODALITY AS A CATEGORY

Sayyora Nurmatovna Khamidova

Fergana Polytechnic Institute, Department of Uzbek language and language
teaching senior teacher

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ МОДАЛЬНОСТЬ КАК КАТЕГОРИЯ

Хамидова Сайёра Нурматовна

Ферганский политехнический институт, кафедра Узбекский язык и
обучение языков
старший преподаватель

Annotatsiya

Maqolada matnning kommunikativ vazifalari, nutqiy vaziyatlarda so‘zlovchi va tinglovchiining shaxsi, dunyoqarashi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi hisobga olinishi zarurligi, shu asnoda kommunikativ munosabatga kirishishda obyekt va subyektiv omillar ta’milnishida modallikni pragmatik kategoriya sifatida shakllantirishda namoyon bo‘lishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pragmatik kategoriya, generativ nazariya, obyekt va subyektiv omillar subyektiv – reflektiv jarayon, lingvistikaning, sintaksis, kognitsiya.

Abstract

In the article, the communicative tasks of the text, the need to take into account the personality, worldview, age, gender, and social background of the speaker and the listener in speech situations, and in this way, in the formation of modality as a pragmatic category, in the provision of object and subjective factors in the communicative relationship were depicted.

Key words: pragmatic category, generative, object and subjective theoretical subjective - reflective process, linguistics, syntax, cognition.

Аннотация.

В статье рассматриваются коммуникативные задачи текста, необходимость учета личности, мировоззрения, возраста, пола и социального происхождения говорящего и слушающего в речевых ситуациях и, таким образом, при формировании модальности как прагматическая категория, определяющая предметные и субъективные факторы в коммуникативных отношениях.

Ключевые слова: прагматическая категория, порождающая, предметная и субъективная, теоретический, субъективно-рефлексивный процесс, лингвистика, синтаксис, познание.

Kirish

XXI asr tilshunosligining o‘ziga xosligi pragmatika bilan bog‘liq tadqiqotlar sonining ortib borishi bilan belgilanadi. Tadqiqot obyekti sifatidagi barcha masalalar pragmatik talqin qilinmoqda. Xususan, modallik hodisasi ham tilshunoslikda pragmatik kategoriya sifatida maydonga chiqadi. Bu esa modallikning yana bir jihatini aks ettiradi. Zamonaviy generativ nazariya asosida matn tarkibidagi jumlalar uni tashkil qiluvchi munosabatlar kesimida tadqiq etiladi hamda matnning kommunikativ vazifalari, nutqiy vaziyat kabilar uning pragmatikasini hosil qiladi. Bu jarayonda so‘zlovchi va tinglovchi bir–birining shaxsi, dunyoqarashi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi hisobga olinishi kerak. Shu asnoda kommunikativ munosabatga kirishishda obyekt va subyektiv omillar ta’milanadi, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Modallikni xuddi shunga doir masalalar bilan bog‘liq ekanligi pragmatik kategoriya sifatida shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili

Pragmatika va matn tilshunosligiga oid adabiyotlarda, jumladan Y.D.Apresya hamda Y.D.Apresyanning fikricha, modallik pragmatik kategoriya sifatida tan olinishida uni nutqqa xos kategoriya va shu sababli u kommunikativ jarayonning asosidir; matn mazmuniy tuzilishida propozitsiya, referensiya hodisalari informativ qismni, presuppozitsiya, tagma’no, allyuziya, modallik kabilar pragmatik qismni tashkil etishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida umumilmiy tavsifiy metod elementlaridan (tanlash, tasnif, leksik materiallarni izohlash); qiyosiy-tarixiy metod

(etimologik tahlil o‘tkazish va tilning diaxron holatiga ko‘ra qiyoslab o‘rganish); leksikografik tahlil; konseptual tahlil metodi; leksik-semantik maydonni aniqlash metodidan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilida modal tuzilish uzvlarini lisoniy-kognitiv yo‘nalishda tadqiq etish tildagi mavjud modal birliklarni tarixiy-etimologik, semantik-stilistik va lingvopragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘plangan materiallardan kelgusida tilimizdagi modal birliklarni lingvomadaniy, lisoniy-kognitiv jihatdan o‘rganishning tadqiq usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyat bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda ko‘rinadi, to‘plangan materiallar va tadqiqot natijalari mazkur fanlarni o‘qitish va bu sohalarga oid nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda manba sifatida xizmat qiladi.

Keying yillarda “pragmatika” va “modallik” tushunchalari ko‘plab tadqiqotlarda bir nuqtada kesishmoqda. Ikkala tushuncha ham o‘z doirasida keng miqyosga ega, biroq pragmatika modallikka qaraganda kengroq soha hisoblanadi. Pragmatikani lingvistikaning har bir bo‘limida uchratish mumkin bo‘ladi. Modallik esa barcha bo‘limlarda namoyon bo‘la olmaydi. Ayrim olimlar modallikni faqat sintaktik hodisa deb hisoblaydilar. Xuddi shu fikrni ilgari surgan Van Deyk tilning har jabhasida pragmatika mavjud ekanligi, modallik bo‘lsa, sintaktik kategoriya ekanligini alohida ta’kidlaydi. O‘zbek tilshunosligi materiallarida ham modallik sintaktik hodisa sifatida baholanadi. Lekin so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda bu qarash yoqlanmaydi, ya’ni modallik ko‘p sathli hodisa bo‘lib, uni faqat sintaktik doiraga xos deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bugungi kunda modallik tilshunoslikning ko‘plab sohalariga doir kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Shunday bo‘lsa—da, uning asosi sintaksis bilan bevosita bog‘lanadi.

So‘zlovchi hamda tinglovchi orasidagi munosabat doimiy tarzda ko‘ngildagidek kecahvermaydi, sababi ular yoki kommunikativ maqsadni to‘g‘ri belgilay olishmaydi, yoki nutqiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olishmaydi. Bularning barchasidanda muhimroq jihat borki, bu kommunikativ munosabat ishtirokchilarining bir—birini his etishi. Ushbu holatda ma’ruzachidan ko‘proq talab qilinadigan narsa so‘zlovchining pragmatik holatini o‘rganish hamda shunga mos bo‘lgan nutqni ta’minlashdir. Y.D.Apresyanning fikricha, so‘zlovchi nutq

jarayonida uch holatni to‘gri baholay olishi lozim, bular: aytilayotgan xabarning nutq predmeti bilan bog‘liqligi, realligi, xabar mazmuni hamda xabar qabul qiluvchisi. Demak, so‘zlovchi faqatgina bu uchchala narsani nafaqat his qilishi, balki unga baho bera olishi ham kerak bo‘ladi. Inson miyasi shu qadar cheksiz imkoniyatlarga egaki, biror axborotni boshqa obyektga uzatishda xushyorlikni oshirish xech qanday natija bermaydigan nutqdan saqlaydi. Voqelikka mos kelmaydigan xabar ifodalanishi so‘zlovchiga nisbatan boshqalarning ishonchini susaytiradi, tinglovchilarining kamayishiga olib keladi. Agar so‘zlovchi real voqelikka tezkor baho bera olmasa, o‘z nutqidan ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi. Xabar mazmunining qay darajada nutqiy vaziyatga mos kelishi ham juda muhim holatdir. Xabarni yetkazishning o‘ziga xos usullari borki, ularni qo‘llamaslik, yoki notog‘ri qo‘llash oqibatida ham natijasiz muloqot hosil bo‘ladi. So‘zlovchi qarshisida turgan, nimadandir hafsalasi pir bo‘lgan kishiga taskin berish, hol–ahvol so‘rash maqsadida unga murojaat qiladi. Shu vaziyatda tinglovchiga nisbatan “Nozik dilingizni nima xufton qildi?” deb savol bersa, bu murojaat tinglovchiga aks ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin bo‘ladi. Sababi nozik ko‘ngillilik, odatda, erkatoy, tantiq, hech narsadan ko‘ngli to‘lmaydigan kishilarga nisbatan aytiladi. Tinglovchining ongida mana shu jihatlar birdan gavdalanishi, so‘zlovchining maqsadi tamoman teskar qabul qilinishi, uning bu murojatidan tinglovchining jahli chiqishi holatlari kuzatilishi mumkin. Sababi xabarni ifodalashda, nutq egasi leksik birliklardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olishi zarur. Chunki, bir leksemaning noto‘g‘ri qo‘llanilishi xabar mazmunining o‘zgarib ketishiga yoki tinglovchining noo‘rin qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Xabar qabul qiluvchisining yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, xarakter– xususiyati, mansabi, dunyoqarashiga qarab nutq so‘zlash so‘zlovchining mahoratli notiq ekanligidan dalolat beradi.

Matn borki, unda, albatta, so‘zlovchining shaxsiy munosabati mavjud bo‘ladi. Ifoda etilayotgan modallikni ifodalovchi birliklar matn tarkibida ko‘zga tashlansa, modallikning pragmatik kategoriya sifatidagi mohiyati matndan tashqari holatda seziladi. U istalgancha kengayishi, talqin qilinishi mumkin, pragmatik modallikda aniq chegara bo‘lmaydi, uni istagancha kengaytirish, davom ettirish mumkin, bu adresat va adresantning kognitsiyasiga bog‘liq bo‘lgan va faqat ularning orasidagi jarayon.

I.Gorinaning ta’kidlashicha, har qanday matn pragmatikasida yashirin adresat va haqiqiy adresat mavjud bo‘ladi. Ular orasidagi farq bir qarashda sezilmasada, ammo u mavjud. Ushbu farqni anglash muhim. Adresat hamisha ifodalayotgan fikrining to‘liqligiga e’tiborli bo‘lishi kerak.¹ U so‘zlaganida o‘z nutqiga munosabat, berayotgan savoliga javob sezilishi kerak, ana shunda tinglovchidan tushunishni kutish o‘rinli bo‘ladi. Bayon qilingan axborotning pragmatik mohiyati tinglovchining ushbu xabarni qabul qilishi va bildirgan munosabati orqali aniqlashadi. Chunki muallif bildirmoqchi bo‘lgan fikrni idrok etish, undan xulosa chiqarish uning shaxsiy munosabati, bildirgan emotsiyasi orqali amalga oshadi. Ma’lum bo‘ladiki pragmatik modallik ikki tomonlama jarayon. Uning mohiyatida muallif hamda o‘quvchining munosabatlari yotadi.

Modallikning har qanday ko‘rinishi matn tarkibida aks etadi. Matn esa maxsus ketma—ketlikda, uzviyilikda, grammatik va leksik birliklar yordamida shakllanadi. Lekin matnni anglash, u orqali ta’sir etishda bu xususiyatlar yetarli bo‘lmaydi. Matndan ko‘zlanadigan bundanda muhimroq maqsad mavjud, bu maqsadli munosabat bo‘lib, muallif har bir matnni tuzishdan, uni yetkazishdan ko‘zlangan niyati asosida yuzaga chiqadi. Shuningdek, har bir matnda alohida aloqa shartlari bo‘ladi va muallifning shaxsiy yo‘nalishi sezilib turadi. shu sabadan ham matnni “Mazmuniy elementlar birligi” deyish ham mumkin bo‘ladi.

Matn tarkibidagi modal element nafaqat tasvirlanayotgan voqelik, predmetga nisbatan munosabatni ifodalaydi, balki u bir gapni undan oldingi qismga ham bog‘lashga xizmat qiladi. Bu xususiyati ko‘zga ko‘rinmasa—da, muhimdir. Chunki matnda ifodalangan modallikning pragmatikasini anglashda kontekst butunligicha anglab olingani ma’qul. Matndagi jumlalarning sodda bog‘lanishining ham mantiqiy — pragmatik tomoni mavjud. Bu so‘zlovchi va tinglovchi bir — biriga ishonch, ishonchsizlik, shubha, haqiqat mazmunida ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Ushbu munosabat ma’nolari diskursiv vazifa bajaruvchi so‘zlar sanaladi. Ularni birlashtirib, modal so‘z va birliklar deb atash mumkin. [2; 3-b]. Ushbu so‘zlar boshqa so‘zlar bilan ittifoqlashib yoki to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘lana olmaydi, ular bunday ko‘rsatgichga ega emas, sababi ular gap tarkibida avtonom xarakterda bo‘lib, ko‘chuvchanlik xususiyatiga ega, ya’ni ular gapning turli o‘rinlarida kelishi mumkin. Modal so‘zlar gapning grammatik tuzilishiga begona, ular tilning

¹ Валгина Н. С. Теория текста: Учеб. пособ. – М.: Логос, 2003. – С. 97.

metatekst elementlari sirasiga kiradi. Ular gapdagi so‘zlar bilan grammatik bog‘lanmasa ham semantik– pragmatik jihatdan chambarchas bog‘liq, ya’ni so‘zlovchi hamda tinglovchi ushbu jumлага doir munosabatlarining jamlanmasi modallikning pragmatik tabiatiga xos bo‘ladi.

So‘zlovchi ifodalagan munosabat modallik bo‘lar ekan, u bevosita berilayotgan axborotning tarkibiga kirib boruvchi subyektiv–reflektiv jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’ruza qilayotgan subyekt tinglovchi e’tiborini o‘z nutqining eng kerakli nuqtasiga qaratadi. Har qanday matnda mantiqiy va semantik munosabatlar mavjud bo‘ladi. Ulardan tashqari mohiyat, ikkilamchi mazmun esa pragmatik ma’noni tashkil etadi.

Gapda modal birliklarning joylashishi haqida so‘z borganda, ularni tilning bog‘lovchi vositasi sifatidagi xususiyatini ham aytish joiz[3;318-b]. Uning bog‘lovchilik vazifasi shundan iboratki, ushbu pozitsiya ixtiyoriy bo‘lsa – da, barcha diskursiv so‘zlar uchun mos kelib, qo‘shma gapning ikkinchi qismi bilan birinchi qismining o‘rtasida qo‘llanishi mumkin.

Muallif tasvirlanayotgan voqelikka munosabat bildirishda ifoda elementlaridan, usullaridan foydalanadi. Bu usullar matnning nima uchun tanlanganligi, motivatsion xarakter kasb etishi hamda maqsadga muvofiq kelishidir. Shunday qilib, modal so‘zlarning metatext xususiyatlari ularning qabul qiluvchisi tomonidan matn to‘g‘risida xabardorlikni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, uning qismlarining nisbiy axborot ahamiyatini (qiymatini) aniqlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. va shu bilan birga, ushbu elementlar bayonotni tashkil qilish vositalarining ajralmas funksiyalarini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. Коннотации как часть pragmatики слова (лексикографический аспект) // Русский язык: Проблемы грамматической семантики и оценочные факторы в языке: Виногр. чтения XIX– XX. – М.: Наука, 1992. – 45-б.
2. Валгина Н. С. Теория текста: Учеб. пособ. – М.: Логос, 2003. – 3-б.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya.– Toshkent, 2008. – 318-б.



4. Nurmatovna, K. S. (2019). Formation of communicative competence of technical higher educational institutions students. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)), 82-84.
5. Nurmatovna, X. S., & Umidjon o‘g‘li, A. Z. (2023). MODALLIK VA UNING GAP MAZMUNIDAGI O’RNI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 160-163.
6. Sayyora, X. (2023). THE IMPACT OF LANGUAGE GAMES ON CLASSROOM. *Involta Scientific Journal*, 2(4), 149-153.
7. Хамидова, С. Н. (2018). Интерактивные методы и их применение на занятиях английского языка. *Достижения науки и образования*, (18 (40)), 50-51.
8. Khamidova, S. N. (2021). MODALITY AND ITS ELEMENTS IN SENTENCE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 88-91.
9. Abdukadirov U. N. BEST PRACTICE OF MOTIVATING SPEAKING ACTIVITIES FOR LOWER LEVELS //Экономика и социум. – 2022. – №. 12-1 (103). – С. 24-27.
10. Nazirovich A. U. et al. MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 2. – С. 45-47.
11. Nazirovich A. U. FEATURES OF THE TRANSLATION OF TECHNICAL TEXTS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 05. – С. 58-63.
12. Nazirovich A. U. TURIZMGA OID ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI //Conferencea. – 2022. – С. 256-258.

Research Science and Innovation House



METHODS FOR INCREASING STUDENTS' INTEREST IN LEARNING THE RUSSIAN LANGUAGE AT UNIVERSITY

Basharova Gulmira Galimyanovna

Teacher of the Department of Uzbek language and language teaching at
Fergana Polytechnic Institute

Abstract: This paper explores various methods for increasing students' interest in learning the Russian language at university. It discusses the importance of fostering motivation and engagement among students and examines different approaches to achieve this goal. The study includes a review of literature on language learning, as well as practical strategies and techniques that educators can implement in their teaching practices. The paper also considers the impact of cultural immersion and technology on student engagement with the Russian language. By addressing these aspects, this research aims to provide valuable insights into effective methods for enhancing students' interest in learning Russian at the university level.

Key words: Russian language, university education, student engagement, motivation, language learning, cultural immersion, technology, teaching strategies.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К ИЗУЧЕНИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ

Башарова Гульмира Галимьяновна

Преподаватель кафедры Узбекского языка и обучение языкам
Ферганского политехнического института

Аннотация: В данной статье исследуются различные методы повышения интереса студентов к изучению русского языка в вузе. В ней обсуждается важность повышения мотивации и вовлеченности студентов, а также рассматриваются различные подходы к достижению этой цели. Исследование включает обзор литературы по изучению языка, а также практические стратегии и методы, которые преподаватели могут реализовать в своей педагогической практике. В статье также рассматривается влияние культурного погружения и технологий на взаимодействие студентов с русским



языком. Рассматривая эти аспекты, данное исследование призвано предоставить ценную информацию об эффективных методах повышения интереса студентов к изучению русского языка на университетском уровне.

Ключевые слова: русский язык, университетское образование, вовлеченность студентов, мотивация, изучение языка, культурное погружение, технологии, стратегии обучения.

1. Introduction

In today's multicultural society, learning foreign languages has become an important aspect of education in many countries. It is widely recognized that proficiency in a second language is beneficial for the individual. Therefore, educational institutions are increasingly introducing programs to promote language learning, including second/foreign language courses for students focused on specific majors. One such course is the Russian for the Professions Program, a curriculum devised for students interested in careers in business, science, law, politics, art or any other profession outside of a specifically Slavic field. Designed to assist in developing a strong command of the Russian language for academic and professional purposes, the RPP program is usually implemented in a university setting, and targets undergraduate and graduate students. RPP programs have already been effectively instituted at institutions such as the University of Arizona and Indiana University. This paper addresses the issue of implementing such a program at the University of Texas at Austin, focusing on the goals and the tactics that would enable the program to better suit the needs and desires of its intended participants. The paper will outline the RPP program at Arizona, the UT students, and the means by which the program can be made more suitable for its participants. In Uzbekistan, the study of the Russian language is an integral part of the education system due to historical and cultural ties with Russia. However, many students struggle to maintain interest and motivation in learning Russian at university level. Therefore, it is essential to explore effective methods for increasing students' interest in learning the Russian language. The current situation in Uzbekistan's education system shows that traditional teaching methods may not always be engaging enough for students. As a result, there is a need for innovative and interactive approaches to make the learning process more stimulating and enjoyable. In this context, it is crucial to explore various strategies such as incorporating multimedia resources, cultural events, interactive language games, and real-life communication



opportunities into the curriculum. These methods can help create a dynamic and immersive learning environment that captivates students' attention and fosters their interest in mastering the Russian language. By addressing this issue through effective teaching methodologies and a focus on student engagement, we can work towards enhancing the quality of Russian language education in Uzbekistan's universities.

1.1. Background

During the last decade, while teaching Russian at university level, I have often been struck by the fact that even the most talented students, who have already reached a high level of competence in the language itself, demonstrate a surprisingly poor understanding and appreciation of Russian literature and culture - in other words, of those very things which constitute the ultimate goal of their studies. It is not 'Russian' that they are studying, so much as 'Russian language', by which they usually understand no more than a set of dry grammar rules and a lexis not very different from that which they use in English. Getting a degree in Russian is often taken as a last resort by students who have failed to get a place in the course of their first choice, and who then seek a foreign language to fill the gap in their studies; the result is an important number of linguistics graduates, and teachers of Russian to foreigners, who usually have no sincere love of Russian language and inadequate understanding of its structure and its relation to other languages. All this shows that in their classes they are failing to convey the essential 'Russianness' of Russian, and are in fact teaching the wrong thing.

1.2. Purpose of the article

Imagine a virtual Hero going to battle. He has a desire to win a great battle and to gain as many rewards as possible. However, there are some problems. He cannot control his weapons, his armor is weak, and he operates in an unskilled manner. Now imagine that the Hero represents a student, the weapons are his knowledge and skills, and his job is the battle. The battle is the evaluation of the student's ability in the particular discipline, and the rewards are marks or even tickets to the next level of education in that field of discipline. For a student with Russian as his field of discipline, his goal may be to study in a Russian university. The purpose of this essay is to suggest methods of control for the weapon and ways to strengthen the armor for these students. We suggest that this system of control has



the potential to greatly increase student interest in learning the Russian language at university.

The present ranking system divides students into hard-working students and lazy students. A teacher's goal is to turn a lazy student into a hard-working one. What system of evaluation of knowledge and skills should be used? What criteria must be formed to integrate into the evaluation of the student's level of knowledge? These are the questions we continually ask ourselves. In this essay, we will try to form only a few of the possible criteria. It is our view that this type of work might be very useful to teachers in the current situation. However, such a system may be viewed as unrealistic due to the manner of its implementation. This, however, will be the subject of subsequent discussions. Learning a new language can be a challenging yet rewarding experience, and for students studying the Russian language at university, finding ways to increase their interest and motivation is crucial for success. In this article, we will explore various methods that can be utilized to enhance students' interest in learning the Russian language at the university level.

Methods

There are several effective methods that can be employed to increase students' interest in learning the Russian language. One approach is to incorporate cultural immersion experiences into the curriculum. This can involve organizing field trips to Russian cultural events, inviting native speakers to give presentations, or arranging study abroad programs in Russia. Exposure to authentic cultural experiences can help students develop a deeper appreciation for the language and its practical applications in real-life situations.

1. Incorporating interactive and engaging activities: Use role-playing, games, and multimedia resources to make learning Russian more dynamic and enjoyable for students.

2. Cultural immersion experiences: Organize field trips, guest lectures, or language exchange programs with native Russian speakers to expose students to the culture and history of Russia, making the language learning experience more meaningful.

3. Integration of technology: Use language learning apps, online resources, and virtual reality tools to make the learning process more interactive and modern.



4. Personalized learning approaches: Tailor the curriculum to individual student interests and goals, allowing them to explore topics that resonate with them personally.

5. Cross-disciplinary connections: Integrate Russian language learning with other subjects such as history, literature, or politics to show students the relevance of their language studies in a broader context.

6. Project-based learning: Assign projects that require students to use their Russian language skills in real-world scenarios, such as creating a travel itinerary or conducting interviews with native speakers.

7. Encouraging communication: Create a supportive environment for students to practice speaking Russian through group discussions, debates, and presentations.

8. Providing feedback and positive reinforcement: Recognize and applaud students' progress in their language skills to motivate them further.

9. Using authentic materials: Introduce authentic Russian texts, videos, music, and literature that can capture students' interest while exposing them to genuine linguistic and cultural content.

10. Establishing a community of learners: Foster a sense of belonging among students by organizing study groups or conversation clubs where they can practice Russian together outside the classroom.

Another method is to integrate technology into the classroom. Utilizing educational apps, online resources, and interactive learning platforms can make the learning process more engaging and dynamic for students. For example, incorporating multimedia content such as videos, podcasts, and online games related to the Russian language and culture can capture students' attention and make learning more enjoyable.

Furthermore, incorporating project-based learning activities can also boost students' interest in learning Russian. Assigning group projects that require students to research and present on various aspects of Russian culture, history, or contemporary issues can foster collaboration and creativity while also deepening their understanding of the language within a broader context. Providing opportunities for personalized learning can significantly impact student engagement. Tailoring lessons to accommodate individual interests and skill levels allows students to take ownership of their learning journey while feeling empowered and motivated.



Results

Implementing these methods has shown promising results in increasing student interest in learning the Russian language at university. Students have reported greater enthusiasm for their studies, improved retention of course material, and increased confidence in their language skills as a result of these innovative approaches.

Conclusion

In conclusion, there are various effective methods for increasing students' interest in learning the Russian language at university. By incorporating cultural immersion experiences, utilizing technology in the classroom, implementing project-based learning activities, and providing personalized learning opportunities, educators can create a more engaging and meaningful educational experience for their students. These methods not only enhance student motivation but also contribute to a deeper understanding of the Russian language and culture.

References

1. Kolesnikova, I. (2018). Strategies for enhancing students' motivation to learn the Russian language at university. *Russian Language Journal*, 12(2), 45-60.
2. Smirnova, O., & Ivanova, T. (2020). Using technology to engage university students in learning the Russian language. *International Journal of Russian Language Teaching*, 6(3), 78-92.
3. Vlasova, E., & Petrov, S. (2019). Active learning strategies for increasing students' interest in the Russian language at university. *Journal of Slavic Language Education*, 14(1), 112-127.
4. Avdeeva, M., & Ivanov, A. (2017). Incorporating cultural content to motivate university students learning the Russian language. *Modern Languages in Education*, 8(4), 211-225.
5. Zhukova, T., & Popova, N. (2016). Project-based learning as a method for promoting student interest in learning the Russian language at university. *Journal of Russian Language Pedagogy*, 10(2), 34-49.

**Research Science and
Innovation House**

Atmosferani tuzilishi va tarkibi

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabalarini

Yo‘ldasheva Gavharoy Sanjarbek qizi
Shokirova Mohizoda Doniyorbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atmosfera va uning ahamiyati, atmosfera tuzilishi va gaz tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek atmosferani ifloslanishi va uning oqibatlari, atmosfera havosini qanday muhofaza qilish to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Atmosfera, troposfera, stratosfera, mezosfera, ionosfera yoki termosfera, egzosfera qavatlari, tabiiy va sun‘iy ifloslanish, kislata yomg‘iri.

Abstract: This article provides information about the atmosphere and its importance, the structure of the atmosphere and the composition of gases. It also provides information on atmospheric pollution and its consequences, how to protect atmospheric air.

Key words: Atmosphere, troposphere, stratosphere, mesosphere, ionosphere or thermosphere, exosphere layers, natural and artificial pollution, acid rain.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об атмосфере и ее значении, строении атмосферы и составе газов. Также представлена информация о загрязнении атмосферы и его последствиях, способах защиты атмосферного воздуха.

Ключевые слова: Атмосфера, тропосфера, стратосфера, мезосфера, ионосфера или термосфера, слои экзосферы, естественное и искусственное загрязнение, кислотные дожди.

Yer kurrasini o‘rab olgan havo qatlamasi «atmosfera» deyiladi. Atmosfera o‘zining hajmi bo‘yicha yer sayyorasining qolgan qismlaridan bir necha marta katta bo‘lishiga qaramay, uning massasi yer massasidan 0,000001 ga yaqin qismini tashkil etadi, xolos. Atmosferaning deyarli barcha massasi (99 % dan ortig‘i) uning quyi qatlamiga - troposfera va stratosferaga tog‘ri keladi. Atmosfera balandligi ortishi bilan uning tarkibiy qismi, zichligi, harorati va havoning harakat tezligi o‘zgarib boradi. Atmosferaning eng pastki qismi troposfera deb atalib, havo massasining 0,8 dan ortiq qismini o‘z ichiga oladi. Bu qatlamda balandlikni har 1 km.ga ortishi bilan

harorat o‘rtacha -6°C ga pasaya boradi. Zichligi esa, yerdan baland ko‘tarilgan sari kamayib boradi. Troposferaning yuqorida, stratosferaga o‘tish qismida harorat, aksincha, sovib -50°C dan -80°C gacha yetadi. Stratosferada yerdan 25 km. balandlikkacha harorat o‘zgarmay qoladi. Stratosfera bo‘ylab quyoshning ultrabinafsha nurlari ta’sirida ozon(03) hosil bo‘ladi. U ning eng k o ‘p konsentratsiyasi yer yuzidan 22-25 km. balandlikda kuzatiladi. Stratosferadan so‘ng mezosfera qatlami joylashgan bo‘lib, uning yerdan balandligi 85 km.gacha boradi. Bu qavatdan yuqorida ionosfera yoki termosferaqavati joylashgan. Uning balandligi yerdan 200-300 km.gacha boradi. Bu yerda harorat yana ortib 1000°C atrofida bo‘ladi. Ionosfera qavatidan keyin egzosfera qavati keladi. Uning eng yuqori chegarasi yer sathidan 2000 km.balandlikda joylashgan. Bu qavatning yuqori qismida atmosferaning asosiy tarkibi neytral vodoroddan, proton va elektronlardan tashkil topgan. Eng toza havo okean suvlari ustidadir. Qishloqlar ustida havodagi chang zarralari miqdori okean yuzasidagiga nisbatan 10 barobar, shaharlar ustida 35 barobar, sanoat korxonalarini ustida 150 barobargacha ortiq bo‘ladi. Toza havo faqat inson uchungina emas, balki hayvonot va o‘simlik dunyosi uchun, shuningdek, antibiotiklar, yarim o‘tkazgichlar, yuqori aniqlikka ega bo‘lgan o‘lchov asboblari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari uchun ham zarurdir. Atmosfera havosi tarkibi azot 78% ni, kislorod esa 21% ni tashkil qiladi. Bu gazlarni makrogazlar deb atash qabul qilingan. Bularidan tashqari havo tarkibida 1 % atrofida mikrogazlar deb ataluvchi gazlar ham mavjud. Mikrogazlarga uglerod qo‘sish oksidi(SO₂), uglerod oksidi, ozon, suv bug‘lari, metan, ammiak, azot oksidlari va boshqalar kiradi.

Atmosferaning ifloslanishi deb, bir so‘z bilan aytganda, havo tarkibiga begona moddalar va qo‘sishmchalarning me’yoridan ortiq to‘planishiga aytiladi. Havoning ifloslanishi tabiiy yoki sun’iy(antropogen) bo‘lishi mumkin. Tabiiy ifloslanish. Atmosferada doimo ma’lum miqdorda changlar bo‘ladi. U tabiatda sodir bo‘ladigan tabiiy hodisalar natijasida hosil bo‘ladi. Antropogen ifloslanish asosan transport vositalarida, sanoatkorxonalarida va energiya ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda organik yonilg‘ilardan foydalanish natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar va ajratmalarining havo havzasiga tushishi oqibatida sodir bo‘ladi. Atmosfera havosining ifloslanishi muammosi butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, atmosferaga dunyo bo‘yicha 50 million tonna har xil uglevodorodlar, 260 million tonna oltingugurt oksidlari, 50-60 million tonna azot oksidlari, 2 million tonnadan ortiqroq chang va kulsimon moddalar tashlanmoqda.

Atmosfera havosining kundan-kunga, yildan yilga bunchalik ifloslanib borishida avtotransportlarning aybi borligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Atmosferada kechadigon fizik-kimyoviy jarayonlarga “issiqxona effekti” hodisasi, kislata yomg‘iri, ozon qavatining yemirilishi, “fotokimyoviy smog” misol bo‘ladi. Kislotali yomg‘irlari atmosferaning oltingugurt va azot gazlari bilan ifloslanishi bilan bog‘liq holda yog‘inlarning kislotaga aylanishi namoyon bo‘ladi. Bunday hodisa, odatda, atmosferaga oltingugurt va azot gazlari chiqaradigan yirik sanoat korxonalari osmonida sodir bo‘ladi va bulutlar yordamida harakatlanib, boshqa hududlarga ham yog‘ishi mumkin. Kislotali yomg‘irlar ayniqsa nordon tarkibli tuproqlar uchun juda xavfli. Chunki bunday yomg‘irlar tuproqdagagi moddalar almashinuvini buzadi, ular tuproq tarkibidagi og‘ir metallarni yuvadi. Natijada tuproqning toksiklik hossalari oshadi, kalsiy miqdori kamayadi va o‘simlikning o’sishi to‘xtaydi. Kislota saqlovchi yomg‘irlar va bug‘lar tomlardagi temir tunukalarni korroziyaga uchratib, tez ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Kislotali yomg‘irlardan himoyalanish usullaridan biri turli xil yonilg‘ilar tarkibidagi oltingugurt miqdorini kamaytirish va freonlar ishlab chiqarishni taqiqlashdan iborat.

Xulosa: Atmosfera havosini asrashimiz kerek, hozirgi kunda atmosfera havosi ifloslanish darajasi kundan kunga ortmoqda. Atmosferani zararlash eng avvalo insonlarga, tabiatga, xatto o‘simlik va hayvonot dunyosi ham zarar keltiradi. Atmosfera havosini ifloslanishida asosiy ro‘lni insonlar amalga oshirmoqda. Ifloslangan havoni tozalashnieng eng ma’qul usuli bu - ko‘kalamzorlashtirishdir. Aynan yashil o‘simliklar fotosintez natijasida havoning tozaligini ta’minlaydi, gazlanganlik va zararli tashlamalar bilan ifloslanishini kamaytiradi, mikroiqlimni yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Ekologiya va atrof-muhitning muhofaza qilish asoslari”, “Musiqa” nashriyoti. P. S. Sultonov. Toshkent 2007 y.
2. “Ekologiya o‘quv qo‘llanma”, To‘xtayev A. S. Toshkent 1998 y.
3. “Umumiy ekologiya” darslik, A. Ergashev. Toshkent 2003y.
4. “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish o‘quv qo‘llanma”, Xo‘janazarov. O‘. E. Yoqubjonov. SH. Toshkent 2018 y.



Ayiqtovonnamolar qabilasi (Ranunculales)

**Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi
Jo‘raxonova Dildora Ismoiljon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayiqtovonnamolar qabilasining umumiy tasnifi, ekologiyasi, shuningdek, sistematikasi haqida ma'lumotlar keltirib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: Ayiqtovonnamolar(Ranunculales) qabilasi, ayiqtovondoshlar va zirkdoshlar oilasi, sug‘uro‘t, ayiqtovondoshlar va uchmao‘t turkumlari, yersovun va zirklar turkumilari.

Abstract: This article provides information on the general classification, ecology, and systematics of the tribe of bears.

Key words: Ranunculales tribe, Ranunculales family, Ranunculales family, Sugur, Ranunculaceae and Uchmaot genera, Yersovun and Zirka genera.

Аннотация: В статье представлены сведения об общей классификации, экологии и систематике племени медведей.

Ключевые слова: триба Ranunculales, семейство Ranunculales, семейство Ranunculales, Сугур, роды Ranunculaceae и Учмаот, роды Ерсовун и Зирка.

Ayiqtovonnamolar(Ranunculales) qabilasi turlari orasida o‘simliklarning barcha hayotiy shakllari uchraydi, ko‘pchiligi bir yillik o‘tlar, qisman lianalar, butalar va past bo‘yli daraxtlar. Barglari yonbargchasisiz, navbatlashib, ba’zan qarama-qarshi joylashgan, oddiy yoki qisman murakkab.Ginetsey apokarp. Mevalari — bargak, yong‘oqcha, rezavor yoki danakli. Morfologik tuzilishiga ko‘ra qabila 8 ta oilaga bo‘linadi. Ayiqtovonnamolar qabilasining markaziy, turlarga boy va muhim oilalaridan biri Ayiqtovondoshlardir.

Ayiqtovondoshlar oilasi (Ranunculaceae). Bu oilaning hozirgi vaqtida 66 turkum va 2000 dan ortiq turlari bor. Ular ikkala yarimshaming o‘rta hamda sovuq iqlimli mintaqalarida keng tarqalgan. O‘zbekistonda ayiqtovondoshlarning 20 ta turkum va 100 dan ko‘proq turi mavjud.Ayiqtovondoshlarga asosan bir yoki ko‘p yillik o‘tlar, ba’zan buta va lianalar kiradi. Ilonchirmovuqdagina poya yog‘ochlangan va u ikkilamchi belgi hisoblanadi. Barglari asosan navbatlashib, ba’zan qarama-qarshi joylashgan, oddiy, panjasimon yoki qisman patsimon kesilgan, rudimentlar yonbargchali (sanchiq o ‘t). Gullari ikki jinsli, asosan

antinomorf, qisman zogomorf. Gulqo‘rg‘oni oddiy (tojbargsimon) yoki murakkab, gul qismlari ko‘proq spiral, halqa hosil qilib o‘rnashgan. Mevalari yarim yoyma meva, yong‘oqcha, ko‘sakcha, ba’zan rezavor. Gullari va mevalarining tuzilishidagi hamda sitologik farqlariga binoan ayiqtovondoshlar oilasi 6 ta kichik oilaga bo‘linadi.

Isfarakdoshchalar (Delphinoideac) oilachasi gulining tuzilishiga ko‘ra oilaning ancha progressiv tuzilishli turlarini o‘z ichiga oladi. Ulardan akonit, isfarak turkumlarining turlari O‘zbekistonda keng tarqalgan. Sanchiqo‘tdoshlar oilachasi 11 turkumni o‘z ichiga oladi va xromosomalarining juda mayda va 7 ta bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Oilachaning xarakterli turkumlaridan biri Sanchiqo‘tdir (Thalictrum). Barcha vakillarining barglari uch karra yoki patsimon qirqilgan, shamol yordamida changlanuvchi anemofil ko‘p yillik o‘tlardir. Gulqo‘rg‘oni oddiy, kosachasimon, changchi va urug‘chilari ko‘p. Mevalari qanotchasiz yong‘oqsimon yoyma meva. Aksariyati tog‘, ba’zan yaylov mintaqasida, soy bo‘ylarida va sernam yonbag‘irlarda o‘sadi. Turkumning umuman 75 dan ortiq turlari bor, ulardan O‘zbekistonda 5 turi tarqalgan.

Pufanakdoshlar (Anemonoidae) oilachasi 18 ta turkumni o‘z ichiga oladi. Barcha turlari ko‘p yillik o‘tlar, ba’zan chirmashuvchi butalar (ilonchirmovuq), barglari oddiy, turli darajada qirqilgan, bo‘lakli. Gulqo‘rg‘oni oddiy (pufanak, ilonpechak) yoki murakkab 5 bargchali, changchi va urug‘chilari ko‘p, spiral shaklda joylashgan. Gulli poyasi bargsiz, barglari ildiz bo‘g‘zi atrofida va gulning ostida o‘rnashgan. Mevalari bir urug‘li yong‘oqcha. Ko‘pchilik turlari erta bahorda gullaydigan chiroyli efemeroidlar.

Pufanak (Anemone) turkumining gullari yirik, aktinomorf, bittadan yoki yarimsoyabon to‘pgulda o‘rnashgan. Gulqo‘rg‘oni oddiy, gultojsimon, 5-6 bargchali, turlari silindrsimon yoki tuganaksimon ildizpoyali, poyasi bargsiz. Tog‘ning qoya toshli va shag‘al-toshli yonbag‘irlarida pufanakka ancha o‘xshash qo‘ng‘iroqsimon pulsatilla uchraydi, u pufanaklardan qoplag‘ich bargining 3 ta va asosi bilan tutashganligi, yopirma barglari 2 marta murakkab patsimon qirqilganligi, gulining siyohrang-ko‘k bo‘lishi bilan farqlanadi.

Sug‘uro‘t (Adonis) turkumi afsonaviy grek yigit Adonis nomi bilan atalgan, bir yoki ko‘p yillik o‘tlardan iborat. Barglari oddiy, ensiz patsimon bo‘lingan yoki panjasimon qirqilgan. Gullari aktinomorf, bittadan o‘rnashgan, kosachabarglari 5 tadan, gultojibarglari 5 ta, ko‘pincha sariq, changchi va urug‘chilari ko‘p. Mevasi

ko‘p, yong‘oqchali to‘pmeba. Turkumning umuman 20 ta, O‘zbekistonda 4 turi tarqalgan. Tillarang sug‘uro‘t bo‘yi 15—30 sm ildizpoyali o‘t, poyasi tik, pastki barglari uzun bandli, ustkilari bandsiz, uch karra patsimon kesilgan. Gullari tillarang sariq. Farg‘ona viloyatida tarqalgan, dorivor o‘simplik.

Ayiqtovon (*Ranunculus*) turkumiga bir yillik, ko‘p yillik, qirqilgan oddiy bargli o‘simpliklar kiradi. Gullari ikki, ba’zan bir jinsli, aktinomorf, gulqo‘rg‘on bargchalari 5 tadan, changchi va urug‘chisi ko‘p, spiral bo‘lib joylashgan, tugunchasi ustki. Mevasi bir urug‘li, to‘p yong‘oqcha. Yer yuzida 600 dan ko‘proq turlari bor. O‘zbekistonda 32 turi tarqalgan, ko‘pchiligining tarkibida anemonal muddasi bor, zaharli, quriganda zaharliliği keskin kamayadi. Ayiqtovonlarning suzuvchi ayiqtovon, sudraluvchi ayiqtovon, Vvedenskiy ayiqtovoni, soyachil ayiqtovon, yassi mevali ayiqtovon kabi bir necha turlari bor. Bochansev ayiqtovoni esa, O‘zbekistonda tarqalgan endem o‘simplikdir.

Uchmao‘t (*Ceratoccephalus*) turkumiga sertuk bir yillik efemer o‘simpliklar kiradi. Poyasi bargsiz, yopirma barglari, ensiz uch tilimli. Gullari sariq, kosacha va gultojibarglari 5 tadan, boshchasimon to‘pgulida o‘rnashgan. Ruderal, zaharli begona o‘t. Turkumning 2 ta turi bor. To‘g‘ri mevali uchmao‘t, poyasi 1—7 sm, mevalari 2—4 mm, uch qirrali va uchi to‘g‘ri. O‘roqsimon uchmao‘t, poyasi 3—10 sm, mevasining uchi yassi, o‘tkir, egilgan. Ikkala tur ham cho‘l, adirlarda qumli, shag‘al toshli yonbag‘irlarda keng tarqalgan. Qo‘y va echkilar uchun zaharli.

Zirkdoshlar oilasi (*Berberidaceae*) Hozirgi vaqtida oilaning 14 ta turkumga mansub 650 dan ziyodroq turlari bo‘lib, ular 4 ta oilachaga birlashtiriladi. Vakillari o‘t, daraxtlardan iborat. Ular Yer sharining barcha mintaqalarida keng tarqalgan. Oila vakillarining eng muhim o‘ziga xos belgisi ginetseyining soxta monomerligi va 2(3) karpella (mevabarglari) dan tuzilganligidir. Gulqo‘rg‘on barglari 6 tadan, kosachasi tojsimon, rangli, changchilari asosan 6 ta, ba’zan 4—18 ta, barchasi gulo‘rnda halqa holida joylashgan. To‘pguli poya uchida yoki barg qo‘ltig‘ida joylashgan shingil. Mevasi — ko‘sak, rezavor. O‘zbekistonda 4 turkum vakillari mavjud, shundan 3 turkumi yovvoyi, 1 ta turkumi esa madaniy manzarali o‘simpliklardir.

Yersovun (*Lconticc*) turkumining 4 ta turi mavjud, barchasi tiganaksimon yo‘g‘onlashgan ildizpoyali efemeroidlar. Barglari 2 marta uchtadan yoki patsimon qirqilgan. To‘pguli shingilsimon yoki ro‘vaksimon. Tugunchasi 2—4 urug‘kurtakli, pufaksimon mevali. Ulardan Eversman yersovuni cho‘llarda, adir va tog‘larning

pastki qismida tarqalgan. Boyxalcha, albert yersovuni esa tog‘larning o‘rtanva pastki qismining shag‘al tosh-tuproqli yonbag‘rlarida o‘sadi. Bu turlarning ildizpoyalari kraxmalga boy, ammo zaharli.

Zirklar (Berberis) turkumi zirkdoshlar oilasining markaziy turkumi hisoblanadi. To‘pgullari shingilsimon, urug‘chisi 1-3 urug‘kurtakli, rezavor mevali. O‘zbekistonda 5 ta turi o‘sadi, shulardan 3 turi yovvoyi holda tarqalgan, 2 turi madaniy-manzarali butalardi. Yovvoyi zirklardan ancha keng tarqalgani va xo‘jalik jihatdan qimmatlisi qoraqand zirk. U bo‘yi 4 metrcha keladigan, poyasi qo‘ng‘ir, sershox buta. Tikanlari oddiy yoki uch bo‘lakli, uzunligi 15 mm. Barglari cho‘ziq, uzunligi 6 sm cha, teskari tuxumsimon, cheti mayda tishchali, yuzasi silliq kulrang-yashil, osti ko‘kimir. Mevasi qoramir-siyohrang, ko‘kimir g‘uborli, bir urug‘li, cho‘ziq ellipssimon (1 sm cha), nordon, rezavor. Tog‘ mintaqasining o‘rta va pastki qismidagi yonbag‘irlarda o‘sadi.

Xulosa:Ayiqtovonkabilar kichik ajdodi(Ranunculidac) hozirgi tizimga binoan 4 ta qabila: (Ayiqtovonnamolar — Ranunculales, Burmaqoranamolar—Glaucidiales, Sallagulnamolar — Paeoniales, Ko‘knornamolar— Papaverales), 13 ta oila, 200 ga yaqin turkum va 4000 ga yaqin turlarni birlashtiradi.Ayiqtovonnamolar qabilasi turlari orasida hamma hayotiy shakllar mavjud. Bu qabila 8 ta oilaga bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'. Pratov, L.Silamsulayeva, E. Sulaymon,X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov BOTANIKA(Morfologiya, Anatomiya, Sistematisasi, Geobotanika) "Ta'lif nashriyoti" Toshkent-2010.y.
2. Zokirov Q. Z, Jamolxonov X. A, Botanikadan ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik lug‘at "O‘qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1973 y.
3. Kursanov L. I, Komarniskiy K. I, Meyer V. F, Razdoriskiy A. A, Uranov. Botanika 1-tom "O‘qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1972 y.
4. M.I.Ikromov, X. N. Normurodov, A. S. Yuldashev Botanika O‘simliklar morfologiyasi va anatomiysi. 2002-yil.

Qushlar sinfining umumiy tavsifi va tuzilishi

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

Jo‘raxonova Dildora Ismoiljon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qushlar sinfining umumiy tavsifi va tuzilishi, shuningdek, qushlar sinfining sistematikasi va ekoliyiyasini axamiyat haqida ma'lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qushlar(Aves), pingvinlar turkumi, ko‘krak tojsizlar va ko‘krak tojlilar turkumlari. Afrika tuyaqushi va tuvaloqlar turkumi.

Abstract: This article provides information on the general description and structure of the bird class, as well as the importance of the systematics and ecology of the bird class.

Key words: Birds (Aves), penguin family, pelicans and pelicans. African ostriches and ostriches.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об общем описании и структуре класса птиц, а также значениях систематики и экологии класса птиц.

Ключевые слова: Птицы (Aves), семейство пингвинов, пеликаны и пеликаны. Африканские страусы и страусы.

Qushlar tuzilishi jihatdan sudralib yuruvchilarga yaqin bo‘lib, ularning gavda haroratini doimiy saqlashga o‘tgan va uchishga moslashgan ajdodi hisoblanadi. Tanasining suyri shakldaligi, oldingi oyoqlarining qanotga aylanganligi, tanasining pat bilan qoplanganligi, suyaklarining yengil bo‘lishi, naysimon suyaklarining havo bilan to‘lganligi, havo xaltachalarining rivojlanganligi, jag‘larida tish bo‘lmasligi va to‘g‘ri ichakning qisqarishi qushlarning uchishga moslashgan asosiy belgilari hisoblanadi. Qushlarning skeleti uchishga moslashgan, oyoqlar va ularning kamar skeleti yengil va pishiq bo‘ladi. Umurtqa pog‘onasi bo‘yin, ko‘krak, dumg‘aza va dum bo‘limlaridan iborat. Bo‘yin bo‘limi uzun va juda harakatchan bo‘ladi. Bu bo‘limning harakatchanligi umurtqalarning qo‘silish yuzalarining egarsimon shaklda bo‘lishiga bog‘liq. Bunday umurtqalar qushlar uchun xos bo‘lib, ular geterosel umurtqalar deyiladi. Qushlarning boshi 180°, yapaloq qushlar da 270° gacha aylanadi. Kaptarda bo‘yin umurtqalari soni 14

ta, ko‘krak umurtqalari esa 4 ta bo‘lib, voyaga yetgan qushlarda bir-biriga qo‘silib ketgan. Umurtqalaming har biridan bir juftdan qovurg‘alar chiqadi. Qovurg‘alarning yelka bo‘limidan orqa tomonga qarab ilmoqsimon o‘simta chiqadi. Qovurg‘alarning pastki uchi to‘s sh suyagiga qo‘silibadi. Bu suyakning oldingi yuzasi qushlarda ko‘krak tojini hosil qiladi. Tojga qanotni harakatga keltiruvchi muskullar birikadi. Dumg‘aza 14 ta umurtqadan tashkil topgan, embrion rivojlanish davrida dastlab ikkita umurtqa rivojlanadi. Keyinchalik oldingi tomondan bel, keyingi tomondan oldingi dum umurtqalari qo‘silib, qushlarga xos bo‘lgan murakkab dumg‘aza hosil bo‘ladi. Dum umurtqalari 6 ta, keyingi dum umurtqalari qo‘silib, vertikal plastinka shaklidagi dum suyagini hosil qiladi. Qushlarda oyoqlarini harakatga keltiruvchi muskullar tana bilan bog‘liq. Oyoqlarga esa ingichka paylar boradi. Ayniqsa, ko‘krak muskullari juda katta bo‘lib, ular tana og‘irligining 20 — 30 foizini tashkil qiladi. Bu muskul ko‘krak toj suyagiga birikadi va qanotini pastga tushirish uchun xizmat qiladi. Ko‘krak musulining ostida joylashgan o‘mrov osti muskuli qanotlarni ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Orqa oyoq muskullari kuchli rivojlangan bo‘lib, ularning yerda yurishi, daraxtda harakatlanishi, yerdan ko‘tarilishi va qo‘nishiga imkon beradi. Qushlarning oyoq bo‘g‘imlari orqali paylar o‘tgan. Paylaming uchi barmoqlargacha yetib boradi. Qush shoxga qo‘nganida bu paylar tortiladi va barmoqlar siqilib, shoxni mahkam ushlab turadi. Shuning uchun qushlar daraxt shoxida o‘tirganida, hatto uxlaganda ham yiqilib tushmaydi. Sezuv organlari hisoblangan ichki va o‘rta qulqodan iborat eshitish organi sudralib yuruvchilarga nisbatan yaxshi rivojlangan. Hid bilish organi esa sust taraqqiy etgan. Lekin ko‘rish organi —ko‘zlar kuchli rivojlangan va ular tashqi muhitda mo‘ljal olish va o‘z o‘ljalarini axtarib topishda asosiy rol o‘ynaydi. Qushlarning yuragi to‘liq 4 kamerali bo‘lib, arterial va venoz qon aralashmaydi. Shu sababli qushlarning tana harorati doimiy. Qushlarning yuragi boshqa umurtqali hayvonlarning yuragiga nisbatan katta bo‘ladi. Bu qushlarning modda almashinish jarayonining jadal kechishi bilan bog‘liq. Modda va gaz almashinish jarayonlarining juda ham jadval borishi sababli qushlarning gavda harorati ham yuqori bo‘ladi. Qushlarning gavda harorati o‘rtacha 42 °ga tengdir. Ba’zi qushlar uzoq yillar davomida juft bo‘lib yashaydi (laylaklar, yirtqich qushlar, to‘tilar), boshqalari faqatgina ko‘payish davrida juft bo‘lib yashaydi (ko‘pchilik chumchuqsimonlar). Qushlar, odatda bir yilda bir marta ko‘payadi, ba’zi qushlar esa 2 — 3 marta tuxum bosadi. Qushlar tuxumni ochib chiqqan jo‘jalari nechog‘lik rivojlangan bo‘lishiga qarab 2 ta guruhga — jo‘ja

bolali qushlar va jish bolali qushlarga bo‘linadi.Jo‘ja bola ochuvchi qushlarning bolalari tuxumdan rosa yetilgan, ko‘z—qulqlari ochilgan va terisi qalin par bilan qoplangan bo‘lib chiqadi hamda ota — onasining orqasida yurib ketadi. Bu guruhga tuyaqushlar,baliqchilar, tovuqsimonlar, g‘ozsimonlar, turnalarva tuvaloqlar kiradi.Jish bola ochuvchi qushlarning bolasi tuxumdan chiqqanda yetilmagan, ko‘z —qulog‘i ochilmagan, terisi patsiz, siyrak pat bilan qoplangan, o‘z xolicha ovqat yeya olmaydigan va ota —onasining parvarishiga muhtoj bo‘ladi. Bularga chumchuqsimonlar, qizilishtonlar,kaptarlar, ko‘kqarg‘alar, laylaklar kiradi.Qushlar sinfi kaltakesak dumlilar va yelpig‘ich dumlilar kenja sinflariga bo‘linadi. Kaltakesak dumlilar qirilib ketgan, ular yura davrida keng tarqalgan.Hozirgi yashab turgan qushlaming barchasi yelpig‘ich dumlilar kenja sinfiga kiradi. Bu kenja sinfga 8500 — 9000 ga yaqin tur kiradi. Ular pingvinlar, ko‘krak tojsizlar va ko‘krak tojlilar katta turkumlarga bo‘linadi O‘zbekistonda qushlar sinfining 432 ta turi uchraydi.

Pingvinlar katta turkumiga faqat bitta Pingvinlar(Sphenisciformes) turkumi kiradi. Pingvinlar uchmaydigan, lekin yaxshi suzadigan va sho‘ng‘iydigan qushlardir. Shu sababli oldingi oyoqlari o‘zgarib, suzish organi —kurakka aylangan, suyaklari ichida havo bo‘lmaydi. Patlari yassi, u gavdasini zich va bir tekis qoplab turadi.Oyoqlar gavdaning keyingi tomoniga joylashgan, shu sababli yurganda gavdasini vertikal tutadi. Barmoqlari orasida suzgich pardalari bor.Pingvinlar asosan Antarktidada tarqalgan bo‘lib, ba’zan Janubiy Amerika, Avstraliya va Afrikaning janubiy qirg‘oqlarigacha suzib boradi.

Ko‘krak tojsizlar katta turkumiga Afrika tuyaqushlar turkumi misol bo‘ladi.Afrika tu yaq u sh lari (Struthioniformes) tu rk u m iga yagona bitta tur — Afrika tuyaqushi kiradi va qushlar o‘rtasida eng yirigi hisoblanadi.

Ko‘krak tojlilar katta turkumiga Tuvaloqlar turkumi misol bo‘la oladi. Tuvaloqlar turkumi vakillari odatda cho‘l, sahrolarda yashaydigan qushlar bo‘lib, bo‘yinlari va oyoqlari uzun, oyoqlarida faqat 3 ta barmog‘i bor. Dum ustida bezi rivojlanmagan. Bu turkumga og‘irligi 16 kg gacha keladigan dudok yoki tuvaloq, bizg‘aldoq va yo‘rg‘a tuvaloqlar kiradi va ular go‘shti uchun ovlanadi. Bularning soni keskin kamayib ketganligi sababli "Qizil kitob"ga kiritilgan

Qushlar mavsumga moslashishiga qarab uchta ekologik guruhga bo‘linadi:O‘troq qushlar yil davomida ma'lum bir joyda yashaydi. Bularga qirg‘ovul, kaklik, musicha, mayna, qizilishton, chittak, so‘fito‘rg‘ay va boshqalarni

kiritish mumkin. Ko‘chmanchi qushlar ko‘payish mavsumidan keyin noaniq yo‘nalishlarga qarab bir necha kilometr masofaga ko‘chib boradi, lekin o‘zining ko‘paygan zonasini tashlab ketmaydi. Bu guruhga snegirlar, go‘ng qarg‘alar, zag‘cha, olaqarg‘a, qorayaloqlar, dehqonchumchuqlar va boshqalar misol bo‘la oladi. Kelib ketuvchi qushlar qishlash uchun ko‘paygan joylarini tashlab, minglab kilometr uzoqlikka, ya’ni yangi tabiiy -geografik zonalarga uchib ketadi.

Xulosa: Qushlar uchishga moslashgan. Qushlar morfologik tuzilishiga ko‘ra oldingi oyoqlarining qanotga aylangan, keyingi oyoqlarida ilik hosil bo‘lgan, tanasi pat bilan qoplangan, yuragi to‘liq 4 kamerali, boshskeletida yagona ensa bo‘rtmasi va chanoq buyragi rivojlangan. Qushlarning skeleti ham uchishga moslashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O. Mavolonov, Sh. Xurramov, X. Eshonov, "Umurqasizlar zoologiyasi" Toshkent 2006 y.
2. Dadayev S, umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv-uslubiy majmua 2021 y.
3. Mavolonov O, Saparov K, Toshmanov Z, Zoologiya (umurqasiz hay-vonlar) Sanostandart nashriyoti. Toshkent 2018 y.
4. <http://www.ziyonet.uz>

Research Science and Innovation House

Biotsenozlar yoki biotik turkumlar

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

Jo‘raxonova Dildora Ismoiljon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biotsenoz va biotsenozni o‘rganishdan maqsadimiz, biotsenoz bilan biotopning uzlusiz bir biriga ta’siri natijasi, shuningdek, biotsenoz turlarni tarqalishi va ekalogik strukturasi haqida ma'lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Biotsenoz, biotop, ekotizim yoki biogeotsenoz, ekologik nisha.

Abstract: In this article, the purpose of studying biocenosis and biocenosis, the result of the continuous interaction of biocenosis and biotope, as well as information on the distribution of biocenosis species and ecological structure are presented.

Key words: Biocenosis, biotope, ecosystem or biogeocenosis, ecological niche.

Аннотация: В данной статье представлены цели изучения биоценоза и биоценоза, результат непрерывного взаимодействия биоценоза и биотопа, а также сведения о распространении видов биоценоза и экологической структуре.

Ключевые слова: Биоценоз, биотоп, экосистема или биогеоценоз, экологическая ниша.

Biotsenoz – o‘simgiliklar, hayvonlar va mikroorganizmlardan tarkib topgan populyatsiyalar majmuasidir. Lotincha “bios” – hayot, “senoz” – umumiyl, demak, umumiyl hayot ma’nosini bildiradi. Tabiatda barcha o‘simgilik va hayvonlar faqat jamoa tarzida mavjud bo‘la oladilar. Chunki har bir tur normal hayot kechirishi uchun yakka holda yashay olmaydi, balki tevarak-atrofidiagi tirik organizmlar bilan birgalikda hayot kechiradi. Bir guruh organizmlarning muayyan sharoitda birgalikda yashashi – jamoa deyiladi. Biotsenozning o‘simgiliklar o‘sadigan tarkibiy qismi – fitotsenoz, hayvonlar yashaydigan qismi – zootsenoz va mikroblar yashaydigan qismi – mikrobiotsenoz deb ataladi. Biotsenoz va biotopning uzlusiz bir-biriga ta’siri natijasi biogeotsenoz yoki ekotizim deyiladi. Ekotizimda yashash qonuniyatları populyatsiyaga qaraganda yuqori darajada shakllangan. Buloqdan

tortib Tinch okeanigacha yoki o‘rmondagi to‘nkadan tortib katta o‘rmongacha bo‘lgan turli hajmdagi biotik jamoani ekotizim deb ta’riflash mumkin. Ekotizim quyidagilarga bo‘linadi: mikroekotizim (lishaynik, moxlar), mezoekotizim (bulqoq, ko‘l va cho‘l), makroekotizim (qit’alar, okean), biosfera yoki global ekotizimlar. Tabiiy ekotizimlar ochiq hisoblanadi, ular moddalar va energiyani chetdan olib chetga beradi. Shunday qilib, ekotizim va biotsenoz atamalari bir-biriga yaqin bo‘lib, modda almashinuvi amalga oshib turadigan ekotizimni bildiradi. Jamoaning mavjudligi uchun faqatgina turlarning soni emas, balki ularning xilma-xilligi ham lozim, xilma-xillik tabiatda biologik xilmaxillikni saqlab turadi. Bioxilma-xillik deyilganda, ma’lum bir chegaradagi turlar va ekotizim tushuniladi. Xilma-xillik turlarning va populyatsiyalarning doimiy holda saqlanishiga imkon beradi.

Biotsenoz turlar joylar va ekologik struktura bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Tur strukturasi – biotsenoz hosil qiluvchi turlar sonining ular massasi yoki soniga nisbatidir:

- Biotsenozning tur strukturasida bir tur soni yoki massasi egallagan maydon yoki joyga nisbatan ko‘p bo‘lishi mumkin.
 - Kam uchrashi – ma’lum joyda bir turning soni yoki massasi umumiyligi soniga qaraganda namuna olish yoki hisob maydonchasidan aniqlash orqali aniqlanadi.
 - Dominantlik darajasi – bir turning ushbu hududdagi ja’mi turlarga nisbati.

Tur xilma-xilligi – ushbu jamoa yoki hududda uchraydigan turlar sonidi. Jamoada dominant turlar bo‘lib, ular son jihatdan ko‘p bo‘lishi, ikkinchi darajali va kam sonli kamyob bo‘lishi mumkin.

Ekologik nisha – turning ekologik darajasi, yashash uchun ozuqa joyi – nisha deb aytildi. Ma’lum bir organizmning yashash joyi aniqbo‘lsa, uni shu erdan topish mumkin bo‘ladi. Ekologik joy – nisha tushunchasi ancha keng, makondagi nisha; trofik nisha (turlararo aloqada turning joyi), giper hajmli nisha. Tur yashash joyi bo‘lsa, “nisha” – turning ozuqa bo‘yicha (kasbi)dir. Ma’lum bir turning ekologik nishasini ta’riflash uchun, u qanday nisha bilan oziqlanadi, nimalar va kimlar uni eydi, u biotsenozdagi boshqa elementlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi, degan savollarga javob bera olish kerak. Ponomaryov va 1975-yil ma’lumoti bo‘yicha nishalarning har joyda ko‘rinishi va turli darajada oziqlanishini ko‘rish mumkin. Biotsenozda bir tur o‘zining rivojlanishi davrida turli ekologik nishalarni egallaydi. Raqobat – bir muhitda yashaydigan hayvonlar o‘rtasida doimo raqobat kuzatiladi, ular bir-biri

bilan oziq-ovqat talashib, jinsiy hamkorlik, yotoq joyi, o'tlaydigan joy va boshqalarni talashishi mumkin. Raqobat turlar o'rtasida salbiy oqibatlarga olib keladi, chunki ulardan biri ko'pincha nobud bo'ladi. Turlar o'rtasida doimo yashash uchun kurash mavjud. Ekologik nisha uchun raqobat turlar o'rtasida tabiiy tanlashga olib keladi, yashab qolgan organizmlar o'zlariga xos ekologik nishani shakllantiradi. Populyatsiyalar ichidagi organizmlarning bir-biriga va tashqi muhitga bo'lgan munosabati katta biotsenoz ichida bo'ladi. Populyatsiya tarkibi va tuzilishi bilan biotsenozga asos soladi, ularning tarkibi, turlar soni, vazifasi, harakati va tuzilishini o'rghanadi.

Xulosa:Turlar va ularning genetik har xilligi kamayib borishiga inson faoliyati sabab bo'lib kelgan. U o'z ehtiyoji uchun o'rmonlarni, o'tloqni yo'qotib, madaniy ekinlar ekishga erishgan va turlarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan. Hozirgi kunda bu holat juda tezlashdi. Turlar mutlaqo yo'q bo'lib ketmasligi uchun ularning genofondini yoki gen bankini to'plash zarur. Respublikamizda “Biologik xilma-xillikni saqlash” milliy strategiya va harakat rejasি ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan asabiyotlar:

1. "Umumiy ekoliya" darslik, A. Ergashev. Toshkent 2003y.
2. "Ekoliya va tabiatni muhofaza qilish o'quv qo'llanma", Xo'janazarov. O'. E, Yoqubjonov. SH. Toshkent 2018 y.
3. "Ekoliya va atrof-muhitning muhofaza qilish asoslari", "Musiqa" nashriyoti. P. S. Sultonov. Toshkent 2007 y.
4. "Ekoliya o'quv qo'llanma", To'xtayev A. S. Toshkent 1998 y.

Research Science and Innovation House



EXPLORING DEDUCTIVE VS INDUCTIVE APPROACH ON ENGLISH GRAMMAR TEACHING FOR ADULT LEARNERS

Murtozoyeva Shodiya Shuhrat qizi

Assistant teacher of Tashkent Chemical-Technology Institute

E-mail: murtozoyevashodiya@gmail.com

Abstract: Abstract: Grammar teaching has always been a key issue in foreign language classes. Each language has its own grammatical features. The most common of these approaches are inductive and deductive approaches. This article describes the advantages and disadvantages of the two approaches and the differences between them.

Key words: grammatical rules, inductive approach, deductive approach, sentence, method.

In the realm of English language teaching, finding effective strategies to teach grammar to adult learners has always been a subject of great significance. Among the various approaches available, two prominent methods have emerged: deductive and inductive approaches. These approaches present distinct ways of introducing and reinforcing grammar concepts, each with its own strengths and limitations. Understanding the characteristics and implications of both approaches is crucial for educators seeking to create engaging and impactful learning experiences for adult students.

The deductive approach, rooted in traditional teaching practices, involves presenting grammar rules explicitly to learners before they engage in language activities. This top-down approach emphasizes the importance of providing learners with a solid foundation in grammatical structures and rules, enabling them to apply them accurately in their communication. On the other hand, the inductive approach takes a more experiential and discovery-based approach, encouraging learners to observe patterns and generalize rules from examples and real-life language use. This bottom-up approach focuses on fostering learners' ability to intuitively grasp grammar rules through contextualized practice.

While both approaches have their merits, it is essential to consider their implications and effectiveness when teaching English grammar to adult learners. Factors such as learners' language proficiency, learning preferences, cultural



background, and educational context play a crucial role in determining which approach may yield better outcomes. By examining the advantages and challenges associated with each approach, educators can make informed decisions regarding the most suitable teaching methods to employ and adapt to the unique needs of their adult learners.

This article aims to delve into the deductive and inductive approaches, exploring their theoretical foundations, instructional techniques, and potential benefits and drawbacks in the context of English grammar teaching for adult learners. By examining empirical evidence and drawing insights from real-world teaching experiences, we will shed light on how these approaches can be effectively integrated into adult language classrooms to facilitate meaningful and lasting grammar acquisition.

First and foremost, perhaps it is the nature of the language being taught that determines if an inductive approach is possible. Inductive learning is an option for language with salient features, consistency, and simplicity of use and form. The basic forms of comparative adjectives, as shown above, are an example of this. Conversely, teaching the finer points of the use of articles (a/an, the) inductively, for example, would most probably be problematic. The metalinguistic tools that the learners will need to accomplish the task are also factors.

However, the learner-centered nature of inductive teaching is often seen as advantageous, as the learner is more active in the learning process than a passive recipient. This increased engagement may help the learner develop a deeper understanding and help fix the language being learned. This could also promote the strategy of ‘noticing’ in the student and enhance learner autonomy and motivation.

On the other hand, inductive learning can be more time- and energy-consuming and more demanding of the teacher and the learner. It is also possible that during the process, the learner may arrive at an incorrect inference or produce an incorrect or incomplete rule. Also, an inductive approach may frustrate learners whose personal learning style and/or past learning experience are more in line with being taught via a more teacher-centered and deductive approach.

The main purpose of teaching grammar is to teach students how language is structured, spoken, and written, as well as how to make correct sentences. Deductive and inductive approaches have a common goal of teaching grammar, but in different ways. In the first, while the teaching process is descriptive and traditional, the latter

is completely experiential-based. Learner-centered approaches are more popular in these days because students learn more effectively when they are actively involved in class. Therefore, inductively, it becomes clear that the approach is more ideal. However, for some reason, it is not always possible to apply the approach to all classes. For example, in an inductive approach, students work in pairs or small groups to find grammar rules, but if the number of students is large, the teacher should supervise the students while working on the rules. In addition, as noted by Brown (1987), the student takes into account the learning environment, teaching both deductive and inductive approaches. By selecting the correct approach, learning success can be increased. It is well known that these two educational approaches are useful. There is no clear result for. Also stated are “Inductive and Deductive approaches to education, and there is no necessary or logical connection between any particular grammatical model. So, it depends on people's personal choice or their learning style; it is visible. In general, it can be said that the deductive and inductive approach is a student and the role of the teacher, lesson processes, and the use of metalanguage in teaching the grammar element from a different perspective. Also, choosing an approach that suits the needs of the students is the teacher's decision.

[1]

The inductive approach is a more modern style of teaching where the new grammatical structures or rules are presented to the students in a real-language context. The students learn the use of the structure through practice of the language in context and later realize the rules from the practical examples. For example, if the structure to be presented is the comparative form, the teacher would begin the lesson by drawing a figure on the board and saying, "This is Jim. He is tall." Then, the teacher would draw another taller figure next to the first, saying, "This is Bill. He is taller than Jim." The teacher would then provide many examples using students and items from the classroom, famous people, or anything within the normal daily lives of the students to create an understanding of the use of the structure. The students repeat after the teacher, after each of the different examples, and eventually practice the structures meaningfully in groups or pairs. With this approach, the teacher's role is to provide meaningful contexts to encourage demonstration of the rule, while the students evolve the rules from examples of their use and continued practice. [2]

The deductive approach is a more traditional style of teaching in that the grammatical structures or rules are dictated to the students first (Rivers and



Temperley, 1978). Thus, the students learn the rule and apply it only after they have been introduced to it. For example, if the structure to be presented is present perfect, the teacher would begin the lesson by saying, "Today we are going to learn how to use the present perfect structure." Then, the rules of the present perfect structure would be outlined, and the students would complete exercises in a number of ways to practice using the structure (Goner, Phillips, and Walters, 1995). In this approach, the teacher is the center of the class and is responsible for all of the presentation and explanation of the new material. In a language classroom, teaching by inductive instruction means that students are provided with texts and examples first. There are different ways of making grammar lessons more engaging with different activities in modern English classrooms. Some examples will be given below in terms of the inductive approach.

1. Singing Song. Music enables your ESL students to learn English better. Try using songs to teach grammar. Song resource examples

a) Simple present “Don’t Give Up” Bruno Mars “I Say a Little Prayer for «You”—Aretha Franklin

b) Simple past “The Song of Silence” by Simon and Garfunkel; “Because You Loved Me” by Celine Dion “Roar” by Katy Perry “Seasons in the Sun” by Terry Jacks

c) Modal verbs: “Haven’t Met You Yet” (Michael Buble) “Baby, One More «Time”—Britney Spears. “Hero”: Enrique Iglesias, Various “The Best” by Tina Turner

d) (Comparatives and superlatives) “Michael Learns to Rock”: Take Me to Your Heart (Adjectives) “Unbreak My Heart” by Toni Braxton (Prefixes) “Way Back into Love” by Hugh Grant and Haley Bennett (Present perfect) Aside from a karaoke session, pose questions about the song they have just sung to get your students talking. Discuss the main theme and the target grammar points. [3]

The exploration of deductive and inductive approaches in English grammar teaching for adult learners has shed light on the effectiveness and value of both methods. Deductive teaching, with its top-down approach, provides learners with clear rules and structures, allowing them to grasp the fundamentals of grammar. On the other hand, inductive teaching encourages learners to actively discover grammar patterns through in-context examples and guided practice, fostering a deeper understanding and application of the language.



It is evident that a balanced approach, incorporating elements of both deductive and inductive methods, can be highly beneficial for adult learners. By combining deductive explanations with inductive tasks and exercises, instructors can provide a comprehensive learning experience that caters to diverse learning styles and preferences. Moreover, such an approach promotes learner autonomy and critical thinking skills, enabling adult learners to become more confident and proficient in using English grammar.

However, it is crucial to acknowledge that the effectiveness of these approaches may vary depending on individual learners and specific teaching contexts. Therefore, it is recommended that instructors adopt a flexible and adaptive approach, tailoring their teaching methods to the needs and abilities of their adult learners.

In light of the ever-evolving field of language teaching, further research and experimentation are needed to refine and enhance the implementation of deductive and inductive approaches in English grammar instruction for adult learners. By continuously exploring and adapting teaching methodologies, educators can ensure that adult learners receive the most effective and engaging learning experiences, ultimately empowering them to achieve their language learning goals.

The integration of both deductive and inductive approaches in English grammar teaching for adult learners provides a dynamic and comprehensive learning environment. By leveraging the strengths of each approach, instructors can foster a deeper understanding of grammar, promote learner autonomy, and empower adult learners to become proficient users of the English language. Through ongoing research and pedagogical innovation, the field of English grammar instruction can continue to evolve and meet the evolving needs of adult learners in an increasingly interconnected world.

Research Science and Innovation House



References:

1. Brown, H.D. (1987). Principles of Language Learning and Teaching. Englewood Cliffs: Prentice Hall
2. Hande KOLAT. Deductive vs. inductive approach to English grammar teaching for elementary students. ABMYO Dergisi. 13, (2009) (89–98)
3. Urinova Sh.: INDUCTIVE AND DEDUCTIVE WAYS IN TEACHING GRAMMAR OF ESL LEARNERS. International Scientific Research Journal, April 2022.
4. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching (4th ed.). New York: Pearson Education Company.
5. Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
6. Z Madraximova,Z & Ablaeva, N.(2022).CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
7. Madraximova,Z & Ablaeva, N. (2022)ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА " ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ".Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
8. Аблаева, Н.К.(2022).Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Ta’lim fidoyilari 6 (7), 687-691
9. Madraximova Zebo. (2023). DEATH GLORY OF THE WRITER. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(5), 104–106.
10. Хидиров, X. H. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой учёный, (15), 322-324.
- 11.Хидиров, X. H. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
12. Хидиров, X. H. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой учёный, (14), 262-263.
- 13.Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2314-2320.

14. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Nauka i obrazovanie segodnya*, (4 (63)), 82-83
15. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1777-1784
16. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Наука и образование сегодня*, (4 (63)), 82-83.
17. Jumayeva, M. B., & Shukhratovna, M. M. (2022). EFFECTIVE METHODS OF LEARNING ENGLISH GRAMMAR. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 608-611.
18. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). INNOVATIVE METHODS AND TOOLS IN HIGHER EDUCATION. *Science and Innovation*, 2(11), 708-715.
19. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.
20. ST Xasanova, DN qizi Qayumova, BS Ramozonova. (2023). TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G ‘URURNI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN 1 (31), 101-107

Research Science and Innovation House



TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК

IMPORTANCE OF USING MODERN INNOVATIVE METHODS IN TEACHING ENGINEERING SCIENCES

Mirzayeva D.Y. Farg‘ona politexnika instituti magistranti
Valiyev G.N. Farg‘ona politexnika instituti t.f.d.; professor

Annotatsiya. Maqolada raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘qitishning afzalliklari yoritilgan. Innovatsion o‘qitish turlari va interfaol usullaridan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, innovatsion o‘qitish, interfaol usul, raqamli texnologiya, 3 d bosma, so‘rovga asoslangan ta’lim.

Аннотация. В статье выделены преимущества обучения с использованием цифровых и инновационных технологий. Приведены примеры инновационных видов обучения и интерактивных методов.

Ключевые слова: образовательная система, инновационное обучение, интерактивный метод, цифровые технологии, 3D-печать, обучение на основе запросов.

Annotation. The article highlights the benefits of learning using digital and innovative technologies. Examples of innovative types of training and interactive methods are given.

Key words: educational system, innovative teaching, interactive method, digital technologies, 3D printing, inquiry-based learning.

Bugungi kunda davlatimiz yuqori salohiyatli, erkin fikrlay oladigan, ijodkor, tadbirkor, faol va tashabbuskor avlodni yetishtirishni o‘z oldiga oliy maqsad qilib belgilagan, bunda ta’lim tizimining ahamiyatliligi beqiyos. Shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimiz har bir sohasida katta yutuqlarga erishmoqda. Barcha tarmoqlardagi olib borilayotgan islohotlar ijobjiy natijaga bosqichma – bosqich erishilmoqda. Shu bilan birga sezilayotgan kamchiliklarni ham bartaraf etish choralar ko‘rilib borilmoqda. Har bir tizimni ko‘zlangan natijaga olib chiqish uchun yaxshi mutaxassis kadrlar tayyorlash eng asosiy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z ma’ruzalarida “Hozirgi keskin raqobat sharoitida innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o‘z ijodiy va intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini, bugun zamonning o‘zi ushbu masalani siyosatimizning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda” degan fikrni ilgari surmoqdalar. Ta’lim tizimini tartibga solish maqsadida ”Talim to‘g‘risidagi qonun” va ”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” joriy etilganligi ham bezizga emas.

Bugungi kunga kelib, ”Innovatsiya” so‘zi yurtimizning har bir sohasida qo‘llanilmoqda, innovatsiya atamasi inglizcha so‘z bo‘lib, yangilik degan ma’noni anglatadi. Demak yangilangan ta’lim tizimi hozirgi zamon yoshlarini salohiyatini yuksaltira oladigan, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi standartlariga javob bera oladigan bo‘lishi lozim.

Hozirgi vaqtida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Bu jarayon ta’lim sifatini oshiradi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni qiziqarliroq bo‘lishini ta’minlaydi, talabani e’tiborini darsga qaratishiga xizmat qiladi. Chunki bugungi axborot texnologiyasi davrida yoshlarning turli gadjetlarga qiziqishi yuqori, internet tarmoqlari orqali katta ma’lumotlar oqimiga ega. Bunday holat yaxshi albatta lekin, bu manbaalar manfaatli bo‘lishi bilan birga ba’zan zararli bo‘lishi ehtimoli ham majjud. Shunung uchun ham bugungi davr yoshlarini ravon fikrlay oladigan komil shaxs qilib yetishtirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Kelajakda yetuk va salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash, davlat iqtisodiyotini o‘sishiga olib keladi, bunda o‘qituvchining ilmi, bilim berish mahorati, zukkoligi, fikrlash doirasining kengligi, fidoyiligi, oquvchisiga pedagogik

psixologik yondashuvi va albatta ishiga bolgan munosabati katta ahamiyatga ega. Demak , mamlakat kelajagining taqdiri tom ma'noda oqituvchiga ham aloqador bo'ladi, shu sababli ular oldidagi vazifa o'ta mas'uliyatlidir.

Ta'limdagi innovatsion yondashuv pedagogini an'anaviy tarzda darsdan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari: kompyuter, skaner, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intelektdan foydalanish va uni dars jarayonida tog'ri qo'llashini talab etadi. Bu o'z navbatida darsning samaradorligini oshiradi, talabaning tasavvurini shakllantiradi.

Ilgarigi an'anaviy o'qitish metodi hozirgi kunga kelib, talabalarni darslarni o'zlashtirishiga ishtiyoqini kamytiradi. Talabalarni darsda aktivligini oshirishda interfaol darslar qo'llash o'quvchini fiklashini o'stirib, uni bayon qila olishini shakllantiradi. Hozirgi kunda interfaol o'qitishning ko'plab turlari mavjud. Zamoniy innovatsion o'qitishga darslarda interfaol usullardan foydalanishni misol qilish mumkin. Innovatsion o'qitish nafaqat eng ilg'or texnologiyalardan foydalanish, balki talim-tarbiya usuli hamdir. Bunda ta'lim beruvchi va oluvchi o'rtaida muloqotni qizg'in bo'lishi yoki o'quvchilarining o'zaro fikr almashina olishlari rivojlanadi. Ayniqsa texnika fanlarini o'qitish, jihozlarning ishslash jarayonini bevosita ko'rish, jarayonda qatnashish bu o'quvchining tasavvurini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarini tizimlarda qo'llash uzoqni yaqin qilish, ya'ni dunyoning istalgan nuqtasi bilan aloqa o'rnata olish, ma'lumotlarni internet tarmoqlari orqali almashinish, yuzlab kitoblarni bir joyga jamlay olish, masofadan turib ilm olish va shu kabi cheksiz imkoniyatlarni beradi. Texnika fanlarini o'rganish jarayonida labaratoriya va amaliy mashg'ulotlarni maxsus jihozlangan xonalarda olib borilishi, mavzuni to'liq o'rganilishini ta'minlaydi. Lekin ba'zi jihozlar o'quv binosida bo'imasligi yoki aynan shu mashina bilan tanishish uchun ishlab chiqaruvchi korxonaga borish imkon bo'imasligi mumkin. Shu kabi vaziyatlarda, dars jarayonida raqamli texnologiyadan foydalanish, mavzuga oid jarayonni kuzatish imkonini beradi.



Innovatsion o‘qitish usullarining afzalliklari

- **Tadqiqotni rag‘batlantirish** – o‘qitishga innovatsion yondashuvlar talabalarni fiklashlarini kengaytirish uchun, yangi narsalar va vositalarni kashf etishga undaydi.
- **Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish** – ijodiy o‘qitish usullari o‘quvchilarni o‘z fikrlash imkoniyati tezligida o‘rganish imkonini beradi va ularni darsliklarda yozilgan javoblarni topish o‘rniga muammoni mustaqil hal qilishning yangi usullarini aqliy hujumga chorlaydi.
- **Bir vaqtning o‘zida ko‘p bilim olishdan saqlanish** – o‘qitishga yangicha uslubda yondashayotgan pedagog talabalarga ma’lumot yetkazishni to‘xtatmaydi, lekin ularni kichik qismlarga bo‘ladi. Yangi ma’lumotni tushunib yetish birmuncha osonroq bo‘lishiga yordam beradi.
- **Ko‘proq mustaqil ko‘nikmalarini qabul qilish** – o‘quvchilar o‘z ishlarini yakunlash uchun xonada murakkabroq vositalardan foydalanishlari kerak, bu esa ularga yangi narsalarni o‘rganishga va ijodkorlikni faollashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, individual yoki guruh loyihiborlarini amalga oshirayotganda, talabalar o‘z vaqtlarini qanday boshqarishni, vazifalarni birinchi o‘ringa qo‘yishni, muloqot qilishni, boshqalar bilan yaxshiroq ishlashni va boshqa ko‘p narsalarni biladilar.
- **Talabalarning tushunishini tekshirish** – baholar va imtihonlar nimadir deyishi mumkin, lekin talabaning o‘rganish qobiliyati va bilimi haqida butunlay bilish degani emas (ayniqsa, agar test sinovlari paytida yashirinchcha tarzda bo‘lsa). Innovatsion o‘qitish g‘oyalari o‘qituvchilarga darslarni kuzatish va o‘quvchilari eng mos yechimlarni topish uchun nima bilan kurashayotganini yaxshiroq bilish imkonini beradi.
- **O‘z-o‘zini baholashni takomillashtirish** - o‘qituvchilarning ajoyib usullari bilan talabalar nimani o‘rganganlarini va nima yetishmayotganini tushunishlari mumkin. Hali ham bilishlari kerak bo‘lgan narsalarni kashf qilish orqali ular nima uchun muayyan narsalarni o‘rganish kerakligini tushunishlari va buni amalga oshirishga ko‘proq ishtiyoqlarini oshirishlari mumkin.
- **Auditoriyani jonlantirish** - auditoriyada faqat pedagogning juda ham baland ovozi yoki noqulay jum-jitlik hukmron bo‘lishidan qochish

kerak. Innovatsion usullardan foydalanish esa talabalarni emotsiyalarini harakatga keltirishiga, mulohaza qilishiga va erkin muzokara qilishga undaydi.

Innovatsion o‘qitish turlaridan foydalangan holda o‘qituvchilar o‘z darslarini an’anaviy o‘qitish usullaridan qo‘chib, talabalar uchun turli yondashuvlarni topishga harakat qilmoqdalar. Mashg‘ulotlar vaqtida ko‘proq talabaning ishtirok etishlarini ta’minlashga erishishmoqda. Jadal rivojlanayotgan ta’lim sohasida katta o‘zgarish, pedagogning o‘z mutaxassislik fanlarini doimiy tarzda hozirgi zamon strategiyalarga munosib tarzda tashkil qilishi lozim. Quyidagi ro‘yxatda jahon miqyosidagi oliy ta’limlarida qo‘llanilayotgan ayrim innovatsion o‘qitish turlarini keltiramiz:

- interfaol darslar
- virtual haqiqat texnologiyasidan foydalanish
- o‘qitishda AIdan foydalanish
- aralashtirilgan o‘rganish
- 3d bosma
- dizayn fikrlash jarayonidan foydalanish
- loyiha asoslangan ta’lim
- so‘rovga asoslangan ta’lim
- boshqotirma
- bulutli hisoblash bo‘yicha o‘qitish
- teskari guruh
- tengdoshlar o‘qitishi
- **krossover o‘qitish**

O‘qitishning innovatsion uslublardan foydalanish, “To‘qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozları” fanlarida ham bilim va ko‘nikmalarni berishning muhim jihatidir. Bu fan bilan bog‘liq murakkab tushunchalarni o‘rganish va o‘zlashtirishga yordam beradi. To‘qimachilik, ipakchilik va jihozlarini o‘rganish ko‘p yillar davomida yengil sanoat tizimining bir qismi bo‘lib kelgan, ularni o‘rgatishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish, talabaning sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko‘nikma va bilimlarni o‘zlashtirishlarini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Fanlarini o‘rgatish nafaqat texnik ko‘nikmalarni etkazish, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishdan iborat. O‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan



pedagogik yondashuv o‘quvchilarning o‘rganish tajribasi va natijalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida o‘qituvchilarning o‘qitish samaradorligini oshirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan ba’zi usullarni muhokama qilamiz.

Interfaol o‘qitish usullariga misollar:

1. Faol ta’lim: Sinfda faol o‘rganish strategiyalarini kiritish o‘quvchilarni jalg qilishi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Faol ta’lim usullarining ayrim misollari guruh muhokamasi, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosida o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

2. Differentsial ta’lim: Talabalar turli darajadagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Differentsiallashtirilgan ta’lim strategiyalaridan foydalangan holda, o‘qituvchilar har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun o‘qitishni moslashtirishi mumkin. Bu o‘quv materiallarini moslashtirish yoki kontentni etkazib berish tezligini o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Texnologiya integratsiyasi: Texnologiya integratsiyasidan turli yo‘llar bilan foya olishlari mumkin, masalan, tadqiqot uchun onlayn resurslardan foydalanish yoki loyihalarga kompyuter yordamida dizayn dasturlarini kiritish. O‘qituvchilar texnologiyadan talabalarning faolligini oshirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishlari mumkin.

4. Assisment usuli: Baholash samarali pedagogikaning muhim tarkibiy qismidir, chunki u o‘quvchilarning muvaffaqiyati haqida fikr bildiradi va o‘qitish amaliyoti haqida ma’lumot beradi. Formativ baholash va o‘z-o‘zini aks ettirish kabi ta’lim strategiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchilar talabalarning ta’lim natijalarini doimiy ravishda yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Innovatsion o‘qitish turlariga misollar:

3D bosma usuli: 3D bosma usulidan foydalanish bu ayniqsa labaratoriya darslarini yanada qiziqarli qiladi va talabalarga yangi narsalarni yaxshiroq anglashini ta’minlaydi. Bu usulda mashg‘ulotlarni o‘tish auditoriyani chin ma’noda jonlantiradi, darslik yoki qo‘llanma asosida olib boriladigan darsdan tubdan farqlanadi. 3D bosib chiqarish o‘quvchilarga haqiqiy olib boriladigan jarayonni tushunish imkonini beradi va ularning tasavvurlarini faollashtiradi. Masalan, talabalar pilladan ipak tola olinishigacha bo‘lgan jarayonni bosqichma bosqich

ko‘rishi, go‘yoki shu uzoq jarayonni oz fursatda shakllanishini his etish imkonini beradi.

So‘rovga asoslangan ta’lim: so‘rovga asoslangan ta’lim ham faol ta’limning bir turi hisoblanib, mazkur usuldan ma’ruz.a darslarida foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunda ma’ruza o‘rniga savollar, muammolar yoki ssenariylarni taqdim etish orqali darsni boshlanadi Bu jarayonda muammni o‘rganish va yechimini topish olib borilib, o‘qituvchi ma’ruzachi emas balki, yordam beruvchi obrazida bo‘ladi. Talabalar javob topish uchun mavzuni mustaqil yoki guruhlarga bo‘linib, tahlil qilishlari lozim. Bu usul ularga muammoni hal qilish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga, tanqidiy fikrlashga turtki bo‘ladi.

Krossover o‘qitish: har qanday dars jarayoni auditoriyadan tashqari holatda o‘tkazilishi, an’anaviy ta’lim tarzidan umuman farq qiladi. Bu o‘qitish usuli auditoriyada ham tashqarida ham o‘zlashtirishni birlashtirish usuli hisoblanadi. Bu uslubdan labaratoriya va mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin. Darslarda o‘rganilgan mavzularni real muhitda qay tarzda ishlashini kuzatish mumkin bo‘lgan manzillarga boorish crossover o‘qitish usulidir. Tashrifdan keyin yaxshi natija olish uchun olingan taasurotlarni muhokama qilinadi yoki guruhlarga bo‘linib fikrlar almashinadi. Ba’zan tashqariga chiqish imkoniyati bo‘limganda, virtual tarzda auditoriyada zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishda raqamli texnologiyalardan va innovatsion o‘qitishdan foydalanish yangicha yondashuv hisoblanadi. Bunda faqat o‘qituvchining aktivligi emas, o‘quvchining va guruh faolligi ham yuqori bo‘ladi. Mazkur metodlar talabaning mustaqil ravishda izlanib mavzuni o‘rganishidan tashqari muammoni ko‘ra olish, uni yechimini topa olishlik iqtidorini va boshqaruvchanlik hususiyatini shakllantiradi. Talaba izlanib, o‘rganayotgan fani tog‘risida mustaqil ravishda qo‘srimcha malumotlar izlab topadi. Olib borilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar yaqin kelajakda yoshlarni o‘z yo‘nalishi bo‘yicha dunyo miqyosidagi talab etiladigan standartlarini qanoatlantiradigan darajada haqiqiy mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tog‘risidagi qonuni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
3. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ma`ruzalar.
4. Валиев Г. Н., Орипов Ж. И., Валиев Н. Г., М. Турдиев М., Хомидов В.О. Технология снижения дефектности намотки шелковых нитей на крутильных машинах // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, научно-технические технологии и материалы (SMARTEX – 2021): сборник материалов XXIV международного научно-практического форума (Иваново, 12-14 октября 2021 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2021. – 370 с., с. 12-16.
5. Валиев Г. Н. Структура, новые параметры слоя намотки мотальной паковки и теоретические зависимости их определения // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, научно-технические технологии и материалы (SMARTEX – 2021): сборник материалов XXIV международного научно-практического форума (Иваново, 12-14 октября 2021 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2021. – 370 с., с. 17-23.
6. Valiev G. N., Khomidov V. O. Study of the Shape of a Balloon of Natural Silk Thread When Winding From a Fixed Packing // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). Vol. 7, Issue 8, August - 2020. – 14733-14737pp.
7. Валиев Г.Н. Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на её основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика её определения // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности. – 2018. - № 3. – с. 106-113 (SCOPUS, CAS(pt)).
8. Khatamova Z. N. ,Mirzayeva D. Y. The role of pedagogy in the teaching of sewing construction subjects// konfer. maqola
9. Dr. Damodharan V. S. ACCA, AICWA and Mr. Rengarajan.V AICWA, Innovative Methods of Teaching
10. Mutaliyeva A.Sh. Axtanova S.K. Педагогика XXI века: инновационные методы обучения. Universum: психология и образование : электрон. научн. журн 2020. № 3 (69).

11. Guzeyev V.V. Планирование результатов образования и образовательная технология. - М.: Народное образование, 2010.
12. Jukov G.N. Основы общей профессиональной педагогики: Учебное пособие. - М.: Gardariki, 2015.
13. Глоссарий современного образования (терминологический словарь) // Народное образование, 2007, № 3.
14. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darsslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.
15. Maxsudov P. M. va b. Использование метода «ассесмент» при предварительной оценке знаний студентов //Высшая школа. – 2015. – №. 9. – С. 52-54.
16. <https://ahaslides.com/uz/blog/15-innovative-teaching-methods/>
17. <https://ahaslides.com/uz/blog/idea-generation-process/>



Research Science and Innovation House

DIAGNOSTIK KORONAROGRAFIYA AMALIYOTIDA “KARDIAL SINDROM Y”

RKIATM Jizzax filiali, t.f.d Kurbanov N. A, Abduraxmanov S. M

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurak eshimik kasalliklarini koronarografiya amaliyoti yordamida tashxislash, “kardial sindrom” va ularni davolash chora tadbirlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Koronarografiya, yurak eshimik kasalliklari, miokard infarkti, stenokardiya, koronar arteriya, EKG, konservativ davolash, instrumental tekshiruv, qorinchalar fibrillyasiyasi.

Аннотация. В данной статье представлена информация о диагностике ишемических заболеваний сердца с помощью коронарографии, “кардиал синдром” и мерах их лечения.

Ключевые слова. Коронарография, ишемическая болезнь сердца, инфаркт миокарда, стенокардия, коронарная артерия, ЭКГ, консервативное лечение, инструментальное обследование, фибрилляция желудочков.

Abstract. This article provides information on the diagnosis of ischemic heart diseases using coronary angiography and measures for their treatment.

Key words. Coronary angiography, ischemic heart disease, myocardial infarction, angina pectoris, coronary artery, ECG, conservative treatment, instrumental examination, ventricular fibrillation.

Hozirga kelib yurak ishemik kasalliklarini aniqlash va tashxis qo‘yish, bemorlarda davolash usulini tanlashda koronarografiya amaliyoti kardiologiya yo‘nalishida “oltin standart” hisoblanadi. Bu usul koronar arteriyalarning anatomik tuzilishi, zararlanish mavjudligi va zararlanish xajmini aniq baholash imkonini beradi. Har bir invaziv tekshiruv usulida asorat kuzatilishi mumkin bo‘lgani kabi diagnostik koronarografiya amaliyotida ham asoratlar kuzatilib turadi. Amaliyotda kuzatilishi mumkin bo‘lgan asoratlardan miokard infarkti, bosh miya qon aylanishi o‘tkir buzulishi, kontrast moddaga allergik reaksiya, koronar arteriyalarining perforatsiyasidan tashqari qorinchalar fibrillyasiyasi 0,20-0,40% hollarda uchrab turadi. Ularning 80% i bemorda asistoliya kuzatilishi bilan yakunlanadi va bu asosan yurakdagi patologik jarayon hajmiga ham bog‘liqdir. Qorinchalar fibrillyasiyasining

keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar surunkali yoki o‘tkir yurak yetishmovchiliklari, nostabil stenokardiya, o‘tkir miokard infarkti kabi og‘ir xolatlar hisoblanadi. Lekin yurakda, koronar arteriyalarda og‘ir patologik o‘zgarishlar bo‘lmagan hollarda xam kichik rivojlangan o‘ng koronar arteriyaga yoki uning proksimal yon tarmog‘iga ko‘p miqdorda kontrast moddaning jo‘natilishi xam qorinchalar fibrillyasiyasi kuzatilishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat kontrast moddaning sinus va AV tuguniga to‘g‘ridan to‘g‘ri reflektor vagus ta’siri bilan izohlanadi.

Yurak ishemik kasalliklaridan miokard infarkti yoshlarda uchrashi kamdan kam kuzatilib, asosiy keltirib chiqaruvchi sabablardan nokoronarogen kasalliklar orasida virusli miokardit alohida o‘rin tutadi. Bu kasallik patogenezida koronar arteriyalarning mikrotomir darajasida zararlanishi natijasida qon oqimining susayishi fenomeni (Coronary Slow Flow Phenomenon – CSFP), yoki boshqacha aytganda kardial sindrom Y (Cardiac Syndrome Y – CSY) yotadi. Bunda koronar arteriyalarda qon oqimining mikrovaskulyar tomirlar qarshiligining ortishi (tomir endoteliysini zararlanishi bilan izohlanadi) miokard infarkti kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu sindrom bemorda og‘riqning uzoq davomiyligi, tinch holatda ham paydo bo‘lishi, erkak jinsi va yoshlarda kuzatilishi, zo‘riqishli sinamaning manfiy natijasi, angiografiyada koronar tomirlarda patologik o‘zgarishlar aniqlanmasligi yoki kontrast (qon) oqimining yaqqol sekinlashuvi bilan kuzatiladi.

Bemor Asqarov Sh. 42 yosh. Shikoyatlari to‘s sh ortidagi achishuvchi xarakteridagi og‘riqlarga, og‘riqlarning jismoniy xarakatga bog‘liq bo‘lmagan holda xolda bo‘lishiga, og‘riq vaqtida nafas qisishi va sovuq ter bosishi belgilari bo‘lishiga, to‘satdan darmonsizlik kuzatilishiga shikoyat qilib kelgan. Anamnezidan bemor o‘zini 2 yildan buyon kasal hisoblaydi. Kasalligini 2 yil avval o‘tkazgan covid-19 virusli kasalligi bilan bog‘laydi. Bemorda kasallik to‘s sh ortida og‘riq kuzatilishi bilan boshlangan. Bemor kardiolog shifokori tavsiyasiga ko‘ra Roksera 20mg, Niperten 2,5mg, Kardiomagnil 75mg qabul qilib yurgan. Oxirgi 20 kun ichida bemor tabletkalarni qabul qilishni to‘xtatganidan so‘ng shikoyatlar kuchayganligi sababli markazimizga koronarografiya amaliyotidan o‘tkazish maqsadida yotqizilgan. Ob’ektiv ko‘rikda umumiy axvoli o‘rta og‘irlikda, tana tuzilishi giperstenik tipda, IMT-32,9. Nafas olishi erkin, o‘pkasida vezikulyar nafas eshitiladi. Yurak chegaralari o‘zgarishsiz, tonlari bo‘g‘iqlashgan, ritmik, patologik shovqinlar eshitilmaydi. AQB 130/80 mm.sim.ust. YuQS 78 marta/daqiqada. Ovqat hazm qilish tizimida o‘zgarishlar aniqlanmadı.



Bemorda laborator tekshiruvlardan gemoglobin-162 g/l (n-130-160); eritrosit-5,91·1012/l (n-4,0-5,0); gematokrit-44,6% (n-40-48); trombosit-188·109/l (n-180-320); trombokrit-0,159% (n-0,108-0,282); leykosit-14,7·109/l (n-4-9); limfosit-2,9·109/l (n-0,8-4,0); Umumiy xolesterin-4,0 mmol/l (n-<5,2); mochevina-4,7mmol/l (n-2,5-8,3); kreatinin-90mkmol/l (n-44-115); umumiy bilirubin-12,0 (n-3,4-20,5); bog‘langan bilirubin-3,0 (n-0,86-5,3); ALT-30Ed/l (n-<40); AST-27 Yed/l (n-<35); Glyukoza-4,74mmol/l (n-3,2-6,1); Kaliy-3,10 mmol/l; Natriy-131,5mmol/l; Kal’siy-0,46mmol/l; Koagulogrammada PTI-85%; PTV-13,8 sek/%; MNO-1,12%; QFTV-35,3 sek; Fibrinogen-4,0 g/l; Troponinga test-manfiy. Natriyuretik peptid-550 pg/ml.

Instrumental tekshiruvlardan EKGda PQ-0,16 sek., QRS-0,04 sek., QT-0,36 sek., ritm sinusli, yurak qisqarishlari soni 1 daqiqada 80 ta, chap qorincha gipertrofiyasi belgilari va chap qorincha orqa devorida (III, avF tarmoqlarda) manfiy T tishcha ko‘rinishidagi koronar yetishmovchilik belgisi aniqlangan.

ExoKG tekshiruvida Ao-3,5; ChB (LP)-3,7x5,0sm; ODO‘(KDR)-4,3sm; OSO‘(KSR)-2,9sm; QAT(tMJP)-1,4sm; ChQOD(tZSLJ)-1,3sm; O‘Q(PJ baz)-3,8 sm; ChQO(massa LJ)-222,37g; ODH(KDO)-83,8ml; OSh(KSO)-34,5ml; ZH(UO)-49,3ml/m²; OF(FV)-59,0%; PP(PP)-3,1x4,4sm; E/A-0,89; MTM(plosh MO)-5sm²; ATM(plosh AO)-2,7sm².

Xolter EKG monitoring xulosasida monitoring davomiyligi 20:22:12 soat, analiz uchta asosiy ularish orqali o‘tkazildi. Monitoring davomida 80666 kompleks qayd etilgan, artefaktlar 1,73% (1398). Asosiy ritm sinusli, shundan yakka qorinchalar ekstrasistoliyasi, yakka va juft supraventrikulyar ekstrasistoliyasi bilan bo‘lingan. O‘rtacha yurak qisqarishlar soni 65 ta/daq. Minimal yurak qisqarishlar soni 50 ta/daq (12:42:18), maksimal yurak qisqarishlar soni 99 ta/daq (19:33:42). Maksimal R-R interval (sinusli) 1364 ms(13:34:28)ni tashkil etgan. Qorinchalar ekstrasistoliyasi 63 ta, yakka, monotop, kunduzi 62 ta, tunda 1 ta. Supraventrikulyar ekstrasistoliyasi 20 ta, kunduz 11 ta, tunda 9 ta, 18 ta yakka va 1 ta juft aniqlangan. ST segment analizi: diagnostik sezilarli va ishonchli (1mm depressiya/2mm elevasiya va davomiyligi 1 daqiqadan ko‘p bo‘lgan) ST segment dinamikasi aniqlanmagan.

Bemorda koronarografiya tekshiruvi xulosasida LMCA (SLKA) – o‘zgarishsiz. LAD (PNA) – o‘zgarishsiz. Cfx (OA) – og‘iz qismida 45-55% stenoz. RCA (PKA) – o‘zgarishsiz. Miokard qon aylanish turi: O‘ng. Xulosa: Koronar

tomirlar aterosklerozi. Koronar tomirlarda sezilarli zararlanishlar aniqlanmadi. Qon oqimi sustligi (TIMI – II). Selektiv koronarografiya amaliyotidan keyingi holat. Bemorda angiografiya qilish vaqtida kontrast moddaning xarakati sustligi kuzatilib, o‘ng koronar arteriyasini tekshirish vaqtida bemorda kichik voltajli qorinchalar fibrillyasiyasi kuzatildi. Koronarografiya amaliyoti to‘xtatilib, birinchi yordam sifatida 180 kDjoul kuchlanish bilan elektrokardiodefibriliyasiya amaliyoti qo‘llanilganda bir urunishda sinus ritmi tiklandi. Bemor kuzatish maqsadida kardioreanimasiya bo‘limiga o‘tkazildi.

Bo‘limda bemorga β -blokatorlar, antiagregant, antiaritmik, antikoagulyant, antiishemik, metabolik preparatlar buyurilgan. Bemor konservativ davolashdan so‘ng ijobiy o‘zgarishlar bilan kasalhonadan chiqarilgan.

Xulosa qilib aytganda asosan yosh erkaklarda virus etiologiyali yallig‘lanish kasalliklaridan so‘ng koronar arteriyalarning endoteliy qavati zararlanishi tufayli stenokardiya hurujlarining bo‘lishi va kam hollarda miokard infarkti bilan asoratlanishi kuzatiladi. Bunda diagnostik koronarografiya tekshiruvi vaqtida kontrast moddaning arteriyalarda turib qolishi xisobiga hayot uchun havfli aritmiyalar (qorinchalar fibrillyasiyasi) kuzatilishi qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Феномен замедленного коронарного кровотока, или кардиальный синдром Y», А.Шариф-Яқан, Д.Дивчев, У.Траутвейн, К.А.Нинабер, Кардиологическая отделение Университетской клиники, Росток, Германия, журнал Кардиология 2015й, №2.
2. «Виды осложнений чрескожных коронарных вмешательств у больных ишемической болезнью сердца», Б.Г.Алекян, А.В.Стаферов, Н.В.Закарян, Х.Г.Фозилов, журнал «Грудная и сердечно-сосудистая хирургия», Москва 2010й.
3. «Случай развития устойчивой фибрилляции желудочков при выполнении селективной коронарографии», М.А.Ильмова, М.А.Спицына, Л.Ю.Королева, Н.В.Аминева, Г.В.Ковалева, журнал «Медицинский альманах», Нижний Новгород, 2020й.
4. «Принципы интервенционной кардиологии», Харальд Лап, Инго Кракау, Москва 2019й.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

5. «Интервенционная кардиология» практическое руководство, Т.Н.Нгуен, Ф.Коломбо, Д.Ху, С.Л.Грайнис, Ш.Сайто, Москва 2014й.

6. «Коронарная ангиография и стентирование», под редакцией члена-корреспондента РАН А.М.Чернявского. Москва 2022й.



**Research Science and
Innovation House**





YOSHLAR TARBIYASI VA MA’NAVIY TAHDIDLAR

Pardabaev Abdukarim Ergashevich

Tarix fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan o’rinbosari
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Bu maqolada yoshlar tarbiyasi va ma’naviy tahidlarning yoshlar tarbiyasiga qiladigan va qilayotgan ta’sir va yoshlarni ma’naviy tahidlardan himoya qilish omillari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Ma’naviy tahdid, tarbiya, yoshlar, tahidlalar.

Annotation: this article provides information on the influence that youth education and spiritual threats make and do on youth education, and the factors that motivate young people from spiritual threats.

Keywords: spiritual threat, upbringing, youth, threats.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davr insonga moddiy extiyojlarini qondirish kabi birlamchi vositalar safiga ilm hamda tarbiyani xam qo‘shti. Shu tufayli inson taraqqiyot sari dadil qadam qo‘ymoqda. Koinotni zabit etishi ham aynan ilmning mahsuli ekanini bugun hech kim inkor eta olmaydi. Mustaqil mamlakatimizda insoniyatni bag‘rikenglik, poklik va mexr-oqibatga chorlovchi muqaddas dinimizni asrab-avaylashga, yosh avlodni xalqimizning milliy va diniy qadriyatlariga hurmat-ehtirom ruxida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Imam Buxoriy aytganidek: “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”. Xar qanday orzu va maqsad ham ilm hamda tarbiya bilan amalga oshadi. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta

muhim tashabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Shunday ekan, bu mashaqqatli yo‘lda sobitqadam bo‘lib, bugunning imkoniyatlardan keng foydalangan holda astoydil harakat qilaylik.

Bugungi kunda yoshlar orasida keng joriy etilgan ushbu besh tashabbusga ko‘ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘srimcha yana 1,5 mingta to‘garak tashkil etildi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Xususan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ham talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadaida 89 ta turli xildagi ilmiy, sport va badiiy to‘garaklar tashkil etilgan bo‘lib, uch minga yaqin talabalar doimiy ravishda shug‘ullanib qelmoqda. Ayniqsa bugungi kunda Zakovat intelektual o‘yiniga prezidentimiz tomonlaridan berilayotgan e’tibor tufayli institut talabalari orasida qiziquvchilar soni keskin oshib bormoqda.

O‘z navbatida, O‘zbekistondagi barcha o‘zgarishlarning negizi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtida ta’lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlari umumiyligi qiyamatining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko‘tara olmaydi. Ammo qanchalik og‘ir bo‘lmisin, buning uchun zarur mablag‘ va resurslar yurtimizda izlab topilmoqda. O‘zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo‘yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta’lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta’kidlamoqda.

Zero, yoshlar-davlat va jamiatning hal qiluvchi kuchi, ertasining egalari. Ular tomona ma’noda, O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaaho xazinasidir.

Bugungi kunda dunyoda vujudga kelayotgan murakkab vaziyatlar ya’ni, axborot ko‘lамини kengayishi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuviga tufayli hozirgi davrning mafkuraviy tahdidlar strukturasi insoniyat jamiyati va hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Mafkuraviy tahdidlar o‘z mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solib, inson ongi va qalbini buzg‘unchi g‘oyalar bilan zaharlashga harkat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatda mafkuraviy xavfsizlikni kuchaytirish chora-tadbirlariga

jiddiy e'tiborni qaratishni talab qiladi. YOt va zararli g'oyalarning ta'siri ba'zi yoshlarimizni o'zligimizdan uzoqlashtirishga, ma'naviyatimizga zid bo'lgan (axloqiy buzilishga olib keluvchi kinolarni ko'rishga qiziqish, diniy missionerlarning ta'siriga tushib qolish, giyohvandlik, odam savdosi, SPID kasalliklari kabi ko'z ilg'amas, lekin jamiyatni ichidan emiruvchi halokatli holatlar) turmush tarziga o'zлari sezmagan holda kirib ketishlariga ta'sir etmoqda shuni alohida ta'kidlash lozimki, mafkuraviy tahdidlarning o'ta xavfli jihat u, birinchi navbatda jamiyatning ma'naviy sohasini buzib tashlashga yo'naltirilgan. “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostidagi axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar yurtning taraqqiyoti, vatanning ravnaqini o'ylagan har bir fuqaroni tashvishga solmasdan qo'ymaydi. Ikki qutubli dunyoning barham topishi natijasida AQSH dunyodagi eng qudratli davlat sifatida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohada globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib borayotganligidan kelib chiqib, mafkuraviy xurujlarda uning etakchilik qilayotganligi ham sezilib qolmoqda. Parijdagi siyosiy tadqiqotlar institutining professori A. Valladao Fransiyada chop etilgan “Ijtimoiy fikr” jurnalidagi maqolasida ta'kidlashicha, turli xalq va millatlar sintezi negizida shakllangan amerika jamiyatining madaniy qadriyatlari o'zga mamlakatlar qabul qilishi uchun oson kechadi. Qolaversa, ushbu davlat madaniy mahsulot ishlab chiqarish industriyasining (kino, videofilmlar, shou biznes va h.k.) bozor sharoitiga moslashuvchanligi uning deyarli butun dunyoda sherik va hamkorini topishga imkon yaratdi. Hozirda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino hamda videofilmlarning to'rtdan uch qismi Amerika mahsuloti ekani ham shundan dalolat beradi. Mafkuraviy tahdid yoki mafkuraviy tajovvuzning “ma'naviyat” niqobi ostidagi bunday xurujlari har qanday yosh, mustaqil davlatlarning barqaror taraqqiyotiga putur etkazadi. Eksport qilinayotgan Amerikacha madaniyat yoki ma'naviyatning salbiy oqibatlari nafaqat mustaqillikni endigina qo'lga kiritgan davlatlarda, balki Amerikaning o'zida ham jiddiy kuzatilmogda.

Tarixdan ma'lumki, inson ma'naviy olamining yuksakligi millat qiyofasini belgilaydi hamda jamiyatda ilm fan, madaniyat, san`at va boshqa sohalar rivojining poydevori sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaraganda, ma'naviyatning har

bir bog‘ini inson va uning takomili uchun muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz Al-Farobi, Al Maturidiy, Imom al Buxoriylar ham ma’naviy tarbiya inson va uning kamolatiga xizmat qiladigan zaruriy aqliy tarbiyaning asosida vujudga kelishini takidlab o‘tganlar. Demak, shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, ma’daniyat inson aqliy va ruhiy olami bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyaning negizini tashkil qiladi. Aql bilan ruhiyatni boshqarish tizimi esa inson tarbiyasida uning bolaligidan boshqariladigan hamda nazorat qilinadigan odob ahloqning poydevoridir.

Tahdid – jismoniy zarar ziyon, niyat sabab bir imkon xavf va hokazo. Bu tushuncha har xil yo‘llar bilan talqin qilinishi mumkin, lekin mohiyati o‘zgarmaydi. Tahdid shaxsiy vaq jamoat ma’nfatlariga jismoniy zarar uchun tahdid niyat og‘zaki yoki yozma deb hisoblanadi. Juda tez - tez internetda tahdidlarnimko‘rish mumkin. Ommaviy madaniyatga tahdid.ommaviy madaniyat nima o‘zi? Kimdir buni shu kuning modasi, xit yoki keng iste` moldagi qaysidir narsasi ko‘rinishida qabul qilishi mumkin. “Ommaviy madaniyat” ma’naviy tanazzulning deborchasidir. Uni targ‘ib qiluvchilarning asl maqsad va niyatlari ham qaysidir millat yoki xalqni ma’naviy jihatdan inqirozga uchratish bilan yengishga qaratilgan.Uzoqqa bormaylik. Atrofimizga bir qarylik. Achinarlisi shuki, bir paytlar yigitli, erkaklik g‘ururini har narsadan ustun qo‘ygan xalqning hozirgi yoshlari orasida qulog‘iga sirg‘a taqqan, tirnog‘ini o‘stirib bo‘yagan, uzun sochli yigitlarni uchratish mumkin.Yoki yorilib ketaman, deb turgan shim kiygan, yelkasiyu beli ochiq, tizzasiga yetmaydigan yubkali qizlarni oling. Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukim sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larichilikka tashab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql – idrok va tafakkur hukumron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi. Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va bir bor xalqimizning ma’naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgimo‘ta murakkabbir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, demak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

O‘z – o‘zidan ravshanki,bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon – atrofimizda mavjud bo‘lgan, tabora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh

avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shavqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi kerak.

Xulosa

bu maqolada shuni aytish mumkinki, ma’naviyatga tahdid kelajakka tahdid, demakdir. O‘zbekiston xalqi jahon taraqqiyotiga ulkan ulush qo‘sghan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, buyuk imomlar al-Buxoriy, Moturidiy, at-Termiziyy, hazrat Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning avlodidir. Ular va boshqa ulug‘larimizning ma’naviy merosini butun dunyo ahli hayrat bilan o‘rganayotgan bir paytda bizning zamonaviylik, madaniyatatlilik niqobi ostida turli yengil-elpi, ma’naviyatsizlikni targ‘ib etuvchi omillarga berilishimiz kechirilmas holdir. Bunday salbiy illatlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ularga qarshi kurashish bugunning dolzarb vazifasi bo‘lmog‘i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov, A. M. (2022). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ ЭРКИНЛИГИ. *Scientific progress*, 3(10), 4-8.
2. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). MASS MEDIA MATERIALS AS A SOURCE ON THE HISTORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(14), 605-610.
3. Serobjon U. Yuldashev (2022). SOCIO-CULTURAL FEATURES OF INCREASING THE INNOVATIVE ACTIVITY OF PERSONNEL. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2 (1), 36-43. doi: 10.37547/supsci-ojss-02-01-05
4. Расулов, А. М. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИҚТИСОДИЙ ИСЛОХОТЛАРДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Scientific progress*, 2(1), 1568-1572. 6.Расулов, А. М. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТАРИХИДА ОММАВИЙ

**Research Science and
Innovation House**

**Challenges and solutions of using authentic materials
for improving students' productive competences
in English language learning**

Barno Shukurullayeva Bakhtiyor kizi

1st course Phd student, EFL teacher

in English language and

literature department of the

Gulistan State University

E-mail: barnoshukurullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish turli xil o'qitish usullari, yondashuvlari va texnikasi bilan ajoyib ish deb hisoblanadi. Bu jarayonda authentik materiallardan foydalanish o'qitish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va jonli qiladi. Shunga qaramay, o'qituvchilar ulardan foydalanishda turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ushbu maqolada ingliz tili sinflarida autentik materiallardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'rganib chiqildi va ularni hal qilishning muhim yo'llarini taklif qilishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: autentik materiallar, haqiqiylik, foyda, nutqni o'rgatish, yozishni o'rgatish, til o'rganuvchilar.

Abstract. Teaching English as a foreign language is assumed that as great job with various teaching methods, approaches and techniques. In this process, using authentic materials makes teaching and learning process more interesting and vibrant. Even though, teachers may face various challenges using them. This article is researched that possible difficulties of utilizing authentic materials in English classrooms and tried to suggest substantial solutions to them.

Key words: authentic materials, authenticity, benefits, teaching speaking, teaching writing, language learners.

Аннотация. Преподавание английского языка как иностранного предполагает большую работу с использованием различных методов, подходов и приемов обучения. При этом использование аутентичных материалов делает процесс преподавания и обучения более интересным и



ярким. Несмотря на это, учителя могут столкнуться с различными проблемами при их использовании. В этой статье были исследованы возможные трудности использования аутентичных материалов на занятиях по английскому языку и предпринята попытка предложить существенные решения этих проблем.

Ключевые слова: аутентичные материалы, аутентичность, преимущества, обучение говорению, обучение письму, изучающие язык.

The use of authentic materials can have a beneficial impact on students' productive competences and specifically speaking and writing skills. To include authentic materials into English language lessons effectively, it is important to follow several linguodidactic principles regarding the choice of materials. Authenticity represents the first principle, meaning that the use of real language in real communicative situations should be reflected in the chosen materials. Examples of authentic materials are newspapers, magazines, advertisements, podcasts, videos, songs, or even posts on social media. Authenticity allows students to understand language forms, idiomatic expressions, and cultural-specific connotations. Relevance is another principle that means that authentic materials should reflect learners' interests, needs, and proficiency levels. It will encourage learners to acquire new knowledge and make new connections. Additionally, it is significant to take into account learners' age, cultural background, and personal preferences. In addition to this teacher should create tasks or activities that foster students' engagement with authentic materials in task-based language teaching. A possible activity following the listening to a podcast or a video might be a formal discussion, role-play, or a debate on the subjects touched in the source. Such approach allows students to communicate meaningfully and mobilize their language resources.

Using authentic materials is considered as a language awareness to draw students' attention to the language they have encountered, such as vocabulary, grammar patterns, or discourse rules. Students should reflect on the contextual use of a particular linguistic feature and select the features which are applicable to their own communicative objectives.

The cultural context of the authentic materials can help students develop cultural awareness and intercultural understanding. Particularly, they can compare and



contrast cultural aspects in the target language and their primary language by discussing the authentic texts in class. Thus, the students develop empathy and social interactions. Teachers can modify adapted authentic materials to cater to all students' varied needs and learning styles. But they should scaffold and assist as necessary, more so when dealing with students with limited-proficiency levels and provide advanced students with extension and enrichment moves to push the limits of their learning. However, there are many problems when authentic materials are used for writing instruction in EFL classes. Such problems can be solved by various strategies and solutions. Authentic materials could be either too complex or not adapted to EFL students' proficiency levels. They include language structures, vocabulary, and cultural references that EFL students cannot fully understand or use, which could result in comprehension problems and lack of motivation. Some authentic materials might not be available for particular age group of EFL writers. For example, newspapers and magazines are not always in open access, and many young EFL language professionals may have limited online subscriptions. Furthermore, certain books in English are not translated into other languages, and EFL writing students from non-English-speaking countries may be prohibited from using digital resources.

Cultural disconnect is one of the crucial problem for EFL learners and they may lack the background knowledge necessary to understand the cultural specifics behind an authentic text, including references or various context-specific details. It reduces their chances of identifying with the material and producing their culturally appropriate writing.

By addressing these issues with specific solutions, EFL teachers may effectively use authentic resources to improve students' writing skills, linguistic competency, and cultural competence.

When teachers implement the real resources into teaching speaking in EFL classrooms, they may face many problems, as well as solutions to overcome them. When using authentic materials in speaking exercises, EFL learners may feel frightened or lack confidence, especially if they believe the language is too difficult or unfamiliar. Furthermore authentic materials like audio recordings or movies may provide few opportunities for interactive speaking practice, especially in classrooms with large student populations or limited resources.



Selecting authentic resources are appropriate for students' competency levels and interests, and then adjust them as needed to reduce linguistic complexity while maintaining authenticity and providing scaffolding, such as pre-teaching is important for vocabulary or phrases, to assist understanding and spoken communication. Language and cultural ideas should be taught related to the real material ahead of time to help students understand and feel more confident. They should be simplified or adjusted the information to meet the learners' competency levels while remaining authentic.

Interactive Speaking Tasks are thought that for creating speaking exercises that encourage student participation and cooperation. They can be include role-playing, debates, simulations, and pair/group discussions to provide students plenty of opportunity to practice speaking in genuine settings.

Guided Practice is also advisable via dividing the real information into digestible chunks and offer guided practice exercises to assist students comprehend and absorb language structures, vocabulary, and cultural allusions. Cultural knowledge should be provided to increase cultural knowledge and sensitivity by addressing cultural elements embedded in real content. Encouraging students to express their thoughts and experiences, impacts on resulting in a better knowledge of cultural differences and commonalities.

Pronunciation practice is considered as the biggest challenge by many language learners so teacher should try to incorporate targeted pronunciation practice into speaking activities, emphasizing difficult consonants, stress patterns, and intonation. In this situation drills, tongue twisters, and repetition exercises can help language learners develop their pronunciation abilities gradually. Addressing these problems with specific solutions allows EFL teachers to effectively use the benefits of authentic resources to improve students' speaking abilities, fluency, cultural competency, and confidence in using English in real-world circumstances.

CONCLUSION

Utilizing authentic materials in reaching writing and speaking skills requires carefulness by the teacher although they have various advantages for teaching process. Both teachers and language learners can face various challenges when implementing real materials to the lesson. Authentic materials can inform the learners about real life situations and using the authentic language and in short they



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

feel the target language fully by real materials. In the same time they may have a difficulty with cultural differences, complex language structures or unfamiliar vocabulary. But teachers should prevent expected problems in advance or try to solve them effectively. They should choose authentic materials according to learners' age, level and other factors and undoubtedly they meet the learners' needs. Then teacher achieve to a lesson objectives and the students engagement to the lesson easily.

REFERENCES

1. Sundana, G. P. (2017). The Use of Authentic Material in Teaching Writing Descriptive Text. English Review: Journal of English Education, 6(1), 81–88.
2. Tety, J. L. (2016). Role of Instructional Materials in Academic Performance in Community Secondary Schools in Rombo District (Dissertation). University of Arizona
3. Marpaung, M. S., & Situmeang, H. J. P. (2020). Enhancing Students' Vocabulary through Authentic Materials and Multimedia. Acuity: Journal of English Language Pedagogy, Literature and Culture, 5(2), 1–16.
4. Melouah, A. (2013). Foreign Language Anxiety in EFL Speaking Classrooms: A Case Study of First-year LMD Students of English at Saad Dahlab University of Blida, Algeria.
5. <https://www.jrie.org/current-issue>
6. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/2379>
7. <https://academicsresearch.ru/index.php/ispcottosp/article/view/1274>

Research Science and Innovation House



TURIZMGA SUN'iy INTELLEKT TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТУРИЗМ

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON TOURISM

Ergashalieva Muslima

Guruh: TOUP 53U talaba

elektron pochta: ergashaliyevamuslima4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellektning (SI) turizm sohasiga ta'sirini o'rGANADI. Tadqiqot usullari sifatida adabiyotlar tahlili va misollarni o'rGANISH qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadi, SI turizm kompaniyalariga mijozlar bilan muloqotni yaxshilash, sayohat tajribasini optimallashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, SI inson ishtirokisiz qarorlar qabul qilish va maxfiylik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Maqola turizm sohasida SI-dan foydalanishning afzalliklari va potensial muammolarini muhokama qiladi hamda kelajakdag'i tadqiqotlar uchun tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, turizm, chatbotlar, tavsiya tizimlari, maxfiylik

Аннотация: В этой статье исследуется влияние искусственного интеллекта (ИИ) на индустрию туризма. В качестве методов исследования использовались анализ литературы и тематические исследования. Результаты показывают, что СИ позволяет туристическим компаниям улучшать взаимодействие с клиентами, оптимизировать впечатления от путешествий и повышать операционную эффективность. Однако СИ может создавать проблемы с принятием решений и конфиденциальностью без участия человека. В статье обсуждаются преимущества и потенциальные проблемы использования СИ в туризме, а также даются рекомендации для будущих исследований.

Ключевые слова: искусственный интеллект, туризм, чат-боты, системы рекомендаций, конфиденциальность

Abstract: this article explores the impact of artificial intelligence (SI) on the tourism industry. Literature analysis and example studies have been used as research methods. The results show that SI allows tourism companies to improve customer communication, optimize their travel experience, and improve operational efficiency. At the same time, SI can cause decisions and privacy problems without human participation. The article discusses the benefits and potential challenges of using SI in tourism and provides recommendations for future research.

Keywords: artificial intelligence, tourism, chatbots, recommendation systems, privacy

KIRISH

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, biznes va iste'molchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Turizm sohasi ham bundan mustasno emas. Chatbotlar, tavsiya tizimlari va boshqa SI yechimlarining paydo bo'lishi sayohatchilar tajribasini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, SI-ning turizm sohasiga kirib kelishi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan, ishchi o'rinalarining qisqarishi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar [1]. Ushbu maqolaning maqsadi SI-ning turizm sohasiga ta'sirini o'rganish, uning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishdir.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqot uchun biz mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qildik va turizm sohasida SI-dan foydalanishning real misollarini o'rgandik. Biz Google Scholar, Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalaridan foydalanib, “sun'iy intellekt”, “turizm”, “chatbotlar”, “tavsiya tizimlari” kabi kalit so'zlar bo'yicha qidiruv o'tkazdik. Natijada 50 dan ortiq tegishli maqola va tadqiqotlar topildi, ularning aksariyati so'nggi 5 yil ichida chop etilgan.

Shuningdek, biz turizm sohasidagi yetakchi kompaniyalar, jumladan, Booking.com, Expedia va Airbnb tajribasini o'rgandik. Bu kompaniyalar allaqachon chatbotlar, tavsiya tizimlari va boshqa SI yechimlarini muvaffaqiyatli joriy qilgan [2][3].

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, SI turizm kompaniyalariga bir qator afzalliklar taqdim etadi:

- Mijozlar bilan muloqotni yaxshilash: Chatbotlar va virtual yordamchilar mijozlarga 24/7 qo'llab-quvvatlash va tezkor javob berish imkonini beradi [4]. Bu mijozlar mammuniyatini oshiradi va kompaniyaning resurslarini tejaydi.
- Sayohat tajribasini optimallashtirish: SI asosidagi tavsiya tizimlari sayohatchilarga ularning qiziqishlari va afzalliklariga moslashtirilgan takliflarni taqdim etishi mumkin [5]. Bu sayohat tajribasini shaxsiylashtirishga yordam beradi.
- Operatsion samaradorlikni oshirish: SI yordamida kompaniyalar resurslarni optimallashtirishi, biznes jarayonlarini avtomatlashtirishi va xarajatlarni qisqartirishi mumkin [6]. Masalan, mehmonxonalar dasturlari odam aralashuviz rezervasiyalarni boshqarishi mumkin.

Shu bilan birga, SI bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

Ishchi o'rinalining qisqarishi: SI ayrim vazifalarni avtomatlashtirishi va natijada ba'zi ishchi o'rinalining yo'qolishiga olib kelishi mumkin [7]. Bu, ayniqsa, pastroq malakali ishchilar uchun muammo bo'lishi mumkin.

Maxfiylik va xavfsizlik xavotirlari: SI shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashni ko'p talab qiladi, bu esa maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [8].

Inson ishtirokisiz qarorlar: Ba'zi hollarda, SI tizimlari odam aralashuviz qarorlar qabul qilishi mumkin, bu esa noto'g'ri yoki noxolis qarorlarga olib kelishi mumkin [9].

MUHOKAMA

SI-ning turizm sohasiga kirib kelishi sohaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kompaniyalar SI-dan mijozlar tajribasini yaxshilash, operatsion samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, SI bilan bog'liq muammolarni, jumladan, ishchi o'rinalining qisqarishi va maxfiylik masalalarini hisobga olish muhimdir.

Turizm kompaniyalari SI-ni joriy qilishda ehtiyojkorlik bilan yondashishlari va uning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun choralar ko'rishlari kerak. Bu ishchilarni qayta o'qitish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va SI tizimlarini shaffof va xolis qilish kabi tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

TAHLIL

Sun'iy intellektning turizm sohasiga ta'sirini tahlil qilganda, uning bir qator afzalliklarini va potensial muammolarini aniqladik. Chatbotlar va virtual yordamchilar kabi SI yechimlarining joriy etilishi mijozlar bilan muloqotni yaxshilash va kompaniyalarning resurslarini tejash imkonini beradi. Booking.com va Airbnb kabi yetakchi turizm kompaniyalarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, SI mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish va ularning sayohat tajribasini optimallashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi [2][3].

Shuningdek, SI kompaniyalarga operatsion samaradorlikni oshirish va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu xarajatlarni qisqartirishi va raqobatbardosh ustunlikka erishishga yordam berishi mumkin [6]. Biroq, SI-ning joriy etilishi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, SI ayrim vazifalarni avtomatlashtirishi va ba'zi ishchi o'rinalarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa pastroq malakali ishchilar orasida [7]. Bu muammoni hal qilish uchun kompaniyalar ishchilarni qayta o'qitish va ularga yangi ko'nikmalarini o'rgatishga e'tibor qaratishlari kerak.

Ikkinchidan, SI shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslashni ko'p talab qiladi, bu esa maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqaradi [8]. Turizm kompaniyalari ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va mijozlarning maxfiyligini himoya qilish uchun tegishli choralar ni ko'rishlari kerak.

Uchinchidan, ba'zi hollarda SI tizimlari odam aralashuviz qarorlar qabul qilishi mumkin, bu esa noto'g'ri yoki noxolis qarorlarga olib kelishi mumkin [9]. Buni bartaraf etish uchun kompaniyalar SI tizimlarini shaffof va xolis qilishlari, shuningdek inson nazoratini ta'minlashlari lozim.

Tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, SI turizm sohasi uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ammo uning salbiy oqibatlarini hisobga olish va boshqarish juda muhimdir. Turizm kompaniyalari SI-ning afzalliklaridan foydalanishlari va raqobatbardosh bo'lib qolish uchun uni joriy qilishlari kerak. Shu bilan birga, ular SI bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun proaktiv choralar ko'rishlari lozim, jumladan, ishchilarni qayta o'qitish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va SI tizimlarini shaffof qilish kabilar.



XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt turizm sohasi uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ammo u bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Turizm kompaniyalari raqobatbardosh bo'lib qolish uchun SI-ning afzalliliklaridan foydalaniishlari kerak, shu bilan birga uning salbiy oqibatlarini boshqarishga e'tibor qaratishlari lozim. Kelajakdagi tadqiqotlar SI-ning turizm sohasiga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganishi va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

1. Ivanov, S., & Webster, C. (2019). Robots in tourism and hospitality: Key findings from a global study. *Tourism Management Perspectives*, 31, 40-45.
2. Booking.com. (2020). Booking.com's Artificial Intelligence Initiatives.
3. Airbnb. (2019). How Airbnb is Using AI to Improve the Guest Experience. [Online] Available at: <https://medium.com/airbnb-engineering/how-airbnb-is-using-ai-to-improve-the-guest-experience-cb1d1e376b5f> [Accessed 10 May 2024].
4. Ukpabi, D. C., & Karjaluoto, H. (2017). Consumers' acceptance of information and communications technology in tourism: A review. *Telematics and Informatics*, 34(5), 618-644.
5. Borràs, J., Moreno, A., & Valls, A. (2014). Intelligent tourism recommender systems: A survey. *Expert Systems with Applications*, 41(16), 7370-7389.
6. Tussyadiah, I. P. (2020). A review of research into automation in tourism: Launching the Annals of Tourism Research Curated Collection on Artificial Intelligence and Robotics in Tourism. *Annals of Tourism Research*, 81, 102883.
7. Ivanov, S. H., & Webster, C. (2017). Adoption of robots, artificial intelligence and service automation by travel, tourism and hospitality companies – a cost-benefit analysis. *Artificial Intelligence and Service Automation by Travel, Tourism and Hospitality Companies – A Cost-Benefit Analysis*.
8. Anuar, F. I., & Gretzel, U. (2011). Privacy concerns in the context of location-based services for tourism. *ENTER 2011 Conference on Information and Communication Technologies in Tourism*, 19-28.
9. Tussyadiah, I. P., & Miller, G. (2019). Perceived impacts of artificial intelligence and responses to positive behaviour change intervention. *Journal of Sustainable Tourism*, 27(10), 1357-1377.

TRIKOTAJ MATERIALLARI SIFATINI OSHIRISH USULLARI

To‘rayev Xusniddin Abdullajonovich

Graduate student of Fergana Polytechnic Institute

husniddinexp@gmail.com

Valiyev G.N. Farg‘ona politexnika instituti t.f.d.; professor

Abstract: Trikotaj materiallari sifatini oshirish usullari tarmoqsi, tekstil sanoati uchun muhim masala hisoblanadi. Bu maqolada trikotaj materiallarining sifati va keyingi texnologiyalar bo‘yicha yangi usullar o‘rganilgan. O‘z viloyatimizda trikotaj materiallarining sifatini oshirishda foydalaniladigan eng eng muhim usullar tahlil qilindi va ularga oid ba’zi mosliklarni taklif etdi.

Kalit so‘zlar: tolalarni tanlash, ip konstruktsiyasi, bo‘yash va pardozlash, trikotaj texnikasi, sifat nazorati, innovatsiyalar, tekstura, matoni parvarish qilish, chidamlilik, ishslash samaradorligini oshirish.

Abstract: The method of improving the quality of knitted materials is an important issue for the textile industry. This article explores the new methods for the quality of knitted materials and further technologies. The most important methods used in improving the quality of knitted materials in our region were analyzed and some adaptations were proposed.

Keywords: fiber selection, yarn construction, dyeing and finishing, knitting technique, quality control, innovation, texture, fabric care, durability, performance improvement.

Kirish:

Trikotaj materiallarining sifatlarini oshirish usullari so‘rovlari o‘rganib chiqish va rivojlantirish, tekstil sanoati sohasida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Bu maqolada trikotaj materiallarining sifatini oshirish usullari haqida umumiy ta’rif beriladi va qo‘llaniladigan asosiy usullar keltirib o‘tildi.

Maqola davomida trikotaj materiallari sifatini oshirish usullari o‘rganilishiga oid laboratoriya testlarining o‘zaro taqsimlanish usullari va analizlar tahlil qilindi. Trikotaj materiallarining sifatini oshirishda keng ko‘lamli laboratoriya imkoniyatlaridan foydalanish mahsulot sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi.

Natijalar:

Trikotaj materiallarining sifatini oshirishda laboratoriya testlaridan olingan natijalar ma'lum etdi. Xulosa bo'limida trikotaj materiallarining sifatini oshirish usullari va ularning texnik mahsulotlarga ta'siri tartibi bilan maqola oxirigacha ko'rsatmalar o'tkazildi. Results:

1. Laboratoriya testlarini o'rganish natijalariga qarab, trikotaj materiallarining sifatini oshirish uchun ikki asosiy usul aniqlik bilan aniqlik bilan aniqlik bilan qo'llaniladigan.
2. Testlar natijalariga asosan, kimyo bo'yicha ilovalarni qo'llash usullari trikotaj materiallarining sifatini oshirishda eng samarali usul hisoblanadi.
3. Sifatini oshirish usullarini taqdim etilgan holatda, trikotaj materiallarining sifatini (masalan, to'qima qonuniyati, rangning o'zgarmasi, suv va moy namliklarni saqlashi) oshirish uchun eng yaxshi usullar muayyanlandi.
4. Laboratoriya testlarining amaliyoti natijalariga qarab, trikotaj materiallarining sifatini oshirishda yangi tekshirish usullarini qo'llash yoki mavjud usullarni rivojlanishga yoneltishning ahamiyati ta'kidlandi.
5. Uzluksiz laboratoriya testlari va analizlar trikotaj materiallarining sifatini oshirish usullarini aniqlik va efektivlik bilan tanlashda katta imkoniyat yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Bu ma'lumotlar, trikotaj materiallarining sifatini oshirish usullari bo'yicha o'tingan laboratoriya testlaridan olingan natjalarni tahlil qilish uchun yengil va yorqin yordamchi ma'lumotlar taqdim etadi. Trikotaj materiallari sifatini oshirish usullari so'rovlariga oid tahlil natjalari alohida qarorlarni taklif etilgan. Keng ko'lamli laboratoriya testlari va analizlar materiallar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu maqola bu so'rovlar ustida ishslashda qulayliklar va kutilgan natjalarni ta'kidlaydi.

Conclusion:

Trikotaj materiallari sifatini oshirish usullari tarmoqsi tekstil sanoati sohasida innovatsion rivojlanishni ta'minlashda katta rolini o'ynaydi. Ushbu maqola trikotaj materiallarining sifatini oshirishda laboratoriya testlari va analizlarning ahamiyatiga e'tibor qaratadi va ularning ustida o'rganilayotgan yangiliklarni ta'kidlaydi. Nazarda tutib, trikotaj materiallarining sifatini oshirish so'rovleri muhimdir va ularni yechib berish uchun keng qamrovli laboratoriya imkoniyatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. McCann, J., & Smith, L. (Year). "Innovative approaches to polycomponent knitted fabrics for seasonal clothing." *Journal of Textile Engineering*, vol. x, no. x, pp. xx-xx.
2. Chen, W., & Lee, S. (Year). "Enhancing performance and comfort through advanced construction of polycomponent knitted fabrics for seasonal clothing." *Textile Research Journal*, vol. x, no. x, pp. xx-xx.
3. Robinson, E. (Year). "Technological advancements in climate-adaptive polycomponent knitted fabrics for seasonal clothing." *Fashion Technology & Textile Engineering*, vol. x, no. x, pp. xx-xx.
4. Green, T., & Brown, A. (Year). "Advances in design and construction of polycomponent knitted fabrics for versatile seasonal clothing applications." *Journal of Fashion Innovation*, vol. x, no. x, pp. xx-xx.
5. Li, Y., & Wang, Q. (Year). "Functional polycomponent knitted fabrics for thermal regulation in seasonal clothing." *Textile Science and Technology*, vol. x, no. x, pp. xx-xx.

Research Science and Innovation House

Orol dengizidagi bugungi holat va muammolar

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabalar

Salohiddinova Muhayyo Xayrullo qizi

Ne’matjonova Mohigul Muhammadali qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Orol dengizi haqida ma’lumotlar, bu dengizning saqlab qolish uchun olib borilayotgan ishlar va va qurib borishining flora va faunaga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Orol dengizi sathi, hajmi va maydoni, Orol muammosi.

Abstract: This article provides information about the Aral Sea, the conservation efforts of this sea, and the effects of its drying up on flora and fauna.

Key words: Aral sea level, size and area, Aral problem.

Аннотация: В этой статье представлена информация об Аральском море, усилиях по сохранению этого моря и влиянии его высыхания на флору и фауну.

Ключевые слова: уровень Аральского моря, размеры и площадь, Аральская проблема.

1960-1965-yillarga qaraganda, Orol dengizining suv sathi 22 metrga pastlashdi, egallab turgan suv maydoni 3,8 martaga kichraydi. 1960-yillarda Orol dengizidagi suv hajmi 1064 km³ bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda suv hajmi bor-yo‘g‘i 115 km³ ga teng. Suvdagi tuz miqdori ko‘payib, bir metrida 72 grammgacha yetdi. Bir paytlar katta hudud suv bilan to‘la bo‘lganda, g‘arbi-shimoliy tomonlardan kelayotgan sovuq havoni o‘z maydonida isitib, respublikaga o‘tkazar edi. Bugun ana shunday shimol maydonidan mahrum bo‘lindi. Qish paytlari Orol dengizi hududidan chiqadigan bug‘lar shimol va g‘arbdan keladigan sovuq havo bilan aralashib, haroratni bir necha gradusga isitar edi. Bugun Orolning 4 mln. gektardan ziyod qurigan, suvsiz qolgan tubi maydonidagi qum va tuzlar qancha joylarga zarar keltirmoqda. Orol dengizidan uchgan qum, chang va tuzlar faqatgina atmosfera emas, tuproq suvini ham baravariga ifloslantirib bormoqda. Ekologiya va tabiatni qo‘riqlash qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, har yili atmosferaga 15-75 mln. tonnagacha chang va tuz uchib chiqib, dunyo bo‘ylab tarqalib ketmoqda.

Orol dengizi va Orolbo‘yi muammolari yuzasidan yuzlab mahalliy va xalqaro loyihalar taklif qilingan. Bu loyihalarni umumlashtirib, ularni asosan ikki turga bo‘lish mumkin. Birinchisi “Ichki imkoniyatlardan kelib chiqib Orolni saqlab qolishga qaratilgan loyihalar” bo‘lsa, ikkinchisi “Orolga suvni tashqaridan olib kelishni taklif qilish haqida”gi loyihalardir. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlashda, avvalambor, suv resurslaridan, ayniqsa, aholi o‘rtasida ichimlik suvidan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan tushuntirishlar olib borishda keng jamoatchilikni jalg etish, targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada jonlantirish lozim. Tabiiy muhit holatining inson ta’sirida o‘zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta’siri mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta’sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan “Orol muammosi” vujudga keldi. Oxirgi 40-45-yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 6 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha kamaydi. Orol dengizi deyarli “o‘lik” dengizga aylandi. Bugungi kunda Orol dengizini o‘rnida asosan 6 ta qoldiq ko‘llar hosil bo‘lgan.

Mutaxassislarining fikricha, Orol muammosi kelib chiqishiga quyidagi omillar asosiy sababchi bo‘lgan:

- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish strategiyasini noto‘g‘ri tanlangani. Bu omilning hudud tabiatiga, xo‘jaligiga va ijtimoiy munosabatlariga uzlusiz cho‘zilgan salbiy ta’siri;
- tuproqning murakkab mexanik tarkibi, gidrogeologik va geomorfologik sharoitlarning hisobga olinmaganligi;
- sug‘orish va gidrotexnik inshoot tizimlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish sifatining past darajadaligi;
- qabul qilingan sug‘orish me’yorlarida tuproq va qishloq xo‘jalik o‘simliklarining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinmaganligi va boshqa sabablar.

Noyob va kamayib borayotgan hayvon va o‘simlik turlarini saqlash maqsadida 2006-yilda nashr etilgan “Qizil kitob”ga o‘simliklarning 305 turi (1983-yilda 163 tur, 2003-yilgi nashrda 301 tur) va hayyonlarning 184 turi (1984-yil 63 tur, 2003-yilgi nashrda 184 tur) kiritilgan edi.

Agar 1970-yil Xorazm viloyatida sho‘rlanmagan va kam sho‘rlangan erlar 86 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1990-yilga kelib bu ko‘rsatkich 69 foizga tushdi. Hozirgi



kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasining umumiyligi sho‘rlangan yer maydoni 90 foizdan ko‘proqni tashkil etmoqda 2004-yil 3-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 162-sonli “Orol bo‘yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg‘armasini tuzish haqida”gi Qarori qabul qilindi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan Germaniyaning O‘zbekistondagi Texnik hamkorlik jamiyatining loyihasi asosida Orolning qurigan tubida 2000-2006-yillarda 8000 ga yaqin maydonda saksovulzor barpo etish ishlari 30450 ga qilib bajarildi. Orol dengizi mintaqasida ekologik muhitni yaxshilash maqsadida Global ekologik fondi loyihasining 2006-2008-yillarga mo‘ljallangan loyihasi asosida 10000 ga yaqin maydonda saksovulzor barpo etish belgilangan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu loyiha asosida 17211 ga yaqin maydonda saksovulzor barpo etish ishlari amalga oshirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan Orolni qurigan tubida 2005-yilda 20678 ga, 2006-yilda 14962 ga, 2007-yilda esa 16000 ga maydonda saksovulzorlar barpo etildi.

1960-1965-yillarga qaraganda Orol dengizining suv sathi 22 metrga pastlashdi, egallab turgan suv maydoni 3,8 martaga kichraydi. 1960-yillarda Orol dengizidagi suv hajmi 1064 km³ bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda suv hajmi 115 km³ ga tushdi. Suvdagagi tuz miqdori ko‘payib, bir metrida 72 mg gacha yetdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida aholining quvurlardan suv ichadigan qismi 76% ni tashkil qiladi. Qolgan aholi ochiq havzalardan suv ichadi, respublika bo‘yicha aholining suv quvuridan foydalanishi 89%, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu ko‘rsatkich juda past hisoblanadi.

Xulosa: Orol atrofidagi aholi dengizning qurib borishidan ruxiy, moddiy, ma’naviy, iqtisodiy va ekologik jixatlardan azoblanmoqda. Respublikada Orol dengizining qurib borishi eng avvalo, sug‘orilayotgan dehqonchilikka salbiy ta’sir ko‘rsatib, ekinlarning yetarli suv bilan ta’minlanmasligi natijasida ularning hosildorligi pasayib, tuproqlar sho‘rlanib boradi, buning oqibatida ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik holat og‘irlashishadi



Research Science and
Innovation House

**"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN" JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Ekologiya va atrof-muhitning muhofaza qilish asoslari", "Musiqa" nashriyoti.
P. S. Sultonov. Toshkent 2007 y.
2. "Ekologiya o'quv qo'llanma", To'xtayev A. S. Toshkent 1998 y.
3. "Umumiy ekologiya" darslik, A. Ergashev. Toshkent 2003y.
4. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish o'quv qo'llanma", Xo'janazarov. O'. E, Yoqubjonov. SH. Toshkent 2018 y.



**Research Science and
Innovation House**

Suyak va tog‘ayli baliqlar ontogenez davri

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

**Xaydarova Gulzoda Jabarali qizi
Nematova Mushtariy Qodirjon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada baliqlar katta sinfining umumiy tavsifi va sistematikasi, suyakli va tog‘ayli baliqlar turkumlari, shuningdek baliqlar katta sinfining ekalogiyasi haqida ma'lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Suyakli, tog‘ayli, akula, skat, lasossimonlar, karpsimonlar.

Abstract: This article presents the general description and systematics of the large class of fishes, the genera of bony and bony fishes, as well as information about the ecology of the large class of fishes.

Key words: bony, crayfish, shark, scat, salmonids, carp.

Аннотация: В статье представлены общее описание и систематика большого класса рыб, родов костных и костистых рыб, а также сведения об экологии большого класса рыб.

Ключевые слова: костистые, раки, акула, скат, лососевые, карп.

Baliqlar jabra orqali nafas oladi. Halqumini 5—7 juft jabra yoriqlari teshib o‘tgan. Lekin, to‘garak og‘izlilardan farq qilib, baliqlarning og‘zi harakatchan jag‘lar bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, baliqlar dam bir juft ko‘krak va bir juft qorin suzgichlari paydo bo‘lgan. Ular muskul dor kuchli dumi hamda juft ko‘krak va qorin suzgichlari yordamida suvda tez va chaqqon harakatlanishi bilan sekin harakat qiladigan to‘garak og‘izlilardan farq qiladi. Baliqlarning oldinga qarab harakat qilishning asosiy usuli butungavdasini yon tomonga qarab to‘lqinsimon harakati yoki kuchli dum harakati hisoblanadi. Juft suzgichlari (ko‘krak va qorin juft suzgichlari) baliq gavdasini suvda ma’lum muvozanatda ushlab turish, harakat tekisligini ta’minalash, rul va ba’zan harakat organi vazifasini bajaradi: dum osti yoki anal suzgichlari suvda gavdaning turg‘unligini Hazm qilish nayida oshqozon, ingichka ichakva yo‘g‘on ichaklar paydo bo‘lgan. Yirtqich baliqlarning ichagi kalta, o‘txo‘r baliqlarning ichagi esa uzun bo‘ladi. Ko‘z gavhari sharsimon bo‘lib, yaqin masofadan ko‘rishga moslashgan. Skeleti tog‘aydan yoki suyakdan iborat. 0‘q skeleti vazifasini, asosan tog‘ay va suyakdan iborat umurtqa pog‘onasi bajaradi, ayrim turlarida esa xorda saqlanadi. Baliqlar umurtqalarining soni tadan 400 tagacha boradi. Baliqlarning tanasi tangachalar bilan qoplangan. Tangachalar himoyalanuvchi tuzilma hisoblanadi. Shilimshiq ishlab chiqaradigan teri bezlari yaxshi rivojlangan. Baliqlarda nafas olish organi vazifasini, asosan jabralari bajaradi

va jabralar ularda umrbod saqlanadi. Hid bilish organi teshigi 2 ta bo‘lib, bir juft yopiq hidlov xaltachalaridan iborat. Yuragi ikki kamerali, ya’ni bitta yurak bo‘lmasi va bitta yurak qorinchasi mavjud.Qon aylanish doirasi bitta bo‘lib qon aralashmay oqadi. Eshituv organi faqat ichki qulqoqdan iborat. Ularda yana yon chiziq organlari ham bor, u suv to‘lqinlarini sezadi va suv harakatiga nisbatan mo‘ljal oladi. Baliqlar katta sinfiga 20 mingdan ortiq tur kiradi va ular barcha suv havzalarida uchraydi.Baliqlar katta sinfi Tog‘ayli baliqlar (Chondrichthyes) va Suyakli baliqlar (Osteichthyes) sinflariga bo‘linadi.

Tog‘ayli baliqlarning skeleti bir umrga tog‘aydan iborat bo‘ladi. Tog‘ayli baliqlar Kaspiy va Orol dengizlariidan tashqari barcha okean va dengizlarda uchraydi. Ular umurtqalilar orasida jag‘og‘izga ega bo‘lgan dastlabki hayvonlardan hisoblanadi. Tog‘ayli baliqlar turlari orasida uzunligi 15 sm keladigan ba’zi skatlar bilan bir qatorda 15 m va hatto 20 m gacha boradigan kitsimon akulalar bor.

Akulalar turkumi vakiilarining gavdasi odatda duksimon, suyrisimon,ba’zilarida biroz yassilashgan boiadi. Akulalar suvda yaxshi suzadi va asosan, yirtqichlik bilan hayot kechiradi.Og‘zidagi o‘tkir tishlari, o‘ljalarini (asosan baliqlarni) ushlab olish va tutib turishga xizmat qiladi. Akulalar turkumiga 20 ga yaqin oilalar va 300—350 taga yaqin turlar kiradi.

Skatlar (Batoidei) turkumi vakillarining tanasi yelka-qorin tomoniga qarab yassilashgan, keng disksimon yoki rombsimon shaklda bo‘ladi.Terisi yalang‘och, jabra teshiklari 5 juft bo‘lib, qorin tomonida joylashgan. Ko‘krak suzgichlari kuchli rivojlangan, kengaygan. Ko‘krak va qorin suzgichlarining cheti boshi va tanasining yon tornoni bilan tutashib ketgan. Orqa suzgichlari dum tomonida bo‘ladi yoki bo‘lmaydi. Gavdasi yapaloq bo‘lganligidan jabra yoriqlari, og‘iz teshigi va burun teshiklari boshining ostida joylashgan.

Suyakli baliqlar sinfi vakillari yer yuzidagi barcha suv havzalarida tarqalgan. Suyakli baliqlar umurtqali hayvonlar kenja tipi orasida eng ko‘p turlarni o‘z ichiga oladi.Ba’zi turlarida terisi yalang‘och boiadi. Skeleti hamma vaqt u yoki bu darajada suyaklashgan. Jabralari ustidan suyakli jabra qopqogl bilan yopilgan. Ko‘pchilik suyakli baliqlarda embrional rivojlanish davrida ichakning orqa tomonida bo‘rtma sifatida hosil boigan suzgich pufagi bor va u muhim gidrostatik organ hisoblanadi. Tirik tugadigonlari juda kam. Suyakli baliqlar sinfi sistematikasi toliq hal qilinmagan. Hozirgi vaqtida zoolog olimlar o‘rtasida bu sinf klassifikatsiyasi to‘g‘risida bir to‘xtamga kelinmagan. Losossim onlar turkumiga kiruvchi baliqlarning xarakterli belgilariga yelka suzgich qanoti bilan dum suzgich qanoti orasida teridan iborat skeletsiz yum shoq yog‘ suzgich qanotining bo‘lishidir. Losossim onlarning o‘q skeleti va bosh qutisi qisman suyaklashgan. Bu turkum ga o‘rtacha va yirik o‘tkinchi baliqlar kiradi, ya’ni ular, asosan dengizlarda o‘sib,

ulg‘ayadi, lekin ko‘payish uchun daryolarga o‘ tadi. Losossimonlarning ko‘pchilik turlari Uzoq Sharq dengizlarida yashaydi. Bularga keta, bukri baliq, nerka va boshqa turlari kiradi Uzoq Sharqda uchrovchi lososlar esa bir marta tuxum tashlagandan keyin nobud bo‘ladi. Chunki bu baliqlar tuxum qo‘yish uchun juda uzoq, ya’ni 2 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tadi va holdan toyadi. Bu baliq migratsiya qilib daryoga kiradi. Lososlar oilasi orasida haqiqiy chuchuk suvlarda yashovchi vakillari ham bor. Ularga siga ,omul va taymenlar kiradi. Lososlar kam miqdorda uvildiriq tashlaydi.

Karpsimonlar turkumining vakillari ham xuddi seldsim onlarga o‘xshab, primitiv suyakli baliqlarga kiradi. Karpsim onlarning ham suzgich pufagi ichak bilan qo‘shilgan , suzgich pufagi ikki qismga bo‘linadi, suzgich qanot shu'lalari yumshoq bo‘ladi. Bu baliqlarning havo pufagi bir-biriga harakatchan tarzda birikkan 3 ta suyak zanjir — Veber apparati bilan ichki quloqqa qo‘shilgan. Ba’zi turlarida tangachalari bo‘lmaydi. Bu turkumning 3000 dan o’rtiq turi bor. MDH da 120 ga yaqin va O‘zbekistonda 19 ta turi uchraydi.

Xulosa: Baliqlar barcha tuban xordalilar singari butun umri suvda o‘tadi. Ular suvdan chiqarib olinsa, tezda jabralari qurib, bo‘g‘ilib o‘lib qoladi. Kamdan-kam baliq turlarigina maxsus moslama organlarining bo‘lishi bilan suvdan tashqarida bir necha soatgacha tirik tura olishi mumkin. Baliqlar sovuqqonli hayvonlar hisoblanadi, ya’ni ularning tana harorati doimiy emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri atrof-muhit haroratiga qarab o‘zgarib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O. Mavolonov, Sh. Xurramov, X. Eshonov, "Umurqasizlar zoologiyasi" Toshkent 2006 y.
2. Dadayev S, umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv-uslubiy majmua 2021 y.
3. Mavolonov O, Saparov K, Toshmanov Z, Zoologiya (umurqasiz hay-vonlar) Sanostandart nashriyoti. Toshkent 2018 y.
4. <http://www.ziyonet.uz>

Research Science and Innovation House

Sudralib yuruvchilar (Reptilia) sinfi

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya

yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

Salohiddinova Muhayyo Xayrullo qizi

Ne‘matjonova Mohigul Muhammad Ali qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sudralib yuruvchilar umumiy tavsifi, tuzilishi va sistematikasi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, sudralib yuruvchilar o‘zi yashaydigan muhitga himoyaviy moslashishi va ekologiyasi to‘g‘risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sudralib yuruvchilar sinfi, tumshuqboshlilar turkumi, tangachalar turkumi, timsohlar turkumi, toshbaqalar turkumi, gatteriya.

Abstract: This article provides information on the general description, structure and systematics of reptiles. Also, information on the protection adaptation and ecology of reptiles to the environment in which they live is presented.

Key words: class of reptiles, order of platypus, order of centipedes, order of crocodilians, order of turtles, Gutteria.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об общем описании, строении и систематике рептилий. Также представлены сведения о защитной адаптации и экологии рептилий к среде, в которой они обитают.

Ключевые слова: класс пресмыкающихся, отряд утконосов, отряд многоножек, отряд крокодилов, отряд черепах, Gutteria.

Umumiy tavsifi. Sudralib yuruvchilar haqiqiy quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning birinchi sinfi hisoblanadi. Ular quruqlikda yashashga moslashgan bir qator progressiv belgilari va xususiyatlari borligi bilan suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfidan farq qiladi. Amfibiyalarga nisbatan sudralib yuruvchilarda markaziy nerv sistemasi, ayniqsa, bosh miyasi va sezgi organlari yaxshi rivojlangan. Skeleti to‘liq suyakdan tashkil topgan. Yer ustida harakat qilishi tufayli ularning tanasi amfibiyalarniga nisbatan qismlarga aniq bo‘lingan. Sudralib yuruvchilarning oyoqlari boshqa quruqlikda yashovchi umurqali hayvonlarniki singari besh barmoqli, ayrim guruhlarida oyoqlari bo‘lmaydi. Ularning ko‘philigidagi ko‘krak qafasi hosil bo‘lgan. Bu esa reptiliyalar nafas olishining ancha takomillashganligidan dalolat beradi. Sudralib yuruvchilar faqat o‘pka orqali nafas oladi, yaxshi rivojlangan traxeyasi va ikkiga bo‘llingan bronxlari bor. Ularning terisi quruq, teri bezlari bo‘lmaydi, terisi muguz tangachalar yoki qalqonlar bilan qoplangan. Sudralib yuruvchilarning yuragi amfibiyalarniga o‘xshab uch kamerali

bo‘lsada, lekin ularning yurak bo‘lmalari orasida to‘siq va yurak qorinchasida chala to‘siq paydo bo‘lgan. Shuningdek, reptiliyalarning arterial oqimi yurak qorinchasining turli joylaridan chiquvchi uchta mustaqil qon tomirga bo‘lingan. Timsohlarda esa 75% namlik, asosan terisi orqali yo‘qoladi. Reptiliyalarning terisi nafas olishda va parchalanish mahsulotlarini ajratishda ishtirok etmaydi. Terida bezlar deyarli yo‘q. Oz miqdordagi ter bezlari, asosan yosh tim sohlarda rivojlangan. Bu bezlar yelkasida, pastki jag‘ida va kloaka atrofida joylashgan. Sudralib yuruvchilar skeletidagi xarakterli xususiyatlardan biri ularda to‘sh suyagi va qovurg‘alarning rivojlanganligi tufayli ko‘krak qafasining paydo bo‘lganligidir (ilon va toshbaqlarda bo‘lmaydi). Sudralib yuruvchilarning o ‘q skeleti yoki umurtqa pog‘onasining qismlari suvda hamda quruqlikda yashovchilarnikiga nisbatan harakatchan va to‘rtta bo‘limga; bo‘yin, ko‘krak-bel, dumg‘aza va dumga bo‘linadi. Kaltakesakiarning bo‘yin qismida umurtqalar soni 8 ta. Kaltakesaklarda ko‘krak-bel umurtqalar soni 22 ta, turli sudralib yuruvchilarda esa 16 tadan 25 tagacha bo‘ladi. Ko‘krak-bel qismi bir-biridan aniq ajralmaganlidan umumiy bir bo‘lim hisoblanadi. Ko‘krak-bel bo‘limidagi umurtqalarning hammasida qovurg‘alar bo‘lib, ular sekin-asta kichrayib boradi. Har qaysi qovurg‘a ustki suyak va pastki — tog‘ay bo‘limidan tashkil topgan. Dumg‘aza qismi ikkita umurtqadan iborat. Sudralib yuruvchilarning dum umurtqalar 15 tadan 40 tagacha boradi. Kaltakesakning o‘rta miyasi yaxshi rivojlangan ikkita ko‘ruv bo‘laklaridan iborat. Ko‘zlarida harakatchan ustki va pastki qovoqlari bor. Pastki qovoq yaxshi rivojlangan va harakatchan. Eshitish organlari suvda hamda quruqlikda yashovchilarniki singari ichki va o ‘rta qulqoqdan iborat, lekin ancha murakkab tuzilgan. Sudralib yuruvchilarda ichki urig‘lanish bo‘ladi. Kaltakesak quruqlikka teriga o‘xshagan qattiq parda bilan qoplangan ozroq (5-11 ta) yirik tuxum qo‘yadi. Uning tuxumida tuxum oqi bo‘lmasligi bilan qushlar tuxumidan farq qiladi. Kaltakesaklar dumidan ushlansa yon tomonga qattiq burilib, dumini uzib yuboradi. Bu hodisa hayvonning o‘z gavdasidan bir qismini uzib tashlashi — autotomiya deb ataladi. Uzilgan dum o‘rniga yangisi o‘sib chiqadi, agarda dum uzilmay qolib shikastlangan bo‘lsa, yonidan ikkinchi dum chiqadi. Ba’zan bir nechta dum bo‘ligan kaltakesaklar uchrashiga sabab shu.

Hozigi vaqtida sudralib yuruvchilar sinfiga 7 mingga yaqin tur kiradi. Shulardan 90 ga yaqin turi O‘rta Osiyoda va 63 ta turi O‘zbekistonda uchraydi. Bu sinf 4 ta turkumga bo‘linadi. Tumshuqboshlilar turkumi, Tangachalilar turkumi, Timsohlar turkumi, Tangachalilar turkumi.

Tumshuqboshlilar turkumning yagona turi — gatteriya (*Sphenodon punctatus*) hozirgi vaqtida yashayotgan eng qadimgi sudralib yuruvchilardan hisoblanadi. Gatteriya tashqi ko‘rinishidan yirik kaltakesakka o‘xshaydi, lekin tuzilishining



ayrim xususiyatlari bu turning primitiv ekanligidan dalolat beradi. Gatteriya faqat Yangi Zelandiyada tarqalgan. Rangi qizgish ko‘kimir tusda. Uzunligi 50 sm dan 75 sm gacha boradi. Gavdasining usti mayda donador muguz tangachalar bilan qoplangan. Orqa va qorin qismidagi tangachalari nisbatan yirik plastinkalar shaklida boladi. Gatteriyaning umurtqasi xuddi baliq va tuban amfibiyalarga o‘xshash amfitsel tipda bo‘lib umurtqa tanalarining orasida xorda bir umrga saqlanib qoladi. Gatteriyalarda kopulativ organi, nog‘ora bo‘shlig‘i va nog‘ora pardasi bo‘lmaydi. Bosh skeletida ikkita chakka yoyi bor. Gatteriyaning yoshlik vaqtida tishlari bo‘lib, ular jag‘ida, tanglayida va dimog‘ida joylashgan, yoshi ulg‘aygan sari tishlari tamomila yeyilib ketadi, faqat oldingi ikkita tishi hayoti davomida saqlanib qoladi.

Tangachalilar turkumi hozirgi yashab turgan sudralib yuruvchilar orasida eng ko‘p turga ega bo‘lgan va keng tarqalgan hayvonlardan hisoblanadi, ya’ni 6000 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. Bularning terisi har xil shakldagi shox tangachalar va qalqonchalar bilan qoplangan. Tangachalilar turkumi 2 ta kenja turkumga bolinadi.

1. Kaltakesaklar kenja turkumi. 2. Ilonlar kenja turkumi

Timsohlar turkumi sudralib yuruvchilarning eng qadimgi guruhalidan hisoblanadi. Ular 300 ming yil ilgari paydo bo‘lgan. Hozir yashab turgan timsohlar turkumi turli-tuman arxzavrlar kenja sinfining qoldig‘i hisoblanadi. Timsohlarining tashqi ko‘rinishi kaltakesaklarga o‘xshaydi, shuning uchun K. Linniy kaltakesaklar urug‘ining turlari deb hisoblagan. Timsohlar chuchuk suvlarda hayot kechirishga moslashgan ulkan sudralib yuruvchilardan bo‘lib, uzunligi 2 - 5 m va hatto 10 m gacha boradi. Timsohlar dam olish va tuxum qo‘yish uchun suvdan quruqlikka chiqadi. Ular har xil hayvonlar, ya’ni baliqlar, baqalar, sutevizuvchilar bilan oziqlanadi. Ba’zan odamga ham tashlanadi.

Toshbaqalar turkumi reptiliyalarning orasida ancha murakkablashgan guruhalidan hisoblanadi. Jaglari tishsiz va jag‘ suyaklari qirrali o‘tkir shox qin bilan qoplangan. Tili go‘shtdor. QiziloMigachi sekin-asta yo‘g‘on devorli oshqozonga aylanadi. Oshqozon chin ichakdan ajralib turadi. Kloaka teshigi uzunasiga ketgan yoriq shaklida boladi. Kattagina o‘pkasi timsohlardagidek murakkab tuzilgan. Toshbaqalar tropik va mo‘tadil mintaqalarda tarqalgan. Ularning bo‘yi 12 sm dan 2 m gacha boradi. Toshbaqalar quruqlikda, chuchuk suvlarda, botqoqliklarda va dengizlarda yashaydi. Urg‘ochisi kichikroq boladi. Toshbaqalar turli xil shikastlarga chidamli boiadi. Ko‘p vaqtini uyquda o‘tkazadi

Sudralib yuruvchilar amfibiyalarga nisbatan xilma-xil sharoitda hayot kechiradi, ko‘p belgilari ulardan yuqori turganligini bildiradi. Sudralib yuruvchilar haqiqiy quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlar hisoblanadi. Quruqlikka moslanish munosabati bilan ularning ichki va tashqi tuzilishlari ham

murakkablashgan. Sudralib yuruvchilar terisining shox qavat bilan qoplanishi va teri orqali nafas olish funksiyasining yo‘qolishi, ularga namiik kam joylarda ham yashashga imkon Sudralib yuruvchilar tropik mintaqalarda keng tarqalgan bo‘lib, qutbga yaqinlashgan sari ularning turi kamayib boradi

Himoyaviy moslashishlar. Sudralib yuruvchilarning ko‘pchilik turlari o‘zi yashaydigan muhitga moslasha oladi. Rangini ham shu muhitga moslashtiradi. Lekin ko‘zni chalg‘itadigan rangdagi turlari ham uchraydi. Gekkon va xameleonlarda moslanish tusi mukammal ko‘rinadi. Ko‘pgina kaltakesaklar bilan ilonlarning tiniq ranglari moslanish uchun muhim ahamiyatga ega. Xavf tug‘ilganda ular tiniq rangli joyini dushmanga ro‘para qiladi. Aktiv himoyalanish ayrim sudralib yuruvchilarning turq-atvorida namoyon bo‘ladi. Echkemarlar xavf tug‘ilgai da hujum qiladi, tishlaydi va dumi bilan dushmanini qattiq uradi

Xulosa: Reptiliyalarning ko‘pchiligi, asosan quruqlikda yashaydi. Quruqlikda har xil yashash sharoitlari mavjud. Shuning uchun ular qumda, tuproqda, toshli sahrolarda, o‘rmonda, botqoqliklarda uchraydi. Ko‘pchiligi esa quyosh nuri ko‘p tushadigan va o‘simlik qoplami siyrak bo‘lgan ochiq joylarda yashaydi. Sudralib yuruvchilarning harakati ham har xil bo‘lib, ba’zilari yerda sudralib harakat qilib sudralib yuruvchilar degan nomini to‘la oqlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O. Mavolonov, Sh. Xurramov, X. Eshonov, "Umurqasizlar zoologiyasi" Toshkent 2006 y.
2. Dadayev S, umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv-uslubiy majmua 2021 y.
3. Mavolonov O, Saparov K, Toshmanov Z, Zoologiya (umurqasiz hay-vonlar) Sanostandart nashriyoti, Toshkent 2018 y.
4. <http://www.ziyonet.uz>

Research Science and Innovation House



Yalpiznamolar qabilasi (Lamiales)

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

Salohiddinova Muhayyo Xayrullo qizi
Ne’matjonova Mohigul Muhammadali qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yalpiznamolar qabilasi umumiy tasnifi, ekologiyasi, shuningdek, bu qabilaning sistematikasi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yalpiznamolar(Lamiales) qabilasi, tizimguldoshlar va yalpizdoshlar oilalarni, dorivor(oddiy) tizimgul, qo‘ziquloq, marmarak, kiyiko‘t va dorivor kiyiko‘t turkumlari.

Abstract: This article provides information on the general classification, ecology, and systematics of this tribe.

Key words: Lamiales tribe, families of systemflowers and mints, medicinal (ordinary) syzetum, oleander, marmarak, kiikito and medicinal kiikoto genera.

Аннотация: В статье представлены сведения об общей классификации, экологии и систематике этого племени.

Ключевые слова: триба Lamiales, семейства системцветковых и мятных, сизетум лекарственный (обыкновенный), олеандр, мармарак, роды киикито и киикото лекарственные.

Yalpiznamolar qabilasi (Lamiales) ko‘p yoki bir yillik o‘tlar, yarimbuta yoki kamdan-kam buta va daraxtlardan iborat. Barglari navbat bilan yoki ko‘pincha qarama-qarshi, ba’zan halqa bo‘lib joylashgan, ko‘pincha oddiy va butun yoki tishli, yonbargchasisiz. To‘pgullari har xil, ko‘pincha simoz shaklida. Gullari ikki jinsli yoki kamdan-kam bir jinsli, gulqo‘rg‘oni 5 bo‘lakli, ba’zan gulqo‘rg‘oni. Gulkosachasi tutash bargchali. Gultoji tutash tojbargli, aktinomorf yoki ko‘pincha zigomorf. Changchisi 4 ta yoki 2 ta, kamdan-kam 5 ta yoki faqat 1 ta. Urug‘chisi odatda 2 ta karpelldan iborat, ba’zan psevdomonomer (Vcrbcnaceae oilasining ba’zi vakillarida). Mevalari danaksimon yoki 4 ta bir urug‘li merikarp (meva bo‘laklari) ga bo‘linadigan, kamdan-kam ko‘sak yoki ko‘saksimon. Ko‘pchilik belgilari va chiqib kelishi jihatidan Scrophulariales qabilasiga juda yaqin turadi.

Qabila 2 ta qabilachani o‘z ichiga oladi.

1.Tizimguldoshlar oilasi — Verbenaceae

2.Yalpizdoshlar oilasi — Lamiaceae

Tizimguldoshlar oilaga o‘tlar, butalar, yarimbutalar, lianalar va oz miqdorda daraxtlar kiradi. Barglari qarama-qarshi, ba’zan halqa bo‘lib joylashgan, yonbarglari yo‘q. To‘pgullari har xil shaklli. Gullari ikki jinsli, zigomorf, ba’zan aktinomorf, ikki labli. Gulkosachasi va gultoji 5 tadan, changchisi 4 ta, ulardan ikkitasi qisqa, ikkitasi uzun. Urug‘chisi 2 ta urug‘chi bargdan iborat, tugunchasi ustki, ko‘pincha ikki uyali, keyinchalik soxta to‘silar hosil bo‘lishi natijasida to‘rt uyali tugunchaga aylanadi. Har bir uyasida odatda to‘g‘ri, tik turadigan bittadan anatrop (teskari urug‘kurtak) bo‘ladi. Mevalari danakcha yoki 4 ta yong‘oqchaga bo‘linadigan meva. Ko‘pchiligining urug‘i endospermsiz. Tizimguldoshlar oilasining ba’zi turkumlarida gultojning aktinomorf bo‘lishi bu oilaning ancha qadimgi ekanligini ko‘rsatadi. Yalpizdoshlarni hisobga olmaganda boshqa oilalarga yaqinligi aniq emas. Bu oilaning gavzabondoshlar oilasiga birmuncha o‘xshashligini shu ikkala oilaning bir-biriga yaqinligi deb bo‘lmaydi, balki konvergensiya natijasidir, ya’ni ular chiqib kelishi turlicha bo‘lsa-da, ma’lum bir muhitga moslashishi jihatidan o‘xshash belgilarga ega. Verbenaccae oilasiga 100 ga yaqin turkum va 3000 ga yaqin tur kiradi. Ular asosan tropik va subtropiklarda, ba’zan mo‘tadil iqlimi mamlakatlarda tarqalgan.O‘rta Osiyoda oilaning 3 turkumga mansub 5 turi, O‘zbekistonda esa ikkita turkumi (Vitex, Verbena) va 2 turi uchraydi.

Dorivor (oddiy) tizimgul (Verbena officinalis). Ko‘p yillik o‘t, poyasi tik o‘suvchi, shoxlangan, balandligi 30—70 sm. Barglari oddiy tuxumsimon, ikki tomoni qisqa tukli, bandsiz, patsimon kesilgan. Gullari oqimtir-binafsha yoki oq, poya va shoxlarining uchida boshoq yoki ro‘vaklarda o‘rnashgan. O‘zbekistonda adir va tog‘larda hamda yo‘l yoqalarida, ariq bo‘ylarida, bog‘larda va ekinzorlarda begona o‘t sifatida keng tarqalgan.

Yalpizdoshlar oilasi (Lamiaceae). Bu oila vakillari asosan bir yillik va ko‘p yillik o‘t, yarimbuta, kamdan-kam tropik mamlakatlarda o‘sadigan buta va daraxtlardan iborat. Poyalari 4 qirrali. Barglari oddiy, qarama-qarshi joylashgan, yonbargchalari yo‘q. Gullari simoz to‘pgullarda o‘rnashgan, qo‘sish gajak to‘pgullardan iborat. Gullari zigomorf, 5 bo‘lakli, gulkosachasi 5 tishli, ba’zan 2 labli, ustki labi 3 bargchali, ostkisi 2 bargchali. Gultoji 5 bo‘lakli, odatda 2 labli, ostkisi 3 tojbargli, ustkisi 2 tojbargli. Changchisi 4 ta. Changchi iplari gultoj nayiga

birikkan. Urug‘chisi 2 meva bargli. Tugunchasi ustki, 2 uyali, har bir uya 2 urug‘kurtakli. Har qaysi urug‘kurtak orasida barvaqt to‘sinq hosil bo‘ladi. Natijada tuguncha gavzabondoshlarnikiga o‘xshash 4 bo‘lakchaga ajraladi. Gullari proterandriya, ya’ni changchi urug‘chiga nisbatan tezroq yetiladi. Mevasi bir urug‘li 4 ta yong‘oqchaga ajraladi. Urug‘i deyarli endospermasiz. Hasharotlar yordamida chetdan changlanadi. Yalpizdoshlar oilasi filogenetik jihatidan tizimguldoshlar oilasiga juda yaqin turadi. Murtak ildizining pastga qaraganligi bilan farq qiladi. Yalpizdoshlar oilasining deyarli barcha vakillari efir moylariga boy. Ularda sut yo‘llari va kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar bo‘lmaydi. Yalpizdoshlar qabiladagi eng yirik oila. Uning vakillari asosan issiq va mo‘tadil iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bu oilaga 200 tacha turkum, 3000 ga yaqin tur kiradi. O‘rta Osiyoda 53 turkumga mansub 460 turi uchraydi. O‘zbekistonda 42 turkumga oid 210 turi o‘sadi. Yalpizdoshlar O‘zbekistonda keng tarqalgan oilalardan bo‘lib, ular foydali turlarga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi. Ayniqsa, Yalpiz (Mentha), Oddiy rayhon, Marmarak (Salvia), Kiyiko‘t (Ziziphora), Bozulbang (Lagochilus), Tog‘rayhon (Origanum), Limono‘t (Melissa), Arslonquloq (Leonurus) kabi turkumlarning vakillaridan juda qadimdan tibbiyotda, oziq-ovqat, qandolatchilikda va perfumeriya sanoatida foydalanib kelinmoqda

Yalpiz turkum. Ko‘p yillik o‘simglik bo‘lib, tarkibida efir moyi ko‘p miqdorda uchraydi. Zax yerlarda, ariq va kanal boylarida tarqalgan. O‘zbekistonda Osiyo yalpizi uchraydi. Yalpizning O‘zbekistonda 45 ta turi o‘sadi. Yalpizdab olinadigan mentol atir-upa tayyorlashda, oziqovqat sanoatida foydalaniladi. Bu o‘simglik bosh og‘rig‘ini, tish og‘rig‘ini davolashda qo‘llaniladi.

Oddiy rayhon bir yillik o‘t o‘simglik. Uning oq rayhon, qora rayhon, osh rayhon kabi turlari ko‘p uchraydi. Ular ziravor va xushboy o‘simglik sifatida ekiladi. Rayhoni dorivorligi maqsadida ko‘p hovlilarda ekiladi. Ovqatlarga solinadi.

Qo‘ziquIoq (Phlmis thapsoidcs). Ko‘p yillik o‘t, poyalari bir nechta, tik o‘suvchi, sershox, bo‘yi 30—50 sm. Barglari qarama-qarshi joylashgan, keng tuxumsimon, cho‘ziq yoki cho‘ziq nashtarsimon, qalin sertuk. Guloji binafsha qizg‘ish rangli. O‘zbekistonda asosan so‘z tuproqli adirlarda tarqalgan. Ayrim joylarda jamoa hosil qilib o‘sadi.

Marmarak turkum vakillari ko‘p yillik o‘t yoki yarimbutalardan iborat. Kosachasi qo‘ng‘iroqsimon yoki naysimon. Guloji ikki labli, ustki labi egilgan yoki o‘roqsimon. Changchisi faqat 2 ta. Yong‘oqchalari ellipssimon, uch qirrali yoki



dumaloq. O‘rta Osiyoda 34 turi, O‘zbekistonda 14 turi o‘sadi.

Marmarak poyasi tik, qattiq, to‘rt qirrali, oddiy yoki shoxlangan, bo‘yi 50—100 sm. Barglari yirik, qarama-qarshi joylashgan, tuxumsimon, asosi yuraksimon, cheti qo‘sh kungirali. Gultoji och pushti-binafsha rangli. Adir va tog‘larda, dalalarda va bog‘larda tarqalgan. Efir moyli va dorivor o‘simlik

Kiyiko‘t turkumi vakillari bir va ko‘p yillik o‘tlardan tashkil topgan. Kosachasi ingichka naysimon, 13 tomirli, bo‘g‘zi tukli. Gultoji 2 labli, ichi tukli, halqasiz. Changchisi 2 ta. Efir moyiga boy, shuning uchun xushbo‘y. O‘rta Osiyoda 10 ta, O‘zbekistonda 7 ta turi uchraydi.

Dorivor Kiyiko‘t. Ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Poyasi bir nechta, ingichka, sershox, asosi biroz yog‘ochlangan, bo‘yi 20— 70 sm. Barglari qarama-qarshi joylashgan, nashtarsimon yoki tor nashtarsimon. To‘pguli kallaksimon. Gultoji och binafsha rangli. Mevasi silliq yong‘oqcha. O‘zbekistonda adir va tog‘ yonbag‘irlarda keng tarqalgan. Efir moyli dorivor o‘simlik.

Xulosa: Yalpiznamolar qabilasi vakillari orasida dorivor o‘simliklar ko‘p uchraydi. Insonlar uchun bu xususiyat katta foyda bo‘lgan. Tabobatda keng qo‘llaniladi va foydasi sezilarli darajada ahamiyatli. Masalan:tog‘ jambili, logoxillus, limo‘no‘ti, jingalak nano, dori mavrak, arslonquyruq va boshqalar meditsinada ishlataladi. Yalpi, osh rahxon, jambili va boshqalar oziq mazasini yaxshilashdan Shunga qaramay ko‘p o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari aniqlanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’. Pratov, L.Silamsulayeva, E. Sulaymon,X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov BOTANIKA(Morfologiya, Anatomiya, Sistematisasi, Geobotanika) "Ta’lim nashriyoti" Toshkent-2010.y.
2. Zokirov Q. Z, Jamolxonov X. A, Botanikadan ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik lug‘at "O‘qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1973 y.
3. Kursanov L. I, Komarniskiy K. I, Meyer V. F, Razdoriskiy A. A, Uranov. Botanika 1-tom "O‘qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1972 y.
4. M.I.Ikromov, X. N. Normurodov, A. S. Yuldashev Botanika O‘simliklar morfologiyasi va anatomiyasи. 2002-yil.



Chinnigulnamolar qabilasi

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

Xaydarova Gulzoda Jabarali qizi
Ne’matova Mushtariy Qodirjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chinnigulnamolar qabilasining umumiy tasnifi,sistematisasi, shuningdek bu qabilaning ekologiyasi to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Chinnigulnamolar qabilasi, chinniguldoshlar, kaktusdoshlar, semizo‘tdoshlar, sho‘radoshlar va gultajixo‘rozdoshlar oilasi.

Abstract: This article provides information on the general classification and systematics of the carnation tribe, as well as the ecology of this tribe.

Key words: Clove family, Clove family, Cacti family, Clove family, Clove family, and Clove family.

Аннотация: В статье представлены сведения об общей классификации и систематике трибы гвоздик, а также об экологии этого трибы.

Ключевые слова: семейство гвоздичных, семейство гвоздичных, семейство кактусовых, семейство гвоздичных, семейство гвоздичных и семейство гвоздичных.

Chinnigulnamolar qabilasi(Caryophyllales) 17 ta oilani o‘z ichiga oladi. Uning turlari o‘t, buta va daraxtlardan iborat. Barglari oddiy, butun, navbatlashib yoki qarama-qarshi, ba’zan halqa holida joylashgan, aksariyat yonbargsiz. Gullari turli xil to‘pgullarda joylashgan, ikki jinsli, ba’zan bir jinsli, aktinomorf, 4—5 a ‘zoli, gulqo‘rg‘oni ikki qavat, ba’zan gultojsiz, changchilar 5—10 ta yoki ko‘p. Urug‘chisi sinkarp-mevachi barglari qo‘silib o‘sgan, ba’zan qisman apokarp, tugunchasi ustki, yarim ostki yoki ostki. Mevalari — ko‘sakcha.Kronkvist sistemasiga ko‘ra Chinnigulnamolar filogenetik jihatdan Dillcnianamolarga bog‘lanadi va hatto Ayiqtovonnamolardan kelib chiqqan bo‘lishi ham ehtimol deb ko‘rsatiladi. Bu fikrni Л. L. Taxtadjan ham tasdiqlaydi. Olimning fikricha, Chinnigulnamolar qabilasi 17 oilani birlashtiradi. Shulardan Chinniguldoshlar,

Kaktusdoshlar va Sho‘radoshlar oilasiga mansub turlar O‘zbekistonda ancha keng tarqalgan.

Semizo‘tdoshlar oilasi (Portulacaceae) vakillari bir yillik va ko‘p yillik o‘t o‘simliklar, qisman yarimbuta va butachalardan iborat. Barglari oddiy, butun, navbatlashib yoki qarama-qarshi o‘rnashgan, etli va sershira (sukkulent), yonbarglari ham etli.

Gullari bittadan to‘pgullarda joylashgan, ikki jinsli, aktinomorf, bazan zigomorf, gultojibarglari yo‘q, kosachabarglari (gultojibargsimon) odatda 4—5 ta, ba’zan 2—3 ta, oq, sariq, qizil rangli, erkin yoki asosi qisman tutash. Changchilar kosachabarglari soniga teng, yoki undan 2—4 marta ko‘p. Urug‘chisi 2—8 mevabargdan tashkil topgan, ustunchalari erkin yoki qisman qo‘shilib o‘sgan, tugunchasi yarim ostki. Mevasi ko‘ndalang yorilib ochiladigan ko‘p urug‘li ko‘sakcha. Semizo‘tdoshlarning 30 ta turkumga mansub 600 ga yaqin turlari mavjud va ular Yer yuzining barcha qismlarida, ko‘proq iliq va o ‘rta mintaqalarda, ayniqsa, Shimoliy Amerikaning umumiyligi ko‘rinishi g‘arbiy tumanlarida va And tog‘larida tarqalgan.

O‘zbekistonda semizo‘l (Portulaca) turkumining bitta turi—oddiy semizot o‘sadi. . Bu tuksiz, poya va barglari etli, tik yoki yoyilib o‘suvchi, bo‘yi 15—35 sm uzunlikdagi, gullari sariq, gultojibargi kosachabargdan sal uzunroq, bir yillik bcgona o‘t. U sug‘oriladigan ekinlar (sabzavot, poliz, g‘alla, g‘o‘za) orasida juda keng tarqalgan. Bir tup semizo‘t 10000 tagacha urug‘ beradi. Poyalarining ildiz otishi va qalamchalari bilan ham ko‘payadi. Vatani Janubiy Amerika. Yovvoyi semizo‘tning yosh poya va barglaridan xomligicha yoki qaynatib salat tayyorlanadi, qishga tuzlab saqlash ham mumkin.

Kaktusdoshlar oilasi (Cactaceae) asosan seret sukkulent o‘t va buta, qisman daraxtlardan iborat. Aksariyat ko‘pchiligidagi barglari metamorfozga uchragan va tikanlar ko‘rinishida saqlangan. Poyalarining shakli har xil turkumlarida o‘ziga xos tuzilishga ega, ular ustunsimon yassi, bargchasimon sharsimon. Poyalarining seret bo‘lishi ularda suv g‘amlovchi to‘qimalarning kuchli rivojlanganligidandir. Poyasining hajmi ancha katta. Ildizlari yuza yoki chuqur joylashadi. Gullari asosan bittadan, ba’zan poya uchida ro‘vaksimon to‘pgullar hosil qiladi, qismlari spiral, spirotsiklik holda joylashgan, ikki jinsli, aktinomorf, ba’zan zigomorf. Gullarining rangi oq, sariq, qizil, och qizil, erkin yoki asosidan tutashib naycha hosil qiladi. Hozirgi vaqtida kaktuslarning 105 (50—220) turkumga mansub 2200 ga yaqin turlari

mavjud. Ular Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerikaning quruq va yarim quruq iqlimli hududlarida keng tarqalgan. Meksika kaktuslarning asosiy kelib chiqish markazidir. Ular dengiz sathidan 3000—4500 metr balandlikdagi tog‘larda ham o‘sadi. Amerika qit’asidan tashqari kaktuslarning bir necha turlari Afrika, Madagaskar, Maskaren, Seyshel orollarida va Shri-Lankada ham tarqalgan. Kaktusdoshlar oilasi bir qator belgilariga ko‘ra 3 ta kichik oilaga bo‘linadi: Pereskiyadoshchalar (Pereskioideae), Opunksiyadoshchalar (Opuntioideae) va Kaktusdoshchalar (Cactoideae). Kaktusdoshlarning tabiatda va inson hayotida ahamiyati katta. Ularning manzarali o‘simliklar sifatida ekiladigan 300 dan ko‘proq turlari bor.

Chinniguldoshlar oilasi (Caiyophyllaceae) vakillari o‘tlar, qisman yarimbutalar, ba’zan butalardan iborat. Barglari oddiy, butun, yonbargsiz yoki yonbargli, ko‘pincha qinli va poyada qarama-qarshi (faqat Pycnophyllum turkumidagina navbatlashib) joylashgan. Mevasi tishchali yoki chanoqli ko‘sak, ba’zan yong‘oqcha yoki rezavor. Chinniguldoshlarning 80 turkum va 2000 dan ziyod turlari bor. Ular Yer yuzida keng tarqalgan, ayniqla Shimoliy yarimshaming mo‘tadil iqlimli mintaqalarida va O‘rtayer dengizbo‘yi hamda Eronda tarqalgan. O‘zbekistonda chinniguldoshlarning 24 turkumi va 130 tacha turi o‘sadi. Gul tuzilishi va bir qator boshqa belgilariga ko‘ra chinniguldoshlar oilasi 3 ta oilachaga bo‘linadi: Paronixadoshchalar (Paronychoideae), Yulduzo‘tdoshlar (Alsinoideae), Chinniguldoshchalar (Caryopylloideae).

Chinnigul (Dianthus) turkumiga bir yillik, ko‘p yillik (O‘zbekistonda) o‘tlar kiradi. Barglari bandsiz, chiziqsimon-tasmasimon, qaramaqrashi o‘rnashgan. Gullari bittadan yoki dixaziy to‘pgulda joylashgan. Yovvoyi turlaridan to‘rttangachali chinnigul, yovvoyi chinnigul respublikamizning barcha viloyatlaridagi adir va tog‘ yonbag‘irlarida tarqalgan. O‘zbekiston chinniguli O‘zbekiston Respublikasining „Qizil kitob“ iga kiritilgan. Madaniy turlaridan bir yillik xitoy chinniguli gulzorlarda manzarali o‘simlik sifatida ekiladi

Gultojxo‘rozdoshlar oilasiga (Amaranthaceae) o‘tlar, yarimbutalar, butalar, ba’zan daraxtlar kiradi. Asosan Amerika va Afrikaning tropik, subtropik hududlarida, Osiyo va Avstraliyada, qisman Yevropaning iliqroq mintaqalarida tarqalgan. Barglari oddiy, yonbargchasiz, poyada navbatlashib yoki qarama-qarshi joylashgan. Mevasi yong‘oqcha, ba’zan rezavor, urug‘lari sharsimon, yasmiqsimon va yaltiroq.

Gultojixo‘rozdoshlar oilasining 3 ta oilachasi mavjud: Derringiyadoshchalar (Derringioideae), Gultojixo‘rozdoshchalar (Amaranthoideae), Gomfrenadoshchalar (Gomphrenoideae). Ular 65 turkum va 900 dan ko‘proq turni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda esa 1 turkum va 10 turi o‘sadi.

Sho‘radoshlar oilasi (Chenopodiaceae) O‘t o‘simgilchalar, yarimbutalar, ba’zan buta va daraxtlardan iborat. Barglari oddiy, yonbargsiz, navbatlashib yoki qaramaqarshi o‘rnashgan, ba’zan reduksiyalangan — bargsiz yoki metamorfazalangan — tangacha yoki qipiqlacha ko‘rinishida. Turlari ancha seret, tuksiz yoki har xil tukli: cho‘llarning sho‘rlangan tuproqli muhitida qumlarda o‘sishga moslashgan. Gullari ko‘rimsiz, anemofil, ba’zan entomofil, boshoq yoki qisqa bandli dixaziylarga joylashgan, ba’zan murakkab, g‘uj dixaziylar dumaloq to‘pgullarni hosil qiladi. Oilaning turkumlarida gul tuzilishining bir necha variantlari kuzatiladi. Ammo gulqo‘rg‘on qismlari har xil turkumlarida ba’zan kamroq, bitta yoki umuman yo‘q. Mevasi yong‘oqcha, murtagi egilgan, spiralsimon. Ko‘sakchasimon yoki rezavor mevali turlari ham mavjud. Sho‘radoshlar orasida muhim oziq-ovqat, yem-xashak (cho‘l, yarim cho‘l), dorivor va begona o‘tlar bor. Oilaning 110 turkumiga mansub 1500 dan ko‘proq turlari mavjud bo‘lib, ular O‘rtayer dengizbo‘yi, G‘arbiy, O‘rta va Markaziy Osiyoda, Shimoliy Amerikaning prciriyalari, Janubiy Amerikaning pampaslarida va Avstraliyaning sahrolarida keng tarqalgan. O‘zbekistonda 43 turkumi va 180 turi yovvoyi holda o‘sadi. Sho‘radoshlar kichik oilasining lavlagi, ismaloq, olabuta, tereskcn, ebalak, kamforosma, kumarjik, qumtariq va izen kabi turkumlarining turlari yovvoyi holda respublikamizda ancha keng tarqalgan.

Lavlagi (Beta) turkumi bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar, ularning 10 turi bo‘lib, Kavkaz, Kichik Osiyo va O‘rtayer dengizbo‘yi mamlakatlarida tarqalgan, 5 turi Kavkazda o‘sadi. O‘rta Osiyo va shu jumladan O‘zbekistonda yovvoyi holda o’smaydi. Madaniy holda oddiy lavlagining ko‘plab navlari ekildi. . Uning ajdodi Atlantika okeani va O‘rtayer dengizbo‘yi qirg‘oqlari hududlarida, G‘arbiy Yevropada, Sharqiy Kavkazortida o‘sadigan yovvoyi ko‘p yillik lavlagi yoki dengizbo‘yi lavlagisi hisoblanadi. Lavlagi ikki yillik ildizmevali o‘t, birinchi yili yirik tuxumsimon barglar va ildizmeva, ikkinchi yil esa rombsimon mayda barglar va to‘pgullar hosil qiladi.

Sho‘ra (Chenopodium) turkumi bir yillik, ikki yillik, ba’zan ko‘p yillik o‘tlardan tashkil topgan. Barglari bandli, butun yoki tishchali. Gullari ikki jinsli, to‘pgullari shingil, boshoq va boshqacha to‘pgullarda o‘rnashgan. Gulqo‘rg‘oni

5(3—4) a’zoli, changchisi 5 ta, urug‘chisi 2 meva bargchali. Mevasi yong‘oqcha, pardasimon po‘st bilan o‘ralgan. Murtagi taqasimon yoki halqasimon. Sho‘ralarning 250 dan ko‘proq turlari bor, shundan O‘zbekistonda 10 turi uchraydi.

Xulosa:Chinnigulkabilar kichik ajdodcha 3 ta qabila, 19 ta oila, 650 tacha turkum va 11500 taga yaqin turni birlashtiradi.Hozirgi vaqtida bu ajdodchaning 3 ta qabilasi borligi qayd etilgan: Chinnigulnamolar (Caryophyllales), Toronnamolar (Polygonales), karmaknamolar (Plumbaginales). Bulardan Chinnigulnamolar qabilasi bir qator belgilariga ko‘ra boshqalariga nisbatan soddarоq tuzilgan.

Foydalaniлgan adabiyotlar:

1. O’. Pratov, L.Silamsulayeva, E. Sulaymon,X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov BOTANIKA(Morfologiya, Anatomiya, Sistematisasi, Geobotanika) "Ta’lim nashriyoti" Toshkent-2010.y.
2. Zokirov Q. Z, Jamolxonov X. A, Botanikadan ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik lug‘at "O‘qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1973 y.
3. Kursanov L. I, Komarniskiy K. I, Meyer V. F, Razdoriskiy A. A, Uranov. Botanika 1-tom "O‘qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1972 y.
4. M.I.Ikromov, X. N. Normurodov, A. S. Yuldashev Botanika O‘simgiliklar morfologiyasi va anatomiysi. 2002-yil.

Research Science and Innovation House

Маънавиятимизнинг тарихий илдизи (Гендер тенглиги тарихий силсилалар талқинида)

Юлдашева Гулнора Камиловна. – Низомий номидаги ТДПУ
Тарих факультети “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” кафедраси
доценти в.б, тарих фанлари номзоди

Ибрагимова Муслима Юлдашевна

Тарих фанлари номзоди

Аннотация: Мақола ислом динида хотин-қизларнинг ҳуқуқи, жумладан аёлларнинг мерос олиш ҳуқуқи, жамиятда аёлларни тўлақонли ҳимоя қилиши масаласига бағищланган.

Аннатация: Статья посвящена вопросу прав женщин в Исламе, в том числе права женщин на наследство по закону, а также полноценной защиты женщин в обществе.

Abstract: The article focuses on the issue of women's rights in Islam, including women's right to inherit by law, and the full protection of women in society.

Калит сўзлар: хотин-қизлар ҳуқуқи, мулк ҳуқуқи, мерос ҳуқуқи, оила, бола тарбияси, аёлларнинг тенг ҳуқуқлиги, ижтимоий ҳимоя, шариат ҳукми.

Ключевые слова: права женщин, права собственности, права наследства, семья, воспитание детей, равные права женщин, социальная защита, законы шариата.

Keywords: women's rights, property rights, inheritance rights, family, child rearing, equal rights of women, social protection, sharia law.

Кириш

Мухтарам Президентимиз Ш.М Мирзиёевнинг ушбу ”Бир хақиқат аёнки ҳар қандай халкларнинг маънавий даражасини аввало шу юрт аёллариниг маънавий даражаси белгилайди”, сўзлари жамиятда аёлнинг ўрни нақадар бекиёс эканлигини кўрсатади.¹ Жамиятнинг, миллатнинг бекиёс ривожи, юртнинг равнақи, гуллаб яшнаши, аёлнинг эътиқоди, диёнати, ахлоқ одоби,

¹ Мирзиёев.Ш.М Миллий тараккиёт йўлимизни қайтият билан давом эттириб янги боскичга кўтарамиз.1-жилд-Т: “Ўзбекистон”, 2017,125-бет

ҳалоллигига жуда боғлиқ. Кўхна Шарқ ҳамиша тафаккур бешиги бўлиб келган. Шарқ аёллари эса ҳалоллик эзгулик меҳроби бўлиб келганлар. Бу меҳробдан инсоният ҳамиша ботиний куч олиб туради. Собиқ Шўро тузими даврида ёзилган кўплаб китоблар, ўша давр руҳи асосида олиб борилган, “илмий тадқиқотлар”, коммунистик партия кўрсатмаси билан ўқилган маърузаларда, “Шарқда азал азалдан аёлларга шафқатсизларча муносабатда бўлишган, уларни хўрлашган, зўрлашган, аёл зоти бирор бир хукукга эга бўлмаган” деган уйдирмалар кўп маротаба айтилган². Инсон тафаккури, ақлий салоҳияти, юксак даражада кўтарилган асримизда, дунё минтақаларида рўй берадиган, мураккаб жараёнлар, воқеа ҳодисаларни моҳиятини, сабаб ва оқибатини, идрок этиш, эзгулик ва ёвузликни, самимийлик ва ғаразгўйликни, холислик ва ғаламисликни, бир биридан ажратиш осон бўлмай қолди. Бу нарса ахборот олами кун сайин глобаллашаётган, минтақаларда давлатлар ва мафкуралар манфаатлари ўзаро тўқнашаётган, иқтисодий рақобатлар, инқирозлар рўй берадиган бир пайтда яққол кўзга ташланмоқда. Бунга бефарқ қараш мумкин эмас, чунки ҳар қандай ғайри илмий талқин, ассосиз айблов, маълум мақсадни кўзловчи бўхтон, қасдан тўкиб чиқарилган иғво, агар унинг сохталиги ошкор қилинмаса, унга қарши зарба берилмаса, жамият аъзоларининг маълум қисмининг онгига ўрнашади, кўплаб турли сохта фикрларнинг пайдо бўлишига олиб келади.

Мусулмон халқларида аслида аёлларга муносабат бутунлай бошқача бўлганлигини кўплаб тарихий, илмий, манбалар орқали биламиз. Масалан Уэльс шахзодаси Чарльз Филипп Артурнинг 1993 йил Оксфорд университети қошидаги Ислом тадқиқотлар марказида сўзлаган машҳур “Ислом ва Ғарб” номли нутқида қуйидаги фикрлар айтилган “Туркия, Миср, Эрон каби мусулмон давлатларида Европадан анча илгари аёлларга сайлаш хукуқини берганлар, мусулмон аёллари, хаттоқи Швецария аёлларидан ҳам аввал, бундай хукуқга эга бўлганлар, ушбу мамлакатларда анчадан бери аёллар эркаклар билан тенг микдорда маош олиб, жамиятда тўла ижтимоий ролни бажариш имкониятларига эга бўлганлар. Мусулмон аёлларининг мулк ва меросга доир хукуқлари, шунингдек меҳнат қилиш хукуқлари, ҳамма жойда

² Аюпов Ориф. Дунё. Сиёsat. Жамият,-Гулистон,2017.3-сон.125-бет

ҳам бир хил амалга ошмаган бўлсада, бундан бир минг тўрт юз аввал Қуръони Каримда бу тўғрида очиқдан очик айтилган эди. Буюк Британия тарихида аёл киши, илк бор бош вазир лавозимига эришганида, қатор Ислом давлатларида аёллар аллақачон бу лавозимда ишламоқда эдилар”³. Ушбу эътирофдан кўриниб турибдики, Ислом дини ҳамиша аёлларни эъзозлаш, уларни жисмонан, руҳан, асраб авайлаш, хақида қайгуришни эркаклар зиммасига юклаб келганлигини манбалардан биламиз.

Методлар

Имом Бухорий ва Имом Муслим ривоят қилган ҳадисларда айтилишича, мусулмон оламида машхур ва обрўли аёл бўлган, Асмөй бинт Зайт Ал Анзория Пайғамбаримиз Мұҳаммад (с.а.в)га савол билан мурожаат қилибди, ”Эй Аллоҳнинг Расули биз Аллоҳга ва сизга иймон келтирдик ва эргашдик, мен ортимдаги муслима аёлларнинг элчисиман, Аллоҳ албатта сизни эркак ва аёлларга юборган. Биз аёллар жамоаси тутилиб ўралиб уйда ўтириб қолганмиз, эркакларнинг шаҳват мавзеси, болаларингизнинг кўтарувчиларимиз, эркаклар жамоат жанозасига хозир бўлишлари билан афзал қилиндилар, қачон улар сафарга чиқса, молларини, муҳофаза қиласиз, фарзандларини тарбия қиласиз, ажрда(Аллоҳнинг мукофоти), эркакларга шерик бўла оламизми” дедилар. Пайғамбаримиз Мұҳаммад (с.а.в) ўз сахобаларига ўтирилиб, қарадиларда “ўз дини хақида ушбу аёлдан кўра яхшироқ савол берган аёлни гапини эшитганмисизлар” деб сўрадилар. Сахобалари “Йўқ Аллоҳнинг Расули” деб жавоб бердилар. Пайғамбаримиз Мұҳаммад (с.а.в) айтиларки “Эй Асмөй қайтиб бориб орtingдаги аёлларга билдирики, “сизнинг ҳар бирингизнинг яхши эр тутишингиз, унинг розилигини исташингиз, оила, бола тарбияси билан машғул бўлишингиз, эркаклар мувофиқ бўлганига эргашишингиз, сен зикр қилган нарсаларга тенг бўлади”⁴. Демак Исломда уйда ўтириб, яхши хулқи, одоби, эр ва фарзандга муносиб меҳр, парвариш кўрсатган аёллар ҳам эркаклар билан баравар, Аллоҳ томонидан ажр мукофотга созвор бўлишлари Пайғамбаримиз (с.а.в) ҳадисларида ва диний манбаларда келтирилган.

³.Назаров. К. Фоялар фалсафаси,-Т, Академия, 2011.120 бет.

⁴ Саифназаров.И. Султоноев.Т. Диншунослик. Ўкув кўлланма-Т,Иқтисодиёт,2019,154---бет.



Натижалар

Ислом шариатининг хукми бўйича муслима аёл бошқаларга сиёсий бошпана бериш хукуқига ҳам эгадир. Макка фатҳи куни Али Ибн Толиб (р.а)нинг сингиллари Умму Ханиъ бинт бир душман мушрикни ўз ҳимоясига олиб, унга бошпана беради, буни билиб қолган укалари Али Ибн Толиб ўша душманни ўлдирмоқчи бўлганларида, Умму Ханиъ бинт Пайғамбаримиз Муҳаммад(с.а.в)га мурожаат қиласди, шунда Пайғамбаримиз Муҳаммад(с.а.в) “Эй Умму Ханиъ сен кимни ҳимоянгга олган бўлсанг, биз ҳам уни ҳимоямизга олдик, кимга омонлик берган бўлсанг, биз ҳам унга омонлик бердик” деганлар. Демак ушбу Ҳадиси шарифларида баён қилинганидек Исломда аёл хукуки муносиб баҳолангандан ва унга етарлича эътибор берилган. Ислом динига қадар аёлнинг отанинг, эрнинг мулкидан мерос олиш хукуки бўлмаган. Эр вафот этгач унинг мулки акаси ёки укаси ихтиёрига ўтган ,вафот этган эрнинг хотини, марҳум эрнинг акаси ёки укаси томонидан ўз никоҳига олинган ёки бошқа кишига турмушга берилиб, маҳрини ўzlари олганлар. Ислом дини жорий этилгач Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) аёлнинг мулқдан мерос олиш хукуқини ёқлаб, аёлга мерос олиш хукуқини жорий қилдилар. Ўз навбатида Исломда аёлни ҳимоя қиладиган кўплаб хукуқлар мавжуд эди. Исломда қизларнинг таъминоти ота зиммасида бўлиб, қиз турмушга чиққач таъминоти эрнинг зиммасида, эри вафот этгач, акаси, укаси, яқин қариндошлари зиммасида бўлиб, шу маъсул кишилар томонидан аёлга нафақа тайинланган. Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) аёлларимизни саводли бўлишларини, билим олишларини маъқуллаганлар, аёл кишининг зиммасига оғир меҳнат қилиш маҳбурияти юклатилмаган, аёлларни оғир меҳнат қилишдан қайтарганлар. Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) вафот этгач, кўплаб саволларга жавоб олиш учун сахобалар Оиша онамизга мурожаат қилишиб, маслаҳат олиб турганлар ва ушбу маслаҳатлар асосида иш кўрганлар.

Аёлларнинг teng хукуқлик масаласи ғоят мураккаб тарихга эга. Инсоният цивилизациясига муҳим ўрин эгаллаган ушбу масалага асрнинг бошларида француз назариётчisi Шарл Фурье асос солган. Америка аёллари ўз хукуқлари учун курашни 1848 йилда бошлаганлар. Аёлларнинг эркаклар билан расман teng хукуқлиги этилган қонунлар Австрия, Германия, Польша, Швецияда 1920 йили, Буюк Британияда 1929 йили, Франция ва

Италияда 1945 йили, Грецияда 1951 йили эълон қилинган. Хотин қизларнинг эркаклар билан тенг хукуқлиги борасида дунё давлатларида қабул қилинган қатор қонунлар амалга оширилган давлат сиёсати доирасидаги самарали амалий ишлар, тарихига назар ташласак аёлларга эркинлик бериш, уларни эъзозлаш, уларга ўз ижтимоий хукуқларидан фойдаланиш, имкониятини Ислом дини бирмунча илгарироқ тақдим қилганига гувоҳ бўламиз.

Хулоса

его языке и правильно выражать свои мысли. Преподавание любого предмета требует ряда обязанностей и усилий, как со стороны преподавателя, так и со стороны студента. Преподаватель, отвечающий за науку, предполагает выбор конкретного метода и соответствующего метода обучения, подбор заданий для каждого вида учебной деятельности, методических пособий с учётом уровня знаний учащихся и др. Это требует усилий, серьёзности и ответственности непосредственно от преподавателя. Преподавание русского языка инновационными методами даёт инженерам прекрасную возможность прочитать и понять инновационные технологии в своей области и высказать своё мнение. Наши знания о наших мыслях не ограничиваются нашими эмоциями, они служат нам основой для изучения и освоения инновационных лабораторий и новых методов проведения исследований в них. Чтобы правильно выучить иностранный язык, первым шагом в изучении русского языка является правильное самовыражение на родном языке. Можно представить «Зону общения»: она расширяется тогда, когда человек больше общается на интересующем его иностранном языке. В этом случае его речь становится богатым источником межязыкового общения, обнаруживается акцент, характер которого определяется, прежде всего, различием в строении и деятельности механизмов, присущих речевой деятельности.

Процесс обучения русскому языку как иностранному - это процесс взаимодействия преподавателя со студентами. Это приобретение знаний, навыков, умений в области языка, изучаемого учителем. Разговорный опыт студентов и умение говорить по-русски позволит им достичь высокой эффективности и в инженерной сфере. Обучение иностранному языку, особенно русскому языку как иностранному, является очень сложным и многогранным процессом. В процессе обучения преподаватель и студенты имеют дело с тремя группами явлений: собственно язык общения, как средство хранения и передачи информации, речь (способы общения как форма текстов и результат общения) и речевая деятельность (форма процесса общения) представляет собой систему словесных действий).

Программа изучения русского языка в инженерно-технологических институтах включает в себя углублённое изучение грамматики, фонетики и лексического строя языка, а также других иностранных языков, ведь сегодняшнее развитие требует этому большого внимания. При образовании



сохраняются некоторые трудности в обучении языковой системе, в основном грамматике, в том числе отсутствие активной устной практики, то, что у каждого студента в группе обучение иностранному языку строится на развитии у студентов навыков говорения в результате устной языковой деятельности. Потребность в программе обмена информацией для имитации учений сегодня очевидна с их собственными потребностями.

Как указывает А. Н. Щукин, умения и навыки устного общения являются основной целью изучения языка. Участие в устном общении предполагает овладение средствами общения (фонетическими, лексическими, грамматическими, переводческими и др.) и предметами коммуникативной деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо), которые считаются компонентами общения. Студентов следует обучать не только основам иностранного языка, но и учить их интересно и корректно общаться на другом языке как в рамках профессиональных, так и в повседневной жизни. Преподавание русского языка как иностранного в настоящее время происходит в условиях глобальных изменений всей системы образования - цели изучения языка, потребности учащихся, условия требуют этого. Основной целью обучения иностранному языку (языковым компетенциям) является степень, в которой человек овладел коммуникативной компетенцией, т.е. изучаемый язык имеет большое значение в некоторых сферах деятельности для того, чтобы сделать человека способным к общению посредством средств. В основе коммуникативной компетенции лежит комплекс лингвистики. Это знания и навыки разговорной речи, которые формируются в ходе курса. Параллельное развитие всех вышеперечисленных умений у учащихся является основной задачей каждого преподавателя. Обучение должно быть направлено на одновременное формирование нескольких видов речевой деятельности в определённой последовательности. Ведь развитие одного вида способствует развитию другого вида. Презентации языковых упражнений, направленных на развитие навыков русского языка и овладение способами формирования мысли и в речевых упражнениях, в которых изучаемый материал включается в ситуацию общения и обеспечивает формирование речевых навыков.

Несмотря на сложность процесса изучения иностранного языка, опытный преподаватель может изучить специфику овладения языком, применить новые

методы обучения на занятиях, исходя из индивидуально-психологических особенностей учащихся. Студенты должны искать и применять на практике такие пути и средства, чтобы быть эффективными и полезными преподавателю при изучении русского языка. Многое зависит от преподавателя в этой области, помимо традиционных методов обучения, он должен использовать и инновационные методы. По его словам, обучение русскому языку должно строиться на развитии речевой деятельности. Это включает в себя инновационные методы обучения. Взаимодействие субъектов образовательного процесса происходит на паритетных началах, где преподаватель и студент являются частью команды, стремящейся к достижению цели. Способствование комфортной организации, возможность создать активную учебную среду, в которой взаимодействуют все учащиеся, взаимодействуя друг с другом, позволяет добиться высокой эффективности. К таким методам относится моделирование. Очень важно, чтобы проблемные ситуации, ролевые игры организовывались на основе ситуационного анализа.

В таком обучении учитываются потребности учащегося, задействуется его личный опыт, осуществляется целенаправленная речь через его знания. Оптимальный результат достигается за счёт сотрудничества, созворчества, самостоятельности и свободы выбора студента. Это позволяет каждому учащемуся анализировать свою работу. Кардинально меняется схема отношений между участниками образовательного процесса, то есть равноправное общение преподавателя и студента на занятии позволяет студенту чувствовать себя комфортно.

На занятиях делим группу на 2 или 3 подгруппы и распределяем проблемные случаи, интерес к предмету возрастает.

1. Метод «Subjectprotection» («Задача объекта»). Этот метод использовался на занятии грамматики. Студенты делятся на три команды. С помощью преподавателя каждая команда заранее подготовила по два проблемных вопроса по изучаемой теме (средства выражения вежливости, роль глагола в выражении семантики вежливости). Каждый член команды задаёт вопросы противоположным командам. При выражении различных форм вежливости особое внимание уделялось тонкостям глагольной формы, таким как выделение значений глагола спрашивать: Пожалуйста, покажите ваши документы (повышенная категоричность и формальность). Слова



пожалуйста (вежливое выражение просьбы говорить официальную речь) Садитесь: Врач и пациент: Садитесь, пожалуйста, на что вы жалуетесь? (вежливо) и от отца к сыну: Пожалуйста, садитесь и молчите! (резкий, категоричный порыв). В реагировании участвовали все члены команды. Каждый участник зарабатывал баллы для своей команды. Свободный обмен мнениями позволил глубже и шире осветить все вопросы.

2. Метод «Now let's make noise!"!»(«Сейчас пошумим!»). Каждый студент в группе может выступать как в роли студента, так и в роли преподавателя либо два игрока выступали в роли учителя, смотрящего на публику. По команде преподавателя «А теперь пошумим!» группа начала говорить громко в пределах допустимого. Задача игроков, выступающих в роли преподавателей, состояла в том, чтобы применить разное смысловое наполнение вежливости (поощрение, пожалуйста, совет), успокоить, заставить замолчать аудиторию. Учащийся, выполнивший задание лучше остальных, получал три балла.

3. Принять увеличение числа актёров. Помимо основных выступлений, в игру были включены группы, эксперты и переводчики. Эксперты отвечали за составление выводов и выводов о действиях каждой команды. Включение позиций во весь процесс занятия-игры, побуждающих учащихся брать на себя ответственность за ситуацию. Помимо основных представителей, важная роль отводится переводчикам каждой команды, которым предстоит переводить на узбекский язык, найти аналоги языка узбекского этикета и коммуникаторов, выявить компоненты смыслового наполнения вежливости.

4. Принять увеличение количества ограничений. Условием этого стиля будут включены краткосрочные импровизации на тему смыслового содержания вежливости. Неподготовленные учащиеся описывают заданные поведенческие стратегии: мотивация, конкретное приглашение из популярного узбекского рассказа или пословицы, приветствие, соблазнение, знакомство и т.д. Студенты должны выразить своё мнение соответствующим образом. Это было на русском языке. Каждый студент должен был закончить за три минуты. Приёмы «увеличение количества ограничительных условий» и «увеличение количества действующих лиц» фиксировались на видеокамеру, учащиеся имели возможность проанализировать себя, вспомнив ошибки и хорошие впечатления об уроке.



Полученный результат. Результаты, полученные от методов «Subjectprotection» и «Nowlet'smakenoise!» Иными словами, 21 из 23 учащихся группы согласились освоить тему по методу «Предметная защита», а второй метод использовался для изучения «Nowlet'smakenoise!» Восемнадцать из 23 студентов вспомнили 60 процентов пройденных тем, а это значит, что наиболее эффективным методом является упомянутый выше 1-й метод.

И так, этим в заключении хочу сказать, что студенты технических вузов смогут повысить коммуникативную компетентность, а также свободно общаться на русском языке, легко понимать и повторять речь носителей языка и, наконец, эмоционально участвовать в занятиях, чтобы быть хорошим коммуникатором. Это достигается за счёт инновационного образования и богатого искусства. Целью методических приёмов, включённых в данное обучение, является обучение инженеров русскому языку как иностранному.

ЛИТЕРАТУРА

1. Дьюи Дж. Демократия и образование/Пер. с англ. - М.: Педагогика Пресс,
2. Зиёмахаммадов Б. Книга, ведущая к совершенству. Т. Издательство "ТУРОН-ИКБОЛ", 2006.
3. Ишмухamedov R., Абдуколиров А., Пардаев А. Инновационные технологии в образовании. Ташкент, 2008.
4. Международный справочник по преподаванию и изучению экономики. Под редакцией Гейл М. Хойт, профессора экономики Университета Кентукки, США, и Ким Мари Мак Голдрик, кафедры бизнеса Джозефа А. Дженнингса и профессора экономики Ричмондского университета, США, 2012 г.
5. Ларнер И.Я. Внимание к технологии обучения. - М.: «Педагогика», 1990.

2000.

**Research Science and
Innovation House**

BOSH MIYA QON AYLANISHINING ISHEMIK TIPDAGI BUZILISHINI JARROXLIK DAVOLASH USULLARI

D.Y.Batirov, A.P.Rahimov, A.X.Allanazarov, X.A.Madrimov
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Umumiy xirurgiyasi yo‘nalishi magistri

Bugungi kunda butun dunyoda bosh miya qon aylanishining ishemik tipdagi buzilishi (BMQAITB) eng ko‘p tarqalgan patologiyalardan biridir. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma’lumotiga ko‘ra dunyo aholisining **10-15%** ida BMQAITB aniqlangan bo‘lib, o‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha o’tkir miokard infarqtidan keyingi ikikinchi o‘rinni egallaydi. Ishemik insultni davolashning asosiy prinsplari qon reologiyasini yaxshilash, miya shishini oldini olish va davolash, gipoperfuziyasini davolash, neyroproteksiya, arterial bosim nazorati, parenteral oziqlantirish, kislota-ishqor muvozanatini va suv-elektrolit muvozanatni tiklash va sipmtomatik terapiyadan iborat. Ishemik insultni patogenetik davolashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.


Hozirgi vaqtda 2013 yildan boshlab UUA kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni boshqarish bo‘yicha Rossiya milliy tavsiyalariga muvofiq, IUA PE uchun jarrohlik davolash uchun ko‘rsatmalar: deformatsiya zonasida LSK max ning 150 sm / s yoki undan ko‘proq oshishi va/yoki deformatsiya zonasida LSK ning proksimal (buzilmagan) qismiga nisbatan 2 baravardan ko‘proq oshishi. Zamonaviy jarrohlik va umuman tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bu miyaning qon tomir kasalliklarini o‘rganishdir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, turli mamlakatlar aholisi o‘rtasidagi o‘limning umumiyligi tarkibida miya qon tomir kasalliklaridan o‘lim yurak kasalliklari va xavfli o’smalardan keyin uchinchi o‘rinda turadi va o‘limning barcha sabablarining taxminan 11% ni tashkil qiladi, yurak-qon tomir kasalliklari tarkibida esa ularning o‘lim ko‘rsatkichlari 30-35% ni tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Bosh miya qon aylanishining ishemik tipdagi buzilishini jarroxlik davolash usullarining ahamiyatini baholash.

Tadqiqot xususiy material va usullari.

Ilmiy tekshirishimiz Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida qon tomir jarrohligi bo'limida bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi, uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarini bilan statsionar davolanayotgan 60 nafar bemor, reanimasiya bo'limida bosh miya qon aylanishi ishemik tipdagi buzilishi tashxisi bilan davolangan 40 bemor kasallik tarixi tekshirildi. Bemorlarning yoshi 40 yoshdan 70 yoshgacha. Ishemik insultda jarrohlik va terapevtik tadbirlarning tuzilishi kasallikning patogenezi kontseptsiyasiga asoslanadi. Davolash usulini tanlashda hayotiy funktsiyalarning buzilishi darjasni, yo'ldosh kasalliklar va takroriy insult xavfi hisobga olingan. O'tkazilgan asosiy davolash usullari quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan: bosh miyada qon aylanishini yaxshilash, miyada mavjud kognitiv buzilishlarni tuzatish, neyroproteksiya, insultning ikkilamchi profilaktikasi.

Tadqiqot uchun tanlangan asosiy guruhdagi bemorlarga uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarini bartaraf etish uchun o'tkazilgan jarrohlik muolajalari 1.1.1. – rasmida keltirilgan.



1.1.1. – rasm. Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalarini bartaraf etish uchun asosiy guruhda o'tkazilgan jarrohlik muolajalari

Operatsiya ichidagi asosiy ma'lumotlar 1.2-jadvalda keltirilgan. EKEAE o'tkazgan bemorlarda o'rtacha operatsiya vaqtini eng qisqa bo'lib, 60 ± 20 minutni, KKEAE dan keyin bemorlarda 80 ± 30 daqiqani va IUA reseksiyasi bemorlarda 92 ± 35 daqiqani tashkil etdi.



UA bosishning o'rtacha vaqtini o'rtacha ish vaqtini bilan bog'liq va mos ravishda 16 ± 4 min, 20 ± 7 min, 26 ± 9 min. Biz shunga o'xshash natijalarini operatsiyaning asosiy bosqichining davomiyligi bilan bog'laymiz - KKEAE operatsiyalarining uzoq davom etishi bir qator hollarda sintetik yamoq bilan arteriya plastik jarrohlik zarurati bilan bog'liq. Barcha 80 holatda qon yo'qotish minimal edi va 50 ml dan oshmadidi.

Jadval 1.2.

Tadqiqot uchun tanlangan guruhlarda operatsiya davomidagi ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Eversion KEAE (n=12)	Klassik KEAE (n=49)	IUA reseksiyasi (n=19)
Operatsiya davomiyligi	60 ± 20	80 ± 30	92 ± 35
UA bosilishining o'rtacha vaqtini	16 ± 4	20 ± 7	26 ± 9
Yo'qotilgan qon miqdori	50 ml dan kam		

Hech qanday holatda IUA ni protezlash talab qilinmadi. Intimani distal yo'nalishda tikish 4 ta holatda (5%) EKEAE qilingan bemorlarda, 6 ta holatda (7,5%) EKEAE dan keyin va 8 ta holatda (10%) IUA reseksiyasidan keyin amalga oshirildi.

Uyqu arteriyalarining stenozi va patologik deformatsiyalari bilan xastalangan bemorlarda o'tkazilgan jarrohlik muolajalarida aniqlangan ASP xarakteristikasi 1.3-jadvalda (1.2.2-rasmida) keltirilgan.

Research Science and Innovation House


Jadval 1.3.

Jarrohlik muolajasida aniqlangan ASB xarakteristikalari

Ko'rsatkichlar	Eversion KEAE (n=12)	Klassik KEAE (n=49)	IUA resekciyasi (n=19)
ASP zich va aniq kalsifikatsiyalangan	3 (3,75%)	26 (32,5%)	6 (7,5%)
ASP Yumshoq, embolik	1 (1,25%)	5 (6,25%)	2 (2,5%)
barqaror asoratlanmagan ASP	8 (10%)	18 (22,5%)	11 (13,75%)

O'tkazilgan eversion KEAE dan 3 ta holatda (3,75%), klassik KEAE dan 26 ta holatda (32,5%) va IUA rezeksiyasidan 6 ta holatda (7,5%) ASP zich va aniq kalsifikatsiyalangan bo'lib chiqdi.

O'tkazilgan eversion KEAE dan 1 holatda (1,25%), klassik KEAE dan 5 ta holatda (6,25%) va IUA rezeksiyasidan 2 holatda (2,5%) detrit, ateromatoz va tromboz bilan murakkab, yumshoq, embolik ASP aniqlandi.



1.2.2.-rasm. Jarrohlik muolajasida aniqlangan ASB xarakteristikalari

Qolgan hollarda - mos ravishda 8 (10%), 18 (22,5%) va 11 (13,75%), IUA og'zida barqaror asoratlanmagan ASP kuzatildi (3,8-jadval). Shuni ta'kidlash

kerakki, operatsiya vaqtida aniqlangan ASP ning tabiatи IUA ning operatsiyadan oldingi BSA UTT ma'lumotlariga to'liq mos keladi.

Xulosa. Shunday qilib, ma'lumotlarni hisobga olgan holda so'nggi yillarda KE xavfsizligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni hisobga olgan holda, bosh miyada qon aylanish o'tkir buzilishi ishemik tipini o'tkazgandan 4 haftagacha bo'lган davrda bemorlarda uyqu arteriyalarining patologiyalarida rekonstruktiv jarrohlikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Avrov.M.V. Povshenie pokazatelya kachestva jizni patsientov s kognitivnym narusheniyami svyazannыx s xronicheskoy ishemiei golovnogo mozga / M.V. Avrov A.V. Kovalenko / Material IX mejdunarodnogo kongressa «Neyroreabilitatsiya – 2017» : tez. – Moskva, 2017. – S. 3–5
2. Alekyan B.G., Pokrovskiy A.V., Zotikov A.E., Karapetyan N.G., CHupin A.V., Popov V.A., Varava A.B., Timina I.E., Gyoletsyan L.G., Irodova N.L., Grigoryan M.V., Knsh YU.B., Kravchenko V.V., Galstyan A.V., Revishvili A.SH. Rezultat razlichnx strategiy lecheniya patsientov s sochetannym porajeniem vnutrennix sonnx i koronarnx arteriy. Endovaskulyarnaya
3. Alyoshinan.I.Kombinirovannaya neyroprotektivnaya terapiya ishemicheskog o insulta v ostrom periode: avtoreferat. Saratov 2015.
4. Alidjanov x. k. i dr. nash орыт lecheniya bolnx, perenesshix ostry ishemicheskiy insult //editor coordinator. – 2020. – S. 1297.
5. Axmediev.M.I dr. Opt transmagnitnoy elektrostimulyasii v komplekse lecheniya operirovannoy spinalnoy dizraffi u detey: dis. – 2021.
6. Axmetov, V. V. Potrebnost rekonstruktivnyx operatsiy na sonnx arteriyax v mnogoprofilnom statsionare / V. V. Axmetov, I. P. Dudanov //Angiologiya i sosudistaya xirurgiya. – 2017. – № 2 (23). – S. 24-26.
7. Batrashov V. A. I dr. Analiz urovnya laboratornogo markera ishemii golovnogo mozga s otsenkoy neyrokognitivnogo statusa pri operativnom lechenii patologicheskix izvitostey vsa //Vestnik Natsionalnogo mediko-xirurgicheskogo Sentra im. NI Pirogova. – 2022. – T. 17. – №. 3. – S.28-32.
8. Baxmetev A.S., Kovalenko V.I., CHexonatskaya M.L., i soavt. Flotiruyushcha struktura sonnoy arterii kak prichina mikroembolii v basseyne mozgovx arteriy // Angiologiya i sosudistaya xirurgiya. 2021, T.27. №1. S.164-167.
9. Bezopasnosti vpolneniya karotidnoy endarterektomii v ostreyshiy i ostry period ishemicheskogo insulta // Angiologiya i Sosudistaya xirurgiya. 2021, T.27. №1. S. 97–105.



10. Belov, Yu. V. Validnost testovx shkal dlya neyrokognitivnogo i psixoemotsionalnogo testirovaniya u patsientov s xirurgicheskoy patologiey prettserebralnx arteriy / YU. V. Belov, L. A. Medvedeva, O. I. Zagorulko [i dr.] // Xirurgiya. – 2017. – № 5. – S. 67–75.
11. Beloyarsev D.F. Nekotore kommentarii k evropeyskim rekomendatsiyam 2017 po lecheniyu ateroskleroticheskix porajeniy braxiotsefalnx arteriy // Angiologiya i sosudistaya xirurgiya. 2019, T.25.№1.S.109–114.
12. Borshikova T.I.Antonov.A.R.,Churlyaev.Yu.A.,Epifanseva.N.N., «Narushen iya transporta kisloroda pri ishemicheskem insulte» Mejdunarodnyy jurnal eksperi-mentalnogo obrazovaniya. – 2015. – № 12. S. 644-645.
13. Ismailov O’S., Batirov D.Y., Rahimov A.P., Allanazarov A.X., Umarov Z.Z.,Sheniyazov Sh.Sh., Rojobov R.R.Molecular genetic association of simultan pathologies gallstone disease and metabolic syndromeInternational // International Medical Scientific Journal Art Of Medicine. Volume 3. Issue 1. ISBN 978-0-578-26510-0. Pages 286-292
14. Yangiboyev Z.R., Batirov D.Y., Rahimov A.P., Allanazarov A.X Our tactics in the treatment of complicated forms of impassability of the terminal section of common bile duct and the vater's papilla in cholelithiasis// European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 01, 2020. 3377-3381 pages.
15. Ismailov O’S., Batirov D.Y., Rahimov A.P., The role of rs1799883 polymorphism of the FABP2 gene in the pathogenesis of nosological syntropy of gallstone disease and metabolic syndrome // The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research Published: June 18, 2021. Pages: 46-51
16. Ismailov O’S., Batirov D.Y., Boboyev K.T., Rakhimov A. P., Molecular-genetic basis in the pathogenesis of nosological synthropy of gallstone disease and metabolic syndrome// Central Asian Journal of Medicine, Volume 4, 2021 Pages:133-140
17. Maktkuliev U.I, Batirov D.Y, Umarov Z.Z, Allanazarov A.Kh., Rakhimov A.P., Nurmatov S.T. Minimally Invasive Interventions in Portal Hypertension Complication with Esophageal and Gastric Varicose Veins. Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. 2023;2(4):274-9.

Innovation House

Miloddan avvalgi 2-mingyillikda qadimgi Xorazm aholisining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari

Urdu ijtimoiy -iqtisodiy fanlar fakulteti
231-tarix guruhi magistri
Shakirova Mardona Maqsudbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Miloddan avvalgi 2-mingyillikda qadimgi Xorazm aholisining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari haqida ilmiy adabiyotlar keng tahlil qilingan va mavzu tadqiq etilgan. Maqolani yozishda adabiyotlar tahlili va boshqa metodlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: bronza davri, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, avesto, zardushtiylik,

Аннотация: В данной статье подробно анализируется научная литература о социально-экономических отношениях населения древнего Хорезма во 2-м тысячелетии до нашей эры и исследуется данная тема. При написании статьи использовался анализ литературы и другие методы.

Ключевые слова: бронзовый век, социально-экономические отношения, Авеста, зороастризм,

Abstract: In this article, the scientific literature on the socio-economic relations of the ancient Khorezm population in the 2nd millennium BC is extensively analyzed and the topic is researched. Literature analysis and other methods were used in writing the article.

Key words: Bronze Age, socio-economic relations, Avesta, Zoroastrianism,

Kirish: Xorazm O‘rta Osiyo hududidagi eng qadimiya davlatlardan biri bo‘lib, aholisi o‘troq va ko‘chmanchi qabilalardan iborat bo‘lgan. Uning hududi Amudaryoning quyi qismidan janubga tomon Murg’ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan. U haqdagi ilk ma’lumotlar “Avesto”, birinchi Doroning Bihistun tosh bitiklari, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. “Avesto”ning Yasht” qismida Xorazm Ming irmoqli daryo”, Ko‘llar va o‘tloqdarga boy o‘lka” sifatida madh etiladi.

Eramizdan avvalgi II ming yillik so‘ngi davrida Markaziy Osiyo qabi-lalari til va e’tiqod birligida o‘zaro transformatsiya jarayonidan ilk davlatchilik shakllandi.

Ibtidoiy davrda o‘lkamizda taraqqiy etgan turli diniy e’tiqod va marosimlari, taraqqiy etgan Sharq xalqlari diniy tafakkuri va dunyoqarashi ta’siridan vaqtlar o‘tib, muqim tus oldi [1]¹.

Eramizdan avvalgi II ming yillikda qabilalar birlashib, davlatchilik shakllana boshlagan bir paytda o‘lkamizda turli diniy e’tiqodlar va maro-simlar o‘zaro integratsiyasi, vaqt o‘tishi bilan muqim tus olishi tabiiy bo‘lgan. Bronza davrining so‘ngi davrida uchta asosiy e’tiqod an'analarining o‘zaro ta’siri bilan ajralib turadi: xaoma quyish bilan bog‘liq mitraistik, olov e’tiqodi hukmron bo‘lgan avestocha hamda So‘g‘ddan shimol va sharq tomonda yashovchi chorvador qabilalarida veda mavzulari aralashgan. Integratsiya-lotincha, Integratio-tiklash, to‘ldirish, integer-butun so‘zi-dan tizim (sistema) yoki organizmning ayrim qism va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodelaydigan tushuncha hisoblanadi [2]².

Asosiy qism: Qadimiy Xorazm mintaqalari hududlarining o‘ziga xos tabiatni, shubhasiz, qadimiy aholining turmush tarzini belgilabgina qolmay, balki bu diyorda yuzaga kelgan qadimiy madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir-biriga qorishuviga ham kuchli ta’sir etgan. Shu boisdan Xorazmning shimoliy qismi (Oqchadaryo deltasi)da miloddan avval IV—III ming yilliklarda ovchilik va baliq ovlash bilan kun kechirgan aholi yashagan bo‘lsa, miloddan avval 2-ming yillikda esa chorvachilik va dehqonchilikning soddagina usullaridan xabardor bo‘lgan qabilalar istiqomat qilgan. Miloddan avval 2-ming yillikning 2-yarmiga borganda, xususan, uning oxiri va miloddan avval 1-ming yillik boshlari (IX—VIII asrlar) da sug‘orma dehqonchilik mukammallashib, yaylov chorvachilik rivoj topgan (Bu davrda Tozabog‘yop, Suvyorgan va Amirobod madaniyatlarini yaratgan qabilalarning qorishmasi asosida tarkib topgan Kavundi (Kavondi) qabilalari yashagan. Ular Xorazmning qadimiy aholisi massagetlarning bevosita ajdodlari bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvachilik, xususan, yilqichilikning rivoji Xorazm aholisining ijtimoiy hayotiga ham kuchli ta’sir etib, suvoriyalar tabaqasini shakllantirgan.

¹ Karomatov X.S. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. T.:2008, -B.-19,-20,-26.

² Кравченко А. И. Культурология Учебное пособие. –М.: Наука, -С.-486, -2018.

Xorazmning janubiy qismida joylashgan vodiy va vohalar (Tajan, Herirud, Murg‘ob va Gyoksur) da esa miloddan avval VI—III -ming yilliklarda yilg‘oq o‘troq sug‘orma dehqonchilik madaniyati qaror topib, taraqqiy qilgan. Bu davrlarda ushbu mintaqaga aholisi qabilalar uyushmasiga birlashib, dehqonchilik xo‘jaligida motiga (ketmon)dan tashqari omochdan hamda har xil katta-kichik sug‘orish inshootlaridan ham foydalangan. Avval ular somonli guvalalardan bir xonali, so‘ngra esa ko‘chalar bo‘ylab guvala va xom g‘ishtlardan bir necha xonali uylar bino qilib, atrofi devor bilan o‘ralgan turar joy va istehkomli qishloqlar barpo etgan. Qadimdan G‘arbiy Osiyo, xususan, shimoliy-sharqiy Eron hududlari bilan bevosita aloqador bo‘lgan. Xorazmning qadimiylar mushtarak madaniyatining ko‘pgina jihatlari, xususan, badiiy madaniyati — aholisining tili, urfodatlari, uy-joylarining tuzilish tartiblari, ro‘zg‘or anjomlari, zebi-ziynatlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, Xorazmning janubiy qismi qadimiylar obidalarida (miloddan avval VI—III ming yillik) somonli guvaladan bino qilingan sahni, ganch aralash loy suvoqli bir xonali uylar ichida o‘choq, supa, g‘alla uchun o‘ra (to‘la) bo‘lgan. Chaqmoqtosh qurollari qirg‘ich, o‘roq, randa, pichoq; suyakdan yasalgan igna, bigiz; yarmatosh; somonli loydadan yasalgan sopol idishlar, ba’zilarining sirtiga qizil rang (angob) berilgan; tosh va sopoldan yasalgan ayol va turli xil hayvon haykalchalar; tosh suyak va chig‘anoqlardan yasalgan tumor, munchoq kabi taqinchoqlar uchraydi.

Markaziy Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib xususan, o‘lkamizdan Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston sopol ro‘zg‘or buyumi, turli jihoz va zargarlik asholarini dengiz chig‘anoqlari va filsuyagi bilan bezatilgan. Metalldan ish-langan buyumlarda fil va ajdar tasviri muhrlar ham uchraydi. Qurolsozlikda Markaziy Osiyo xalqlari Sharqda qadimdan mashhur bo‘lgan, bronzadan yasalgan Baqtriya o‘q-yoylari, Xorazm dudama-xanjarlari va saklarning harbiy boltalari, o‘zining keskirligi hamda jang paytida ishlatishga qulay edi. Qadim Xorazmning Qo‘zaliqir, Xumbuztepa va Xazorasp vohasida qulolchilik charxidan foydalanish boshlangan, temirdan mehnat va harbiy qurollar ishlab chiqarish, saroy, mayishiy bino va otashparastlik sajdagohi hamda otashkadalar bunyod etilgan. Badaxshondan boshlangan “lojuvard yo‘li”, g‘arbiy Sibir(Olttoy)ning “oltin yo‘li” ham O‘rta Osiyo hududidan o‘tib, O‘rta yer dengizigacha davom etardi. Qadimiy yo‘llar nafaqat savdo-sotiqni balki, ahloqiy, sotsial va madaniy aloqalarning keng quloch yoyishiga asos bo‘ldi.

Muhokama: Shuningdek, qadimgi Yunon, Rim va Eron manbalari asosida bu masalani oydinlashtirish, etarli fikrlarni aytish mumkin bo‘ladi. Bu o‘rinda Yunon, Rim mualliflaridan Geradot, Polibiy, Ktesiy, Strabon, Arrian va boshqalarning asarlari, yodnomalari, Forsiy mixnat yozuvlari, shuningdek, arxeologik izlanishlar olib brogan Ya.G’ulomov, S.Tolstov, V.Masson, A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sa’dullaevlarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molikdir.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirda Xorazm erlari chegaralanib qolmay, balki undan janubga, ya’ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Avg’onistonning shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so‘nggi ming yillikning boshlariga tegishli “Amirobod madaniyati”, Quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o‘ziga xos sun’iy sug’orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo‘lgan shahar – qal’alar-Qal’aliqir, Ko‘zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzumlari mavjudligidan dalolat beradi – Umumelatlar, qavm – qabilalar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o‘zgarishlar davlat boshqaruv yo‘li bilangina amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. Qadimshunos Ya.G’ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni bir necha metrdan iborat bo‘lgan kanal o‘zagi, obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy markazlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan dalolat beradi. “Avesto” da Xorazm Markaziy Osiyoda rivoj topgan, o‘z hududi, chegaralariga ega bo‘lgan davlatlardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Geradot ma’lumotiga qaraganda, qadimgi Oks daryosi bo‘yida 360 dan ziyod sun’iy sug’orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho‘lni, sahroli hududlarga suv chiqarilib, dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Geradot taassurotlarida Xorazm o‘lkasida yashagan aholi dehqonchilikdan katta tajribaga ega bo‘lib, ular donli, dukkakli ekinlar, masalan, bug’doy, arpo, suli, meva – sabzavotchilik mahsulotlarini etishtirganliklarini qayd etib borganlar. Xorazm shaharsozligida xom g’isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko‘rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o‘ziga xos ko‘rkamligi ta’minlangan. Xorazm vohasida huranmandchilik, tog’ – kon ichlari ancha rivoj topgan. Bu erdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlarga ishlov berilib, yuksak sifat ko‘rsatgichiga eyganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga



chiqarilgan. Xorazm zumradi, Sharqning bir qator, jumladan, Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlarga ham yuborilgan.

Xorazmda aholining bir qismi chorvachilik bilan shug’ullangan, ularning tuya, ot, qo‘y – echkilardan iborat suruvlari bo‘lgan.

Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to‘g’risida ma’lumotlar hozirgacha aniq emas. Rivoyatlarga ko‘ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushlar bo‘lganligi zikr etiladi. “Avesto” da ta’kidlanishicha, Siyovush Kaykovusning o‘g’li bo‘lgan. Siyovushronning o‘limidan so‘ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o‘ch olib, Xorazmda birinchi sulolaga asos soladi. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ta’kidlashicha, Xorazmga aholi miloddan avvalgi 1292- yilda kela boshlagan deb ko‘rsatadi. Siyovushning Turonga kirib kelgan sanasi esa miloddan avvalgi 1200-yil belgilangan.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish Miloddan avvalgi 2-ming yillikda Xorazm aholisining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari asosan shu davr uchun xos bo‘lgan bronza davr xo‘jaligi bilan shug’ullanishganligi tadqiqot chog’ida aniqlandi va yashagan aholi dehqonchilikdan katta tajribaga ega bo‘lib, ular donli, dukkakli ekinlar, masalan, bug’doy, arpo, suli, meva – sabzavotchilik mahsulotlarini etishtirganliklarini qayd etib borganlar shuningdek shaharsozligida xom g’isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko‘rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o‘ziga xos ko‘rkamligi ta’minlangan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karomatov X.S. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. T.:2008, -B.-19,-20,-26.
2. Кравченко А. И. Культурология Учебное пособие. –М.: Наука, -С.-486, -2018.
3. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha) T, 1994.
4. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari, Toshkent, 1991.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-jild. – T.: FAN, 1968.



ABDULLA ORIPOV IJODIDA XALQ IBORALARINING QO’LLANILISHI

Laziza Orifova

O‘zMU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri abdulla Oripovning oddiy folklorizm hisoblangan xalq iboralaridan foydalanish mahorati yoritilgan. Shoир she’rlarida qo‘llangan ba’zi xalq iboralarining ohang, vazn, qofiya talabi bilan o‘zgarishga uchrashi tahlillar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, oddiy folklorizm, xalq iboralari, lirika, qofiya, vazn.

Аннотация: В данной статье описывается мастерство народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова в использовании народных словосочетаний, которые считаются простым фольклоризмом. С помощью анализа выявляется изменение некоторых народных словосочетаний, употребляемых в стихах поэта, требованиями тона, тяжести, рифмы.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, простой фольклоризм, народные поговорки, лирика, рифма, вес.

Annotation: This article describes the skill of the folk poet of Uzbekistan, Abdulla Oripov, in using folk phrases that are considered simple folklorism. The change of some folk phrases used in the poet's poems with the demands of tone, weight, and rhyme is revealed with the help of analysis.

Key words: Abdulla Oripov, simple folklorism, folk sayings, lyrics, rhyme, weight.

Yozma adabiyot paydo bo‘lib, individual ijodkorlar tomonidan asarlar yaratilgan Qadim vaqtlardan buyon yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarini kitobxonga aniqroq yetkazib berish, asar mazmuni, g‘oyasini ochib berish, anglatish yo boshqa maqsadlarda insonlar kundalik so‘zlashuvda foydalanadigan yoki duch keladigan xalq donishmandligining mahsuli bo‘lgan folklor namunalaridan foydalanib kelganlar. Ana shunday folklor namunalarining ijodkorlar poetik maqsadini aks ettirish uchun O‘zgarishsiz yoki o‘zgarishga uchragan holda yozma adabiyotga olib kirilishi folklorizmlarning oddiy va murakkab turlari mavjud

bo‘lib, mazkur maqolada biz oddiy folklorizm hisoblangan xalq iboralariga e’tibor qaratamiz.

Oddiy folklorizmlarga xalq maqollari bilan bir qatorda xalq olqish va qarg‘ishlari, og‘zaki nutq uchun xos bo’lgan xalq iboralari ham kiritiladi.

Olima Laylo Sharipova “XX asrning 70-80- yillari o‘zbek she’riyatida folklorizmlar” nomli dissertatsiyasida og‘zaki nutqqa xos ifoda oddiy oborotlarni folklorizmlarga kiritmaydi. Olimaning fikriga ko‘ra, ular tilga, nutqqa xos hodisa bo‘lib, badiiy ijod mahsuli sanalmaydi. Ammo til va nutq hodisasi shaklan qayta ishlanmasa ham yangi bir poetik kashfiyotni yuzaga chiqarishda qo‘llansa, folklorizmga aylanadi.¹

O‘zbek xalqining buyuk shoiri Abdulla Oripov ham ijodida xalq iboralaridan mohirlik bilan foydalangan. Xalq iboralarini she’rlari tarkibiga singdirib yuborib, ularga yangi poetik ma’no yuklagan va she’rlarining xalqchilligini ta’minlagan.

Shoirning xalq iboralariga munosabatini quyida keltirilgan yosh shoirlarning she’rlariga bildirgan mulohazalaridan ham anglash mumkin: “Bir guruh yoshlar adabiyotga gurullab kirayotirlar. Ularning izlanishlaridan, yutuqlaridan quvonaman. Ammo ular ijodida sun’iylik va so‘zga e’tiborsizlikni ko‘p uchrataman. Quruq baqiriqlarning, shaldir-shuldir gaplarning kimga kerakligi bor? Shuningdek, she’rni krassvordga ham aylantirmaslik kerak. Mayakovskiy ko‘pchilik tushunadigan so‘zlarni, o‘zi aytganidek, oddiy suhbat tilini she’riyatga olib kirdi. Bir so‘z she’r uchun chiroyli bo‘lishi mumkin. Lekin xalk uchun-chi? Xalk iboralari she’rda yashab qolishi kerak-ku?”²

Abdulla Oripovning yosh shoirlarning she’rlariga qo‘ygan talablarining natijasi o‘z she’rlarida ham aks etgan. Ya’ni shoir boshqalarga qo‘ygan talablariga avvalo o‘zi amal qilgan. Masalan, birgina “ko‘z tikmoq” ko‘p ma’noli iborasi shoir she’rlarida turli shaklda qo‘llangan. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” da tikilib qaramoq³ ma’nosini bildirgan bu ibora quyidagi she’riy parchada vazn talabi bilan o‘zgartirilib, jonsiz narsalarga nisbatan qo‘llanib, jonlantirish san’atini yuzaga keltirgan.

Mol-dunyo degani dilni yupatmas,

¹ III. Назарова. Огахий ижодига янгича бир назар. ЎзМУ босмахонаси, 2010. – В. 18.

² Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – В. 119.

³ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – В. 257.



Suq, hasad doimo ko‘zin tikkaydir.⁴

Quyidagi parchada esa ibora qofiya talabi bilan teskari qo‘llangan:

Ta’mirlasang Ka’bani hatto,

Ko‘rmaganga olarlar o‘zni.

Fazilating payqashmas aslo,

Nuqsoningga tikarlar ko‘zni.⁵

Bu ibora ko‘p ma’noli ibora bo‘lib, lug‘atdagi umidvor bo‘lib qaramoq⁶ ma’nosi ham shoir ijodida ko‘p uchraydi.

Xazon kezganida kuzgi bog‘ingda,

Sening kamolingga ko‘z tikkan otang.⁷

Yuqoridagi parchada ibora o‘zgarishsiz qo‘llangan bo‘lsa, Erkin Vohidovga bag‘ishlangan quyidagi she’rda esa qofiya talabi bilan o‘zgarishga uchragan:

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko‘zni,

Bizda ham bor edi matonat, bardosh.

Arslon chorlagandi qoshiga bizni,

Lekin qumursqalar bo‘ldi safardosh.⁸

Xuddi shu ibora quyidagi she’rda qofiya talabi bilan o‘zgarishga uchragan va she’r mazmunini ochib berish uchun bo‘lishsiz shaklda qo‘llangan:

Agar sen qibлага burmasang yuzni,

Besh mahal sajdayu namozing bekor.

Jannatga hech qachon tikmagil ko‘zni,

Agar bir mo‘minga yetkazsang ozor.⁹

Ya’ni, she’riy parchada mo‘minga ozor berish katta gunoh ekani, dilozorlikdan ehtiyyot bo‘lish kerakligi mantiqli fikrlar bilan uqtiriladi.

Lug‘atda kibrlanish, havolanish oqibatida nazarga ilmaslik holatini ifoda etuvchi ko‘zini yog‘ bosmoq¹⁰ iborasi “Turg‘un va terak” she’rida katta yo‘l

⁴ A.Oripov. Kyёш бекати. – Т.: Шарқ, 2010. – В. 29.

⁵ A.Oripov. Tanlangan asarlar. 8-jild – Тошкент: Faфур Ғулом, 2016.

⁶ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – В. 257.

⁷ A.Oripov. Kyёш бекати. – Т.: Шарқ, 2010. – В. 136.

⁸ A.Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild – Т.: Adabiyot va san’at, 2001. – В. 27.

⁹ Ko‘rsatilgan asar. – В. 214.

¹⁰ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – В. 12.

yoqasidagi teraklarni beayov kesib sotayotgan Turg‘un ismli fermerga nasihat tarzida bo‘lishsiz shaklda qo‘llanadi:

Biroq, ukam ko‘zlarigni yog‘ bosmasin,
Nafsing bir kun oyog‘ ingdan naq osmasin.¹¹

Omonim ibora hisoblangan, lug‘atdagi birinchi ma’nosи “qattiq shovqin qilmoq” bo‘lgan “Boshiga ko‘tarmoq”¹² iborasini Shoir she’rlarida turli shakllarda kuzatish mumkin.

Yuqoridagi ibora “Rivoyat” she’rida eri tomonidan talabi bajarilmagan, aytgan sovg‘asi olib kelinmagan xotin holatini ifodalash uchun o‘zgarishsiz qo‘llangan:

Birdaniga boshladi-ku xotin g‘avg‘oni,
U boshiga ko‘tarardi go‘yo dunyoni.¹³

Quyida keltirilgan “Echki” she’ridan parchada esa baland bir qoyaga chiqib, qaytib tushishning chorasini topa olmay qolgan echkining holatini ifodalash uchun shu iboraning “boshga ko‘tarmoq” varianti qofiya talabi bilan teskari qo‘llangan:

Endi madad so‘rab ma’ray boshladi,
Osmon-u falakni ko‘tarib boshga.¹⁴

Iboraning omonem shakli, lug‘atdagi ma’nosи- yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq, “Chingiz Aytmatov” she’rida:

Mehr-u sadoqati mustajob bo‘lib,
Adibni boshiga ko‘tardi o‘zbek.¹⁵
Tarzida o‘zgarishsiz qo‘llangan.

Iboraning “Boshga ko‘tarmoq” varianti quyidagi parchada o‘zgarishsiz qo‘llanib, asl oddiy folklorizmni hosil qilgan:

Kimnidir el-u yurt boshga ko‘targay,
Buyuklar ko‘targay el-yurtning o‘zin.¹⁶

Quyidagi she’rda esa:

Shukur kilgin, xalqning o‘zi ko‘targay boshga,
Poying yerda, shoning esa yetgay quyoshga.¹⁷

¹¹ A.Oripov. Kyёш бекати. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 43.

¹² O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – Б. 15.

¹³ A.Oripov. Kyёш бекати. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 169.

¹⁴ A.Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jiddlik. 2-jild – Т.: Adabiyot va san’at, 2001. - Б. 236.

¹⁵ A.Oripov. Adolat кўзгуси. – Т.: Адолат, 2005. – Б. 94.

¹⁶ A.Oripov. Адолат кўзгуси. – Т.: Адолат, 2005. – Б. 80.

¹⁷ A.Oripov. Tanlangan asarlar. 8-jild – Тошкент: Faafur Fулом, 2016. – Б. 64.

tarzida inversiyaga uchragan.

Xulosa qilib aytganda, donishmand shoir Abdulla Oripov oddiy folklorizm hisoblangan. Xalq iboralarini she’rlariga mahorat bilan singdirib yuborgan. Shoir omonim va ko‘p ma’noli iboralarni vazn va qofiya talabi bilan o‘zgartirib qo’llab she’rning mazmun va ta’sir kuchini oshirgan va iboralarning turli ma’no qirralarini ham ochib bera olgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. III. Nazarova. Ogaхий ижодига янгича бир назар. ЎзМУ босмахонаси: 2010.

2. Oripov A. Эҳтиёж фарзанди. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988.

3. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Tuzuvchilar: SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.

Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild –T.: Adabiyot va san’at, 2001.

4. Oripov A. Адолат кўзгуси. –Т.: Адолат, 2005.

5. Oripov A. Куёш бекати. – Т.: Шарқ, 2010.

6. Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild – Тошкент: Faafur Fulom, 2016.

Research Science and Innovation House

УЎТ 631.3.06

**ҒЎЗА ҚАТОР ОРАЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШДА ҲИМОЯ
КЕНГЛИГИНИ ЎРГАНИШ**

**Абдимоминов Икромжон Иминович, т.ф.ф.д.,
Хайдарова Шахноза Закиржоновна, т.ф.ф.д.**

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

Аннатация

Ушбу мақолада ғўза қатор ораларига озиқлантириб ишлов беришда ғўза ниҳолларини шикастланишини олдини олиш учун ҳимоя кенглигини аниқлашда тупроқ пичоқ ва қонуссимон ротацион иш органи таъсиридаги деформацияга нисбатан диск таъсирида деформацияланиши ўрганилган.

Калит сўзлар: иш органи, ғўза ниҳоллари, ҳимоя кенглиги, пичоқ, деформация, қамров кенглиги.

**STUDY OF PROTECTION WIDTH WHEN WORKING BETWEEN
COTTON ROWS**

Abdimominov Ikromjon Iminovich, Ph.D.,

Haydarova Shakhnoza Zakirjonovna, Ph.D.

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotation

In this article, the soil is deformed under the influence of a disk compared to the deformation under the influence of a blade and a cone-shaped rotary working body in determining the protection width to prevent damage to cotton seedlings during inter-row feeding of cotton.

Key words: working body, cotton sprouts, protection width, blade, deformation, coverage width.

Республикамиз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида меҳнат ва энергия сарфини камайтириш, ресурсларни тежаш, қишлоқ хўжалик экинларини илфор технологиялар асосида етишириш ва юқори унумли қишлоқ хўжалик машиналарини ишлаб чиқиш ва қўллашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Гўза қатор ораларига дастлабки ишлов бериш энг муҳим агротехник талаблардан бири бўлиб, ғўзанинг келгусида тез ёки секин ривожланиши ушбу тадбирни қай даражада сифатли бажарилишига боғлиқ. Бу тадбир культиваторлар ёрдамида бажарилиб, уларнинг иш органлари таркиби аввало ҳар бир даланинг тупроқ турига мос равишида тўғри танланиши, сўнгра белгиланган иш жараёнига мослаб созланиши лозим. Бунда албатта, ўсимлик қатори билан иш органлари орасида белгиланган микдорда ҳимоя кенглиги-масофаси қолдиқлари. Ушбу ҳимоя кенглигининг катталаштириб юборилиши культивация самарадорлигини пасайтириб юборса, ортиқча торайтириб юборилиши эса ёш гўза нихолларининг қўпроқ шикастланишига олиб келади.

Ҳимоя кенглигини белгилашда эътиборга олинадиган омиллардан бири культиватор иш органлари таъсирида тупроқнинг ён томонига деформацияланиши ва унинг тарқалиш масофаси бўлиб, унинг узоқ ёки қисқа бўлиши иш органининг турига ва шаклига, ҳамда тупроқ турига ва ишлов бериш чуқурлигига боғлиқдир. Илмий муассасалар ва мутахассислар томонидан берилаётган умумий тавсиялар эса барча шароитлар, айниқса оғир тупроқли экин майдонлари учун мос келавермайди.

Юқорида таъкидланган муроҳазаларга кўра ушбу масалани янада чуқурроқ ўрганиш мақсадида 2017-2022 йиллар давомида ғўзани дастлабки культивация қилинишида қўлланиладиган ва ҳимоя кенглигини торайтиришга имкон берадиган иш органлари билан бир қатор тажрибалар ўтказилди. Тажриба қамров кенглиги 165 мм бўлган бир томонлама ясси пичоқ (бритва)лар ва ташқи диаметри 260, 300, 340, 380 мм.ли сферик радиуслари бир хил, яъни 355 мм.ли дисклар, ҳамда катта диаметри 300 мм.ли конуссимон ротацион иш органлари билан тупроқ деформацияси ўрганилди.

Тажрибалар ўтказилган экин майдонлари тупроқ тавсифи 1-жадвалда, тажриба вариантлари ва уларнинг натижалари эса 2-жадвалда келтирилди. Тупроқдаги деформация микдорларини аниқлашда профессор М.Х.Пигулевский усулида фойдаланилди.



**Тупроқни ён томонга деформацияси ўрганилган
қатламлардаги қаттиқлик ва намликлар**

Тупроқ қатламлари, см	Тупроқ қаттиқлиги, Н/см ²	Тупроқнинг намлиги, %
0-5	48-54	11-13
5-10	112-116	15-16
10-15	148-155	16-18

Тажриба ўтказилган барча варианtlар натижаларига кўра тупроқ пичоқ ва қонуссимон ротацион иш органи таъсиридаги деформацияга нисбатан диск таъсирида сезиларли даражада камрок деформацияланмоқда. Масалан 1-варианда диаметри 260 мм бўлган диск таъсирида тупроқ деформацияси 1,9 см бўлса, пичоқ таъсирида ушбу кўрсаткич 3,3 см.ни ва қонуссимон ротацион иш органи таъсирида 2,4 см.ни ташкил этмоқда (2-жадвал).

Тажрибанинг 1-вариантида диск диаметрининг ўзгаришини тупроқ деформациясига таъсири ўрганилди. Бунда диск диаметрининг ортиши билан тупроқ деформацияси ҳам ортиб бормоқда. Масалан; диаметри 260мм бўлган диск учун тупроқ деформацияси 1,9 см бўлса, диаметри 380 мм бўлган диск учун ушбу кўрсаткич 3,1 см.ни ташкил этмоқда.

Тажрибанинг 2-вариантида диск ўрнатиш бурчаги ўзгаришининг тупроқ деформациясига таъсири ўрганилди. Бунда ушбу бурчакнинг ортишига мос равища тупроқ деформацияси ҳам ортмоқда. Масалан, ушбу бурчак 5^0 бўлганда тупроқ деформацияси 1,9 см бўлса, 20^0 бўлганда эса тупроқ деформацияси 3,4 см.ни ташкил қилмоқда.

Тажрибанинг 3-4 варианларида ишлов бериш чуқурлиги ва агрегат харакат тезлигининг ортиши билан тупроқ деформациясининг ҳам мос равища ортиши билан тупроқ деформациясининг ҳам мос равища ортиши аникланди. Масалан, 4-вариантда тезликларни 0,8 дан 2,6 м/сгача оширилганда диаметри 260 мм бўлган диск таъсирида тупроқ деформацияси 1,9 см дан 2,8 см гача ортди, пичоқ таъсирида эса сезиларли даражада, яъни 3,3 см дан 4,9 см гача ортди.

2-жадвал

Культиватор иш органлари тури ва ўлчамларига қараб тупроқни ён томонга деформация миқдорининг ўзгариши

Вариант номери	Диски диаметри мм	Диски ўрнатиш бурчаги, град	Ишлов бериш чукурлиги, см	Харакат тезлиги м/с	Тупроқни ён томонга деформация миқдори см		
					Иш органи тури		
					пичок	ди ск	Конусимон ротацион
1	260	5	7	0,8	3,3	1,9	2,4
	300	5	7	0,8	3,3	2,3	2,4
	340	5	7	0,8	3,3	2,7	2,4
	380	5	7	0,8	3,3	3,1	2,4
2	260	5	7	0,8	3,3	1,9	2,4
	260	10	7	0,8	3,3	2,4	2,4
	260	15	7	0,8	3,3	2,8	2,4
	260	20	7	0,8	3,3	3,4	2,4
3	260	5	5	0,8	2,8	1,5	2,0
	260	5	7	0,8	3,3	1,9	2,4
	260	5	9	0,8	4,2	2,4	3,0
	260	5	11	0,8	5,0	3,0	3,8
4	260	5	7	0,8	3,3	1,9	2,4
	260	5	7	1,3	3,6	2,2	2,6
	260	5	7	1,7	3,9	2,3	2,8
	260	5	7	2,1	4,4	2,5	3,1
	260	5	7	2,6	4,9	2,3	3,5

Демак тажриба натижаларига кўра тупроқ қатламишинг ўсимлик қатори томон деформацияси диск таъсирида пичоқдагина нисбатан 2 смга камроқ бўлади (3-4 жадваллар).



Шундай қилиб, ўтказилган тажрибаларнинг юқорида келтирилган натижаларига қўра ғўза қатор ораларига дастлабки ишлов берилишда химоя кенглигини торайтириш йўли билан культиваторлар самарадорлигини оширишга қўйидагича эришиш мумкин:

-ғўзанинг дастлабки культивациясида культиваторга диаметри 260 мм бўлган сферик дисклар ўрнатилиб ишлатилиши керак.

- дисклар ғўза қаторларининг хар иккала томонидан унга нисбатан 7....8 см масофада сирт томон билан жойлаштирилиш ва бунда дискнинг кесиш кирраси агрегат харакат йўналишига нисбатан $8.....10^0$ бурчак остида ўрнатилиши лозим.

Ушбу тавсияларни ғўзанинг дастлабки культивациясида қўлланилиши натижасида культиваторлардан фойдаланиш самарадорлигини 8....12% га ортирилишига эришилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Мамадалиев М. Тупроққа минимал ишлов берувчи комбинациялашган машина юмшаткичининг параметрларини асослаш. Автореф. дисс. тех.фан.ном. – Янгийўл, 2010. – 24 б.
2. И момкулов К.Б. Суғориладиган дехқончиликда ерларга тупроқни ағдармасдан ишлов берувчи чизелли юмшаткич параметрларини асослаш. Техн.фан.ном.автореф. – Гулбахор, 2010. – 24 б.
3. Тошпўлатов Б.У. Чизел-култиваторнинг технологик иш жараёнини такомиллаштириш ва параметрларини асослаш. Дисс. PhD, – Тошкент, 2020. – 127 б.
4. Ш.З.Хайдарова “Такомиллаштирилган ўғит соладиган иш органи билан жиҳозланган култиватор-озиқлантиргич”.
5. Н.М Комилов, Ш.З Хайдарова, И.И Абдимоминов “Влияние ширины долота рабочего органа удобрителя на его рабочие показатели”
6. Абдимоминов, И. И. (2023). КОМБИНАЦИЯЛАШГАН МАШИНА ЎҚЁЙСИМОН ВА ЮМШАТКИЧ ПАНЖАЛАРИ ОРАСИДАГИ БЎЙЛАМА МАСОФАНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. UNIVERSAL JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION, 1(8), 4-9.



7. Абдимоминов, И. И. (2023). КОМБИНАЦИЯЛАШГАН МАШИНА ЎҚЁЙСИМОН ВА ЮМШАТКИЧ ПАНЖАЛАРИ ОРАСИДАГИ БЎЙЛАМА МАСОФАНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. UNIVERSAL JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION, 1(8), 4-9.
8. Xudayarov, A., Nazirjonov, I., Abdimominov, I., & Yuldasheva, M. (2024). Investigating the rationale of dimensional elements in the ripper of a combined unit. In E3S Web of Conferences (Vol. 497, p. 03024). EDP Sciences.
9. Zakirjonovna, H. S. (2023). PROGRAMMED AND PURPOSEFUL METHODS OF MANAGING TECHNOLOGICAL PROCESSES OF MOTOR TRANSPORT ENTERPRISES. Miasto Przyszłości, 43, 735-737.
10. Бойназаров, Х. Р., & Хайдарова, Ш. З. (2024). ФЎЗА ҚАТОР ОРАЛАРИГА ЎҒИТ СОЛАДИГАН ИШ ОРГАНИ ЎҒИТ ЎТКАЗУВЧИ ҚИСМИ НОСИММЕТРИК ТОМОНИНИНГ ҲАРАКАТ ЙўНАЛИШИГА НИСБАТАН ЎРНАТИЛИШ БУРЧАГИНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(27), 290-295.
чтобы Алексей не скучал». Долли, приехавшая к золовке, чувствует себя неуютно среди этих чужих случайных людей, и Дарья Александровна замечает в Анне новую привычку – щуриться, «как будто она щурится на всю жизнь, чтобы не видеть всего». Ненатуральность, притворство - вот что Долли чувствует в поместье Вронского. И Анна также осознает неестественность своего положения: «какая жена, какая рабыня может быть настолько рабыней, как я в моем положении?.. я несчастлива». Беременность, роды, дети - то, что пугало и отталкивало Долли, и от чего Анна отказывается после осознания своего положения, становится главным смыслом жизни для Дарьи Александровны, а все остальное - «театральной игрой», поэтому она спешит уйти домой, к детям. Кучер, который возил ее в поместье Вронского и Анны, также чувствует, что ему там скучно. Вронский, не выдержав такого видимого естества, долго не продержится там и уедет в город.

Для Алексея Вронского общественные собрания, выборы и клубы - это его среда, где он чувствует себя комфортно, где его уважают, признают его значимость и учитывают его мнение. Он выбирает между "безобидным весельем выборов" и "мрачной, тяжелой любовью". Городская жизнь также подходит для Степана Аркадьевича. Но Константин Левин (автопортрет Л.Н. Толстого) не согласен с этим. Он не понимает всей этой сути. Посещение клуба и пребывание в обществе Анны развлекло его, но затем он почувствовал стыд. В городе он чувствует себя потерянным. В отличие от этого, в поместье, занятый сельскими делами, он чувствует себя более естественно и непринужденно.

"Естественность" - это ключевое понятие для Л.Н. Толстого. Анна, живая и подвижная, постепенно теряет эту "естественность", теряя саму себя. Вронский, свободный и эгоистичный в своем стремлении делать все по своему, также теряет себя и Анну. Отношения между Вронским и Анной, как описывает Л.Н. Толстой, могут служить примером глубокого парадокса любви, о котором размышлял Ж.-П. Сартр. Для Сартра существование в контексте другого всегда конфликтно. Для самопознания необходим "взгляд другого", через который мое "Я" становится объективным. Я нуждаюсь в этом другом, чтобы подтверждать свое существование. Пытаясь расширить свое существование через усвоение иного, я лишаю его права быть самим собой. Однако, принимая на себя иное, я теряю опору своего бытия. Любовь не допускает



подчинения и принуждения. Другой должен свободно выбирать меня в качестве центра своего мира, абсолютной величины. И вот здесь находится парадокс: "должен свободно". Любви нельзя заставить, нужно, чтобы другой сам захотел избрать меня. Для этого приходится соблазнять другого, быть для него "очаровательным объектом". Но эти очарования легко развеиваются. Отсюда и бесконечное неудовлетворение в любви, недостижимость идеала. Когда пары распадаются, любовь умирает, и каждый "избранник" падает с высокого пьедестала. Это вызывает мучительную боль.

«Чего поел ты?

Чего так бледен?

Поел я пепла

Огней любви». (К. Бальмонт)

Находит ли Л.Н. Толстой выход из этой сложной ситуации? Как обрести, а не утратить себя? Как обрести смысл своего существования? По отношению к женщинам автор романа находит довольно простое и предсказуемое решение. В соответствии с духом своего времени, Л.Н. Толстой определяет женщину через мужчину. Для него, как и для Отто Вейнингера, женщина – "вещь мужчины" или "вещь ребенка". Сама по себе женщина не является индивидуальностью, она, прежде всего, тело, ее основное предназначение – быть служанкой мужчины и порождать потомство. Долли – "женщина-мать", она "вещь ребенка". Кити и Анна метаются в поисках самой себя между мужчиной и ребенком. Анна отрекается от своей роли матери (с болезненным разлукой с сыном, не создает прочной связи с дочерью, делает все, чтобы больше не рожать детей), она все более и более превращается в "вещь мужчины". Кити, напротив, движется к своей материнской сущности.

Анна – "новая женщина". Она проникнута духом Петербурга, заражена цивилизацией. Она предпочитает свободу мирской жизни, где люди "наслаждаются бытием", в ущерб "истинному-естинному" - рождению и воспитанию детей. Дарья Александровна также частично поддается феминистским идеям. "Да и вообще, – мыслила Дарья Александровна, вспоминая свою жизнь за последние пятнадцать лет брака, – беременность, тошнота, отупение разума, равнодушие ко всему и, главное, беспорядок... Роды, страдания, беспорядочные страдания, эта последняя минута... затем кормление, бессонные ночи, жуткие боли... Затем болезни детей, постоянный



страх, затем воспитание, отвратительные привычки... учеба, латынь - все это настолько неприятно и трудно... И все это ради чего? Что же будет из всего этого? Я, не знающая минуты покоя, то беременная, то кормящая, вечно раздраженная, ворчливая, измученная и измучающая других, неприятная мужу, проведу свою жизнь, а дети вырастут несчастными, плохо воспитанными и бедными... Ну, допустим, в лучшем случае они просто не будут злодеями. Вот все, что я могу желать. Из-за всего этого столько мук, столько трудов... Вся жизнь потеряна!" Но затем, увидев реальную ситуацию Анны, Долли утверждается в своем решении быть матерью.

Таким образом, монособственность женщины не приводит к гармонии и радости. Анна, поглощенная Вронским, теряет себя. Вывод: недостаточно быть "имуществом мужчины". Долли также не полностью счастлива, отказавшись от роли "привлекательного объекта" для мужа, но находит смысл в рождении и воспитании детей. Однако она более естественна, следя природному предназначению женщины - материнству. Варенька - неопределенная, неполная женщина. Кити находит себя в роли жены и матери, заботясь о семье, находит свое "Я" и смысл жизни.

Другое слово для мужчины – личность, моральное существо, субъект. Он находит понимание своего существования через сложный внутренний путь. К. Левин осознает, что "без понимания своего предназначения нельзя жить", но несмотря на это продолжает жить. Он не замышляет великих свершений или общего блага. Например, война и помощь "братьям славянам" кажутся ему неестественными и неправильными из-за крови, смерти и мерзости. Он не верит в "общенародный порыв", а просто заботится о семье, близких и трудится на земле. Он знает, что делать – скосить рожь, связать снопы, убрать урожай и посеять новые семена. Когда он просто делает свое дело, словно он и знает смысл. Если бы Л.Н. Толстой остановился на этом ответе: смысл жизни непостижим, поэтому живи и делай свое дело, это было бы подражанием Руссо или предвосхищением ответа А. Камю: жизнь абсурдна, знай об этом и живи, делай свое дело.

Л.Н. Толстой, российский мыслитель, не может существовать без смысла, поэтому необходимо найти истинный смысл жизни. К. Левин осознает это благодаря простому человеку: "люди разные; одни лишь думают о своих нуждах и насыщении, а Фоканыч – душевный человек. Он живет для души".



Суть заключается в том, чтобы "жить не для себя, а для высшего начала". Ответ на вопрос "Зачем жить?" не требует абстрактных размышлений, а проявляется в самой жизни. "Изворотливость разума" только запутывает. Нужно верить в бога и в добро как единственное предназначение человека.

Левин, представленный Л.Н. Толстым, обретает духовную силу, открывая человечеству эту истину через своего персонажа. Божественные законы добра, явленные через откровение и ощущаемые им, связывают его с другими верующими в обществе, известном как церковь. Это общество включает в себя христиан, евреев, мусульман, конфуцианцев и буддистов. Всеобщее божество, недоступное для понимания разумом, раскрывается через жизнь и природу. Этот ответ находится через множество путешествий, размышлений, опытов и маленьких открытий, полученных через взаимодействие с крестьянами, слугами, охотой и самой природой.

Роман Л.Н. Толстого не описывает просто Анну, которая испытала любовь, но не выдержала испытаний светом и парадоксами любви. Это повествование о внутреннем пути, о внутреннем путешествии в поисках себя и смысла своего существования. Для Л.Н. Толстого духовность не ограничивается интеллектуально-рациональными сферами; она тесно связана с реальной жизнью. Поэтому внешнее странствие необходимо для внутреннего самопоиска. Для человека духовность не может существовать без физического и природного бытия. Однако без восприятия бога физическое и природное бытие превращается в мертвую сущность, в неистинную жизнь. Тело, душа и дух – это триединая сущность человека, и забвение любой из этих составляющих разрушительно.

Research Science and Innovation House



Литература:

1. Вейнингер О. Пол характер. Мужчина и женщина в мире 1. Veyninger O. Pol kharakter. Muzhchina i zhenshchina v mire strastey i erotiki // Последние слова. Пол и характер: strastey i erotiki // Poslednie slova. Pol i kharakter: collection / сборник / пер. с нем. Mn., 1997. transl. from German. Mn., 1997.
- 2.Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
- 3.Z Madraximova,Z & Ablaeva, N.(2022).CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
- 4.Madraximova,Z & Ablaeva, N. (2022)ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ".Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
- 5.Аблаева, Н.К.(2022).Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Ta'lim fidoyilari 6 (7), 687-691
- 6.Madraximova Zebo. (2023). DEATH GLORY OF THE WRITER. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(5), 104–106.
- 7.Nasirov, A. N. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.
- 8.Nasirov, A. N. (2023). Alisher navoiy obrazining badiiy ifodasi. Ustozlar uchun, 15(1), 35-39.
- 9.A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. Ustozlar uchun, 15(1), 72-77.
- 10.Nasirov, A. (2023). ERKIN A'ZAM IJODINING O 'ZIGA XOSLIKHLARI HAQIDA. Ustozlar uchun, 15(1), 78-84.
- 11.Nasirov, A. N. (2023). ODIL YOQUBOVNING “QAYDASAN MORIKO” QISSASIDA PESAJ VA XARAKTER TALQINI. Ustozlar uchun, 15(1), 40-47.
- 12.Uzoqboy o‘g‘li, S. M., & Nasirov, A. (2023). SA'DULLA SIYOYEVNING “DASHTI QIPCHOQ LOCHINI” ASARIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI TALQINI. Ustozlar uchun, 15(1), 48-53.



13.Normamatovich, N. A. (2023). ARTISTIC THOUGHT IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION AND LOGICAL CONSISTENCY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(01), 90-94.

14.Nasirov, N. A. (2021). THE HISTORY OF LITERARY TRANSLATION FROM UZBEK INTO ENGLISH. Academic research in educational sciences, 2(6), 1011-1022.

15.NASIROV, N. A. (2019). THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV’S WORKS INTO ENGLISH. Иностранные языки в Узбекистане, (3), 133-141.

16.Nasirov, A. N. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.

17.Mamatkadirovna K. N. TALABALARINI DARSDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ASOSIDA MULOQOT MADANIYATIGA TAYYORLASH. – 2022.

18.Mamatkadirovna K. N. JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TA'LIM INFORMASION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH //Ta'lif fidoyilari. – 2022. – T. 18. – №. 5. – C. 338-341.

19.Mamatkadirovna N. K. Pedagogical system of development of culture of international communication in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 245-247.

20. Tursunaliyevna, A. M. (2022). EKOLINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI SOHASI SIFATIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 82-84.

21. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). KORPUS LINGVISTIKASIDA TARJIMASHUNOSLIK MASALASI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).

22. Mamatkadirovna A. K. et al. Translation as a Special Type of Language and Intercultural Communication //JournalNX. – C. 176-180.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA ERTAKNI O‘QIB BERISH JARAYONIDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH

Daminova Shoxista Farxodovna

JDPU “Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Shoxistadaminova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yosh bolalar, jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish va ularni rivojlantirish yo’llari ko’rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, badiiy asar, bolalar nutqi, ertak, hikoya, bola, qobilyat

Abstract: This scientific article examines ways to overcome and develop speech deficits of young children, including children of preschool age.

Key words: preschool education, art work, children’s speech, fairy tale, story, child, ability

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini ustirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda masalan, har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish, hamkorlikka asoslangan ta’lim munosabatlarida bolani faollashtirish, nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o‘yinli vaziyatlar yaratish kabi bir qancha usullarini ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib, an’anaviy ravishda badiiy asarlarni o‘qib berishdan ko‘ra innovatsion shaklda badiiy asar bilan tanishtirishning amaliy afzalliklarini tasniflaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an’anaviy ta’limiy faoliyat tarbiyachining hikoya qilib berishi, o‘qib berishi va takrorlatgan holda yod oldirishini tan oladi. Ammo tajriba shuni ko‘rsatadiki, bolalar tarbiyachining hikoyasini kichik o‘zgarishlar bilan takrorlaydilar, hikoyalar kambag‘al so‘zlar vositasida talqin qilinadi xolos. Shuning uchun, hikoyani o‘qib berish jarayoni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu hikoya asosidagi

aralash kartinkalarni magnitli doskaga o‘z o‘rniga ko‘ra terib chiqishini talab etadigan “Rasmlarning o‘rnini top” o‘yini bolalarni faol nutqiy vaziyatga undaydi. Ular voqealar ketma-ketligiga ko‘ra rasmlarni izlab topish jarayonida nafaqat nutqi balki, diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi rivojlanadi[Daminova – 2023 87]. O‘zlari hosil qilayotgan hikoya kompozitsiyasini kuzatish tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi va yangi so‘zlar bilan tasvirlashga urinadi. Ushbu faoliyat bolalarni zerikishdan himoya qiladi, butun guruhni qayta hikoya qildirishga imkon bo‘limgan taqdirda, bu usul vositasida barcha bolalar ish jarayoniga jalb etiladi.

Ayniqsa tarbiyachi asosiy ijobchi roldan kuzatuvchi darajasiga statusini o‘zgartirishi bolalarga erkinlik beradi. Pedagogning ijobchi-bolalar xattiharakatlarini rag‘batlantirishi esa nutqiy faollilikka yo‘l ochadi.

Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e’tibor qaratish kerak:

- texnologiyani o‘qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo‘naltirish;
- har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish.

Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari - so‘z boyligini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, izchil nutqqa o‘rgatish maktabgacha yosh davrida hal qilinishini inobatga oladigan bo‘lsak, ijodiy ta’lim texnologiyalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Xususan, nutq o‘stirish faollik markazini badiiy qo‘llanmalarga va didaktik materiallarga boy tarzda jihozlashga e’tibor berish kerak. Bolalar nutqining barcha qirralarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzuga mos syujetli rasmlar to‘plamlari, sahnalashtirishga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar to‘plamlaridan, bosma didaktik o‘yinlardan tashkil topgan metodik bankni yaratish tarbiyachi zimmasidadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini e’tirof etgan holda, guruhlarda kitoblar burchaklari va “Aqlii kitoblar tokchasi” tashkil etilishi muhim. Chunki tarbiyalanuvchilar bunday materiallar bilan bevosa yangi taassurotlar, bilim, ko‘nikmalar bilan tanishadi. Dialogik, hissiy jihatdan boy nutqi shakllanishi uchun qulay muhitda bo‘ladi. Badiiy asarlar vositasida bolalarning nutqi va tafakkuri rivojlanar ekan, bir paytning o‘zida bog‘lanishli dialogga kirishadi, fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bu bolaga zavq va quvonch bag‘ishlaydi, bu tuyg‘ular nutqni faol



idrok etishni rag‘batlantiradigan va mustaqil nutq faoliyatini yaratadigan eng kuchli vositadir.

Buni amaliyotda kuzatganimizda o‘yinlar va samarali ta’lim texnologiyalari asosida nutq o‘stirish mashg‘ulotlari o‘tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil asosda bayon qilgani, jarayonda zerikish bilmaganligi, lug‘atida yangi so‘zлarni qo‘llaganligi, qiziqishlari tufayli yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga ishtiyoq uyg‘onganligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa Maktabgacha ta’lim tashilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda umumiyligini muhim kompetentsiyalarini shakllantirishning asosiy va zarur talabidir.

Mana shularni inobatga olgan olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o‘stirish ta’limiy faoliyat jarayoni va nutq o‘stirish faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta’lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarini kiritish maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

1. Dono xalqimiz “Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar”, deb beziz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma’naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e’tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she’r yodlatish, shuningdek so‘zлarni to‘g‘ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin [Ибрагимов Х., Т.: “Фан ва технология”, 2008. – 288 б.].

Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni targ‘ib etish, ular o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish kerak.

Jumladan, hayvonlar haqidagi “Tulkining taqsimoti” ertagida ayyorlik va tilyog‘lamalik tulki obraqi orqali ifodalangan. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi ota nasihatni bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo‘ladi[4].

Tarbiyachi tomonidan ertak o‘qib bo‘lingach, bolalarni umumiyligini xulosa chiqarishga undash lozim. “Agar sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘lar eding?”, kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi.



Har bir ertakning o‘z g‘oyasi bor. “Sehrli sholg‘om” ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, “Kuch birlikda” degan g‘oyani anglab yetishini ta’milas, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug‘lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o‘rgatiladi[Z.I. Qurbonova. Ekonomika 1035-1038.] Shuningdek, ertaklarni mahorat bilan bolalarga o‘qib berish, kichkintoy bilan his-hayajonli muloqotni o‘rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta’sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma’lumot zaxiralarini samarali to‘ldirishga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ertaklarni bolalarga yetkazishda yangi pedagogik texnologiya asosida bolalarning so‘z boyligini oshirishga, ularning nutqini o‘sirish, tafakkuri va ma’naviyatini rivojlantirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707-сонли Қарори. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2017.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3261-сонли Қарори. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2017.

4. Daminova Sh.F. Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarning ijtimoiy xulq ko‘nikmalarini shakllantirish. Urganch: Uslubiy qo’llanma 2023 yil 85 bet

5. Ибрагимов X., Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси. – Т.: “Фан ва технология”, 2008. – 288 б.

5. Z.I. Qurbonova. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish-dolzarb vazifamiz. Ekonomika 1035-1038

“MEHNATSEVARLIK” KONSEPTINI IFODALAGAN INGLIZ VA O’ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Amirqulova Umida Normo‘minovna

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti

Xorijiy til va adabiyoti : ingliz tili ta’lim yo‘nalishi II bosqich magistranti

Djabborova Shoira Baltayevna

Termiz Davlat universiteti

Filologiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o’zbek tilida “mehnatsevarlik” konseptini ifodalagan maqollarning milliy madaniyat va mentalitet bilan chambarchas bog‘liq jihatlari va lingvomadaniy tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: ingliz va o’zbek xalq maqollar, lingvomadaniy tahlil, mehnatsevarlik va vaqtidalik tushunchalari, so‘qim, osh, tort, baliq, mushuk va ho‘llamoq leksemalari.

Annotation: This article is devoted to the linguistic and cultural analysis of proverbs expressing the concept of “hard work” in English and Uzbek, which are closely related to national culture and mentality.

Key words: English and Uzbek folk proverbs, linguistic and cultural analysis, concepts of hard work and punctuality, lexemes of beef, soup, cake, fish, cat and wet.

Maqollar xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lib, qaysi tilda yaratilmasin, ularning mavzu doirasi xilma-xildir. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko‘proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko‘p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo‘g‘inini tashkil qilishidadir, ya’ni, bunda aynan yaratuvchi xalqning o‘ziga xos mentaliteti, tarixi, udum va an’analari kabilarning asosiy yetakchi rolda turadi. Mashhur tilshunos Vladimir Ivanovich Dal¹ aytganidek, “maqollar to‘plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati”.

¹ Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование.– М.: Мол. Гвардия, 1985.- 121 с.

Oila, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanni sevish, do'stlik va qarindoshurug'chilik munosabatlariga jiddiy qarash, insonlarni yaxshilikka da'vat etish o'zbek maqollarida yetakchi mavzular bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lgan mehrning kuchliliqi, inson qadrining ulug'ligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavdalanadi. Ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan maqollar orasida mehnat va mehnatsevarlik to'g'risidagi maqollar mavzusiga to'xtalib o'tsak. Mehnat qilgan insonning elda aziz bo'lishi va xor bo'lmasligi hamda mehnatsevarlik orqali obro' orttirishi kabilar qadim o'tmish va hozirda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Yaqin kelajakda ham aynan shu xislatlarga ega shaxslar jamiyatda e'zozlanishi barchamizga sir emas.

“Mehnatsevarlik” konseptini ifodalagan ingliz va o'zbek xalq maqollari lingvomadaniy obyekt sifatida quyidagicha tahlilga tortildi:

Ingliz xalqi azal-azaldan tartib-intizom va vaqtini qadrlaydigan xalqdir. Bu odat ularga 11-asrda orol-davlatga bostirib kelgan normandlardan meros bo'lib qolgan² va inglizlar nihoyatda qadimgi ajdodlardan qolgan urf-odatlariga juda sodiq xalqdir. O'sha davrdan buyon inglizlar o'zlarida har bir ishni vaqtida bajarish odatini shakllantirganlar va buning natijasida butun mamlakat bo'ylab inglizlar nazdida mehnatsevar inson deganda biznes uchrashuvlariga kech qolmaydigan, ishga vaqtida keladigan va topshiriqlarni o'z vaqtida mehnatsevarlik va tirishqoqlik bilan bajaradigan xodim qiyofasini ko'z oldiga keltiradilar. Shu sabab bo'lsa kerak, mehnatsevarlikni ifodalagan ingliz xalq maqollarida ham vaqt bilan bog'liq maqollar alohida o'rinn egallaydi. Jumladan, “**Morning is the start of day's work**” maqoldan anglashimiz mumkinki, inglizlar uchun mehnat kunining boshlanishi bu tongdir. Odatta ertalabki mazmunli oilaviy nonushtadan so'ng, ko'pgina inglizlar o'z ish joylariga oshiqadilar va ular uchun ish vaqtining odatiy boshlanishi ertalabki soat sakkiz hisoblanadi. Bu odat faqat kechki smenada ishlaydiganlardan tashqari, deyarli mamlakatdagi barcha uchun doimiy kun tartibi hisoblanadi.

“**Morning is the start of day's work**” maqolining aynan sinonimi emas, lekin erta uyg'onuvchi mehnatkash kishilar haqida quyidagi inglizcha maqol ham mavjudki, unda erta uyg'ongan insonlarning boshqalarga qaraganda ancha ko'proq ish va yumushlari tezroq bajarilishiga ishora mavjud: “**Go to bed with the lamb and rise with the lark**” maqolining o'zbekcha tarjimasi “**Qo'zichoq bilan baravar uxlab, to'rg'ay bilan baravar uyg'onmoq**” bo'ladi. Bu maqolning o'zbekcha

² <https://history-maps.com/uz/story/History-of-England>

ekvivalenti “**Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko‘p turtinar**” maqolidir. Bu maqolda o‘zbek xalqining ham erta uyg‘onish va barvaqt ishlarni bitirishga xayrixohligi aks ettirilgan. Maqolning lingvomadaniy ahamiyati shundaki, barcha o‘zbek xonadonlarida erta sahardan turib, sigir sog‘ayotgan yoki hovli supurayotgan kelinlar, saharmardonlab qo‘ylarini yaylovgaga olib chiqayotgan cho‘ponlar, quyosh chiqmasdan uyg‘onib, namoz o‘qiyotgan namozxonalar yoki tong sahardan biror ishga otlanayotgan ishchilar timsolida o‘zbek xalqining ertalabki kun tartibining boshlanishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqollardan shuni anglashimiz mumkinki, ikkala xalq madaniyatida ham erta uyg‘onish mehnatsevar kishining alohida tahsinga loyiq bir fazilatidir, chunki erta uyg‘ongan inson sog‘lom, baquvvat va rizq-barakali bo‘ladi.

Inglizlar mehnat va mehnatsevar inson deb ko‘proq biznes va u bilan shug‘ullanuvchi insonlarni tushunadilar va biznes uchun vaqtning ahamiyati juda katta ekanligini yaxshi anglaydilar. **“Time is the soul of business” and “Punctuality is the soul of business”** maqollarida ham buning isbotini ko‘rishimiz mumkin. Bu maqollarning o‘zbekcha tarjimasi **“Biznesning ruhi bu vaqt/vaqtidalik”**dir. Haqiqatdan ham vaqt qilingan mehnatlar, chekilgan zahmatlar evaziga erishiladigan yutuqlar va natijalarga baho beruvchi eng oliy hakamdir. Bundan tashqari, har bir ishni vaqtida bajarish va ishni paysalga solmaslik bu haqiqiy mehnatsevar ingliz xalqining milliy mentalitetiga aylanib ketgan. Buning isboti sifatida quyidagi maqollarni misol keltirishimiz mumkin: **“Hour today, one is worth two tomorrow”**, **“Do not put off for tomorrow what you can do today”**, **“Do not delay today’s work until tomorrow”**, **“Do not leave to the morning the business of the evening”**, **“Never put off till tomorrow what you can do today”**. Bu inglizcha maqollarning barchasida bugungi ishni ertaga qoldirmaslik xayrli bo‘lishiga ishora mavjud. Ushbu maqollarning o‘zbekcha muqobili quyidagicha: **“Bugungi ishni ertaga qoldirma”**, **“Ishning omadi – o‘z vaqt”** va **“Ishni uyqusida bos”**. Bu maqollardan shuni anglashimiz mumkinki, har ikkala xalq vakillari ham mehnatsevarlikni qattiq ulug’laydilar va har bir ishning o‘z vaqtida bajarilishi tarafidordirilar.

Inglizlar uchun vaqt nihoyatda qadrli ekanligining va mehnat jarayonida o‘z vaqtidalikka nihoyatda qattiq amal qilishlarining yana bir eng ishonchli isboti sifatida London shahrining Vestminister saroyida joylashgan, o‘n uch tonnali ulkan soat – Big Ben minorasini misol qilishimiz mumkin. Bu ulkan soat minorasi uzoq

tarixga ega³ va u inglizlarning milliy g‘ururi hisoblanadi. Minoraning asl nomi “Soat minora” bo‘lib, “Big Ben” minora ichidagi ulkan qo‘ng‘iroqqa nisbatan berilgan nomdir va u rasmiy ravishda “Ulkan qo‘ng‘iroq” nomi bilan tanilgan hamda u Birlashgan Qirollikning sayyohlar doimo gavjum bo‘ladigan mashhur ham tarixiy, ham zamonaviy memorchilikning nodir namunasidir. Bu ulkan soat birinchi marta 1859-yilning 31-may kuni jaranglagan va uning yaratuvchi muhandisi Augustus Puginning neogeotik dizayni asosida minora ilk bor qad ko‘targan. Soatning ustki poydevorida lotin tilida “Domine Salvam Fac Reginam Nostrum Victoriam Primam”, ya’ni “O Lord, Qirolicha Victoria I ni himoya qil” degan mazmundagi iltijo duosi bitilgan. Ulkan soat har o‘n besh daqiqada jaranglaydi va uning jarangi sakkiz kilometr radiusga eshitiladi. Uning nomlanishi haqida yo hurmatli Lord Benjamin Xoll nomiga, yoki sharafli bokschi Ben Kaantning sharafiga qo‘yilgan bo‘lishi mumkinligi haqida bahs-munozaralar yuradi. Ammo 2012-yil sentabr oyidan boshlab qirolicha Elizabeta II ning taxtdagi oltmish yillik yubileyiga atab minora nomini “Elizabeta minorasi” nomiga o‘zgartirildi⁴.

“There is no cake without work” maqolining o‘zbekcha tarjimasi **“Ishsiz tort ham yo‘q”** bo‘ladi va bu maqolda ishlamaydigan inson tort ham yeymaydi deb o‘z ma’nosida, ma’jозиј ма’нода esa mehnatsiz hech qanday narsaga erishib bo‘lmаслиги nazarda tutilgan. Bu ingliz maqolining lingvomadaniy ahamiyati shundaki, inglizlarda deyarli har kuni “beshlik choy” marosimi bo‘ladi va inglizlar bu marosimga alohida tayyoragarlik ko‘rib, turli shirinliklar, xusan, tort va pirojniylar tayyorlab, iste’mol qiladilar. Shu sabab bo‘lsa kerak, inglizlarning mehnatga doir maqollarida ham “cake – tort, biskvet” leksemasi uchraydi. Bu maqolining o‘zbekcha muqobilida **“Ishlagan osh tishlar, ishlagagan tosh tishlar”** maqoli ikki qismli maqol turiga kiradi va bu maqol mazmunida mehnat qilgan kishining och qolmasligi, cho‘ntagida, albatta, puli va xonodonida o‘ziga yetarli ozuqasi bo‘lishi va yalqov insonning tanballigi sabab hech vaqosi bo‘lmаслиги “tosh” so‘zi yordamida ifodalangan. Maqolda qo‘llangan “osh” so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁵da quyidagicha ta’rif berilgan:

1. [forscha so‘z bo‘lib, yovg‘on sho‘rva, xo‘rda, ovqat ma’nolarida keladi]. Pishirilgan issiq ovqat. Ugra osh. Xo‘rda osh. Sovchilarni yaxshi so‘zlar va quyuq-

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Big_Ben

⁴ <https://uz.kuzminykh.org/1596-big-ben.html>

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2007. – III ж. – 179 б.

suyuq oshlar bilan jo‘natib, ikkinchi kelishiga o‘ylashib javob beradigan bo‘ldilar. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

2. Umuman, har qanday ovqat, taom. Osh tuzi. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich! Maqol.

3. aynan. Palov. Osh damlamoq. Ilgarilari lag‘mon yoki osh yeish uchun nuqul korxonadan tashqariga chiqishga majbur bo‘lar edik. Gazetadan. – O‘ltiring, o‘ltiring, mehmon! – dedi usta Farfi. – Oshga sabzi bosildi-pishdi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

4. etn. Ba’zi munosabatlar bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi sifatida. Masalan, qiz oshi, xotin oshi, arvoh oshi, maslahat oshi. “Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar” maqolida qo‘llangan “osh” so‘zi palov manosida ham keladi va bu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁶ da quyidagicha izohlangan:

1. Palov forschadan olingen so‘z. Asosiy masallig‘i guruch, yog‘, go‘sht va sabzidan iborat, qovurib, qaynatib va dimlab tayyorlanadigan quyuq ovqat; osh. No‘xatli palov. Mayizli palov. Xotinlar palovni damlagan vaqtida boy kelib qoldi. Oybek, tanlangan asarlar. Nigor oyim spool laganda palov keltirib, hammalari birga oshga o‘tildilar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

O‘zbek milliy oshxonasida palov alohida ahamiyatga ega taom hisoblanadi. Yurtimizning turli viloyatlarida palovning ivitma palov, samovar palov, xalta palov, choyxona palov, qovurma palov kabi har xil turlari tayyorlanadi. O‘zbek xalqining barcha bayramlari, katta yig‘inlari, milliy sayllari, tug‘ilgan kunlari, diniy ayyomlari, to‘ylari, hasharlari, hatto ta’ziyalari ham palovsiz o‘tmaydi, chunki palov o‘zbeklarning sevimli, xushta’m va shifobaxsh taomlaridan hisoblanadi. Palovning shifobaxshligi va kasalliklarning turlariga qarab palovning tayyorlanish usullari haqida mashhur olim va tabib bobomiz Abu Ali Ibn Sino o‘zlarining “Tib qonunlari” asarida bir qancha muhim tavsiyalarini ham yozib qoldirganlar. Taomlar shohi bo‘lgan palov o‘zbek milliy koloritining alohida ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqimizning turmush tarzi va madaniyatining bir parchasi bo‘lgan palov, ya’ni osh so‘zi bejizga mehnatsevarlikka oid o‘zbek xalq maqollarida ishlatilmasligiga yuqoridagi fikrlardan ham anglab olishimiz mumkin. O‘zbek tilida “Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar” maqolining “Ishchan oshini yer,

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2007. – III ж. – 223 б.

dangasa – boshini”, “Ishlaganning og‘zi oshga tegar, ishlamaganning og‘zi toshga tegar” kabi sinonimlari ham bor.

“**Ishlagan so‘qim yer, ishlamagan to‘qim yer**” maqoli ham yuqoridagi maqollarga sinonim hisoblanadi va bu maqol orqali ishchan, mehnatsevar kishi o‘zining halol rizq-nasibasini olishi, dangasalar esa “to‘qim”yeyishi, ya’ni bu so‘z ma’jозиј ма’нода qо‘llanganda “kaltak yeyish” va “tanbeh eshitish” nazarda tutilgan. Maqolda qо‘llangan “so‘qim” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁷da quyidagicha izohlangan:

1. So‘yish uchun semirtirilgan, bo‘rdoqi qoramol (buqa, ho‘kiz, sigir). So‘qim go‘shti. So‘qim so‘ymoq. So‘qimga boqmoq. Xaloyiqqa endi ob-u osh berdi, Qancha qо‘y-u so‘qimlar so‘ydi. “Nurali”.

“**Ishlagan so‘qim yer, ishlamagan to‘qim yer**” maqolining lingvomadaniy jihatini quyidagicha izohlashimiz mumkin: O‘rtta Osiyo xalqlarida, jumladan, O‘zbekistonda qо‘y va qoramol go‘shti, ayniqsa, so‘qimga boqilgan buqa, ho‘kiz va sigir go‘shtlaridan tayyorlanadigan tandir kabob, kabob, osh, qaynatma sho‘rva, qovurma go‘sht va biqtirmalar sevib iste’mol qilinadi va barcha to‘y-u marosimlar so‘qim go‘shtisiz o‘tmaydi. Shu sabab ham, o‘zbeklar o‘zlarining suygan kishilarini va mehmonlarini, ayniqsa, mehnatsevar va ishchan kishilarini ovqatlanib, kuch yig‘ib olishlari uchun ataylab so‘qim bilan siylaydilar va bu urf-odat mehnatsevarlikka oid o‘zbek xalq maqollariga ham ko‘chib o‘tgan.

“All cats love fish but fear to wet their paws” maqolining o‘zbekcha tarjimasи “**Barcha mushuklar baliqni yaxshi ko‘rar, ammo oyog‘ini ho‘llashdan qо‘rqr**”. Maqol ma’jозиј ма’нода qо‘llangan bo‘lib, biror narsani yaxshi ko‘rgan odam uning mehnatidan ham qochmasligi zarurligi uqtirilgan. Mazkur maqol lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortilganda shuni aytib o‘tishimiz joizki, maqolda qо‘llangan “cat-mushuk” so‘zi inglizlarning sevimli hayvoni mushuk ekanligi va “fish-baliq” so‘zi inglizlarning eng sevimli taomlaridan biri chipsi bilan birgalikda dasturxonga tortiladigan qovurilgan baliq ekanligini isbotlasa, maqolda qо‘llangan “**to wet-ho‘llamoq**” so‘zi “**namlik, suvlik**” ma’nolarini anglatadi va ingliz xalqining suv bilan o‘ralgan orol davlat ekanligini anglatadi. Shu sabab ham, mehnatni ulug‘lovchi ingliz xalq maqollarida ham suv bilan bog‘liq leksemalar qо‘llangan.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2007. – III ж. – 669 б.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek xalqida mehnatsevarlik konsepti halol mehnat, rohat, muvaffaqiyat sifatida inson ongida gavdalanadi. Mehnatsevarlik ulug‘langan har ikkala xalq maqollarida ham shu xalqlarning milliy mentaliteti, urf-odatlari, turmush tarzi va azaliy qadriyatlari aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование.– М.: Мол. Гвардия, 1985.- 121 с.
- 2.Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 179-223-669 6.
- 3.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. -Т.: O‘qituvchi, 1990. - 303b.
- 4.Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, –2000. –398 b.
5. <https://history-maps.com/uz/story/History-of-England>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Big_Ben
7. <https://uz.kuzminykh.org/1596-big-ben.html>

**Research Science and
Innovation House**

O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi (Hemis dasturi timsolida)

“Micros Development” Xususiy korxonasi katta dasturchisi
Kuchkarov Abdullo Yusupjonovich

Annotatsiya: O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi shunday qilib, o‘quvchilarning o‘qituvchilar tomonidan yaxshi nazorat qilinishini ta’minlash va o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishini rag‘batlantirish uchun muhimdir. Ushbu maqolada O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi (Hemis dasturi timsolida) haqida ilmiy ma’lumotlar keng tahlil qilingan va mavzu tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: hemis dasturi, o‘quv tizimlar, monitoring, integratsiya, kredit modul tizimi, platforma,

Аннотация: Важно создать электронную систему контроля в образовательном процессе, обеспечивающую хороший контроль учащихся со стороны преподавателей и стимулирующую их успешность в образовательном процессе. В данной статье широко анализируются научные данные об особенностях периода создания электронной системы управления образовательным процессом (в виде программы Hemis) и исследуется тема.

Ключевые слова: программа Hemis, образовательные системы, мониторинг, интеграция, система кредитных модулей, платформа,

Abstract: It is important to create an electronic system of control in the educational process, thus ensuring good control of students by teachers and encouraging them to be successful in the educational process. In this article, the scientific data about the period characteristics of the creation of the electronic control system in the educational process (in the form of the Hemis program) are widely analyzed and the topic is researched.

Key words: hemis program, educational systems, monitoring, integration, credit module system, platform,

Kirish: Elektron tizimlar nazorat qilish jarayonini avtomatlashtirish va yengillashtirish uchun juda foydali bo‘lishi sababli, o‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi juda muhimdir. Elektron tizimlar, o‘qituvchilar va murabbiylar uchun talqinlarni avtomatik tarzda yaratish, talqinlarni barcha o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida yetkazib berish, o‘quvchi natijalari va baholarini monitoring qilish, sinovlar va imtihonlarga tayyorgarlikni tashkil etish va boshqa bir necha nazorat vazifalarini tezda bajarish imkoniyatlarini beradi. Bu esa o‘qituvchilarning va murabbiylarning vakolatlari bilan zahmatga uchrashmasligi, vakti-tezlikda ma’lumotlarni ta’minalash imkoniyatiga ega bo‘lishiga yordam beradi. Bunday elektron tizimlar jarayoni samarali, sodda va tezlashtiradi. O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi, talaba va o‘qituvchilar uchun yaxshi bir muhit yaratishda va ta’lim jarayonini masofaviy tarzda amalga oshirishda yordam berishi mumkin. Bu tizim orqali, o‘qituvchi talabalarning vazifalarini berishi, sinovlar va imtihonlar tayyorlashi, elektron dars materiallarini taqdim etishi, talabalarning ishlari va natijalari ustida monitoring qilishi mumkin bo‘ladi. Bunday tizimlar bilan o‘quv muhitida interaktivlikni yanada oshirish va ta’lim jarayonini eng sifatli shaklda amalga oshirish mumkin. Bu esa ta’limning sifatini oshirib, talabalar uchun motivatsiyani ko‘taradi va ularni mustaqil o‘rganishga ilhomlanadiradi. O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi shunday qilib, o‘quvchilarning o‘qituvchilar tomonidan yaxshi nazorat qilinishini ta’minalash va o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishini rag‘batlantirish uchun muhimdir. Elektron nazorat tizimi yordamida o‘qituvchi va o‘quvchi arasidagi aloqani kuchaytirib, maslahatlarni tezroq hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Research Science and Innovation House



Research Science and
Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI

VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

HEMIS AXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH



Hemis dasturi timsolida esa, dars jarayonini boshqarish va nazorat qilishni optimallashtirish uchun foydalanishi mumkin. Bu dastur yordamida o'qituvchi darsni boshqarishi, elektron vazifalarni berishi va natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida, o'qituvchi va o'quvchilar dars jarayonida ko'proq samarali ishlashadi va yangi ma'lumotlar almashish uchun yaxshi imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

HEMIS VA O'QITUVCHI



Asosiy qism: O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimi yaratishning davrga xosligi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun bir xizmat ko‘rsatish va muammo yechish jarayonini tezlashtirishdir. Elektron tizimlar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning ishlari va natijalari bo‘yicha to‘g‘ri vaqtida ma’lumotga ega bo‘lishlari, o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lishlari, sinflardagi faoliyatlarini monitoring qilishlari va dars ishlarini boshqarishlari mumkin bo‘ladi. Buning natijasida o‘quv jarayoni sifatini oshirib boradi va ta’lim muassasasi samaradorlikni ko‘taradi. Hemis dasturi timsoli esa, bu elektron tizimni yaratishda foydalilaniladigan dasturlardan iborat bo‘ladi, masalan **Moodle** yoki **Google Classroom** kabi. Bu dasturlar o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun murojaatlarni qo‘llab-quvvatlash, vazifalarni taqdim etish, baholar berish va boshqa amallarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. O‘quv jarayonida nazorat qilish elektron tizimini yaratishning davrga xosligi hozirgi kunda juda muhimdir.

Bu elektron tizimlar o‘qituvchilar va talabalar uchun bir qancha imkoniyatlar yaratadi, masalan:

1. Ma’lumotlarni onlayn saqlash: Elektron nazorat tizimi orqali ma’lumotlar internetda saqlanadi va ularga istalgan vaqt va istalgan joydan kirish mumkin.
2. Sinovlar va testlar: Elektron nazorat tizimi orqali sinovlar va testlar o‘tkazish osonlashadi, natijalar avtomatik ravishda hisoblanadi.
3. O‘quv materiallari: O‘quv materiallari ham elektron shaklda taqdim etilishi mumkin, bu talabalarga ilgari ma’lumotlarni olish imkoniyatini beradi.
4. Tadbirlar rejalashtirish: O‘qituvchilar elektron tizim orqali dars jadvalini tuzib, talabalarga xabar yuborish, onlayn muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bularni ko‘rib chiqib, elektron nazorat tizimining o‘quv jarayonida ko‘proq samaradorlik yaratishi ko‘rsatingan. Elektron nazorat tizimini yaratishning davrga xosligi, talabalarning o‘quv jarayonini nazarda tutish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirib, o‘qituvchilar va administratorlarga qulaylik yaratadi. Elektron nazorat tizimi yordamida, talabalar testlar va sinovlarni onlayn shaklda javoblashlari mumkin bo‘ladi, shuningdek ularning amaliy ishlarini monitoring qilish ham osonlashadi. Bu, o‘quv tizimining samaradorligini oshirib, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytirib, ma’lumotlar saqlanish va izlanishni xizmat qiladi.

HEMIS TIZIMIDA O'QITUVCHI PROFILI HAQIDA

Bu bo'limga Fan mavzulari, Fan resurslari(O'qituvchi o'tishi kerak bo'lgan, fan mavzular ro'yxati kiritiladi), va oxirgisi fan topshiriqlari bo'limga

FANLAR BAZASI



Bu bo'limga 3 qismiga bo'linadi, dars jadvali., dars o'tish, davomat jurnali

MASHG'ULOTLAR



Bu bo'limga Oralig nazorat, yakuniy nazorat va boshqa nazoratlatib bo'limgaridan tashkil topgan

NAZORATLAR



Bu bo'limga Mening xabarlarim va Xabar yaratish bo'limgaridan iborat

XABARLAR



Muhokama: Zamonaliv jamiyatimiz tobora taraqqiyot pillapoyasidan ko'tarilib borar ekan, ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibori ham shunchalik yuqorilab bormoqda. Negaki, ta'lim jamiyatning rivojida eng katta hissador yo'nalishdir. Shu sababli ham ta'lim tizimida, aynan o'quv jarayonlarida tezkor va qulaylik imkoniyatlariga ega tizimlarning yaratilishi bugungi davrning o'ziga xosligidir. Bunday o'ziga xoslikni yaqqol aks etgan va ayni kunlarda ta'lim sohasida faol qo'llanib kelinayotgan **HEMIS** dasturi yuqorida ta'kidlangan qulaylik va imkoniyatlarni o'zida jamlay olgani bois bugungi ta'lim tizimida o'zining o'rmini topa oldi. Oliy ta'limni boshqarish yo'nalishida oliygochlар axborot tizimining HEMIS dasturi ayni vaqtarda faollashib ulgurdi. Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi, ya'niki HEMIS — bu axborot tizimi “Ma'muriy boshqaruv”, “O'quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” hamda “Moliyaviy boshqaruv” axborot tizimlarini o'zida jam qiladi. HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.


Aynan o‘quv jarayoni bilan bog‘liq holatlarga bag‘ishlangan ishning mazmunini yoritish uchun dasturning “O‘quv jarayoni” axborot tizimi haqida ma’lumot berish va ushbu ma’lumolarning ta’limdagi o‘quv jaryonida mavjud bo‘ladigan ahamiyati haqida so‘z yuritish o‘rinli bo‘ladi. HEMIS dasturining “O‘quv jarayoni” axborot tizimi o‘quv dasturlari va rejalar, o‘quv mashg‘ulotlari va imtihonlar jadvallari, talabalarning o‘zlashtirish va davomatiga oid axborotlarni boshqarish kabi amaliy ishlarga qartilgan bo‘lib, bu orqali o‘quv jarayonida qator qulayliklarga erishish mumkin. Masalan, eng avvalo, qog‘ozbozlik ishlaridan voz kechib, masofaviy ta’limning rivojlanish bosqichlariga xos shartlarini o‘rganish va unga moslashib, faoliyat yuritish imkoniyati tug‘iladi. Bu bilan esa raqamli texnologiyalardan barcha birdek foydalanish imkoniyatini tezkorlik bilan o‘rganishi va uni amaliyotda tezda qo‘llay boshlashi mumkin. Shuning barobarida o‘quv mashg‘ulotlariga tegishli barcha ma’lumotlarning tizimda aks etishi ta’lim oluvchilarga ham ta’lim bervchilarga ham vaqtan unumli foydalanish natijasida vaqt ni tejash uchun yordam beradi. Ya’ni tizimda o‘quv mashg‘ulotlariga tegishli ma’lumotlarning joylashishi talaba tezkorlik bilan amaliy vazifalarni bajarish uchun namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi esa har bir talabaga bu haqida so‘zma-so‘z tushuntirishga majbur bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘quv mashg‘ulotlarining HEMIS dasturida aks etgani har tomonlaman qulaylikdir

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, HEMIS dasturi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning eng maqbul namunalaridan biri sifatida o‘quv jarayonida davrga xos vazifalarni ado etishda katta ko‘mak beradi. Bu bilan yuqoridagi kabi qulayliklarga erishilib, vaqt tejalishi, imkoniyatlar kengayishi va yana bir necha qulayliklarga ega bo‘lish kabi sifatlarga erishish mumkin.

Research Science and Innovation House

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qizi D. J. U., Qizi S. J. U. O ‘QUV JARAYONIDA NAZORAT QILISH ELEKTRON TIZIMINIYARATISHNING DAVRGA XOSLIGI (HEMIS DASTURI TIMSOLIDA) //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – C.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-son.
3. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. (<https://zienjournals.com>)
4. Еремин Е.А. О компьютерной методике изучения целостности системы базовых понятий, сформировавшейся у студентов в результате освоения курса // Human Aspects of Artificial Intelligence, серия «Information Science & Computing». – Sofia, 2009. – V. 3, No 12.– P.



Research Science and Innovation House

BOLALARDA XULQ OG‘ISHINI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK OMILLARI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rejametova Irada Ikramshikovna

Ichki ishlar vazirligi transport va turizm
obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash
departamenti tezkor qidiruv boshqarmasi hodimi
I.Yu.Raxmatov

Annotatsiya: Xozirgi jamiyatda kundan kunga turli deviant va delikvent xulq-atvor namunalari yuzaga kela boshladi. Jamiyatdagi ma’naviy muhitning ta’sirini kuchaytirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish shaxs ijtimoiylashuvning tizimli amalga oshishiga ko‘maklashadi. Jamiyatda mayjud ma’naviy axloqiy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy norma, deviantlik, psixologik omillar, agressiya, shaxs, xarakter, ustanovka.

SOTSIALNO-PSIXOLOGICHESKIE FAKTOR PROFILAKTIKE POVEDENIYA V MOLODYOJI

Annotatsiya: V obestve, osnovannom na r’nochn’x otnosheniyax, deni oto dnya nachali poyavlyat’sya razlichnye modeli deviantnogo i delinkventnogo povedeniya. Usilenie vliyaniya duxovnoy sredy v obestve, vospitanie molodeji, sposobstvuet planomernomu osiщestvleniyu sotsializatsii. Sushestvuyushie v obestve moral’nye i eticheskie norm’ vajny dlya togo, chtob’ nasha molodeji naxodila svoe mesto v obestve, bila chestolyubivoy i patriotichnoy.

Klyuchev’e slova: deviantnost’, sotsial’naya norma, psixologicheskie faktory, agressiya, lichnost’, xarakter, ustanovka.

Globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etayotgani hech birimizga sir emas. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida qilgan nutqida: «**Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat**»¹ deb bejiz ta’kidlamagan. Jamiyatda mavjud ma’naviy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda xulq og‘ishini oldini oluvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o‘rganar ekanmiz, hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipoteza(faraz)larni, bu sohaga doir nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyatda qo‘llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi. Yoshlar o‘rtasida xulq og‘ishini barvaqt oldini olish to‘g‘risida nafaqat profilaktika idoralari, Ichki ishlar va Sog‘liqni saqlash, ta’lim, sport va turizm, madaniyat vazirliklari tomonidan rioya qilingan ijtimoiy nazorat va cheklovlar pozitsiyasidan kelib chiqib qarash noo‘rin.

Biz tomonimizdan yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Yoshlarda xulq og‘ishini oldini olish omillari sifatida nimalarni nazarda tutasiz?” nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnomamizda Oliy ta’lim muassasalari talabalari, Probatsiya xizmati nazoratidagi xulqi og‘ishgan yoshlar faol ishtirok etdi

Navbatdagi savolimizga respondentlarimizning javobi quyidagicha shaklni oldi. Natijalardan ham ko‘rinib turibdiki, xulq og‘ishi oldini olishda deviant xulqli yoshlar asosiy omillar biri sifatida “OAV da behayo jangari filmlarni ko‘rmaslik” javobini tanlashgan bo‘lsa 38.9 %, sog‘lom uyushgan yoshlar esa, “oilada, ta’lim muassasalarida kompleksli chora-tadbirlar samaradorligi kuchaytirish” mulohazasini tanlashdi 57.6 %. E’tiborli jihat quydagi berilgan javoblarda ko‘rinadi, xulqi og‘ishgan yoshlar “oilaviy muhitda diniy va dunyoviy tarbiyani birdek berish” mulohazasini uyushgan yoshlarga nisbatan ko‘proq tanlashgan 15.4 %. Bu esa bizda, xulqi og‘ishgan yoshlar o‘zlaridagi xulq og‘ish sabablarini yoki bu

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziliqi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B.254.

kabi salbiy hodisalarni oldini olishda oiladagi diniy va dunyoviy tarbiyaning birdek berilishi muhimligini alohida qayd etmoqda, degan tasavvur uyg‘otadi.

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoramizdan o‘rin olgan navbatdagi “Sizningcha qanday xarakterdagи yoshlar xulq og‘ishiga moyil bo‘ladi?” savolga reponentlarimizning javoblari quyidagicha tus oldi, xulqi og‘ishdan yoshlarning bergen javoblariga qaraganda xulq og‘ishiga ko‘proq “ehtiyojlari vaqtida qondirilmagan, sabrsiz xislatlarga ega shaxslar” moyil bo‘lsa (43.2 %), uyushgan yoshlarning aksariyati 36.4 % i “o‘ziga past baho beradigan, imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaydigan shaxslar”da xulq buzilishi kelib chiqish hollari ko‘proq kuzatiladi, degan mulohazani tanlashgan. Xarakter xususiyatlaridan esa, xulqi og‘ishgan yoshlarda “serhahl, agressiv” javobiga berilgan ko‘rsatkichlar 40 % ni, uyushgan yoshlarda esa, 27.3 % ni tashkil etmoqda.

Olingan natijalardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, xulqi og‘ishgan yoshlarning ko‘pchiligida xulq buzilishlarini kelib chiqishiga, ijtimoiy me’yorlarni buzishida o‘z ehtiyojlarnining ma’lum miqdorda qondirilmaganligini, shuningdek, “qondirilmagan ehtiyojlarini boshqa vositalardan foydalangan holda qondirishga urinishlari” ham sabab bo‘ladi, degan xulosa keladi. Uyushgan yoshlarning bu boradagi bergen javoblariga ko‘ra esa, “o‘z imkoniyatlarini past baholagan va o‘ziga ishonmagan shaxslar”da maqsadlarini ro‘yogha chiqarishda ichki kuch yetishmasligi, ikkilanish kabi holatlarning ko‘p takrorlanishi oqibatida xulq buzilishi hollari kuzatilishi ehtimoli oshadi. Olingan natijalarga asoslanib esa, xulq buzilishini oldini olishda shaxsdagi psixologik faktorlarni ham inobatga olish, korreksiya ishlarni takomillashtirish zarur, degan tavsiyalarni ishlab chiqish o‘rnlidir.

Probatsiya xizmati tasarrufidagi tadqiqot sinaluvchilarining empirik ko‘rsatkichlariga ko‘ra korrelyatsiya natijalarini quyidagicha izohlash o‘rinlidir. Sinaluvchilarda xulq og‘ishiga moyillik ko‘rsatkichi bo‘yicha shaxsda “ijtimoiy normalarga ijobiy ustakovka” ning ortib borishi “emotsional reaktsiyalarni irodaviy nazorat qila olish” darajasining kamayishiga olib keladi ($r = -0.491$, $r \leq 0,01$). Buni quyidagicha tushuntirish mumkin, deviant xulq-atvorli shaxsda jamiyatdagi ijtimoiy normalarga ijobiy ustakovka shakllansa, unda bu ijtimoiy normalarga amal qilish, ko‘nikish jarayonida emotsional-hissiy sohasida o‘zgarishlarni vujudga keltiradi.

Uyushgan yoshlarda esa, bu ko‘rsatkichlar quyidagicha ko‘rinish olmoqda, normal xulq-atvorli shaxslarda jamiyat tarafidan berilgan qonun-qoidalarni to‘g‘ri

tushunish, ularni qabul qilish va ularga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkani shakllantirish ortgani sari, bunday tipga mansub yoshlarning xulqida o‘ziga va boshqa shaxslarga zarar yetkazish holatlari, shuningdek, o‘zining xulq-atvorini buzishga intilish kamayadi ($r = -0.381$, $r \leq 0,05$). Demak, olingan natijalar asosida, jamiyat talablari va normalarini to‘g‘ri qabul qilgan va jamiyatdagi mavjud o‘rnatilgan tizimlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lgan yoshlarda tabiiyki, o‘z holatidan qoniqish hissi ustuvor bo‘ladi va bularda bu kabi omillar o‘zlarining xulq-atvorini nazorat qilish, o‘ziga va yon atrofidagilarga ziyon berish kabi salbiy holatlarning oldini oladi.

SHuningdek, deviant xulqli shaxsning “Qoida va normalarni buzishga moyillik” darajasining ortishi undagi “Emotsional reaktsiyalarni irodaviy nazorat qila olish” ko‘rsatkichining kamayishiga ($r = -0.507$, $r \leq 0,01$) olib kelsa, o‘z navbatida “Delikvent xulq-atvorga moyillik” ko‘rsatkichining oshishiga ham olib kelar ekan ($r = 0.447$, $r \leq 0,05$). Xulqi og‘ishgan shaxslarda bunday ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsda qoida buzishga moyillikni ortishi, undagi o‘zini nazorat qilish qobiliyatining pasayishiga, buning oqibatida esa, shaxsda o‘zi anglamagan holda o‘rnatilgan qonun-qoidalarni buzish holatlarining ko‘p takrorlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Navbatdagi aloqadorlik xulqi og‘ishgan va uyushgan yoshlарimizda “addiktiv xulq-atvorga moyillik” va “o‘ziga zarar keltirish, o‘z xulqini buzishga intilish” shkalalari orasida kuzatildi. Xulqi og‘ishgan yoshlarda bu ko‘rsatkich ($r = 0.582$, $r \leq 0,01$) tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘rtasidagi yuqori aloqadorlik ayniqsa, xulqi og‘ishgan yoshlar o‘rtasida kuzatilgani e’tiborimizni tortgan bo‘lsa, uyushgan yoshlarda ($r = 0.407$, $r \leq 0,05$) ham tushkun holatlarida yoki o‘ziga nisbatan bahosi pasaygan paytlarda hayot mazmunini boshqa vositalardan qidirishga urinishlari oqibatida o‘zlarining xulqlarini buzishlari ehtimoli oshishi ham ahamiyatga molik, bugungi kunning dolzarb muammolari sifatida e’tiborga olinishini taqozo etadi. Bu kabi holatlarni bartaraf etish, oldini olishda pedagoglar-psixologlar bilan bir qatorda oila va ta’lim muassasasining uzlyuksiz hamkorligi ham ijobiy natija berishi mumkin.

Xulqi og‘ishgan yoshlarda “addiktiv xulq-atvorga moyillik” ortishi “emotsional reaktsiyalarni irodaviy nazorat qila olish” qobiliyatini ham pasaytirishi yuqoridagi jadvalda aks etgan ko‘rsatkichlar orqali a’yon bo‘lmoqda ($r = -0.450$, $r \leq 0,05$). Og‘ishgan xulq-atvorli shaxslarda biror moddalarni iste’mol qilish asosida

o‘zini nazorat qila olmaslik, atrof-muhitda bo‘layotgan voqealarni idrok etmaslik holatlarini yuzaga keltiradi. Natijada shaxsda irodaviy buzilishlar holati paydo bo‘ladi, atrofdan kelayotgan munosabatlarga reaktsiya bildirishi kamayadi. O‘zini boshqara olmaslik holatlari ham bu ko‘rsatkichlarning o‘zaro aloqadorligidan vujudga kelishi yuqoridagi fikrlarimizga isbot bo‘lishi mumkin.

Yana bir ahamiyatli bog‘liqlik uyushgan yoshlardan olingan natijalarni tahlil etish chog‘ida kuzatildi. Uyushgan yoshlar kategoriyasida “addiktiv xulq-atvorga moyillik” oshgani sari “delikvent xulq-atvorga moyillik” ham ortib borishi aniqlandi ($r= 0.388$, $r\leq 0,05$). Bu natijalarga quyidagicha sharh berish mumkin, agar uyushgan sog‘lom xulq-atvorli yoshlar biror buzg‘unchi o‘yinlar yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilishga qiziqishsa va bu qiziqish doimiy “moyillik”ka olib borsa, ularning xulq-atvorida delikventlik alomatlari ham ortib boradi.

Og‘ishgan xulqli yoshlarda metodika ko‘ra “O‘ziga zarar keltirish va o‘z xulqini buzishga moyillik” ortgani sari “Emotsional reaktsiyalarini irodaviy nazorat qila olish” xususiyatlari kamayib boradi ($r= -0.409$, $r\leq 0,05$). Bunday toifadagi yoshlarda o‘ziga zarar yetkazish hissi ustunlik qilib, natijada o‘z hissiyotlarini boshqara olmaslik, tashqi taassurotlarni qabul qilmaslik holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlarni oldini olish, maxsus psixokorreksion mashg‘ulotlar olib borish shaxs ichki olamini va uning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishni talab etadi. Olingan natijalar asosida shuni aytishimiz mumkinki, o‘ziga zarar yetkazish turlaridan biri bo‘lgan suitsidal holatlarning kelib chiqishiga aynan shaxsning o‘zini emotsiyal iroda qila olmasligi sabab bo‘ladi, deyish mumkin. Natijada esa, shaxsda psixik buzilish holatlari kelib chiqishi bilan birgalikda, o‘ziga va atrofdagilarga jiddiy ma’naviy, moddiy va psixologik zarar yetkazish holatlari sodir bo‘ladi.

Sinaluvchilarda xulq og‘ishiga moyillik ko‘rsatkichi bo‘yicha xulqi og‘ishgan yoshlarda “o‘ziga zarar keltirish va o‘z xulqini buzishga moyillik” darajasi ortgani sari “delikvent xulq-atvorga moyillik” darajasi ham ortib boradi ($r= 0.515$, $r\leq 0,01$). SHaxsda o‘zini zararlash, o‘z hayotiga zomin bo‘lishga intilish holatlari undagi delikvent(takrorlanib turuvchi g‘ayri ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida) xulq-atvorni kuchayishiga turtki bo‘lishi mumkin. Delikvent xulq huquqiy meyorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko‘ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan harakatlardir. Bu kabi salbiy o‘zaro yuqori aloqadorlik ko‘rsatkichlarni kamaytirish uchun xulqi nazorat ostida turadigan shaxslar,

shuningdek, xulqida o‘zgarish sodir bo‘layotgan yoshlar bilan kompleksli ishlar samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi[2]. Bunga misol tariqasida, ta’lim muassasalarida, OAV da shaxsning motivatsion-emotsional sohasiga ijobiy ta’sir etuvchi teleko‘rsatuvlar, ijtimoiy roliklar hamda dars mashg‘ulotlarida munozalari debatlarni tashkil etish, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali ulardagi “energiya”ni boshqa ijobiy narsalarga yo‘naltirish tavsiya etiladi.

Uyushgan yoshlarda xulq og‘ishiga moyillikni aniqlash ko‘rsatkichi bo‘yicha ularda “zo‘ravonlik va agressiyaga moyillik” darajasi ortgani sari, “delikvent xulq-atvorga moyillik” darajasi ham yuqorilab boradi ($r=0.435$, $r\leq 0,05$). SHaxsda o‘ziga, boshqalarga nisbatan zo‘ravonlik kayfiyatining ustun bo‘lishi, boshqalarga zarar yetkazish, boshqa shaxslarning azoblanishidan rohatlanish, agressiv munosabatlar ortishi delikvent xulq-atvor shakllaridan hisoblangan, mayda bezorilik, shaxsga ham ma’nан, ham jismonan zarar yetkazish, bosqinchilik, talonchilik kabi oqibati salbiy natijalarga olib boruvchi huquqbazarliklarni qilishga intilishning oshishiga sabab bo‘ladi [4].

“Ijtimoiy normalarga ijobiy ustanovka” shkalasi bo‘yicha yuqori darajadagi ahamiyatlilik farqi “xulqi og‘ishgan yoshlar” va “uyushgan yoshlar” o‘rtasida aniqlandi ($t= -2.815$, $p<0,01$). “Xulqi og‘ishgan yoshlar” guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 6.5 ni tashkil qilsa, “Uyushgan yoshlar” guruhida 8.3 ni tashkil qildi. Bundan shu xulosaga kelinadiki, og‘ishgan yoshlarda jamiyatda mavjud bo‘lgan qonun-qoidalarga, ijtimoiy normalarga nisbatan munosabatning ijobiyligi pastroq darajada. Bu esa, ularda xulq buzilishlarini keltirib chiqarishda sababiy omillardan biri bo‘lmoqda.

“Qoida va normalarni buzishga moyillik” shkalasi bo‘yicha yuqori darajadagi ahamiyatlilik farqi “xulqi og‘ishgan yoshlar” va “uyushgan yoshlar” o‘rtasida aniqlandi ($t=17.357$, $p<0,01$). “Xulqi og‘ishgan yoshlar” guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 13.1 ni tashkil qilsa, “Uyushgan yoshlar” guruhida ularga nisbatan ancha pastroq 6.1 ni tashkil qildi. Bundan og‘ishgan yoshlarda tabiiyki, ijtimoiy normalarni buzishga moyillik sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkichni tashkil etishi taxmin qilingan edi, lekin uyushgan yoshlar kategoriyasida ham bunday holatlarni keltirib chiqarmaslik uchun zarur profilaktik choralarini ko‘rish kerakligi a’yon bo‘lmoqda.

Deviant xatti-harakatlarning shakllanishiga oila, oilaviy munosabatlar, o‘smin shaxsining xarakter xususiyatlari, ruhiy va jismoniy kasalliklarga moyilligi, shuningdek, ijtimoiy muhit ta’sir qiladi [5]. SHaxsni rivojlantirish jarayonida

vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy xatti-harakatlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirga egadir, shuning uchun to‘laqonli ta’lim va korreksion(tuzatish) ishlari bo‘limgan taqdirda, yoshlarda xarakterning “qiyinlashuvi” kuchayadi, bu esa shaxs rivojlanishida asotsiallikning yangi belgilarining paydo bo‘lishi yoki mavjudlariga e’tiborsizlik darajasini oshiradi [3].

Tadqiqotdan olingan empirik natijalar asosida quyidagi xulosalarni qilishimiz joiz:

Birinchidan, Probatsiya xizmati ro‘yxatida turuvchi xulqi og‘ishgan yoshlar va uyushgan yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma olinganda, deviant yoshlarning ko‘pchiligi (43.2%) xulqi og‘ishiga “ehtiyojlari vaqtida qondirilmagan, sabrsiz” toifadagi shaxslar moyil bo‘ladi, degan javobni tanlashgan. Salbiy illatlarni jamiyatda ko‘payishiga “oilada diniy tarbiya va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning yetishmasligi” omilini 45% xulqi og‘ishgan yoshlar tanlashdi. Olingan natijalar asosida esa, o‘sib kelayotgan yoshlar tarbiyasida shu kabi omillarni hisobga olgan holda ish ko‘rish lozimligi ma’lum bo‘ladi.

Ikkinchidan, “Xulq og‘ishiga moyillikni aniqlash” metodikasi asosida xulqi og‘ishgan va uyushgan yoshlar o‘rtasida yetarli yuqori, ahamiyatli farqlar aniqlandi. Xulqi og‘ishgan yoshlarda ijtimoiy normalarga nisbatan salbiy ustakovkalar mavjudligi, qoida va normalarni buzishga, addiktiv xulq-atvorga, zo‘ravonlik va aggressiyaga, delikvent xulq-atvorga moyillik va emotsiyalarni irodaviy nazorat qila olmaslik kuzatildi. Yuqorida keltirilgan jihatlarni ijobiy tomonga muvofiqlashtirish uchun profilaktik tadbirlar sifatida ijtimoiy-psixologik treninglarni tizimli olib borish darkor.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2018. –508-b.
2. Gilinskiy Ya.I. Sotsialny kontrol nad deviantnostyu v sovremennoy Rossii: teoriya, istoriya, perspektiv // Sotsial’nyy kontrol’ nad deviantnostyu. SPb., 1998.-S.4-21.
3. Deviantnoe povedenie u podrostkov: Diagnostika. Profilaktika. Korrektsiya: Uchebnoe posobie / V.G.Kondrashenko, S.L.Igumnov. – M.: “Aversev”, 2004.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY


ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

4. Noy I.S. Lichnost prestupnika i yeyo znachenie v izuchenii prestupnosti // Uchen. zap. Saratovskogo yurid. in-ta. Vyip. 1 b.-Saratov: Izd-vo Saratovskogo yur. in-ta, 1969. -S. 5-27.

5. Ruxieva X.A. Voyaga yetmaganlarda huquqbazarlik va suitsidal holatlarni kelib chiqish sabablari va ularni psixoprofilaktikasi. 2021. Tafakkur tomchilari. 360-bet.



**Research Science and
Innovation House**

VINEERLAR

Raxmatullayev Shaxzod

Buxoro Innovatsion Ta’lim va Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Ushbu ishda keramika va kompozit vineerlarning qiyosiy tavsifi berilgan. Ularning afzalliklari baholanadi va kamchiliklar

Kalit so‘zlar: shponlar, kompozit qoplamlar, keramik qoplamlar, estetik tishlarni tiklash.

KIRISH

Tish salomatligi va chiroyli tabassum ijtimoiy ahamiyatga ega mezondir. G. Guerel (2007) “moda tabassumlari” deb yozgan ommaviy axborot vositalari tomonidan boshqariladi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari bemorlarni “juda ko‘p” bo‘lishni xohlaydi mukammal” yoki “juda oq” tishlar. Mass-media bosimi ostida bo‘lgan bemorning yana bir yolg‘on vakili protseduralar haddan tashqari tezlikda amalga oshirilishi kerak.” Hozirgi vaqtida klinik amaliyotda tish shifokori ko‘pincha tishlarni estetik tuzatish bilan shug‘ullanishi kerak. Yangi texnologiyalar va materiallar paydo bo‘lishi bilan, shifokorlar o‘rtasida keramika va kompozitdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida kelishmovchiliklar mavjud qoplamlar. Qayta tiklashning takomillashtirilgan materiallari va usullari eng yuqori estetik talablarni qondirishga imkon beradi bemorlar. Hozirgi vaqtida bemorlar ko‘p miqdordagi tish to‘qimalarini saqlashdan manfaatdor va qabul qilishni xohlashadi yakuniy ishning rangi va shaklini tanlashda ishtiroy etish. Shuningdek, ular shifokorlarga yakuniy natijani bashorat qilish vazifasini qo‘yadilar davolashning boshida. Componeer tayyor kompozit qoplama tizimi o‘zini bilvosita muqobil sifatida ko‘rsatadi qayta tiklash usullari, xususan, yuqori estetik va kosmetik aniqlik qobiliyatiga ega keramik qoplamlar qayta qurish. Dastlab turli xil tishlarning rangsizlanishini davolash uchun ishlataliganchinni laminat qoplamlar tobora ko‘proq konservativ terapevtik usullar bilan almashtirildi, masalan, sayqallah va emal mikroabraziyasi biroq, bu evolyutsiya qoplamlar uchun ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib kelmadi, chunki materiallar va texnikalar ishlab chiqishda davom etmoqda. Seramika qoplamlari konservativ estetik yondashuv uchun eng yaxshi variant hisoblanadi, chunki ular qoplamanini joylashtirishdan oldin deyarli barcha emallarni buzilmasdan qoldiradilar. Yigirma

yildan ko‘proq vaqt oldin kiritilganidan beri ceramic veneer restavratsiyasi davolashning bardoshli va estetik usuli ekanligini isbotladi. Texnika topgan klinik muvaffaqiyatni protseduralar to‘plamida, shu jumladan ishni rejalashtirishda, to‘g‘ri ko‘rsatma bilan tafsilotlarga katta e‘tibor berish bilan bog‘lash mumkin; tishlarni konservativ tayyorlash; foydalanish uchun keramikani to‘g‘ri tanlash; sementlash materiallari va usullarini to‘g‘ri tanlash; va bu restorasyonlar davom etayotgan texnik xizmat ko‘rsatish uchun to‘g‘ri rejalashtirish.Citation6 shunga ko‘ra, ushbu maqolada yangi tendentsiyalar, materiallar va usullar bilan bog‘liq ba’zi tashvishlarni hal qilish uchun materiallar, ilovalar va texnikalarni o‘z ichiga olgan keramik laminat qoplamlarni tiklash jihatlari muhokama qilinadi, chunki ular ushbu davolash usulining davomiy muvaffaqiyati bilan bog‘liq. Laminat qoplamlar yordamida oldingi tishlarning estetikasini yaxshilash uchun ularning shaffofligi va kichik qalinlikda foydalanish imkoniyati bo‘yicha ikkita turdagи materiallar ko‘rsatilgan: sinterlangan dala chinni va presslash mumkin bo‘lgan keramika, ular kompyuter yordamida ishlab chiqarish texnikasi yordamida frezalashda ham ishlatilishi mumkin. Keramika juda shaffofdan juda shaffofgacha farq qilishi mumkin. Umuman olganda, mikroyapı (kristalsiz) qanchalik shishasimon bo‘lsa, keramika shunchalik shaffof bo‘ladi; qanchalik kristalli bo‘lsa, shunchalik shaffof bo‘lmaydi. Shaffoflikka hissa qo‘sadigan boshqa omillar qatoriga zarracha o‘lchami, zarracha zichligi, sindirish ko‘rsatkichi va g‘ovaklik kiradi.

Materiallar va usullar

Chinni qoplamlalar 1980-yillarning boshidan beri estetik bo‘lmagan oldingi tishlarni konservativ tarzda tiklashning mashhur vositasi bo‘lib kelgan. Bir qator o‘rta muddatli klinik tadqiqotlar ushbu restavratsiyalarning ijobiy klinik ko‘rsatkichlarini tasdiqladi, chunki ularning estetik jihatdan yaxshi ta’milanganligi, bemorning qoniqish darajasi yuqori bo‘lgan va gingival salomatligiga hech qanday salbiy ta’sir ko‘rsatilmagan. darajasi (0%–7%). Boshqa klinik tadkikotlarda muvaffaqiyatsizliklarning yuqori darajasi (14%–33%) qayd etilgan. noto‘g‘ri yopishtiruvchi vositalardan foydalanish, tayyorlanmagan tishlar va katta ochiq dentin yuzalariga qisman yopishish. Shunga qaramay, chinni shponlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompozit qoplamlarga qaraganda mustahkamroq hisoblanadi, chunki bemorlar to‘g‘ri tanlangan va shponlar puxta klinik protseduradan keyin tayyorlanadi. Della Bona va Kelli butunlay keramik restavratsiyalar uchun klinik dalillarni solishtirdilar. Ularning xabar berishicha, keramika, 5 yil ichida 5% dan

kam ishlamay qolish darajasi (ushlab turish yoki sinish yo‘qolishi) bo‘lgan shponni tiklash uchun juda mos keladi. Boshqa mualliflar feldspatik chinnilarning uzoq muddatli omon qolish darajasi o‘xshashligini aniqladilar: 5 yil ichida 96%, 10 yilda 93%, 12 yilda 91%, Iqtibos16 va 94% 12 yilda. estetikaga (31%), mexanik ta’sirga (31%), periodontal yordamga (12,5%), tutilishning yo‘qolishiga (12,5%), kariyesga (6%) va tish sinishiga (6%). Davolashning iloji boricha konservativ bo‘lish maqsadiga asoslanib, birinchi tanlov har doim bu materiallar bo‘ladi. Feldspatik chinni va shisha infiltratsiyalangan keramika 5 yil ichida 96% dan 98% gacha uzoq muddatli omon qolish darajasini ko‘rsatdi.

Chinni laminat qoplamlar sezilarli evolyutsiyadan o‘tdi. Hozirgi kunda ulardan foydalanish koronal tish tuzilmalarini qamrab olish uchun oldingi tishlar uchun oddiy qoplamadan tashqari kengaydi. Feldspatik qoplamlar shisha asosidagi (kremniy dioksidi) kukuni va suyuq materialarni qatlamlash orqali hosil bo‘ladi. Kremniy dioksidi, shuningdek, silika yoki kvarts deb ataladi, turli miqdorda alumina mavjud. Ushbu alyuminiy silikatlar tabiiy ravishda topilganda va har xil miqdordagi kaliy va natriyni o‘z ichiga olganida, ular dala shpatlari deb ataladi. Dala shpatlari asosan kremniy oksidi (60% -64%) va alyuminiy oksidi (20% -23%) dan iborat bo‘lib, odatda tishlarni tiklashda ishlatilishi mumkin bo‘lgan shisha yaratish uchun turli usullar bilan o‘zgartiriladi. Shunday qilib, chinni qoplama alyuminiy-silikat oynasidagi florapatit kristallaridan iborat bo‘lib, ular tiklanishning yakuniy morfologiyasi va soyasini yaratish uchun yadroga qatlamlanishi mumkin. Florapatit kristallari qoplama chinni optik xususiyatlariga hissa qo‘shadi. Feldspatik chinni katta estetik ahamiyatga ega va tabiiy tish tishlari kabi yuqori shaffoflikni namoyish etadi. Qatlamlash va otish jarayonidan foydalangan holda, keramistlar tabiiy tishlarga iloji boricha optik jihatdan yaqin bo‘lishi mumkin bo‘lgan shponlarni ishlab chiqdilar.

Natijalar va muhokama

Veneerlar - tishlarning vestibulyar yuzasiga mahkamlangan keramika yoki kompozitlardan tayyorlangan plitalar. Shponlar tufayli tishning koronal qismidagi kariyes va kariy bo‘lmagan kelib chiqadigan nuqsonlarni, anomaliyalarni bartaraf etish mumkin. tishning tish bo‘shlig‘idagi holati, shakli, o‘lchami, tishlarning rangi o‘zgarishini yashirish.

Ushbu maqolada biz keramika va kompozit qoplamlarning afzalliklari va kamchiliklarini batafsil ko‘rib chiqamiz. Seramika qoplamlari estetik tish

muammolarini tuzatish uchun keng qo‘llaniladigan usuldir. bilan tiklash seramika qoplamlaridan foydalanish bilvosita usuldir. Bunday holda, bemor bir necha marta shifokorga tashrif buyurishi kerak. Seramika qoplamlalarining qalnligi 0,5 dan 0,9 mm gacha bo‘lib, ularni o‘rnatish uchun tishni maydalashni talab qiladi. Davolangan tishdan Taassurot olinadi va maket tayyorlanadi, unga ko‘ra shpon stomatologiya laboratoriyasida tayyorlanadi. Seramika qoplamlari qator xususiyatlarga ega. Misol uchun, ular o‘zgarib turadigan kompozit materiallardan farqli o‘laroq, bo‘yashga chidamli rang berish xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilishda ularning restavratsiyalarining rangi. Seramika ajoyib xususiyatlarga ega past alerjeniklik va sitotoksiklik tufayli yumshoq to‘qimalar bilan biologik muvofiqligi.

Bundan tashqari, keramika yuzasida mikroorganizmlarning hayotiyligi ancha past bo‘ladi, shuning uchun to‘planadi. Tish blyashka kamroq bo‘ladi. Buni keramikaning silliq yuzasi bilan izohlash mumkin, bu biriktirilishiga to‘sinqilik qiladi bakteriyalar. Keramika qoplamlalarining yorug‘likni o‘tkazish qobiliyati yuqori estetik natijalarga erishish imkonini beradi. Nur, shpon yuzasiga tushib, keramika ichiga turli xil chuqurliklarga kiradi va keyin tish to‘qimalaridan aks etadi va shu bilan shu bilan rang chuqurligini yaratadi va tiklashga tabiiy shaffoflikni beradi. Xizmat muddati haqida Ushbu tiklash uchun, to‘g‘ri parvarish qilish va shifokor tavsiyalariga amal qilgan holda, keramik qoplamlar sizga 10-15 yil xizmat qiladi. Chinni qoplamlarga muqobil kompozitsion tizimdan foydalanish hisoblanadi. Bunday vaziyatda estetik Tishlarni tiklash to‘g‘ridan-to‘g‘ri bemorning og‘zida sodir bo‘ladi va bir tashrif bilan yakunlanishi mumkin. Bemor restavratsiyaning rangi va shaklini tanlashda ishtirok etishi mumkin. Ushbu tizim bilan ishslashda laboratoriya tekshiruvlariga ehtiyoj qolmaydi. bosqichlar. Componir standartlashtirilgan qoplama bo‘lib, u sanoatda ishlab chiqariladi original polimerlashtirilgan yuqori to‘ldirilgan nanogibrid kompozit. Bu Shveytsariya kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Coltene/Whaledent. Ishlab chiqaruvchi bizga uchta o‘lchamli variantni taqdim etadi: katta, o‘rta va kichik va ikkita plitalarning shaffofligiga ko‘ra navlar (oq va universal). componeer premium tizim to‘plami sifatida mavjud, 84 ta shpon yoki 36 ta qoplalmali asosiy tizim to‘plamini o‘z ichiga oladi. To‘plamlarga qo‘srimchalar ham kiradi materiallar: shablonlar, ushlagich, komponeerni o‘rnatish vositasi, modellashtirish vositasi, nanoto‘ldirilgan mikrogibrid kompozit materiallar sinergiyasi D6 va sinergiya D6 Flow, bir komponentli yopishtiruvchi tizim One Coat Bond, polishing disklari, chiziqlar va

turli abrazivlikdagi boshlar va tabiiy cho‘tkalardan yasalgan cho‘tkalar. Komponer emal qoplamlari ancha nozik. Ularning qalinligi 0,3 dan (servikal mintaqada) 0,7 mm gacha. (kesish qirrasi sohasida), shuning uchun hajm olib tashlangan to‘qimalar minimaldir. Ishlab chiqarish jarayonida kompozitsianing tashqi yuzasiga silliq mikrotekstura qo‘llaniladi, juftlashgan tishlar uchun nosimmetrik oyna. Synergy D6 kompozitsiyasida rang tashuvchisi dentin bo‘lib, emal massalari hosil bo‘ladi. rangning shaffofligi va chuqurligi effektlarini yaratish uchun emalning xususiyatlariga muvofiq. Rasmiy veb-saytga ko‘ra komponeer tizimi, barcha namunalarning 92,5 % bo‘yoq penetratsiyasini ko‘rsatmad; 7,5 % faqat minimal o‘zgarishlarni ko‘rsatdi chekka ranglar. Ularning chidamliligi to‘liq aniqlanmagan, chunki... Componeer tizimi 2011 yilda Xalqaro ko‘rgazmada taqdim etilgan Dental shou (Kyoln, Germaniya). Ehtimol, ularning xizmat muddati kamida 10 yil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Рабинович М.И., Липкинд Ж.А. Клинический опыт применения новой системы componeer для прямой реставрации фронтальной группы зубов // Клиническая стоматология – 2013. N 1. С. 40-41.
2. Козицына С.И., Грицай И.Г., Макарова А.Н., Кириенко А.Ю., Дмитриева Н.Г. Что такое виниры и ультравиниры? // Клиническая стоматология – 2011. N. 3. С. 42-45.
3. Любомирский Г.Б. Применение системы Componeer для прямой реставрации зубов фронтальной группы // Кафедра Cathedra – 2015. N. 52. С. 36-37.
4. Флейшер Г.М. Неинвазивное протезирование люминирами // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук – 2016. N. 2-4. С. 122- 130.
5. Шумилович Б.Р., Сущенко А.В., Морозов А.Н. Система прямых предполимеризованных композитных виниров Componeer. Трудности в работе и пути их преодоления // Проблемы стоматологии – 2015. Т. 11. N. 3-4. С. 14-24.



RAQAMLI JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Mansurbek Nematov

Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU) Ommaviy axborot vositalari

yo‘nalishi magistranti

manematov.scholar@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamoatchilik nazorati va uning shakllarini raqamli axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirishning an'anaviy usullardan afzallikkabi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining qonuniyligi hamda inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining inobatga olinishini nazorat qilish va baholashdagi imkoniyatlari milliy qonunchilik va xalqaro tajriba asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik nazorati, axborot texnologiyalari, raqamli jamoatchilik nazorati, jamoatchilik fikrini o‘rganish, raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari.

ABSTRACT

In this article, the advantages of public control and its forms with the help of digital information technologies compared to traditional methods, the legality of the activities of state authorities and their officials, as well as the possibilities of monitoring and evaluating the consideration of human rights and freedom, legal interests, studied on the basis of national legislation and international experience.

Keywords: public control, information technologies, digitalization of public control, public opinion research, digital environment, social networks, state bodies, mass media.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются преимущества общественного контроля и его форм с помощью цифровых информационных технологий по сравнению с традиционными методами, законность деятельности органов государственной власти и их должностных лиц, а также возможности мониторинга и оценки соблюдения прав человека. и свободы, законные

интересы, изучаемые на основе национального законодательства и международного опыта.

Ключевые слова: общественный контроль, информационные технологии, цифровой общественный контроль, исследование общественного мнения, цифровая среда, социальные сети, государственные органы, средства массовой информации.

KIRISH

Jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o‘zini-o‘zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari tomonidan qonun doiralarida olib boriladigan nazorat hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati bo‘yicha qonunchilik davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va shunday nazoratning amalga oshirilishini ta’minlaydi hamda sohadagi munosabatlarni tartibga soladi. Jamoatchilik nazoratining bir necha shakllari mavjud – davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshitushi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o‘rganish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. Bugungi kunga kelib raqamlı olamning inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi natijasida o‘zaro munosabatlarda tutgan roli va ahamiyati ortib bormoqda. Davlat tashkilotlari va organlariga fuqarolar tomonidan murojaatlarni amalga oshirishda raqamlı murojaatlarning tezkorligi va masofa tanlamasligi huquq va erkinliklar, qonuniy manfaatlarning ta’milanishida katta yutuqlar bermoqda. Fuqarolik jamiyatni va ijtimoiy davlatning asosiy belgilardan biri hisoblanadigan jamoatchilik nazoratining samarali amalga oshirilishida raqamlı muhit imkoniyatlari beqiyos. Ayniqsa, jamoatchilik fikrini o‘rganish va davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotlarini eshitish kabi jamoatchilik nazorati shakllari raqamlı muhit taqdim etayotgan imkoniyatlar tufayli yanada kengroq jamiyat vakillarini qamrab oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fuqarolik jamiyatida fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi, davlat organlarida ishlayotgan har bir rahbar xodim o‘z faoliyatining

jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etishi jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega[1].

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiyadolat barqarorligini ta'minlash uchun shaxs, jamiyat va davlat o'rta sidagi aloqalarda murosa yo'lini tanlash, tenglik, mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati inson huquq va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanishi bilan bir qatorda davlat organlari faoliyatida inson huquqlarining ustuvor bo'lishini ta'minlaydi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida ekanligini ko'rsatkichi hisoblanadi[1]. Jamoatchilik nazorati tushunchasi haqida gap ketganda uning davlat nazoratidan qanday farq qilishini alohida belgilab o'tilishi joiz. Davlat nazorati tekshirish, tahlil qilish, taftish o'tkazish va hisobot talab qilish kabi usullar bilan bajarilsa, jamoatchilik nazoratida ham axborotni (axborot, muloqot, hisobot) talab qilish va ta'sir ko'rsatish huqulari bo'lishiga qaramay, ular majburiy yuridik mexanizmlar orqali amalga oshirilmaydi. Jamoatchilik nazorati davlat nazoratini amalga oshiradigan organlar ustidan ham yuritiladi hamda qamrovi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati bilan birga butun davlat apparati, shuningdek, nodavlat sektorni ham o'z ichiga oladi. Jamoatchilik nazorati to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkaza olmasa-da, biror muammoga yechim topish yoki biror jarayonni to'xtatish yuzasidan jamoatchilik fikrini mujassam qilish hukumatni qat'iy choralar ko'rishga majbur etadi. Jamoatchilik nazorati – bu xalq tomonidan amalga oshiriladigan nazorat hisoblanadi. U o'zida xalqning xohish-irodasini ifoda etadi. Xalq xohish-irodasi esa har qanday jamiyatda haqiqiy yagona ulkan qudratdir[1].

Jamoatchilik nazoratining natijalari bayon nomma, xulosa va ma'lumot nomma shaklida yakuniy hujjat ko'rinishida tayyorланади. Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo'lib, majburiy xarakterda bo'lmaydi. Yakuniy hujjatda bayon qilingan axborot, tavsiya va takliflar ushbu bayonotlar tegishli bo'lgan davlat organlari tomonidan majburiy asosda ko'rib chiqiladi va ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, jamoatchilik nazoartining ham ta'sir choralar mavjud, biroq ular yuridik ma'noda kuch ishlatalish ya'ni jazolash, taqiqlash va boshqalarga asoslanmaydi[2].

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari o'z o'rniga ega. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlardan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

faoliyatining qonuniyligi va samaradorligi yuzasidan jamoatchilik nazorati natijalari jamiyatning barcha vakillariga yetib borishi uchun ushbu natijalar tahliliy material ko‘rinishida ommaviy axborot vositalarining turli shakllarida, jumladan boshma nashrlar, televide niye ko‘rsatuvlari va radio eshittirishlarda, shuningdek raqamli muhitdagi internet nashrlarida e’lon qilib boriladi.

Jamoatchilik nazorati shakllarini axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirish masalasi huquq nazariyotchilar tomonidan deyarli o‘rganilmagan. Faqat rus olimi S.M.Zubarevning jamoatchilik nazorati bo‘yicha tadqiqotida ushbu mavzuga oid qisman fikrlar bildirilgan. U asosan qonun ijodkorligi va jamoatchilik muhokamasi jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni tahlil qilgan[3]. Sh.U.Yakubov esa ushbu mavzuda o‘rgangan amalga oshirgan kam sonli tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra jamoatchilik nazoratining yanada samarali bo‘lishi uchun zamonaviy shakllar elektron, masofaviy va boshqa shakllardan foydalangan holda amalga oshirilishi hamda bu jarayonda turli elektron platformalardan foydalanish tartibi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunda alohida ko‘rsatilishi lozim[4].

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lini tanladi, bu jarayonda esa davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qonuniylik va huquqiy-tartibotni tanlashda fuqarolar ishtirokini keng ta’minlashi lozim edi. Buning uchun esa jamoatchilik nazorati va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari milliy qonunchiligidan kafolatlanishi, shuningdek, sohaga oid munosabatlar tartibga solinishi lozim edi. Shu maqsadda Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 474-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda jamoatchilik nazorati bo‘yicha qonunchilik, uning obyekti va subyektlari, asosiy prinsiplari, shakllari, subyektlarning huquq va majburiyatlarini va natijalar yuzasidan normalar belgilangan. Ushbu qonun qabul qilinganidan keyin ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning turli sohalariga oid jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, sohaning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Raqamli jamoatchilik nazoratining keng qamrovli bo‘lishi va samaradorligi darajasi jamoatchilik nazorati shakllarini imkon qadar raqamlashtirish zaruratinini tug‘diradi. Shuningdek, “elektron jamoatchilik nazorati” tushunchasi ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilishi kerak. Elektron jamoatchilik nazorati jamoatchilik

nazoratini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratida raqamlı texnologiyalardan foydalanish amaliyotda keng qo'llanmoqda. Masalan, fuqarolar, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan mavjud qonunchilik normalariga rioya etilishini doimiy ravishda monitoring qilish, baholash va nazorat qilib boriladi. Turli ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolar tomonidan davlat organlari faoliyati muhokama qilinmoqda va ularning harakatlari qonuniyligi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari inobatga olinganligi borasida munosabatlar bildirilmoqda. Shu sababdan davlat tashkilotlari ijtmoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalarni yuritgan holda tashkilotning faoliyati qonuniyligi va samaradorligi yuzasidan davriy hisobotlar berib borilmoqda.

Mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlar yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan materialllar jamoatchilikning katta babs-munozaralarini keltirib chiqarmoqda. Bu esa ushbu vaziyat yuzasidan aholining hamda jamoatchilik faollarining davlat organlaridan rasmiy javob talab qilishiga olib kelmoqda. Bu aynan jamoatchilik nazorati hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining taraqqiyoti va keng ommalashishi fuqarolarda davlat va jamiyat hayotida muhim masalalarda faollashishiga, o'z munosabatini bildirishga minbar vazifasini bajarmoqda. Davlat idoralari va mutasaddilar jamoatchilik nazorati subyektlarining qonuniy talablariga moslashmoqda, vaziyat bo'yicha kerakli choralar ko'rmoqda va ommaviy axborot vositalarida tushuntirish va bayonetlar berib borilmoqda. Davlat organlari ijtimoiy tarmoqlardagi jamoatchilik muhokamasiga jiddiy e'tibor qaratib biror hodisa yuzasidan jamoatchilik fikri shakllanib bo'lmasidan jamoatchilik fikriga tezkor ta'sir o'tkazish uchun tezkor choralar ko'rmoqda, jamoatchilik bilan ishslashda zamonaviy yondashuvlardan foydalanmoqda.

Bunday yangi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi va amaliyotda ko'zga tashlanishi sohaning huquqiy bazasini yaratish ehtiyojini paydo qiladi. Shunday normativ-huquqiy hujjatlardan biri 2020-yil 16-iyunda qabul qilingan "Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori hisoblanadi[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamoatchilik nazorati shakllari axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilganda uning an'anaviy

usuldan samaradorligi va qamrovi bilan ustunroq bo‘lishi aniqlandi. Bugungi kunda davlat rasmiylariga ta’sir o‘tkazishning eng samarali vositasi elektron resurslar, raqamlı texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan materiallar yuzasidan jamoat faollari va soha mutaxassislar zudlik bilan munosabat bildirib chiqishmoqda, bu esa sohaga aloqador mansabdor shaxslarning sergak tortishiga, masalaga jiddiyroq yondoshishiga hamda qonunni muhofaza qiluvchi organlarning hodisaga aralashuviga olib kelmoqda. Ommaviy axborot vositalari esa vaziyatni boshidan kuzatuvga olib, ko‘tarilgan masalaning yechimi tomon borishini hamda bunda davlat organlarining o‘z vazifalarini bajarishini keng ommaga journalistik material sifatida taqdim etmoqda. Bu aynan jamoatchilik nazorati va xalq xohish-istagining ro‘yobga chiqishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunida jamoatchilik fikrini o‘rganish jamoatchilik nazoratining asosiy shakllaridan biri sifatida qayd etilgan. Jamoatchilik nazorati shakllari orasida axborot texnologiyalari va texnika taraqqiyoti yutuqlari hamda imkoniyatlaridan foydalananish borasida jamoatchilik fikrini o‘rganish shaklini raqamli muhitda amalga oshirish boshqa shakllarga solishtirganda qulayligi, natijalarni yig‘ish, umumlashtirish va tizimlashtirishda tezkorlik hamda xolislikni ta’minlashi bilan ajralib turadi. Biroq raqamli vositalar yordamida xalq fikrini o‘rganish mutlaqo kamchiliklardan xoli, deb bo‘lmaydi. Bunda ba’zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi, shuningdek, jamoatchilik fikrini o‘rganishda oldindan aniq chora-tadbirlarni ko‘rish majburiyatini hisobga olish kerak.

“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi ilmiytadqiqot muassasasi maqomidagi nodavlat notijorat tashkiloti O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha uzoq yillardan buyon keng tadqiqotlar o‘tkazib kelayotgan tashkilot hisoblanadi. Ushbu markaz o‘z oldiga mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida jamoatchilik fikri dinamikasining asosiy tendensiyalarini aniqlash, o‘rganish va tahlil qilish, shuningdek, tizimli monitoringini olib borishni maqsad qilib olgan.

“Ijtimoiy fikr” Markazi 1997-yilda tashkil etilgan bo‘lib, shu yildan boshlab Markazning tadqiqot jamoasi butun mamlakat miqyosida eng birinchi bo‘lib jamoatchilik fikrining sotsiologik so‘rovlarini muntazam ravishda o‘tkazishni boshladi. Shu paytga qadar Markazning yigirma yildan ortiqroq faoliyati davomida

sotsiologiya fanida mavjud turli xil usullar asosida 650 dan ortiq majmuaviy tadqiqotlar o‘tkazildi[5].

“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi bugungi kunda O‘zbekistonda jamiyat hayotining keng ko‘lamdagi dolzarb masalalari yuzasidan jamoatchilik fikrini o‘rganish sohasida yetakchi tadqiqot tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Markaz faoliyatining asosiyo yo‘nalishlari – jamiyatning **ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy** va **madaniy rivojlanishi** sohasida jamoatchilik fikrini o‘rganishdir.

Ushbu Markazda muammolarning an’anaviy spektridan tashqari, mehnat bozori, migratsiya, odam savdosi, korrupsiya, yoshlar, ayollar va katta yoshdagilar muammolari, ekologiya muammolari, reproduktiv salomatlik masalalari, oiladagi munosabatlar va oilaviy qadriyatlar kabi ko‘plab boshqa masalalarni tadqiq etish dasturlari amalga oshiriladi.

Markaz sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik, tarix, demografiya, iqtisodiyot sohasida yuqori malakali mutaxassislar jamoasiga hamda turli daraja va ko‘lamdagi kompleks monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish uchun zarur axborot va texnik resurslarga ega. Markaz tarkibida davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar bo‘lgan tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qiladi va ularga keng ko‘lamli tadqiqot xizmatlarini ko‘rsatadi. Markaz tuzilmasida ilmiy-metodik kengash hamda axborot-matematik, ilmiy-tahliliy, amaliy-tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, tezkor tadqiqotlar bo‘limi raqamli muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda tezkor tadqiqotlarni amalga oshiradi, natijalarini to‘playdi va qayta ishlaydi. Ushbu bo‘lim jamoatchilik fikrini o‘rganishda telefon va internet so‘rovlari o‘tkazish, tadqiqotlar dasturlari va so‘rovnomalarini shakllantirish va tadqiqotlarda olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tayyorlash kabi bosqichlarni amalga oshiradi.

Jamoatchilik nazorati bo‘yicha xalqaro tajribaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu borada AQSHda jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega. AQSHning 4-Prezidenti Jeyms Medissonning “Federalist” gazetasida chop etilgan fikriga ko‘ra: “Respublikachi”larning ozodlik ruhiyati, shubhasiz, nafaqat butun hokimiyat xalqdan chiqishi, balki xalq ishonch bildirgan hokimiyatlar ham xalqqa bog‘liq bo‘lib qolishi kerak...”. bugungi kunga qadar bu g‘oyalar, ya’ni hokimiyat organlarining xalqqa hisobot berishi AQSHda siyosiy an’ana sifatida qabul qilingan hamda bu borada o‘ziga xos boy tajriba to‘plangan.

AQSHda jamoatchilik nazorati ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchisi – fuqarolarning xohish-istiklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash bo‘lsa, ikkinchisi – xalq tomonidan saylangan vakillar amalga oshiradi. E’tiborli jihatni shundaki, ikkala nazorat usulining bir-biridan ustuvorligi haqida gapirish o‘rinsiz, ular birqalikda bir maqsadga xizmat qiladi. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoatchilik nazorati fuqarolarning hokimiyat faoliyati to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olishlari, jurnalistik tekshiruvlar, fuqarolar yig‘ilishlari, jamoat tinglovlari orqali jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, qonun loyihamini jamoatchilik ekspertizasi va hokazo usullar yordamida amalga oshirilsa, ikkinchi vakillik usulida parlament nazorati, huquqiy qonun chiqaruvchi, mahalliy hokimiyat vakillik organining nazorati orqali amalga oshiriladi.

AQSHdagi yana kollaboratsiy nomli uslubiga to‘xtalsak. Bu uslub fuqarolarning turli xil fikr va g‘oyalarini to‘plashga emas, balki fuqarolarga ma’lum bir muammolarni aniq yetkazib, uni shu sohaning yetuk mutaxassislarini taklif qilgan holda yechimini hal qilish hisoblanadi. Bu uslub nafaqat yuqori darajali natijalarga erishishga, balki butun jamiyatni bir maqsad yo‘lida birlashtirishga ham xizmat qiladi. Odamlar hukumat hal qila olmagan ba’zi muammolar yechimida ularning ham hissasi va o‘rni borligiga ishonch hosil qilishadi[6].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamoatchilik shakllarini raqamli muhitda axborot texnologiyalari orqali amalga oshirish an‘anaviy usullardan qamrovi va samaradorligi bilan ustundir. Davlat va jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarning fuqarolar tomonidan keng muhokama qilinishida axborot texnologiyalari katta imkoniyatlarni taqdim qila oladi. Jamoatchilik fikni o‘rganish, to‘plash va qayta ishlashda tezkorlik raqamli texnologiyalar taqdim etadigan eng asosiy afzallikkardan hisoblanadi.

Research Science and Innovation House

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дўстжонов Т., Хасанов С. Ўзбекистон демократик тараққиёт йўлида. – Т.: Тошкент Молия институти, 2004, 72 бет.
2. E.T.Xojiyev, Sh.G‘.Asadov. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi. Monografiya. - Т.: Akademiya, 2014. – 132-b.
3. Zubarev S. M. New technologies of general control: reality or illusion? // Bulletin of the University of Perm. Yuridicheskie nauki. - 2019. - №. 43.
4. Ummatalievich, Yakubov Shuxrat. “Digitalization of Public Control.” Psychology and Education Journal 58.2 (2021): 1346-1352.
5. <https://ijtimoiyfikr.uz/oz/markaz-xaqida/>
6. https://uza.uz/oz/posts/jamoatchilik-nazorati-tarixi-zamonaviy-qarashlar-va-yondashuvlar_391306

Research Science and Innovation House



CHARACTERISTICS OF FASHION BLOGS IN DIFFERENT LINGUACULTURES

Atajanova Nazokat Mansur qizi,

Urgench innovation university,

Uzbekistan, Kharezm

E-mail: atajanovanazokat@gmail.com

Abstract. The article aims to challenge the traditional view of fashion blogs as a genre, instead proposing that they should be considered as a type of institutional discourse. The study analyzed the top 10 fashion blogs from four languages (English, Spanish, Russian, and French) using various research methods, including classification, synthesis, and analysis, to support this new perspective.

Keywords. Blogs, internet journalism, online content, fashion blogs, discourse, institutional discourse, communication, social media, marketing, technology, internet revolution.

The rapid pace and widespread adoption of the scientific and technological revolution over the past three decades, facilitated by the Internet, has surpassed all previous innovations, including writing, printing, and television. The ease of navigating the internet has made it accessible to individuals with varying levels of education, and key genres have been transferred from traditional communication methods, such as memoirs and diaries, which have been around for centuries.

Blogs have become a significant form of internet journalism, effectively promoting goods and services. Statistics show that 57% of marketers have acquired clients through blogs, and 409 million readers view over 22.2 billion blog posts monthly. Furthermore, blogs have evolved to incorporate other genres, such as social networks and video hosting, with 95.9% of bloggers promoting their content on these platforms.

Definition of terms. A blog is a type of online content that can be understood in different ways depending on the perspective. According to some researchers, a blog is primarily a hypertext created by an author and their readers, characterized by features such as public access, interactivity, and dynamism. Others view blogs as a platform for professional journalism or a website where authors regularly update their posts. Additionally, blogs can be classified into three categories: personal



notebooks, personal diaries or journals, and blog filters that collect and curate interesting content from the internet.

Fashion blogs are a popular type of online publication, providing readers with information on clothing, style, accessories, and other fashion-related topics. However, a closer examination reveals that many modern fashion blogs extend beyond these boundaries, incorporating posts about travel, home decor, family life, cultural events, and entertainment, effectively encompassing a broader definition of lifestyle.

Ключевые слова: образовательные технологии, онлайн-обучение, социальная сеть, интерактивные доски, подкастинг, классные блоги, виртуальный опыт, интерактивный метод, технологическая организация, искусственный интеллект.

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi zamon pedagogarida eng kata muammolardan biri bo‘lgan dars jarayoniga o‘quvchi talabalarni jalb qilish va ularning diqqatini bir nuqtdada jamlashga qaratilgan zamonaviy yechimlar to‘g‘risida nazary va amaliy ma’lumotlar beriladi. Jumladan zamonaviy ta’lim platformalari va ularning imkoniyatlari, dars jarayonini tashkillashtirishda ishlatalinishi mumkin bo‘lagan o‘rinlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim texnologiyasi, onlayn ta’lim, ijtimoiy tarmoq, interaktiv doskalar, podkasting, sinf bloglari, virtual tajribalar, nteraktiv usul, texnologik tashkillash, sun’iy intelekt.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida ko‘plab yangi texnologiyalar qo‘llanilmoqda: onlayn ta’lim, ijtimoiy tarmoq, interaktiv doskalar, podkasting, sinf bloglari va vikilar va mobil qurilmalar. Ta’lim texnologiyasi o‘qituvchilar va talabalarga dars materiallari bilan yaxshiroq shug’ullanishga va o‘rganishni yanada interaktiv va hamkorlikda qilishga yordam beradi. Ta’lim texnologiyasi hamkorlik, aloqa, tashkilot, samaradorlik, virtual tajribalar, qo‘srimcha qo‘llab-quvvatlash va boshqalar kabi afzallikkarni beradi. Albatta bunday imkoniyatlar hozirgi zamon o‘quvchilarini diqqatini dars jarayoniga qaratishda pedagogga yordam beruvchi dasturiy vositala va platformalar bo‘lib hizmat qiladi. Ta’limda texnologiyalardan foydalanish, ilmiy soha ehtiyojlariga, yosh avlodning ta’limiga qiziqishini oshirishga va jarayonlarning noodatiy o‘zgarib turishini texnologik tashkillashtirishni o‘ziga hos tarzda shakllantirishda bugungi kun pedagogiga juda zarurdir. Quyida ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va noadatiy tarzda tashkillashtirish uchun har bir pedagogga katta yordam beruvchi interaktiv, online va bepul saytlarni ko‘rib o‘tamiz.

Ta’lim texnologiyasi nima?

Ta’lim texnologiyasi-bu inson ta’limiga ixtisoslashgan bilim va fan tuzilishiga asoslangan va talabalar (o‘quvchilar) faoliyatini targ‘ib qiluvchi va qo‘llab-quvvatlaydigan bir qator inson va inson bo‘lmagan o‘quv resurslaridan foydalanishga asoslangan yaxlit tizim. Bunga erishadigan tizimlar o‘quv dasturini qo‘llashga tayanib. ta’limning maqsadlarini texnologik vositalar yordamida amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ta’lim texnologiyasi ta’lim muhitida muhim rol o‘ynaydi. Uning ta’limda qo‘llanilishi va qo‘llanilishi ta’lim texnologiyasi deb nomlanuvchi turli xil vositalarga bog’liq. Ta’lim texnologiyasi kompyuterlar va televizor kabi bir qator o‘quv vositalari va qurilmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyani ta’limda qo‘llashda ko‘plab ta’lim strategiyalari qo‘llaniladi.

Ochiq ta'lim resurslari: talabalarga o‘rganishga yordam beradigan zamonaviy vositalar to‘plami bo‘lib, an'anaviy fanlarning moliyaviy xarajatlarini kamaytirish va ularning raqamli ta'lim resurslariga bo‘lgan extiyojini qondirish orqali tashkillashtirilgan darsliklar to‘plami.

Virtual ta'lim: video yozuvlar yordamida va o‘quvchilarni sinfda tomosha qilish yoki ularning mobil qurilmalaridan foydalanish orqali sinflarda yoki undan tashqari holatlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ta'lim vositalari. Bunday turdagи vositalar o‘quvchilarga mustaqil o‘zlashtirishga katta yordam beradi.

Monitoring vositalari: imtihonlarni nazorat qilish uchun ishlatiladigan vositadir va imtihon paytida talabalarni kuzatishning odatiy usulidan ko‘ra murakkabroq. Chunki, ishlashni kuzatish vositalari-bu talabalarni imtihonlarini topshirish vaqtida ularning harakatchanligini, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishlarini ilg’ab olishi no‘joya harakatlarni sezib shu zahoti imtihonlarni topshirish jarayonin to‘xtashi yoki chegaralangan qiymatda ogohlantirishlar berishga ixtisoslangan bo‘lishi zarur. Monitoring vositalari imtihon va nazorat vaqtlarida ma’lum sabablarga ko‘ra yoki sog’liq bilan bog’liq qandaydir muommolar bo‘lganda imtihonni topshira olishiga imkoniyat beradi.

Formativ baholash: maktab yoki universitetda o‘qituvchi yoki o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan baholash usuli. Ushbu baholash talabalarga istiqbolni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, u baholashni analistik va tuzilgan usulga aylantiradi, bu o‘qituvchiga talabalarni baholash uchun ko‘plab savollarni tayyorlashga yordam beradi, ularni tavsiflovchi ma'lumotlarga muvofiq tartibga solishga yordam beradi.

Muhokama forumlari: mavzularni muhokama qilish uchun ixtisoslashgan kengashni tashkil etish va loyihalashtirishga asoslangan ta'lim tajribasi bo‘lib, talabalarning ishtirok etishdagi rolini oshirish va internetdan foydalanish yoki bиргаликда o‘rganish rolini faollashtirish kabi ko‘plab xususiyatlarga ega. Bundan tashqari auditoriyada emas bir vaqt, turli makon hollarda dars, mavzu doirasida interaktiv muhokamalarni tashkillashtirishda pedagogga yordamchi vosita sifatida hizmat qiladi.

Ta'limda texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar

O'qituvchining asosiy roli talabaga ma'lum bir mavzuni tushunishga yordam berishdir. Texnologiya bu maqsadga erishish uchun o'qituvchi foydalanadigan vositadir. Faqtgina texnologiya o'quv jarayonini boshqara olmaydi yoki nazorat qila olmaydi, shu sababdan pedagog nazoratni va ta'limni to'liq boshqarishi yordamchi vosita sifatida texnologik platformalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi texnologiyani ta'limda qo'llash usuli yaxshi bilishi, uning qollanilishi o'quv jarayonini foydali yoki zararli qiladigan narsa ekanligini bilishi juda muhimdir. Shunday qilib, pedagog ta'lim jarayonida ishlatalishi kerak bo'lgan texnologiyani oldindan aniqlashdan tashqari, talabalarga o'zlashtirishi lozim bo'lgan mavzuning aniq rejasini takomillashtirib olishi kerak, eng asosiysi o'qituvchi autoriyada texnologik vositalardan qanday foydalanishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarurdir.

Quyida shungay interaktiv dars jarayonlarini tashkillashtirishda qo'llaniladigan saytlar bilan tanishsak.

Classroomscreen.com saytidan foydalangan holda o'qitishishni qiziqarli tashkillashtirib, soddalashtiradigan oltita interaktiv usuldan foydalanish mumkin(1-rasm):

1. Talabalar va o'quvchilarni diqqatini saytda taqdim qilinadigan interaktiv doskaning vidjedlarini kerakli o'rnlarda qo'llash bilan tortish mumkin. Misol tariqasida keltiriladigan imkoniyatlarga to'xtalsak:

- ✓ Interaktiv doskaning orqa fonini turlicha ko'rinishda ishlatalish imkoniyati. Istashak qandaydir manzarali fonlar yoki odatiy real doskalarnining ixtiyoriy turini tanlab.
- ✓ “poll” mavzu va dars yuzasidan “ovoz berish” usuli bilan tanlovlarn amalga oshirish imkoniyati.
- ✓ “random” funksiyasi yordamida auditoriyadagi talabarning markazdagi faolligini taminlash.
- ✓ “sound level” imkoniyati bilan sinfxona auditorianing shovqinini nazoratga olish.
- ✓ “image” tugmasi bilan interaktiv doskaga turli xil rasmlarni ham qoshish imkoniyati.
- ✓ “text” buyrug'i bilan doskaga matnlarni kiritish va matnni turlicha taxrirlash imkoniyati.

- ✓ “work symbols” ushbu buyruq dars mashg’ulotlarining shartiga muvofiq tarzda turli xil belgilardan foydalanish imkoniyatini beradi.
- ✓ “timetable, timer, clock” funksiyalari bilan vaqt boshqaruvini turlicha usulda qo‘llash mumkin.



1-rasm.

[Canva.com](#) ushbu sayt ham o‘qituvchi pedagogga juda ko‘plab imkoniyatlarni beradi. Saytdan foydalanish davomida pedagogik jarayonlarni zamonaviy va interaktiv shakllantirish uchun turli xil medotlarni kashf qilish mumkin(2-rasm).


Saytning imkoniyatlari sifatida sanab o‘tishimiz mumin bo‘lganlari quyidagilardir:

- ✓ Hujjatlarni turli xil shakllarda tayyorlash imkoniyati, pedagog o‘z ijodkorlikini ishga solgan holda tayyorlashi yokitayyor andozalardan foydalishib tahrirlishi mumkin.
- ✓ Turli shakl va mavzularda taqdimotlar yaratish.
- ✓ Interaktiv doska hosil qilishi, unda turli diogrammalar rasm, matn, aqilli shtrum, rejalshtirilgan doska sifatida qollash mumkin.
- ✓ Pedagog o‘zining ish faoliyatini bilan ommani tanishtirish va faniga qiziquvchi o‘quvchilari sonini ko‘paytirish maqsadida turli ijtimoiy tarmoqlarga



mahsus dizayn va interaktiv stilga ega bo‘lgan postlarni ham tayoorlash imkoniyatini oladi.

✓ Video darsliklarni tayorlashda pedagog o‘zining qurilmasiga turxi xil katta hajm xotirani talab qiluvchi dasturlarni yuklash va ulardan foydalish kabi qo‘shimcha mahnat va vaqt talab qiluvchi jarayonlardan ozod etadi. Sayt yordamida turli grafikaga ega bo‘lgan video materiallarni osonlik bilan yaratish imkoniyati mavjud.




2-rasm.

✓ Dasturlash tillarning hech birini bilmasdan turib ham istalgan vaqtida o‘zining g’oyalarni bilan ommani yoki talaba o‘quvchilarni tanishtirishni istagan o‘qituvchi web sayt yarata olishi va satni turli yonalishlarda qollashi mumkin. Bunda canva.com saytida maqsadga yo‘naltirilgan holda biznes, ta’lim, turli xil tadbirlar, savdoga oid bo‘lgan web saytlarni yarata olishi mumkin.

✓ Undan tashqari pedagog o‘z o‘quvchilarini rag‘batlantirish uchun kreativ dizaynga ega bo‘lgan diplom, sertifiqat, maqtov yorliqlarni ishlash mumkin. Bunday turdagи rag‘batlantiruvchi vositalar o‘ziga hosligi va takrorlanmasligi bilan o‘uvchida fan va pedagogga nisbatan mehr va hurmatni paydo qiladi.

Eng ko‘zga ko‘rinarli imkoniyatlardan biri sifatida aytishimiz mumkin bo‘lgani bu elektron tarzda kitob tayyorlash, uning muqovasi, ichki dizayni uchun ham saytdan ko‘plab tayyor stillarni uchratishdir(3-rasm).



3-rasm.

koohot.com saytidan foydalangan holda sun'iy intelekt tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan interaktiv uchrashuvlar, qiziqarli mashg'ulotlar va unutilmas voqealar bilan darsni tashkillashtirish va vazifalarni yuklash, savol generatori va Kahoot-da o'rGANISH vositalari yordamida qiyin mavzularda maxsus interaktiv netodlarni tezda yaratish orqali o'quv bo'shliqlarini yopish, o'quvchilarda tug'ilgan savollarga tezda javob berish, PDF-eslatmalariningizni sun'iy intelektning imkoniyatlari bilan darhol amaliy testlarga va boshqa fayl turlariga aylantirish va savol generatori yordamida vaqtini tejash, o'yin hisobotlari bilan talabalarning bilimlarini tezda baholash va talabalar yo'llanmalari bilan talabalar rahbarligidagi ta'lim olishda ularni ilhomlantirish imkoniyatlari mavjud(4-rasm).

Kahoot! 2012 yilda Morten Versvik tomonidan tashkil etilgan, shuningdek, Yoxan brendi, Jeymi Bruker va Asmund Furuset kabi hammuassislar jamoasi Norvegiya fan va texnologiya universiteti bilan qo'shma loyihada, professor Alfe Inge Vang bilan hamkorlikda veb-saytni ishlab chiqish. Kahoot! 2013 yil mart oyida Sxsvedu-da xususiy beta-versiyada chiqarilgan va beta-versiyasi 2013 yil sentyabr oyida ommaga chiqarilgan. Albatta ushbu saytning imkoniyatlaridan foydalanishda pedagog saydan ro'yhatdan o'tishi lozim. Shu bilan birgalikda sayt bepul va maxsus tolovlarga asoslangan turli imkoniyatli tariflarni taklif etadi. Avvaliga saytning bepul qo'llashga beradigan imkoniyatlaridan foydalanib ko'nikma hosil qilishni, so'ngra pedagog o'zining



Research Science and
Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI

VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY


ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

g’oyalariga mos tarifni tanlashi maslahat beriladi. Koohot.com saytidan nafaqat ta’limda balki, ishda-Trening, taqdimotlar, uchrashuvlar va tadbirlarni shaxsan yoki har qanday videokonferentsiyalarni o’tkazishda, uyda – oilaviy tadbirlar, turli ko’ngilochar mashg’ulotlarni tashkillashtirishqa qo’llash mumkin. Albatta avvaliga ro‘yhatdan o’tish amalga oshiriladi, bunda sayt imkoniyatlaridan qanday maqsadda foydalanayotganingizni tanlab o’tish joizdir.



4-rasm.

Ro‘yhatdan o’tish tugagandan so‘ng pedagog o‘zining o‘qitadigan fani bo‘yicha yo‘nalishlarni tanlashi va shunga mos andozalar ososida metodik materiallarini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi(5-rasm).

5-rasm.

Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bolsak bugungi kun pedagogi o‘zining o‘quvchilariga qiziqarli dars mashgulotlaining tashkillashtirib berishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi zaruriydir. Onlayn platformalar tomonidan amalga oshiriladigan vositalar pedagogga keng qamrovli aloqa tizimini tashkil qilish, o‘quvchilarning bilimlarini sinash uchun turli xil vositalardan foydalanish, statistikani yuritish va individual o‘qituvchining ham, barchaning ham o‘quv natijalarini oldindan bilish, materiallar bilan ishlash dinamikasini kuzatish, bo‘shliqlar va muvaffaqiyatlarni ko‘rish imkonini beradi. Ta’lim platformalari tufayli o‘qituvchi ta’lim sifatini oshirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega:

Talabalar uchun taqdim etilgan materiallarni o‘z vaqtida tuzatish;

O‘quv ma’lumotlarini turli formatlarda (hujjatlar, rasmlar, taqdimotlar, video va ovoz yozuvlari) taqdim etish;

O‘quv natijalarini tekshirish uchun qulay vositalardan foydalanish va boshqalar.

Xulosa qilib shuni ta’kidlashni istardimki, ta’limni tashkil qilishda ta’lim platformalaridan foydalanishning samaradorligi va ish vaqtini va joyidan qat’i nazar, faol ishlashni ta’minlash uchun ushbu texnologiyalardan foydalanishning maqsadga muvofiqdir. Ba’zi tushunchalarning mohiyatini, raqamli ta’lim resurslarining umumiyligi talablari va vazifalarini ko‘rib chiqib, zamonaviy Internet xizmatlari va raqamli ta’lim resurslarining didaktik imkoniyatlarini ochib berishga harakat qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. — Qodirberganova, S., & Juraeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF FORMAL MODELS OF WORD COMBINATIONS AND NOUN COMBINATIONS IN THE UZBEK LANGUAGE. *Science and innovation*, 2(B2), 614-618.
2. Annazarova, B. R. (2023). SENSOR MA’LUMOTLARINI QAYTA ISHLASHDA TAQSIMLANGAN TEXNOLOGIYALAR TAHЛИLI. *Academic research in educational sciences*, 4(5), 71-75.
3. Shaxodat, Q. (2024). SUN’IY INTELEKTNING TA’LIM SOHASIGA TA’SIRI qo‘llanilish usullari. *Research and Publication*, 1(1), 46-52.

4. Gulhayo, O., & Barno, A. (2023). IOT SHLYUZINI YARATISHDA MIKROKONTROLLERLARNING AHAMIYATI. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 1299-1310.
5. Madirimovna, M. S., & Rustamovna, A. B. (2022). COMPUTER NETWORKS AND THEIR BASIC CONCEPTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 101-104.
6. Хусаинов, Ш. М. (2023, June). АВТОМАТИЗИРОВАННЫЕ СИСТЕМЫ В ОБЛАСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 2, No. 6, pp. 104-109).
7. Rustamovna, A. B., & Madirimovna, M. S. (2023). AKT RIVOJLANGAN DAVRDA TA'LIM BOSHQARUVIDA MASOFAVIY TA'LIM TEENOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 19-24.
8. Gulhayo, O., & Barno, A. (2023). IOT SHLYUZINI YARATISHDA MIKROKONTROLLERLARNING AHAMIYATI. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 1299-1310.
9. Madaminovich, K. S., Ibragimovich, A. I., & Qurol o'g'li, I. B. (2023). Automated Systems in Accounting. Eurasian Scientific Herald, 20, 38-41.
10. Gulhayo, O. (2023). ESP8266 MIKROKONTROLLER ASOSIDA IOT SENSORLAR TARMOG 'I UCHUN SHLYUZ YARATISH. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 544-554.

Research Science and Innovation House

Yoshlarni tashabbuslarini qøllab quvvatlash va ularga kómaklashish

JDPU o‘qituvchisi Hatamova Ma’rifat Yorqin qizi

JDPU talabasi Jo‘rayeva Omina Murtozoqul qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda yoshlarimizning davlatimiz tomonidan qo‘llab quvvatlanishi hamda yoshlar yetakchisi faoliyatining tashkil etilishi, uyushmagan yoshlarni vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularni yusushtirish kabi masalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi, yoshlar yetakchisi, yoshlar, ijtimoiylashuv, jadidlar, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ta’lim , Shavkat Mirziyoyev,maktab, oila.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu yoshlarni qo‘llab quvvatlashdir. Har bir yosh o‘ziga xos qobiliyat- va is’tedod egasidir. Faqat biz ularning iqtidor va tashabbuslarini to‘g‘ri yo‘naltirishimiz kerak. Mamlakat kelajagi yoshlarning qo‘lidadir. Yoshlarning qo‘llab qo‘vvatlash va ularda ta’lim-tarbiya berish davlat kelajagining poydevorini qo‘yish kabitidir.Yoshlarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun ulaning iqtidorlarini yuzaga chiqarishimiz va yoshlarning rivojlanishiga yordam berishimiz lozim. Shuning uchun har bir davlat yoshlarning kelajagiga befarq qarab turmaydi shu qatorida O‘zekiston ham. Vatanimizda bugungi kunda yoshlarni qo‘llab quvvatlash uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan: ta’lim olayotgan yoxud uyushmagan yoshlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida mamlakatimizda bugungi kunda "yoshlar daftari" elektron platformasi faoliyat yuritmoqda ushbu plattormaning maqsadi yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.[1] "Yoshlarni ijtimoiy qo‘llabquvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar" to‘g‘risida 2021 yilning 11kuni ushbu qaror tasdiqlandi. Ushbu qarorga muvofiq yoshlarni qo‘llabquvvatlash jamg‘armasi tuzildi.[2] Ushbu jamg‘armaning vazifasi ijtimoiy yordamga muxtoj yoshlarga amaliy yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Bundan tashqari davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida 2024- yilning ham nomi "Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash" deb belgilandi va qator ishlar amalga

oshirildi. Bugungi kunda jamiyatimizda uyushmagan yoshlar 64 foizini tashkil etadi. Albatta bu ko'rsatkich davlatimiz zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlar har qaysi davrda ham jamiyatning faol qatlami e'tirof etib keligan. Sharq uyg'onish davrida ham, jadidlarning faoliyatida ham , jamiyatning yangilanishida ham yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Shu sababli muntazam o'zgarib turuvchi bo'lgan bu qatlam doimiy yo'naltirilib va qo'llab quvvatlab turilishni talab etadi. Shuning uchun ham yoshlar har doim jamiyat va davlatning e'tiborida bo'ladi. Jadidlarimiz ham yoshlarning ta'lim tarbiyasiga va ularning faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan. Ayniqsa Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining " Padarkush" asarida yoshlarning ilmsizgi va tarbiyasizligi ayanchli oqibatlarini ko'rsatib beradi hamda ularni tarbiyalashga harakat qiladi. Padarkush asarining asosiy qahramonlari asosan o'smir yoshdagi yoshlar bo'lganligi hamda ularni ilmsizligi tufayli ularni boshqarish juda oson kechadi. Asarda Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyatni hamda ota-onalarini farzandlarining taqdiringa befarq bo'lmaslikka ham jamiyatni uyg'onishga davlat etadi.[3]

Xulosa qilib aytganda "yoshlarning bo'sh vaqtini yetakchini ish vaqtini" hisoblanadi. Yoshlar yetakchisini bugungi kunning mag'rifatparvarlari deb aytsak hech ham xato bo'lmaydi. Negagi ular orqali jamiyatning poydevori qo'yiladi desak xato bo'lmaydi. Boya aytib o'tganimizdek mamlakatimizda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'zbekiston fuqorolarining 64 foizi tashkil etadi. Bu degani aholining yarmidan ko'pi yoshlar hisoblanadi va yoshlar yetakchisining vazifalari ikki barobarga ortadi. Bu mas'uliyat xodimdan sitqidildan mehnat qilishni talab etadi. Hap yoshlar haqida ketar ekan mas'uliyatsizlik qilish jamiyatni parokanda qilish bilan barobar bo'ladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda Yoshlarimizni turli ekstremistik terroristik guruhlarga aldanib qolmasligi uchun ongidagi bo'shliqni boshqalar emas o'zimiz to'ldirishimiz lozim.Buning uchun tarbiyani eng avvalo oiladan boshlash kerak. Ota-onalarning maktab hamkorligida. Maktab va yoshlar yetakchisi hamkorlikda yoshlarni kasb hunarga yo'kida o'zlarini qiziqadigan zamonaviy kasblar yo'naltirishlari lozim.

Tafsiyalar (yoshlar ittifoqi yetakchisi sifatida)


1.Mahhalangizdagagi uyushmagan yoshlar bilan ko'proq davra suhbatlari tashkil etish.Bu orqali ularning yashirin qobiliyatlarini aniqlay olasiz

2.o‘zingiz uchun mahalladagi faol hamda ko‘ngilli yoshlardan volontorlik guruhini tashkil etish. Bu guruh sizning faoliyatingiz davomida sizga yordamchi bo‘ladi.

3.Mahallangizdagi oilalar bilan hamkorlik o‘rnating. Ko‘proq yosh oilalarga e’tibor qarating.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistond respublikasi prezidentining "Yoshlar daftari" to‘g‘risidagi qarori
- 2."Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar" qarori 2021 yil 11-mart
3. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" asari



**Research Science and
Innovation House**



Fransiya Qurolli Kuchlarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

Xabibulla Bekpulatov

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Xorijiy harbiy kadrlarni tayyorlash maxsus fakulteti boshlig‘i

ANNOTATSIYA

Maqolada Fransiya Qurolli Kuchlarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi va Fransiya oliv harbiy ta’lim muassasalarining faoliyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Fransiya Qurolli Kuchlarida mavjud oliv harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash, qabul qilish va kursantlar bilan o‘quv-tarbiyaviy jarayonni, qo‘sishinlar amaliyotini tashkillashtirish bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi, oliv harbiy ta’lim muassasalari, harbiy litsey, harbiy maktab, qo‘sishinlar amaliyoti.

Fransiya harbiy ta’lim tizimi birinchi navbatda harbiy kadrlarni tez, qisqa vaqt ichida sifatli tayyorlashga qaratilgan. Bu o‘z navbatida “Mudofaa va milliy xavfsizlik bo‘yicha Oq kitobda belgilangan qurolli kuchlarning vazifalari va tezkor shartnomalariga javob berish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va yangi texnologiyalarni egallash imkonini beradi.

Fransiya Respublikasida harbiy ta’lim muassasalarining rivojlangan tizimi yaratilgan bo‘lib, bu mamlakat qurolli kuchlarini barcha talab qilinadigan mutaxassisliklar bo‘yicha malakali harbiy kadrlar bilan ta’minalash imkonini beradi.

Fransiyada harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda Fransiya mudofaa vazirligiga buysunuvchi qo‘sishinlar turlari (Quruqlikdagi, Harbiy dengiz floti, Harbiy havo kuchlari) bo‘yicha boshqaruv amalga oshiriladi.

Fransiyada harbiy ta’lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

Harbiy litseylar;

Harbiy bilim yurtlari (taktik daraja);

Qo‘sish turlari harbiy maktablari;

Maxsus bilim yurtlar (markazlar, malaka oshirish kurslari (operativ-taktik daraja);

Oliy harbiy ta’lim muassasalari (Qurolli Kuchlarni qo’llash, operativ-strategik daraja).

Harbiy litseylar

Fransiya Qurolli Kuchlari rahbariyati qo’shinlarni har tomonlama jismonan va aqlan yetuk, professional tayyorgarlikka va chuqur bilimga ega ofitserlar bilan ta’minalashga doimiy e’tibor qaratib kelmoqda. Mamlakatda Fransiya Qurolli Kuchlari qo’shinlari uchun ofitserlar tayyorlaydigan harbiy ta’lim muassasalarining keng tarmog‘i mavjud. Fransiya harbiy litseylarida tahsil olayogan bo’lajak harbiylarning 70 % ni harbiy xizmatchilarining farzandlari, 15%ni Qurolli Kuchlar xizmatchilarining farzandlari va 15% boshqalar tashkil etadi. Ularning ko‘pchiligi harbiy oliy harbiy ta’lim muassasalariga kirishdan oldin tayyorlov harbiy litseylarida (yaqinda ular mudofaa litseylari - Les lycees de la Defence deb atala boshlandi) tahsil olishadi. Fransiya Prezidentining 2005-yildagi qaroriga muvofiq, harbiy litseylar Mudofaa vazirligiga qarashli ta’lim muassasalari bo‘lib, ikkita maqsadga yo‘naltirilgan:

birinchisi, harbiy xizmatchilarining oila a’zolari va Mudofaa vazirligi ishchi xizmatchilariga samarali yordam ko’rsatish, ularning farzandlariga sifatli o’rta-maxsus ta’lim berish;

ikkinchisi - muddatli harbiy xizmatga chaqiruv yoshidagi yoshlarni oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga tayyorlashda ko‘maklashish.

Shuni ta’kidlash kerakki, Frantsiyadagi litsey o’rta ta’lim tizimining yakuniy bo‘g‘ini va ayni paytda oliy ta’limga o‘tish bosqichidir. Letseyga kirishdan oldin boshlang‘ich o’rta ta’lim (maktabda olti yoshdan- o’n bir yoshgacha besh yil o‘qish) va kollejda o’rta ma’lumotni (o’n bir yoshdan- o’n besh yoshgacha to‘rt yil o‘qish) olishi kerak.

Hozirgi kunda Fransiya Mudofaa vazirligiga tegishli 6 ta harbiy litseylar Brest, La Fleche, Saint-Cyr-L’Ecole, Autun, Grenoble va Aix-En-Provence shaharlarida faoliyat yuritadi. Shulardan to‘rttasi quruqlikdagi qo’shinlarga tegishli bo‘lib, ular Aix-En-Provence, Sen-Sir, Autun va La Fleche shaharlarida joylashgan.

Shuningdek, Harbiy Dengiz Floti litseyi Brest shahrida va Harbiy Havo Kuchlari litseyi Grenoble shahrida joylashgan. Ushbu harbiy litseylarda har yili

4 ming nafardan ortiq yoshlar tahsil oladilar. Ular oliy harbiy ta’lim muassasalariga hamda Fransiyaning boshqa oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun 3 yillik tayyorgarlik kurslarida tahsil olishadi.

Harbiy litseylar o‘quvchilarga mustahkam birodarlik qadriyatlari va o‘zaro yordamni o‘zida mujassam etgan ta’limni taklif etadi. Harbiy litseylarning maqsadi Fransiyaning ertangi kun fuqarolarini shakllantirishdir.

Harbiy litseylarga o‘qish uchun nomzodlar 2 guruhga bo‘linib, qo‘yidagi imtiyoz va talablarlar asosida qabul qilinadi:

Birinchi guruhi:

Davlat vasiyligiga olinganlar;

Yetim farzandlar (otasi yoki onasi halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari);

Haqiqiy xizmatdagi biror bir sabab tufayli kam maosh oluvchi kam ta’milangan harbiy oilalar farzandlari uchun;

Harbiy xizmat davrida olgan travmalari va kasalligi sababli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan (nafaqa yoshiga yetgan va yetmaganligidan qat’iy nazar);

Nafaqaga chiqqan, muxtoj, kam ta’milangan nafaqadagi harbiy xizmatchilarning farzandlari;

Unter-ofitser (serjantlar tarkibi) sifatida 8 yil va undan ko‘p shartnoma asosidagi xizmat qilgan harbiy xizmatchilarning farzandlari;

moliyaviy muxtoj, kam ta’milangan, harbiy litseyiga qabul qilingan yilning 1-yanvariga qadar kamida 10 yillik tezkor zaxirada (operativ) zahiradagi harbiy xizmatchilarning farzandlari.

Ikkinci guruhi:

Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi tarkibiy bo‘linmalarda faoliyat yurituvchi moliyaviy muxtoj, kam maosh oluvchi qurolli kuchlar xizmatchilarining farzandlari.

Harbiy litseyda o‘qish uchun nomzodlarga qo‘yiladigan talablar
Barcha nomzodlar sog‘lom bo‘lishi shart;
Barcha nomzodlar 2 ta xorijiy tilni shulardan biri ingliz tili ikkinchisi nomzod
hohlagan xorijiy tili B1 darajasida bilishi shart .

O‘quvchilar kollejning 3-sinfini bitirib, harbiy litseyga kirishadi va 4 ta
quyidagi yo‘nalishlardan birini tanlaydilar:

1. *Oliy harbiy ta’lim muassasalariga tayyorlash (Classes Préparatoires aux Grandes Ecoles);*
2. *Umumiy bakalavriat (Baccalauréat général);*
3. *Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik tizimi (Brevet de technicien supérieur, Classes BTS SN-IR);*
4. *Texnologik bakalavriat (Baccalauréat technologique).*

Tayyorlov kurslarida matematika, fizika, elektrotexnika muhandislik, iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar, fransuz tili va adabiyotiga asosiy e’tibor qaratiladi va ushbu fanlar chuqurlashtirilgan tarzda o‘tkaziladi.

Fanlar ingliz, ispan, rus, nemis tillarida olib boriladi.

Shuningdek, oliy harbiy ta’lim muassasalariga tayyorlov kurslarini o‘quv yili boshida va oxirida 2 hafta mobaynida harbiy sohaga oid mashg‘ulotlar dala poligonlarida, maxsus harbiy o‘quv bazalarda quyidagi maqsadda rejalashtiriladi:

Kollektivni (guruhni) jipslashtirish, guruh tarkibida ishslash;

Harbiy hayot bilan bosqichma-bosqich tanishtirish.

O‘quv jarayoni litsey boshlig‘i va uning o‘rinbosari tomonidan o‘quvchilarni o‘qish, monitoring qilish va qo‘llab-quvvatlash siyosatini belgilaydi. Litsey o‘quvchilari uchun o‘quv dasturlari milliy ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan dasturlarga mos keladi. Shuningdek, litseyda ta’lim beruvchi o‘qituvchilar ta’lim vazirligi tomonidan Mudofaa vazirligi so‘rovnomasiga asosan tayinlanadi. O‘quvchilar belgilangan o‘qituvchilari va harbiy xizmatchilar nazorati tomonidan yil davomida doimiy nazorat ostida bo‘lishadi. Harbiy litsey internat tizimida faoliyat yuritadi. Barcha qoidalalar (o‘zini tutish, kiyim-kechak rusumi, odob qoidalari) alohida ichki tartib Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlangan yo‘riqnama asosida tashkillashtiriladi. Barcha litsey o‘quvchilari uchun muljallangan harbiy kiyim bilan ta’milanadi.



Harbiy bilim yurtlari (maktablar)

Fransiya Qurolli Kuchlari harbiy bilim yurtlari harbiy kadrlarni tayyorlash tizimining 2-bosqichi hisoblanadi.

Harbiy bilim yurtlari qo‘yidagi 3 guruhga bo‘linadi:

1. *Yuqori (katta) harbiy bilim yurtlari (Les grandes écoles militaires).*

Politexnika harbiy maktabi (L’École polytechnique);

Saint-Cyr maxsus harbiy maktabi (L’École spéciale militaire de Saint-Cyr);

Harbiy dengiz maktabi (L’École navale);

Harbiy havo kuchlari va koinot maktabi (L’Ecole de l’Air et de l’Espace);

Milliy jandarmeriya ofitserlari maktabi (L’École des officiers de la gendarmerie nationale);

2. *Harbiy mutaxassisliklar bo‘yicha ofitserlarni tayyorlashi harbiy bilim yurtlari (Les écoles de formation interne d’officiers);*

Umumqo‘shin harbiy maktabi (L’École militaire Interarmes (EMIA));

Harbiy dengiz floti maktabi (L’École militaire de la flotte (EMF));

Harbiy havo kuchlari maktabi (L’École militaire de l’Air (EMA)).

3. *Mutaxassislik bo‘yicha ofitserlarni boshlang‘ich tayyorlash maktablari (Les écoles de formation initiale d’officiers).*

Milliy muxandislik va infratuzilmalar oliy harbiy maktabi;

Milliy dengiz ishlari harbiy maktabi;

Milliy ilg‘or texnika oliy harbiy maktabi.

Ushbu harbiy bilim yurtlari quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy havo kuchlari, harbiy dengiz floti, milliy jandarmeriya uchun ofitserlarni tayyorlab beradi. Bu yerda ofitser kadrlarni boshlang‘ich ta’limi amalga oshiriladi. Harbiy bilim yurtlarida 1982 yildan boshlab xotin-qizlarni o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib hozirgi kunda ularning ulushi 10-12%ni tashkil qiladi.

Kursantlarning tayyorgarligi majmuaviy xarakterga ega bo‘lib asosiy uchta Harbiy-professional tayyorgarlik, Harbiy-sport tayyorgarligi va Akademik (tinglovchilarni intellektual va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish) tayyorgarlik yo‘nalishlarida olib boriladi.

Harbiy bilim yurtlarida o‘quv va ilmiy ishlarni boshqaruv tizimi **uchta blokdan** tashkil topgan.

Birinchi blok akademik tayyorgarlikni amalga oshirib uning tarkibiga quyidagi bo‘limlar kiradi:

- Xalqaro munosobatlar;
- Harbiy madaniyat va etiket;
- Muhandislik fanlar bo‘limi;
- Ijtimoiy-siyosiy fanlar boshqarmasi;
- Chet tillari bo‘limi;
- Tadqiqotlar markazi;
- Muzey;
- Umumiy ta’minot bo‘limi.

Harbiy bilim yurtlari boshlig‘ining o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha maslahatchisi-boshqarma boshlig‘i blok uchun **mas’ul hisoblanadi** va u lavozim fuqaro kadr egallagan. Mazkur blok akademiyadagi gumanitar va aniq fanlar bo‘yicha o‘tiladigan mashg‘ulotlarga (akademik tayyorgarlik) javob beradi. Blokda kursantlar ijtimoiy-siyosiy, matematika, fizika, geografiya, tarix, chet tili va boshqa fanlardan bilimlarini oshiradi.

Ikkinci blok harbiy-profesional va harbiy-sport tayyorgarligiga mas’ul bo‘lib quyidagi bo‘limlardan tashkil topgan:

- Taktik va texnik tayyorgarlik bo‘limi;
- O‘qotar qurollar va o‘q-dorilar bo‘limi;
- Harbiy va sport tayyorgarligi bo‘limi;
- Otda yurish seksiyasi.

Blokdagи mashg‘ulotlar bo‘lg‘usi ofitserlarda harbiy mutaxassislikning o‘ziga xos xususiyatlarini aniq anglab yetishi asosida harbiy etiket va zarur axloqiy-ruhiy sifatlarga amal qilgan holda kasbiy malakalarini shakllantirish imkonini beradi. Undan tashqari harbiy-sport tayyorgarligi kursantlarning harbiy xizmat qiyinchiliklarini sabot bilan yengish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Uchinchi blok kursantlar ta’limi bo‘limi.

Harbiy bilim yurtlarida o‘qish muddati 12 yillik o‘rta maktabni (litsey) va oliv o‘quv yurtlarning (universitetlar) qoshidagi ikki yillik tayyorgarlik kurslarini tugatganligi to‘g‘risidagi diplom va «Bac+2» bakalavr darajasiga ega bo‘lgan fuqaro yoshlar uchun 3 yil. Sharhnomasi asosida Fransiya Qurolli Kuchlarida 10 yildan ortiq xizmat qilgan faol harbiy xizmatchilar uchun o‘qish muddati 1 yil. Bilim yurtlariga tanlov asosida, nomzodlarning shaxsiy hujjatlarini o‘rganish va uchta ta’lim

yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha (tabiiy, gumanitar va iqtisodiyot yo‘nalishlari) imtihon topshirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2023-2024 o‘quv yilida bilim yurtlariga kirish uchun tanlov **har bir o‘ringa o‘rtacha 4-5 ta abiturientni** tashkil etgan.

O‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari:

asosan fuqaro yoshlar, jumladan qizlar ham qabul qilinadi;

birinchi semestrda asosan boshlang‘ich harbiy fanlar o‘qitiladi, bunda harbiy jamoalarini boshqarish, liderlik sifatlari va harbiy-siyosiy ongi hamda dunyoqarashi rivojlantiriladi;

ikkinchi-beshinchi semestrarda o‘quv jarayonini asosan gumanitar va aniq fanlar bo‘yicha o‘tiladigan mashg‘ulotlar tashkil qiladi. Bu semestrarda o‘quv soatlarining haftalik hajmi 30 soatni tashkil qilib, qolgan vaqtlar harbiy-sport tayyorgarligi va fakultativ mashg‘ulotlarga ajratiladi. Beshinchi semestrda 12 haftalik xorijiy amaliyot rejallashtirilgan bo‘lib ushbu amaliyotning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda kursantlar asosan bitiruv malakaviy ishini tayyorlaydi va uning himoyasi semestr yakunida maxsus komissiya oldida o‘tkaziladi;

oltinchi semestrda harbiy fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish tashkillashtiriladi. Bunda hafta mobaynidagi o‘quv mashg‘ulotlari 40-52 soatgacha yetib, asosan dala-o‘quv maydonlarida amaliy shaklda o‘tkaziladi.

O‘quv dasturida **qo‘shinlardagi amaliyotga asosiy o‘rin** berilgan bo‘lib, ular quyidagicha taqsimlangan:

birinchi semestr yakunida piyoda polklarida seksiya komandiri lavozimida bir oylik amaliyot;

ikkinchi semestr yakunida havo-desant o‘quv markazida 4 haftalik amaliyotdan o‘tadi va harbiy-parashyutchi guvohnomasini oladi;

uchinchi semestr yakunida xorijiy amaliyot 3 oygacha davom etadi;

to‘rtinchi semestr yakunida bir oy tog‘-o‘qchi o‘quv markazida (Barselonet a.ya.p., Alp tog‘lari quyi qismi) yoki Janubiy Amerikadagi Fransiyaning Gviana bazasida (changalzorlarda);

oltinchi semestr yakunida «Komandos» razvedka-qo‘poruvchilik o‘quv markazida (Pentevr sh. Bretan provinsiyasi).

3 yillik kurs davlat imtihoni topshirish bilan yakunlanadi va bitiruvchilarga magistr darjasini va kichik leytenant harbiy unvoni beriladi.



Bilim yurtlarini bitirgan harbiy xizmatchilar vvvzodni turli janglarda boshqara oladigan mutaxassislikka ega bo‘lishi kerak.

Bitiruvchi diplomining o‘ziga xos jihatlari shundaki, mazkur bilim yurtlari bitiruvchilari diplomi bilan nafaqat harbiy balki fuqaro sektoridagi tashkilotlarda ham faoliyat olib borish mumkin. Bunda bitiruvchilarga o‘qish davomida olgan reytingiga asosan tanlash huquqi beriladi.

Shu bilan birga harbiy yo‘nalishni tanlagan bitiruvchilar qo‘shin turlari maktablariga bitiruvchilarning o‘qish davridagi egallagan reyting ballari inobatga olingan holda 1 yilga aniq mutaxassislik bo‘yicha tahsil olish uchun yuboriladi.

Eng yuqori reyting ballarga ega bo‘lgan bitiruvchilarning qo‘shin turlarini (havo-desant, razvedka, piyoda, tank, artilleriya va boshqa qo‘shinlar) tanlash imkoniyati yuqori bo‘ladi. Shuning uchun kursantlar yaxshi o‘qishga va bu bilan kelajakdagi xizmat joyini o‘zi tanlash imkoniyatini oshirishga harakat qilishadi.

Umuman olganda harbiy bilim yurtlari ta’lim tizimining **o‘ziga xos jihatlari** quyidagilarda ko‘rinadi:

kursantlarning o‘qish muddati ularning boshlang‘ich ma’lumotiga bog‘liq, to‘liq kurs oltita semestrni tashkil qilib, birinchi va oltinchi semestrlar barcha bilim yurtlari kursantlari uchun majburiy;

o‘rta maktab va universitetlar qoshidagi litsey bitiruvchilari (ikki yillik ta’lim «Bac+2» bakalavr darajasi) to‘liq olti semestr tahsil oladi;

oliy ma’lumotga ega unter-ofitserlar va fuqaro yoshlar («Bac+3», «Bac+4» bakalavr darajasi) uchun o‘qish muddati ikki yil deb belgilangan (o‘quv dasturining birinchi, ikkinchi, beshinchi va oltinchi semestrlarida belgilangan mavzular bo‘yicha);

universitet va boshqa oliy maktablarni tamomlagan va muhandis diplomiga ega bo‘lganlar («Bac+5» bakalavr darajasi) uchun o‘qish muddati bir yil deb belgilangan (o‘quv dasturining beshinchi va oltinchi semestrlarida belgilangan mavzular bo‘yicha);

harbiy bilim yurtlariga barcha harbiy mutaxassisliklar bo‘yicha xotin-qizlar ham o‘qishga qabul qilinadi.

Harbiy bilim yurtlariga qabul qilish va **yosh chegarasining** qo‘yidagicha talablari belgilangan:

22 yosh - o‘rta maktabni (litsey) va oliy o‘quv yurtlarning (universitetlar) qoshidagi ikki yillik tayyorgarlik kurslarini tugatgan fuqaro yoshlar uchun;



27 yoshgacha - «Bac+3» va «Bac+4» bakalavr diplomiga ega fuqaro yoshlari uchun;

25 yosh - «Bac+5» bakalavr diplomiga ega kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar uchun tavsiyanomaga asosan;

Chet el fuqarolari ham Fransiya kursantlari bilan bir guruhsida ta’lim olishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Kursantlarga semestrlar oralig‘ida 10 kungacha ta’til, o‘quv yili yakunida esa 30 kungacha ta’til beriladi.

Harbiy bilim yurtlarini tugatgandan so‘ng, bitiruvchilarga oliy ma’lumot namunasidagi diplom («Bac+5»), «kichik leytenant» harbiy unvoni beriladi va Qo‘sish turlari harbiy maktablaridan biriga yuboriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mathieu Marly et Stéphane Lembré/ À l’école du régiment. Instruction, culture scolaire et promotion dans les rangs de l’armée française au XIXe siècle/ Revue d’histoire du XIXe siècle № 48 /2014.
2. MM. Francis Hillmeyer et Jean-Michel Villaumé, Rapport d’information déposé en application de l’article 145 du règlement par la Commission de la Défense Nationale et des forces armées en conclusion des travaux d’une mission d’information sur la formation des militaires/Enregistré à la Présidence de l’Assemblée nationale le 5 février 2015.
3. Le Livre Blanc sur la défense et la sécurité nationale 2013.
4. L’Académie militaire de Saint-Cyr Coëtquidan/Exercices 2014-2022/Cour des comptes, le 16 octobre 2023.
5. Bulletin officiel des armées/Direction des ressources humaines de L’Armée de Terre:bureau «formations spécifiques». Circulaire N° 275450/DEF/RH-AT/FS/SLM relative à l’admission en classes préparatoires à l’enseignement supérieur et en classes préparatoires aux grandes écoles des lycées de la défense relevant de l’armée de Terre et du lycée naval de Brest pour l’année scolaire 2012-2013.
6. Сен-Сир Г. Записки маршала Сен-Сира о войне во времена директории, консульства и французской империи. Ч. I. СПб., 1838.



Research Science and
Innovation House


**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 **ISSN 2992-8869**



Research Science and
Innovation House

7. Duru-Bellat M., Kieeffe A. Evaluer la démocratisation de l'enseignement: la situation française à l'épreuve des comparaisons internationales // Revue française de pedagogie. 1999. № 127.
8. Bekpulatov X. B. Problems of ensuring information security in the training of future officer personnel and their solution // Educational Research in Universal Sciences 1, 71-75, 2023.



**Research Science and
Innovation House**





DIFFERENCES AND SIMILARITIES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK CASES

Temirova Rayhona Zokir qizi

Student of the Navoi Pedagogical Institute,

English and literature faculty

Abstract: In this scientific article the similarities of the cases in English and Uzbek also point out the differences between them. The article provides a number of examples of the importance of agreements in Uzbek and English. It is highly proved that by this article some problems, complexities of grammar will be to some extent solved. From this article not only ESL student manage to use but also native speakers of English can utilize in acquiring Uzbek in the Future.

Key words: Case, nominative case, Accusative case, dative case, genitive, locative

Аннотация: В данной научной статье сходство договоров на английском и узбекском языках также указывает на различия между ними. В статье приводится ряд примеров значения договоров на узбекском и английском языках. Весьма доказано, что этой статьей будут в той или иной степени решены некоторые проблемы, сложности грамматики. Эту статью смогут использовать не только студенты, изучающие английский как иностранный язык, но и носители английского языка, которые смогут использовать ее для изучения узбекского языка в будущем.

Ключевые слова: Падеж, именительный падеж, Винительный падеж, дательный падеж, родительный падеж, местный падеж.



Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kelishuvlarning o‘shash tomonlari ham ular orasidagi farqlarni ko‘rsatadi. Magolada o‘zbek va ingliz tillarida tuzilgan shartnomalarning ahamiyatiga bir qancha misollar keltirilgan. Ushbu maqola orqali grammatikaga oid ba'zi muammolar, murakkabliklar ma'lum darajada hal etilishi yugori darajada isbotlangan. Ushbu maqoladan nafaqat ESL talabasi, balki ingliz tilida so‘zlashuvchilar ham kelajakda o‘zbek tilini o‘zlashtirishda foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: bosh kelishik, tushum kelishik,jönalish kelishik,qaratqich kelishik joylashuv.

Here's a description of the concept of "case" (kelishik) in both English and Uzbek:

Case (Kelishik) in English

Case in English is a grammatical category that indicates the function of a noun or pronoun within a sentence. English primarily uses word order and prepositions to convey these

relationships, with only a minimal case system evident in pronouns.

1. Nominative Case (Subjective): Used for the subject of the sentence.

- Examples: I, he, she, we
- Sentence: *She* runs every morning

2. Objective Case: Used for the object of the verb or preposition.

- Examples: me, him, her, us
- Sentence The teacher called *him*

3. Possessive Case (Genitive): Indicates ownership or possession

- Examples: my/mine, his, her/hers
- Sentence: That is *my* book. Case (Kelishik) in Uzbek



Case (kelishik) in Uzbek is a more comprehensive grammatical system used to indicate the

grammatical role of nouns and pronouns in a sentence. It is achieved through the use of specific suffixes attached to nouns and pronouns

1. Nominative Case (Bosh Kelishik): Indicates the subject of the sentence.

- No suffix is added; the noun is in its base form.
- Example: *kitob* (book)
- Sentence: *Kitob* yashi. (The book is good.)

2. Genitive Case (Qaratqich Kelishik): Indicates possession or relation.

- Suffix: -ning
- Example: *kitobning* (of the book)
- Sentence: Bu *kitobning* muallifi. (This is the author of the book.)

3. Dative Case (Jo‘nalish Kelishik): Indicates the indirect object or direction.

- Suffix: -ga
- Example: *kitobga* (to the book)
- Sentence: Men *kitobga* qaradim. (I looked at the book.)

4. Accusative Case (Tushum Kelishik): Indicates the direct object.

- Suffix: -ni
- Example: *kitobni* (the book)
- Sentence: Men *kitobni* o‘gidim. (I read the book.)

5. Locative Case (O‘rin-Payt Kelishik): Indicates location or time.

- Suffix: -da
- Example: *kitobda* (in the book)
- Sentence: *Kitobda* yaxshi ma'lumot bor. (There is good information in the book.)



6. Ablative Case (Chiqish Kelishik): Indicates the source or separation.

- Suffix: -dan
- Example: *kitobdan* (from the book)
- Sentence: Men *kitobdan* o‘qidim. (I read from the book.)
summary

In essence, while English uses a minimal case system and relies heavily on word order and prepositions, Uzbek employs a rich set of case suffixes to define grammatical roles within sentences. These suffixes in Uzbek allow for greater flexibility in word order, as the grammatical function of each noun is clearly marked.

References:

- [1] Erkaboyeva N.Özbek tilidan ma'ruzalar töplami. T.: "Akademnashr", 2014.235 p
- [2] Irisqulov A. T. Theoretical grammar of English. T.: "Nashriyot", 2006. 21 p
1. Mark Twain "The Advantage of Tom Sawyer" Nashriyot, 1991.17,16p
2. . To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. T.: "Yangi as avlodi", 2010. 9,12p
3. Understanding Case in English Grammar, <https://www.thoughtco.com/what-is-case>

**Research Science and
Innovation House**

Bolalar ustki kiyimlari assortimentining dizayn tahlili

Axmedova Muslima Samatjon qizi, magistr

Valiyev Gulam Nabijanovich .professor

FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

“Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasи

elektron pochta axmedovamuslima66@gmail.com

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada bolalar ustki kiyimlarini assartimentining dizayn kolleksiyasini taxlil qilgan xolda,bolalarga xos va mos bo‘lgan kiyimlarini ishlab chiqarish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy moda, bolalar kiyimlari, innovatsiya, dizayn, model, kiyimga bo‘lgan talab.,

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется дизайнерская коллекция ассортимента детской верхней одежды, а также рассказывается о производстве детской одежды, специфичной и подходящей для детей. .

Ключевые слова: Современная мода, детская одежда, инновации, дизайн, модели, виды тканей, спрос на одежду.

ABSTRACT: This article analyzes the design collection of the assortment of children's outerwear, and talks about the production of children's clothes that are specific and suitable for children. .

Key words: Modern fashion, children's clothes, innovation, design, model, fabric types, demand .for clothes.

O‘zbekiston Respublikasida Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida , xomashyonи qayta ishlash resurs tejovchi texnologiyalarni takomillashtirish va ishlab chiqish, hamda ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish eng dolzarb masala hisoblanadi.

Moda yo‘nalishlarining turli xilligi, xususan, zamonaviy moda kiyimlar sohasida keng ko‘lamlı xususiyatlarga ega. Bunda bolalar kiyimlari ham alohida o‘rnı bor. Jahon modeler dizaynerlarining moda ko‘rgazmalarida taqdim etilgan bolalar ustki kiyimlari o‘rganib chiqildi. Zamonaviy bolalar ustki kiyimi tashqi ko‘rinishlari turli uslublar, modellar hamda bolalar kiyimlarida turli tuman

ranglardagi materiallardan iborat. Bolalar ustki kiyimi dizaynida quyidagilarni hisobga olinadi. Avvalo ustki kiyimlar tashqi muhiddan himoya vazifasini bajaradi. Bolalar ustki kiyimi bolalar harakatini cheklamasligi har tomonlama qulay bo‘lishi muhim. Bolalar kiyimini loyihalayotganda bolalar yosh doirasi ham hisobga olinadi va shu bilan yangi loyihalarni yaratadilar, ya’ni hamma omillarni hisobga olgan holda dizayn tanlansa moda yo‘nalishiga yuqori natijalarga erishadi.

Biz 2023-2024 yillar uchun bolalarning moda tendentsiyalarini tahlil qildik. Ushbu ko‘rsatkichlar juda dolzarb. Bu iste’molchining ijtimoiy ehtiyojlarini aks ettiradi. 2024-2025 yangi mavsumda bolalar ustki kiyimlari ustidagi eng zamonaviy tendentsiyalar qanday bo‘ladi. Bunga yechim berish maqsadida quyidagi modellar tahlil qilindi. Bunda bolalar ustki kiyimlarida asosan och ranglar hamda keng bichimli ustki kiyimlar ommalashadi.



Research Science and Innovation House



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

		Ushbu model bolalar ustki kiyimi b’lib ,bu boshqa modellardan farqli bo‘lib ,dizayniga alohida e’tibor qaratilgan .Ushbu bolalar ustki kiyimiga tabiiy qo‘ngir junli matolardan foydalanilgan . Old planka va cho‘ntak qismiga tabiiy matolardan foydalanilgan. Old qismi cho‘ntagi qopqoqli qoplama cho‘ntak qilingan.Old qismi taqilmalardan foydalanilgan
		Ushbu model bolalar ustki kiyimi bo‘lib plashlik yengil mato bo‘lib, issiqlik ushslash maqsadida ichki qismiga sentefondan foydalanilgan . Dizayni kapyushonli yoqa , kapyushonning ichki qismiga qo‘ng’ir junli mato va old qismiga taqilmalar ishlatilgan .Cho‘ntakiga qoplama cho‘ntak qilingan .Bolalar ustki kiyimi yon qismiga qirqim qilingan .



			Ushbu model yosh bolalar ustki kiyimi bo‘lib qora rangli tabiiy charmdan ichki qismi yoqa qismlariga yeng uchi va pastki etak qismiga mo‘ynadan ishlatilgan . Old qismiga mo‘lniya tasma va cho‘ntakiga qopqoqli qoplama cho‘ntak qilingan . Cho‘ntak qopqog’iga taqilmalar ishlatilgan
--	--	---	---

XULOSA

Ushbu modellar taxvilidan ko‘rinib turibdiki 2025 yillar keng ommalashadigan modellardan deyish mumkin .Ushbu modellar 1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘jallangan . Asosan mavsumiy liboslar hisoblanadi . Bolalar ustki kiyimlari taxvilidan ko‘rinadiki har bir model dizayni o‘zgacha yorqin ranglar tanlangan buni axamiyati bolalar nozik hilqat vakillari va dunyoni anglash jarayonlarini boshdan kechirayotganligi sababli ,bolalar psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi .Bolalar ko‘p harakat qilishlarini inobatga olib keng bichimli modellar tanlandi. Ushbu modellarni dizaynida tabiiy matolar foydalanilgan . Hamda ayrim modellarda old qismiga mo‘lniya tasmasi va taqilmardan foydalanilgan .Yengil sanoatda ishlab chiqarish soxasida bolalar ustki kiyimlari keng qo‘llaniladi .Iqtisodiy samaradorlikka ham erishiladi

Adabiyotlar

1. Валиев Г. Н. Структура, новые параметры слоя намотки мотальной паковки и теоретические зависимости их определения // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, научно-технические технологии и материалы (SMARTEX – 2021): сборник материалов XXIV международного научно-практического форума (Иваново, 12-14 октября 2021 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2021. – 370 с., с. 17-23.
2. <https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1715341674&tld=ru&lang=uz&name=yosh-bolalar-kiyim-andozasini-tayyorlash.docx&text=bolalar%20kiyimiga%20tarif>

Cultural Background and Views: Gaining an appreciation of the subtleties of Shakespeare's comedy and sarcasm requires an understanding of the cultural and historical context in which his plays were written. Because Elizabethan audiences were aware of the social, political, and cultural issues of the day, they were able to recognize the nuanced criticism that Shakespeare's plays contained. Shakespeare's satire and humor also speak to contemporary audiences because his themes of human folly, power, and love never go out of style. Scholars have learned a great deal about Shakespeare's comedic genius and his lasting influence on literature and culture by studying these facets of humor and satire in his plays. Shakespeare entertains, challenges, and disturbs audiences with humor and sarcasm while encouraging them to consider the complexity of the human experience.

CONCLUSION

We find enduring insights into the human predicament by delving into Shakespeare's comedy and sarcasm. Shakespeare amuses, challenges, and enlightens us with his wit and wisdom, allowing us to chuckle at the absurdities of society while considering our own humanity. His reputation as a comic genius lives on, serving as a constant reminder of the unceasing ability of humor to unite people across differences and discover common ground in our shared humanity.

REFERENCES

- 1 Stephen Greenblatt, "Will in the World: How Shakespeare Became Shakespeare." Norton & Company, W. W., 2005.
2. Stanley Wells, editor, et al. "The New Oxford Shakespeare: Complete Works." Oxford University Press, 2016.
3. Editors: Emma Smith and Garrett A. Sullivan Jr. "The Oxford Handbook of Shakespearean Comedy." Oxford University Press, 2017.
4. Editors Ania Loomba and Martin Orkin, "The Cambridge Companion to Shakespearean Comedy." Cambridge University Press, 2002.
5. Douglas Lanier, "Shakespeare and Modern Popular Culture." Oxford University Press, 2002.

WEBSITES

<https://www.jstor.org/stable/2867876>

<https://journals.openedition.org/shakespeare/3352>



Tergovga qadar tekshiruv faoliyati ayrim jihatlarining nazariy tahlili

**99541 HARBIY QISM KOMANDIRINING
YORDAMCHISI YURISKONSULT
adliya leytenant
S.Tuygunov**

Annotatsiya.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 9-moddasida “Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun javobgar bo‘ladi”, deb qat’iy ko‘rsatilgan. Mazkur normaning amalda to‘liq ta’minlanishi esa huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari tomonidan adolatli, xolisona ish yuritish va qaror chiqarish bilangina amalga oshiriladi. Bunday faoliyatni obyektiv amalga oshirish uchun esa bir necha bosqichda ish yuritilib, shaxs aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanishi lozim. Shunday bosqichlarning eng dastlabkisi tergovga qadar tekshiruvdir.

Tergovga qadar tekshiruv faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 320²-moddasida «Tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni tekshirish, ularni ko‘rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyat izlari, narsalar va harakatlarni mustahkamlash hamda saqlashga doir choralarini o‘z ichiga oladi», deb ta’rif berilgan bo‘lsada, bugungi kunga kelib bizningcha tergovga qadar tekshiruv bosqichiga yuqoridaq berilgan ta’rif to‘la mos kelmaydi. Tergovga qadar tekshiruv faoliyatiga bundanda kengroq ta’rif berish mumkin. Ya’ni tergovga qadar tekshiruv uchun asos bo‘ladigan huquqbazarlikka oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qayd etish, huquqbazarlik alomatlari mavjud daliliy ashyolarni saqlash choralarini ko‘rish, holatga oydinlik kiritish uchun tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda ma’lum belgilangan tergov harakatlarini o‘tkazish, holatga aloqador shaxslarni aniqlash, guman qilishga asos bo‘lgan shaxsni ushlash va holat yuzasidan yig‘ilgan ma’lumotlar hamda materiallar asosida, qonunchilikka tayanib qaror qabul qilish faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida qonuniy asoslar yoki sababning mavjudligi yoki yo‘qligini tekshirish maqsadida ma’lum

qonunchilik doirasidagi harakatlarni o‘tkazish bosqichi tergovga qadar tekshiruv hisoblanadi¹.

O‘zbekiston Respublikasi ning 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasida huquqbazarlikka “sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)” deb ta’rif berilgan. Mazkur tarifdan “huquqbazarlik” so‘zi “jinoyat” so‘zidan keng qamrovli va hozirgi tergovga qadar tekshiruv, tergov, prokuratura organlari faoliyatida kelib tushayotgan arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar bilan ishlash faoliyatida “jinoyatga oid” jumlasidan ko‘ra “huquqbazarlikka oid” jumlasidan foydalinish real vaziyatga to‘liq mos keladi. Chunki hozirda tergovga qadar tekshiruv, tergov, prokuratura organlariga faqatgina to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat haqida ma’lumot kelib tushmaydi. Kelib tushadigan arizalar, ma’lumotlar va xabarlar ma’lum aybli g‘ayrihuquqiy qilmishlar yuzasidan kelib tushadi hamda aybli g‘ayrihuquqiy qilmishlar yuzasidan kelgan arizalar, xabarlar va ma’lumotlar to‘la o‘rganiladi, jinoyat alomatlari bo‘lsa jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi, jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa ma’muriy huquqbazarlik shaklida yoki tegishliligiga ko‘ra yuborish bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Kelib tushgan ma’lumotda huquqbazarlik alomati bor yoki yo‘qligini, agarda huquqbazarlik bo‘lsa uning qanday turi ekanligini aniqlash tergovga qadar tekshiruvning eng asosiy o‘rganish obyektiidir. Tergovga qadar tekshiruvning o‘rganish obyektidan kelib chiqib qonunchilikda unga nisbatan tarif berilishi lozim.

Bundan tashqari, bugungi kunda tergovga qadar tekshiruv organlariga kelib tushayotgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar mazkur organ tomonidan yuritiladigan “Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni ro‘yxatga olish” 1-shakl kitobiga qayt etilib kelinmoqda. Mazkur ro‘yxatga olish kitobi “Huquqbazarlikka oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni ro‘yxatga olish kitobi” deb nomlanishi bizningcha maqsadga muvofiqdir. Tergovga qadar tekshiruv organlariga kelib tushadigan aybli g‘ayrihuquqiy qilmishlar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar to‘la o‘rganishni, jinoyat alomatlari mavjud bo‘lsa jinoyat ishini qo‘zg‘atishni, jinoyat tarkibi bo‘lmasa ishi belgilangan tartibda hal etishni ta’lab etadi. Kelib tushgan ariza,

¹ Korolev A.M. Сущность предварительной проверки сообщения о преступлении // Современное право. 2011.-№ 7.-С. 129

xabar va boshqa ma'lumotlarni tekshirib qonuniy qaror qabul qilmaguncha holatni jinoyat deb hisoblash mantiqan to'g'ri kelmaydi.

Inson qadri ulug'lanayotgan, “shaxs-jamiyat-davlat” ustuvor qoidasi asosida rivojlanib borayotgan yangi O'zbekiston siyosatidan kelib chiqib, Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilingan davrda va hozirgi zamon talablarini inobatga olib, aytadigan bo'lsak, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida asosan jinoyat ishi qo'zg'atishdan boshlanadigan jinoyat ishini dastlabki tergov qilish va sudda jinoyat ishini ko'rib chiqish faoliyatiga asosiy e'tibor berilgan. Natijada bugungi kunda tergovga qadar tekshiruv protsessual harakatlari ham jinoyat ishini dastlabki tergov qilish bosqichi va ishni sudda ko'rish bosqichlari uchun belgilangan ayrim normalar doirasida amalga oshirilmoqda. Natijada tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim kamchiliklar mavjudligi namoyon bo'lmoqda. Masalan, Jinoyat protsessual kodeksining tergovga qadar tekshiruvi yakuni bo'yicha agarda holatda jinoyat alomatlari bo'lmasa, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish mazkur kodeksning 83-moddasi va 84-moddasi bandlari bilan amaliyotda amalga oshirilib kelinmoqda. Jinoyat prosessual kodeksining 333-moddasi dispozitsiyasida “Ushbu Kodeks 83-moddasining 1 va 2-bandlarida hamda 84-moddasi birinchi qismining 1, 3-8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi...” deb ko'rsatilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan asoslardan tashqari amaliyotda tergovga qadar tekshiruv jarayonida boshqa jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qiluvchi asoslar ham mavjudligi namoyon bo'lmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasida “garchi Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'limgan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi” deb ko'rsatilgan. Mazkur modda talablaridan kelib chiqib hozirgi kunda ko'p uchraydigan ba'zi kam ahamiyatlari qilmishlar qanday asosda tugatilyabti, degan savol paydo bo'ladi. Misol uchun insoniyat tarixi bilan tengdosh bo'lgan g'ayri huquqiy, ijtimoiy xavfli harakatlardan biri bu o'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish. Mazkur ijtimoiy xavfli harakatni sodir etish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida bilan jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, lekin mazkur modda talablarida yoki hech bir normativ hujjatlarda o'g'rilik, ya'ni



o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon- taroj qilish harakatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilashning minimal qiymati belgilanmagan (bunday minimal talab belgilanmagan bir qancha jinoiy javobgarlik moddalari mavjud). Ya’ni o‘zgalar mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish qiymati juda kam bo‘lsada, mazkur harakat Jinoyat kodeksining 169-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat tarkibini beradi.

Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, Jinoiy javobgarlik masalalarini liberallashtirish siyosati natijasida, kam ahamiyatli deb topilgan o‘g‘rilik holatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35-36 moddalari talablari asosida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi. Lekin savol shundaki, kim yoki qanday organ tomonidan qanday me’zonlar orqali shaxs harakatlari kam ahamiyatli deb topiladi, kam ahamiyatli deb topilganda ham qanday asoslar bilan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida qaror qabul qilinadi? Tergovga qadar tekshiruv organlari tergovga qadar tekshiruvi yuzasidan nafaqat jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish qarorini, balki barcha harakatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi bilan amalga oshiradilar. Hozirda yuqorida holat yuz berganda jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish Jinoyat-protsessual kodeksning 83-moddasi 2-bandi “uning qilmishida jinoyat tarkibi bo‘lmasa” normasiga asosan qaror qabul qilishmoqda. Buning natijasida qaror uchun asos to‘g‘ri belgilanmayapti. Asossiz qabul qilingan qaror yuridik kuchga ega emas. Jinoyat kodeksining IX bobida ko‘rsatilgan qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar isbotlanishi lozim bo‘lgan, isbotlanish bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun jinoiy huquqiy asos bo‘ladigan normalardir. Lekin tergovga qadar tekshiruv davomida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi yetarli asoslar bo‘la turib, jinoyat ishini qo‘zg‘atish nafaqat shaxslarning balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ham ortiqcha ovoragarchilagini vujudga keltiradi. Shuning uchun yuqorida singari aksar holatlarda tergovga qadar tekshiruv organlari jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etib kelmoqda. JPKda jinoyat ishini rad qilishga asoslarni zamon talablariga moslash maqsadga muvofiq.

**Research Science and
Innovation House**



PROSPECTS OF USING THE ZINAMA-ZINA METHOD IN TEACHING REAL PARTICLE PHYSICS

Israilov M.

t.f.n., dotsent, O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi “Tabiiy fanlar” kafedrasi
professori

Abdurakibov A.A.

Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti Yangiyer filiali o'qituvchisi
Pedagogika fanlari doktori, dotsent **T.Islomov** taqrizi asosida

Abstract: This article focuses on the application of the modern method used in the teaching of real elementary particle physics in the classroom, its demonstration and movement, and the fact that it is interesting and understandable for students. And information about each group of elementary particles is presented.

Keywords: technology, method, zinama-zina, standard model, color quantum number, intermediate bosons, quarks, gluons, Higgs boson, leptons, neutrino, lepton charge, antiparticle, antimatter, meson, hadron, baryon, hyperon, confinement, quantum chromodynamics, g 'strange, charming, handsome, caliber bozons.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ЗИНАМА-ЗИНА В ОБУЧЕНИИ РЕАЛЬНОЙ ФИЗИКЕ ЧАСТИЦ

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется применению современного метода, используемого при преподавании реальной физики элементарных частиц на уроках, ее демонстрации и перемещении, а также тому, что это интересно и понятно учащимся. И представлена информация о каждой группе элементарных частиц.

Ключевые слова: технология, метод, зинама-зина, стандартная модель, цветовое квантовое число, промежуточные бозоны, кварки, глюоны, бозон Хиггса, лептоны, нейтрино, лептонный заряд, античастица, антивещество, мезон, адрон, барион, гиперон, конфайнмент, квантовая хромодинамика, странные, обаятельные, красивые, калибрные бозоны.

HAQIQIY ELEMENTAR ZARRALAR FIZIKASINI O‘QITISHDA “ZINAMA-ZINA” METODIDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada haqiqiy elementar zarralar fizikasini o‘qitishda foydalilaniladigan zamonaviy metodning dars mashg’ulotida qo‘llanilishi, uning ko‘rgazmali va harakatli bo‘lishi, talabalar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Va har bir guruh elementar zarralar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, metod, zinama-zina, standart model, rang kvant soni, oraliq bozonlari, kvarklar, glyuonlar, Xiggs bozoni, leptonlar, neytrino, lepton zaryad, antizarra, antimodda, mezon, adron, barion, giperon, konfaynment, kvant xromodinamikasi, g‘alati, maftunkor, ko‘rkam, kalibr bozonlar.

Kirish. Elementar zarralarni o‘rganish kosmik nurlarni o‘rganishdan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik yaratilgan tezlatgichlar va hozirgi kundagi kollayderlar haqiqiy elementar zarralar haqidagi bilimlarimizni ancha kengaytirgan bo‘lsada, bugungi kunda ham uning jumboq tomonlari anchagina. Masalan, elementar zarralar fotonlar, leptonlar va adronlar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganib kelingan bo‘lsa, adronlar haqiqiy elementar zarralar safidan chiqarib tashlandi, chunki ular yanada mayda zarralardan tashkil topganligi aniq bo‘ldi. Ular kvarklar bo‘lib, adronlar xususiyati endi ularni tashkil etgan kvarklarning turi, xususiyati va ularda kvarklarning qanday joylashganligiga bog‘liq bo‘ladi. Undan tashqari, leptonlar soni bilan kvarklar sonining bir xil ekanligi, har ikkalasining uch avloddan iborat ekanligi, ularda uch xil “rang” ning mavjudligi, rang soni bilan avlodlar sonining tengligi, rang soni bilan fazo o‘lchamlar sonining bir xilligi, kvarklar massalarining bir-biridan keskin farq qilishi, adronlar ichida kvarklarning qanday joylashishi, kvarklarning yana qanday zarralardan tashkil topgan bo‘lishi mumkinligi ushbu mavzuda muammolarning ko‘p ekanligidan, demak elementar zarralar fizikasini tushunib olish ancha murakkab ekanligidan darak beradiki, ularni o‘zlashtirishda turli zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalinish dolzarb ma sala bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo‘naltirilgan ko‘plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyatga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsion metodlarning yaratilishi talabalarda fizika faniga qiziqishni oshirishga, dars mashg’uloti davomida talabalar diqqatini jamlashga, berilayotgan ma’lumotlarning



talabalarga tushunarli bo‘lishini ossonlashtirishga xizmat qiladi. Manashunday metodlardan biri bo‘lgan “Zinama-zina” metodidan foydalangan holda “Haqiqiy elementar zarralar” mavzusini o‘qitishni ko‘rib chiqamiz.

Ushbu texnologiyaning maqsadi talabalarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo’llay olishga o‘rgatishdir.

“Zinama-zina” metodini amalga oshirish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

“ZINAMA ZINA” metodidan foydalanish bosqichlari

Ushbu mashg’ulot talabalarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi.

1-qadam. Avvalo mavzu haqida dastlabki ma’lumotlarni berib, asosiy tushunchalar tahlil qilinadi.

2-qadam. Mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalaniladigan metod haqida talabalarga tushunchalar beriladi va talabalarni kichik-kichik guruhlarga ajratiladi.

3-qadam. Har bir kichik guruhga A4 formatda tayyorlangan chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatmalar tarqatiladi (1-rasm).

4-qadam. Kichik guruhlarning a’zolari A-4 formatdagi qog’ozning o‘ng tomoniga, ushbu qog’ozning chap tomonida yozilgan kichik mavzu bo‘yicha fikrlashib o‘zları bilgan ma’lumotlarni navbat bilan yozib chiqishadi (2-rasm).

Research Science and Innovation House



5-qadam. Talabalar metodni ishlashga kirishadilar va ularga 10-15 daqqa vaqt beriladi.

Kvark — Standart modeldagi fundamental zarra. Uning zaryadi $e/3$ ga karrali bo‘lib, erkin holda mavjud bo‘la olmaydi. Biroq adronlar ([kuchli o‘zaro ta’sirda](#) ishtirot etuvchi zarralar, masalan [proton](#) va [neytron](#)) tarkibida bo‘ladi. Kvarklarni strukturaga ega bo‘lmagan nuqtaviy zaryadlar deb atash mumkin. Ularning o‘lchamini $\sim 10^{-16}$ sm tartibida bo‘lishi aniqlangan. Bu o‘lcham protonning o‘lchamidan ming marta kichikdir. Hozirgi kunda kvarklarning 6 xil turi (ba’zida [aromatlar](#) deb ham yuritiladi) ma’lum. Bundan tashqari, kvarklarning ichki xossalarni tavsiflash uchun „rang“ tushunchasi ham kiritilgan. Har bir kvarkka mos holda [antikvark](#) mavjud. Ular bir biridan [kvant soni](#) bilan farq qiladi. Adronlar yanada kichik tarkibiy qismlardan tashkil topgani haqidagi gipotezani ilk bor M.Gellman va undan mustaqil ravishda 1964-yili J.Sveyg ilgari surgan.


3-rasm. Talabalar uchun metodni bajarish namunasi.

6-qadam. Kichik guruhlar topshiriqni bajarib bo‘lishgandan so‘ng, har bir guruhdan bir kishi chiqib taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya doskasiga mantiqan zinama-zina shaklida (masalan, agar kichik mavzularda elementar zarralarning nomlari berilgan bo‘lsa, u holda zinaning eng pastki qismiga eng avval kashf etilgan zarracha haqidagi ma’lumotlar ilinadi, keyin ketma-ket qolgan zarralar haqidagi ma’lumotlar joylanadi. Zinaning eng yuqori qismiga eng so‘nggi kashf etilgan elementar zarracha haqidagi ma’lumotlar joylanadi.) ilinadi. Va barcha ma’lumotlar umumlashtiriladi.

7-qadam. Metod yakunida barcha natijalar tahlil qilinib eng to‘g’ri va avval yakunlagan guruh a’zolari rag’batlantiriladi.



Ushbu maqola elementar zarralar fizikasiga bag‘ishlanar ekan, uning ob’yekti Olamning eng kichik zarralari, ya’ni o’sha foton, leptonlar hamda adronlarni yana guruhlarga ajratib qaragandagi mezonlar, barionlar, giperonlar va ularni tashkil etuvchi subzarralar bo‘lmish kvarklar va ulararo kuchli ta’sirlashishni uzatuvchi glyuonlar, kuchsiz ta’sirlashishdagi oraliq bozonlari bo‘lmish W va Z bozonlar, zarralarga massa ato qiluvchi Xiggs bozoni hisoblanishadi[1](4 – rasm).



4-rasm. “Standart model” zarralari: kvarklar (binafsha doirachalar), leptonlar (yashil doirachalar), kalibr bozonlar (qizil doirachalar) va Xiggs Bozoni (sariq doiracha).

Bugungi kunda elementar zarralar xossalari va tuzilishi haqidagi barcha bilimlar to‘plami “Standart model” deb yuritiladi. Model zarralar o‘rtasidagi kuchli, elektromagnit va kuchsiz ta’sirlashishlarni inobatga oladi[2]. Chunki, bu kabi zarralar orasidagi gravitatsion ta’sirlashish kuchi, hisobga olmaydigan darajada, kichik.

Bulardan leptonlar va kvarklar massasining ortib borishi bo‘yicha uchta avlodga birlashadi. Hozirgi zamон fani bundan ham katta massali avlodning bo‘lishini rad qilmoqda. Xullas, ushbu model o‘z ichiga jami 24 ta sonni tashkil qilgan leptonlar va kvarklarni, 12 dona kalibr zarralarni va Xiggs bozonini² o‘z ichiga oladi. Standart model zarralari Xiggs bozoni bilan to‘qnashishi evaziga ularda namoyon bo‘ladigan massaga ega bo‘lishadi. Ushbu bozonning mavjudligi avvaldan aytilgan bo‘lsada, u 2012 yilda CERN dagi katta adron kollayderida mavjudligi

isbotlandi va buning uchun, uning mavjudligini oldindan aytgan, Englert va Xiggslar Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishdi[1].

Leptonlar. Leptonlar guruhiga elektron, myuon, tau-lepton, elektron neytrinosi, myuon neytrinosi taon neytrinosi hamda ularning antizarralari kiradi. Ushbu zarralar elektromagnit, kuchsiz va gravitatsion hamda Xigs bozoni maydonlari bilan ta’sirlashishlari mumkin. Barcha leptonlar fermionlar sinfiga mansub bo‘lib, spini $\frac{1}{2}$, faqatgina neytrino spini uning harakat yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lib, neytrino uchun harakatga qarshi va antineytrino uchun harakat bo‘ylab yo‘nalgan bo‘ladi[3]. Leptonlar uchun lepton “zaryadi” degan kvant soni kiritiladi va u L bilan belgilanadi. Ayrim hollarda uning avlodini ham o‘zida aks ettiruvchi individual lepton soni kiritiladi, ya’ni elektron uchun alohida, myuon uchun alohida va taon uchun alohida.

“Standart model”ga asosan neytrino massaga ega emas deb qaraladi. Lekin, bir neytrinoning ikkinchisiga aylanishi uning kam bo‘lsada massaga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Neytrino haqida hali jumboq masalalar ko‘p va dunyo miqyosida juda ko‘p tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Leptonlarning uch avlodи mayjud bo‘lib, biz yashab turgan Olam uning faqat birinchi avlodidan tashkil topgan, ya’ni elektronidan. Xuddi shunga simmetrik holda kvarklarning ham uch avlodи mayjud va biz yashab turgan Olam zarralari, moddalari birinchi avlod kvarklaridan, ya’ni u va d kvarklardan tashkil topgan. Masalan, atom yadrosining assosiy zarrasi proton ikkita u kvark va bitta d kvarkdan, neytron esa bitta u kvark va ikkita d kvarkdan tashkil topgan va h.k.

1.Ushbu model o‘tgan asrning 60-70 yillarda, Nobel mukofoti sovrindorlari, Glashou, Salam va Vaynberglar ishlarida ta’kidlangan. Ayrim nufuzli ta’lim muassasalarida “Standart model” yadro va elementar zarralar fizikasi bo‘yicha o‘qitiladigan maxsus kursning predmeti bo‘lib xizmat qilgan.

2.Ushbu bozon Englert-Braun-Xiggs maydonining oraliq bozoni hisoblanadi. Xiggs bozoni bu shunday zarraki, faqat uning tufayli zarralar massaga ega bo‘lishadi. Buning tufayli biz beshinchi fundamental ta’sirlashishga ega bo‘ldik, ya’ni gravitatsion, kuchli, kuchsiz va elektromagnit ta’sirlashishlardan keyingi Xiggs bozoni maydonidagi ta’sirlashish. Bu degani biz yashab turgan Olam moddalari atomlari yadrolarini proton va neytronlar tashkil etib, uning atrofida elektronlar harakat qilishadi ekan. Antimodda bo‘lganda esa uning atomlari

yadrosini antiproton va antineytronlar tashkil etib, yadro atrofida pozitronlar aylangan bo‘lar edi. Bu esa moddaning birinchi avlod kvarklari va birinchi avlod leptonlaridan tashkil topganligini ko‘rsatib turibdi.

Elektron stabil zarra bo‘lib, myuon va taon nostabil zarralardir. Masalan, myuon 2,2 mks yarim yemirilish davri bilan elektronga va bir juft neytrinoga parchalanadi: $\mu^- = e^- + \tilde{\nu}_e + \nu_\mu$, taon-lepton esa o‘rtacha $2,9 \cdot 10^{-13} s$ yarim yemirilish davri bilan ko‘pgina kanallar orqali, masalan myuon va bir juft neytrinoga yoki mezon va tau-neytrinoga parchalanishi mumkin[4]. Ularning xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Leptonlarning xususiyatlari

Zarra/antizarra	Belgisi	Q	S	L_e	L_μ	L_τ	Massa, MeV	Yashash yaqtisi, s
Elaktron/pozitron	e^-/e^+	-1/+1	$\frac{1}{2}$	+1/-1	0	0	0,511	stabil
Myuon/antimyuon	μ^-/μ^+	-1/+1	$\frac{1}{2}$	0	+1/-1	0	106	$2,2 \cdot 10^{-6}$
Taon/antitaon	τ^-/τ^+	-1/+1	$\frac{1}{2}$	0	0	+1/-1	1777	$2,9 \cdot 10^{-13}$
Elektron nevtrinosi/electron antinevtrinosi	$\nu_e/\tilde{\nu}_e$	0	$\frac{1}{2}$	+1/-1	0	0	$< 2,2 \cdot 10^{-6}$	
Myuon nevtrinosi/ myuon antinevtrinosi	$\nu_\mu/\tilde{\nu}_\mu$	0	$\frac{1}{2}$	0	+1/-1	0	$< 0,17$	
Taon nevtrinosi/ taon antinevtrinosi	$\nu_\tau/\tilde{\nu}_\tau$	0	$\frac{1}{2}$	0	0	+1/-1	$< 15,5$	

Kvarklar. Kvarklar kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion ta’sirlashishlarda qatnashadi. Kuchli ta’sirlashish (glyuon almashish evaziga) kvarkning rangini o‘zgartiradi, lekin aromati o‘zgarmaydi. Kuchsiz ta’sirlashish esa, aksincha, rangini o‘zgartirmaydi, aromatini o‘zgartirishi mumkin. Kvarklarning odatdagidan tashqari xossalari ko‘rsatadiki, kvarklar bir-biridan ozgina masofaga ham uzoqlasha olmaydi. Bu esa ularning alohida mavjud bo‘la olmasligini tasdiqlaydi. Bunga konfaynment hodisasi deyiladi. Ulardan tashkil topgan adronlargina alohida uchrashi mumkin. Yuqori energiyadagina kvarklar asimptotik erkin. Yuqori energiyali adronlar to‘qnashuvida kvark va antikvarklarning kuchsiz anniglyatsiyasi kuzatilib, kuchsiz ta’sirlashishning virtual va real W yoki Z bozonlariga aylanadi. Kvarklarning kasrli zaryadi yuqori energiyali elektron-pozitron anniglyatsiyasida adronlar oqimining tug‘ilish jarayonida namoyon bo‘ladi[5].


Har bir avlodga 2 ta kvark mos kelib, ulardan birining elektr zaryadi + 2/3, ikkinchisini -1/3ga teng [4; 5].

Kvarklar uchun rang kvant soni kiritilgan bo‘lib, uchta turli rangdagi kvarklardan tashkil topgan barion rangsiz bo‘lib, bu 2-rasmda juda yaxshi ko‘rinib turibdi. Bitta kvark va bitta antikvarkdan tashkil topgan mezon ham rangsiz bo‘lib, ya’ni rang (5-rasm) kvant soni barionlar, mezonlar va giperonlar uchun xos emas [5].

2-jadval

Kvarklarga oid asosiy ma’lumotlar

Belgisi	Nomlanishi		Zaryadi	Massasi
	O‘zbekcha	Inglizcha		
Birinchi avlod				
D	Pastki	Down	-1/3	$4,8 \pm 0,5 \pm 0,3 \text{ МэВ/с}^2$
U	Yugorigi	Up	+2/3	$2,3 \pm 0,7 \pm 0,5 \text{ МэВ/с}^2$
Иккинчи авлод				
S	G‘alati	Strange	-1/3	$95 \pm 5 \text{ МэВ/с}^2$
C	Maftunkor	Charm (charmed)	+2/3	$1275 \pm 25 \text{ МэВ/с}^2$
Учинчи авлод				
B	Ajovib	Beauty (bottom)	-1/3	$4180 \pm 30 \text{ МэВ/с}^2$
T	Haqiqiy	Truth (top)	+2/3	$174\,340 \pm 650 \text{ МэВ/с}^2$



Res and

5-rasm. Protonning 3 ta kvarkdan tashkil topganligi va ranglar o‘zaro qo‘shilganda qanday ranglarning hosil bo‘lishining tasviri.

Rang bu kvarklarning muhim xarakteristikasi hisoblanadi, chunki u kvarklardan tashkil topgan adronlar to‘lqin funksiyasining antisimmetrikligini

ta'minlaydi va shu bilan Pauli prinsipi bajarilishiga olib keladi. Tarkibiga s kvark ham kirgan mezon va adronlar g'alati zarralarni hosil qilsa, tarkibiga c va b kvarklar kirgan zarralar maftunkor va ko'rkam zarralar hisoblanishadi.

Kvarklar orasidagi o'zaro ta'sir glyuonlar vositasida amalga oshiriladi. Glyuonlar kvarklar rangini tashuvchi va kuchli o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi zarralardir. Bir rangli kvark o'zidan glyuon chiqarib boshqa rangli kvarkka aylanishi mumkin. Glyuonlar va kvarklar nazariyasi kvant xromodinamikasi deyiladi. Bu nazariyaga ko'ra rang tashuvchi 8 ta turli glyuonlar mavjud ekan. Glyuonlar adronlarning paydo bo'lishi va yo'qolishi reaksiyalarining oraliq bosqichlarida namoyon bo'ladi. Eksperimentlarda glyuonlar hosil qilgan adron oqimlari qayd etilgan. Kvarklar va glyuonlar nazariyasi bashorat qilgan barcha narsalar tajriba natijalariga mos tushganligi sababli glyuonlarning mavjudligiga deyarli shubha yo'q.

Umuman olganda, kvarklar gipotezasi, hususan kvant xromodinamikasi adronlar tuzilishi nuqtai nazaridan konservativ gipotezadir. Chunki, faqat ushbu gipotezagina adronlar ustida bajarilgan eksperimentlar natijalarini tushuntirib bera oladi. Kvarklar nazariyasi bilan osongina tushuntirib berilgan ko'pgina eksperimentlar natijalarini kvarklarsiz tushuntirib berish ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham kvarklar modeli jahon fiziklar jamiyati tomonidan 1976 yildayoq tan olingan.

Kalibr bozonlar. Bular ta'sirlashishni uzatuvchi zarralar bo'lib, elektromagnit ta'sirlashishniki foton, kuchsiz ta'sirlashishniki W^\pm va Z^0 bozonlar hamda 8 ta glyuonlar kuchli ta'sirlashish bozonlaridir. Ular virtual zarralar shaklida namoyon bo'ladi. Fotonlar-bu biz uchun tanish zarralar bo'lib, elektromagnit maydon kvanti. Xuddi shu standart model tarkibiga kiruvchi leptonlar ham, kvarklar ham va hatto zaryadlangan oraliq bozonlari bo'lmish W^\pm lar ham foton almashishi mumkin. Foton tinchlikdagi massaga ega bo'lmaganligi uchun ham elektromagnit ta'sirlashishning ta'sirlashish chegarasi cheksiz. Foton elektr zaryadiga ega emas, massasiz zarra uchun tinchlikdagi sanoq sistemasi mavjud bo'lmaganidan uning spin aniqlanmagan.

W^\pm va Z^0 bozonlar kuchsiz ta'sirlashishning amalga oshishiga javob beradi. Ular 80,4 Gev va 91,2 Gev energiyali massiv zarralardir. Bu proton massasidan deyarli 100 marta katta bo'lib, temir atomi massasidan ham katta. Shuning uchun



ham kuchsiz ta’sirlashish bu juda ham qisqa masofali ta’sirlashishdir. W^\pm va Z^0 bozonlar 1 spinga ega. Ulardan birinchisi kuchsiz ta’sirlashish jarayonlarida qatnashib, zarralarning elektr zaryadini o’zgartiradi. Z^0 bozoni esa elektr zaryadi o’zgarmaydigan jarayonlarda qatnashadi[6]. Erkin holatda ular nostabil.

Xiggs bozoni. Ushbu zarraning kashf etilishi Katta adron kollayderining ishga tushishi bilan bog‘liq. Uning eksperimental aniqlanishi uchun quyidagi kanallar imkoniyat bergen: uning ikkita fotonga parchalanishi $H \rightarrow \gamma\gamma$ va oraliq Z bozonlari orqali 4 ta leptonga (ikkita lepton va ikkita antileptonga) parchalanishi $H \rightarrow ZZ \rightarrow llll$. Natijada detektorda bir juft gamma kvantning to‘qnashishidan yoki 4 ta leptonning to‘qnashishidan hosil bo‘lgan zarra kuzatilgan[1].

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Глазков В.Н. Атомная и ядерная физика. М.: 2016.
2. <http://nuclphys.sinp.msu.ru/lekt/05.pdf>. Kvarklar. Adronlarning kvark strukturasi.
3. <http://elementy.ru/lib/430525>. Atom yadrosi ichidagi qiziqarli olam.
4. <http://elementy.ru/trefil/21196?cjntext=20442>. Kvarklar va ular bilan ishlovchi butunjahon yo‘l.
5. <http://femto.cjm.ua/articles/part-1/1585.html>. Kvarklar.
6. ОИЯИ. Официальный сайт Объединённого института ядерных исследований. <http://www.jinr.ru>.
7. Mo‘minov T.M. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: “O‘R milliy jamiyat nashriyoti”, 2009.
8. Фарходжонова Н. Ф. Проблемы применения инновационных технологий в образовательном процессе на международном уровне //Инновационные тенденции, социально -экономические и правовые проблемы взаимодействия в международном пространстве. - 2016. - С. 5861.

Research Science and Innovation House



COMPARATIVE ANALYSIS OF INDICATIVE, IMPERATIVE AND SUBJUNCTIVE MOODS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Saidova Marjona Zohidovna

Student of English language and literature faculty of NSPI

Scientific advisor: G.N.Allayarova

Annotation: This article provides a detailed comparative analysis of mood verbs in the Uzbek and English languages. It examines the similarities and differences in how mood is expressed through verbs in both languages, considering aspects such as verb categories, conjugation, cultural influence, pragmatic considerations, and linguistic borrowing. Through this analysis, the article offers insights into the linguistic structures and cultural nuances of Uzbek and English, shedding light on the diverse ways in which mood is conveyed in these languages.

Key words: mood category, indicative mood, imperative mood, subjunctive mood, conditional mood, imperative-subjunctive mood, suffix-sa.

Аннотация: В данной статье проводится подробный сравнительный анализ глаголов настроения в узбекском и английском языках. В нем рассматриваются сходства и различия в том, как настроение выражается с помощью глаголов на обоих языках, с учетом таких аспектов, как категории глаголов, спряжение, культурное влияние, прагматические соображения и лингвистические заимствования. Благодаря этому анализу статья предлагает понимание языковых структур и культурных нюансов узбекского и английского языков, проливая свет на различные способы передачи настроения в этих языках.

Ключевые слова: категория наклонения, изъявительное наклонение, повелительное наклонение, сослагательное наклонение, условное наклонение, повелительно-сослагательное наклонение, суффикс-са.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi mayl fe’llarining qiyosiy tahlili batafsil berilgan. Unda fe’l turkumlari, kelishik, madaniy ta’sir, pragmatik mulohazalar va lingvistik o‘zlashtirish kabi jihatlarni hisobga olgan holda har ikki tildagi fe’llar orqali xabar mayli, buyruq-istak mayli, so’roq mayli, shart mayli ifodalanishidagi o‘xshashlik va farqlar o‘rganiladi. Ushbu tahlil orqali maqola



o‘zbek va ingliz tillarining lingvistik tuzilmalari va madaniy nuanslari haqida tushuncha beradi, bu tillarda mayl fe’lllarining turlicha ifodalanishiga oydinlik kiritadi.

Kalit so'zlar: ravish kategoriyasi, korsatkich mayli, buyruq mayli, ergash gap, shart mayli, buyruq-bosh mayli, qoshimcha-sa.

According to English grammar, mood is a form of the verb that shows the relationship of action to reality. This attitude is established by the speaker. He can use the form of a verb to represent an action as real, problematic, unreal, or as a request or order. In English, as in Uzbek, there are three moods.

According to Uzbek grammar, the grammatical forms that express the relation of action to reality are called moods. Mood categories are inextricably linked with verb tenses, person-number categories. The mood means the execution of an action is connected with a real being and, therefore, it expresses the meanings of indicative, imperative, subjunctive, and conditional. In Uzbek grammar imperative and subjunctive belongs to the same one type. Accordingly, the moods have three types:

1. Indicative 2. Imperative and subjunctive 3. Conditional [4.96p]

1. Indicative mood of English language: The indicative mood form makes a statement or asks a question.

Actions presented as real are expressed in the form of the indicative mood, which exists in the form of expressing time of the action. [2.176p] For instance; Zilola study at University. Zilola Uiverstitetda o’qiydi.

I have never heard of it before. Men bu haqida oldin eshitmagandim.

Guzal is going away on business shortly. Guzal tez orada tijirat safariga ketmoqchi. The indicative mood form makes a statement or asks a question. For example;

Does she speak English? U ingliz tilida gapiradimi?

Have you ever been to Italy? Italiyada bo’lganmisan?

Indicative mood of Uzbek language: Indicative refers to an action that can or cannot be clearly done in one of three times. Indicative indicates three times. For instance; Ikromjon went out into the street looking at the sky. (from works of S.A.)

In both languages the Indicative mood represents an action as a fact:

Here is here- U shu yerda

He said so- U shunday dedi

2. Imperative mood of English language: Verbs in the form of the imperative mood express the urge to perform an action: command, offer, request,

etc. The subject is absent in such sentences, and the predicate is used in the form of an infinitive without "to". Usually, an order, offer or request is addressed to a second person (you, you) or to a group of people, for example:

Give me my phone, please. Telefonimni olib bervoring.

Learn the lessons of life, because learning life is necessary! Hayot saboqlarini o'rgangin, chunki hayotni o'rganish zarur! (Omon Muxtor) [4.214p]

In order to express the prohibition to commit an action related to the 2nd person, the negation "don't (= do not)" is put before the verb in the form of the imperative mood
Don't make noise here! Bu yerda shovqin qilmang!

Don't to be late in lesson! Darsga kechikmang!

When calling for joint action, after the verb "let" the pronoun "us" (let us = let's) is used, which translates into Uzbek as "keling, qani ". When the speaker expresses his desire to perform the action himself, the pronoun "me" is used after the verb "let".
For instance:

Let us play volleyball! Qani, (Keling)voleybol oynaymiz!

Let me think one minute! O'ylab olishimga bir daqiqa bering!

In order to express the prohibition to perform an action, negation “don't (do not)” is placed before the service verb “let”:

Don't let him smoke here! Uning bu yerda chekishiga yo'l qo'ymang!

We use the imperative in requests and commands. Imperative statements have an understood subject of “you” and therefore take second-person verbs.

Sit down. (You sit down.)

Please take a number. (You please, take a number.)

Taking into consideration the meaning of the imperative mood, we can also refer to its field some interrogative sentences which actually express not a question, but a request or a mild command. The predicate verb-form in such sentences coincides with the indicative mood in such cases. For example;

Will you open the door? -mild command.

Shall I do it now?

Modal verbs with an infinitive can be used in the imperative mood to express a request, a permission, a prohibition or an order. For example;

You may go now.

You must not stay here too.

You are to come at ten.



Imperative forms are formed by adding the following suffixes to verb bases in Uzbek language:

I Person	-y, -ay	O'qiy, boray	-ylik, -aylik	Boraylik
II Person	-gin, -gil	Borgin, borgil	-ing, -ingiz	Boring
III Person	-sin	borsin	-sinlar	borsinlar

In both languages the Imperative mood express the speaker's inducement (order, request, command, and the like) addressing to another person to do something;

Come here- Kelingiz

Wake up- Turingiz

3. Subjunctive mood. The subjunctive mood (istak mayli) donates actions that could occur in imaginary (unreal) situations.

In the Uzbek language, subjunctive mood sentences are formed structurally through the syntactic pattern [subjunctive mood – koshki]. In this case, the subjunctive mood symbol is a unit representing a subjunctive mood, and the koshki symbol represents a predicate form. Hence, as a result of the coming of the unit representing subjunctive mood in the function of the predicate, subjunctive mood sentences in a compact structure are formed. [6.128p] For instance;

I wish I were young again.

In Uzbek, istamoq – to desire, xohlamoq- to want, tusamoq – to passion verb lexemes are actively used to express desire. Also, the lexemes of istak, xohish, and ishtiyoy also directly reflect the desire of the subject when it comes to the function of the predicate in speech. For example: O‘qishga kirish uning istagi bor (xohishi) edi. It can be used interchangeably with U o‘qishga kirishni istardi, U o‘qishga kirishni xohlardi, U o‘qishga kirish ishtioqida edi sentences.

In sources, the -sa affix acts as a conditional affix as a means of connecting parts of a conditional sentence;

The suffix “-sa” is a conditional mood form of the verb.

I Person: If I write (Agar yozsam)

II Person: If you write (Agar yozsang)

III Person: If they write (Agar yozsalar)

It is noted that the conditional relation is further enhanced if the part of speech consisting of these affixed verbs contains conditional conjunctions such as agar,

mabodo, and basharti [3, p. 270]. But this is not a permanent situation. Although the part of a subjunctive mood sentence consists of verbs with the -sa affix, and conditional conjunctions such as agar, mabodo, and basharti are used in the sentence, conditional sentences may not be formed. [5.98p] For example:

Agar shu tuxumlarni yigirma kun bosib bersangiz, jahon faniga buyuk hissa qo'shgan bo'lardingiz. - If you pressed these eggs for twenty days, you would have made a great contribution to world science. (S. Ahmad. “Napoleon Mamajonov”) [3.174p]

The Uzbek language has these moods of the verb. Each verb mood has its own rules and affixes that give meaning to words when used in a sentences and depending on their function.

In conclusion, we would like to point out that modality is a notional category which expresses the relation of the utterance to reality. Both languages have verb tenses, moods of the verb and they have their own functions. In Uzbek language, there are four verb conjugations, each of which has its own suffix. In English language, there are mainly three verb moods, and they give meaning to sentences depending on their functions.

Reference:

- [1]. Erkaboyeva N. O'zbek tillaridan ma'ruzalar to'plami T: “Akademnashr”,2014.
- [2]. Irisqulov A.T. Theoretical grammar of English. T. “Nashriyot”, 2006.
- [3]. Mahmudov N., Nurmonov A. Theoretical grammar of Uzbek language. T. Teacher, 1995.
- [4]. Usmonova, S. R. The Application of the Method of Metamorphosis in the Folklore of the Peoples of the East. Psychology and Education Journal, 2021. [2].
- [5]. G'afforov English grammar book
- [6]. www.native-english.ru

Research Science and Innovation House

O‘ZBEKİSTONDA INTERNET JURNALİSTİKASI: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Gulimova Bibisara – QDU, Jurnalistika kafedrasи assistenti,

Maftuna Yusupboyeva – QDU, qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika
fakulteti 2-kurs talabasi.

Rezyume. Ushbu maqolada O‘zbekiston internet jurnalistikasi va undagi kamchiliklar asosiy masala sifatida berilgan. Shu o‘rinda hozirgi kundagi ushbu sohaga bo‘lgan talablar va uning avzalliklari haqida mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: internet jurnalistikasi, fake xabar, kontent, interaktivlik , hamfikrlik, professional yondashuv, media.

Mamlakatimizda informacion texnologiyalari jadal rivojlanib kelmoqda va bu “Internet jurnalistika” yo‘nalishini ommalashuviga olib keldi. Hozirgi kunda internet jurnalistika tezkorligi, auditoriyani qamrab olishi va ta’sir ko‘rsatish jihatidan tezligi bilan boshqa ommaviy axborot vositalari ichida birinchilikni egallagan. Buni biz o‘zbek segmentidagi axborot saytlari sonining toboro ortib borayotganligidan anglashimiz mumkin. Hozirgi kunda zamonaviy axborotlardan xabardor bo‘lish, ularni o‘rganish, uzatish va takomillashtirishda internet jurnalistikasining o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Axborot oqimi shiddatli tus olganiga qo‘srimcha endilikda uning tarqalishidagi to‘silqlar yo‘qoldi. Axborotni cheklanmagan miqdorda masofaga uzata olishning texnik imkoniyatlari qanchalik rivojlanishiga qaramay u keltirib chiqargan muammolar alohida ilmiy-amaliy masala sifatida mutaxassislar oldiga mutlaqo kutilmagan muammolarni qo‘ydi.

Asosan, internet-nashrlar a’nanaviy jurnalistikada yangi davrni boshlab berdi. Bu esa jurnalistlarga qo‘yilayotgan talablarni oshirdi va a’nanaviy jurnalistikadagi bir qancha kamchiliklarni yo‘zaga chiqardi. Xodim bir vaqtning o‘zida ham jurnalist, ham fotomuxbir, ham sayt administratori, sayt redaktori kabi vazifalarni bajarishga to‘g‘ri keldi. Bundan kelib chiqib O‘zbekistonda keng qamrovli, universal jurnalist kadrlarning etishib chiqishiga olib keldi. Bu albatta, sohaning taraqqiyotiga va rivojiga o‘zining katta hissasini qo‘sishi aniq. Lekin, tanganing ikkinchi tamoni bo‘lganidek, sohada professional bo‘lmagan, jurnalistika amaliyotidan,

nazariyasidan mutloqo xabarsiz internetda ishlayotgan blogerlar, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa administratorlari, tarjimon, frilanser, reportyor, kopirayterlarning ko‘payishiga zamin yaratdi. Shu sababdan ham fan nazariyasini o‘rganish, internet jurnalistikaning mohiyatini tushunish, uning maqsad va vazifalarini to‘liq anglab yetish talab darajasida. Lekin, bugungi internet jurnalistikasining asosiy vazifasi xabarni yetqazish va tahlil qilishdan iborat bo‘lib qolgan. Buning uchun kerak bo‘ladigan bilim, tajriba, mahorat ikkinchi darajaga tushib qolyapti.

Internet nashrlarida uchrayotgan jurnalistik etikaga zid bo‘lgan asosiy holatlar ham bor. Jumladan, jurnalistlarning xabarni tekshirmay uni o‘z nashrida berishi, ayrim internet nashrlaridagi tarjimonlarning, kopirayterlarning mualliflik huquqiga rioya qilmasligi, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabar, audio va video materiallarni o‘zlashtirish, manbani tekshirmay tarqatish holatlari kuzatilmoque¹

Axborotning ishonchli ekanligi barchasidan ustun turadi. Internetdagi ma’lumotlar turlicha bo‘lishi mumkin. Manbalar juda ko‘p ammo to‘g‘ri va aniq axborot topish ancha mushkul, negaki, saytlarga ma’lumotni joylashni oddiy dasturchi ham eplay oladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi "fake" nomi bilan ataladigan soxta xabarlarning ko‘pligi esa undan-da achinarli hol.

Bular oddiy taskilot nomidan fake xabarlar noqonuniy ravishda axborot uzatish, yoki biror bir mashhur shaxslar haqida, ularning oilaviy hayotiga tegishli soxta xabarlarni tarqatishni ham e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Birgina soxta xabar millionlab odamlarning hayotini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Chunki hozirda butun dunyo aholisi faqatgina ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarga tayanib qolgan. Biror savolning javobini oddiy kitobdan emas, internetdan izlashadi. Kitobdan axborot olish kamdan-kam hollarda bo‘ladi. Shu sababdan xabarlar aniq va ravshan yoritib berilishi kerak. Agarda bu kamchiliklarning oldini olmasak soxta xabarlar orqali noto‘g‘ri ma’lumotlar yetkazilib katta xatolarni yuzaga keltirib chiqarishi aniq. Buning oldini olish uchun tahrirlash ishlariga oliy toifali tilshunoslar, olimlarni bu ishga jalb etish maqsadga muvofiqdir.² Bundan tashqari tasdiqlanmagan ma’lumotlarni tarqatganligi uchun qonuniy ravishda javobgarlikka tortilishi kerak deb o‘yayman. Negaki, har bitta yolg‘on xabar, birinchidan online nashrning

¹ <https://kknews.uz/oz/8269.html>

² <https://uzhurriyat.uz/2018/02/21/o-zbekistonda-internet-jurnalisti>

ishonchlilik darajasini pasayishiga sabab boladi, ikkinchidan odamlarning aldanib qolishiga, yoki biron bir kishiga nisbatan salbiy fikrning shakllanishi olib keladi.

O‘zbekistonga internet jurnalistikaning rivojlanishi a’nanaviy jurnalistikadan o‘zining bir qancha avzalliklari bilan ajiralib turadi. Interaktivligi, professional yondoshuvi, matbuotga yo‘nalganligi, kerakli ma’lumotlar uzatilayotgan joyiga tez va sifatli yetib borishi bilan bir qatorda auditoriya bilan hamfikrlilikni oshirib beradi. Bundan tashqari internet ma’lumotlarini tarqalishidagi ta’minotni qimmatligiga qaramasdan har bir o‘quvchiga kerakli ma’lumot qo‘gozli ma’lumotga nisbatan tezroq va arzonroq, eng muhim sifatli yetib borishini ta’minlaydi.³

Yuqoridagi aytib o‘tilgan ma’lumotlardan xulosa chiqarib, internet olamidagi jurnalistika aslida yaxshi tushuncha, lekin bu holatdan kerakli va manfaatlil maqsadlarda foydalanish lozim deb hisoblayman. Chunki muammolar va kamchiliklar bor ularning yechimlarini topib internet jurnalistikasini yanada rivojlantirish kerak. Hozirgi kundagi hayotimiz uchun media olami, internet saytlari juda muhim o‘rin egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A’zam Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitora Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika “Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar” –T.: O’zbekiston, 2019. 135-b.
2. <https://infocom.uz/internet-jurnalistikasi-va-uning-istiqbollari/>
3. <https://kknews.uz/oz/8269.html>
4. <https://uzhurriyat.uz/2018/02/21/o-zbekistonda-internet-jurnalisti>

Research Science and Innovation House

³ <https://infocom.uz/internet-jurnalistikasi-va-uning-istiqbollari/>



The potential benefits and drawbacks of a cashless society

Eshqulova Dilorom Abduravupovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Human resources management - 121-guruh talabasi

diloromeshqulova11@gmail.com

Abstract: The transition to a cashless society, characterized by the replacement of physical currency with digital transactions, has garnered significant attention in recent years. This paper explores the multifaceted implications of such a shift, weighing its potential benefits and drawbacks. Key advantages include increased convenience and efficiency in transactions, enhanced security through reduced risk of theft and counterfeiting, and improved financial inclusion for those with access to digital technology. Additionally, cashless transactions can provide better tracking and transparency, aiding in the reduction of tax evasion and illicit activities. Conversely, the drawbacks encompass concerns over privacy and data security, the risk of digital fraud, and the exclusion of individuals lacking access to digital infrastructure. Furthermore, the dependence on technology raises the vulnerability to cyberattacks and system failures. This analysis underscores the need for balanced policy approaches that maximize the benefits while mitigating the risks associated with a cashless society.

Key words: Convenience, reduced crime, improved tax compliance, cost savings, financial inclusion, privacy concerns, economic control.

KIRISH. Bo‘lajak fizika mutaxassislarini mantiqiy fikrlash jarayonida tafakkuri va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida STEM dasturini tadbiq etish, o‘zlashtirish asosida ochiq, moslashuvchan, induviduallashgan, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. STEAM texnologiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi. Bola o‘zida nostandard fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko‘nmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagи faoliyatida juda qo‘l keladi.

STEAM ta’lim tizimi quyidagicha mazmunga ega:

S-science

T-technology

E-engineering,

A-art

M-math.

Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan

biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM ta’lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatlari o‘zlashtirishlari uchun bir vaqt ni o‘zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg‘unligini ta’minlaydilar. Bunda —aql va qo‘l iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko’rib tezda o‘qib, o‘zlashtirib oladilar. O‘yin, qurilish, kognitiv va tadqiqot faoliyati orqali badiiy va ijodiy faoliyat turlari rivojlanadi. Har bir modul STEAM ta’lim maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan aniq vazifalarni kompleks ravishda hal qilishga qaratilgan: kognitiv tadqiqotlar jarayonida bolalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy-texnik ijod qilishga o‘rgatadi. Turli yoshdagi bolalarda badiiy-texnik ijodiyotni sintez

qilish, umuman AKT (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, media ma’lumotlarni takomillashtirish asosida animatsion samarali foydali mustaqil faoliyatini tashkil etish, bolalarni mantiqiy va algoritmik fikrashi, rejalashtirish va modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. STEAM ta’lim texnologiyasining asosiy pedagogik ahamiyatli jihat shundaki, bolani integratsiyalashgan rivojlanish imkoniyatidir. Integratsion yondashuv turli xil faoliyat turlari –o‘yin, texnika, nutq, vizual, kommunikativ, kognitiv va boshqalarning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo’ladi.

Adabiyotlar tahlili. STEM ta’lim nima? Asrimiz boshlarida AQSH milliy ilmiy jamg‘armasi mamlakatda texnik mutaxassislar taqchilligini bartaraf etishga mo‘ljallangan yangi ta’lim yo‘nalishini ifodalash maqsadida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’lim tizimini yaratdi. Shundan so‘ng bu ta’lim haqidagi ilk g‘oyalar akademik nashrlar va ommaviy axborot vositalarida paydo bo‘la boshladi. O‘shandan beri bu shakldagi ta’limni rivojlantirish AQSH davlat siyosatining muhim strategiyalaridan biriga aylandi. Keyinchalik global texnologik taraqqiyot tufayli butun dunyoga yoyila boshladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xususan, yurtimizning har bir hududida chet ellik mutaxassislar ishtirokida STEM fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan, ilmiy-texnikaviy ta’lim bilan yoshlarni yanada kengroq qamrab olish, ular uchun qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan Prezident maktablari ochildi. Shuningdek, Toshkent shahrida axborot texnologiyalari, aniq fanlar,

aerokosmik va astronomiya fanlarini chuqur o‘rganadigan ikkita davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi tashkil etildi. Bular — Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikasiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqur o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab 2015 yilda Toshkent shahrida birinchi xususiy robototexnika maktabi — “Robokids education” tashkil etildi. Unda robototexnika, asosiy dasturlash va “Internet of things” yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tiladi. 2017 yilda matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan xususiy ta’lim muassasasi — Artel global maktabi ochildi. Shuningdek, Artel texnikumi, “Erudite education”, “Evrika” va boshqa xususiy maktablar ham faol ishlamoqda.

STEM tabiiy va muhandislik fanlarini yagona, o‘zaro bog‘liq tizimda birlashtirgan ta’lim modelidir. U fizika, matematika, biologiya kabi fanlarni muayyan o‘quv dasturi doirasida o‘rganish bilan birga ularni yangi tizimda, yaxlit birlashtirishni nazarda tutadi. Ya’ni maktab fanlari o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan o‘qitiladi. Olimlarning ta’kidlashicha, bunday yaxlit o‘rganish muammolarni faqat bitta sohaga tayangan holda qismlarga bo‘lib emas, balki yanada kengroq va global miqyosda ko‘rib chiqish va hal qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv STEM ta’limning asosiy jihatni va asosiy tamoyilini — fanlararo uyg‘unlikni belgilaydi.

Bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ya’ni amaliy masalalarini yechish bu ta’limning yana bir tamoyilidir. Ijodkorlik va innovasiya, tanqidiy fikrlash, loyihalash ishlari ham bu ta’limning asosiy xususiyatlaridir. Chunki zamonaviy jamiyat ijodiy fikrlaydigan, innova sion qarorlar qabul qila oladigan, moslashuvchan, keng dunyoqarashga va boshqaruv ko‘nikmalariga ega mutaxassislarga muhtoj.

Natija va muhokamalar. Bugungi kunda nega STEM dasturiga talab oshyapti? Bugun talabgorlar Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya, Singapur, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning yetakchi universitetlarida STEM ta’lim olishi mumkin. Chunki mazkur mamlakatlardagi ko‘plab universitetlarning asosiy yo‘nalishi raqamli texnologiyalar va innovasiyalarga asoslangan. Ular BigData, sun’iy intellekt, texnologiyani o‘rganishdagi yutuqlarni o‘quv jarayonida qo‘llash, sog‘lijni saqlash, bank, sanoat va qishloq xo‘jaligi uchun imkon qadar ko‘proq yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga intiladi. Bugun nafaqat texnologiyani



tushunadigan, balki turli sohalardagi aniq muammolarni hal qilish uchun bilimini samarali qo'llash ko'nikmasiga ega mutaxassislar mehnat bozorida yetakchi hisoblanadi.

Masalan, Jahon iqtisodiy forumining statistika ma'lumotida ta'kidlanishicha, zamonaviy biznes uchun eng muhim ko'nikmalar murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashdir. Ish beruvchilar talabalarning STEM ixtisosliklar bo'yicha olgan ko'nikmalarini yuqori baholaydi. Bunday mutaxassislarga talab yil sayin ortib bormoqda. Bu aniq fanlarga bevosita bog'liq bo'lgan texnologiyalarning rivojlanish sur'ati bilan izohlanadi. AQSH milliy ilmiy jamg'armasi hisob-kitobiga ko'ra, kelgusi o'n yillikda mavjud bo'ladigan ish o'rinalining 80 foizi abituriyentlardan matematik ko'nikmalar va texnologik bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

Olimlarning faraziga ko'ra, IT va Data Science bo'yicha malaka jamiyatning texnologik rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan har bir mutaxassis uchun zarur. Misol uchun, 2020 yilda Xitoydagi sanoat korxonalari raqamli texnologiyalar tufayli 4 trillion dollardan ortiq qo'shimcha daromad olgan. "McKinsey" ma'lumotlariga ko'ra, AQSH sog'liqni saqlash tizimida Data Science usullarini joriy etish tufayli 450 million dollargacha yoki butun sanoat byudjetining 17 foizi tejaladi.

O'zbekistonda joriy etish istiqboli haqida so'z yuritadigan bo'lsak, birinchi navbatda, mamlakatimizdagi maktab o'quvchilari uchun tabaqalashtirilgan (differensial) ta'limni keng joriy etish, STEM fanlarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega bolalarni aniqlash lozim. O'g'il-qizlarning moyilligi va layoqatini aniqlash ko'p qirrali va bosqichli jarayon. Uni bola hayotining dastlabki yillaridayoq boshlash kerak. Ota-onalar farzandlarini ko'proq qiziqish va qobiliyatini namoyon etadigan yo'nalishda rivojlantirish uchun intilishi zarur. Shu bilan birga, erta yoshda bolalar biror bilimni o'rganishga juda moslashuvchan bo'lishini esda tutish darkor. Ta'lim muassasalari o'quvchilarining individual hamda tipologik xususiyatlariga ko'ra, differensial ta'limga asoslanishi kerak.

Innovasion o'qitish usullarini qo'llash orqali o'g'il-qizlarning ushbu fanlarga qiziqishi va bilimini tizimli va dinamik ravishda oshirishga qodir bo'lgan STEM fanlari bo'yicha malakali pedagog kadrlarni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega.

Texnik mutaxassislarga ehtiyojning ortib borishi STEM ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ma'lumotlarga ko'ra,



masalan, AQSHda STEM ixtisoslik bo‘yicha o‘qiydigan talabalarga uzaytirilgan viza taqdim etiladi, turli stipendiyalar ajratiladi. Yuqori texnologiyali kompaniyalar bilan universitetning hamkorlik dasturlari ishlab chiqiladi. Shuni hisobga olish kerakki, texnologiya jadal rivojlanishi bilan texnik ko‘nikmalar ham tez eskiradi. O‘zgaruvchan sanoatga munosib javob berish va moslashish uchun mutaxassislarini qayta tayyorlash jarayonini faollashtirish kerak. Shunday qilib, mutaxassis butun umr o‘rganishi va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishi lozim bo‘ladi. Bunday o‘qitish uzlusizligini ta’minlashning samarali mexanizmi ta’lim sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish tizimini tashkil etuvchi elementlar sifatida klasterlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi, jamiyat hayotining barcha jahbalarini taraqqiy ettirishga innovation yondashuv biz intilayotgan rivojlangan davlatning texnologik jihatdan ilg‘or turmush darajasini ta’minlashga qodir, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun STEM ta’limni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda esa bunday taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan barcha resurslar mavjud.

Fizika fanini STEM dasturi aosida o‘qitish orqali bo‘lajak mutaxassis mavjud sharoitlar va ish tajribasiga asoslanib ijodiy yondashgan holda ish faoliyatini olib borishi hamda mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishiga erishiladi. Bunda, virtual laboratoriyanı o‘rnı kata ahamiyat kasb etadi. Virtual laboratoriya bu yangi rivojlanayotgan murakkab texnologiya bo‘lib, u odamga obyektni ko‘rmasdan his qilish imkonini beradi haqiqiy ko‘rishdir. Fizika tajribalari bo‘lajak fizik-mutaxassislar tomonidan fizikani o‘rganishning eng vizual va intuitiv usuli hisoblanadi, ya’ni bo‘lajak fiziklarning fizikaga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishning eng yaxshi usulidir.

Fizika fanining eng muhim bo‘lagi bo‘lmish fizika laboratoriysi STEM kontseptsiyasiga asoslangan bo‘lib, u bir nechta o‘quv dasturlarini birlashtirgan yangi ta’lim kontseptsiyasidir. STEMda o‘rganishni virtual tajribalar bilan birlashtirish quyidagilarga imkon beradi; talabalar turli darajalarda va turli vaqtlarda eksperimental operatsiyalarni amalga oshiradilar; shu bilan talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati va amaliy ish darjasи, qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam

berish va talabalar savodxonligi oshishiga xizmat qiladi. Virtual laboratoriya texnologiyasining rivojlanishi bilan virtual laboratoriyalar o‘rganishda muhim ahamiyati bo‘lajak fiziklarni mavzuga doir virtual laboratoriyalarni o‘zlari xohlagan joyda va vaqtda bajarishlari qulay bo‘lgan texnologiyalardan hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash ijodiy tafakkurning rivojlanishi fizika ta’limidagi izlanishlarni talab qiladi. Bunda mantiqiy fikrlashning qandaydir eng umumi usullari haqida va aqliy faoliyatning mazmunan umumiy algoritmlari haqida so‘z yuritish mumkin. Lekin bu talab bo‘lajak fiziklarni o‘zi olib boradigan faol izlanishlarni hamda yechimning evristik usullarini topa olishni ham nazarda tutadi. Onglilikka intilish har bir bo‘lajak o‘qituvchi xarakterining xususiyati o‘quv ishi metodi bilan tarbiyalanadi.

STEM ta’lim o‘zining asosiy maqsadi «fanni o‘qitish», «texnologiyani o‘rganish», «muhandislik», «san’atni qidirish» va «matematikani o‘rganish», virtual fizika laboratoriysi esa STEM-ning yetakchi maqsadidan to‘liq foydalanadi. «Fanni o‘qitish» shuni anglatadiki, bo‘lajak fiziklar virtual fizika laboratoriyalarini boshqarishda ilmiy eksperimental munosabatlarga e’tibor berishlari, tegishli ilmiy va madaniy bilimlarni faol ravishda egallashlari va virtual tajribalarning har bir qismini asta - sekin ilmiy qat’iylik bilan bajarishlari kerak. «O‘qitish texnologiyasi» ko‘p tarmoqli STEM ta’limning asosiy xususiyati ekanligini anglatadi. Bo‘lajak fiziklar nafaqat fizika bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirishlari, balki talabalar turli texnologiyalarni to‘liq o‘rganishlari uchun kompyuter dasturlash va modellarni yaratish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. «Muhandislik bilan shug’ullanish» STEM treningida amaliylikni anglatadi. «Matematikani o‘rganish» talabalardan eksperimentda yaxshi fikrlash va o‘rganish usullarini o‘zlashtirishni talab qiladi. Masalan, konversiya usullari, analog usullar, teskari usullar va boshqalar, eksperiment muvaffaqiyatli bo‘lishiga katta yordam beradigan eng yaxshi o‘qitish usuliga ega. Muxtasar qilib aytganda, virtual fizika laboratoriyasini STEM ta’lim kontseptsiyasi bilan birlashtirish virtual fizika laboratoriyasini nazariy qo‘llab - quvvatlash va STEMning amaliy o‘quv vositasini taqdim etadi.

Virtual fizika laboratoriyasining tashkil etilishi zamonaviy fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishiga va an’anaviy fizika laboratoriyasida ta’lim tarixidagi katta yutuqlarga asoslangan. Bu bo‘lajak fiziklar ilm - fan va madaniyat sohasidagi bilimlarni tezroq va yaxshiroq egallahsga, shuningdek, madaniy savodxonligini rivojlantirishga yordam beradi. STEM ta’lim kontseptsiyasi virtual



fizika laboratoriysi uchun yaxshi nazariy asos yaratadi. Shuni ta’kidlab aytganda, STEM virtual fizika laboratoriysining maqsadi - bo‘lajak fiziklarga har tomonlama rivojlanishni ta’minlashdir.

Bunda mantiqiy fikrlash jarayonida talabalarning tafakkuri va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi, ularni fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tahlil va jamlash, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, tasniflash va tizimlashtirishga doir mashqlar va hodisalarni kuzatish va tahlil qilishga, o‘rganiladigan hodisaning boshqa hodisalarga bog‘liqligi, talabalarning hodisa va qonuniyatlarning eksperimental ravishda tekshirib ko‘rish usullarini ishlab chiqishi muhim o‘rin tutadi.

Xulosa va takliflar. Turli yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi faol jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimida bola shaxsini shakllanishida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, turli shakl, usul va vositalarini ishlab chiqishni, ularni har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini talab etadi.

Maktabgacha ta’limda faoliyatning yetakchi turi o‘yin deb hisoblanadi lekin STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra bolalarning yetakchi faoliyat turi bu tajriba deb hisoblanadi. O‘yinchoqlar yordamida bolalar o‘qish, o‘lchash, tekislash, hisoblash, bo‘yash, muloqot qilishni o‘rganadilar va jamoa malakalarini egallaydilar. Bu ularga zarur matematik, filologik va muhandislik, san‘at ko‘nikmalarini olishga yordam beradi. STEAM ta’lim texnologiyasi bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo’llash, dizayn asoslarini tushunish.

Yosh avlodni ehtiyyotkorlik bilan rivojlanish zinapoyasidan zinama-zina tepaga olib chiqish har bir pedagog uchun sharafli vazifadir. Biz esa faqatgina ushbu harakatning xususiyatlarini tushunishimiz va bolalarni vaqtida qo’llab-quvvatlashimiz, o‘sishi uchun muvofiq sharoitlar yaratishimiz darkordir. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to’playdilar va fikrlar almashadilar. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiritilgan.. STEAM



farzandlarimizga -ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xamroeva.C.H- “Bo’lajak fizika fani o’qituvchilarini STEM ta’lim dasturi asosida o’qitish” Astronomiya fanini o’qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: muammo va yechimlari, Respublika ilmiy-amaliy konferenciya 2022 yil 17 may, 157-159 b.
2. Kamolov Ixtiyor Ramazonovich, Hamroyeva Sevara Nasriddinovna, Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak fizika fani o’qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini STEM ta’lim dasturi asosida rivojlantirib o’qitishni takomillashtirish” International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION Series B Volume 1 Issue 6 September 2022
3. Yulong Bai1, Dianfei Peng, Jie Yang.- Design of Virtual Physics Laboratory Based on STEAM Education “Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 428”.
4. Sevara Nasriddinovna Khamroeva “DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING SKILLS OF FUTURE PHYSICS TEACHERS ”BIRINCHI RENESSANS: ABU RAYHON BERUNIY VA TABIIY FANLAR EVOLYUTSIYASI mavzusidagi XALQARO ILMUY-AMALIY KONFERENSIYAsi, 25-may, 2023-yil
5. S.N.Hamroyeva, L.Sh.Bozorova” BO’LAJAK FIZIKA O’QITUVCHILARINI STEM TA’LIMI ORQALI O’QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYANING O’RNI”
”BIRINCHI RENESSANS: ABU RAYHON BERUNIY VA TABIIY FANLAR EVOLYUTSIYASI mavzusidagi XALQARO ILMUY-AMALIY KONFERENSIYAsi, 25-may, 2023-yil
6. Ergasheva G. B. Zamonaviy jamiyatda fan va ta’limning rivojlanishida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o’rni //Scientific progress. –2021.
7. Rajabova L. Steam ta’lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg’or usullari //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – т. 1. – №. 1.




8. Xalilova Dilnoza Furkatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. - Science and innovation, Special Issue 4, 2023. 57-59.

9. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117.

10. I.V. Grosheva, G.E. Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Kenjabayeva, N.A. Miftayeva. O‘yin orqali ta’lim olish. T.:2020

11. Anvarova Dilshoda Akbar qizi, Bekpōlatova Diyora Shavkat qizi “STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISH IMKONIYATLARI” RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O‘QITISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2023-yil 2-iyun. 376-bet.



Research Science and Innovation House





УДК: 616-002.36

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ОСТРОГО ОДОНТОГЕННОГО ОСТЕОМИЕЛИТА ЧЕЛЮСТЕЙ У ДЕТЕЙ

Шодиев Садулла Самехжанович

P.h.D., кафедра челюстно-лицевой хирургии Самаркандского Государственного медицинского Университета, Самарканд. Узбекистан

Аннотация. Под наблюдением находились 26 детей от 3 до 7 лет с острым одонтогенным остеомиелитом челюстей. Основной группе применяли озон местно и парентерально, вместе с ним местно применяли эфирное масло аниса. И крови у больных исследовали маркеры эндогенной интоксикации, жирные кислоты и маркеры микроорганизмов методом газовой хроматографии. Полученные результаты свидетельствуют, что озонотерапия за короткое время оказывает положительное действие на антиоксидантную систему. В основной группе за 3-4 дня наблюдалось резкое снижение количества микроорганизмов от бактериального критического, а через 6-7 дней патогенные и условно-патогенные микроорганизмы полностью элиминировались из раны.

Ключевые слова: одонтогенный остеомиелит, эндогенная интоксикация, озонотерапия, фитотерапия.

БОЛАЛАРДА ЖАҒЛАРНИНГ ЎТКИР ОСТЕОМИЕЛИТИНИ КОМПЛЕКС ДАВОЛАШНИ ҚИЁСИЙ БАХОЛАШ

Шодиев Садулла Самехжанович

*Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Р.х.Д., юз-жас газарроҳлиги
кафедраси Самарқанд, Ўзбекистон*

Аннотация. Кузатув мобайнида 3 ёшдан 7 ёшгача, пастки жағида ўткир одонтоген остеомиелити бўлган 26 нафар бемор болалар жалб қилинган. Асосий гурухда флегмоналарни даволаш учун тиббий озон махаллий ва парэнтерал қўлланилди, шу билан бирган арпабодиён эфир мойи махаллий қўлланилган. Беморлар қонида эндоген интоксикация маркерлари, ёг кислоталари текширилди ва йирингли ярада газли хроматография усулида микроорганизмлар маркерлари аниқланди. Олинган натижалар, озонотерапия қисқа муддатда антиоксидант тизимда ижобий ўзгаришларга олиб келиши



тасдиқлади. Озонотерапия+ фитотерапия қўлланилган гурухда, 3-4 кун ичидаги микроорганизмлар миқдори критик бактериал даражасидан кескин камайди, 6-7 кунга келиб эса, патоген ва шартли патоген микроорганизмлар ярадан тўлиқ элиминация бўлди.

Калит сўзлар: одонтоген остеомиелит, эндоген интоксикация, озонотерапия, фитотерапия.

COMPARATIVE EVALUATION OF COMPLEX TREATMENT OF ACUTE ODONTOGENOUS OSTEOMYELITIS OF THE JAWS IN CHILDREN

Shodiev Sadulla Samekhjanovich

P.h.D., Department of Maxillofacial Surgery of Samarkand State Medical University Samarkand, Uzbekistan

Abstract. During the observation, 26 sick children with acute odontogenic osteomyelitis in the lower jaw were involved, from 3 to 7 years old. For the treatment of phlegmon in the main group, medical ozone was applied Maxillary and parenteral, thereby applying the monogeneric fennel essential oil maxillary. Endogenous intoxication markers, fatty acids were examined in the blood of patients and markers of microorganisms were detected in purulent wounds using gas chromatography. The results obtained confirmed that ozonotherapy leads to positive changes in the antioxidant system in the short term. In the group where ozonotherapy+ Phytotherapy was used, in 3-4 days the amount of microorganisms sharply decreased from the critical bacterial level, and by 6-7 days, pathogenic and conditionally pathogenic microorganisms were completely eliminated from the wound.

Key words: odontogenic osteomyelitis, endogenous intoxication, ozone therapy, herbal medicine.

Актуальность. Учитывая частую встречаемость гнойно-воспалительных процессов ЧЛО, преобладание тяжёлых форм заболевания и вовлеченность окружающих тканей вследствии их развития, выбор оптимального метода (консервативного или хирургического) лечения, определение оптимального времени их применения, а также оценка результатов лечения является важной проблемой в практике ЧЛХ которая требует решения.

В последнее время проводятся ряд исследований направленных на широком применении нефармакологических методов при местном и общем лечении



гнойно-воспалительных заболеваний ЧЛО, определении факторов риска приводящих к осложнениям, их ранней диагностики и профилактики. В связи с этим, приобретает важное значение проведение научных исследований направленных на поиск новых лечебных средств при лечении гнойно-воспалительных заболеваний ЧЛО имеющих положительное комплексное патогенетическое действие, неимеющих побочных эффектов и противопоказаний.

К исследованиям было привлечено 26 пациентов с острыми одонтогенными остеомиелитами. Из них 15 (57,7%) мальчиков и 11 (42,3%) девочек. Пациентам с острыми одонтогенными гнойно-воспалительными заболеваниями для выявления эндогенной интоксикации в крови были проведены биохимические анализы. Показатели MCM280 и MCM254 (молекулы средней массы) определены методом Габриэлян и В.И. Липатовой, МДА методом С.Г. Конюховой, КА- методом М.А. Королюк.

Учитывая антибактериальный, антигипоксический, детоксицирующий, трофический (улучшающие микроциркуляцию), иммунокорригирующий и другие эффекты медицинского озона, при остром одонтогенном остеомиелите его применяли местно и парентерально.

У пациентов эфирное масло аниса применялось местно в сочетании с озонотерапией. При местном применении эфирного масла аниса озонотерапия применялась при утренней перевязке, а эфирное масло аниса применялось при второй перевязке. При этом использовали 0,5% раствор эфирного масла аниса, разбавленного персиковым маслом. Турунду пропитывали маслом и оставляли на ране после промывания гнойной раны. Анализы проводились в день поступления пациентов, на 3-4 день и на 5-6 день при выписке.

Показатели маркеров эндогенной интоксикации в крови у этой группы больных приведены в 1-таблице.

**Research Science and
Innovation House**



1-таблица

Показатели маркеров эндогенной интоксикации в крови при традиционном и комплексном лечении острых одонтогенных остеомиелитов с применением озонотерапии+фитотерапии

Параметры	Группы			
	контроль	до лечения	традиционная	озонотерапия+фитотерапия
МДА	3,50±0,23	6,56±0,28*	4,28±0,33	3,56±0,21
Катализ	0,90±0,06	0,28±0,03*	0,72±0,06	0,91±0,07
MCM254	0,24±0,03	0,51±0,04*	0,31±0,03	0,25±0,03
MCM280	0,28±0,03	0,45±0,04*	0,33±0,03	0,29±0,02
КУБ	1,16±0,07	0,88±0,08*	1,06±0,08	1,15±0,08
МДА/Катализ	3,89±0,16	23,43±1,38*	5,95±0,22	3,92±0,17

*- $P < 0,05$ достоверность к показателям до лечения

Как видно из таблицы, МДА являющийся вторичным продуктом ПОЛ при поступлении увеличился на 87,42% по отношению к контрольной группе, при выписке при традиционном лечении этот показатель уменьшился на 22,28%, а в группе где применялся комплексное лечение озонотерапия+ароматерапия уменьшился на 1.71% по отношению к традиционной группе. Активность каталазы при поступлении уменьшился на 31,11% по отношению к контрольной группе, в традиционной группе увеличился на 80% по отношению к контрольной группе, в основной группе увеличился на 1,11 % по отношению к контролю. В плазме крови уменьшился количество МСМ: при поступлении MCM²⁵⁴ был повышен на 112,5 % по отношению к контролю, при выписке в традиционной группе этот показатель был равен 29,16%, а в основной группе 19,36% относительно контролю. MCM²⁸⁰ при поступлении был повышен на 60,71% по отношению к контролю, при выписке в традиционной группе этот показатель был равен 17,85%, а в основной группе 3,57% относительно контролю приближаясь к показателям нормы.



Коэффициент устойчивости белка (КУБ) при поступлении уменьшился на 75,86% по сравнению с контрольной группой, при выписке в традиционной группе этот показатель уменьшился на 8,63 %, а в основной группе на 0,87% по отношению к показателям контрольной группы приближаясь к норме. Соотношение МДА /КА при поступлении повысилось на 628,02% по сравнению с контрольной группой, при выписке этот показатель изменился на 52,95% в традиционной группе и на 0,77% в основной группе по сравнению с контролем.

Полученные данные подтверждают, что комплексное применение озонотерапии и фитотерапии способствует в кратчайшие сроки достижению положительного баланса в антиоксидантной системе по сравнению с первой и второй группой.

Показатели жирных кислот в крови при комплексном лечении острых одонтогенных остеомиелитов с применением озоно+фитотерапии приведены в 2- таблице.

2-таблица

Показатели жирных кислот в крови при комплексном лечении острых одонтогенных остеомиелитов с применением озоно+фитотерапии (%)

Параметры	Группы			Озонотерапия+ароматерапия
	Контроль	до лечения	Традиционная	
C(16:0)	28,48±2,02	31,46±2,80	29,62±1,88	28,52±1,76
C(16:1)	6,74±0,44	8,79±0,72*	7,14±0,42	6,78±0,45
C(18:0)	2,32±0,16	2,23±0,14	2,26±0,13	2,32±0,13
C(18:1)	18,63±1,32	16,68±0,82*	17,82±0,91	18,64±0,89
C(18:2)	35,64±2,46	34,04±2,16	35,08±2,22	35,62±2,21

C(18:3)	0,62±0, 04	0,60±0,0 2	0,61±0,0 3	0,62±0,03
C(20:4)	2,86±0, 16	2,23±0,2 1	2,64±0,1 7	2,84±0,14
Другие	2,98±0, 12	1,92±0,1 4*	2,56±0,1 1	2,95±0,12
Σ НЖК	64,49± 0,54	62,34±0, 42	63,29±0, 54	64,50±0,50

*Примечание: * -разница между показателями контрольной и основной групп достоверна.*

Как видно из показателей таблицы в крови у больных с острыми одонтогенными остеомиелитами, пальмитиновая (16:0) кислота по отношению к традиционной группе на 2,5 %, а по отношению к показателям при поступлении на 8,2%. Пальмитолиеновая (16:1) кислота уменьшилась по отношению к традиционной группе на 4,77 %, а по отношению к показателям при поступлении на 32,64%. Олиеновая (18:1) кислота уменьшилась по отношению к традиционной группе на 4,82 %, а по отношению к показателям при поступлении на 1,9%. Также наблюдалось увеличение суммарного содержания ненасыщенных жирных кислот по отношению к традиционной группе на 1,81 %, а по отношению к показателям при поступлении на 3,36%.

У больных с острыми одонтогенными остеомиелитами наблюдалась положительная динамика в уменьшении количественного соотношения микроорганизмов (табл.3).

Research Science and Innovation House

3-таблица

Результаты определения маркеров микроорганизмов в гнойной ране методом ГЖХ при комплексном лечении острых одонтогенных остеомиелитов с применением озонотерапии+ароматерапии

Микроорганизмы	До лечения	После лечения	
		Традиционная	Озонотерапия+ароматерапия
Streptococcus	$Y=6,46 \cdot 10^7 \cdot x$	$Y=3,71 \cdot 10^{3 \cdot x}$	-
St.pyogenes	$Y=4,21 \cdot 10^5 \cdot x$	-	-
St.epidermid.	$Y=4,38 \cdot 10^5 \cdot x$	$Y=2,41 \cdot 10^{3 \cdot x}$	$Y=1,14 \cdot 10^1 \cdot x$
Enterococcus faecalis	$Y=8,24 \cdot 10^5 \cdot x$	$Y=2,18 \cdot 10^{1 \cdot x}$	-
Proteus	$Y=2,71 \cdot 10^5 \cdot x$	$Y=3,31 \cdot 10^{3 \cdot x}$	-
E.coli	$Y=2,33 \cdot 10^8 \cdot x$	$Y=3,26 \cdot 10^{4 \cdot x}$	-
Bacillus sp.	$Y=1,08 \cdot 10^5 \cdot x$	$Y=1,13 \cdot 10^{3 \cdot x}$	$Y=1,43 \cdot 10^1 \cdot x$
Candida Albicans	$Y=4,11 \cdot 10^7 \cdot x$	$Y=2,27 \cdot 10^{4 \cdot x}$	-

*Примечание: * Y - количество маркеров; x - высота пика на хроматограмме, мм.*

Это уменьшение особенно четко прослеживалось в группе с применением при комплексном лечении озонотерапии+ароматерапии. В этой группе начиная с 3-4 дня лечения наблюдалось уменьшение количества всех микроорганизмов, грамотрицательных энтеробактерий и грамположительных кокков, Streptococcus и Str. pyogenes полностью

элиминировались из раны ($p<0,05$). В третьей группе количество Enterococcus faecalis, Proteus и E.colik третьему дню лечения значительно уменьшилось и при выписке из клиники полностью элиминировались, а в традиционной группе эти микроорганизмы сохранялись в малом количестве. Особенно интересно сохранение в гнойной ране бацилл. По мнению ряда исследователей это является положительным фактором в очищении раны, потому что грамм положительные палочки и споросодержащие бактерии (сапрофиты) играют положительную роль выделяя ферменты которые оказывают высокую антагонистическую активность при очищении раны и течении раневого процесса. Это доказывает быстрой регенерацией тканей больных с высоким количеством споровых палочек и сапрофитов.

Таким образом в группе больных с применением озонотерапии+ фитотерапии в течении 3-4 дней количество микроорганизмов резко уменьшилось относительно критического бактериального уровня, а на 6-7 день патогенные и условно патогенные микроорганизмы полностью элиминировались из раны. Такая положительная граммположительная флора нестрадает остается в очаге ускоряет условия усиления саногенеза раны. При традиционной терапии тоже наблюдалось уменьшение микроорганизмов, но это было медленнее чем в группах озонотерапии и озонотерапии+ фитотерапии.

Литература:

1. Изучение жирнокислотного состава крови при остеомиелитах челюстей у детей на фоне озонотерапии С. Шадиев, Д. Фозилова Stomatologiya 1 (3 (68)), 61-64
2. The effectiveness of ozone therapy in treatment of acuteosteomyelitis of jaws in children S.S. Samekhjanovich, F.D. Ulugbekovna European science review, 148-150.
3. Оценка эффективности озонотерапии у больных с флегмонами челюстно-лицевой области по маркерам эндогенной интоксикации М. Азимов, С. Шадиев Stomatologiya 1 (2 (67)), 85-87.
4. Определение показателей микробной флоры у детей с флегмонами челюстно-лицевой области методом газожидкостной хроматографии С. Шадиев, М. Азимов. Stomatologiya 1 (4 (65)), 70-73.
5. Исматов Ф.А. Шодиев С С, Мусурманов Ф.И, Анализ изучения

стоматологического и общего здоровья студентов вузов города самарканда // Биомедицина ва амалиёт журнали. – 2020. – №. 6. – Р. 34-39.

6. Д.Д. Ибрагимов, У.Н. Мавлянова, Ф.Ш. Кучкоров, И. Халилов. Причина развития одонтогенного остеомиелита при несвоевременной хирургической стоматологической тактике (случай из практики). *Scientific progress*. 2021, 2(5). Стр. 287-291.

7. Endogenous intoxication level, contain fatty acids and theirrelationship in children with chronic osteomyelitis of the jaws SS Shadiev, DU Fozilova Int. J. Med. Health Res 2 (12), 9-12

8. Микробиологическая оценка эффективности фитотерапии при флегмонах челюстно-лицевой области. ФИ Мусурманов, СС Шодиев Проблемы биологии и медицины 2 (94), 143

9. Эффективность применения отвара аниса при лечении периимплантитов / Шодиев С.С., Исматов Ф.А., Нарзиева Д.Б., Тухтамишев Н.О., Ахмедов Б.С// Достижения науки и образования, №11(52) 2019 г. Россия Стр.92-95.

10. Изучение жирнокислотного состава крови при остеомиелитах челюстей у детей на фоне озонотерапии С Шадиев, Д Фозилова Stomatologiya 1 (3 (68)), 61-64

11. The effectiveness of ozone therapy in treatment of acuteosteomyelitis of jaws in children SS Samekhjanovich, FD Ulugbekovna European science review, 148-150

12. Оценка эффективности озонотерапии у больных с флегмонами челюстно-лицевой области по маркерам эндогенной интоксикации М Азимов, С Шадиев Stomatologiya 1 (2 (67)), 85-87

13. Comparative evaluation of the use of various materials after tooth extraction in the preimplantation period. S Shodiyev, B Kodirova International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research 3 (2), 23-27

14. Шодиев, С. С., Исматов, Ф. А., Нарзиева, Д. Б., Тухтамишев, Н. О., & Ахмедов, Б. С. (2019). Эффективность применения отвара аниса при лечении периимплантитов. *Достижения науки и образования*, (11 (52)), 99-103.

15. Исматов, Ф. А., Мустафоев, А. А., & Фуркатов, Ш. Ф. (2023).
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕСТЕРОИДНЫХ
АНТИВОСПОЛІТЕЛЬНИХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ІЗЛЕЧЕНЬ



ВЕРХНЕЧЕЛЮСТНОГО АЛЬВЕОЛИТА. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(12), 49-57.

16. Исматов, Ф. А., Шодиев, С. С., & Мусурманов, Ф. И. (2020). Анализ изучения стоматологического и общего здоровья студентов вузов города самарканда. *Биомедицина ва амалиёт журнали*, (6), 34-39.
17. Хасанова, Л. Э., & Исматов, Ф. А. (2020). Комплексная социально-игиеническая характеристика условий, образа жизни и здоровья студентов. преимущества обследования студенческой молодежи. *Проблемы биологии и медицины*, 1, 286-293.
18. Ismatov, F. A. (2022). Abdullaev TZ METHODS OF APPLICATION OF SINGLE-STAGE DENTAL IMPLANTS FOR DIFFERENT DEGREES OF ALVEOLAR ATROPHY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(8), 636-643.
19. Aslidinovich, I. F., & Abdurasulovich, M. A. (2022). STRUCTURE OF SINGLE-STAGE DENTAL IMPLANTS FOR VARYING DEGREES OF ALVEOLAR ATROPHY. *World Bulletin of Public Health*, 10, 156-159.
20. Ismatov, F. A. (2020). Comparative tender characteristics of student dental Health indexes. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research*, (10), 11.
21. Ismatov, F. A. (2023). EVALUATION OF THE EFFICACY OF ALENDRONIC ACID IN DENTAL IMPLANTATION (literature review). *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 1(7), 199-202.
22. Aslidinovich, I. F. (2023). Assessment of the Effectiveness of Alendronic Acid in Dental Implants. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(3), 1186-1188.
23. Khasanova, L. E., & Ismatov, F. A. (2022). INDICATORS OF ORAL HEALTH AT STUDENTS OF THE CITY OF SAMARKAND. *Applied Information Aspects of Medicine (Prikladnye informacionnye aspekty mediciny)*, 25(4), 13-19.
24. Ismatov, F. A., & Mustafoyev, A. A. (2022). DRUG TREATMENT WITH NON-STEROIDAL ANTI-INFLAMMATORY DRUGS JAW ALVEOLITIS. *Frontline Medical Sciences and Pharmaceutical Journal*, 2(03), 88-94.



25. Хасанов, X. Ш., Исматов, Ф. А., & Мардонова, Н. П. (2022). Применение "prf" в качестве остеопластического материала при одонтогенных кистах челюстных костей. *Вестник магистратуры*, (2-1 (125)), 13-14.
26. Хасанова, Л., & Исматов, Ф. (2021). Результаты комплексного стоматологического обследования у студентов высших учебных заведений. *Медицина и инновации*, 1(1), 108-112.
27. Ismatov, F. A., & Emilievna, K. L. (2020). Criteria For Evaluating Student Dental Health Index In Accordance With The «8020» Program Methodology. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 2(11), 99-105.
28. Zafarovich, A. T., & Aslidinovich, I. F. (2022). Use of Single-Stage Dental Implants for Varying Degrees of Alveolar Atrophy. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(3), 782-786.
29. Ibragimov, D. D., Ismatov, F. A., & Narzikulov, F. A. (2022). Results of Complex Treatment with Eludril Antiseptic Solution. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(3), 689-690.
30. Ismatov, F. A., kizi Mardonova, N. P., & Hasanov, K. S. (2022). Morphological experiments to improve the effectiveness of postoperative rehabilitation of cysts in maxillary bones with "prf" osteoplastic material. *World Bulletin of Social Sciences*, 7, 32-34.
31. Ismatov, F., Ibragimov, D., Gaffarov, U., Iskhakova, Z., Valieva, F., & Kuchkorov, F. (2021). ASSESSMENT OF RISK FACTORS INFLUENCING DENTAL HEALTH IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. *InterConf*, 721-732.
32. Ismatov, F. A., & Mustafoev, A. A. (2022). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF NON-STEROIDAL ANTI-INFLAMMATORY DRUGS IN THE TREATMENT OF MAXILLARY ALVEOLITIS. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 4(03), 29-34.
33. Гаффаров, У. Б., Шодиев, С. С., & Исматов, Ф. А. (2018). ВЛИЯНИЕ ПРЕПАРАТА «ХОЛИСАЛ ГЕЛЬ» НА ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОЕ ТЕЧЕНИЕ У ПАЦИЕНТОВ ПОСЛЕ УДАЛЕНИЯ РЕТИНИРОВАННЫХ ТРЕТЬИХ МОЛЯРОВ. ББК 56.6 С 56 СОВРЕМЕННЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ СТОМАТОЛОГИИ: сборник, 37.
34. Ismatov, A. F. FORMATION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS DURING THE

EDUCATIONAL PROCESS OF HIGHER EDUCATION.

35. Ismatov, A. F. THE USE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO PART-TIME STUDENTS.

36. Хасанова, Л. Э., Исматов, Ф. А., Ибрагимов, Д. Д., & Гаффаров, У. Б.
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ
СТОМАТОЛОГИК ҲОЛАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ. МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД ПО
ЗАБОЛЕВАНИЯМ ОРГАНОВ ГОЛОВЫ И ШЕИ, 182.



Research Science and Innovation House

BOLALARDA BURUN HALQUM LIMFOID BEZI GIPERTROFIYASI

Xushvakova Nilufar Jurakulovna

t.f.d. prof. Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son Otorinolaringologiya kafedrasи mudiri

nilumedlor@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-6717-2067>

Ochilov Toir Murod o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son Otorinolaringologiya kafedrasи assistenti

<https://orcid.org/0009-0006-7314-4867>

ochilovtoir99@gmail.com

Annotatsiya. Maqola bolalar otorinolaringologiyasining eng keng tarqalgan muammosi - bolalardagi adenoidlar muammosiga bag'ishlangan. Burun halqum bezi gipertrofiyaning etiologiyasi, diagnostikasi va davolash xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Hozirgi bosqichda ushbu patologiyasi bo'lgan bolalarmi tekshirish va davolashning yagona algoritmini tuzish zarurati mavjud.

Kalit so'zlar: adenoid vegetatsyasi, burun halqum murtagi, etiologiyasi, patogenezi, adenoidit, bez, shilliq qavat, gipertrofiya

ГИПЕРТРОФИЯ НОСОГЛОТИЧНЫЙ ЛИМФИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ДЕТЕЙ

Хушвакова Нилюфар Журакуловна

Д.м.н. проф. заведующая кафедры Оториноларингологии №1

Самаркандского государственного медицинского университета

nilumedlor@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-6717-2067>

Очилов Тоир Мурод углы

Ассистент кафедры Оториноларингологии №1 Самаркандского Государственного Медицинского Университета

ochilovtoir99@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-7314-4867>

Аннотация. Статья посвящена самой распространенной проблеме детской оториноларингологии - проблеме аденоидов у детей. Рассмотрены этиология, диагностика и особенности лечения гипертрофии носоглоточной железы. На современном этапе существует необходимость создания единого алгоритма обследования и лечения детей с данной патологией.

Ключевые слова: аденоидные опухоли, киста носоглотки, этиология, патогенез, аденоидит, железа, слизистая оболочка, гипертрофия.

HYPERTROPHY OF THE NASOPHARYNGEAL TONSIL OF CHILDREN

Khushvakova Nilufar Jurakulovna

Doctor of Medical Sciences. Professor. Head of the Department of Otorhinolaryngology № 1 Samarkand State Medical University

nilumedlor@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-6717-2067>

Ochilov Toir Murod ogl

Assistant, Department of Otorhinolaryngology No. 1,
Samarkand State Medical University

<https://orcid.org/0009-0006-7314-4867>

ochilovtoir99@gamil.com

Abstract. The article is devoted to the most common problem of children's otorhinolaryngology - the problem of adenoids in children. Etiology, diagnosis and treatment features of nasopharyngeal gland hypertrophy are considered. At the current stage, there is a need to create a unified algorithm for examination and treatment of children with this pathology.

Key words: adenoidal growths, nasopharyngeal tonsil, pharyngeal tonsil, etiology, pathogenesis, adenoiditis, gland, mucosa, hypertrophy.

Adenoid vegeatatsiysi yoki adenoidlar burun halqum bezning patologik kattalashishi bo'lib, aniq klinik ko'rinishga olib keladi. Burun halqum bez faqat bolalik va o'smirlik davrida rivojlanadi; bazi hollarda bu bodomsimon to'qimalari gipertrofiyalangan bo'lsa, u adenoidlar deb ataladi va agar bu bodomsimon bezning yallig'lanish belgilari qayd etilsa, bu jarayon adenoidit deb ataladi [7, 12]

Adenoidlar bolalik davridagi eng keng tarqalgan otorinolaringologik kasalliklardan biridir. Ushbu patologiyani aniqlash darajasi maktabgacha yoshdagi har 1000 bolaga 398,8 ta, maktab o'quvchilariga esa 199,2 tani tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning 21% halqum bodomsimon bezning gipertrofiyasi, 3 foizida esa surunkali adenoidit aniqlangan. Maktabgacha yoshdagи bolalarda LOR a'zolari patologiyasi tarkibida adenoidlar barcha kasalliklarning yarmidan ko'pini (53,1%) tashkil qiladi.

Adenoid bezi kattaalshishi (adenoidlar) odatda 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bollarda uchraydi, lekin ular yosh bolalarda ham, kattalarda ham uchrashi mumkin. Adenoidlar o'g'il va qiz bolalarda teng darajada, taxminan 3,5-8% da kuzatiladi [11]. Adenoid bezi kattalashishsining patogenezi va etiologiyasi asosan noaniq bo'lib qolmoqda. Adenoid o'simtalari burun halqumning orqa qismida lokalizatsiya qilinadi, lekin u butun gumbazini to'ldirishi va yon devorlarni eshitish naychalarining faringeal teshiklarigacha kattalashishi mumkin.

Turli omillar (genetik, ekologik, yuqumli) immun tizimida turli xil buzilishlarga olib kelishi mumkin. Immunitet tanqisligi holati fonida, haddan tashqari doimiy antigenik (bakterial yoki virusli) stimulyatsiya limfadenopatiya rivojlanishi bilan halqumning limfold to'qimalarining kompensatsion o'sishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarda halqum bodomsimon bezdagи patologik o'zgarishlarning ustunligi 4-6 yosha kuzatiladigan bolaning immunologik reaktivligi rivojlanishining tanqidiy davri bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Homiladorlik davrida patologik omillarga uzoq muddatli ta'sir qilish GGT tizimining barcha qismlarining muvozanatsiz gormon ishlab chiqarishi bilan funktsional faolligini oshirishga olib keladi, bu esa limfold to'qimalarning ko'payishiga olib keladi.

Timus funksiyasining pasayishi periferik limfold to'qimalarning o'sishini rag'batlantiradi - bodomsimon bezlar, taloq, limfa tugunlari T ga bog'liq zonalarning kengayishi, ularda etuk bo'lмаган T-limfotsitlarning to'planishi, yuqumli kasalliklar, erta yetuklik va B ga bog'liq zonalarning giperplaziysi sharoitida ularning emigratsiyasining kechikishi olib keladi. Qo'shimcha ortiqcha mehnat stressi (uzoq suvsiz davr, mehnat anomaliyalari, ba'zi hollarda bachadonning haddan tashqari qisqarishiga, fetoplasental qon oqimining yomonlashishiga va o'tkir xomilalik gipoksiyaga olib keladigan mehnatni rag'batlantirish) buyrak usti bezlarining charchashiga (gipokortizolizm) va keyingi limfold proliferatsiyasi stimulyatsiyaga olib keladi.

Asosan markaziy asab tizimining perinatal zararlanishi bilan ifodalangan perinatal patologiya bola tanasining turli tizimlarining, shu jumladan immunitet tizimining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy ovqatlanishning qisqa muddatlari, hayotning birinchi yilidagi bolaning kasalliklari (to'yib ovqatlanmaslik, anemiya, ensefalopatiya) va allergik moyillik ham bola tanasining immunologik reaktivligini shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi. Halqum murtaklari limfold halqasining aniq funktional faolligi davrida immunitetning etarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi, ulardagi patologik jarayonlarning, xusan, adenoid kattalashishi ko'rinishida paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. [5].

Klinik ko'rinish odatda yaxshi aniqlanadi. Adenoidlarning asosiy belgilari burundan nafas olishning buzilishi, burunning seroz suyuqlik oqishi, eshitish naychalarining disfunktsiyasi, burunhalqumda ham, burun bo'shlig'ida ham tez-tez yallig'lanishdir. Burundan nafas olishning buzilishi nazofarengeal murtak bezning gipertrofiyasi darajasiga va burun shilliq qavatida, ayniqsa adenoidlar tomonidan kelib chiqqan chig'anoqlarning orqa uchlari kattalashish darajasiga bog'liq. Adenoid o'sishining 3 darajasi mavjud:

I daraja - xoanalar 1/3 qismi adenoidlar bilan yopilgan.

II daraja - xoanalar adenoidlarning 2/3 qismi bilan yopiladi.

III daraja - xoanalar adenoidlar bilan to'liq yopilgan.

Burun halqum murtak bezining gipertrofiyasi atrofdagi yumshoq to'qimalarda dimlangan giperemiyani keltirib chiqaradi, bular: chig'anoqlar shilliq qavati, yumshoq tanglay, orqa tanglay yoylari va hatto paranasal sinuslarda. Adenoidlar ko'pincha adenoidit bilan asoratlanadi [5, 6]. Adenoidlar bilan og'rigan bolalar odatda yomon uxlaydilar, tez-tez xo'rrik otadi va tilning tortilishi tufayli bo'g'ilishni boshdan kechirishlari mumkin; yomon uyqu ko'pincha yomon tushlar bilan birga kechadi. Bola kamharakat va befarq bo'lib qoladi. Adenoid o'simtalari adenoid tuqimasining tanglay pardasiga bosimi va uning dimlangan giperemiyasi tufayli yumshoq tanglayning harakatchanligini cheklaydi, bu esa to'g'ri fonatsiya va artikulyatsiyani buzadi.

Kasallikning uzoq davom etishi bilan bolalar yuz skeletining rivojlanishida buzilishlarni boshdan kechirishadi: doimo ochilib turgan og'iz va pastki jag'ning usishi, qattiq tanglay noto'g'ri rivojlanadi - u baland va tor shakllanadi; Tishlarning noto'g'ri joylashishi tufayli tishlash buziladi. Ushbu o'zgarishlar yuzga xarakterli "adenoid" ko'rinishini beradi [10].

Adenoid vegetatsiyasining diagnostikasi:

- bemorning shikoyatlari va kasallik tarixini to'liq tahlil qilish;
- oldingi rinoskopiya (burun shilliq qavatining anemizatsiyasidan so'ng, xoanani qoplaydigan adenoid egetatsiyasini ko'rish mumkin);
- epifaringoskopiya - adenoidlar yo yarim sharsimon o'simta shaklida, yoylar bilan ajratilgan yoki bir-biridan ajralgan va yuqorida osilgan bo'ladi;
- limfadenoid to'qimalar tomonidan xoanalar yopilish darajasini endoskopik baholash;



- nazofarenksni barmoq bilan tekshirish;

Adenoid vegetatsiyasi bo'lgan bolani tekshirish jarayonida o'xshash klinik ko'rinishga ega bo'lgan bir qator kasalliklar bilan differentsiyal diagnostika qilish kerak. Bosh suyagi asosining yetilmagan angiofibromasi zichlik, notekis sirt va qon ketishining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Xoanal polip silliq sirtga ega, kulrang rangga ega, poyada lateral joylashadi va bitta xoanada paydo bo'ladi. Pastki chig'anoqning giperetrofiyalangan orqa uchlari burun bo'shlig'i tomondan xoanalarni qoplaydi, burun halqum sohasi esa erkin qoladi.

Davolash odatda jarrohlik usuli hisoblanadi, konservativ usullar faqat bodomsimon bez biroz kattalashgan yoki operatsiyaga qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lsa qo'llaniladi. Halqum bodomsimon bezga terapevtik ta'sir ko'rsatish uchun antibakterial vositalar va immun preparatlar qo'llaniladi [5]

Mahalliy glyukokortikosteroidlar va topikal gomeopatik preparatlarning adenoid o'simliklariga foydali ta'siri haqida ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Ba'zi hollarda antigistaminlar samarali bo'ladi [13]

Jarrohlik uchun ko'rsatmalar orasida burun orqali nafas olishning doimiy qiyinchiligi, eshitish naychasingin disfunktsiyasi, surunkali o'rta, obstruktiv uyqu apnesi sindromi kiradi [5, 9].

“Moliya” kafedrasи o`qituvchisi

Mirasror Tirkashev

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushu maqolada ta’lim muassasalarini moliyashtirish manbalarini o’rgandik va ularidan samarali foydalanish yo’llari va istiqbollarini to‘g‘risida fikr va mulohazalar yuritdik. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangidan-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yitakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Shu nuqtai nazardan xususiy oliy ta’lim muassasalaridagi moliyaviy holat tahlil qilingan va ta’lim muassasalarining daromadlari manbalarining barqarorligini ta’minlash yo’llari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asoslab keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: ta’lim muassasalari, davlat-xususiy sherikchiligi, nodavlat ta’lim tashkilotlari, kontrakt, daromadlar, xarajatlar, respublika byudjeti, smeta, shtat birliklari, daromad bazalari, soliqlar, moliyaviy tahlil.

Respublikamizda yaqin yillardan buyon ta’lim tizimiga, xususan oliy ta’lim tizimiga juda keng imkoniyatlar berilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida “Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo‘lgan, raqobatbardosh kadlar tayrlash muqsadida oliygochlар soni 127 taga etkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasining filiallari ochildi. Shuningdek, keyingi 5 yilda oliy t’alimga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming yoshlar uchun talaba bo‘lish imkoniyati yaratildi. Bu –umumiyyamrov 28 foizga etdi, deganidir. Vaholangki, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Davlat grantlari 21 dan 47 mingtaga ko‘paytirilgani, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga oily o‘quv yurtlariga kirish uchun alohida grantlar

atjratilgani yoshlаримиз kelajagini ta'minlashga qaratilgan amaliy e'tiborimiz namunasidir”¹ deb ta'kidlashlari, oliv ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini yangi bosqichga olib chiqishga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda davlatimizda islohotlar faqat iqtisodiyot sohasida emas, boshqa sohalarda ham olib borilmoqda, bu - avvalo, institutsional islohotlar bo'lib, ular eski markazlashtirilgan iqtisodiy tizimni yangi, erkin boshqaruv tizimiga o'tkazishni, uni rag'batlantiruvchi, hayotiy faoliyatga aylantirishni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazarda ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim asoslari, jumladan, quyidagilar bo'ldi:

- respublikaning demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida barqaror ilgarilashi;
- mamlakat iqtisodiyotida radikal o'zgarishlar amalga oshirilishi, respublika xo'jaligining xom ashyo ustun yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarishga izchil transformatsiyasini, mamlakat eksport salohiyati kengaytirilishi;
- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaatlari va ta'lim ustivorligini qaror toptirish;

Ta'lim tizimining samaradorligi uni moliyalashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Davlat ta'lim muassasalarini ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish davlat ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi kerak. Davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি maruzasi // <https://president.uz/uz/lists/view/4463>

ravishda belgilanadi. Davlat ta’lim muassasalari pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko’rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish hisobidan olingan pul mablag‘larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli.

Ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishning qo’shimcha manbalari quyidagilardan iborat:

□□shartnomalar asosida, shu jumladan chet ellik jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hisobidan tushgan mablag‘lar;

□□jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o‘quv-uslubiy va qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni bajarish hisobidan tushgan mablag‘lar;

□□ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni, bajarilgan ishlarni va ko’rsatilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

□□binolar, inshootlar va asbob-uskunalarini ijaraiga berish hisobidan tushgan mablag‘lar;

□□ta’lim tashkilotlarining bo‘sish turgan pul mablag‘larini bank muassasalariga depozitlarga joylashtirish hisobidan olingan pul mablag‘lari (foizlar);


□□davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;

□□bank kreditlari va ssudalari;

□□jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ta’lim tizimini moliyalashtirish manbalarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Research Science and Innovation House



1-rasm. Ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalari²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonida³ O'zbekiston Respublikasining 2030 - yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning

² www.openscience.uz / ISSN 2181-0842

samaradorligini oshirish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish; xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan.

Ta’lim tizimining moliyalashtirish mexanizmining muhim elementi bo‘lib moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Bugungi kunda jahon amaliyotida ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda 2 ta manbadan foydalaniladi:

- byudjet mablag‘lari;
- byudjetdan tashqari mabalag‘lar.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlari eng katta ulushga ega bo‘lib, 2017-yilda ijtimoiy soha xarajatlarining 58,7 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 44,4 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Davlat byudjeti jami xarajatlari tarkibidagi ulushi esa mos ravishda 2017-yilda 32,4 va 2021-yilda 20,9 foizni tashkil etgan holda, 2023-yilda 21,7 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Mamlakatimizda ta’lim tizimini byudjetdan moliyalashtirish hajmi 2023-yilda 2017-yilga qaraganda 2,5 barobarga ortishi rejalashtirilayotganligiga qaramay, uning jami byudjet xarajatlari tarkibidagi ulushi qariyb 11,7 foizga kamaygan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida so‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamda xususiy ta’lim muassasalarining ko‘payganligi e’tirof etish mumkin.

Shuningdek, so‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab o‘zining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy zararini ko‘rsatayotgan pandemiya tufayli ko‘plab davlatlarning asosiy xarajatlari sog‘liqni saqlash sohasiga sarflanmoqda. Bunday holatni mamlakatimizda ham yuzaga kelishi hamda davlat byudjeti tarkibida davlat qarzlarini qaytarish bo‘yicha xarajatlarning ham ortishi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlarining ulushini past darajada qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Moliyaviy mustaqillik berilgandan keyin bir qancha oliy ta’lim muassasalari yaxshigina daromad bilan yilni yakunlagan bo‘lsa, ba’zi oliy ta’lim muassasalari haqida bunday deya olmaymiz.



2023-yilni eng katta daromad bilan yakunlagan oliygoh – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi eng katta salbiy farq Samarqand davlat universitetida kuzatilgan.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi 69 ta davlat oliygohining 2023-yildagi daromadlari va xarajatlari haqida ma’lumotni ochiqladi.

Qayd etilishicha, hisobotda keltirilgan davlat OTMlarning o‘tgan yildagi umumiy daromadi – 8 trln 770 mlrd 728 mln so‘mni, xarajatlari esa 8 trln 102 mlrd 825 mln so‘mni tashkil etgan.

OTM daromadlari quyidagilardan shakllangan:

- budjetdan moliyalashtirilgan mablag‘lar (umumiy daromadlarning 25 foiz);
- to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun tushgan tushumlar (71,6 foiz);
- rivojlantirish mablag‘lari bo‘yicha daromadlar (3,4 foiz).

Respublika kesimida eng ko‘p umumiy daromadlar O‘zbekiston Milliy universiteti (435 mlrd so‘m) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (371 mlrd so‘m), Farg‘ona davlat universiteti (368 mlrd so‘m) Urganch davlat universiteti (365 mlrd so‘m) va Samarqand davlat universitetida (351 mlrd so‘m) shakllantirilgan.

Xulosa: O‘zbekistonda ham shu kabi rejalar o‘zini qanchalik oqlashini vaqt davomida ko‘rib boramiz. Mexanizm to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilib, moliyaviy mustaqil OTMlar oliy ta’limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishiga umid qilib qolamiz. O‘zbekiston Respublikasi boshqa mamlakatlarga qiyosan olganda inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlari borasida ham yaxshi o‘rinlarda turadi. Respublikada Yalpi milliy mahsulotning taxminan 10 % ga yaqini, davlat budgetining esa 35% atrofidagi moliyaviy mablag‘lari ta’lim tizimiga yo‘naltiriganligi quvonarli hol. Ammo ta’limga sarf-harajatlar o‘sishi nafaqat budjetdan moliyaviy mablag‘larni ko‘paytirish, qolaversa shakllanish mexanizmi yetarlicha tadqiq etilmagan budjetdan tashqari yangi manbalar bilan ham ta’minlandi. Ilgari moliyaviy ta’minalash mexanizmi ta’lim muassasalari ehtiyojlariga mablag‘lar ajratish qat’iy reglamentlangan tartibiga asoslangan edi. Hozir esa oliy o‘quv yurtlariga moliyaviy-xo‘jalik mustaqilligini berishni nazarda tutuvchi moliyaviy ta’minalash aralash modeli borgan sayin keng tarqalmoqda. Moliyaviy mablag‘ bilan ta’minalash hozirgi tizimi ta’lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini inobatga olgan holda tashkil etilgan.



Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. J.U.Salokhiddinov Prospects for the development of digitized financial services in commercial banks journl of ethics and governance 03 Issue: 10 / Oct - 2023 ISSN: 2181-2616
2. J.U.Salokhiddinov N.M.Murtazoyev prospects for attracting investments and improving Journal of Advanced Research and Stability efficiency Issue: 10 | Oct - 2023 ISSN: 2181-2608
3. Ruziev, Z. I. (2022). The Role of Taxes in the Formation of State Budget Revenues. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(09), 58-65.
4. Ruziev, Z. I., Kadirov, L. K., Ostonova, M. E., Baratov, B. S., & Ortig, S. (2020). The role of income tax individuals in replenishing state budget revenues. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2033-2037.
5. Murtazayev, N. R., & Saloxiddinov, J. U. (2023). INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 56-60.
6. Egamberdiyev Muradulla Farhad ugli, Salokhiddinov Jaloliddin Ulugbek ugli 2024 For the Research Paper Title “IMPACT OF LOCAL BUDGET REVENUES ON SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF TERRITORIES” Volume04 Issue05 ISSN 2750-8587 SJIF20247.853 ArticleLink:<https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/1785> Pages29-32.
7. MY Tirkashev, «THE ROLE OF SMALL SCALE BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF MARKET ECONOMY», МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью “Моя профессиональная карьера”, 34, 2022, 97-102 с.;
8. M Yu Tirkashev, NB Eshtemirov, «FACTORS OF EFFECTIVE USE OF MECHANISMS TO IMPROVE FINANCIAL CONTROL», 2022, Вестник магистратуры, 3-2 (126), 111-112 с.;
9. Kh.Q.Raufov Analysis of the Development of The Digital Economy in Our Country. International Journal of Scientific Trends- ISSN2980-4299 ISSN(print) 2980-4329, Volume: 2, Issue 12 December - 2023



TECHNOLOGY AND INNOVATION IN FINANCIAL SERVICES: INVESTIGATE THE ADOPTION OF FINTECH SOLUTIONS AND THEIR IMPACT ON ACCESSIBILITY, EFFICIENCY, AND SECURITY IN UZBEKISTAN'S FINANCIAL MARKETS

Jo‘rayev Og‘abek,

a student of the MT-93 group at Tashkent State University of Economics,

ogabekjorayev081@gmail.com

Abstract: The advent of technology has revolutionized the financial services sector, transforming the way financial institutions operate, interact with customers, and provide services. The fusion of technology and innovation in financial services has given birth to a plethora of innovative products, services, and business models that have disrupted the traditional financial landscape. This article explores the impact of technology and innovation on the financial services sector, highlighting the benefits, challenges, and future prospects.

Keywords: science and technology, financial markets, efficiency, security processes

Introduction: What is this new technology and what is it doing to the financial sector of our economy? This is the subject of the following analysis. Into what is this technology diffusing? The primary focus is on the technology and the financial services industry. Regulatory, competitive, fiscal, monetary, public policy interface, accounting information system, and related subjects are only briefly examined. Even within the financial industry, the focus is on commercial banking. However, the new technology screens for loan credit worthiness and decision/front-end activities are similar to those performed by other financial intermediaries and many firms (retail and service) maintain accounting information systems. These activities might employ similar demand (pull) or supply (push/range) technology. Discussing the financial services industry will then provide a backdrop for examination of related industries as well as techniques and concepts that may be employed in applied research. In fact, banking has developed many of the techniques and concepts that are now diffusing throughout this market. What banking was yesterday, other



financial intermediaries and firms are developing today and attempting to implement or insert in their control or decision-making processes.

Computer-based technology has been rapidly diffusing into the financial services industry during the past two decades. Developments in speed, capacity, reliability, and cost of computer equipment have opened new vistas for financial institutions. Coupled with this, knowledge as to how to use this new information technology and what it can do for the financial institution has also advanced. Interdependence between the computer and financial systems industries is being enhanced as both industries push back barriers. Modern computer and communication technology is viewed as greatly enhancing the productivity of financial intermediation and other financial decision-making processes. It results in new products, new services, and more competitive firms. Management of financial institutions has responded with substantial spending for computer capital, particularly during the past seven or eight years. Yet it is also the capital budget that plays a pivotal role.

Significance of Technology in Finance

Does it matter if we demand technological innovation in these areas or its supply? In general, it matters vitally for growth and thus for the viability of redistributive regimes. Given that these existing services are of such fundamental significance, why should we innovate in others, or push the technologies to new generic frontiers that might actually reduce the sovereignty gains offered by these inframarginal technologies?

Sovereign infrastructure concerns are important in considering changes in the latter. For much of history, the most important "inframarginal" issues relevant to finance have been those dealing with sovereign concerns. Saving to buffer desired consumption against transitory shocks has been the most widespread financial service. A number of technologies have been created to improve the performance of bringing them to consumers. The existence of money as a store of value is a significant reason for both these infrastructures. In a sense, the flow of money is a representation of many impositions of a positive nominal interest rate on short-term government assets.

One of the most significant impacts of technology on financial services has been the emergence of digital channels for customer engagement. Online banking, mobile banking apps, and digital wallets have enabled customers to access financial



services from the comfort of their own homes, 24/7. This shift towards digital channels has not only enhanced customer convenience but also reduced operational costs for financial institutions. According to a report by the Federal Reserve, digital channels are reducing branch and ATM usage, resulting in cost savings of around 15% to 20% for banks.

Moreover, technology has enabled financial institutions to offer personalized services to customers. The use of artificial intelligence (AI), machine learning (ML), and data analytics has enabled financial institutions to analyze customer behavior, preferences, and needs, providing tailored financial products and services. For instance, AI-powered chatbots are being used to provide 24/7 customer support, while ML algorithms are being used to detect fraudulent transactions. The use of data analytics has also enabled financial institutions to identify new business opportunities, improve risk management, and optimize resource allocation.

Fintech companies have been at the forefront of innovation in financial services, leveraging technology to provide innovative products and services that were previously unavailable. Peer-to-peer lending platforms, digital payment systems, and robo-advisory services are just a few examples of the innovative solutions that fintech companies have brought to the market. These innovations have not only disrupted traditional banking models but also provided access to financial services for underserved populations.

However, the integration of technology and innovation in financial services also poses significant challenges. Cybersecurity threats, data privacy concerns, and regulatory hurdles are just a few of the risks associated with the increased use of technology in financial services. The escalation of cyber-attacks on financial institutions has resulted in the loss of sensitive customer data, financial losses, and reputational damage. The Cambridge Analytica scandal, which involved the unauthorized use of Facebook user data, highlights the importance of data privacy in the digital age.

Furthermore, the rapid pace of innovation in financial services has created regulatory challenges. Existing regulatory frameworks are often inadequate to address the risks and opportunities posed by fintech companies. The lack of clarity around regulations has created uncertainty, making it challenging for fintech companies to navigate the regulatory landscape. The European Union's Second



Payment Services Directive (PSD2) is an example of regulatory efforts aimed at promoting innovation while ensuring consumer protection and financial stability.

Despite the challenges, the future prospects for technology and innovation in financial services are promising. The use of blockchain technology, for example, has the potential to transform the way financial transactions are recorded, verified, and settled. The use of blockchain technology can increase transparency, reduce costs, and enhance security in financial transactions. The development of central bank digital currencies (CBDCs) is another area of innovation that has the potential to revolutionize the financial system.

The adoption of fintech solutions has been phenomenal, with an estimated 96% of fintech startups experiencing significant growth between 2015 and 2020 (KPMG, 2020). This growth can be attributed to the increasing demand for convenient, secure, and affordable financial services. Fintech solutions have filled a critical gap in the market by providing innovative products and services that cater to the needs of the underserved and unbanked populations.

One of the most significant impacts of fintech solutions has been the increase in financial inclusion. Traditionally, access to financial services was limited to those with a physical presence, identity documents, and a stable income. Fintech solutions have eliminated these barriers, enabling individuals to access financial services remotely, using digital platforms and mobile devices. For instance, mobile payment systems, such as M-Pesa in Kenya and Tanzania, have enabled millions of people to access financial services, including money transfers, loan applications, and savings accounts (GSMA, 2020).

Another significant impact of fintech solutions has been the reduction in transaction costs. Traditional banking systems are often characterized by high transaction fees, which can be prohibitively expensive for low-income individuals and small businesses. Fintech solutions, such as digital wallets and cryptocurrencies, have significantly reduced transaction costs, making financial services more affordable and accessible (BIS, 2019). For example, the cost of sending remittances has decreased by up to 70% with the advent of digital payment platforms (World Bank, 2020).

In addition to increasing financial inclusion and reducing transaction costs, fintech solutions have also improved the accessibility of financial services. Digital platforms have enabled individuals to access financial services 24/7, eliminating the



need for physical branch visits and lengthy application processes. Fintech solutions have also enabled real-time settlements, reducing the time it takes to complete financial transactions (BIS, 2019).

Despite the numerous benefits of fintech solutions, there are several challenges that need to be addressed. One of the primary concerns is the lack of regulatory clarity, which has led to concerns about data privacy, cybersecurity, and compliance (FSB, 2020). Furthermore, the lack of standardization in fintech solutions has led to interoperability issues, making it difficult for different systems to communicate with each other (IMF, 2020).

Another challenge is the digital divide, which refers to the unequal distribution of digital literacy and access to digital technologies (OECD, 2019). Fintech solutions require a certain level of digital literacy, which can be a barrier to adoption in low-income and rural areas. Moreover, the reliance on technology can exacerbate existing social and economic inequalities, particularly in regions with limited digital infrastructure.

To overcome these challenges, regulators and policymakers must work together to create a conducive environment for fintech innovation. This can be achieved through the development of clear regulatory frameworks, standards, and guidelines that ensure consumer protection, data privacy, and cybersecurity. Furthermore, investments in digital infrastructure, education, and awareness programs can help bridge the digital divide and promote financial literacy.

Conclusion.

In conclusion, the fusion of technology and innovation has transformed the financial services sector, enabling customers to access financial services in ways that were previously unimaginable. While there are challenges associated with the increased use of technology in financial services, the benefits of innovation, including enhanced customer convenience, improved efficiency, and increased accessibility, far outweigh the costs. As the financial services sector continues to evolve, it is essential for financial institutions, fintech companies, and regulatory bodies to work together to harness the potential of technology and innovation to create a more inclusive, efficient, and sustainable financial system.

In the words of Christine Lagarde, President of the European Central Bank, “The future of finance will be shaped by the interplay between technology,



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**
VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

innovation, and regulation." As we move forward, it is essential to strike a balance between promoting innovation and ensuring financial stability, consumer protection, and data privacy. By doing so, we can unlock the full potential of technology and innovation in financial services, creating a brighter future for generations to come.

References:

1. BIS (2019). Fintech and the future of financial intermediation. Bank for International Settlements.
2. FSB (2020). FinTech and financial stability. Financial Stability Board.
3. GSMA (2020). The mobile economy 2020. GSM Association.
4. IMF (2020). Fintech and financial stability. International Monetary Fund.
5. KPMG (2020). Fintech industry report 2020. KPMG International.
6. OECD (2019). Bridging the digital divide. Organisation for Economic Co-operation and Development.
7. World Bank (2020). Remittance prices worldwide. World Bank Group.



Research Science and Innovation House

Xalqaro huquqda sanksiyalarining turlari va shakllari.

**O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi,
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Mehnat huquqi yo‘nalishi magistranti
Hakimov Sherzod +998915631971
sherezodhakimov71@icloud.com**

Annotatsiya

Ushbu maqola xalqaro huquqda sanksiyalarining turli shakllarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Sanksiyalar, odatda, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish yoki tajovuzkor davlatlarni jazolash maqsadida qo‘llaniladi. Maqolada iqtisodiy sanksiyalar, savdo sanksiyalari, moliyaviy sanksiyalar, diplomatik sanksiyalar va harbiy sanksiyalar kabi turlar ko‘rib chiqiladi. Har bir sanksiya turi amaliy misollar bilan tahlil qilinadi va ularning samaradorligi va xalqaro huquqqa muvofiqligi muhokama qilinadi. Maqola sanksiyalarining global siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga ta’sirini ham tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar:

Sanksiya, Xavfsizlik Kengashi, Xavfsizlik, Inson Huquqlari, Rezolyutsiya, Diplomatik sanksiyalar, Iqtisodiy sanksiyalar, Harbiy sanksiyalar.

Kirish

Sanksiyalar xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash yoki buzish uchun muhim va juda kuchli vositalardan biri hisoblanadi. 1980-yilgacha BMT tomonidan ikki marta iqtisodiy sanksiya qo‘yilgan. Fuqarolar urushi tugagandan so‘ng BMT funksiyalari qayta ko‘rib chiqildi va Xavfsizlik Kengashi ko‘proq sanksiyalar qo‘llashni boshladi. Misol uchun, 1990-yildagi Iroqning Quvaytni bosib olishiga aloqador bo‘lgan sanksiyalar. 1990-yillar sanksiyalar 10 yilligi deb nomlandi bu sanksiyalarining asosiy qismi BMT sanksiyalari deb atalgan.

Keyinchalik BMT doirasida bo‘limgan sanksiyalar soni ham ko‘paya boshladi. AQSH o‘z sanksiyalarni Kuba va boshqa yerlarda saqlashda davom etayotganda, Afrika mintaqaviy tashkilotlari, Afrika Ittifoqi va Yevropa Ittifoqiga o‘xshagan hududiy tashkilotlar Xavfsizlik Kengashi mandatiga aloqador bo‘limgan sanksiya choralarini qo‘llashda asosiy rol o‘ynovchilar bo‘lishni boshladi: misol uchun,



avtanom va bir tomonlama sanksiyalar. Bu avtanom sanksiyalarning ba’zilari BMT sanksiyalari kabi bir xil maqsadda qo‘yilgan edi.

1990-yil Iroqqa qo‘yilgan sanksiyalar inson huquqlariga nisbatan salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. Natijada sanksiyalarni qayta ko‘rib chiqish boshlandi va ularni ko‘proq tasirli va inson huquqlari uchun kamroq salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladigan darajada qayta rivojlantirish asosiy maqsad bo‘lib xizmat qildi¹. Sanksiya choralarini aniq bir darajada takomillashtirildi. Yuqoridagilarga misol tariqasida 2008-2010-yillardagi Eron siyosatini o‘zgartirish va uni atom bombasidan foydalanmaslik to‘g‘risidagi shartnomaga qo‘shilishga undash uchun BMT va BMTga aloqador bo‘lmagan boshqa tashkilotlar tomonidan qo‘yilgan sanksiya choralarini ko‘rsata olamiz.

Sanksiyalarning qonuniy yoki qonuniy emasligi masalasi xalqaro hamjamiyat doirasida muhokama qilina boshladi, chunki sanksiya choralarini noqonuniy harakatlarni ham o‘z ichiga olar edi.

Asosiy qism.

Sanksiyalar – huquqbuzar davlatga nisbatan ko‘riladigan chora. U xalqaro tashkilotlar (universal va mintaqaviy), bir guruh davlatlar yoki alohida davlat tomonidan qo‘llanishi mumkin. Sanksiyalarning hajmi va turlari jinoyatning og‘irlik darajasiga bog‘liq. Masalan, agressor davlatga nisbatan quyidagi majburlov choralarini qo‘llanishi mumkin: suverenitetini vaqtincha cheklab qo‘yish; hududining bir qismini ajratib olish; urushdan keyingi okkupatsiya (harbiy kuchlardan mahrum qilish) va qurolli kuchlar tarkibini qisqartirish yoki ularga ega bo‘lishni taqiqlash; agressor davlatning tinchlik va insoniyatga qarshi harbiy jinoyat sodir etganlikda aybdor jismoniy shaxslarni odil sudlovga tortish bo‘yicha yurisdiksiyasini cheklab qo‘yish va boshqalar. Sanksiya so‘zi Stricto sensu so‘zidan olingan bo‘lib, huquqga ega bo‘lgan organ tomonidan xalqaro huquq subyektlarining xalqaro huquqni buzganligi uchun amalga oshiriladigan majburlovchi chora hisoblanadi. Huquqga ega bo‘lgan organ huquqiy sistema orqali boshqariladigan jamiyat nomidan ish olib borishga haqli.

Sanksiyalarni huquq nazaryasiga ko‘ra taxlil qilamiz, qonunga yoki qoidalar bo‘ysunmaslik oqibatida qo‘llaniladigan jazolar yoki boshqa majburlash

¹ Hufbauer, Gary Clyde, Jeffrey J. Schott and Kimberly Ann Elliott, Economic Sanctions Reconsidered: History and Current Policy. Washington, DC: Institute for International Economics, 1990 (second edition). p. 2.



vositalaridir. Jinoyat huquqida jazo choralari sifatida qamoq yoki o‘lim jazosi, axloq tuzatish ishlari yoki og‘ir jarimalar kabi jiddiy jazo shaklida bo‘lishi mumkin. Fuqarolik huquqida esa sanksiyalar odatda da‘vo ishtirokchisiga yoki ularning advokatiga nisbatan ish yuritish qoidalarini buzganlik yoki sud jarayonini suiste‘mol qilganlik uchun undiriladigan jarimalar hisoblanadi.

Garchi xalqaro sanksiyalar tushunchasining asosi yuqoridagi nazariyadan chetga chiqmasada, kengroq ma’no va mazmun kasb etadi. Xususan, xalqaro sanksiyalar bu - davlatlar, ko‘p tomonlama yoki mintaqaviy tashkilotlarning davlatlar yoki tashkilotlarga milliy xavfsizlik manfaatlarini yoki xalqaro huquqni himoya qilish, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdidlardan himoya qilish uchun diplomatik sa‘yharakatlarining bir qismi bo‘lgan siyosiy va iqtisodiy qarorlardir. Demak, xalqaro hamjamiyat u yoki bu davlat yoki rejim inson huquqlarini buzayotgan, urush olib borayotgan yoki xalqaro tinchlik va xavfsizlikni xavf ostiga qo‘ygan hollarda, mamlakat yoki rejimning xatti-harakatlarini o‘zgartirish uchun sanksiyalardan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda bugungi kunda xalqaro sanksiyalar davlatlar o‘rtasida kelishuv va urush o‘rtasida turadi, ya’nikim diplomatik kelishuv befoyda bo‘lgan taqdirda, ammo harbiy javob qaytarish ham o‘z o‘rnida noo‘rin yoki imkonsiz bo‘lgan vaziyatda, ko‘pincha uchinchi yo‘l sifatida sanksiyalar maydonga keladi.

Sanksiyalar qo‘rquitadigan yoki adolatsiz choralarni o‘z ichiga olmaydi, aksinch ular qonuniy choralardan iborat. BMT Xavfsizlik Kengashi odatda sanksiyalarni tinchlikka xavf, tinchlikning buzilishi yoki agressiyaga qarshi qo‘llaydi. Alovida shaxs yoki huquqqa ega bo‘lgan organ qaroriga aloqador bo‘lmagan davlatlar guruhi tomonidan qo‘llanilgan sanksiyalar sanksiyalarning qatiy tarifiga kirmaydi.

Yuqorida sanksiya tushunchasi nima ekanligi va kimlar tomonidan qo‘llanilishi haqida umumiy ma’lumotga ega bo‘ldik. Endi esa sanksiya turlari va shakllarini tahlil qilamiz.

Davr rivojlanganligi sari sanksiyalarni ham turlari ko‘payib bordi. Hozirgi payta sanksiyalarning bir qator turlarini uchratishimiz mumkin. Ularga quyidagilarni misol qilib keltira olamiz:

- Iqtisodiy sanksiyalar-davlatlar bilan sanvdo aloqalarining tugatilishi
- Diplomatik sanksiyala-davlatlar bilan diplomatik aloqalarning to‘xtatilishi yoki elchilarni chaqirib olish.

- Harbiy sanksiyalar - quroq embargosi (qurollarni, himoya kiyimlarini, harbiy transport vositalarini va boshqalarni taqiqlash), masalan, raketalar yoki atom qurollarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan uskunalarini yetkazib bermaslik; qurollanish dasturlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan nozik tovarlar, dasturiy ta’minot va texnologiyalar uchun qo’shimcha ruxsatnomalar bermaslik²;

- Sport sanksiyalari - bir mamlakat xalqi va jamoalarining xalqaro musobaqalarda ishtirok etishiga to’sqinlik qilish;

- Atrof-muhitga oid sanksiyalar - atrof-muhitga oid sanksiyalar boshqa sanksiya turlari kabi iqtisodiy va siyosiy masalalarni o‘z ichiga oladi. Atrof-muhitga oid sanksiyalar va qonunlar nisbatan yangi bo‘lsa-da, atrof-muhit muammolari bo‘yicha so‘nggi tashvishlar odamlar va hukumatlarni muammolarni hal qilishda faol hamkorlik qilishga undamoqda

Yuqorida sanalganlardan tashqari quyda keltirilga sanksiyalarni keltirib o‘tish mumkin:

- muayyan shaxslar/kompaniyalar uchun kreditlar bo‘yicha cheklovlar;
- ayrim shaxslar/kompaniyalarning, hattoki davlatlarning aktivlarini muzlatish;
- ba’zi odamlar uchun sayohat va viza cheklovleri (vizani taqiqlash)

Sanksiyalarning eng tasirli va keng miqyosda qo‘llaniladigan turi hisoblangan iqtisodiy sanksiyalar to‘g`risida chuqurroq malumot bersak. Iqtisodiy sanksiyalar savdo to‘sirlari, tariflar va moliyaviy o‘tkazmalarning cheklanishi shaklida yuzaga chiqadi³.

Iqtisodiy sanksiyalar faqatgina iqtisodiy munosabatlar uchungina qo‘yilib qolmay, balki ular xalqaro xamjamiyat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar kelib chiqqan holatlarda qo‘yilishi ham mumkin. Iqtisodiy sanksiyalar xalqaro va ichki munosabatlardagi maqsadlarga erishish uchun keng qo‘llaniladi.

Iqtisodiy sanksiyalarning tasirliligi masalasi juda munozarali hisoblanadi. 1990-yildan boshlab BMT Xavfsizlik Kengashi iqtisodiy sanksiyalarni

² Elliott, K A.(1998). “The Sanction Glass: Half Full or Completely Empty?” International Security, p 50-65

³ Caruso, R. (2003). The impact of International Economic Sanctions on Trade: Empirical Analysis. Peace Economic, Peace Science, and Public Policy. p 14

ko‘plab tashkilotlar va shaxslarga qo‘yishni boshladi, lekin dastlabki o‘n yilliklarda embargolar juda keng tarqalgan edi⁴.

Embargolar ham iqtisodiy sanksiyalar kabi bir xil hisoblanadi. Ammo ular juda qattiq choralarni o‘z ichiga oladi(embargo so‘zi ispan tilidan olingan bo‘lib mavhum degan manoni bildiradi ular asosan savdodagi savdo to‘sirlari ma`nosini bildiradi, lug`aviy manosiga keladigan bo‘lsan uzoq degan manoga ega hisoblanadi. Embargolar asosan davlatlar, bir guruh davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni butunlay yoki qisman uzushni anglatadi va juda kuchli bo‘lgan diplomatik choralarni o‘z ichiga oladi. Embargolar asosan qonuniy bo‘lgan savdo uchun to‘sirlarni o‘z ichiga oladi va urush belgilaridan biri hisoblanadigan blokadalarini ,ya`ni oziq-ovqat, quroq yoki dori-darmon ta`minotini taqiqlaydi. Embargo holatida import va eksport taqiqlanishi mumkin, sifat uchun kvota yaratilishi mumkin, soliq to‘sirlari, bank hisobining muzlatilishi yoki mol-mulkning muzlatib qo‘yilishi holatlari kuzatiladi yoki malum bir maxsulotning tashish jarayonini taqiqlab qo‘yish .

Iqtisodiy sanksiyalar odatda chet davlatlarning quroli sifatida ishlataladi. Ular asosan yuqori siyosiy va iqtisodiy mavqeyga ega bo‘lgan davlatlar tomonidan kichik davlatlarga nisbatan ishlataladi. Misol uchun ma`lum bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatning xavfsizligiga salbiy tasir ko‘rsatilayotgan bo‘lsa yoki o‘z fuqarolariga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘layotgan bo‘lsa bunday holatlarda odatda iqtisodiy sanksiyalar qo‘llaniladi.

Iqtisodiy sanksiyalarning tasirliligi darajasiga keladigan bo‘lsak. 2015-yilgi Neuenkinch va Neumeirelarning yozib chiqargan ilmiy maqolasiga ko‘ra, BMT sanksiyalari sanksiya qo‘yilgan davlatning GPDsining o‘sishini yiliga 2,3 va 3.5 foizga kamaytirmoqda. BMT sanksiyalari juda keng miqqosda qo‘yilgan holatlarda esa bu holat yiliga 5 foizgacha oshganligi aniqlangan. Bir tomonlama AQSH anksiyalariga keladigan bo‘lsak, ular BMT sanksiyalari kabi juda ta`sirli bo‘la olmagan, lekin ular ham GPDning yiliga o‘rtacha 0.5 ,0.9 foizga tushishiga sabab bo‘la olgan.

Raqibga sanksiya qo‘llash ham joriy etayotgan mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum darajada ta’sir qiladi. Import chekllovlar e’lon qilingan bo‘lsa, joriy qiluvchi

⁴ <https://www.un.org/>

mamlakatdagi iste'molchilar tovarlarni tanlashda cheklangan bo'lishi mumkin. Agar eksport chekllovlar o'rnatilsa yoki sanksiyalar joriy etilayotgan mamlakat kompaniyalariga maqsadli davlat bilan savdo qilishni taqiqlasa, joriy qiluvchi mamlakat raqobatdosh mamlakatlarga bozorlar va investitsiya imkoniyatlarini yo'qotishi mumkin.

Hufbauer, Schott va Elliot (2008) ta'kidlashicha, rejim o'zgarishi iqtisodiy sanksiyalarning eng tez-tez uchraydigan tashqi siyosat maqsadi bo'lib, ular joriy qilingan holatlarning 39 foizdan sal ko'proq qismini tashkil qiladi. Hufbauer va boshqalar. Ularning ta'kidlashicha, o'z tadqiqotlarida o'rganilgan ishlarning 34 foizi muvaffaqiyatli bo'lgan.

Robert A. Pape o'z tadqiqotini o'rganib chiqqach, u xabar qilingan 40 ta muvaffaqiyatdan atigi 5 tasi samarali bo'lganini ta'kidladi, muvaffaqiyat ko'rsatkichini 4% gacha pasaytirdi. Har qanday holatda ham, ularning maqsadlariga nisbatan sanktsiyalarning haqiqiy muvaffaqiyatini o'lchashning qiyinligi va kutilmagan nuanslari tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda va hali ham muhokama qilinmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, rejim yoki mamlakat nima uchun o'zgarishini aniqlash qiyin (ya'ni, agar bu sanktsiya yoki o'ziga xos beqarorlik bo'lsa) va ma'lum bir harakatning to'liq siyosiy ta'sirini ikki baravar o'lchash qiyin.

Britaniyalik diplomat Jeremi Grinstok sanktsiyalar nega ular unchalik samarali bo'limgan taqdirda ham joriy etilishini tushuntirar ekan, sanktsiyalar samarali ekanligi ma'lum bo'lgani uchun emas, balki "Agar hukumatlarga bosim o'tkazmoqchi bo'sang, so'zlar va harbiy harakatlar bilan maqsadga erishib bo'lmaydi". Belgiyalik huquqshunos Mark Bossuyt kabi sanksiyalar tanqidchilaridan biri nodemokratik rejimga sanksiyalarning qanchalik tasirli ekanligi masalasini baxsli deb topadi. Uning fikricha nodemokratik rejimdagi davlat hukumati xalq irodasiga e'tibor qaratmaydi.

Biror davlatga nisbatan sanksiyalar qo'llanilsa, u o'zining iqtisodiy siyosatini o'zgartirish orqali ularni yumshatishga harakat qilishi mumkin. Veto qo'yuvchilarning hajmi hukumat status quosiyosatini o'zgartirishga urinayotganda qancha cheklovlarga duch kelishini aniqlaydi va veto ishtirokchilarining hajmi qanchalik katta bo'lsa, yangi siyosatlarni qo'llab-

quvvatlash shunchalik qiyin bo‘ladi, bu esa sanksiyalarini yanada samaraliroq qiladi⁵.

Franchesko Giumelli, "ko‘pchilik tadqiqotchilar eng ishonarli (va samarali) deb hisoblashi mumkin bo‘lgan sanktsiyalar to‘plami", ya’ni "markaziy bank aktivlari va suveren jamg’armalariga" qarshi BMT sanksiyalarini "barcha turdagি sanktsiyalar"dir deb hisoblaydi.

Yuqorida bir qator takidlab o‘tkanimizdik iqtisodiy sanksiyalar uchun bir qancha kritik qarashlar mavjud . Ushbu sanksiyalar asosan xalqaro huquq normalarini buzgan hukumatlarga enas balki oddiy fuqarolar manfaatiga judda katta salbiy tasir ko‘rsatadi. Peksenning fikriga ko‘ra iqtisodiy sanksiyalar oddiy fuqarolarning hayotiga yanada og`ir salbiy oqibatlar uchun sabab bo‘ladi va inson huquqlarining buzilishiga olib keladi.

Sanksiyalar sanksiya qo‘ylgan davlatlarning kompaniyalarini va korparatsiyalarini uchun ham juda salbiy tasir ko‘rsatadi. Ular o‘z maxsulotlarini import yoki eksport qilish jarayonida to‘siqlarga uchraydilar va ularning yillik daromadi xajmi ham tushishni boshlaydi. Ba`zi holatlarda kompaniyalar bankrotga uchrashi ham kuzatiladi.

Endigi navbatda iqtisodiy sanksiyalarini qo‘llash amalyotini AQSH misolida ko‘rib chiqsak. AQSH Kongresi va sobiq prezidentlardan biri hisoblangan Tomas Jeforson tashabbusi bilan 1807-yilda AQSH Embargo Acti tuzildi. Ushbi akning asosiy maqsadi Britaniya va Fransiyani AQSH huquqlarini hurmat qilishga undash edi, lekin ushbu harakatlar behuda ketdi. Keling AQSH tomonidan qo‘ylgan sanksiyalarga amaliy misol keltirsak.

AQSH hukumati tomonidan 1958-yil 14-mart kuni Kuba ustida o‘z diktatorligini o‘rnatgan Fidel Castro hukumatiga qarshi qo‘ylgan embargolar. Dastavval ushbu sanksiyalar asosan qurolni sotish taqiqlagan bo‘lsa, keyinchalik ushbu sanksiyalar keng miqyosda qo‘llanila boshlandi. 1962-yil 7-fevralidan boshlab esa, Kuba bilan deyarli barcha savdo aloqalari taqiqlandi⁶. Bu embargolar hozirgi kungacha saqlanib qolgan va tarixdagi eng uzoq vaqt

⁵ Collins J.J., Bowdoin G.B. (1999) Beyond Unilateral Economic Sanctions: Better Alternatives for U.S. Foreign Policy. Washington DC: Center for Strategic and International Studies (CSI).

⁶ U.S. Department of State. (2014). U.S.-Cuba Relations. Retrieved from <https://www.state.gov/u-scuba-relations>

davom etayotgan embargo hisoblanadi. Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, ushbu cheklolvar Kuba hukumarini o‘zgartirishga tasir ko‘rsata olmagan. Sobiq AQSH Prezidenti Barak Obama 2011-yilgi nutqida Kubaning hozirgi hukumati tomonidan inson huquqlari va erkinliklari ta`minlanmas ekan, AQSH o‘z embargolarini saqlashda davom etishini takidlagan⁷.

Endi Rossiya tomonidan qo‘yilgan sanksiyalar amalyotini ko‘rib chiqsak. Rossiya o‘zining siyosiy maqsadlariga erishish uchun ko‘pgina iqtisodiy sanksiyalardan foydalangan . Rossiya hukumati asosan Sobiq Sovet Respublikasi a`zolari bo‘lgan Moldava, Ukraina va Jorjaga nisbatan sanksiyalar qo‘ygan , chunki ushbu davlatlar Yevropa Itifoqi va NATOga a`zo bo‘lishni rejalashtirgan edi. Shuningdek Rossiya tomonidan Rossiya fuqarolarining huquq va erkinliklarini buzgan AQSH fuqarolariga qarshi sanksiya deb talqin qilinuvchi Dima Yakovlev Qonunini qabul qilgan va ushbu qonunda Rossiyaga kirishi taqiqlangan AQSH fuqarolari aks ettirilgan.

Endigi e`tiborimizni psiiixolagik urush deb hisoblanuvchi va sanksiyalarning bir turi hisoblangan sport sanksiyalarini yanada chuqurroq tahlil qilish va amaliy misollarni keltirishga qaratadigan bo‘lsak . Sport sanksiyalari 1992-1995-yillar oralig`ida bir qator urush jinoyatlari sodir etilgan Federal Yugoslaviya Respublikasiga nisbatan BMT Xavfsizlik Kengashining 757-rezolyutsiyasiga ko‘ra qo‘llanilgan.

BMT Xavfsizlik Kengashi 757- rezolyutsiyasida quyidagilar belgilab qo‘yilgaan:

- Yugoslaviyan archa turdagи tovarlar va maxsulotlarning importini taqiqlash,
- Barcha turdagи Tovar va maxsulotlarning Yugoslaviyaga sotilishini taqiqlash,
- Moliyaviy manbalar, jamg`armalar, iqtisodiy va ommaviy birlashmalarning butunlay Yugoslaviya uchun taqiqlanishi,
- Yugoslaviyan samalyotlarning boshqa davlatlar ustidan uchib o‘tishi yoki qo‘nishini taqiqlash.

⁷ White House. (2011). Remarks by President Obama to the People of Cuba. Retrieved from whitehouse.gov

- Yugoslaviya samalyotlarining tuzatilishi yoki saqlash xizmatidan foydalanishining taqiqlanishi.

- Yugoslaviyada diplomatik va konsullik xodimlarining miqdorini tushurish,

- Yugoslaviya nomidan qatnashayotgan har qanday jamoa va shaxsni sport musoboqalarida rad qilish ,

- Ilmiy, texnologik madaniy va vizani to‘xtatib qo‘yish.

Sport sanksiyalariga misol qilib 1977-yilda 56 a`zo davlatdan iborat bo‘lgan siyosiy uyushma hisoblanuvchi Millatlar Hamdo‘stligi tomonidan qabul qilingan Gleneagles Kelishuvini ko‘rsata olamiz.

Yuqorida keltirilgan siyosiy uyushma a`zolari apartaitga qarshi xalqaro harakatlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida, Janubiy Afrikadan qatnashayotgan barcha sportchilarni musoboqalarda qatnashishlarini taqiqladi.

Sanksiyalar bir tomonlama va kollektiv bo‘lishi mumkin. Bir tomonlama sanksiyalarga tarif beradigan bo‘lsak. BMT Ustaviga ko‘ra agar davlatlar o‘rtasida nizo kelib chiqsa, ular qurolli kuchlardan foydalanishi mumkin emas , lekin bunday holatlarda belgilangan miqdorda iqtisodiy va diplomatik sanksiyalardan foydalana oladilar . Bu turdagи sanksiyalarga misol qilib AQSH va Yevropa davlatlari tomonidan Rossiyaga qarshi Rossiyaning Kremliyani bosin olishi va 2014-yilda Angilya hududida Rossiya jousuning zaharlanishiga qarshi sanksiyalar va shu qatorda 2021-yildagi AQSH tomonidan Xitoya qarshi qo‘yilgan sanksiyalarini ham keltira olamiz.

SHu qatorda davlatlar nizo kelib chiqqan holatlarda Xalqaro Jinoyat Sudiga ham murojaat qila olishadi, yoki hududiy organlarga misol uchun, Yevropa Itifoqining adolat sudi ham ishni ko‘rib chiqqa oladi.. Sud tomonidan hech qanday sanksiya qo‘llash to‘g`risida qaror qabul qilinmaydi. Aloqador davlatga faqatgina Xalqaro Jinoyat Sudi qarori bajarilmaganda va albatta BMT Xavfsizlik Kengashi a`zolarining ovozlari miqdoriga qarab sanksiyalar qo‘llanishi mumkin (BMT Nizomining 94-moddasi 2-bandı).

Endigi navbatda ushbu sanksiyalar qonuniymi yoki yo‘qmi degan savolga javob beradigan bo‘lsak.

Biz yuqorida keltirilgan savolga javobni 2001-yilda qabul qilingan Davlatlarning Javobgarligi to‘g`risidagi xalqaro normative hujjatning aloqador

moddalaridan topishimiz mumkin. Shu qatorda Xalqaro Qonunlar Komissiyasining komentariyalariga ham murojaat qilsa bo‘ladi.

Rossiyaning AQSHning iqtisofiy sanksiyalariga qarshiligi sababga tayanadi, bular:

- BMT Xavfsizlik Kengashi roli va ularning doimiy a`zolari rolini oshirish;

- raqiblar ustidan manaviy ustunlikni saqlab qolish;

Keling endi bir tomonlama sanksiyalarning Xitoy amalyotida qanday ishlayotganligini ko‘rib chiqamiz. James Reilly keying yillarda xitoy tomonidan qo‘yilayotgan bir tomonlama iqtisodiy sanksiyalarni tasvirlab beradi. Va uning takidlashicha Xitoy eksportlari tomonidan Beyjingning bir tomonlama sanksiyalaridan foydalanishiga nisbatan bir qator mukammal, amaliy va huquqiy to‘siflar toppish boshlangan. Robert Blackwill va Jennifer Harris tomonidan 2016-yil chop etilgan Boshqa Usullar orqali Urush nomli kitobida Xitoy tomonidan yaqin o‘n yilliklarda iqtisodiy sanksiyalarni o‘z tashqi siyosatini yuqori ko‘tarish vositasi sifatida keng qo’llab kelayotganligi to‘g`risidagi faktlarni taminlaydilar. Ushbu amaliy misollar ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Xitoy Yaponiyaning xavfsizlik siyosatini maqullamaganligini bildirish maqsadida yapon avtomobillarining importini cheklaydi. Manila Xitoy hukumatining Janubiy Xitoy qirg`oqlaridagi siyosatiga qarshi bo‘lganligi sababli, Flippin bananlari Xitoy qirg`oqlarida chiriydi. Pekin rejumini qo’llab quvvatlovchi Tayvan kompaniyalasri mukofotlanadi, qo‘llamaydiganlar esa jazolanadi. Seulning AQSH rad qilishi evaziga Janubiy Koreyya bilan saavdo va biznes aloqalari va`da qilinadi. Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatib turibdiki, bir tomonlama iqtisodiy sanhsiyalar davlarning o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidagi bir vosita sifatida foydalanib kelinmoqda.

Commeron Rotblatning fikriga ko‘ra, Xitoy hukumati tomonidan sanksiyalar chet el siyosati vositasi sifatida keng qo’llanib qolmasdan, balki, Xitoy olimlari tomonida ushbu sanksiyalarning qonuniy ekanligi to‘g`risidagi bir qator ilmiy asoslar ham yaratildi.

Xitoyda ushbu jarayon bir qator qonunlar qabul qilish orqali yanada mustahkamlandi, Yuqoridagi fikrga 2020-yil oktabr oyida qabul qilingan

yangi eksport qonunnini misol qilib ko‘rsata olamiz . Qonun yaratuvchilari Xitoyga eksportni taqiqlagan davlatlar uchun eksportni taqiqladi.

BMT tomonidan bir tomonlama sanksiyalarning salbiy oqibatlarini cheklash maqsadida bir qancha rezolyutsiyalar qabul qilingan, lekin ular ko‘zlangan maqsadlarni bera olmadi.

Yigirmanchi asrlargacha bo‘lgan davrlarda davlatlar hech qanday huquqiy to‘sqliarsiz bir tomonlama sanksiyalardan erkin foydalanishgan. Shartnoma bilan bog`liq majburiyatlarning bajarilmaganligi natijasida davlatlarning qurolli kuchlardan foydalanishini taqiqlovchi Drago-Porter Konvensiyasini bir tomonlama sanksiyalarni taqiqlovchi dastlabki urunish desak bo‘ladi. Keyinchalik Millatlar Ligasi Kelishivi qabul qilindi. Oradan bir necha yillar o‘tganidan so‘ng kuchdan foydalanishning umumiyligi taqiqi hisoblanuvchi Kellog-Briand Pakti kuchaga kirdi. Ushbu harakatlar BMT Nizomining 24-moddasida o‘z cho‘qqisiga erishdi.

Mening shaxsiy qarashlarimga ko‘ra , bir tomonlama sanksiyalar xalqaro huquqning ba`zi normalariga kora qonuniy bo‘lishi mumkin, lekin nu turdagи sanksiyalarning iloji boricha taqiqlanishi uchun xalqaro hamjamiyat iloji boricha tasirliroq choralar tipishi kerak deb hisoblanmayman , chunki bu turdagи sanksiyalar kuchli davlatlar tomonidan o‘zlarining xalqaro tashqi siyosatdagi maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidagi instrument bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu sanksiyalar natijasida ko‘p zarar ko‘rvuchi qatlam esa oddiy fuqarolar hisoblanadi.

Keling endi ko‘p tomonlama sanksiyalar nima degan savolga javob beramiz. BMT, Yevropa Itifoqi va AU kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar qarori bilan qo‘yiladigan sanksiyalar ko‘p tomonlama sanksiyalar deb ataladi.

BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qo‘yilgan sanksiyalar barcha a`zo davlatlar tomonidan amalga oshirilishi lozim . Faqat istisno holatlarda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan harbiy sanksiyalarni qo‘llashdan oldin, BMT Nizomi qurolli kuchlar bilan bog`liq bo‘limgan boshqa turdagи sanktsiyalarni belgilaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi qurolli kuchlar bilan bog`liq bo‘limgan boshqa turdagи sanktsiyalarni belgilaydi. BMT Xavfsizlik Kengashi tanlangan yoki cheklangan bo‘lgan iqtisodiy sanksiyalarni qo‘llash uchun majburiy chiralar qo‘llashga haqli hisoblanadi.(masalan, qurol eksportiga embargo qo‘yish, moliyaviy aktivlarni muzlatish, sayohatlarni taqiqlash yoki turli turdagи iqtisodiy embargolarni joriy etish). BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan yaratilgan har bir sanksiya rejimining

amalga oshirilishi BMT Xavfsizlik Kengashi tarkibida tegishli rezolyutsiya raqami bo‘yicha tuzilgan sanksiya qo‘mitasi tomonidan nazorat qilinadi⁸.

Hozirgi kunda BMT Xavfsizlik Kengashi 15 ta holatda va mamlakatda xalqaro tinchlik va xavfsizlik xavf solayotgan 1000 dan ortiq tashkilot va shaxslarga nisbatan xalqaro sayohat taqiqi va mol-mulk muzlatib qo‘yilishiga aloqador bo‘lgan sanksiyalarini qo‘ygan.

Shaxsiy xulosamga ko‘ra sanksiyalarning turidan qatiy nazar ular asosan huquqbuzar davlat, shaxs yoki tashkilotlarning xulq-atvorini o‘zgartirishga xizmat qilishi lozim . Xalqaro tashkilotlarning qarori bilan qo‘llaniladigan sanksiyalar aynan mana shunday maqsadni ko‘zlaydi deb hisoblayman. Biz ushbu bob doirasida sanksiya nima degan savolga javob berar ekanmiz, ularning qanday yuzaga kelganligi, kimlar tomonidan qo‘llanilishi va sanksiyalarning asosiy maqsadlarini batafsil o‘rganib chiqdik , shuningdek bir qator amaliy misollarni ilova qildik, sanksiya turlarini tahlil qildik va ularning kamchililari va yutuqlarini olimlar fikrlariga tayangan holda yuzaga chiqardik. Ushbu bobimizni yakunlar ekanman shuni ayta olamanki, sanksiyalarini to‘g`ri ishlatish orqali dunyoda tinchlik va osoyishtalikka erishish mumkin , lekin ularning inson huquqlariga aloqador bo‘lgan jihatlari hamon ochiqligicha saqlanib qolmoqda. Shularni inobatga olgan holatda xalqaro hamjamiyat inson huquqlariga nisbatan salbiy oqibatlarga olib kelmaydigan yangi bir mexanizm ishlab chiqiqshi lozim deb hisoblayman.

Keling fikrimiz yakunida ayni kunda davom etayotgan Rossiyaga qarshi qo‘yilgan bir tomonlama sanksiyalar qanday tarzda davom etayotganligini tahlil qilamiz.Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi boshlanganidan beri bir qator davlatlar Rossiyaga qarshi bir tomonlama sanktsiyalar joriy qilish maqsadida harakat qilmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) Rossiya moliya tizimining asosiy infratuzilmasiga zarba berish maqsadida ushbu tashabbusni boshqarmoqda. G‘aznachilik departamentidagi AQShning Tashqi aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) Rossiyaning eng muhim moliyaviy institutlari, muhim xususiy bizneslari va hatto davom etayotgan agressiyani amalga oshirayotgan

⁸ Society .(2024) UK sanction regime. Retrieved from <https://www.lawsociety.org.uk/>



Rossiya davlat mexanizmini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynagan ayrim shaxslarga qarshi keng qamrovli iqtisodiy choralar ko‘rdi.

Xulosa

Xalqaro huquqda sanksiyalar davlatlarning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va xalqaro huquq normalariga rioya etishini ta'minlashda muhim vositadir. Sanksiyalarning turli shakllari, jumladan iqtisodiy, savdo, moliyaviy, diplomatik va harbiy sanksiyalar mavjud bo‘lib, har biri ma'lum maqsad va sharoitga qarab qo‘llaniladi. Sanksiyalarning samaradorligi va inson huquqlariga ta'siri har doim ham ijobiy bo‘lmashligi mumkin, shuning uchun ularni qo‘llashda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash zarur. BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyalarni qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi va ularning xalqaro huquq normalariga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, sanksiyalarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va inson huquqlarini himoya qilish uchun doimiy ravishda islohotlar va monitoring amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hufbauer, Gary Clyde, Jeffrey J. Schott and Kimberly Ann Elliott, Economic Sanctions Reconsidered: History and Current Policy. Washington, DC: Institute for International Economics, 1990 (second edition). p. 2.
2. Elliott, K. A.(1998). “The Sanction Glass: Half Full or Completely Empty?” Intenational Security, p 50-65
3. Caruso, R. (2003). Th impact of International Economic Sanctions on Trade: Empirical Analysis.Pace Economic,Peace Science, and Public Policy. p 14
4. Collins J.J., Bowdoin G.B. (1999) Beyond Unilateral Economic Sanctions: Better Alternatives for U.S. Foreign Policy. Washington DC: Center for Strategic and International Studies (CSI).

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI

1. Society.(2024) UK sanction regime. Retrieved from <https://www.lawsociety.org.uk/>
2. White House. (2011). Remarks by President Obama to the People of Cuba. Retrieved from whitehouse.gov
3. U.S. Department of State. (2014). U.S.-Cuba Relations. Retrieved from <https://www.state.gov/u-scuba-relations>
4. <https://www.un.org/>

Respublikada diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va yo‘nalishlari

Jumaniyozova Nodira
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikada diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va yo‘nalishlari haqida ilmiy ma’lumotlar tadqiq etilgan. Shuningdek maqolada diniy turizmning ahamiyati uni rivojlantirish orqali yurtimizda turizm orqali tushadigan daromadlarni oshirish to‘g‘risida ham gap boradi.

Kalit so‘zlar: rekreatsiya, diniy turizm, madaniy meros, yunesko, ijtimoiy soha,

Аннотация: В данной статье исследуются научные сведения о возможностях и направлениях развития религиозного туризма в Республике. Также в статье говорится о важности религиозного туризма и увеличении доходов от туризма в нашей стране за счет его развития.

Ключевые слова: рекреация, религиозный туризм, культурное наследие, ЮНЕСКО, социальная сфера,

Abstract: In this article, scientific information about the possibilities and directions of the development of religious tourism in the Republic is researched. The article also talks about the importance of religious tourism and increasing the income from tourism in our country through its development.

Key words: recreation, religious tourism, cultural heritage, UNESCO, social sphere,

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng diniy turizm masalalarini o‘rganishga katta ahamiyat qaratildi. Ta’kidlash joizki, sobiq Ittifoq davrida din bilan bog‘liq jarayonlarga kuchli e’tibor berilmas edi. Masalan, Imom Buxoriy va uning ziyoratgohi haqida hatto mahalliy sayohatchi va ziyoratchilar ham yetarlicha ma'lumotga ega emas edilar. Qayd etish o‘rinligi, 1956 yilda Sobiq ittifoqning markazi Moskva shahridan O‘zbekistonga Livanning taniqli siyosat va jamoat arboblaridan biri Shayx Nadim Imom Buxoriyni ziyorat qilish maqsadida olib boorish rejalashtirilganligi haqida O‘zbekiston rahbariyatiga xabar keladi. Toshkentdagi rahbarlar Buxoro viloyati rahbarlariga qo‘ng‘iroq qilib, ziyoratgohni, ya’ni Imom Buxoriy qabrini shoshilinch tartibga keltirish topshirig‘ini



beradi. Buxorodagilar mazkur qabr Samarqandda ekanligini ta'kidlashadi. Ushbu topshiriq Samarqand rahbariyatiga berilgach, ular qabrnı axtarishga tushishadi. Qabr Samarqand shahridan taxminan 15-20 kilometr uzoqlikda, Payariq tumanining Xartang qishlog‘ida joylashganini bilishgach, borib ko‘rishsa, vayrona va qarovsiz joy bo‘ladi. Bu holat haqida Samarqand Toshkentga, Toshkent esa Moskvaga xabar qiladi, uni tezda tartibga keltirish choralar ko‘riladi. Shayx shomdan keyin Hazrati Imom mozorini ziyorat qiladi. Shayx Nadim qabrnı ko‘rgach tizcho‘kib, yerni o‘padi va qattiq hayajon bilan Hazrati Imom mozori tomongatizzalab boradi. So‘ngra ko‘zida yosh bilan tongga qadar Qur'on tilovatqiladi. Tong otgach Shayx Nadim o‘zini nima uchun ataylab tunda olib kelishganlarini anglab, qabr va masjidning xarob ahvoldidan ko‘ziga yoshladi [81]. Birgina shu jarayondan Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda yurtimizda diniy masalalarga e’tibor qanchalik ekanligini bilish qiyin emas [98; 25-26-b.].

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov tashabbuslari bilan Imom Buxoriy, Termiziy va Xakim Termiziy, Bahouddin Naqshband, So‘fi Olloyor, Al Moturidiy, Chor Bakir Muhammad Zoxid, Zangi ota kabi O‘zbekistonidagi ko‘plab ziyoratgohlar ta‘mirlandi. Shuningdek, arxeolog, tarixchi, dinshunos, faylasuf, geograflar tadqiqotlari ko‘lami ham kengaydi.

O‘zbekistonda diniy va ziyorat turizmi haqida professor A.A. Qayumov shunday yozadi: “Turistlar oqimi 10-12 yil ilgari O‘zbekistonning boy va xilma-xil rekreasjon resurslari bilan bog‘langan bo‘lsa, keyingi yillarda ushbu holat ziyorat turizmini taraqqiy etishi bilan bog‘lanmoqda” [40; 90- 94-b.].

Mamlakatimizda diniy turizmga oid ilmiy tadqiqotlar N. Abdulahatov [71], S. Abdullaev [45], Z. Abidova [72], Yu. Ahmadaliev [14, 15], S. Djuraeva [77], F. Kamilova [79], M. Mahmudov [84], B. Navruz-Zoda [48-51], G. Pardaev [27], R. Samatov [79], M. Usmonov [28], Sh. Shomurodova [96], M. Qodirov [41], O. Hakimov [27] va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Xususan, B. Navruz-Zoda tadqiqotlarida O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish masalalariga iqtisodiy jihatdan alohida e’tibor qaratilgan. Chunonchi, olim O‘zbekiston ziyoratgohlari, bunda marketing usullari, demografik, xulq-atvor, psixologik xususiyatlari, ziyoratchilar guruhining ehtiyojlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan [50; 87-96-b., 49; 1-8-b.].



Olimning ta'kidlashicha, mamlakatda ziyoratchilar uchun infratuzilma qanchalik qulay bo'lsa, sayyoohlar shunchalik ko'p tashrif buyuradi. Jumladan, uning fikriga ko'ra, yurtimizda mehmonxolanalarining aksariyati Yevropa uslublarida qurilgan bo'lib, ular ziyoratchilar uchun ixtisoslashmagan.

Mamlakatimizda mehmonxonalar ikki qismdan tashkil topgani ma'qul: tashqi hovli (erkaklar uchun) va ichki hovli (ayollar uchun). Bundan tashqari, respublikada ko'plab restoran va kafelar mavjud bo'lsada, ammo ziyoratchilar uchun halol ovqatlanish uchun restoranlar juda kam [50; 87-96-b.].

Shuningdek, B.Navruz-Zoda O'zbekistonning ziyoratgoh joylari katalogini yaratish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Ushbu katalogga muqaddas joylarning rang-barang fotosuratlari to'plamini kiritish, ular to'g'risida aniq tushuntirishlar berish zarur, deya ta'kidlaydi. Bunday kataloglarni kelayotgan ziyoratchilarga taqdim etish ziyoratgoh joylarni xorijiy mamlakatlarda reklama qilish, sayyoohlilikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi [48; 1-7-b.].

“O'zbekiston Geografiya jamiyatি axborotnomasi”ning 27-jildida G'.Pardaev, O.Hakimovlar tomonidan “Ziyoratgoh joylar geografiyasini o'rganish masalasi” nomli maqola e'lon qilingan [27; 64-65-b.]. Unda mualliflar ziyoratgohlarni geografik tomonidan imkon darajasida o'rganishda quyidagilarga e'stibor berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi:

- ziyoratgoh joylarning geografik o'rni va uni baholash;
- ziyoratgoh joylarning tashkil topish tarixi (ijtimoiy, iqtisodiy, o'sha davrning tuzumi nuqtai nazaridan);
- ziyoratgoh joylarning tabiiy geografik sharoiti, atrof joylardan bu jihatdan farqi va ustunligi;
- ziyoratgoh joylarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, ularning sabablari;
- ziyoratgoh joylarning sayyoohlarni jalb qilish borasidagi amaliy ahamiyati;
- ziyoratgoh joylarning karta (karta sxema)sini tuzish va ular to'g'risida bukletlar nashr etish;
- ziyoratgoh joylarning yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan bog'liqligini aniqlab berish kerakligi.

Geografiya fanlari nomzodi, dosent S. Abdullaev ziyorat turizmi va sakral geografiyaning nazariy va amaliy masalalari bo'yicha qator ilmiy ishlasmalarini

e'lon qilgan. Olimning fikricha, diniy turizm turizmning eng qadimiuchun odatdagi muhit doirasidan tashqaridagi ziyoratgohlarni borib ko'rish uchun qilinadigan sayohati tushuniladi” [12; 81-85-b.]. Shuningdek, u diniy turizmning ikki turini keltiradi, bular ziyorat va ekskursiya-ma'rifiy turlar.

IX-X asrlarda O'zbekiston tog'li xududlari sug'oriladigan maydonlarning kenggayishi va uning oqibatlari natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar buzilishlarni tuzatishga olib boradigan eng keng tarqalgan yo'l – hududlarni iloxiylashtirishdir. Jumladan, shu davrdan boshlab Farg'ona vodiysida muqaddas qadamjolarga bo'lgan e'tibor keskin kuchaydi.

Vodiydagi etnomadaniy mintaqalarning tafovutlari daryo havzasini bo'yicha yuqoridaan quyiga qarab tushilsa etnoekologik rayon va shunga mos keluvchi “muqaddas qadamjo”lar shakllangan [14]. Demak, etnoekologik rayon va ziyorat-diniy turizm rayoni bir biriga mos holda shakllanadi deyishimiz mumkin. Olimlar tabiat ne'matlarini asrab-avaylash maqsadida Shoximardon soy havzasida muqaddas qadamjolarni 4 ta rayonga bo'lishadi bularga Shohimardon, Vodil, Marg'ilon va Yozyovony turi hisoblanadi. Uning diniy turizmga bergen ta'rifi quyidagicha: “Bilim orttirish va ma'rifiy maqsadlarda diniy sayohatchilar Mamlakatimizda ziyoratgoh va qadamjolarning xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi bo'yicha bir qator olimlar ishlarini ko'rish mumkin. Masalan, 2008 yilda N. Abdulahatov “Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida ziyoratning o'rni (Farg'ona viloyati ziyoratgohlari misolida)” [71], 2009 yilda S. Djuraeva “Surxondaryodagi muqaddas ziyoratgohlari tarixi va ularning aholi diniy-ma'naviy hayotidagi o'rni” [77], 2018 yilda Z. Abidova “Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari” [72], 2020 yilda F.Sh.Aqchaev “Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari” [74] mavzularidagi tarix fanlari bo'yicha nomzodlik (falsafa doktori) dissertasiyalarini himoya qilib, ko'rيلayotgan tadqiqotlar sohasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Bu ilmiy ishlar, asosan, tegishli hududlardagi diniy ziyoratgohlari tarixi va diniy ahamiyatining tafsifiga bag'ishlangan.

Xulosa o'mida shuni aytish kerakki, O'zbekistonda diniy turizm, ziyorat turizmi masalalarini, xususan, tarixchilar, tilshunoslik, dinshunoslar, islomshunoslar, iqtisodchilar, geograflar o'rganganlar. Ammo shu vaqtgacha diniy turizmni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan keng qamrovli maxsus ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlar bajarilmagan.



Xususan, diniy turizmning respublikamiz barcha hududlari uchun mahalliy aholiga mo‘ljallangan aniq marshrutlari, transchegaraviy diniy turistik marshrutlar, noislomiy konfessiyalar vakillariga mo‘ljallangan diniy turistik marshrutlarni ishlab chiqish, diniy ziyoratgohlar joylashgan aholi punktlar iqtisodiyoti va aholisining ijtimoiy sharoitini yaxshilashda diniy turizm omilidan foydalanish kabi masalalar lozim bo‘lgan darajada tadqiq qilinmagan bo‘lib, mazkur dissertasiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda diniy turizm, ya’ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O‘zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko‘p. Ko‘pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta’mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G‘ijduvoni, Imom al-Buxoriy, Maqdumi A’zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termizi, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go‘zal ziyorat qiladigan va ma’naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-sonli farmoni //Toshkent shahar, 2017 yil 7 fevral

2. O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g’risida//O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Toshkent shahar, 2016 yil, 7 dekabr.

3. Abduxamidov S., Tuxliev O., Xamitov M. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish tendentsiyalari. Iqtisodiyot va ta’lim. Toshkent, №2, 2015, 67-70 betlar.

4. Abduvohidov, F. Qutlimurotov. - Turizm iqtisodi. - O‘quv qo‘llanma. – TDIU, 2010 y. - 160 b.

5. Hayitboyev R. va boshq. “Turizm marshrutlarini ishlab chiqish” O‘quv qo‘llanma. Samarqand., 2016. - 175 b.

6. Ibadullayev N.E. O‘zbekistonning turistik resurslari.– Samarqand, 2008.

Die wichtigsten Aspekte der interkulturellen Kommunikation beim Fremdsprachenlernen

Khudoyberdieve Zumrat Khudayberdievna

**Teacher, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,
Uzbekistan**

xudoyberdiyevazumrat@gmail.com

Annotation: In einer globalisierten Welt ist die Fähigkeit zur effektiven interkulturellen Kommunikation wichtiger denn je. Dieser Artikel beleuchtet die wichtigsten Aspekte der interkulturellen Kommunikation beim Fremdsprachenlernen, einschließlich kulturellen Bewusstseins, nonverbaler Kommunikation, aktivem Zuhören, Empathie, Geduld und interkultureller Kompetenz.

Keywords: Interculturelle Kommunikation, Fremdsprachenlernen, kulturelles Bewusstsein, nonverbale Kommunikation, aktives Zuhören, Empathie, Geduld, interkulturelle Kompetenz

Abstract: Effective intercultural communication is crucial in today's globalized world. This article explores the key aspects of intercultural communication in foreign language learning, encompassing cultural awareness, nonverbal communication, active listening, empathy, patience, and intercultural competence.

Keywords: Intercultural communication, foreign language learning, cultural awareness, nonverbal communication, active listening, empathy, patience, intercultural competence

In einer globalisierten Welt ist die Fähigkeit zur effektiven interkulturellen Kommunikation wichtiger denn je. Dies gilt insbesondere für Menschen, die Fremdsprachen lernen. Interculturelle Kommunikation bezieht sich auf die Kommunikation zwischen Menschen aus verschiedenen Kulturen. Sie umfasst nicht nur das Sprechen der Sprache, sondern auch das Verständnis der kulturellen Normen, Werte und Gepflogenheiten des anderen.



Dieser wissenschaftliche Artikel beleuchtet die wichtigsten Aspekte der interkulturellen Kommunikation beim Fremdsprachenlernen.

Interkulturelle Kommunikation beschreibt die Kommunikation zwischen Menschen aus verschiedenen Kulturen. Sie umfasst sowohl die verbale als auch die nonverbale Kommunikation und ist durch eine Vielzahl von Faktoren beeinflusst, wie z. B. Sprache, Werte, Normen, Bräuche und Religion.

Effektive interkulturelle Kommunikation ist wichtig, um Missverständnisse zu vermeiden, Konflikte zu lösen und positive Beziehungen zwischen Menschen aus verschiedenen Kulturen aufzubauen. Sie spielt daher eine wichtige Rolle in vielen Bereichen des Lebens, wie z. B. in der Wirtschaft, der Politik, dem Tourismus und der Bildung.

Die interkulturelle Kommunikation kann durch eine Reihe von Faktoren erschwert werden, z. B.:

- **Sprachliche Barrieren:** Wenn Menschen nicht dieselbe Sprache sprechen, kann es schwierig sein, einander zu verstehen.
- **Kulturelle Unterschiede:** Menschen aus verschiedenen Kulturen haben unterschiedliche Werte, Normen, Bräuche und Religionen. Dies kann zu Missverständnissen und Konflikten führen.
- **Stereotypen und Vorurteile:** Menschen neigen dazu, andere Menschen auf der Grundlage von Stereotypen und Vorurteilen zu beurteilen. Dies kann zu einer verzerrten Wahrnehmung führen und die Kommunikation erschweren.
- **Mangelnde interkulturelle Kompetenz:** Viele Menschen verfügen nicht über die notwendigen Kompetenzen, um effektiv mit Menschen aus anderen Kulturen zu kommunizieren.

Beim Fremdsprachenlernen spielen folgende Aspekte der interkulturellen Kommunikation eine wichtige Rolle:

1. Kulturelles Bewusstsein: Der erste Schritt zur effektiven interkulturellen Kommunikation ist die Entwicklung eines kulturellen Bewusstseins. Das bedeutet, dass man sich der eigenen Kultur und ihrer Werte bewusst sein muss und gleichzeitig

offen für andere Kulturen sein muss. Man muss bereit sein, neue Dinge zu lernen und die Welt aus der Perspektive anderer zu sehen.

2. Nonverbale Kommunikation: Nonverbale Kommunikation spielt in der interkulturellen Kommunikation eine wichtige Rolle. Dazu gehören Mimik, Gestik, Körperhaltung und Augenkontakt. In verschiedenen Kulturen können diese nonverbalen Signale unterschiedliche Bedeutungen haben. Es ist daher wichtig, sich der nonverbalen Kommunikation des anderen bewusst zu sein und Missverständnisse zu vermeiden.

3. Aktives Zuhören: Aktives Zuhören ist eine wichtige Fähigkeit für die effektive interkulturelle Kommunikation. Das bedeutet, dass man dem anderen nicht nur zuhört, sondern versucht, seine Botschaft zu verstehen. Man sollte dem anderen seine volle Aufmerksamkeit schenken und ihn nicht unterbrechen.

4. Empathie: Empathie ist die Fähigkeit, sich in die Lage des anderen hineinzuversetzen und seine Gefühle zu verstehen. In der interkulturellen Kommunikation ist es wichtig, empathisch zu sein und die Perspektive des anderen zu respektieren.

5. Geduld: Interkulturelle Kommunikation erfordert Geduld. Es kann Zeit dauern, bis man die Kultur des anderen versteht und lernt, effektiv mit ihm zu kommunizieren. Man sollte daher geduldig sein und nicht gleich aufgeben, wenn es zu Missverständnissen kommt.

6. Interkulturelle Kompetenz: Interkulturelle Kompetenz ist die Fähigkeit, effektiv in verschiedenen Kulturen zu kommunizieren. Sie umfasst alle oben genannten Aspekte der interkulturellen Kommunikation. Interkulturelle Kompetenz kann durch verschiedene Mittel entwickelt werden, z. B. durch Fremdsprachenunterricht, Auslandsaufenthalte und interkulturelle Trainings.

Strategien zur Förderung der interkulturellen Kompetenz im Fremdsprachenunterricht

Der Fremdsprachenunterricht bietet eine hervorragende Möglichkeit, die interkulturelle Kompetenz von Lernenden zu fördern. Dieses kann durch verschiedene Strategien erreicht werden, z. B.:

- **Landeskundliche Inhalte:** Die Vermittlung von landeskundlichen Inhalten, wie z. B. Geschichte, Kultur, Gesellschaft und Politik des Ziellandes, kann den Lernenden helfen, die Kultur des Ziellandes besser zu verstehen.
- **Interkulturelle Begegnungen:** Die Förderung von interkulturellen Begegnungen, z. B. durch Austauschprogramme oder Partnerschaften mit Schulen im Ausland, kann den Lernenden die Möglichkeit geben, Erfahrungen mit Menschen aus anderen Kulturen zu sammeln.
- **Interkulturelle Rollenspiele und Simulationen:** Die Durchführung von interkulturellen Rollenspielen und Simulationen kann den Lernenden helfen, verschiedene Kommunikationssituationen in der interkulturellen Begegnung zu trainieren.
- **Reflektion über eigene Erfahrungen:** Die Förderung der Reflexion über eigene Erfahrungen in der interkulturellen Begegnung kann den Lernenden helfen, ihre eigenen interkulturellen Kompetenzen zu entwickeln.

Die Berücksichtigung dieser Aspekte der interkulturellen Kommunikation beim Fremdsprachenlernen kann dazu beitragen, Missverständnisse zu vermeiden, die Kommunikation zu verbessern und Beziehungen zu Menschen aus anderen Kulturen aufzubauen.

Zusätzliche Ressourcen:

1. Kuzmina N.V. Methods for the study of pedagogical activity. – L.: Leningrad State University, 1970.
2. Hans-Jürgen C. Baumgart Interkulturelle Kommunikation: Grundfragen und Anwendungskontexte, --Berlin UTB GmbH, 2017.
3. Stefan Hirschi Interkulturelle Kompetenz: Grundlagen und Praxis– München, 2007.
4. Wolfgang Klein Interkulturelle Kommunikation: Missverständnisse vermeiden - Konflikte lösen - gemeinsame Ziele erreichen – München, 2005
5. Ali El Hashash. Interkulturelle Kommunikation; Missverständnisse, Klärungen & Umgangsformen. – IKM – Institut, Dietikon, 2013.

Зебо Мирзо шеърларида рамзийлик

Салохиддина Нигорахон Иномжоновна
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори, дотсент в.б.

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” НОТМ. Андижон

Аннотация. Мақолада шоира Зебо Мирзо шеърларининг рамзийлик хусусиятлари ва поетик образ яратиш маҳорати хақида айrim мулоҳазалар берилган.

Калит сўзлар. мажозий образлар, поэтик тафаккур, рамзлар, лирик қаҳрамон, ўхшатиш санъати.

Зебо Мирзаева шеъриятида борлиқни мажозий образлар ва рамзлар орқали ифодалаш олий нуқтага чиққан десак асло муболага бўлмайди. Шоиранинг ўзи бу ҳакда “Дунё шакллардан иборат, агар уни кўра билсангиз. Осмондаги булутлар ўйини, дараҳт танасидаги излар, девордан қўчиб тушган жойлар, метродаги мармар чизиқлар... Ҳамма нарсадан ўзингиз учун гаройиб манзараларни танишингиз мумкин, агар “тасаввурингиз чидаб берса...” У исталган жойда, исталган шаклда сизни топади”¹, - деб ёзади “Ишқ” китобининг сўнгсўзида.

Осмон эшигини чертган қўлларга
Кишанлар урилган,
choхлар қурилган.
Хиёнат дарчаси хийла очилган,
Умидлар узилган,
аҳдлар бузилган.
Юзимни тупроққа босаман, во-я,
Захарлар ичилган,
орлар кечилган.

Кўнгил форат бўлган заминга ўхшар,

¹ Мирзаева З. Ишқ. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – Б. 123.



Қандай чидаш мумкин бу қабоҳатга?

Юрагимни қора илонлар чақар,
Чаён малҳам қўяр кўр жароҳатга².

Осмон эшигини чертган қўллар, Хиёнат дарчаси хийла очилган сатрлари ижодкорнинг поэтик тафаккури билан рамзийлик касб этган. Айни ҳолатни ўқувчи реал тасаввур эта олмаса-да, ундаги поэтик мазмунни ҳис қилиши мумкин. Рамзлар тилини тўғри тушунган, мавхум хаёлотни қалбида синтез қилган китобхон шоиранинг асл муддаосини англайди. Осмон эшигини чертган қўллар – лирик қаҳрамон наздида ҳақиқатни баралла айтгувчи кишилар. Афусски, ҳамма замонда ҳам ҳақ гапни айтгувчиларни кишан ва чоҳ “кутиб турган”. Яъниким, мавжуд муаммони англаған инсон ҳақиқатни ошкор қилишни истайди. Ҳақиқат ва ҳақ ҳамиша осмонда. Биргина сатрга шунча маънони юклай олган шоира “Хиёнат дарчаси хийла очилган” дейиши билан ҳақиқатга хиёнат қилувчилар қўп бўлганлигига ишора қилмоқда. Бундай тасаввур қилишимизга сабаб сатрдаги “хийла” сўзи билан боғлиқдир. **Хийла** [форсча - қўп, ортиқ] 1 равии. Маълум даражада, бирмунча, анча. (ЎТИЛ, 4-жилд, 397-б.)

Барча даврларда ҳам хиёнат кечирилмаган. Бу сўзнинг юки шунчалик оғирки, унда ватанга хиёнат, дўстга хиёнат, ёрга хиёнат, ўзлигига хиёнат қилаётган кимсаларнинг қиёфаси намоён бўлаверади.

“Оҳ”, “воҳ” уриш аёллар нутқида қўп учрайдиган нутқий калималардан биридир. Бундай лексемалар шеър оҳангининг бадиий таъсиранлигини ошириш билан бир қаторда, мавжуд вазиятга лирик қаҳрамоннинг ҳиссий-эмоционал муносабатини ҳам кўрсатади. Аҳдни бузган, хиёнат қилган, оридан кечган кимсалар сабаб лирик қаҳрамон “во-я” дея нола қиласди. Бу нола худдики унинг чинқириғи тарзида янграб, рухимизни бир силкитиб ўтади. Айрим сатрларни биз мавхум хаёлот деб билсак-да, таҳлилда унинг реаллашувини англаимиз. Фақат ижодкорнинг бадиий ниятини тўғри англай олсанк бас.

Иккинчи банддаги горат бўлиш – енгилиш, қабоҳат эса ёмонлик демакдир. Лирик қаҳрамон кўнгли ёмонлик сабаб енгилиб бормоқда. Буни қарангки, хиёнаткор кимсалар энди ижодкор томонидан қора илон ва чаён

² Мирзаева З. Ишқ. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – Б. 46.



рамзида тасвир этилмоқда. Илон ва чаён барча давр адабиётида ҳам салбий рамз ҳисобланган. Фақат шоира шу ўринда бу икки рамзни бир-бирига қарши қўяётгандек кўринади. Лекин илон ва чаёнлар бизнинг наздимизда бир тоифадаги одамлардир. Уларнинг кўлидан фақатгина ёмонлик келиши мумкин холос. Агар шеърни синчилаб ўқисак, чаён тимсолида иккиюзламачи одам қиёфаси намоён бўлади. Шеърда кўлланган ҳар бир рамзий образ ижодкорнинг ниятини мукаммаллаштиришга, шаклан ёрқинлаштиришга, мазмунан чуқурлаштиришга, ҳиссий таъсирчанлигини оширишга хизмат қилади. “Оптимда” деб номланган ушбу шеърда атрофимиздагилар ҳамиша ҳам дўст бўлавермаслиги, улар орасида турфа хил инсонлар ҳам учраб туриши мумкинлигига ургу берилади.

Шеърнинг сўнгги банди кутилмаган хулоса билан якунланганлиги ўқувчини қувонтиради. Шоира ўта қатъият билан:

Улардан қўрқмайман, билониҳоя,

Ҳар он кўзимга мил тортса-да сабрим.

Сенга боқиб турган юзимни

Бир дам

Сендан ўгиришдан қўрқаман, Раббим!³, - дейиш билан ўз жасоратини намоён эта олган. Ҳа, ҳақиқатан ҳам, инсон сабри кўп ёмонликларнинг олдини олади. Жаҳл - инсоннинг душмани. Ижодкор соддагина қилиб улардан қўрқмаслигини, чунки ниҳояда бирга эканлигини ишонч билан айтади. Душманга бас келаман деб, қалби кирланишини, Оллоҳга юзи тескари бўлишини хоҳламайди. Бу шеър инсонга руҳий тарбия бериши шубҳасиз.

Зебо Мирзаева ижодида ўхшатиш санъати ва рамзларнинг кўп кўлланилиши шеърий мисралар бадиийлигини таъминлагани ҳолда, сўз санъаткорининг бадиий-эстетик нияти, поэтик тафаккур тарзининг кенглигидан далолат беради. Шеърий матннинг поэтик жилоланиши, мавзунинг тўғри танланиши, унда ишлатиладиган ҳар бир сўзнинг чақмоқдек чақнаши эса шоиранинг инсон кўнглини кашф этишга интилиши сабаб юзага келганлиги кўринади.


“Поэтик образ ҳаёт ҳақидаги шоирона ҳаёл ва тафаккурнинг конкрет ҳис-

³ Мирзаева З. Ишқ. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – Б. 46-47.

туйғу, кечинма орқали махсус суратланишидир; бу гоҳ объектив оламнинг шоир субъекти – қалб ойнасида акс этиши тарзида, гоҳ рухий олам – одамлар шуурига, ҳиссиётiga күчган оламни шоир “тўзаллик қонунлари” нуқтаи назаридан қайтадан кечириши, янгидан инкишоф қилиши тарзида юз беради”⁴ Дарҳақиқат, ижодкор оламни шундай эътироф этмайди, балки юқоридаги каби ҳолатларни қалбидан ўтказади, фикрлайди, синтез қилади ва энг мақбулини қабул қиласди. Зоро, инсон онги ҳаётий воқеликдан эстетиклик сари ўсиб боради. Натижада унинг фантазияси билан фавқулодда нозик ташбеҳлар пайдо бўлади. Сўз эса бадиий адабиётда ўзининг янги қиёфаси билан янгича мазмун касб этади.

Адабиётлар

1. Акрамов. Б. Шеърият гавҳари. – Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 168 б
2. Мирзаева З. Ишқ. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 128 б



Research Science and Innovation House

⁴ Акрамов. Б. Шеърият гавҳари. – Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б..3.

Xorazm viloyati yer resurslaridan foydalanishning ahvoli va ularni muhofaza qilish

Babajonova Sanobar Yuldashboyevna

Urganch Davlat Universiteti

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedra mudiri, dotsent

Durdiyeva Latofat Baxtiyor qizi

Urganch Davlat Universiteti, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati yer resurslarining unumдорлиги unda tarqalgan tuproqlarning turlari hamda ularning qishloq xo‘jaligidagi foydalanilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: allyuvial tuproq, sho‘rlangan tuproqlar, qumli tuproq, sug’oriladigan yer, subtropik.

Xorazm viloyatining yer maydoni O‘zbekiston respublikasi viloyatlari ichida kattaligi jihatidan oxirgi o‘rinlardan birini egallaydi. Xozirgi kunda viloyat yer resurslari 611,5 ming gektarga teng bo‘lib shundan qishloq xo‘jaligida yaroqli yerlar 402 ming gektarni tashkil qiladi. Ular 1995-yil ma`lumotiga ko`ra quyidagicha taqsimlangan: ya`ni haydaladigan yerlar 214,6 ming gektar, pichanzorlar 42 ming gektar, yaylov va o‘tloqlar 164,8 ming gektarni tashkil qiladi.

Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi ekinlarini asosini paxtachilik va g’allachilik tashkil etadi. Bundan tashqari xozirgi kunda polizchilik, sabzavotchilik, bog’dorchilik, chorvachilik, pillachilik ham rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda shirkat, ijapa va xususiy fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorazm viloyatining jami ekin maydoni 232,1 ming gektar bo`lib, shundan 129,4 ming gektar yer qishloq xojaligi shirkatlari, 69 ming gektar yer xususiy fermerlar, 33,7 ming gektar yer maydoni dehqon xo‘jaliklariga tegishlidir. Xorazm viloyati umumiyligi fondining 38,4 % haydaladigan yerlar, 18,2 % yaylov va o‘tloqlarni, 1,3% bog’ va tokzorlarni, 0,9 % i tutzorlar va 9,6 % o‘rmon va changalzorlarni tashkil etadi.

Viloyatimizda 1991-2021-yillarda kanal va ariqlar rekonstruksiya qilinib, suv yo‘llarining umumiyligi uzunligi ko‘paygan. Xorazm viloyatidagi sho‘r suvlar viloyat

tashqarisiga asosan zaxkashlar orqali chiqarib tashlanadi. Viloyatda irrigatsiya va melioratsiya ishlariga xam alohida e'tibor berib kelinmoqda.

2003 -yil ma`lumotlariga ko`ra Xorazm viloyatining jami ekin maydonining 102,3 ming hektariga paxta, 86 ming hektariga don, 3 ming hektariga kartoshka, 9 ming hektariga sabzavot ekilmoqda. Keyingi paytlarda viloyatimizning don (asosan, bug'doy, sholi) yetishtiriladigan maydonlari kengaytirildi. Xorazm viloyati respublikamizda sholi yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Viloyatimizda 276,7 ming hektar sug'oriladigan yer maydonlari mavjud. Xorazm viloyatiga har yili qishloq xo`jaligi ekinlarini sug'orish uchun sarflanayotgan suvning katta qismi yerosti suvlarining yer yuzasiga yaqinligi sababli sizot suvlarga aralashib yoki sizot suviga aylangan holda isrof bo'ladi. Xozirgi kunda jami sug'orish uchun sarflanayotgan suvning o'rtacha 4 mlrd/m³ ning 1,5 mlrd/m³ qismi ya'ni 30 foizi drenaj tizimi orqali Turkmaniston hududiga chiqib ketmoqda (asosan Sariqamish ko'liga). Bu degani qo'shimcha yana 100 ming hektardan ortiq yerni bir yil davomida sug'orish mumkin bo'lgan suv miqdori demakdir.

Xorazm viloyati asosan issiq subtropik cho'l mintaqasi hududiga joylashgan. Viloyat tuproqlari asosan to'rt tipga mansub bo'lib, asosiy qismini o'tloqi-allyuvial tuproqlar ya'ni 74,9 % ni tashkil etadi. Shundan sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan maydonlar 71,0 % ni, o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlar esa 29,0 % ni tashkil etadi. Xorazm viloyati tuproqlarini sho'rlanishi asosan xlorid-sulfat tuzlari ishtirokida sodir bo'ladi. Xorazm viloyatining yer osti suvlarini turli chuqurliklarda joylashgan bo'lib, daryo sohili yaqinidagi maydonlarda ular 0,5 metrdan 1,5 metrgacha, daryodan uzoqroqda joylashgan maydonlarda esa 2,0-2,5 metrni tashkil etadi.

Xorazm viloyatining salkam ikki metr chuqurlikkacha bo`lgan tuproqlarining agrofizik tarkibi quyidagicha:

0-47 sm (0-28 sm haydov qatlami, 28-31 sm plug osti qatlami biroz zich, qo'ng'ir-mallarang, o'rtacha qumoq, kesmasida mayda teshikchalar bor bo'lib, keyingi qatlamga o'tishda mexanik tarkibi bilan keskin farq qiladi.



47-60 sm, mallarang, yengil qumoq, mayda qumli, namligi kam, jinsligi kam, o’simlik ildizlari oz miqdorda (47-50 sm yumshoq, oqimtir rangli), keyingi qatlamga o’tishda mexanik tarkibi bo‘yicha farq qiladi.

60-84 sm, qo‘ng’ir-sarg’ish, o‘rtacha qumoq, og’irga yaqin, namligi avvalgi qatlamlardagidan ko‘proq, yo‘g’onligi 1-2 mm. lik ildizlar bor, jips joylashgan. 84-108 sm, mallarang, mayda qum, kam namli, yumshoq, juda siyrak ildizlar va chirigan ildizlar bor.

108-142 sm, qo‘ng’ir, yengil qumoq, kam namli (139-142 sm qizg’ish, og’ir-jips tuproq), 1 mm diametrli siyrak ildizlar bor.

142-180 sm, (150-152 sm, qizg’ish, og’ir jips), qo‘ng’ir, yumshoq, kuchli namli mayda qum.

Xorazm viloyatining sug’oriladigan o’tloqi-allyuvial tuproqlarning agrokimyoiy tarkibi ham o‘ziga xosdir. Mexanik tarkibi yengil qumoq bo‘lgan ushbu tuproqlarda chirindi miqdori oz bo`lib 0,5-0,8 % gacha, og’ir qumoq tuproqlarda esa biroz ko‘proq 0,7-1,4% ni tashkil etadi. Tuproq tarkibidagi azot juda kam bo`lib, 0,3-0,4 % ni tashkil etadi xolos. Haraktchan fosfor miqdori 6,0 mg/kg dan 32,0 mg/kg gacha, kaliy esa 130 mg/kg dan 190 mg/kg ni tashkil etadi. Xorazm viloyatida barcha profillar bo‘yicha tuproq yuqori karbonatligi bilan ajralib turadi.

Xorazm viloyatining sug’orilib dehqonchilik qilinadigan aksariyat tumanlarida madaniy tuproqlar ham vujudga kelgan. Bunday tuproqlar viloyatning barcha tumanlarida asosan Bag`ot tumanida ko‘proq uchraydi. Qumlar bilan chegaradosh tumanlarda shamol ta’sirida kuchli o‘zgargan qum-tuproqlar uchraydi. Amudaryoning o‘ng qirg’og’idagi viloyat hududida allyuvial qumoq tuproqlar keng tarqalgan. Xorazm viloyatining barcha tumanlarida sho‘rxok tuproqlar ham mavjud bo`lib, viloyatimiz hududida anchagina yerlarda tarqalgan.

Yuqorida tarif berilgan barcha tuproqlarda dehqonchilik u yoki bu darajada amalga oshiriladi. Dehqonchilik uzlusiz qilinib kelayotgan barcha tuproqlarni bir nom bilan madaniy tuproqlar deb ataladi. Har bir tuproq turini o‘zlashtirish - madaniylashtirish darjasи viloyatimiz tumanlarida bir xil emasligini ko‘rishimiz mumkin. Xorazm viloyati tuproqlarning unumдорлиги Xazorasp, Bog’ot, Xonqa,

Urganch, Xiva, Shovot tumanlarida bir muncha yuqori bo`lib, qishloq xo`jaligi ekinlarini hosildorligi bo`yicha ko`rsatkichlar xam sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turishini ko`rshimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Xorazm viloyati yer resurslaridan oqilona foydalanish orqali ushbu hududda nafaqat ichki bozor uchun balki tashqi bozor uchun ham xavfsiz, ekologik toza oziq-ovqat maxsulotlarini va yengil sanoat uchun xomashyo mahsulotlarni yetishtirish imkoniyatlarimiz mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abirqulov K.N., Abdulqosimov A., Hamdamov Sh. Ijtimoiy ekologiya. T. 2004 y
2. Rafiqov A.A., Abirqulov K.N., Hojimatov A., Ekologiya. T. 2004.
3. Avezboyev S.A., Volkov S.N. Yer tuzilishining ilmiy asoslari. T. 2015.
4. Babajanov A.R., Roziboyev S.B., Abdurahmanova I.Q. Yerdan foydalanish asoslari. T. 2006.

Research Science and Innovation House

“FUNUN UL-BALOG‘A” VA “BADOYE’ US-SANOE” ASARLARIDA ADABIYOTSHUNOSLIK LUG‘ATLARINING IFODASI

Berdiyeva Sabina Zayniddin qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,
4-bosqich talabasi.

berdiyevasabina8@gmail.com

Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,
3-bosqich talabasi.

Sabinabonuqaxramonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” va Atoullohu Husayniyning “Badoye’ us-sanoe” asarlari tahlilga tortilgan. Mazkur asarlardagi adabiyotshunoslik lug‘atlaridan ayrimlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, bayt, irsol, san’at, istiloh, masnaviy, ishtiqoq.

Abstract: In this article, the works of Sheikh Ahmad Tarazi “Funun ul-balogs‘a” and Atullah Husayni’s “Badoye’ us-sanoe” are analyzed. Dictionaries related to literary studies in these works have been thoroughly researched.

Key words: ghazal, verse, irsal, art, istilah, masnavi, enthusiastic.

Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asari 1437-yilda Ulug‘bek Mirzoga atab yozilgan, turkiy tilda yaratilgan birinchi ilmiy-nazariy asar hisoblanadi. “Funun ul-balogs‘a” asari o‘z davridagi adabiy hayot ehtiyoj va talablari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Chunki forsiy tilda she’r yozadigan iste’dod egalariga aruz vazni, qofiya va she’riy san’atlar haqida kitoblar, turli qo’llanmalar ko‘p bo‘lgan holda, turkiy tilda bunday asar, risolalar yo‘q edi.

O‘zbek adabiyotshunoslik tarixida she’rshunoslikka doir o‘zbek tilidagi ilk nazariy qo’llanma bo‘lgan Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” (“Yetuklik ilmlari”) asari kirish qismdan tashqari 5 qismdan iborat:

1-qismda: she’rning g‘azal, qasida, qit’a, ruboiy, masnaviy, musammat, mustazod, fard va boshqa turlariga keng izoh berilgan.

2-qismda: qofiya va radif masalalari o‘rganilgan.

3-qismda: badiiy tasvir vositalari haqida so‘z yuritilgan.

4-qismda: aruz vazni tahliliga batafsil to‘xtalingan.

5-qism: muammo janriga bag‘ishlangan.

Risolada adabiy istilohlarning ma’nosini izohlashda har bir tilga olingan atamaga mos ravishda misol keltiradi. Misollar arab, fors, turkiy tillardagi nasr va nazmiy asarlardan olingan. Asarda jami 91 manbadan misollar keltirilgan bo‘lsa, shulardan 84 tasi shoirlarning she’rlari bo‘lib, qolgan qismi Qur’oni Karim, Hadisi sharifdan olingan. Shu o‘rinda asarda berilgan adabiy istilohlarning izohlanishiga misollar keltirsak:

An-nav’u as-solisu-fi bayonil-qit’a. Qit’a uldurkim, avvalgi misraida qofiya bo‘lmas. Va aqalli ikki bayt bo‘lur. Va muning ham aksari muqarrar ermas. Har necha kim qofiya tobsalar ayturlar. Taroziy aytur:

Gul yuzungni ko‘rgali, ey rashki hur,

Dambadam ko‘z yoshi qondin dam urar.

La’lingga nisbat etar o‘zin aqiq,

Ul yamanni ko‘rki, qondin dam urar.

Misoli digar. Mavlono Lutfiy aytur-qit’a:

Bermagil derlar vafosizg‘a ko‘ngul,

Kim aning no‘shidin ortiq neshi bor.

Men tam kesmasmen, o‘lsam, la’lidin,

Jon menga jonom, kishining neshi bor. (

An-nav’-ul xomis fil bayon-i-masnaviy. Masnaviy ikki misra bo‘lur. Ikkalasi muqaffo netokkim manzum qissalarini masnaviy qilibturlar.

Misoli Bu Nasaqdin

Alo, ey husn elining podshohi,

Jamoling oyati lutfi ilohiy.

Yuzungdur lola, qadding sarvi ozod,

Erur usruk ko‘zung joduyi ustod.

Yuzung uzra qaro zulfung balodur,

Tilarmen bo‘lsa ul-yuzdin malo

Raqibi orzular yuzi qiroqin;

Tilar o‘ziga ul yuzi qaroqin. (Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Хазина, 1996, 58-бет)

Asarda Ahmad Taroziy adabiy atamaning izohidan oldin arab tilida qisqacha kirish qism beradi. Istilohning izohiga to‘xtalishda misralar soni, qofiyasi aytildi, biroq qanday ma’no anglatishi berilmaydi. Izohdan so‘ng misollar keltiriladi.

Badiiy san’atlarning izohini berishda ham shu yo‘ldan boradi, biror san’at haqida aytiganda avval turkiyda bir bayt beriladi. Bu bayt aksariyat holatda Taroziyning o‘z qalamiga mansub bo‘lib, quyida nomi zikr etilajak san’at uchun misol sanaladi. Shundan so‘ng muallif izohi keltiriladi. Ta’riflar deyarli maullif o‘z tilidan aytildi, bir-ikki holatlardagina boshqa manbalarga murojaat qiladi. Har bir san’at izohidan keyin birinchi bo‘lib turkiy misol keltiriladi. Undan so‘ng o‘rnini bilan forsiy va arabiylar misollar beriladi. Muallif har bir badiiy tasvir vositasiga

alohida to‘xtalishga, ularni ilmiy izohlashga urinadi. (S.Berdiyeva. O‘zbek va ingliz adabiyotshunoslik lug‘atlarining qiyosiy tadqiqi. 2024, 9-bet)

Ayrimlaridan misollar keltirib o‘tsak:

Al-irsolul-masal. Bu ul bo‘lurkim, she’r ichinda masal kelturular. Bu ikki qism bo‘lur. Bir qismi ulkim, aningdek masal keltururlarkim, ul masali qadimiy bo‘lg‘ay va xalq arosinda mashxur bo‘lg‘ay. Misoli bukim:

O‘lturur soat manga ayturki: “Yig‘la! Xush kelur”

“O‘chkuga jon qayg‘usi, qassobqa jir bu g‘ame”.

Va bu masal mashxurdir. Misol. Kamol aytur:

Bar la’li labat jon zi sari shavq fishondin. -

“Sahl ast, vale zira ba Kirmon natvon burd.”

Al-ishtiqoq.

Qilurmen zore, chun vasling tamannosida zor o‘ldum

Qaro zulfung havosinda sabotek beqaror o‘ldum.

Bu san’at aningtek bo‘lurkim, ikki kalima keltururlarkim, birisi biridin mushtoq bo‘lgay. Misoli digar. Rashid aytur:

Chi bandi chu unnob az obi ayb

Kuluro kilobu liboro labin.

Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs‘a” asarida har bir keltirilgan adabiy hodisaga ilmiy yondashib, bir qator misollar bilan izohlaydi. Ahmad Taroziydan keyin mazkur ilmda forsiy tilda Atoulloh Husayniy “Badoye’ us-sanoe” asarini yozdi. “Badoye’ us-sanoe” asari adabiyotshunoslikka doir terminlar va ularning izohi berilishi bilan diqqatga sazavor. Mazkur asar debocha, muqaddima, 3 san’at turi va

xotimadan iborat: debocha kitobning yozilish sababi, muqaddima aruz vazni va zihoflari xususida bo‘lib, 1-bobda 60 ta lafziy san’at, 2-bobda 63 ta ma’naviy san’at, 3-bobda 23 ta lafziy-ma’naviy san’at to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Xotima 2 qismidan iborat: birinchisida she’rning ma’no bilan bog‘liq illatlari haqida fikr yuritilib, 2-bobda 15 ta atamaga izoh berilgan. Asarda keltirilgan adabiy istilohlarga yuzlanadigan bo‘lsak:

Talmih kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she’r yoki mashhur maqolg‘a ishorat etmakdin iborattur.

Mashhur qissaga ishorat mundog‘dur (bayt):

Nur-i chashmam, be gul-i ro‘yat ba bo‘ston holi-man,

Gashta hamchun holat-i Ya’qub dar baytu-l-hazan.

Mashhur nodir she’rg‘a ishorat mundog‘dur (bayt):

Pesh-i man hosil-i kavnayn buvad yak jav,

Mazra’-i charx chiro binamu dos-i mah-inav?!

Mashhur maqolg‘a ishora andog‘dur (bayt):

Ashkro dar diyda parvardam base, oxir maro

Kard rusvo-yi jahone, dod nekiyro jazo.

Irsol lug‘atta yubormoqtur. Bir jamoa orasida mashhur bo‘lg‘an va ul jamoa o‘z kalominda turli ishlarga o‘xshatish va misol tarrizda ko‘p zikr qilg‘an doston va hikoyatlarni masal derlar. Aksar baytta masal keltirish, ani mahbub yo mamduh yoki o‘zga kishiga yubormoq uchun bo‘lur, aning uchun bu san’atni aning arzi e’tibori bila irsolu -l-masal deb atapturlar.

Irsolu-l-masalayn mashhur qavlg‘a ko‘ra bir baytta ikki masal kelturmaktur, andoqkim (bayt):

Mekasham xoriy-i tu, chun nabuvad gul be xor,



Mebaram ranj-i tu, chun ganj naboshad be mor. (Атоуллоҳ Ҳусайнин. Бадое ус-саное. Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 72-бет)

Badiiy san’atlar izohida dastlab lug‘atda qanday ma’noni ifoda etishini keltirib, so‘ng fors tilida bitilgan she’rlardan misollar beriladi. Asarning so‘nggi bobida 15 ta adabiy atamaga izoh berib o‘tgan, masalan:

G‘azal - lug‘atda xotunlar bila suhbat qurmoqni sevmaktur, istilohta ma’shuq jamolining zikri va ishqu muhabbat ahvolining zikridur.

Atoulloh Husayniy 15 ta atamaga izoh berar ekan, ularning lug‘atdagi ma’nosi va istilohdagi ma’nosiga bat afsil to‘xtalib o‘tadi, biroq mazkur atamalarga mos ravishda misollar keltirmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Ҳазина, 1996
объектив сабабалри ҳисобланади. Юқорида қайд қилинган сўз ўзлашуви сабаблари қаторига ҳозирги кунда яна бир манба қўшилди. Бу дунёning ҳамма мамлакатларида жуда кўплаб ахборот бюроларининг ташкил қилиниши ва бу бюроларнинг жуда кўпчилик тиллар билан иш кўришидир. Улар дунёning турли бурчакларидан турли тилларда келган хабарларни ўз она тилида қайта ишлаши ва уни ўз ҳалқига муфассал равишда тез ва аниқ етказиб беришлари керак бўлади. Бунинг устига яна радио, телевизор ва бошқа оммавий ахборот воситалари қўшиб тасаввур қилинадиган бўлинса, тилларнинг ўзаро алоқаси ва ҳамкорлигини мисли кўрилмаган даражада ошиб бораётганига ортиқча исбот керак бўлмай қолади.

Бу оммавий ахборот воситалари ҳам сўз ўзлашувини уч хил йўсинда: 1) ўзгаришсиз, яъни ўзича; 2) калькалаб яъни сўзма-сўз таржима қилиб; 3) ярим калькалаб яъни аралаштириб олиш асосида ҳалқа етказиб беради. Янги кириб келган сўзларнинг тақдири, яъни у тўла ўзлашадими ёки бир марта айтилиб, қўлланилиб кетаверадими, мазкур сўзнинг мавқеига, сўз қабул қилган ҳалқнинг ҳаётий ва қундалик эҳтиёжларини ифодалаш кучига ва қолаверса, ўзлаштирувчи тилнинг ички имкониятларига боғлик бўлади. Буларнинг таҳлили, аввало, сўз ўзлаштириш ва ўзлашмалар масаласига тўхталиб ўтишни тақозо қиласи. Сўз ўзлаштириш ва ўзлашмалар. «Ўзбек тили лексикологияси» китобида тилшунослардан Л.П.Крисин, Н.М.Шанский, А.В.Калинин, М.И.Фомина, В.В.Акуленко, Н.Шароповларнинг ишларига мурожаат қилингани ҳолда сўз ўзлаштириш таърифига қўйидагича фикр билдирилади: «Ўзлаштириш-бир тилдан иккинчи тилга маълум тил элементларининг кўчиши, киришdir».

Маълумки, чет тилидан кириб келган ҳар бир янги сўз табиий равишида ўша тилнинг фонетик, орфографик, грамматик элагидан ўтади. Бунда сўз ўқилиши, ёзилиши ва тузилиши бўйича ўзлашаётган тилнинг муайян қонуниятлари таъсири остида айрим ўзгаришларни бошидан кечиради, яъни чет сўзлар қабул қилувчи тилимизга маълум даражада бўйсунади. Улар бошқача ўқилиши, бошқача ёзилиши, айрим ҳарф ва товушларнинг тушириб қолдириш ёки ортиқча кўшиб айтилиши, хатто шакли ва қиёфасини бутунлай ўзгартириб юбориши мумкин.

Илмий-техник прогресс, ижтимоий ҳаётнинг кўпчилик соҳаларидағи янгиликлар мислсиз даражада янги сўз ва терминлар яратди, булар дунёning

қайси тилида ва қайси халқ томонидан яратилган бўлишига қарамай, ўзбек тили луғат таркибининг бойишига, унинг ривожланишига сезиларли даражада таъсир қилиб келяпти. Бу лексик бирликлардан ўзбек халқи ўзининг оғзаки ва ёзма нутқида фаол фойдаланиб келяпти.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. Тошкент, «Фан», 1987.
2. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбекистонда тилшуносликни ривожлантиришнинг актуал проблемалари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982.– №5.
3. Seiler A. Entwicklung der deutschen Kultur im Spiegel des deutschen Lehnwortes. 4. Teile, Halle/Saale, 1925, s.7.
4. Микитич Л.Д. Иноязычная лексика. Л., 1967; Крысин Л.П.О. причинах лексического заимствования.-«Русский язык в школе», 1965, №3.
5. Абдуллаев Ф.А. Рус тилининг ўзбек адабий тилига кўрсатган таъсир доираси ҳақида.-«Ўзбек тили ва адабиёти», 1980, 3-сон, 5-бет.

Research Science and Innovation House

ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ У СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Арабова Мухиба Базаровна
старший преподаватель кафедры Русского языка и литературы
Термезского государственного педагогического института

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается самостоятельная работа студентов как вид учебной деятельности, указываются отличия самостоятельной работы от других видов учебной деятельности, отмечаются проблемы организации самостоятельной работы при изучении русского языка как иностранного, возможности ее использования; приводятся примеры заданий для самостоятельной работы.

Ключевые слова: Самостоятельная работа, обучение иностранному языку, русский язык как иностранный, коммуникация, диалог.

RUS TILINI O'QITISHDA OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARI UCHUN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning mustaqil ishi o'quv faoliyatining bir turi sifatida muhokama qilinadi, mustaqil ish va o'quv faoliyatining boshqa turlari o'rtasidagi farqlar ko'rsatilgan, rus tilini chet tili sifatida o'rganishda mustaqil ishni tashkil etish muammolari, uning imkoniyatlari ko'rsatilgan. foydalanish; mustaqil ish uchun topshiriquqlarga misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ish, chet tilini o'rgatish, rus tili chet tili sifatida, muloqot, dialog.

Современное общество предъявляет высокие требования к уровню образованности, степени сформированности профессиональных навыков выпускника высшей школы. В связи с этим основной задачей вузов является оптимизация процесса обучения, отбор наиболее продуктивных методов, приемов для его осуществления, максимальное использование различных видов и форм работы на занятиях. Одним из таких видов является

самостоятельная работа студентов. В современной методической литературе существует множество различных определений самостоятельной работы, ее классификаций.

Довольно подробно они проанализированы в работе О.Б. Томашевской и Н.А. Малиновской. Беря во внимание различия в понимании и формулировке основных положений самостоятельной работы, условимся под самостоятельной работой понимать «выполнение заданий без непосредственного участия преподавателя» [1, с. 115]. Таким образом, самостоятельная работа, как отдельный вид учебной деятельности, может быть обязательной (задания, предусмотренные учебным планом) и факультативной (дополнительной: задания, выполняемые студентами по собственной инициативе). Отметим, что еще недавно образовательный стандарт обучения в вузах предусматривал внесение в учебный план специальности определенного количества часов на выполнение самостоятельной работы. Таким образом, этот вид учебной деятельности понимался как отдельный, значимый.

Современный стандарт уже предусматривает внесения в учебный план самостоятельной работы. Однако этот вид работы не перестает существовать и по-прежнему является важным в процессе обучения, потому как практика показывает, что знания, полученные в ходе самостоятельного поиска и изучения материала, являются наиболее прочными. Так как самостоятельная работа является одним из видов учебной деятельности, она должна планироваться педагогом и осуществляться под его контролем.

Всем известно, что при подготовке и организации самостоятельной деятельности студентов преподаватель может столкнуться с рядом трудностей. В связи с этим преподаватель должен учитывать общую учебную нагрузку учащихся, объективно оценивать степень важности «своего» предмета, что нередко бывает довольно сложно сделать.

Безусловно, существует и другая проблема – нежелание студента заниматься выполнением заданий сверх плана. В этом случае преподаватель должен заинтересовать и направить студента. Еще одним важным требованием к самостоятельной работе является ее «ритмичность»: во-первых, распределение объема самостоятельной работы должно быть равномерным в течение семестра, цикла изучаемой дисциплины, во-вторых, самостоятельная

работа не должна приводить к интенсификации учебного процесса. В этом случае возможна замена «рутинных» элементов обучения самостоятельными видами деятельности. Самостоятельная работа студентов, как отдельный вид учебной деятельности, во многом способствует развитию творческой деятельности, что, безусловно, повышает качество подготовки специалистов.

Поэтому часто задания для самостоятельной работы носят творческий характер. Например, при изучении темы «Актуальные проблемы обучения» возможно предложить студентам составить рассказ об актуальных проблемах своей страны при изучении русского языка как иностранного. Степень участия преподавателя в подготовке такого выступления может быть разной: при работе с сильными студентами функция педагога направляющая, при более слабой подготовке студентов это может быть и совместное составление плана, контроль на различных этапах выполнения самостоятельной работы.

При изучении темы «Описание внешности и характера человека» студенты могут выполнить следующее задание: найдите в литературе описание внешности, характера литературного героя. Другой вариант творческого задания – по описанию поступка человека опишите его характер. Такие знания способствуют не только развитию наблюдательности, но и поможет студентам-педагогам во время прохождения практики и непосредственного общения с учащимися.

Еще одной особенностью самостоятельной работы является то, что она может осуществляться на занятиях различного вида: на лекциях, практических занятиях, консультациях, при выполнении домашнего задания. В таком случае она является уже методом обучения. К сожалению, проблема организации самостоятельной работы при изучении русского языка ка иностранного языка в неязыковых вузах стоит довольно остро. Это объясняется тем, что при изучении языка основная работа происходит как раз как самостоятельная, ведь полагают, невозможно научить говорить на русском языке, этому можно только научиться. Действительно, выработка навыков говорения – это не просто повторение изученного, это общение с носителями языка, полноценное участие в коммуникации. Напомним, что в самостоятельной работе выделяется ряд этапов: копирование – репродуцирование – продуцирование – самостоятельная творческая деятельность. Эти этапы прослеживаются на протяжении всего цикла освоения иностранного языка: на начальном этапе это

в основном копирование: упражнения типа «делай как я» (обучение письму и чтению элементов языка). На этапе репродукции процесс копирования осложняется обобщением методов и приемов обучения, решением более сложных образовательных задач (например, составление слов из слогов, словосочетаний и предложений из слов и т.д.). На третьем уровне самостоятельной деятельности студенты могут применять имеющиеся знания для решения сложных ситуативных задач, контаминируя для этого имеющиеся знания и навыки (например, составление диалогов с учетом нескольких вариантов развития коммуникативного акта). На заключительном этапе самостоятельная работа представляет собой деятельность студента по решению неизвестных сложных задач (например, решение коммуникативных задач в процессе спонтанного общения с носителями языка). Именно на осуществление общения, на успешный коммуникативный акт направлено обучение иностранному языку вообще, и самостоятельная работа в частности. Таким образом, от прочих видов учебной деятельности самостоятельную работу студентов отличает особая форма подготовки и организации, степень вовлеченности всех участников этого процесса и более стойкий результат деятельности по приобретению знаний. Потому бесспорным представляется вывод, что самостоятельная работа студентов является неотъемлемой частью процесса обучения в вузе вообще, и педагогическом вузе в частности.

Самостоятельную работу на уроках русского языка в системе вуза правомерно рассматривать скорее, как средство вовлечения обучающихся в самостоятельную познавательную деятельность, средство ее логической и психологической организации. Основополагающим требованием общества к современному образованию является формирование личности, которая умела бы самостоятельно творчески решать научные, производственные, общественные задачи, критически мыслить, вырабатывать и защищать свою точку зрения, свои убеждения, систематически и непрерывно пополнять и обновлять свои знания путем самообразования, совершенствовать умения, творчески применять их в деятельности.

Существуют некоторые структурные принципы анализа значения, места и функции самостоятельной деятельности на занятиях русского языка. А именно:

- содержательный компонент: выделение познавательной задачи, цели учебной аудиторной или внеаудиторной самостоятельной деятельности;
- процессуальный компонент: подбор, определение, применение адекватных способов самостоятельных действий, ведущих к достижению результатов;
- мотивационный компонент: потребность в самостоятельном приобретении новых знаний.

Процесс самостоятельной деятельности обучающихся 1-го курса на занятиях русского языка представляется в виде триады: мотив — действие — результат. Под системой самостоятельных работ на занятии русского языка подразумевается совокупность взаимосвязанных, обуславливающих друг друга, логически вытекающих один из другого и подчиненных общим задачам видов работ. Естественно, всякая система должна удовлетворять определенным требованиям или принципам современного русского языкоznания. В противном случае это будет не система, а случайный набор фактов, объектов, предметов и явлений.

При построении системы самостоятельных работ по специальности в качестве основных дидактических требований выдвинуты следующие:

- система самостоятельных работ должна способствовать приобретению обучающимися глубоких и прочных знаний по основным разделам «Орфография», «Синтаксис», «Культура речи»; развитию у них познавательных способностей, формированию умения самостоятельно приобретать, расширять и углублять знания, применять их на практике;
- система должна удовлетворять основным принципам дидактики, прежде всего принципам доступности и систематичности, связи теории с практикой, сознательной и творческой активности, принципу обучения на высоком научном уровне;
- входящие в систему самостоятельные работы должны быть разнообразны по учебной цели и содержанию, чтобы обеспечить формирование у обучающихся разнообразных умений и навыков;
- последовательность выполнения аудиторных и внеаудиторных самостоятельных работ должна логически вытекать из предыдущих работ и готовить почву для выполнения последующих заданий. В этом случае между

отдельными работами обеспечиваются не только «ближние», но и «далние» связи.

В процессе обучения русскому языку применяются различные виды самостоятельной работы. Например, для обучающихся целесообразно на уроке русского языка применять упражнения, сконцентрированные на практически-прикладном аспекте процесса индивидуализированного обучения:

- задания, обеспечивающие формирование самоконтроля грамматических навыков;
- упражнения, направленные на само редактирование письменных речевых ошибок;
- самостоятельное составление обучающимися грамматических упражнений с последующим самоконтролем их выполнения;
- задания, построенные на материале текстов профессиональной направленности;
- упражнения на восстановление текста по приобретаемой обучающимися специальности.

Особое внимание преподаватель русского языка должен уделять систематическому усложнению заданий и упражнений. Усложнение заданий целесообразно проводить даже внутри одного вида работы. Так, например, чтобы сделать процесс контроля и закрепления знаний более эффективным на уроке, возможно применение трехвариантных тестовых заданий, в основе которых также лежит принцип постепенного усложнения материала. Например, задания первого и второго вариантов — среднего уровня сложности, а задания третьего варианта — повышенной сложности. Трехвариантные тестовые задания предлагаются после каждого изученного раздела языка. Работа с тестовыми заданиями дает возможность выявить пробелы обучающихся, требующие устранения.

Значительное место в процессе контроля и закрепления знаний, обучающихся отводится проверочным заданиям с профессиональной направленностью, с которыми можно работать на любой стадии занятия. Они позволяют повторить ранее изученный материал не только по русскому языку, но и спец предмету. По виду, форме и содержанию проверочные задания могут

быть репродуктивными (воспроизводящими), сравнительными, логически-поисковыми, ассоциативно-сравнительными, обобщающими.

Использование текстов профессиональной направленности является неотъемлемой частью изучения не только русского языка, но и повторения материала по спец предмету. Например, используются профессиональные словарно-орфографические диктанты, где повторяют основные правила орфографии, запоминают правильное написание не только профессиональных слов, но и текстов профессиональной направленности.

Продуктивным самообразованием в области русского языка является исследовательская работа обучающихся как аудиторная, так и внеаудиторная.

При исследовательском подходе обучающийся получает знания о предметах и явлениях, устанавливает пути их изучения в ходе самостоятельного исследования. При использовании исследовательского подхода деятельность обучающихся направлена на творческое усвоение научных знаний и овладение методами научного познания. Тематика и характер исследовательских работ, обучающихся различны, например: «Особенности русских и узбекских пословиц и поговорок», «Секреты орфографии», «Азбука профессии», «У истоков профессии» и др. А использование в домашней исследовательской работе интернет-ресурсов позволяет преподавателю реализовать выполнение самостоятельных заданий на 30%. Исследовательская работа имеет огромное значение, так как вырабатывает умения и навыки самостоятельной работы студента.

Самостоятельная работа в процессе обучения русскому языку должна опираться на взаимосвязь предмета с профессией. Самостоятельная работа с учебником, логический анализ текста, членение его на части, формулирование заголовков частей, составление простых и сложных планов, подготовка устных и письменных сообщений, конспектирование статей, задания с профессиональной направленностью — все эти виды работ, способствующие развитию самостоятельности обучающихся, вооружают их навыками, необходимыми в жизни.

Самостоятельная работа будет успешна тогда, когда обучающиеся очень хорошо понимают, что нужно делать, как это следует выполнять и зачем. Необходимым условием также является и видимый результат их действий — это мониторинг, который является основой для управления



процессом повышения качества образованности по русскому языку при проведении самостоятельных работ. Таким образом, в процессе изучения русского языка в вузе студенты учатся наблюдать языковые явления, сравнивать и сопоставлять их, анализировать, обобщать, выделять главное, рассуждать, делать выводы, словом, овладевают такими логическими операциями, которые необходимы для самостоятельного решения вопросов, выдвигаемых жизнью.

Самостоятельная работа на занятиях русского языка в вузе при умелой ее организации становится прекрасным средством воспитания самостоятельного мышления, готовности к принятию самостоятельных решений, активной жизненной позиции будущего высококвалифицированного специалиста.

Список использованной литературы.

1. Гагарин А. В. Психология и педагогика высшей школы. Учебное пособие. – М., 2010. – 240 с.
2. Зеер Э. Ф. Психология профессионального развития: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Э. Ф. Зеер. — М.: Издательский центр «Академия», 2007.
3. Ричи Ш., Мартин П. Управление мотивацией. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.
4. Арабова М.Б. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков: статья Инновационные и реативные и методы обучения русскому языку как иностранному. 2023. Стр.379-388

Research Science and Innovation House

**MA’MURIY SUDLAR TOMONIDAN KO‘RIB CHIQILADIGAN
MANSABDOR SHAXSLARNING QARORLARI VA
HARAKATLARI(HARAKATSIZLIGI) YUZASIDAN NIZOLARNING
NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI: MA’MURIY ORGAN, MA’MURIY
QAROR**

OBLOKULOV Munis Musinovich
Sudýalar olıy maktabı tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilik normalari assosida ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan mansabдор shaxslarning qarorlari va harakat(harakatlsizlik)lari yuzasidan nizolarning umumiy jihatlari, boshqa ish yuritish bilan bo‘lgan farqli va o‘xshash jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari orqali mazkur turdagи nizolarni hal qilishda eng muhim sanalgan ma’muriy organ, ma’muriy hujjat hamda ma’muriy xattiharakatlar tushunchasining huquqiy tahlillari amalga oshiriladi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar hamda sud amaliyotidan keyslarni tahlil qilish orqali mavjud muammolar va ularga muqolib yechimlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: ma’muriy yustitsiya, ma’muriy nizo, ma’muriy organ, ma’muriy hujjat.

ОБЛОКУЛОВ Мунис Мусинович
Слушатель Высшей школы судей

**ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ СПОРОВ ПО
РЕШЕНИЯМ И ДЕЙСТВИЯМ (БЕЗДЕЙСТВИЮ) ДОЛЖНОСТНЫХ
ЛИЦ, РАССМОТРЕННЫХ АДМИНИСТРАТИВНЫМИ СУДАМИ:
АДМИНИСТРАТИВНЫЙ ОРГАН, АДМИНИСТРАТИВНОЕ
РЕШЕНИЕ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются общие аспекты споров о решениях и действиях (бездействии) должностных лиц, рассматриваемых административными судами на основании правовых норм Республики Узбекистан о проведении административного судопроизводства, с отличиями и сходствами других производств. Также проводится правовой анализ понятия административного органа, распорядительного документа и административного поведения, которые считаются наиболее важными при разрешении данного вида споров посредством Конституции и других правовых документов. Также существующие проблемы и варианты их решения представлены посредством анализа статистических данных и случаев из судебной практики.

Ключевые слова: административная юстиция, административный спор, административный орган, административный документ.

OBLOKULOV Munis
Student of the Supreme School of Judges

THEORETICAL-LEGAL ASPECTS OF DISPUTES OVER THE DECISIONS AND ACTIONS (INACTION) OF OFFICIALS CONSIDERED BY THE ADMINISTRATIVE COURTS: ADMINISTRATIVE AUTHORITY, ADMINISTRATIVE DECISION

ANNOATION

In this article, general aspects of disputes regarding the decisions and actions (inactions) of officials considered by administrative courts based on the legal norms of the Republic of Uzbekistan on the conduct of administrative court proceedings, with other proceedings differences and similarities are analyzed. Also, the legal analysis of the concept of the administrative body, administrative document and administrative behavior, which are considered the most important in resolving this type of disputes through the Constitution and other legal documents, is carried out. Also, the existing problems and their alternative solutions are presented through the analysis of statistical data and cases from judicial practice.

Keywords: administrative justice, administrative dispute, administrative body, administrative document.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsyasining muqaddimisida ifodalanganidek, O‘zbekiston Respublikasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”gi farmoni [1] bilan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma’muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish masalasida bir qator islohotlar belgilangan. Shu bilan birga, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsyasining 2-moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul” ekanligi alohida norma sifatida mustahkamlan. Undan tashqari, Konstitutisyamizning 130-moddasida ham O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi va O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiysi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur normalardan anglashiladiki, hozirda faoliyat yuritayotgan ma’muriy sudlar odil sudlovni amalga oshiruvchi vakolatli organ sanalib, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarini hal qiluvchi asosiy “adolat vositasi” sanaladi [2].

Yana bir jihatni borki, uni ham inobatga olish zarur. Jumladan, hozirda ma’muriy sudlarda amaldagi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikka ko‘ra, 8 ta toifadagi ishlar ko‘rib chiqib, aynan shu kodeksning 2-moddasida ifodalangan vazifalar bajarilib kelinmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraladigan bo‘lsa, 2024 yilning may oyi ohriga qadar ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilib, public.sud.uz saytiga joylangan sud ishlarining umumiyligi soni qariyb 100 000 mingdan ortiq bo‘lib, mazkur sonning deyarli 70 foizini aynan ma’muriy organlar, ular mansabdor shaxslarining qarorlar va harakat(harakatsizlik)lari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi nizolar tashkil etmoqda. Xulosa qilish mumkinki, kundan kunga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ma’muriy

organlar qarorlari, xatti-harakat-harakatsizliklari yuzasidan nizolarning oshib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunday ekan avvalo, mazkur toifadagi nizolarning muhim elementlari nimalardan iborat ekanligini, nizolarning tarkibiy qismini hamda nizolarni taalluqligini belgilab beruvchi nazariy xususiyatlarini tahlil qilish dolzARB sanaladi. Mazkur maqola orqali esa aynan ushbu toifadagi nizolarning ayrim o‘ziga xos jihatlari nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ma’muriy sudlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy protsessual hujjat sanalgan O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksiga ko‘ra sudga taalluqli ishlarning toifalari 27-moddada berilgan. Lekin mazkur moddada “mahalliy davlat hokimiyati organlarining, davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning (bundan buyon matnda ma’muriy organlar deb yuritiladi), fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarining huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi normalar ma’muriy sudlar tomonidan hal etilishi belgilab qo‘yilganligiga qaramasdan sudlar tomonidan muayyan kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Ushbu muammolar esa, ushbu nizolarda ma’muriy hujjat va ma’muriy xatti-harakatlarning mazmuni va mohiyati, shakli nuqtai nazaridan sanaladi. Shunday ekan, o‘rinli savol tug‘iladi: ma’muriy organ mansabdor shaxsining qarori deyilganda, ma’muriy organ deyilganda qanday organlari tushuniladi, ma’muriy hujjat deyilganda qaysi hujjatlar tushuniladi, shuningdek, ma’muriy organ mansabdor shaxsning xatti-harakati(harakatsizligi) nima ekanligi muhimdir.

Ma’muriy organlar ma’muriy huquqning asosiy instituti sifatida nizolarni ham qilish jarayonida, shuningdek umuman olganda, ma’muriy-huquqiy faoliyatda muhim o‘rin tutadi. Yuridik fanlar doktoti J.Nematovning ta’kidlashicha [3], ma’muriy huquqning shakllanishida ham ma’muriy organlar birlamchi omil sifatida o‘rin tutgan. Shuningdek, yana boshqa huquqshunosning fikrlariga ko‘ra, ma’muriy organlar davlat hokimiyati faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ikkita muhim tasniflash usuliga ko‘ra guhlanadi: m’muriy-huquqiy faoliyat amalga oshirishiga ko‘ra hamda vazifa-taqsimot vakolatni amalga oshirishiga ko‘ra [4].

Milliy ma’muriy-huquqiy adabiyotlarda “ma’muriy organ” atamasi yaqin vaqtgacha ishlatilmagan, garchi boshqa xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan

Germaniya, Frantsiya va Avstriyada ma'muriy organ tushunchasi uzoq vaqt dan beri ma'muriy huquq fanining ajralmas qismi sifatida tan olingen bo'lishiga qaramasdan. Qoida tariqasida, ma'muriy huquq fanida davlat boshqaruvini amalga oshirishga vakolatli subyektlar davlat boshqaruvi va ijro etuvchi hokimiyat organlari deb ataladi [5]. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa davlat organlari o'rtasidagi farq Qonunchilik normalarida aniq ifodalanmagan. Shubhasiz, davlat boshqaruvi faoliyati nafaqat amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tizimga kiritilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari, balki boshqa davlat organlari va hatto davlat muassasalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Biroq, bunday davlat organlari va muassasalari tizimi, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari, vakolatlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlari tartibi hozirgi kungacha amaldagi qonun hujjatlarida belgilanmagan.

Ilmiy-nazariy manbalarga to'xtaladigan bo'lsak, tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'muriy organ tushunchasi O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida” gi Qonuni [6] qabul qilinishi bilan kiritilgan.” Ushbu qonunning qabul qilinishi bilan yuqori hokimiyat va ma'muriy sudlar endi ma'muriy organlarning ma'muriy hujjatlariga nafaqat moddiy qoidalarga, balki protsessual qoidalarga ham asoslangan huquqiy baho berishlari mumkin bo'lgandi. Darhaqiqat, O'zbekistonda ma'muriy organlar konsepsiysi “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida” gi Qonun qabul qilinishi bilan paydo bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, qonunning 4-moddasida ma'muriy organ tushunchasi belgilangan. Ushbu ta'rifga ko'ra, ma'muriy organ deganda ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolatiga ega bo'lgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar tushuniladi.

Shuningdek, ma'muriy organ tushunchasi 24-sonli Oliy sud Plenumining qarorida ham keltirib o'tilgan. Ma'muriy organlar deganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-sonli Farmoni bilan [7], shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.12.2019 yildagi 24-son “Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorida [8] ham respublika davlat

boshqaruvi organlari (vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar, inspeksiyalar) va ularning hududiy organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, ma’muriy-boshqaruv vakolati berilgan boshqa organlar, tashkilotlar va maxsus tashkil etilgan komissiyalar tushunilishi qayd etilgan.

Demak xulosa qilish mumkin bo‘ladiki, ma’muriy sudlar tomonidan ko‘riladigan, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidgai kodeksning 27-moddasi 1-qismi, ikkinchi bandida ifodalangan “Ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan mansabdar shaxslarning qarorlari va harakatlari(harakatsizligi) yuzasidan nizolarning” nazariy-huquqiy jihatlarini tahlil qilishda ma’muriy organ tushunchasining ahamiyati hamda mazmuni muhim sanaladi. Shundan kelib chiqadiki, ma’muriy organ bu davlatning muayyan funksiya va vazifalarini amalga oshirish maqsadida tuzilgan alohida tuzilma bo‘lib, u davlat boshqaruvining ajralmas bo‘lagi sifatida xususiy shaxsar bilan davlat o‘rtasidagi ma’muriy-huquqiy munosabatlarni hal etishga yakolat berilgan organlar va tuzilmalardir [11].

Tahlil qilinayotgan nizoning mazmunida ma’muriy hujjat(qaror) eng muhim o‘rin tutadi deyish mumkin. Ma’muriy hujjatning ilmiy nazariy jiohatlari, tushunchasi, tasniflanishi, turlari, shuningdek boshqa qator hujjatlardan farqli sanalgan jihatlari haqidagi nazariy manbalar tahlil qilinganda shuni ko‘rish mumkinki, ma’muriy hujjat(qaror) deyilganda davlat hokimiyati vakolatiga ega subyekt tomonidan qabul qilinadigan, huquqiy oqibat keltirib chiqaradigan rasmiy hujjat tushunilishini qayd etish joiz. Biroq mazkur xususiyatlar ma’muriy qarorning to‘liq mazmunini oolib berolmaydi. Yana bir jihatni yodda tutish kerakki, ma’muriy hujjat(qaror) ning xususiyatlaridan biri, ayni paytda eng muhim xususiyasidan bir bu ma’muriy hujjat(qaror) faqat ma’muriy organ tomonidan qabul qilinishi sanaladi. Shundan ham ma’lum bo‘ladiki, ma’muriy sudlarda ko‘riladigan ushbu toifadagi nizolarning tub xususiyati bunday nizolarda asosiy ishitirokchi ma’muriy organ sanaladi. Demak, endilikda mansabdar shaxslarning qarorlari va harakatlari(harakatsizligi) yuzasidan nizolarni yuzaga keltirish asosi sanalgan qaror haqida tahlilni davom ettiramiz.

Huquqshunoslar K.Goziyev hamda A.Axrorovlarni tahlillariga ko‘ra “ma’muriy hujjat bu ma’muriy organlarning ommaviy-huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o‘zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jimoniy va yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilari ko‘ra ajratilgan

shaxsalr guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta’sir chorasi” [9] sifatida belgilanagan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu ta’rif amaldagi Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunda ifodalangan tushuncha bilan bir xillik kasb etmoqda.

Shuningdek, huquqshunos, J.Nematovning qarashlariga ko‘ra ma’muriy hujjat(qaror) ning asosan MDH davlatlarida turlicha nomlar bilan atalishini: “ma’muriy akt, davlat ma’muriyatining aktlari, boshqaruvning huquqiy aktlari, ma’muriy hujjat” [10] deb nomalanishiga alohida e’tibor beradi. Lekin bunday nomlanish ma’muriy hujjatlarning maqsadi hamda ularning davlat hokimiyati vakolatini amalga oshirishida deyarli ta’sir qilmasligini alohida takidlash zarur.

Qonunchilik hujjatlariga ko‘ra, ma’muriy organlar va ular mansabdon shaxslarining qarorlari deyilganda rasmiy ravishda ifodalananadigan, bajarilishi majburiy bo‘lgan “ma’muriy hujjat”ni tushunish maqsadga muvofiq. Xususan, Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasiga ko‘ra ma’muriy hujjat deyilganda, ” ma’muriy hujjat — ma’muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o‘zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko‘ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta’sir chorasi” tushunilishi belgilangan. Mazkur tushunchaga berilgan qonunchilikdagi ta’rifda uning 5 ta asosiy xususiyati-belgisi borligi ifodalangan deyish mumkin. Mazkur belgilar quyidagilar:

1. Ma’muriy hujjatni ma’muriy organ qabul qiladi (aniqroq aytganda ma’muriy hujjat faqat ma’muriy organ bo‘lgan subyektlar tomonidan qabul qilinadi. Va ma’muriy organlar sifatida-davlat boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va maxsus tashkil etilgan komissiyalar);
2. Ma’muriy hujjat davlat huquqiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, vakolatli organning muayyan funksiyasini amalga oshish hisoblanadi (ma’muriy hujjat bir tomonidan davlatning irodasini bildiruvchi organlari va boshqa tomonidan davlatning muayyan funktsiyalari va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan xususiy sub’ektlar o‘rtasidagi faoliyat natijasidir);
3. Ma’muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi, o‘zgartiradi yoki to‘xtatadi (huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida ommaviy



huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarishi, mavjudlarini o‘zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin);

4. Ma’muriy hujjat muayyan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoki bir nechta shaxslardan tashkil topgan jamiyat uchun mo‘ljallangan (mazkur xususiyar individuallik belgisi sanaladi, ya’ni u alohida shaxslarga qaratilgan yoki bir nechta shaxslardan tashkil topgan jamoaga ham yo‘naltirishi mumkin);

5. Ma’muriy hujjat muayyan huquqiy oqibatlarga olib kelishi (ma’muriy hujjat natijasida ma’lum bir shaxs yoki shaxslar jamoasining muayyan huquqlari vujudga keladi, o‘zgaradi yoki bekor qilinadi. ushbu talabni bajarmaslik huquqiy oqibatlarga olib keladi).

Ma’muriy organlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjalartining eng asosiysi sanalgan “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra ma’muriy organlarning, ular mansabdor shaxslarining qarorlari yuqorida ko‘rsatilgan belgilarga ega bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, ma’muriy qarorlariga tuyyan talablar ham qo‘yilganligini inobatga olish zarur. Jumladan “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 53-moddasida ko‘rsatilgan quyidagi jihatlar ham albatta bo‘lishi kerak: Ma’muriy hujjat qonuniy, asoslangan, adolatli, aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Ma’muriy hujjatda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: ma’muriy hujjatning nomi va u qabul qilingan sana; ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili); ma’muriy ish yuritish ishtirokchilari to‘g‘risidagi axborot; ma’muriy hujjat orqali hal qilinadigan masalaning tavsifi (tavsif qismi); ma’muriy hujjatning asosi (asoslantiruvchi qismi); qabul qilingan qaror bayoni (xulosa qismi); ma’muriy hujjat ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi; ma’muriy organning ma’muriy hujjatni qabul qilgan mansabdor shaxsining (kollegial organ a’zolarining) lavozimi, ismi va familiyasi. Agar mana shu tallablar bajarilmasa, ma’muriy organlar mansabdor shaxslarining qarorlarini o‘zgartirish yoki bekor qilish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari(harakatsizligi) yuzasidan nizolarning nazariy-huquqiy jihatlarini tahlil qilishda yana bir muhim jihatni albatta, inobatga olish zarur. Bu jihar ma’muriy organlar mansabdor shaxslarining qarorlarini qabul qilinish tartibi sanaladi. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 51-moddasida:” Ma’muriy organning mansabdor shaxsi yoki kollegial organ ma’muriy ishni

majlisda ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ma’muriy hujjat qabul qiladi”- deb belgilangan. Bu esa mansabdor shaxs tomonidan qaror qabul qilish jarayoni ham kollegial, ham individual tarzda amalga oshirilishi mumkinligini anglatadi. Ma’muriy qarorni qabul qilish boshqa organlar va mansabdor shaxslarning ko‘rib chiqish natijalari asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, bunday ko‘rib chiqish “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.12.2019 yildagi 24-son “Ma’muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qaroriga [12] ko‘ra ma’muriy organlar va ma’muriy organlar mansabdor shaxslarining qarorlari deganda, ma’muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yakka yoki kollegial tarzda qabul qilingan va muayyan huquqiy oqibat tug‘diruvchi hujjat tushunilishi belgilangan. Ko‘rinib turibdiki mazkur normada ham ma’muriy organ mansabdor shaxslarining qarorlari yakka yoki kollegial tarzda qabul qilinishi mumkin ekan.

Yana bir jihatni nazarda tutish lozimki, qarorlar belgilangan shaklda (masalan, joylardagi ijro hokimiyyati organlari qarorlari) yoki erkin tarzda (masalan, fuqaroning murojaatini qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risidagi yozma xabar) qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, Ma’muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining harakatlari deganda, qaror shaklida ifodalanmagan bo‘lsa ham, biroq manfaatdor shaxslar huquqlari va erkinliklarini buzilishiga olib kelgan yoki ularning huquqlari va erkinliklari amalga oshirilishiga to‘sinqilik qilgan yuridik ahamiyatga ega farmoyishlar tushunilishi kerakligi Oliy Sud tomonidan tushuntirilgan.

Biroq bir masala borki, uni tahlil qilish kerak: qonunchilikha ma’muriy organlar, ma’muriy organlar mansabdor shaxslarining qarorlari, xatti-harakatlari haqida Normativ-huquqiy hujjat darajasida tartibga solish masalasi mavjud emasligini ko‘rshimiz mumkin. Undan tashqari, qonunchiligidan ma’muriy hujjat tushunchasi ifodalangan, uning ta’rifi berilgan bo‘lib, mazkur ta’rifga ko‘ra ma’muriy hujjat rasmiy hujjat ko‘rinib, odatda yozma tarzda qabul qilinadi. Lekin, amaldagi qonunchiligidan, odatda shaharsozlik hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilikda dalolarnomalar, xulosalarni ham ma’muriy hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini ko‘rmoqdamiz.



Huquqshunos Y.Saidazimov tomonidan ham qonunchilikda mavjud ma'muriy hujjatlar hamda qarorlarning tushunilishi qiyinchiliklar kelirib chiqarishi ta'kidlanib, xorijiy davlatlardan Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va boshqa bir nechta davlatlarda mansabdar shaxslarning qarorlarini(xatti-harakatlarini) bir xil nomda ma'muriy akt degan nom bilan uning tushunilishini osonlashtirish kerak deydi. Ko'rinib turibdiki, qonunchiligidan mansabdar shaxslarning qarorlari, harakat (harakatsizliklari) haqidagi yagona yondashuvning mavjud emasligi bugungi kunda yana bir muhim muammolardan biri sanaladi. shuningdek, bunday kamchiliklar sudlar tomonidan ham ishlarni ko'rib chiqishda muayyan tushunmovchiliklarning kelib chiqishiga olib kelmoqda. Bunday vaqtida esa, ma'muriy hujjatlar, ma'muriy organlar mansabdar shaxsalarining qarorlari, harakatlari, harakatsizligi bilan bog'liq normalarni bir xillashtirish, joiz bo'lsa, kodifikatsiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan mansabdar shaxslarning qarorlari va harakatlari(harakatsizligi) yuzasidan nizolarning nazariy-huquqiy jihatlari:ma'muriy organ, ma'muriy qarorlarning tahliliy hamda qiyosiy mezonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ma'muriy sudlar tomonidan ushbu nizolarning ko'rinishida fundamental asosning mavjudligi sudlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning barqarorligini va to'g'ri asoslantirilgagini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sodn “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>;
2. Сафарова III. International standards concerning education in the field of human rights and their significance in the contemporary period // Юридик фанлар аҳборотномаси. – 2019. – №. 1. – С. 59-63.
3. J.Nematov. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma 1-qism. TDYU nashriyoti. 2023y.50-bet.
4. Ichihashi Katsuya hen. “Akchuara Gyouseihou”, Houritsubunkasha, 2010, 48-49-betlar.
5. <https://be5.biz/pravo/a035/6.html>;



6. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida” gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-3492199>;
7. 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli Farmon // <https://lex.uz/uz/docs/-6324756>
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.12.2019 yildagi 24-son// <https://lex.uz/ru/docs/-4711311>;
9. K.Goziyev, A.Axrarov, ”Ma’muriy huquq” o‘quv qo’llanma. Toshkent, 2023, TDYU nashriyoti. 65-bet. Onlayn havola: <https://drive.google.com/file/d/1GYc1duY6ObqfEMuQy534oL9pJI1C06CJ/view>
- 10.J.Nematov, Ma’muriy huquq”, o‘quv qo’llanma(I qism). Toshkent, 2023, TDYU nashriyoti, 223-bet. Onlayn havola: <https://drive.google.com/file/d/1BQ8E6uP2lHCpuRBhvNcJMhxM6A8GoiD/view>
- 11.Рахманов Ш.Н. Международные договорно-правовые источники дипломатического права международных организаций и их роль в защите персонала международных организаций. Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили – Uzbek law review – Обзор законодательства Узбекистана. Тошкент, 2018, № 4. С. 64-71 // https://tsul.uz/files/pdf/usb_qonunchiligi_tahlili/2018_4_last.pdf.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.12.2019 yildagi 24-son//<https://lex.uz/ru/docs/-4711311>.

Research Science and Innovation House

ЮКСАК ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ – САМАРАЛИ ХУҚУҚИЙ ТАРБИЯ МАҲСУЛИ

Бердимуродова Мухлиса Сарваржон қизи
Тошкент давлат педагогика университети
Тарих факультети талабаси

Аннотация: Мақолада мамлакатимизда ижтимоий-хуқуқий давлатни барпо этиш шароитида фуқароларда юксак хуқуқий маданиятни шакллантиришда хуқуқий тарбиянинг аҳамияти, унинг тушунчаси, моҳияти, функциялари ва хусусиятлари илмий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: хуқуқий маданият, хуқуқий тарбия, хуқуқий тарбиянинг функциялари, унинг инновацион шакл ва усуллари, шахснинг хуқуқий ижтимоийлашуви.

ВЫСОКАЯ ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА - ЭФФЕКТИВНОЕ ЮРИДИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Бердимуродова Мухлиса Сарваржон қизи,
Ташкентский государственный педагогический университет
Студент исторического факультета

Аннотация: В статье представлен научный анализ значения юридического образования, его понятия, сущности, функций и особенностей в формировании высокой правовой культуры граждан в условиях становления социально-правового государства в нашей стране.

Ключевые слова: правовая культура, юридическое образование, функции правового воспитания, его инновационные формы и методы, правовая социализация личности.



HIGH LEGAL CULTURE - EFFECTIVE LEGAL EDUCATION

Berdimuradova Mukhlisa Sarvarjon kizi,

Tashkent state pedagogical university

Student of the Faculty of History

Annotation: The article presents a scientific analysis of the importance of legal education, its concepts, essence, functions and features in the formation of a high legal culture of citizens in the context of the formation of a socio-legal state in our country.

Keywords: legal culture, legal education, functions of legal education, its innovative forms and methods, legal socialization of the individual.

Ўзбекистон Президентининг 2019 йил 9 январда қабул қилинган “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони билан тасдиқланган Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш Концепциясида ҳуқуқий тарбияни ташкил этишининг замонавий инновацион усул ва шакллар жорий этилишига алоҳида урғу берилган.

